



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 7 (9)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**7**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**UDK: 818.213**

**BBK: 84.61**

**B- 29**

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangi iqtisodiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarash demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyev

Все свои силы и потенциал мы направим на достижение нашей общей великой цели - построение нового Узбекистана. Новый Узбекистан – это, прежде всего, новые экономические отношения, новое экономическое мировоззрение.

Президент Республики Узбекистан  
Шавкат Мирзиёев

© Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti

© «KLASSIC PRINT» nashriyoti

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil**

Ilmiy-uslubiy jurnal 1.09.2022-yildan boshlab chiqa boshlagan, yiliga 6 marta chop etiladi.

Ta’sischi:

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

|                           |                         |
|---------------------------|-------------------------|
| Bosh muharrir             | i.f.d., prof. A.Qodirov |
| Bosh muharrir o‘rinbosari | DSc, prof. X.X.Rejapov  |
| Mas’ul kotib              | DSc. K.A.Muxitdinova    |

Jamoatchilik kengashi:

Prof. I.U.Madjidov (rais), prof. Sh.Toshmatov, PhD E.Yodgorov, i.f.n., dots. A.T.Umarov, i.f.d., prof. A.Qodirov

Tahrir hay’ati:

Prof. Sh.O.Toshmatov, prof. A.Qodirov, prof. A.V.Vaxabov, prof. F.T.Egamberdiyev, prof. Sh.G.Yo‘ldashev, prof. A.M.Sodiqov, prof. Q.Muftaydinov, prof. K.Ubaydullayev, prof. Q.K.Mambetjanov, prof. I.Y.Umarov, prof. X.X.Rejapov, prof. O.X.Maxmudov, i.f.d. A.T.Umarov, i.f.d. B.B.Baxtiyorov, i.f.d. K.A.Muxitdinova, prof. A.M. Tursunov, prof. A.Boboyev, dots. Sh.S.Nasretdinova, dots. B.B.Mullaboyev, dots. Z.Jumaqulov, dots. N.A.Artiqov, dots. D.I.Ro‘ziyeva, dots. A.Ambartsumyan, dots. R.Abdullayeva, dots. N.A.Kudratxodjayeva, dots. A.Q.Isxakov, dots. M.I.Saidkarimova, dots. D.M.Yakubova, dots. N. Umarova

Tahririyat manzili:

10095, Toshkent - 95, Universitet ko‘chasi, 4. tel: (+99899) 821-20-72

Журнал сайтлари: **journal.econuu.uz**

**journals.nuu.uz/index.php/economyuzb/index**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi tomonidan 17.07.2022-yilda № 4715-son bilan ro‘yxatga olingan.

Buyurtma: ISBN 978-9943-5256-3-4

Jurnal OAK ro‘yxatiga 2023 yil 1 iyuldan kiritilgan (OAK rayosat qarori 04.07.2023 yil № 340/5).

Jurnalda ma’lumotlar bosilganda dalillar ko‘rsatilishi shart. Jurnalda chop etilgan ma’lumot va keltirilgan dalilarning aniqligi uchun muallif javobgardir.

**MUNDARIJA**

|                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Umarov A.T.</b> Mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning konseptual asoslari.....                                             | 7   |
| <b>Хошимов П.З., Эгамназарова Г.Ш.</b> Ўзбекистонда атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий асослари.....                                        | 13  |
| <b>Raxmatova F.Y.</b> To‘qimachilik sanoatida yashil investitsiyalar va resurs samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....                                     | 19  |
| <b>Ergasheva A.F.</b> Milliy hunarmandchilik brendlarini ilgari surishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....                                      | 22  |
| <b>Rahimova N.A.</b> Inson resurslarini boshqarishda Big Data va HR analitikaning samaradorlikka ta’siri.....                                                  | 25  |
| <b>Эгамназарова Г.Ш.</b> Аҳоли ўсишининг CO <sub>2</sub> эмиссияси, ресурслар истеъмоли ва уларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири.....                       | 28  |
| <b>Хасанов У.Ю.</b> Кибержиноят рискларини бошқариш амалиётининг концептуал асосларининг ривожланиши.....                                                      | 33  |
| <b>Алимухамедов Ш.Р.</b> Божхона тўловларини ундиришда божхона қийматини аниқлашнинг ўрни.....                                                                 | 38  |
| <b>Сапаров И.Х.</b> Маҳаллий бюджетлар харажатлари ижросининг самарадорлигини ошириш масалалари (Тошкент вилояти мисолида).....                                | 43  |
| <b>Shaydulov Sh.Sh.</b> Surxondaryo viloyatida elektron tijorat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili                                                  | 57  |
| <b>Abdulkakimov Z.T.</b> Dunyo zargarlik sanoatini rivojlanishining bugunki kundagi xolati.....                                                                | 60  |
| <b>Ibragimova G.S.</b> Ta’lim sifatini oshirishda boshqaruv tizimining iqtisodiy samaradorligini rivojlantirish.....                                           | 65  |
| <b>Davronova N., Abdulkakimov Z.T.</b> Kaydzen konsepsiyasining nazariy va uslubiy asoslari.....                                                               | 69  |
| <b>Isafov A.T.</b> Fermer xo‘jaliklarida agrosurslardan foydalanish samaradorligini oshirish istiqbollari prognozlash.....                                     | 73  |
| <b>Berdimurodov U.S.</b> Agrosanoat majmuasida klaster tizimini tashkil etish va rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari.....                                | 76  |
| <b>Хусанбоева Т.М.</b> Цели и задачи преподавания экономических дисциплин в системе высшего образования.....                                                   | 82  |
| <b>Alimov N.H.</b> Global adolat kodeksi va global adolat reytingini (indeksini) joriy qilish yo‘llari.....                                                    | 86  |
| <b>Umurzaqova I.S.</b> “Investitsiyalar taqsimoti va samaradorlik paradoksi: O‘zbekiston tarmoqlari misolida stoxastik chegara (SFA) va kvadrant tahlili”..... | 92  |
| <b>Safarova Y.A.</b> Iqtisodiy o‘shishning infratuzilmaviy omillarining ta’sir mexanizmlarini baholash....                                                     | 101 |
| <b>Eshqulova N.N.</b> Mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda eksport va importning geografik diversifikatsiyasining ahamiyati.....                | 108 |
| <b>Nabiyev A.K.</b> O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini shakllantirish va monopoliyaga qarshi qonunchilik.....                                                | 115 |
| <b>Ketmanov A.M.</b> Kichik biznesni moliyaviy resurslarni shakllantirish yo‘nalishlari.....                                                                   | 121 |
| <b>Мурадов Б.А.</b> Жаҳон мамлакатларида темир йўл транспортини инновацион ривожлантириш тажрибаси.....                                                        | 125 |
| <b>Jo‘rayeva M.Z.</b> O‘zbekiston mintaqalarida yashil investitsiyalar va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlili.....                             | 131 |
| <b>Qodirov H.M.</b> Adir hududi ekotizimlarini boshqarishda intensiv sug‘orish tizimini joriy etish.....                                                       | 136 |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil**

|                                                                                                                                                                                       |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Jo‘rayeva M.A.</b> Kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalarni raqobatbardoshlik transmissiya mexanizmi va uni baholash uslubiyoti (Andijon viloyati misolida)..... | 143 |
| <b>Muhsinova F.A.</b> Raqamli texnologiyalarning inson resurslarini boshqarishdagi o‘rni va innovatsion yondashuvning nazariy jihatlar.....                                           | 151 |
| <b>Kamoldinova N.A.</b> Kichik biznesda ayollar bandligining ahamiyati.....                                                                                                           | 157 |
| <b>Xamrayeva S.I.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdning transformatsiyasi va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.....                                                       | 161 |
| <b>Dadaboyeva M.M.</b> Andijon viloyatida kichik biznes eksportining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari.....                                                                | 166 |
| <b>Xakkulov A.U.</b> Tijorat banklarida foiz risklarini baholashning nazariy va metodologik asoslari.....                                                                             | 171 |
| <b>Allasheva N.A.</b> Zamonaviy globallashuv sharoitida moliyaviy risklar va ularni boshqarish strategiyalari.....                                                                    | 179 |
| <b>Atoyev N.R.</b> Yangi industrial mamalakatlar: Chili va Singapur modeli tahlili va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....                                                | 182 |
| <b>Yangiboev R.B.</b> O‘zbekiston bank tizimi likvidligiga ta’sir etuvchi omillarining empirik tahlili....                                                                            | 190 |
| <b>Nazarov J.R.</b> Yashil iqtisodiyot: O‘zbekistonning barqaror kelajagiga yo‘l.....                                                                                                 | 198 |
| <b>Qo‘zieva N.N.</b> Tijorat banklarida mijozlar bazasini shakllantirishning nazariy asoslari.....                                                                                    | 202 |
| <b>Wang Jiahao</b> Исследование по вопросам совместного развития индустрии электронной коммерции между Пекином и Ташкентом в рамках «Цифрового Шелкового пути».....                   | 207 |
| <b>Qurbanov U.E.</b> O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida aholi daromadlarining iqtisodiy tahlili.....                                                                         | 216 |
| <b>Abduvaxidova N.A.</b> O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar.....                                                     | 221 |
| <b>Murodov O.U.</b> Sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.....                                                                     | 225 |
| <b>Xasanov S.Q.</b> “To‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....                                                        | 229 |
| <b>Kabilov O.X.</b> Paxta va g‘alla urug‘liklarini tayyorlovchi korxonalar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar                                                                         | 234 |
| <b>Pirmanov O.B.</b> Oliy ta’lim tizimi raqamli ekotizimini shakllantirishdagi tizimli muammolar va boshqaruvdagi uzilishlar tahlili.....                                             | 238 |

**MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI  
SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI**

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТРАТЕГИИ УСТОЙЧИВОГО  
РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ**

**CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF A STRATEGY FOR  
SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS**

**Umarov Abduvahob Tursunovich**

O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti dekani, i.f.d., dots.

ORCID: 0009-0002-3257-8395

**Annotatsiya**

Maqolada mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning uslubiy asoslarining nazariy va uslubiy asoslari o‘rganilgan. Milliy va mintaqaviy darajada barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish borasida iqtisodiy tarkibiy komponentlari tahlil qilingan. Biznes-iqlim indeksining tarmoqlar va hududlar bo‘yicha dinamikasi tahlil qilingan. Mintaqalar barqaror rivojlanish strategiyasini takomillashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etish asosida takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** mintaqa, barqaror rivojlanish, konsepsiya, barqaror rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasi

В статье рассматриваются теоретические и методологические основы формирования стратегии устойчивого развития региона. Анализируются экономико-структурные компоненты разработки стратегий устойчивого развития на национальном и региональном уровнях. Анализируется динамика индекса делового климата по секторам и регионам. На основе изучения направлений совершенствования стратегии устойчивого развития регионов разработаны предложения.

**Ключевые слова:** регион, устойчивое развитие, концепция, современная концепция устойчивого развития

The article studies the theoretical and methodological foundations of the methodological foundations of the formation of a strategy for sustainable development of the region. The economic structural components of the development of sustainable development strategies at the national and regional levels are analyzed. The dynamics of the business climate index by sectors and regions are analyzed. Proposals are developed based on the study of areas for improving the strategy for sustainable development of regions.

**Key words:** region, sustainable development, concept, modern concept of sustainable development

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, respublika viloyatlarini barqaror rivojlantirishga ustuvorlik qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, uzoq muddatli davrga mo‘ljallangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash” [1] kabi g‘oyalarning biriktirilganligi, shuningdek, Prezident Sh.M. Mirziyoyev BMTning 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida “global tashkilot tomonidan qabul qilingan barqaror rivojlanish

maqsadlari “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida to‘liq aks etganligi va ushbu strategiya “uchta ustun” – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni va barqaror rivojlanishni ta‘minlash tamoyillariga asoslangan” [2] ligini ta‘kidlab o‘tganligi keyingi yillarda mamlakat mintaqalarida barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning samaradorligini ta‘minlashga ustuvorlik qaratilishini anglatadi. Bu esa mamlakatda barqaror rivojlanishga qaratilgan strategiyalarning mintaqaviy dasturlarini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Iqtisodiy adabiyotda barqaror rivojlanishga qaratilgan turli ilmiy qarashlar va zamonaviy konsepsiyalar asosini iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy sohalar “triadasi”ning o‘zaro mutanosibligini ta‘minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Barqaror rivojlanishda yuqorida keltirib o‘tilgan sohalar “triadasi”ni o‘zaro mutanosibligini ta‘minlashda har bir sohaga bir xil ustuvorlik qaratish talab etiladi. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohadagi ustuvor vazifalarni hal etishda hech bir sohani boshqasidan ustun qo‘yish mumkin emas.

Mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda dastlab iqtisodiy adabiyotda barqaror rivojlanishga bag‘ishlangan zamonaviy konsepsiyalarni qiyosiy taqqoslash talab etiladi. Bugungi kunga qadar iqtisodiy adabiyotda shakllangan barqaror rivojlanish konsepsiyalaridan ko‘plab qarama qarshi fikrlar uchraydi. Ushbu holat tadqiqotlar jarayonidagi turli kapitallar o‘rtasidagi o‘zaro almashinuv darajasining turli darajalarda bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Mintaqalar iqtisodiy salohiyatining tarkibi, uning shakllanishini belgilovchi omillarning ta‘sir doiralari, mintqa salohiyatidan foydalanish asosida barqaror rivojlanish strategiyasini takomillashtirishning nazariy-konseptual jihatlar V. Kritaller, A. Yeykelpash, R. Haggins [3] kabi uzoq xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatda mintaqalarni barqaror rivojlantirish, ularning investitsion salohiyatini oshirish, mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari, mintaqalararo ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mintqa iqtisodiy tizimini tartibga solish yo‘nalishlari A.T.Yusupov, S.Sh.Mirziyoyeva, A.V.Vaxabov, T.M.Axmedov, B.B.Valiyev [6] kabi mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik usullari qo‘llanilgan.

London Iqtisodiy maktabi iqtisodchi olimlari va yetakchi mutaxassislaridan tashkil topgan ishchi guruh tomonidan barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarida “ehtiyolarning cheklanganlik darajasidagi o‘zgarishlar barqaror rivojlanishning kuchli, o‘rta yoki kuchsiz darajada ekanligini aniqlash imkonini beradi” degan xulosaga kelingan. Bu esa barqaror rivojlanish strategiyasining o‘zaro mutanosiblikka (kompromissga) asoslangan konsepsiyasini shakllanishiga olib kelgan. Unga qadar Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan barqaror rivojlanishning kuchli va kuchsiz barqarorlik strategiyalari o‘zaro farqlangan. Kuchli barqarorlik strategiyalari texnologik jarayonlarning sust darajadagi faolligiga asoslangan bo‘lsa, kuchsiz barqarorlik uzoq muddatli ijobiy o‘rishda namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. London Iqtisodiy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan o‘zaro mutanosiblikka (kompromissga) asoslangan konsepsiyasi uzoq muddatli davrda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko‘rsatkichlarning o‘shib borish tendensiyasiga asoslanadi. Yevropa Iqtisodiy komissiyasi va London Iqtisodiy maktabi iqtisodchi olimlari tomonidan barqaror rivojlanish strategiyasi turlarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan: [10]

- barqaror rivojlanish strategiyalari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlanishi sharoitida ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan hisoblanadi;

- barqaror rivojlanish strategiyalari turlari tabiiy kapitalni almashtirish, ya‘ni tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda, ekologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘nalishlari bilan bir biridan o‘zaro farqlanadi;

- barqaror rivojlanish strategiyalarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali kelajak avlod uchun tegishli zaxiralarni saqlashga ustuvorlik qaratilgan bo‘lib, bunda tabiiy kapitalni asrash

va saqlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning yo'nalishlari turli strategiyalarda turlicha ekanligi bilan xarakterlanadi;

- barqaror rivojlanish strategiyalari umumiy holda mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan kompleks rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qamrab olgan hisoblanadi.

Milliy va mintaqaviy darajada barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish borasida iqtisodiy adabiyotda amalga oshirilgan aksariyat ilmiy tadqiqotlarda uning tarkibiy komponentlari sifatida quyidagilar keltirib o'tiladi:

- barqaror iqtisodiy rivojlanish, barqaror ijtimoiy va barqaror ekologik rivojlanish dasturlari; [11]

- iqtisodiyot, jamiyat va tabiat nuqtayi nazaridan mamlakat yoki mintaqani iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta'minlash; [12]

- inson, atrof-muhit va iqtisodiyot. Bunda ham yuqorida keltirilgan barqaror rivojlanish strategiyasining “triada” sohalari o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashga ustuvorlik qaratilgan; [13]

- barqaror rivojlanishda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytirish [14] va h.k.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asoslangan holda barqaror rivojlanish strategiyasi tarkibiy komponenti har qanday sharoitda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik rivojlanish dasturlaridan tashkil topadi, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari bilan o'zaro o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan MDH mamlakatlari amaliyotida milliy va mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyalarida iqtisodiy rivojlanish dasturlari tarkibida quyidagi chora-tadbirlarga nisbatan ko'proq ustuvorlik qaratiladi:

- milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish;

- milliy iqtisodiyotni yangi texnologik rivojlanish bosqichiga o'tkazish, jumladan, innovatsiyalarni to'liq o'zlashtirish imkonini beruvchi milliy hududiy innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

- hududlarning nisbiy ustunliklarini aniqlagan holda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha chuqur ixtisoslashtirish;

- hududiy innovatsion-investitsion dasturlar samaradorligini oshirish, jumladan, ichki manbalar hisobidan investitsiyalash hajmini oshirish;

- iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni jalb qilish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish;

- yuqori qo'shilgan qiymat va global raqobatbardoshlikka ega bo'lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish;

- milliy iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni samarali qondirish;

- import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, jumladan, ichki iste'mol bozorida tovar va xizmatlarga bo'lgan mavjud talabni samarali qondirish.

Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish dasturiga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi:

- yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan ishlab chiqarish jarayonlarini yashil texnologiyalar bilan qurollantirish;

- yashil investitsiyalar hajmini oshirish;

- atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar va chiqindilar hajmini kamaytirish;


- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

Barqaror rivojlanish strategiyasida ijtimoiy rivojlanish dasturlarining iqtisodiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- inson kapitalini investitsiyalash samaradorligini oshirishda aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlarining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va qamrov darajasini oshirish;

- yangi ish o'rinlari yaratish hisobiga bandlik darajasini oshirish va aholi turmush farovonligini yaxshilash;

- aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi (aholi jon boshiga YAIM (YAHM), aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va h.k.) iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash va h.k.



**1-rasm. Barqaror rivojlanish strategiyasining darajalari**

Manba. Muallif tomonidan tuzilgan.


Umuman olganda, barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda qabul qilinadigan qarorlar o‘z obyektidan kelib chiqib, global, milliy (mahalliy) mintaqaviy darajalarga ajratish mumkin bo‘ladi (4.1-rasmga qarang). Mintaqaviy darajadagi barqaror rivojlanish strategiyasi samaradorligi milliy va global barqaror rivojlanish strategiyalari natijalariga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, jahon amaliyotida mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyalari samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratiladi.

2024-yilda ham mamlakatimiz tog‘-kon sanoati taraqqiyoti uchun investorlarning sohaga qiziqishini orttirish va ular o‘zlarini sanoatimizda qulay his qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur. O‘zbekiston strategik foydali qazilmalarining zaxiralari bo‘yicha dunyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, zaxiralari bo‘yicha jahon miqyosida birinchi o‘nta mamlakat qatoriga kiradi. E‘tiborlisi, O‘zbekiston oltin zaxirasi bo‘yicha 5-o‘rin, uran zaxirasi bo‘yicha 12-o‘rin, mis zaxirasi bo‘yicha 8-o‘rin, kaliy tuzlari zaxirasi bo‘yicha 4-o‘rinda turadi. O‘zbekiston geografiyasi xilma-xil landshaftlari va boy tabiiy resurslari bilan ajralib turadi, bu esa uni tog‘-kon sanoati uchun qulay mamlakatga aylantiradi. Yurtimizning ayniqsa Navoiy, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari foydali qazilmalarga boy hisoblanadi. O‘zbekiston hududida oltin, kumush, platina metallari, mis, uran, qo‘rg‘oshin, molibden, volfram, marganes, litii, xrom, nikel, qalay, tantal, nisbiy, kobalt, skandiy, germaniy, geniy, neft, tabiiy gaz kabi ko‘plab turdagi mineral resurslar aniqlangan.

Mamlakatda 2023-yilda tog‘-kon sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 118 trillion so‘mni tashkil etib (10 milliard AQSh dollari), shundan qimmatbaho va rangli metallar sohasida 97,3 trillion so‘m (8 milliard AQSh dollari), qora metallurgiya sohasida 12 trillion so‘m (1 milliard AQSh dollari), uran sohasida 6,7 trillion so‘m (600 million AQSh dollari), ko‘mir sanoatida 1,8 trillion so‘m (200 million AQSh dollari) mahsulot chiqarildi. 2023-yilda tog‘-kon sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 118 trillion so‘mni tashkil etib (10 milliard AQSh dollari), shundan qimmatbaho va rangli metallar sohasida 97,3 trillion so‘m (8 milliard AQSh dollari), qora metallurgiya sohasida 12 trillion so‘m (1 milliard AQSh dollari), uran sohasida 6,7 trillion so‘m (600 million AQSh dollari), ko‘mir sanoatida 1,8 trillion so‘m (200 million AQSh dollari) mahsulot chiqarildi [15].

“Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda 1 849,7 trln so‘mni hamda 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o‘sish sur‘ati 7,7 % ni tashkil etdi. YAIM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,9 % ni tashkil etdi. YAIM deflyator indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoat tarmog‘ida – 115,1 %, tashish va saqlash, axborot va aloqada – 113,0 % va boshqa xizmat tarmoqlarida – 112,1 % qayd etildi. Respublikaning o‘rtacha darajasidan past bo‘lgan deflyator indeksleri qurilishda – 105,9 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 107,8 % hamda savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda – 108,8 % qayd etildi. Iqtisodiy o‘sish sur‘ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog‘liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi YAIM

umumiy hajmining 95,6 % ini tashkil etdi va 7,7 % ga o‘sdi (YAIM mutlaq o‘shiga ta’siri 7,4 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi va 7,4 % darajasida o‘shish qayd etildi (YAIM mutlaq o‘shiga ta’siri 0,3 f.p.)” [16].



**2-ras. Biznes-iqlim indeksining tarmoqlar va hududlar bo‘yicha dinamikasi [17]**

2025-yilda iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlarida biznes muhitining yaxshilanishi kuzatildi. Xizmat ko‘rsatish sohasida indeks 58 bandni tashkil etib, 14,7% ga o‘sdi; qurilishda – 57 band (+14,2%), sanoatda esa – 54 band (+6,8%) qayd etildi. Qishloq xo‘jaligida indeks ko‘rsatkichi deyarli o‘zgarishsiz qoldi va 56 bandni tashkil etdi. Bu ushbu sektorda biznes yuritish sharoitlari bo‘yicha avvalgi baholashlar saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Hududlar kesimida o‘rtacha yillik Biznes muhiti indeksi o‘tgan yilga nisbatan respublikaning 11 ta hududida o‘sgan. Shu bilan birga, 7 ta hududda indeksning o‘rtacha yillik qiymati 57 bandni tashkil etdi. Yil yakunlariga ko‘ra, biznes muhitining eng sezilarli darajada yaxshilanishi quyidagi hududlarda kuzatildi [16]:

- Qashqadaryo viloyatida — ko‘rsatkich 27% ga oshdi;
- Jizzax viloyatida — 23% ga;
- Xorazm viloyatida — 17% ga.
- Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘shish 19% ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatida indeks biroz pasayganiga qaramay, biznes muhitining o‘rtacha yillik qiymati ijobiy saqlanib qoldi va 51 bandni tashkil etdi. Toshkent viloyatida esa ko‘rsatkich o‘zgarishsiz qolib, 44 band darajasida qayd etildi.

Mintaqalar barqaror rivojlanish strategiyasini takomillashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etish asosida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

1. Mamlakat hududlarida sanoat sohasini rivojlantirish samaradorligini oshirish talab etiladi. Bunda mintaqalarning mavjud mineral xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga joylarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga qimmatbaho, rangli, nodir metallar, noruda kon va uchastkalaridan foydalanish huquqini erkin bozor tamoyillari asosida sotishning maqsadga muvofiq.

2. Mamlakat, mintaqalarda iqtisodiy rivojlanish strategiyasidan barqaror rivojlanish strategiyasiga o‘tishda ishlab chiqarish jarayonlarida inson va tabiat o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarda “ehtiyotkorlik” tamoyiliga ustuvorlik qaratilishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini har bir tumanda texnologik sanoat zonalarini tashkil qilish va barqaror rivojlanishini ta‘minlashning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalari «triada»sini joriy qilish orqali takomillashtirish kerak;

3. Mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda respublika viloyatlarining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini inobatga olish kerak bo‘ladi. Jumladan, mintaqalarda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini har bir hududning tabiiy resurs salohiyati, investitsion jozibadorligi va raqobat ustunliklarini hisobga olgan sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining biznes xatarlarini davlat va xususiy banklar ishtirokida optimal taqsimlash tizimini joriy qilish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni, 11.09.2023-y. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi: Yangi O‘zbekiston – barqaror rivojlanish yo‘lidagi parlament odimlari. 15.11.2023-y. [Elektron manba]. URL: <https://parliament.gov.uz/oz/articles/1861>
3. Christaller W. Die zentralen Orte in Suddeutschland: Eine okonomisch-geographische Untersuchung uber die Gesetzmassigkeit der Verbreitung und Entwicklung der Siedlungen mit stadtischen Funktionen //Jena. – 1933.p. 25.;
4. Eickelpasch A. The Industrial innovation Potential of the Regions: Stuttgart and Munich further ahead // German Institute for Economic Research. 2008. Vol. 4, № 8. – pp. 49-57;
5. Huggins R. (2003) Creating a UK Competitiveness Index: Regional and Local Benchmarking. Regional Studies, Vol. 37.1. – pp. 89-96;
6. Юсупов А.Т. Развитие и размещение производства товаров народного потребления региона: на материалах промышленности Узбекистана. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Ташкент, 1991. -38 с.;
7. Мирзиёева С.Ш. Методологические основы стратегирования социально-экономического развития Узбекистана: монография. — — СПб.: ИПЦ СЗИУ РАНХиГС, 2020. – 184 с.- (Серия “Библиотека стратега”);
8. Ахмедов Т.М. Регулирования территориальной организациии производительных сил и комплексное развитие регионов Узбекистана. – Т.: Фан, 1992. с. 186;
9. Валиев Б.Б. Ўзбекистонда худудлар иқтисодийотини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. Иқт. фан. док. (DSc) дисс. автореф. Тошкент – 2021 й. 80 б.;
10. Obzor ekonomicheskogo polojeniya Yevropy, OON, Yevrop. ekon. komissiya. – 2003. – № 1, s. 277. <https://unece.org/fileadmin/DAM/ead/pub/031/ru/03-20870.pdf>
11. Pchelinsev O.S. Regionalnaya ekonomika v sisteme ustoychivogo razvitiya / O.S. Pchelinsev. – M.: Nauka, 2004. – s. 257
12. Попков В.В. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления: монография. / В.В. Попков – М.: Экономика. Управление, 2007. – 295 с.
13. Модель устойчивого развития Республики Белорус / С.С. Полоник и др. // Бел. экономика: анализ, прогноз регулирование. – 2002. – № 2 – с. 3-17
14. Бокарев С.А. Устойчивое развитие регионов России в процессе глобализации: дисс. канд. экон. наук: 08.00.01 / С.А. Бокарев. – Тамбов, 2005. – 168 с.
15. O‘zbekiston Respublikasining Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining “Yillik axborotnomasi – 2023”. 20 bet.
16. <https://stat.uz/files/611/choraklik-natijalar-2025-yanvar-dekabruz/4236/---2025-.pdf>
17. <https://review.uz/oz/post/analiz-biznes-klimata-uzbekistana-za-2025-god-issledovanie-ceir>

**ЎЗБЕКИСТОНДА АТРОФ-МУҲИТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ  
ВА ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ**

**ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В  
УЗБЕКИСТАНЕ**

**ECONOMIC AND LEGAL BASIS OF ENVIRONMENTAL PROTECTION IN  
UZBEKISTAN**

**Хошимов Пазлиддин Зукурович, ЎзМУ профессори  
Эгамназарова Гулноза Шухрат қизи, ЎзМУ талабаси**

**Аннотация**

Ушбу мақола атроф муҳитни муҳофаза қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий асосларини Ўзбекистон мисолида ўрганишга қаратилган. Мақоланинг асосий мақсади ҳозирги иқтисодий ҳолатда Ўзбекистоннинг амалдаги қонунчилигининг атроф-муҳит манфаатларига таъсирини ўрганиш ҳамда иқтисодий механизмларини таҳлил қилишдан иборат. Хусусан, атроф-муҳитни асрашга қаратилган чора-тадбирлар ва қабул қилинган меъёрий ҳужжатларни ўрганиш, уларнинг амалиётдаги татбиқини таҳлил қилиш ва ушбу жараёни назарий баҳолашдан иборат. Шу билан бирга, ҳозирги кундаги тегишли иқтисодий дастаклар ва механизмлар фаолияти ва таъсирини кузатиш ва таҳлил қилиш ушбу мақоланинг вазифаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Бундан ташқари, экология, атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришларининг салбий таъсирини юмшатишга қаратилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорлари ва фармонлари билан танишиш ва уларнинг амалиётдаги самарасини ўрганиш ҳам мақоланинг муҳим вазифасидир.

**Калит сўзлар:** айланма иқтисодиёт, яшил иқтисодиёт, экологик сиёсат, барқарор ривожланиш, иқтисодий механизмлар.

Данная статья посвящена изучению экономико-правовых основ охраны окружающей среды на примере Узбекистана. Основная цель статьи – изучение влияния действующего законодательства Узбекистана на экологические интересы и анализ его экономических механизмов в современной экономической ситуации. В частности, рассматривается применение мер и принятых нормативных документов, направленных на охрану окружающей среды, анализ их практического применения и теоретическая оценка этого процесса. Одновременно с этим, одной из задач статьи является мониторинг и анализ активности и влияния соответствующих экономических рычагов и механизмов в настоящее время. Кроме того, важной задачей статьи является ознакомление с постановлениями и указами Президента Республики Узбекистан, направленными на смягчение негативного воздействия экологии, окружающей среды и изменения климата, и изучение их эффективности на практике.

**Ключевые слова:** циркулярная экономика, зеленая экономика, экологическая политика, устойчивое развитие, экономические механизмы.

This article is aimed at studying the economic and legal foundations of environmental protection on the example of Uzbekistan. The main purpose of the article is to study the impact of the current legislation of Uzbekistan on environmental interests and to analyze its economic mechanisms in the current economic situation. In particular, it is to study the measures and adopted regulatory documents aimed at environmental protection, analyze their implementation in practice and theoretically assess this process. At the same time, one of the tasks of this article is to monitor and analyze the activity and impact of relevant economic levers and mechanisms at the present time. In addition, an important task of the article is to familiarize yourself with the resolutions and decrees of

the President of the Republic of Uzbekistan aimed at mitigating the negative impact of ecology, environment and climate change and to study their effectiveness in practice.

**Keywords:** circular economy, green economy, environmental policy, sustainable development, economic mechanisms.

Инсоният ҳаётида атроф муҳит ва уни ҳимоя қилиш муҳим рол ўйнайди. Асрлар давомида кишилар айнан табиат берган неъматлардан фойдаланган ҳолда ривожланиб келдилар ва бу жараён ҳали ҳам давом этмоқда. Афсуски, ҳозирги фан-техника тараққиёти даврида ривожланиш ва ресурслардан фойдаланиш ҳар қачонгидан ҳам тез содир бўлмоқда. Ўз навбатида табиатда мавжуд бўлган ресурслардан нотўғри фойдаланиш ва экологияга зарар етказиш ҳолатлари ҳам кузатилмоқда. Шундай экан, экологияни асраш ва уни келгуси авлодларга яхши ҳолатда етказиш нафақат аҳоли фаровонлигини таъминлашда, балки барқарор ривожланишга эришишда ҳам ёрдам беради. Атроф муҳитнинг ифлосланиши (ҳаво, сув, тупроқ) турли касалликлар – нафас йўллари, юрак-қон томир, аллергия ва онкологик касалликлар хавфини оширади. Тоза муҳит – соғлом жамият демакдир. Маълумки, нефт, газ, ичимлик суви, ўрмонлар ва унумдор ерлар чекланган. Уларни тежаб ишлатмасак, келажак авлодлар жиддий муаммоларга дуч келади. Ҳайвон ва ўсимлик турларининг йўқ бўлиб кетиши экотизим мувозанатини бузади. Бу эса озиқ-овқат хавфсизлигига ҳам таҳдид солади. Бугунги экологик қарорларимиз эртанги ҳаёт сифатини белгилайди. Тоза сув, ҳаво ва хавфсиз муҳит – бу келажак авлодларнинг асосий ҳуқуқи.

Ҳозирги кунда саноат ривожланиши ҳамда ишлаб чиқариш ҳажмининг ошиши натижасида турли хил экологик муаммолар келиб чиқмоқда. Атроф муҳит инсон ҳаётининг ажралмас бир қисми сифатида бизнинг ҳаётимиз учун зарур бўлган турли кўринишдаги ресурслар ва материаллар билан таъминлайди. Ҳозирда ер юзи аҳолисининг сони ошиши ҳисобига бутун дунёда ва шу жумладан Ўзбекистонда ҳам экологик муаммолар, масалан, ҳавонинг ифлосланиши, тупроқнинг шўрланиши, сув танқислиги, кузатилмоқда. Бу муаммоларнинг сабабларини аниқлаш ва уларни тизимли бартараф қилиш ҳозирги куннинг асосий масалаларидан бири бўлиб ҳисобланади. Иқтисодиёт ва саноат ривожланар экан, давлатларда янги материал ва хом ашёга бўлган талаб табиий равишда ошиб боради. Бу эса ўз навбатида табиатдаги мувозанатнинг бузилишига олиб келиши мумкин. Бундай ҳолатда давлатларнинг экология сиёсати муҳим рол ўйнайди. Экологиянинг назарий асослари айнан саноат инқилоби билан бирга ривожлана бошлади дейиш мумкин.

“Экология” сўзи илк бор адабиётларда 1866 йилда немис табиатшуноси Эрнст Геккел томонидан “Организмларнинг умумий морфологияси” номли китобида ишлатилган. Ушу олимнинг фикрига кўра: “Экология – табиатни иқтисодий жиҳатдан тадқиқ қилиш орқали ҳамма тирик организмларнинг органик ва но органик муҳим унсурлари билан бирга, унинг таъсир доирасида турган антогонистик ва ноантогонистик алоқадорликда бўлган ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ўртасидаги муносабатларни очиб бериш”дир. Экология атамасининг келиб чиқиши айнан ушбу олимнинг фаолиятига бориб тақалади. Жаҳонда фаол экологик сиёсат олиб бориш асосан 2000-йиллардан кейин бошланди дейиш мумкин. Дунёнинг ривожланган мамлакатлари ўзларининг саноатини ва ишлаб чиқариш жараёнини экологияга зарар етказмасдан ва ресурслардан минимал фойдаланган ҳолда ривожлантиришни ўзларининг устувор мақсадларидан бирига айлантирдилар. Экология ва барқарор иқтисодий ўсиш ўртасида ўзаро боғлиқлик мавжуд экани ўз тасдиғини топди. Барқарор ривожланишни таъминлаш мақсадида жаҳон мамлакатлари, шу жумладан, Ўзбекистон ҳам иқтисодий ва ҳуқуқий чора-тадбирларни қўллай бошлади. 1987-йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Атроф-муҳит ва Ривожланиш бўйича Жаҳон комиссияси “Бизнинг умумий келажакимиз” номли ҳисоботни эълон қилди. Ушбу ҳисоботда барқарор ривожланиш атамасига қуйидагича изох берилган: “Барқарор ривожланиш – бу келажак авлодларнинг ўз эҳтиёжларини қондириш қобилиятига зиён етказмаган ҳолда, ҳозирги авлоднинг эҳтиёжларини қондиришга қаратилган инсоният тараққиётининг самарали йўналишидир. У ўз ичига иккита асосий тушунчани камраб олади:

1. "Эҳтиёжлар" тушунчаси, айниқса, дунё камбағалларининг асосий эҳтиёжларига энг юқори даражадаги эътибор қаратилиши лозим бўлган масала;

2. Технология ва ижтимоий тузилманинг мавжуд ҳолати атроф-муҳитнинг ҳозирги ва келажак эҳтиёжларини қондириш имкониятларига қўядиган чекловлар тушунчаси".

Экологик сиёсатни тўғри ташкил этиш ва атроф муҳитни, ундаги биохилмаҳилликни, флора ва фаунани муҳофаза қилишда асосий ролни давлат сиёсати ўйнайди дейиш мумкин. Давлат томонидан иқтисодий ва ҳуқуқий тартибга солиш ва рағбатлантириш муҳимдир. Халқаро тажрибадан ҳам кўриш мумкинки ривожланган мамлакатлар, жумладан Германия, Жанубий Корея, Финляндия ва шу қатор бошқа давлатлар экологик сиёсатни самарали ташкил қилиш орқали ресурсларни тежашмоқда ҳамда барқарор ЯИМ ўсишини таъминлашмоқдалар. Хусусан, Германияда электр-энергияси таркибида қайта тикланадиган энергия миқдорини кўпайтириш ва бу орқали табиий захираларга келтириладиган зарарни камайтириш энг асосий вазифалардан бири сифатида белгиланган. Бундан ташқари, Германияда йилига 2 маротаба табиатни муҳофаза қилиш куни нишонланади ва бу кунларда жамоатчилик ўртасида табиатни асраб-авайлаш бўйича тарғибот-ташвиқот ишлари олиб борилади. Ривожланган мамлакатларда экологик сиёсатнинг самараси жуда юқори эканлигининг асосий сабаби атроф муҳитни муҳофаза қилишда ва уни асраб-авайлашда аҳоли вакиллариининг фаол иштирокидир. Ҳар бир фуқаро ўз зиммасидаги мажбуриятни билади, ҳис қилади ва уни бажаради. Давлатнинг мажбурияти бўлган вазифаларни эса давлат амалга оширади. Бу эса икки томонлама ҳамкорликни оширади ва давлатга, унинг бюджетига тушадиган юкни камайтиради.

Глобал экологик муаммолар Ўзбекистонда ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Хусусан, иқлим ўзгариши билан боғлиқ муаммолар, сув ресурсларининг чекланганлиги, атроф-муҳитнинг ифлосланиши, электр-энергия манбаларининг камайиб бориши ҳамда ер деградацияси каби экологик муаммолар изчил чора-тадбирларни талаб қилмоқда. Айниқса, охириги йилларда заҳарлаштириш натижасида катта майдонлардаги дарахтлар ва турли хил ўсимликларнинг йўқ қилиниши, қурилиш саноатининг йилдан-йилга ривожланиб бораётгани, шаҳарларда ҳаракатланадиган транспорт турлари ва сони ошганлиги вилоятлар ва айниқса пойтахт об-ҳавоси сифатининг тушиб кетишига олиб келди. Бу еса ўз навбатида нафас олиш билан боғлиқ бўлган касалликлардан азият чекаётган одамлар сонининг ошишига ва бевақт ўлимлар сонининг кўпайишига олиб келмоқда. Бундан кўриниб турибдики, атроф-муҳитни асраб-авайлаш, уни муҳофаза қилиш нафақат ундаги ҳайвонот ва ўсимлик олами учун, балки кўпроқ инсоният манфаатлари учун зарур.



**1-расм. Яшиллик қисқариши сабаб сирт юза ва қурилиш чанглари. [9]**

Юқорида келтирилган 1-расмдан Тошкент шаҳрида 2016-2023-йиллар оралиғида қурилиш мақсадида бузилган яшил майдонлар ҳамда дарахтлар сонининг доимий равишда

ошиб борганини кўриш мумкин. Шу сабабли ҳам охирги йилларда Тошкент шаҳрида ҳаво сифати пасайиб, ҳаво таркибида зарарли моддалар ва чанглар миқдори ошганини айтиш мумкин.

Жаҳон мамлакатларида амалга ошириладиган ҳар бир фаолиятнинг ва ислохотларнинг ҳуқуқий асослари ишлаб чиқиладиган ва ушу меъёрий асос орқали ислохотлар амалга оширилади. Ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар экологияни ҳимоя қилишда асосий пойдевор вазифасини ўтайди деб айтиш мумкин. Ўзбекистонда экологик сиёсатни олиб бориш мақсадида бир нечта ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар қабул қилинган. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси бутун мамлакат ҳудудида асосий ҳуқуқий асос вазифасини бажаради.

Конституцияда Ўзбекистон экологик сиёсатининг вазифалари, тараққиёт стратегиялари, экологияни ҳимоя қилиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш усуллари каби асосий масалалар аниқ қилиб белгилаб қўйилган. Асосий қонунда давлат муассасалари, давлат органлари ва жамоат бирлашмаларининг асосий мажбуриятлари ва барқарор иқтисодий ва ижтимоий ривожланишнинг асослари белгиланган. Конституциямизда экологик ҳаракатларни тартибга солиш учун қуйидаги моддалар киритилган:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 50-моддасига мувофиқ, фуқаролар атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар. Яъни, ушбу нормага кўра, фуқаролар экологияга ҳамда табиий ресурсларга тўғри муносабатда бўлиш мажбуриятини оладилар.

2. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 55-моддасида экологик сиёсатнинг асосий тамойиллари ҳам белгилаб берилган. Ушбу моддага кўра, ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий захиралар умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасидадир. Ушбу модданинг аҳамияти шундаки, у табиий ер ости ва ер усти захиралари ва ресурсларни бутун давлат миқёсида ҳимоя қилиш зарурлигини кўрсатади. Бундан ташқари, ушбу табиий ресурслардан оқилона фойдаланишнинг муҳимлиги ҳам ёритиб берилган;

3. Конституциянинг 100-моддасида эса маҳаллий давлат ҳокимияти органлари экологик фаолиятининг устувор йўналишлари ҳам белгилаб қўйилган. Шу билан биргаликда, ушбу моддада ҳокимликларнинг экологик сиёсатни амалга ошириш жараёнидаги ваколатлари ҳам белгилаб қўйилган.

Конституциядан ташқари атроф-муҳитни ҳимоя қилиш ва ундан тўғри фойдаланиш бўйича қуйидаги ҳуқуқий асослар ишлаб чиқилган:


- Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси;
- Ўзбекистон Республикасининг Сув кодекси;
- Ўзбекистон Республикасининг "Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида"ги қонуни;
- Ўзбекистон Республикасининг "Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида"ги қонуни;
- Ўзбекистон Республикасининг "Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида"ги қонуни;
- Ўзбекистон Республикасининг "Ер қари тўғрисида"ги қонуни;
- Ўзбекистон Республикасининг "Ўрмон тўғрисида"ги қонуни;
- Ўзбекистон Республикасининг "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида" ги қонуни.

Албатта, фақат қонунлар ва фармонларни тасдиқлаш ва қабул қилишнинг ўзи етарли эмас. Шу туфайли аҳоли вакиллари ва ишлаб чиқарувчилар экологик мажбуриятларининг бажарилишини текшириш ва ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш учун Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ташкил этилган бўлиб, қўмитанинг асосий вазифаси экологик сиёсатни тартибга солишдир. Қўмита фаолияти биохилма-хиллик, атмосфера ҳавоси ва озон қатлами, сув, ер ресурслари ва ер ости бойликлари, экологик сертификация, чиқиндилар билан ишлаш ҳамда жамоатчилик кенгашини ташкил этишдан иборат. Бундан ташқари, қўмита атроф-муҳит мониторингини олиб боради ва экологик назоратни таъминлайди.

Энг муҳим жихатлардан бири шуки, Ўзбекистон атроф муҳитни муҳофаза қилишда ушбу соҳага оид бўлган 14 та халқаро конвенцияларга аъзо бўлган ва 20 дан ортиқ битимларни имзолаган. Шу жумладан, Халқаро табиатни муҳофаза қилиш иттифоқи (ХТМИ), Марказий Осиё минтақавий экологик маркази (МOMEM) ва Оролни қутқариш халқаро жамғармаси (ОҚХЖ) каби халқаро иттифоқлар ва ташкилотлар билан бирга ишлаган ҳолатда, барқарор ривожланишни атроф муҳитни муҳофаза қилган ҳолда таъминлашни энг асосий мақсадга айлантирган. Келтирилган халқаро ташкилот ва жамғармалар юртимизга молиявий, техник ҳамда тажриба орқали қўйилган мақсадларни амалга оширишга кўмаклашмоқда.

Ўзбекистонда атроф-муҳитни муҳофаза қилишда иқтисодий механизмлардан ҳам фойдаланилади. Иқтисодий механизмлар деб иқтисодиётни нормал ишлашини таъминловчи, уни ҳаракатга келтирувчи, тартибга солувчи ва рағбатлантирувчи ёки чекловчи усуллар ва воситалар йиғиндисига айтилади. Иқтисодий механизмлар бозор механизмлари ёки давлат аралашуви орқали вужудга келадиган механизмлар бўлиши мумкин. Атроф-муҳитни муҳофаза қилишда ишлатиладиган иқтисодий механизмлар сифатида углерод солиқлари, экологик солиқлар, жарима ёки субсидияларни келтириш мумкин.

Иқтисодий механизмлар ҳукукий чора-тадбирларга қараганда самаралироқ дейиш мумкин, чунки улар иқтисодий рағбат, манфаат ёки йўқотишга сабаб бўлади ва аҳоли ва тадбиркорлар ўртасида тез оммалашади.



2-расм. Электр-энергияси учун таърифлар миқдори. [8]

Юқорида келтирилган 2-расмда 2025-йил 1-майдан ишга тушган электр-энергияси учун қўйилган таърифлар кўрсатилган. Таъкидлаш лозимки, тўловлар ишлатилишган электр-энергияси миқдоридан ва чекловларидан келиб чиққан ҳолатда белгиланади.

Ҳозирги кунда бутун дунёда ва юртимизда "Polluter pays principle", яъни "Ифлослантирувчи тўлайди" тамойили амалга татбиқ этилмоқда. Яъни, ҳар бир шахс ва корхона, ишлаб чиқарувчилар атроф-муҳитга келтирган зарари учун турли кўринишдаги тўловларни амалга оширадilar. Масалан, чиқиндилар учун таърифли тўловлар мавжуд бўлиб, бу тўловлар чиқиндиларни йиғиш, ташиш, уларни қайта ишлаш ёки уларни йўқ қилиш учун ишлатилади. Фуқаролар фақат ўзлари чиқарган маиший ёки бошқа турдаги чиқиндилар учунгина пул тўлайдилар, бу эса ўз навбатида адолатга асосланган ишончли тизим белгиларидан биридир. Бундан ташқари, шу турдаги атмосферага чиқарилган зарарли газлар учун тўловлар ва сувдан фойдаланганлик учун тўловлар ҳам мавжуд. Бу тўловлар корхоналар ёки ишлаб чиқарувчилар маълум муддат давомида чиқарган зарарли газ, жумладан углерод миқдоридан, унинг зарар даражасидан ва ҳажмидан келиб чиқиб ҳисобланади. Бу тўловларнинг ҳаммаси келтирилган зарарни юмшатиш ва камайтириш учун молиявий асос вазифасини бажаради. Ҳозирги кунда бу тамойил ҳали тўлиқ амалиётга татбиқ қилингани йўқ.

Бунинг сабабларидан бири юртимизда аҳоли ва тадбиркорлар ўртасида бу бўйича ҳали тўлиқ тушунча ҳосил бўлмаганлигидир.

Экологик рағбатлантириш ва субсидиялаш ҳам айнан иқтисодий механизмлардан ҳисобланади. Жумладан, ҳозирги кунда давлатимизда экологик тоза маҳсулотлар чиқаришга қаратилган ишлаб чиқарувчиларга субсидиялар бериш, уларга экологик тоза технологиялар олишда молиявий қўмаклашиш йўлга қўйилган. Бундай кўринишдаги субсидиялар ишлаб чиқарувчиларни экологияга зарар етказмасдан фаолият юритишга ундайди. Экологик сиёсатни олиб боришда бир қанча тўсиқларга дуч келинмоқда. Хусусан, молиявий тўсиқлар ушбу соҳада олиб борилаётган ислохотлар кўламини ва самарасининг пасайишига олиб келмоқда. Бунинг сабаби, экологик тоза технологияларни ҳар бир ишлаб чиқариш объектида жорий қилиш, субсидия ва солиқ имтиёзларини бериш, ушбу соҳа учун зарур бўлган инфратузилмаларни яратиш катта маблағ ва капитал талаб қилади. Иккинчи асосий тўсиқларда бири шуки, ҳали аҳоли орасида бу соҳа, яшил иқтисодиёт ва экологик тоза ишлаб чиқариш бўйича тўлиқ ва тушунарли маълумот йўқ. Бу еса аҳоли фаоллигини ва иштирокини чеклайди. Бундан ташқари, янги ўзгаришлар ва технологияларга мослашиш, улардан тўғри фойдаланишни ўрганиш маблағ ҳам вақтни талаб қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 2023 йил 30 апрель. // <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги “2030-йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-58-63-сонли Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 26 сентябрдаги “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳаларида очиқликни таъминлаш ҳамда бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ 149-сонли фармони
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 майдаги “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида ҳамда ўрмонларни бошқариш тизимида ислохотларни изчил давом еттириш, яшил ҳудудларни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-90-сонли фармони
5. Нигматов А. Экологиянинг назарий асослари. Ўқув қўлланма. - Тошкент. 2013.
6. Карабаева З.Т., Шоҳакимова А.А., Экологиянинг ҳуқуқий асослари, Ўқув қўлланма. – Тошкент. 2023.
7. Машарипова М.А., Руденко И.Ю. Атроф-муҳит ва табиий ресурслар иқтисодиёти Дарслик. Урганч. 2025.
8. "Бухоро ҳудудий электр тармоқлари корхонаси" АЖ, <https://buxelektr.uz/category/elektr-energiyaning-tariflari/>
9. Kun.uz ахборот канали, <https://kun.uz/kr/news/2025/02/07/nosoglom-va-zaharli-65-kun-toshkent-havosini-ifloslaydigan-omillarning-uzoq-muddatli-tahlili>

**TO‘QIMACHILIK SANOATIDA YASHIL INVESTITSİYALAR VA RESURS  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI**

**«ЗЕЛЕННЫЕ» ИНВЕСТИЦИИ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ РЕСУРСНОЙ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**GREEN INVESTMENTS AND DIRECTIONS FOR INCREASING RESOURCE  
EFFICIENCY IN THE TEXTILE INDUSTRY**

**Raxmatova Feruza Yusupjanovna**

Osiyo Xalqaro universiteti tayanch doktoranti, Buxoro Innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada to‘qimachilik sanoatida yashil investitsiyalarning mohiyati, shakllari va resurs samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Tarmoqning yuqori suv hamda energiya sig‘imi, bo‘yash-pardozlash jarayonlarining ekologik ta’siri kabi muammolar yoritilib, ularni bartaraf etishda yashil investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlari (suvni qayta aylantirish va “nol suyuq oqava” tizimlari, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya, toza ishlab chiqarish texnologiyalari, ekologik sertifikatlash) asoslab berilgan. Yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishning moliyaviy mexanizmlari va davlat qo‘llab-quvvatlash choralari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil investitsiya, to‘qimachilik sanoati, resurs samaradorligi, suvni qayta ishlash, energiya samaradorligi, ESG, barqaror rivojlanish.

В статье проанализированы сущность и формы зелёных инвестиций в текстильной промышленности, а также их роль в повышении ресурсной эффективности. Раскрыты такие проблемы, как высокая водо- и энергоёмкость отрасли, экологическое воздействие красильно-отделочных процессов, и обоснованы приоритетные направления зелёных инвестиций (системы оборотного водоснабжения и «нулевого жидкого сброса», энергоэффективность и возобновляемая энергия, технологии чистого производства, экологическая сертификация). Разработаны предложения по финансовым механизмам стимулирования зелёных инвестиций и мерам государственной поддержки.

**Ключевые слова:** зелёные инвестиции, текстильная промышленность, ресурсная эффективность, оборотное водоснабжение, энергоэффективность, ESG, устойчивое развитие.

The article analyses the essence and forms of green investment in the textile industry and its role in improving resource efficiency. Problems such as the high water and energy intensity of the sector and the environmental impact of dyeing and finishing processes are highlighted, and the priority directions of green investment are substantiated (water recirculation and “zero liquid discharge” systems, energy efficiency and renewable energy, cleaner production technologies, and eco-certification). Proposals are developed for financial mechanisms to stimulate green investment and for state support measures.

**Keywords:** green investment, textile industry, resource efficiency, water recirculation, energy efficiency, ESG, sustainable development.

To‘qimachilik sanoati jahon miqyosida eng ko‘p suv va energiya iste’mol qiluvchi sanoat tarmoqlaridan biridir. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, moda va to‘qimachilik sanoati har yili taxminan 93 milliard kubometr suv iste’mol qiladi, bu global chuchuk suv resurslarining qariyb 4 foiziga teng. To‘qimachilik mahsulotini ho‘l qayta ishlash (yuvishtirish, oqartirish, bo‘yash, pardozlash) jarayonlari tarmoqdagi suv ifloslanishining 70–80 foiziga sabab bo‘ladi, bo‘yash jarayoni esa jahonda suvni eng

ko‘p ifloslantiruvchi ikkinchi manba hisoblanadi. Bu holat tarmoqqa investitsiya yo‘naltirishda ekologik mezonlarni hisobga olishni — ya‘ni yashil investitsiyalarni — birinchi o‘ringa olib chiqadi.

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining jadal o‘ssishi (2024-yilda 10,7 foizga oshgan) [7] resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan “yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste‘mol qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [1]. Shu boisdan to‘qimachilik sanoatida yashil investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Yashil investitsiya tushunchasi yashil iqtisodiyot nazariyasi doirasida shakllangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) “Yashil iqtisodiyot sari” hisobotida yashil investitsiyalarni atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytiradigan va resurs samaradorligini oshiradigan kapital qo‘yilmalar sifatida talqin etadi [3]. Global barqaror investitsiyalar alyansi (GSIA) ma‘lumotlari ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) mezonlariga asoslangan investitsiyalarning jahonda barqaror o‘tib borayotganini ko‘rsatadi [6]. Ellen MacArthur jamg‘armasining tadqiqotlarida to‘qimachilik tarmog‘ini barqaror asosga o‘tkazish zarurati alohida ta‘kidlanadi [5].

O‘zbek olimlari A.Vaxabov va Sh.Xajibakiyevlarning ishlarida yashil iqtisodiyotga o‘tishning moliyaviy jihatlari va barqaror o‘ssishni ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqilgan [4]. Biroq to‘qimachilik tarmog‘i misolida yashil investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlari va kutilayotgan samarasini tizimli tahlil qilishga e‘tibor hali yetarli emas. Mazkur maqola ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Yashil investitsiyalarning shakllari va ustuvor yo‘nalishlari tarkibiy elementlarga ajratilgan holda tahlil qilindi.

Yashil investitsiya — bu atrof-muhitni muhofaza qilish, resurs va energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilarni kamaytirishga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalardir. To‘qimachilik sanoatida uning asosiy moliyaviy shakllari quyidagilardan iborat: yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, ESG-investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik mablag‘lari. To‘qimachilik sanoatida yashil investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlari va kutilayotgan samarasi 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**To‘qimachilik sanoatida yashil investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlari**

| <b>Yo‘nalish</b>           | <b>Investitsiya obyekti</b>                                  | <b>Kutilayotgan samara</b>                                         |
|----------------------------|--------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| Suvni boshqarish           | Suvni qayta aylantirish, “nol suyuq oqava” (ZLD) tizimlari   | Suv sarfi va oqava ifloslanishining keskin kamayishi               |
| Energiya samaradorligi     | Energiya tejoychi uskunalar, issiqlikni rekuperatsiya qilish | Energiya xarajatlari va CO <sub>2</sub> chiqindilarining kamayishi |
| Qayta tiklanuvchi energiya | Quyosh panellari, biomassa qozonlari                         | An‘anaviy energiyaga bog‘liqlikning pasayishi                      |
| Toza ishlab chiqarish      | Kam suvli va kam kimyoviy bo‘yash texnologiyalari            | Kimyoviy moddalar sarfi va zararli chiqindilarning kamayishi       |
| Ekologik sertifikatlash    | OEKO-TEX, GOTS, ISO 14001 sertifikatlari                     | Eksport raqobatbardoshligi va bozor ulushining oshishi             |

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, yashil investitsiyalar nafaqat ekologik yukni kamaytiradi, balki uzoq muddatli istiqbolda korxona xarajatlarini optimallashtiradi va eksport bozorlaridagi ekologik talablarga javob berish orqali raqobatbardoshlikni oshiradi. Xalqaro bozorlarda, xususan Yevropa

Ittifoqida, to‘qimachilik mahsulotlariga nisbatan ekologik talablar kuchaymoqda; bu esa yashil investitsiyalarni strategik zaruratga aylantiradi.

O‘zbekistonda yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun davlat tomonidan imtiyozli moliyalashtirish liniyalari, soliq-bojxona imtiyozlari hamda ekologik sertifikatlashni qo‘llab-quvvatlash choralari muhim ahamiyatga ega. Bunday choralar to‘qimachilik korxonalarini resurs tejovchi texnologiyalarga investitsiya kiritishga rag‘batlantiradi.

Yashil moliyalashtirishning asosiy instrumentlari orasida yashil kreditlar va yashil obligatsiyalar alohida ajralib turadi. Yashil kreditlar resurs tejovchi va ekologik toza loyihalarni imtiyozli foiz stavkalarida moliyalashtirishga imkon beradi, yashil obligatsiyalar esa yirik infratuzilma loyihalari uchun uzoq muddatli mablag‘ jalb etish vositasi sifatida xizmat qiladi. ESG-mezonlariga asoslangan investitsiyalarning jahonda kengayib borishi to‘qimachilik korxonalari uchun xalqaro kapital bozorlaridan mablag‘ jalb etishning yangi imkoniyatlarini ochadi [6].

Yashil investitsiyalarni amalga oshirish yo‘lida bir qator cheklovlar mavjud. Resurs tejovchi texnologiyalarga dastlabki kapital qo‘yilmalar yuqori bo‘lib, ularning o‘zini oqlash muddati nisbatan uzoq. Shuningdek, korxonalarda ekologik hisobot va ESG-baholash tizimining hali to‘liq shakllanmagani investorlar uchun axborot assimetriyasini keltirib chiqaradi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda suv va energiya sarfining kamayishi natijasida tejaladigan mablag‘lar hamda eksport bozorlarida ortib boruvchi raqobatbardoshlik bu xarajatlarni qoplaydi. Xarajat-naf tahlili ko‘rsatishicha, yashil investitsiyalarning iqtisodiy samarasi ko‘p hollarda ekologik samaradan kam emas.

To‘qimachilik sanoatida yashil investitsiyalarni jadallashtirishda davlatning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Imtiyozli moliyalashtirish liniyalari, sertifikatlash xarajatlarini subsidiyalash va soliq rag‘batlari investitsion muhitni yaxshilaydi. Bundan tashqari, ekologik standartlarni bosqichma-bosqich kuchaytirish korxonalarni toza ishlab chiqarish texnologiyalariga o‘tishga undaydi. Davlat qo‘llab-quvvatlash choralarining bozor mexanizmlari bilan uyg‘unligi tarmoqda yashil investitsiyalar oqimini barqaror oshirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

To‘qimachilik sanoatida yashil investitsiyalar resurs samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashning kalit omilidir. Quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, yashil kredit va obligatsiya bozorini rivojlantirish; ikkinchidan, suvni qayta ishlash va energiya samaradorligi loyihalariga imtiyozli moliyalashtirish ajratish; uchinchidan, ekologik sertifikatlash xarajatlarini qisman subsidiyalash; to‘rtinchidan, ESG-hisobot tizimini bosqichma-bosqich joriy etish. Ushbu chora-tadbirlar “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yashil iqtisodiyotga o‘tish vazifalariga muvofiq keladi va tarmoqning eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. – lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. – lex.uz.
3. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: UNEP, 2011.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik. – Toshkent: “Universitet”, 2020. – 262 b.
5. Ellen MacArthur Foundation. A new textiles economy: Redesigning fashion’s future. – 2017.
6. Global Sustainable Investment Alliance (GSIA). Global Sustainable Investment Review. – 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. – stat.uz.

**MILLIY HUNARMANDCHILIK BRENDLARINI ILGARI SURISHDA RAQAMLI  
MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА ДЛЯ  
ПРОДВИЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ БРЕНДОВ РЕМЕСЛЕННОГО МАСТЕРСТВА**

**USING DIGITAL MARKETING TOOLS TO PROMOTE NATIONAL CRAFTSMANSHIP  
BRANDS**

**Ergasheva Aziza Farmonovna**

Buxoro davlat universiteti doktoranti, Buxoro Innovatsiyalar universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya**

Maqolada milliy hunarmandchilik brendlarini ilgari surishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Raqamli marketingning asosiy vositalari — ijtimoiy tarmoqlar marketingi, kontent-marketing va hikoya (storytelling), elektron tijorat platformalari hamda turizm bilan integratsiya — hunarmandchilik mahsulotlarining xususiyatlariga moslab tahlil qilingan. O‘zbekistonda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va elektron tijorat imkoniyatlari asosida hunarmandchilik brendlarini raqamli muhitda ilgari surishning bosqichli modeli taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli marketing, milliy hunarmandchilik, brend, ijtimoiy tarmoqlar, kontent-marketing, elektron tijorat, turizm.

В статье исследованы возможности использования инструментов цифрового маркетинга в продвижении брендов национального ремесла. Основные инструменты цифрового маркетинга — маркетинг в социальных сетях, контент-маркетинг и сторителлинг, платформы электронной коммерции и интеграция с туризмом — проанализированы применительно к особенностям ремесленной продукции. На основе развития цифровой инфраструктуры и возможностей электронной коммерции в Узбекистане предложена поэтапная модель продвижения брендов ремесла в цифровой среде.

**Ключевые слова:** цифровой маркетинг, национальное ремесло, бренд, социальные сети, контент-маркетинг, электронная коммерция, туризм.

The article examines the opportunities of using digital marketing tools in promoting national handicraft brands. The main digital marketing tools — social media marketing, content marketing and storytelling, e-commerce platforms, and integration with tourism — are analysed in relation to the features of handicraft products. Based on the development of digital infrastructure and e-commerce opportunities in Uzbekistan, a stage-by-stage model for promoting handicraft brands in the digital environment is proposed.

**Keywords:** digital marketing, national handicraft, brand, social media, content marketing, e-commerce, tourism.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi marketing strategiyalarini tubdan o‘zgartirdi. F.Kotler va hammualliflarining “Marketing 4.0” konsepsiyasiga ko‘ra, zamonaviy marketing an‘anaviy va raqamli kanallarning uyg‘unligiga asoslanadi [3]. O‘zbekistonda raqamli muhit jadal kengaymoqda: ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil boshiga kelib internet foydalanuvchilari soni 32,7 millionni, ya’ni aholining 87,2 foizini tashkil etgan [7]. Bu milliy hunarmandchilik brendlarini ilgari surish uchun keng iste’molchi bazasini va yangi kanallarni yaratadi.

Shu bilan birga, ko‘pgina hunarmandlar va kichik korxonalar raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanmayapti; ularning faoliyati ko‘proq an‘anaviy savdo va bevosita sotuvga tayanadi.

Natijada noyob va sifatli mahsulotlar global auditoriyaga yetib bormaydi. Shu bois raqamli marketing vositalaridan tizimli foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Raqamli marketing nazariyasi an’anaviy marketing konsepsiyalarining raqamli muhitga moslashuvi natijasida shakllandi. F.Kotler, H.Kartajaya va I.Setiavanlarning “Marketing 4.0” asarida iste’molchi yo‘lining raqamli kanallar orqali boshqarilishi va brend bilan o‘zaro ta’sirning yangi shakllari yoritilgan [3]. K.L.Kellerning brend kapitali nazariyasi raqamli muhitda ham brend bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi [4]. O‘zbek tadqiqotchilarining ishlarida elektron tijorat va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan [5].

Biroq milliy hunarmandchilik brendlari misolida raqamli marketing vositalaridan foydalanishning tizimli modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan. Hunarmandchilik mahsulotlarining vizual jozibadorligi va madaniy hikoyaga boyligi ularni aynan raqamli kanallar orqali ilgari surish uchun qulay qiladi. Mazkur maqola ushbu imkoniyatlarni tizimlashtirilishga qaratilgan.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik ma’lumotlarni umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Raqamli marketing vositalari hunarmandchilik brendlariga nisbatan tarkibiy elementlarga ajratilgan holda tahlil qilindi.

Raqamli marketing milliy hunarmandchilik brendlarini global auditoriyaga nisbatan arzon va tezkor yetkazish imkonini beradi. Tahlil natijasida hunarmandchilik brendlari uchun samarali raqamli marketing vositalari ajratildi va ular 1-jadvalda tizimlashtirildi.

**1-jadval**

**Milliy hunarmandchilik brendlarini ilgari surishda raqamli marketing vositalari**

| <b>Vosita</b>                       | <b>Imkoniyat</b>                   | <b>Kutilayotgan samara</b>        |
|-------------------------------------|------------------------------------|-----------------------------------|
| Ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM) | Vizual kontent, bevosita muloqot   | Tanilish va auditoriya jalb etish |
| Kontent-marketing / storytelling    | An’ana va usta mahoratini yoritish | Hissiy bog‘lanish va sodiqlik     |
| Elektron tijorat platformalari      | To‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn savdo    | Bozorni kengaytirish va eksport   |
| Turizm bilan integratsiya           | Sayyohlarga onlayn xarid imkoni    | Takroriy savdo va brend tanilishi |
| Raqamli reklama va SEO              | Maqsadli auditoriyaga chiqish      | Xarajat samaradorligi             |

Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, Telegram) hunarmandchilik mahsulotining vizual jozibasini namoyish etish va iste’molchi bilan bevosita muloqot o‘rnatish uchun samarali kanal hisoblanadi. Kontent-marketing va hikoya (storytelling) — mahsulot ortidagi an’ana, usta mahorati hamda ishlab chiqarish jarayonini videolar va maqolalar orqali yetkazish — brendga hissiy qiymat qo‘shadi va iste’molchi sodiqligini mustahkamlaydi.

Elektron tijorat platformalari mahsulotni bevosita sotish imkonini beradi. Masalan, “Alibaba” platformasida O‘zbekistonning doimiy milliy pavilyoni ishga tushirilgan bo‘lib, unda 1 600 dan ortiq eksportbop milliy mahsulot o‘rin olgan; rejaga ko‘ra milliy hunarmandchilik mahsulotlari yo‘nalishi ham ochilishi belgilangan [6]. Mahalliy elektron savdo maydonchalari, shuningdek, “Etsy” kabi hunarmandchilikka ixtisoslashgan xalqaro platformalar ham brendni xorijiy bozorga olib chiqish imkonini kengaytiradi.

Turizm bilan integratsiya milliy hunarmandchilik brendlari uchun alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son Farmoni xorijiy turistlar oqimini oshirish doirasida milliy ipak matolari va hunarmandchilik (suvenir) mahsulotlari savdosini rag‘batlantirishni nazarda tutadi [1]. Raqamli platformalar sayyohlarga sayohatdan keyin ham takroriy onlayn xarid qilish imkonini yaratadi, bu esa brend bilan uzoq muddatli aloqani ta’minlaydi.

Tahlil asosida raqamli muhitda hunarmandchilik brendini ilgari surishning bosqichli modeli taklif etiladi: birinchidan, brendning raqamli identifikatsiyasi va vizual kontentini tayyorlash; ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda muntazam kontent-strategiyani yo‘lga qo‘yish; uchinchidan, elektron tijorat platformalarida savdoni tashkil etish; to‘rtinchidan, turizm kanallari bilan

integratsiyalashuv; beshinchidan, natijalarni raqamli tahlil vositalari orqali baholash va strategiyani takomillashtirish.

Shu bilan birga raqamli marketingni joriy etishda bir qator to‘siqlar mavjud: hunarmandlarning raqamli savodxonligi past, sifatli kontent tayyorlash va xorijiy tillarda muloqot qilish imkoniyati cheklangan, logistika va onlayn to‘lov tizimlari hamma hududlarda ham yetarlicha rivojlanmagan. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish hunarmandlarni raqamli ko‘nikmalarga o‘rgatish va qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishni talab etadi.

Raqamli marketingning samarali yo‘nalishlaridan biri ta’sir ko‘rsatuvchi shaxslar (influencer) va bloggerlar bilan hamkorlikdir. Sayohat hamda madaniyat sohasidagi bloggerlar milliy hunarmandchilik mahsulotlarini keng auditoriyaga tanishtirishi, ularning haqiqiyliigi va madaniy qiymatini ishonchli tarzda yetkazishi mumkin. Bunday hamkorlik, ayniqsa, xorijiy bozorlarga chiqishda brendga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Raqamli marketingning muhim afzalligi — uning natijalarini aniq o‘lchash imkoniyatidir. Veb-tahlil vositalari orqali auditoriya qamrovi, jalb etilganlik darajasi (engagement), konversiya va savdo ko‘rsatkichlarini real vaqtda kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlarga asoslanib, hunarmand yoki korxona marketing byudjetini eng samarali kanallarga yo‘naltirishi va strategiyani izchil takomillashtirishi mumkin.

Eng yuqori samaraga an’anaviy va raqamli kanallarni uyg‘unlashtiruvchi ko‘p kanalli (omnichannel) yondashuv orqali erishiladi. Masalan, hududiy bozor yoki hunarmandchilik markazidagi bevosita savdo ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot va elektron tijorat platformalaridagi onlayn savdo bilan to‘ldirilsa, brend iste’molchi bilan turli nuqtalarda aloqa o‘rnatadi. Bu yondashuv hunarmandchilik brendining mahalliy va global bozorlardagi mavjudligini bir vaqtda mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari raqamli marketing vositalari milliy hunarmandchilik brendlarni ilgari surish va ularning bozorini kengaytirishning samarali yo‘li ekanligini ko‘rsatadi. Quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, hunarmandlar uchun raqamli marketing va kontent yaratish bo‘yicha o‘quv dasturlarini tashkil etish; ikkinchidan, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini mahalliy va xalqaro elektron tijorat platformalarida birlashtirilgan tarzda taqdim etish; uchinchidan, raqamli marketingni turizm kanallari bilan integratsiyalash; to‘rtinchidan, brendlarning raqamli ko‘rsatkichlarini muntazam tahlil qilish tizimini joriy etish. Ushbu chora-tadbirlar milliy hunarmandchilik brendlarning raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-son Farmoni. – lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son Farmoni. – lex.uz.
3. Kotler Ph., Kartajaya H., Setiawan I. Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital. – Hoboken: Wiley, 2017.
4. Keller K.L. Strategic Brand Management. – Pearson Education.
5. O‘zbekistonning elektron tijorat strategiyasi bo‘yicha tadqiqotlar. – researchgate.net.
6. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi ma’lumotlari (“Alibaba” milliy paviloni).
7. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligi ma’lumotlari (internet foydalanuvchilari).

**INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA BIG DATA VA HR ANALITIKANING  
SAMARODORLIKKA TA’SIRI**

**ВЛИЯНИЕ БОЛЬШИХ ДАННЫХ И КАДРОВОЙ АНАЛИТИКИ НА  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ**

**THE IMPACT OF BIG DATA AND HR ANALYTICS ON EFFICIENCY IN HUMAN  
RESOURCES MANAGEMENT**

**Rahimova Nargiza Akram qizi**

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Inson resurslarini boshqarish yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Mazkur tezisda inson resurslarini boshqarishda Big Data va HR analitika texnologiyalarining samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali xodimlarni tanlash, baholash, rivojlantirish hamda kadrlar qo‘nimsizligini prognozlash imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, HR analitika vositalarining boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirishdagi o‘rni hamda tashkilot faoliyati samaradorligiga ta’siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari inson resurslarini boshqarishda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlardan foydalanish tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Big Data, HR analitika, inson resurslarini boshqarish, HRM, raqamli transformatsiya, ma’lumotlar tahlili, kadrlar boshqaruvi, samaradorlik.

В данном тезисе рассматривается влияние технологий Big Data и HR-аналитики на эффективность управления человеческими ресурсами. В исследовании изучаются возможности сбора, обработки и анализа больших объёмов данных для подбора персонала, оценки эффективности сотрудников, их развития и прогнозирования текучести кадров. Кроме того, раскрывается роль HR-аналитики в повышении качества управленческих решений и эффективности деятельности организации. Результаты исследования показывают, что использование подходов, основанных на данных, способствует повышению конкурентоспособности организаций.

**Ключевые слова:** Big Data, HR-аналитика, управление человеческими ресурсами, HRM, цифровая трансформация, анализ данных, управление персоналом, эффективность организации.

This thesis examines the impact of Big Data and HR analytics on the effectiveness of human resource management. The study explores the opportunities provided by collecting, processing, and analyzing large volumes of data for employee recruitment, performance evaluation, development, and workforce turnover prediction. Furthermore, the role of HR analytics in improving the quality of managerial decision-making and organizational performance is highlighted. The findings indicate that data-driven approaches to human resource management contribute significantly to enhancing organizational competitiveness.

**Keywords:** Big Data, HR analytics, human resource management, HRM, digital transformation, data analysis, workforce management, organizational effectiveness.

Katta hajmli ma’lumot [1] yoki katta hajmdagi ma’lumot [2] (inglizcha: Big data) — katta hajmdagi ma’lumotlarga nisbatan qo‘llanadigan termin hisoblanadi (odatda terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasida). Ushbu ma’lumotlarni amaldagi va yangi yaratilayotgan texnologiyalar

yordamida to‘plash, taqsimlash, o‘zgartirishlar kiritish, tahlil qilish, saqlash va vizual shaklda tasvirlash imkonini bo‘lishi kerak. Ma‘lumotlar miqdorining tez o‘sishiga so‘nggi yillarda kuzatilayotgan texnologik taraqqiyot va buning natijasi hisoblanmish mashina tomonidan yaratilayotgan ma‘lumotlarning ko‘payib borishi sababchidir. Big Data aslida ilmiy-tadqiqotga aloqador sohalarda avvaldan ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin so‘nggi yillardagina ushbu fenomen ko‘proq tilga olinadigan bo‘ldi. Buning sababi shundaki, katta miqdordagi ma‘lumotlarni tahlil qilish endi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ham keng qo‘llanila boshlanishi va buning oqibatida ma‘lumotlar tahlilining raqobatbardoshlikni oshirish va samaradorlikni kuchaytirish kabi muhim masalalarda asosiy o‘rinni egallaganidir. Xususan, Big Data (katta hajmdagi ma‘lumotlar) HR (Inson resurslari) sohasida sezgi yoki taxminlarga emas, balki aniq fakt va raqamlarga tayangan holda qaror qabul qilish imkonini beradi. U yollash jarayonlarini optimallashtirish, xodimlar samaradorligini oshirish, jamoani saqlab qolish va xarajatlarni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada Big Data va HR analitika texnologiyalarining inson resurslarini boshqarish samaradorligiga ta‘siri, ularning amaliy qo‘llanilishi hamda rivojlanish istiqbollari o‘rganiladi. Inson resurslarini boshqarishda Big Data va HR analitika masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo‘nalishda turli olimlar va amaliyotchilar tomonidan Big Data texnologiyalarining iqtisodiyot va boshqaruv jarayonlaridagi o‘rni, shuningdek, HR sohasida qaror qabul qilish jarayonlariga ta‘siri keng o‘rganilgan. Borotov (2023) o‘z tadqiqotida raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilib, ma‘lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvlarining iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi rolini ta‘kidlaydi. Ushbu yondashuv Big Data texnologiyalarining biznes jarayonlarida keng qo‘llanilishini asoslab beradi. Fayziyev, Babayev va Babayev (2023) esa katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish usullarini o‘rganib, Big Data texnologiyalarining strukturalangan va strukturalanmagan ma‘lumotlarni qayta ishlashdagi imkoniyatlarini yoritadi. Ularning fikricha, ushbu texnologiyalar qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va aniqligini oshiradi. Google tomonidan ishlab chiqilgan amaliy qo‘llanmalarda (Rework, 2024) jamoalar samaradorligini oshirish va xodimlarni boshqarishda ma‘lumotlarga asoslangan yondashuvlar muhim o‘rin egallashi ta‘kidlanadi. Bu yondashuv HR jarayonlarida empirik tahlil va real vaqt ma‘lumotlaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada inson resurslarini boshqarishda Big Data va HR analitika texnologiyalarining samaradorlikka ta‘sirini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali HR analitika va Big Data texnologiyalarining nazariy asoslari o‘rganildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida an‘anaviy HR boshqaruvi va ma‘lumotlarga asoslangan HR (data-driven HR) yondashuvlari o‘zaro solishtirildi. Statistik ma‘lumotlar tahlili asosida xodimlarni tanlash, baholash va kadrlar qo‘nimsizligini prognozlash jarayonlarida Big Data texnologiyalarining samaradorligi baholandi.

Inson resurslarini boshqarish ya‘ni HRda Big Data dan foydalanishning bir qancha afzalliklari va qo‘llanish sohalari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Sifatli va tezkor yollash ya‘ni smart rekruting:

- Rekruterlar Big Data yordamida kompaniya qadriyatlari va ehtiyojlariga mos tarzda tizimni filtrlashadi va nomzodlarning rezyumelari aynan shu filtr asosida saralanadi. Shuningdek, ma‘lumotlar tahlili orqali o‘tgan yillarda qaysi manbalardan (masalan, LinkedIn, maxsus ish saytlari yoki tavsiyalar) kelgan xodimlar kompaniyada uzoqroq va samaraliroq ishlaganini aniqlash mumkin. Bu esa HR byudjetini to‘g‘ri taqsimlashga va noto‘g‘ri nomzodlarni yollash xavfini (kamaytirishga yordam beradi).

2. Xodimlarning ishdan ketishini oldindan aniqlash:

- Bunda tizim xodimlarning kayfiyati va faolligini tahlil qilish natijasida, xodimlarning ishdan ketish holatlarini oldindan aniqlaydi va xavf haqida ogohlantiradi. HR menejerlari esa ushbu ma‘lumotlar asosida xodim bilan vaqtida suhbatlashib, uning muammolarini hal qilishlari va qadrlı kadrlarni kompaniyada saqlab qolishlari mumkin.

3. Samaradorlikni oshirish:

- Katta ma‘lumotlar tahlili orqali kompaniyadagi eng muvaffaqiyatli va yuqori natija ko‘rsatayotgan xodimlarning umumiy xususiyatlarini (ko‘nikmalari, ish uslubi, muloqot formati)

aniqlash mumkin. Ma'lumotlar qaysi jamoalar birgalikda samaraliroq ishlayotganini va qayerda ish jarayoni sekinlashayotganini aniq ko'rsatib beradi.

#### **4. Xodimlar rivojlanishi va o'qitish:**

- Hamma xodimlarga bir xil trening o'tish tizimi o'zini oqlamaydi. Big Data har bir xodimning kuchli va kuchsiz tomonlarini, uning joriy loyihalardagi natijalarini tahlil qilib, aynan u uchun zarur bo'lgan shaxsiy o'quv rejasini tuzishga yordam beradi. Bu esa o'qitishga ajratilgan byudjetning samarali sarflanishini va xodimlarning professional jihatdan to'g'ri o'sishini ta'minlaydi.

#### **5. Kompensatsiya va rag'batlantirish tizimi:**

- Big Data mehnat bozoridagi joriy maoshlar trendini, raqobatchilarning takliflarini va kompaniya ichidagi xodimlarning hissalarini real vaqt rejimida solishtirish imkonini beradi. Natijada xodimlarga bozordagidan past bo'lmagan, ularning bajargan ishiga mos keladigan adolatli maosh va shaffof bonus tizimi joriy etiladi. Bu esa jamoada noroziliklar kelib chiqishining oldini oladi.

Jahonning yetakchi texnologik gigantlari HR sohasida Big Data-dan shunchaki ma'lumot yig'ish uchun emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida foydalanadilar. Ularning tajribasi "People Analytics" (Inson analitikasi) yo'nalishining asosi hisoblanadi. Masalan, Google (Project Oxygen va Project Aristotle) [3]: Google kompaniyasi o'zining "People Analytics" bo'limi orqali HR sohasiga ilmiy yondashuvni olib kirdi. Project Oxygen tadqiqoti doirasida yillar davomida yig'ilgan unumdorlik ko'rsatkichlari va xodimlar so'rovnomalari tahlil qilindi. Natijada, kompaniyadagi "eng yaxshi menejer"ning 8 ta (keyinchalik 10 ta) asosiy xususiyati aniqlandi va rahbarlarni tayyorlash tizimi qayta ko'rib chiqildi. Project Aristotle loyihasida esa Big Data yordamida jamoalarning samaradorligi tahlil qilindi va eng muvaffaqiyatli jamoalarning siri ulardagi texnik bilimda emas, balki "psixologik xavfsizlik" (xodimlarning fikr bildirishdan qo'rqmasligi) muhitida ekanligi isbotlandi [4].

O'zbekiston bozorida HR analitikasi va Big Data elementlarini qo'llash endigina rivojlanish bosqichiga qadam qo'yimoqda. Mamlakatdagi raqamlashtirish tendensiyalari ushbu sohada ham yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

- Raqamli infratuzilmaning shakllanishi: O'zbekistonda Yagona milliy mehnat tizimi (my.mehnat.uz) joriy etilishi mehnat munosabatlarini raqamlashtirishda birinchi yirik qadam bo'ldi. Bu davlat va yirik kompaniyalar darajasida umumiy mehnat bozori tendensiyalarini (ish o'rinlari dinamikasi, o'rtacha maoshlar, talab yuqori bo'lgan kasblar) tahlil qilish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bazasini yaratdi.

- Yetakchi sohalardagi amaliyot (Banking va Telekom): Hozirda O'zbekistondagi yirik xususiy va transformatsiya jarayonidagi davlat banklari, riteyl (chakana savdo) tarmoqlari hamda telekommunikatsiya kompaniyalari (Beeline, Ucell va b.) HR analitikasidan faol foydalanmoqda. Ular KPI (samaradorlik ko'rsatkichlari) monitoringi, xodimlarning sotuv ko'rsatkichlari tahlili va xizmat ko'rsatish sifatini baholashda BI (Business Intelligence — masalan, Power BI, Tableau) tizimlarini integratsiya qilmoqdalar.

- Mavjud muammolar va cheklovlar: O'zbekiston sharoitida Big Data-ni HR-ga to'liq tatbiq etishda bir nechta to'siqlar mavjud. Birinchidan, ko'plab kichik va o'rta korxonalarda HR hali ham faqat "kadrlar ishi" (hujjatlashtirish) darajasida qolib ketmoqda va ma'lumotlar tizimli yig'ilmaydi. Ikkinchidan, bozorda bir vaqtning o'zida ham HR jarayonlarini, ham ma'lumotlar tahlilini (Data Science) tushunadigan HR-analitik mutaxassislar taqchilligi sezilarli darajada yuqori. Uchinchidan, xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash bo'yicha huquqiy va korporativ madaniyat to'liq shakllanmagan.

- Kelajakdagi imkoniyatlar (Istiqbollar): Mahalliy kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun yaqin yillarda HR-da avtomatlashtirish tizimlaridan (ATS — Applicant Tracking Systems, LMS — Learning Management Systems) foydalanish ko'lamini kengayadi. Mahalliy startaplar va kompaniyalar uchun nomzodlarni skreping (ochiq manbalardan qidirish) qilish, xodimlar samaradorligini ichki tahliliy tizimlar orqali baholash va ishchi kuchini to'g'ri rejalashtirish uchun katta bozor imkoniyatlari mavjud.

HR analitika — kelajakdagi boshqaruvning muhim elementi. O'zbekiston mehnat bozorida ushbu tizim endi shakllanayotgan bo'lsa-da, bank, telekommunikatsiya va riteyl sohalaridagi

raqamlashtirish jarayonlari kelajak uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Mahalliy kompaniyalar raqobatbardoshligini saqlab qolishlari uchun tizimli ma'lumotlar bazasini yaratish, professional HR-analitiklarni tayyorlash va global texnologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish o'ta muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Wikipedia ma'lumotlari
2. Borotov, SHarofiddin (28-fevral 2023-yil). "Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlantirish istiqbollari" Iqtisodiyot va ta'lim. 24-jild, № 1. 56–61-bet. doi:10.55439/ECED/vol24\_iss1/a7.
3. <https://rework.withgoogle.com/intl/en/guides/understand-team-effectiveness>
4. Garvin, D. A., Wagonfeld, E., & Kind, L. (2013). How Google Sold Its Engineers on Management. Harvard Business Review, 91(12), 74-82.
5. Fayziyev, Shavkat Ismatovich; Babayev, Saidmuhammadjon Saidkamolovich; Babayev, Sirojiddin Saidkamolovich (2023). "Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari". O'zbekiston milliy axborot agentligi – O'z A Ilm-fan bo'limi (elektron jurnal). No.04

**УДК: 330.36**

**АҲОЛИ ЎСИШИНИНГ СО<sub>2</sub> ЭМИССИЯСИ, РЕСУРСЛАР ИСТЕЪМОЛИ ВА  
УЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИККА ТАЪСИРИ**

**ВЫБРОСЫ СО<sub>2</sub>, ПОТРЕБЛЕНИЕ РЕСУРСОВ И РОСТ НАСЕЛЕНИЯ, А ТАКЖЕ ИХ  
ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ**

**POPULATION GROWTH'S CO<sub>2</sub> EMISSIONS, RESOURCE CONSUMPTION, AND  
THEIR IMPACT ON ECONOMIC SUSTAINABILITY**

**Эгамназарова Гулноза Шухрат кизи**  
ЎзМУ талабаси

**Аннотация**

Ушбу мақоланинг асосий мақсади аҳоли ўсишининг СО<sub>2</sub> эмиссияси, ресурслар истеъмоли ва уларнинг иқтисодий барқарорликка таъсирини ўрганишдир. Мақоланинг методологияси ушбу мавзуга оид назарияларнинг қиёсий таҳлили, статистик маълумотлар орқали эконометрик регрессия таҳлилини тузиш ва унинг натижаларини изоҳлашдан иборат. Шу билан бирга, халқаро ташкилотлар томонидан аҳоли ўсиши билан боғлиқ экологик муаммоларни ҳал қилишга қаратилган усуллар ва таклифларни ўрганиш ушбу мақоланинг устувор йўналишларидан биридир.

**Калит сўзлар:** СО<sub>2</sub> эмиссияси, аҳоли ўсиши, эконометрик регрессия, корреляция.

Основная цель данной статьи — изучение влияния роста населения на выбросы СО<sub>2</sub>, потребление ресурсов и их воздействие на экономическую стабильность. Методология статьи включает сравнительный анализ теорий по данной теме, построение эконометрического регрессионного анализа с использованием статистических данных и интерпретацию его результатов. При этом одним из приоритетов статьи является изучение методов и предложений, направленных на решение экологических проблем, связанных с ростом населения, международными организациями.


**Ключевые слова:** выбросы СО<sub>2</sub>, рост населения, эконометрическая регрессия, корреляция.

The main purpose of this article is to study the impact of population growth on CO<sub>2</sub> emissions, resource consumption and their impact on economic stability. The methodology of the article is a comparative analysis of theories on this topic, the construction of econometric regression analysis using statistical data and the interpretation of its results. At the same time, one of the priorities of this article is the study of methods and proposals aimed at solving environmental problems associated with population growth by international organizations.

**Keywords:** CO<sub>2</sub> emissions, population growth, econometric regression, correlation.

Ҳозирги кунда дунёда қатор экологик муаммолар кузатилмоқда ва афсуски уларнинг салбий таъсири кучаймоқда. Экологик сиёсатни тўғри ва самарали олиб бориш ҳамда атроф-муҳитга келтирилаётган зарарни камайтириш эса бугунги куннинг муҳим масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Аҳоли ўсиши билан бирга табиатдаги ресурслар ва хомашёга бўлган талаб ҳам ошиб бормоқда. Бу эса саноатда ва қишлоқ хўжалигида янада кўпроқ маҳсулот ишлаб чиқарилишига олиб келмоқда. Айниқса, охириги 10 йилликда экологияга келтирилган зарар миқдори кўпайди ва давлатлар фаол равишда экологик сиёсатни олиб бориш, “яшил” иқтисодиётга ўтиш ва экологик тоза маҳсулотларни ишлаб чиқишни йўлга қўя бошладилар. Асосан атмосферага чиқариладиган турли хил зарарли ва захарли газлар, шу жумладан СО<sub>2</sub> нинг миқдори ва аҳоли ўсиши ўртасидаги алоқани тушуниш орқали юзага келаётган экологик муаммоларнинг олдини олиш мақсад қилинмоқда. Анъанавий иқтисодиёт ва саноат ишлаб чиқаришида аҳоли ўсиши туфайли экологик муаммолар пайдо бўлиши ва атроф муҳит зарарланиши мумкин. Лекин, ҳозирги дунёда кўпчилик давлатлар ресурс тежамкор ишлаб чиқариш ва “яшил” иқтисодиётга ўтишни ўз олдиларига мақсад қилиб қўйдилар. Бу ҳолатда аҳолининг ўсиши тўғридан-тўғри экологик муаммоларнинг пайдо бўлиши ёки ёмонлашувига сабаб бўлмаслиги мумкин.

Аҳоли ўсиши ва экологик муаммоларнинг пайдо бўлиши ўртасидаги алоқани тушунишга уринар эканмиз, энг аввало, аҳоли ўсишининг хусусиятларини, унинг демография ва иқтисодиётга таъсирини тушуниб олишимиз лозим. Аҳоли ўсишини бир жараён деб олсак, бу жараёнга таъсир қилувчи бир нечта омиллар мавжуд эканини кўришимиз мумкин. Масалан, ривожланган соғлиқни сақлаш тизими, озиқ-овқат хавфсизлиги, яхшиланган иш шароитлари ва шу каби кўплаб бошқа омиллар аҳоли сонининг доимий равишда ошиб боришига таъсир қилади дейишимиз мумкин. Шу жумладан, 1350-йилларда Ғарбий Евросиё ва Шарқий Африкада қора ўлат пандемияси тугаганидан буён дунё аҳолиси сони доимий равишда ошиб бормоқда. Аҳоли сонинг ошиши нафақат мамлакатда одам сонинг кўпайиши билан боғлиқ ва балки иқтисодий ва демографик жараёнларнинг ўзгаришига ҳам таъсир қилувчи омилдир.



**1-расм. Дунё аҳолисининг ўсиш суръати[6]**

Юқорида келтирилган 1-расмда дунё аҳолиси ўсиш суратлари келтирилган. 2022 йилда дунё аҳолисининг сони 8 миллиарда етди ва бу рақам ўсишда давом этмоқда.

Аҳоли ўсишининг демографик жиҳатлари асосан аҳолининг ёш ва жинс бўйича таркиби, шаҳар ва қишлоқ аҳолисининг улуши, ички ва ташқи миграция каби жиҳатларни қамраб олади. Аҳоли ўртасида туғилишлар сони кўпайиши, ўртача умр давомийлигининг ўсиши ва ривожланган соғлиқни сақлаш тизими дунё аҳолиси сонининг доимий равишда ўсишига таъсир этмоқда деб айтиш мумкин. Яъни, ҳозирги кунда оғир жисмоний меҳнат ҳамда хавфли ишларнинг асосий қисми техника ва технологиялар ёрдамида бажарилиши, соғлиқни сақлаш тизимининг яхшиланиши, кўплаб хавфли ва юқумли касалликларга даво топилганлиги инсонларнинг узок умр кўришига ҳисса қўшмоқда. Аҳоли сони ўсиши ўз навбатида инсон капитали ошишини белгилаб беради ва бу ишлаб чиқариш ҳажмини оширишда муҳим омил бўлиб ҳисобланади.

Аҳоли сони ўсиши энг аввало ресурсларга бўлган талабни оширади. Асосан, электр-энергияси, сув, ер ва озик-овқатга бўлган талаб доимий равишда ўсиб боради. Бу эса табиатда мавжуд бўлган ресурслардан ташқари муқобил ресурсларга бўлган эҳтиёжнинг пайдо бўлиши демакдир. Энг асосий масалалардан бири эса урбанизация ва инфратузилмани тўғри ташкил қилишдир. Аҳоли ўсиши энг аввало уй-жой, транспорт, таълим, соғлиқни сақлаш каби инфратузилмаларга бўлган қўшимча эҳтиёжни пайдо қилади. Бу жараёнда чиқиндиларни қайта ишлаш, сув ва электр-энергия ресурсларидан тўғри фойдаланиш, ҳаво сифатини назорат қилиш ва аҳоли фаровонлигини таъминлаш энг муҳим масаладир Барқарор ишлаб чиқариш ҳамда масъулиятли истеъмол меъёрлари бузилиши натижасида дунё бир қатор глобал экологик муаммоларга дуч келмоқда. Хусусан, аҳоли ўсиши билан бирга қуйидаги муаммоларнинг кўлами ва таъсири янада кенгаймоқда:

1. Сув ва сув ресурслари билан боғлиқ бўлган муаммолар: сув танқислиги, дарё, кўл ва океанларнинг ифлосланиши, Орол денгизи муаммоси, музликларнинг эриши натижасида сув тошқинларининг келиб чиқиши;


2. Тупроқ, яъни, ер билан боғлиқ муаммолар: ер эрозияси, ер сифатининг тушиши, шўрланиш ва бошқалар;

3. Биологик хилма-хилликнинг йўқолиши, яъни, ҳайвонот олами ва ўсимликлар ноёб турларининг йўқолиб кетиши;

4. Саноат ва чиқиндилар билан боғлиқ муаммолар, яъни чиқиндиларни қайта ишлаш, уларни йиғиш, ташиш ва йўқ қилиш давомида юзага келадиган муаммолар;

5. Атмосфера ҳавоси билан боғлиқ муаммолар, жумладан, ҳаво ифлосланиши, озон қатламининг емирилиши, ҳавода иссиқхона газлари ва бошқа зарарли газлар миқдорининг ошиб кетиши ва глобал иссиқлик каби муаммолар.

Ушбу экологик муаммолар тўсатдан пайдо бўлиб қолгани йўқ. Улар инсон фаолиятининг маълум бир таъсири остида йиллар давомида шаклланган. Энг асосий сабаблардан бири эса аҳоли сонининг ошиши натижасида ялпи талабнинг ошишидир. Бунга жавобан, ялпи таклифнинг ҳам доимий равишда ошиб бориши кузатилмоқда. Яъни, аҳоли ўсиши кўпроқ ишлаб чиқариш дегани, бу эса кўпроқ ресурслардан, сувдан, электр-энергиясидан фойдаланиш демакдир. Бу жараён эса узок муддатда ресурсларнинг камайишига, чиқиндиларнинг кўпайишига ва атроф-муҳитнинг зарарланишига олиб келади. Энг ачинарлиси шуки, чиқиндиларни қайта ишлаш даражасининг паст эканлиги туфайли чиқиндиларнинг асосий қисми яна табиатнинг ўзига қайтарилади. Табиатда чиқиндилар бутунлай чириб, йўқ бўлиб кетиши учун эса бир неча ўн йиллар керак бўлади. Кўп ҳолатларда чиқиндилар океанлар ва дарёларга улоқтирилади ва бу эса сув ости дунёсига катта зарар келтиради. Бошқа ҳолатларда чиқиндилар ер остига кўмилади ва бу эса ернинг унумдорлиги ва сифатининг тушишига олиб келади. Ҳар икки ҳолатда ҳам инсоният табиатдан фойдали хомашё ва ресурсларни олиб, бунинг эвазига табиатни зарарламоқда. Бундан ташқари, ҳаво ҳароратининг доимий равишда ошиб бориши туфайли глобал иссиқлик кузатилмоқда. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг маълумотларига кўра сайёрамиздаги энг юқори ҳарорат 2024 йилда кузатилган.



2-расм. Дунёда ҳаво ҳароратининг ошиб бориши [5]

Атмосфера ҳавосига чиқарилаётган  $\text{CO}_2$  ва иссиқхона газлари миқдори ва аҳоли ўсиши ўртасидаги боғлиқликни тушуниш ҳаво ифлосланиши ва глобал иссиқлашга таъсир этаётган асосий омилларни аниқлаш имконини беради. Аҳоли ўсиши атмосфера ҳавоси таркибидаги  $\text{CO}_2$  миқдорининг ошишига сабаб бўлади деган назариялар мавжуд. Бу назарияларнинг ишончлилигини ўрганиш мақсадида Ўзбекистон ҳудудида 2016-2025-йиллар оралиғида атмосфера ҳавосига чиқарилган  $\text{CO}_2$  миқдори ва аҳоли ўсиши ўртасидаги корреляцияни аниқлаш ва эконометрик регрессия моделини тузиш мақсад қилиб олинди. Регрессия учун маълумотлар сифатида 2016-2024 йиллар оралиғида Ўзбекистон Республикаси ҳудудида атмосферага чиқарилган зарарли газлар ва аҳоли ўсиши олинди. Бунда аҳоли ўсишига таъсир этувчи омил (x) ва атмосферага чиқарилган зарарли газлар миқдори эса натижавий омил (y) сифатида олинди. Улар ўртасидаги корреляция коэффиценти – 0,56 га тенг бўлиб, бу ўртача салбий боғланиш борлигини кўрсатади. Бундан кейинги босқич эса регрессия тенгламасини тузишдир.

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 10     |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model    | 11872.8079 | 1  | 11872.8079 | F(1, 8)       | = | 3.63   |
| Residual | 26198.9126 | 8  | 3274.86407 | Prob > F      | = | 0.0934 |
|          |            |    |            | R-squared     | = | 0.3119 |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.2258 |
| Total    | 38071.7205 | 9  | 4230.19116 | Root MSE      | = | 57.226 |

| y     | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| x     | -.0179504 | .0094274  | -1.90 | 0.093 | -.0396901 .0037893   |
| _cons | 1507.596  | 324.5633  | 4.64  | 0.002 | 759.1516 2256.04     |

3-расм. Регрессия тенгламаси

Юқорида келтирилган Регрессия тенгламаси маълумотларини таҳлил қилсак, аҳолининг ўсиши ва атмосферага чиқарилган зарарли газлар миқдори ўртасидаги боғлиқлик статистик жиҳатдан аҳамиятга эга эмаслигини кўришимиз мумкин. Бунинг сабаби шуки, 95% лик ишончлилиқ интервалида аҳоли ўсиши коэффицентлари - 0,3969 ва 0.0038 оралиғида экани, яъни коэффицентлар оралиғида 0 нинг борлигидир. Бу ҳолатда регрессия тенгламасининг натижалари статистик аҳамиятга эга бўлмайди.

Бу ҳолатни зарарли газлар эмиссиясига аҳоли ўсишидан бошқа омиллар ҳам таъсир қилиши сифатида тушунтириш мумкин. Хусусан, сўнгги йилларда илм-фан тараққиёти натижасида чиқарилган газларни филтрлаш орқали уларнинг зарарини камайтириш йўллари ишлаб чиқилмоқда. Бундан ташқари, экология соҳасида чиқарилаётган конунлар, қарор ва Президент фармонлари ҳам вазиятни яхшилашга ёрдам бэрмоқда. Масалан, 2024 йил 23 декабрда кучга кирган "Атмосфера ҳавосини ифлослантирувчи манбаларни хатловдан ўтказиш ва унга ташланаётган ифлослантирувчи моддалар миқдорини белгилаш тўғрисида" ги йўриқнома тасдиқланиши ҳам ҳаво ифлосланишини камайтиришга ижобий таъсир

кўрсатмоқда. Шу билан бирга Ўзбекистон 2017 йил 19 апрелда Париж битимини имзолаган ва “Париж битимини ратификация қилиш тўғрисида”ги қонун 2018 йил 27 сентябрда мамлакатимиз Сенат томонидан маъқулланган. Битимда давлатимиз 2030 йилга қадар ҳаводаги зарарли газлар миқдорини 35% га қисқартириш мажбуриятини олганлиги юқоридаги регрессиянинг натижаларини тушунтиришда ёрдам беради. Бундан хулоса қилиш мумкинки, аҳоли ўсиши ҳаводаги зарарли ва ифлослантирувчи газлар миқдорининг ошишига сабаб бўлади деган анъанавий назария ва фикрлар аста секин ўз исботини йўқотмоқда. Бунга сабаб эса халқаро ҳамкорлик ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича олиб борилаётган ислохотлардир.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш лозимки, аҳоли ўсиши табиий жараён ва буни турли хил институционал усуллар орқали таъкидлашнинг ҳам салбий ва ижобий томонлари мавжуд. Экологик муаммолар нафақат дунё аҳолисининг доимий ошиб боришидан ва балки нотўғри ва масъулиятсиз ишлаб чиқаришдан, самарали ва инновацион технологияларни амалиётга татбиқ қилишдаги кечикишлардан ва аҳоли ўртасида экологик саводхонлик паст эканлигидан келиб чиқмоқда. Ҳозирги кунда дунёда ва юртимизда амалга оширилаётган ислохотлар ва стратегик режалар экологик муаммоларни бутунлай йўқ қилишга қаратилмаган. Бунинг ўрнига, юқорида санаб ўтилган экологик муаммоларнинг салбий таъсирини ва таъсир кўламини қисқартиришга асосий урғу қаратилмоқда. Инсон тараққиёти ва фаровонлиги учун албатта саноатни ривожлантириш ва табиатдаги ресурслардан фойдаланишига тўғри келади. Ушбу жараёнда атроф-муҳитга келтириладиган зарарни минимал даражага тушириш орқали барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлаш мумкин. Ресурс тежамкор ва самарадор ишлаб чиқаришга ўтиш орқали экологик муаммоларнинг зарарини камайтириш мумкин. Экологик муаммоларнинг салбий таъсирини камайтиришда амалий тавсиялар сифатида қуйидагиларни олишимиз мумкин:

1. Аҳоли ўртасида экологик саводхонликни ошириш, уларга дунёдаги экологик муаммолар ҳақида маълумот бериш ва шу орқали уларни масъулиятли ҳаёт тарзига ўтишга рағбатлантириш;

2. "Полутэр пайс принсиplt", яъни ифлослантирувчи тўлайди тамойилини амалиётга тўлиқ жорий қилиш;

3. Халқаро ҳамкорликни кучайтириш. Экологик соҳада кучли ва илғор бўлган давлатлар билан ўзаро ҳамкорликни йўлга қўйиш, уларнинг тажрибаси ва илмидан фойдаланиш;

4. Ишлаб чиқарувчилар ўртасида экологик тозалик бўйича рақобатни юзага келтириш. Экологияга зарар етказадиган маҳсулотларнинг истеъмолини доимий равишда камайтириш ва экологик тоза маҳсулотларни қўллаб-қувватлаш.

Ушбу амалий тавсияларнинг аксарияти давлатимиз амалиётида жорий қилинмоқда ва шуни таъкидлаш жоизки экологик муаммоларни ҳал қилиш қисқа вақтда эмас балки узок вақтда ўз натижасини кўрсатади. Аҳоли ўсишини муаммо ёки омил сифатида кўриш эмас, балки тўғри сиёсат ва иқтисодиёт орқали экологик муаммоларни ҳал қилиш лозим.

**Илмий раҳбар: проф. Хошимов П.З.**

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Машарипова М.А., Рудэнко И.Ю., Атроф-муҳит ва табиий ресурслар иқтисодиёти. Дарслик, Урганч. 2025.
2. Нигматов А. Экологиянинг назарий асослари. Ўқув қўлланма. — Тошкент. 2013.
3. Ўзбекистон Статистика қўмитаси расмий сайти, Stat.uz, <https://stat.uz/uz/>
4. Ўзбекистон Қонунчилик портали, Lxh.uz, <https://lxh.uz/docs/-7271112?ONDATA=23.12.2024>
5. Сэнкэн, очиқ маълумотлар сайти, <https://sharh.google.com/search?q=XA3M4pYBhXLRkUDQ0>
6. Scientific American сайти, <https://www.scientificamerican.com/article/global-population-growth-is-slowing-down-heres-one-reason-why/>

**КИБЕРЖИНОЯТ РИСКЛАРИНИ БОШҚАРИШ АМАЛИЁТИНИНГ КОНЦЕПТУАЛ  
АСОСЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ**

**РАЗРАБОТКА КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ОСНОВЫ ДЛЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ  
РИСКАМИ В СФЕРЕ КИБЕРПРЕСТУПНОСТИ**

**DEVELOPMENT OF A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR CYBERCRIME RISK  
MANAGEMENT PRACTICE**

**Хасанов Умиджон Юсупович**

Бухоро давлат университети мустақил тадқиқотчиси

**Аннотация**

Мақолада давлат бошқаруви тизимида кибержиноят рискларини бошқариш амалиётига бағишланган назарий ёндашувларининг ривожланиш босқичлари таҳлил қилиниб, ҳар бир босқичнинг ўзига хос хусусиятлари аниқланган.

**Калит сўзлар:** бошқарув, давлат бошқаруви, хавфсизлик, рақамли бошқарув, электрон ҳукумат, кибержиноят, стратегик бошқарув, кибр хавф, кибермакон.

В статье анализируются этапы развития теоретических подходов к практике управления рисками киберпреступности в системе государственного управления и выявляются специфические особенности каждого этапа.

**Ключевые слова:** управление, государственное управление, безопасность, цифровое управление, электронное правительство, киберпреступность, стратегическое управление, киберриски, киберпространство.

The article analyzes the stages of development of theoretical approaches to the practice of cybercrime risk management in the state administration system and identifies the specific features of each stage.

**Keywords:** governance, public administration, security, digital governance, e-government, cybercrime, strategic management, cyber risk, cyberspace.

Рақамли трансформациялашув жараёнларининг сўнги йиллардаги глобал иқтисодий муносабатлар тизимида қўлланилиши, жумладан турли мамлакатлар амалиётларига рақамлаштирилган иқтисодий муносабатлар кириб боришининг сезиларли даражада кескин тезлашуви натижасида кибержиноятчилик глобал иқтисодий ва институционал барқарорликка таъсир этувчи энг юқори стратегик таҳдидлар қаторида тобора устувор аҳмият касб этиб бораётганлиги билан боғлиқ тенденциялар кўзга ташланади. Айниқса, давлат бошқаруви, молия, энергетика, транспорт ва мудофаа инфратузилмаларининг рақамлашуви киберрисклари оддий техник муаммо эмас, балки стратегик бошқарув категорияси сифатида баҳолашни талаб қилмоқда. Глобал даражадаги рақамли трансформациялашув жараёнларининг жадаллашуви бугунги Ўзбекистон шароитида рақамлаштириш, жумладан, “давлат бошқарувини рақамли трансформациялаш борасидаги чора-тадбирлар самарадорлигини ошириш” [1] да кибержиноятчилик билан боғлиқ бўлган стратегик бошқарув амалиётини такомиллаштириш заруриятини вужудга келтирмоқда.

“Рақамли Ўзбекистон – 2030” [2] стратегияси доирасидаги ислохотлар мамлакатда электрон ҳукумат концепцияси асосида миллий иқтисодиётнинг турли тармоқлари рақамли трансформациялашув жараёнларини жадаллашиши ҳисобига кибермакондаги кибержиноятлар учун шарт-шароитлар яратилишига сабаб бўлиши билан биргаликда, “киберхавфсизлик соҳасида давлат сиёсати тўғрисида ишончли ва сифатли, объектив

маълумотларни тақдим этиш орқали мамлакатнинг ижобий имижини яратиш ва унинг халқаро майдондаги обрўсини мустаҳкамлаш” [3] йўналишидаги давлат дастурлари самарадорлигини ошириш заруриятини уйғотмоқда. Бу эса бугунги шароитда мамлакат давлат бошқаруви тизимида кибержиноят рискларини стратегик бошқариш механизмини такомиллаштиришнинг илмий ва амалий жиҳатдан долзарблигини тобора ортишига олиб келмоқда.

Р.Х. Хусанов, А.У. Анорбоев, М.Б. Хусенов, И. Мусахонзода, М. Самадқулов, Ш.С. Ширинова каби олимлар томонидан кибержиноятчиликнинг иқтисодий оқибатлари ва унга қарши курашиш чоралари таҳлили амалга оширилиб, мамлакат миллий хусусиятлари баҳоланган.

Шу билан биргаликда, Янги Ўзбекистон давлат бошқаруви тизимида кибержиноят рискларини стратегик бошқариш механизмини такомиллаштириш йўналишлари билан боғлиқ бўлган масалалар комплекс тарзда, тизимли, махсус тадқиқот объекти сифатида таҳлил этилмаган. Муаммонинг долзарблиги, иқтисодий адабиётда етарлича ўрганилмаганлиги, қутилаётган илмий натижаларни илмий-амалий аҳамиятга эгаллиги ушбу мавзунинг тадқиқот объекти сифатида танлашга асос бўлди.

Тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий ва селектив танлаб тадқиқ қилиш, таснифий-иқтисодий таҳлил, монографик таҳлил ва гуруҳлаш усуллари қўлланилган.

Сўнгги йилларда иқтисодий фанда кибержиноят рискларини стратегик бошқариш назарияларининг давлат бошқаруви билан алоқадор бўлган назариялари ривожланиш босқичлари ва ҳар бир босқичнинг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилишга қаратилган А. Хусеин [4], А. Аҳмед [5], М. Абдуллаҳ [6], С.А. Александер [7], А. Кузиор [8], Б. Гунаван [9] каби хорижий олимларнинг илмий ишларини тизимли таҳлил қилиш орқали мазкур йўналишдаги илмий назарий ёндашувларнинг 1960 йилдан кейинги даврда шаклланиб, таркибий жиҳатдан олти босқичли (1-расмга қаранг) ривожланишнинг турли даврларида янада такомиллашиб бораётганлигини аниқлашга эришдик.


Ўтказилган таҳлилларга кўра, давлат бошқаруви нуктаи назаридан кибержиноят рискларини бошқариш назариясининг дастлабки асослари миллий хавфсизлик ва ахборот муҳофазаси концепцияларининг 1960-1980 йиллардаги анъанавий хавфсизлик босқичи ҳисобланган илк илмий қарашларига бориб тақалиб, ушбу даврда “давлат бошқаруви тизимида ахборот хавфсизлиги асосан техник ва физик муҳофаза нуктаи назаридан талқин қилиниб, компьютер тизимларининг давлат муассасаларига жорий қилиниши бошланиши билан ахборот ресурсларини ташқи аралашувдан ҳимоя қилиш” [10] масалалари кун тартибига чиққан.

XX асрнинг 80 йилларига келиб, иқтисодий ва институционал рискларни бошқариш назарияларининг ривожланиши давлат бошқаруви тизимида ҳам ўз таъсирини ўтказиши натижасида кибержиноят рискларини бошқаришнинг риск-менежмент назариялари шаклланган ҳисобланади.

Таҳлилларга кўра, ушбу “босқичда риск эҳтимолий йўқотиш ёки ноаниқлик омили сифатида илмий асосда ўрганила бошланиши ҳисобига, рискни идентификация қилиш, баҳолаш ва мониторинг қилишга қаратилган ёндашувлар устувор аҳамият касб этиб, айниқса, давлат бошқаруви қарорларини қабул қилишда эҳтимолий хавфларни олдиндан баҳолаш тамойили шаклланиши кибер муҳитдаги таҳдидларни бошқариш учун назарий базанинг яратилишига хизмат қилган” [11] лигини аниқлашга эришдик.

1995-2005 йилларда глобал даражадаги интернет технологияларининг оммалашуви ва электрон ҳукумат элементларининг тараққий этган мамлакатлар амалиётларига жорий этилиши улардаги давлат бошқарувида ахборот хавфсизлигига нисбатан ёндашувларни кескин ўзгартириб, ушбу давр мобайнида “ахборот хавфсизлигини бошқаришнинг институционал механизмлари шаклланишини таъминлаш босқичи амал қилиб, мазкур йўналишдаги бошқарувни ташкил этиш билан боғлиқ бўлган халқаро стандартлар ва норматив

тизимлар ишлаб чиқилган” [12] лигини инобатга олиб, босқични ахборот хавфсизлигининг институционаллашув босқичи сифатида баҳолаш мумкин бўлади, деган хулосага келдик.



**1-расм. Давлат бошқаруви тизимида кибержиноят рискларини стратегик бошқариш назарияларининг эволюцион ривожланиш босқичлари**

Манба. Муаллиф томонидан тузилган.

2005-2015 йилларда киберхавфсизлик миллий хавфсизликнинг стратегик аҳамият касб этувчи устувор йўналиши сифатида намоён бўлиб, ушбу даврда давлат бошқаруви тизимида кибержиноят рискларини стратегик бошқариш концепциялари шаклланиб, миллий киберхавфсизлик стратегиялари қабул қилина бошланган ҳисобланади. Таҳлилларга кўра, ушбу босқичнинг ўзига хос хусусияти “кибертаҳдидларни давлат бошқаруви барқарорлигига таъсир қилувчи стратегик омил сифатида баҳоланиши билан биргаликда, давлат бошқаруви тизимларида рискларни комплекс баҳолаш, эҳтимолий сценарийларни моделлаштириш ва институционал мувофиқлаштириш механизмларининг жорий этилган” [13] лигида намоён бўлади. Жумладан, мазкур босқичдаги ривожланиш тенденциялари кибержиноят рискларини бошқариш амалиётида “Корхона рискларини бошқариш (Enterprise Risk Management – ERM)” [14] интеграл ёндашувлар кенг қўлланилиши ҳисобига, рискларни давлат сиёсати даражасида мувофиқлаштириш амалиётини ривожлантириш имкониятини яратган ҳисобланиб, бунинг натижасида кибертаҳдидларни олдиндан аниқлаш ва стратегик қарорлар қабул қилиш механизми мустаҳкамланган ҳисобланади. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ушбу босқичда давлат органлари ўртасидаги интеграция ва ахборот алмашинуви муаммолари тўлиқ ҳал қилинганлиги ҳисобига уларни кейинги даврларда ҳам сақланиб қолганлигини кўриш мумкин бўлади.

2015-2020 йиллар кибержиноят рискларини стратегик бошқариш назариялари эволюциясида “Кибербарқарорлик (Cyber Resilience) концепцияси” [15] шаклланган босқич сифатида намоён бўлиб, ушбу концепция моҳияти “рақамли давлат бошқарувининг кенгайиши киберхужумларга нисбатан фақат ҳимоя эмас, балки барқарорликни таъминлаш” [16] га устуворлик қаратилиши билан изоҳланади. Кибербарқарорлик концепциясига кўра, давлат бошқаруви тизими киберхужумни тўлиқ олдини олишга эмас, балки ҳужум шароитида ҳам ўз функционаллигини сақлаб қолишга йўналтирилиши лозим бўлганлиги сабабли, мослашувчан бошқарув, интеллектуал мониторинг ва динамик риск баҳолаш механизмлари амалиётга жорий этилди. Таҳлилларга кўра, мазкур босқичда давлат тизимларининг ташқи кибер таъсирларга мослаша олиш қобилиятини кенгайтиришга устуворлик қаратилиши билан биргаликда, давлат бошқарувида рискларни доимий мониторинг қилиш, реал вақт (Real-Time)

тахлили ва институционал мувофиқлаштириш каби чора-тадбирларни амалиётга жорий этишга эришилган ҳисобланади.

2020 йилдан кейинги давр кибержиноят рискларини бошқаришда “сунъий интеллект, катта маълумотлар (Big Data) базаси” [17], “машинали ўқитиш (Machine Learning – ML)” [18] ва прогнозлаш аналитикасига асосланган ёндашувлар билан тавсифланувчи проактив рақамли бошқарув босқичи сифатида баҳоланади. Давлат бошқарувида кибертахдидларни олдиндан аниқлаш, “автоматлаштирилган мониторинг” [19] ва “башоратли бошқарув (Predictive Governance)” [20] механизмлари жорий қилиниши давлат бошқаруви тизимида киберрискларни бошқариш реактив эмас, балки проактив ва олдиндан огоҳлантирувчи моделига ўтишига хизмат қилаётганлигини аниқлаш орқали ушбу босқични проактив рақамли бошқарув босқичи сифатида баҳолашни лозим топдик.

Умуман олганда, давлат бошқаруви тизимида кибержиноят рискларини стратегик бошқариш назарияларини эволюцион ёндашув орқали таҳлил қилиш ҳисобига мазкур жараёнлар реактив хавфсизлик моделидан проактив ва интеллектуал бошқарув моделигача бўлган изчил ривожланишни намоён этиб, дастлабки босқичларда техник муҳофазага асосланган ёндашувлар устувор бўлган бўлса, кейинги босқичларда рискларни стратегик баҳолаш, кибербарқарорлик ва рақамли прогнозлаш концепциялари шаклланган ҳисобланади.

Шу жихатдан, замонавий давлат бошқаруви тизимида кибержиноят рискларини самарали бошқариш комплекс, институционал ва технологик интеграцияга асосланган кўп босқичли стратегияни талаб қилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат бошқарувини рақамли трансформация қилиш ва самарадорлигини оширишга қаратилган ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ф-68-сонли фармойиши, 28.11.2025 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ““Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сонли Фармони, 05.10.2020 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг Киберхавфсизлик стратегиясини белгилаш ва кибержиноятчиликнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-38-сонли Фармони, 10.03.2026 й.
4. Hussein A. Strategic Risk Management in the Age of Cyber Threats: Implications for Financial Institutions. *European Journal of Business and Strategic Management*, Vol.10, Issue 4, No.1, 2025. – pp. 1-14. DOI: 10.47604/ejbsm.3331
5. Ahmed A., Mensah A., & Owusu E. Cyber risk governance in emerging markets: A case of African financial institutions. *Information & Computer Security*, 29 (3), 2021. – pp. 455-472.
6. Abdullah M., Nawaz M.M., Saleem B., Zahra M., binte Ashfaq E., and Muhammad Z. Evolution Cybercrime – Key Trends, Cybersecurity Threats, and Mitigation Strategies from Historical Data. *Analytics*, Vol. 4 (25), 2025. – pp. 1-44. DOI: 10.3390/analytics4030025
7. Alexander C.A. Wang L. Cyber risk management: Theories, frameworks, models, and practices. *Computer and Telecommunication Engineering*, Vol. 3 (1), 2025. – pp. 1-11. DOI: 10.54517/cte3118
8. Kuzior A., Tiutiunyk I., Zielinska A., Keleman R. Cybersecurity and cybercrime: Current trends and threats. *Journal of International Studies*, Vol. 17 (2), 2024. – pp. 220-239
9. Gunawan B., Ratmono B.M., Abdullah A.G. Cybersecurity and Strategic Management. *Foresight and STI Governance*, Vol. 17 (3), 2023. – pp. 88-97
10. Bi M., Jing Y. Risk Management Theory Application in national information security risk control – Analysis of the relationship between classified protection and risk management. *International Conference on Automation, Mechanical Control and Computational Engineering (AMCCE)*, Published by Atlantis Press, 2015. – pp. 1830-1835
11. Harting R.Ch., Bueechl J., Anderlohr Ph., and Betz L. The Impact of Effective Risk Management on the Cyber Performance of Enterprises. *29th International Conference on Knowledge-Based and*

- Intelligent Information & Engineering Systems (KES 2025), Procedia Computer Science Vol. 270, 2025. – pp. 4343-4352
12. Nowicka J., Ciekanowski Z., Milewska A. Information Security Management as the Basis for the Functioning of an Organization. *European Research Studies Journal* Volume XXVII, Issue 3, 2024. – pp. 128-141
  13. Song Ch. Erosion of Internet Governance by Cybersecurity Threats? A Longitudinal Analysis of the Evolution of National Cybersecurity. SSRN, Sep., 2024. – 36 pages. [Online Resource] URL: [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=4953149](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4953149)
  14. Nayme F., Taybi I. Enterprise Risk Management Practices and Their Impact on Firm Performance: Evidence from Multinational Corporations. *Journal of Management and Informatics (JMI)*, Vol. 4, No. 2, 2025. – pp. 909-930
  15. Stevens T. SIX Cyber Resilience. In Book: *Cyber Risk*. Publisher: Bristol University Press, April, 2026. – pp. 80-96
  16. Hilger R.P. From cybersecurity to cyber resilience: a systemic and scalable approach for improving resilience and adaptive capacity. *Journal of Cybersecurity*, Vol. 12 (1), 2026. – pp. 1-10. DOI: 10.1093/cybsec/tyag011
  17. Cyber Security Monitoring. Het Centrum voor Criminaliteitspreventie en Veiligheid (CCV), May, 2026. – 51 pages.
  18. Wang S., Balarezo J.F., Kandeepan S., Al-Hourani A., Chavez K.G., and Rubinstein B. Machine Learning in Network Anomaly Detection: A Survey. *IEEE Acces*, Vol. 9, 2021. – pp. 152379-152396
  19. Minkevics V., and Grabis J. A capability-driven automated cybersecurity monitoring and response system. *Frontiers in Computer Science*, Vol. 7, 2025. – pp. 1-13. DOI: 10.3389/fcomp.2025.1692263
  20. Dragomir A.N., Norari A. Predictive Governance. Balancing Efficiency and Liberties in AI-Driven Bureaucracy. *Perspectives of Law and Public Administration*, Vol. 14, Issue 2, 2025. – pp. 339-353

**БОЖХОНА ТЎЛОВЛАРИНИ УНДИРИШДА БОЖХОНА ҚИЙМАТИНИ  
АНИҚЛАШНИНГ ЎРНИ**

**РОЛЬ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТАМОЖЕННОЙ СТОИМОСТИ ПРИ ВЗИМАНИИ  
ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ**

**THE ROLE OF DETERMINING CUSTOMS VALUE IN THE COLLECTION OF  
CUSTOMS PAYMENTS**

**Алимухамедов Шухрат Рихсибоевич**

Божхона институти “Божхона тўловлари ва статистикаси” кафедраси бошлиғи, доцент

**Аннотация**

Ушбу мақолада халқаро савдо амалиётида божхона тўловларини ундириш жараёнида товарларнинг божхона қийматини аниқлаш тизими, унинг ҳуқуқий-иқтисодий асослари ва давлат бюджети даромадларини шакллантиришдаги роли тадқиқ қилинади. Мақолада Ўзбекистон Республикаси божхона тизимидаги сўнгги статистик кўрсаткичлар жадвал асосида таҳлил қилиниб, Европа Иттифоқи ва Хитой каби давлатларнинг илғор хориж тажрибаси ўрганилган ҳамда тизимни модернизация қилиш бўйича илмий таклиф ва амалий тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** божхона қиймати, божхона тўловлари, фискал функция, Жаҳон савдо ташкилоти (ЖСТ), декларация, хавфларни бошқариш, Смарт-божхона.

В данной статье исследуется система определения таможенной стоимости товаров в процессе взимания таможенных платежей в международной торговой практике, её правовые и экономические основы, а также роль в формировании доходов государственного бюджета. В статье на основе таблицы проанализированы последние статистические показатели таможенной системы Республики Узбекистан, изучен передовой зарубежный опыт таких стран, как Европейский союз и Китай, а также представлены научные предложения и практические рекомендации по модернизации данной системы.

**Ключевые слова:** таможенная стоимость, таможенные платежи, фискальная функция, Всемирная торговая организация (ВТО), декларация, управление рисками, Смарт-таможня.

This article examines the system for determining the customs value of goods in the process of collecting customs payments in international trade practice, its legal and economic foundations, and its role in forming state budget revenues. The article analyzes recent statistical indicators in the customs system of the Republic of Uzbekistan in tabular form, studies the advanced foreign experience of countries such as the European Union and China, and provides scientific proposals and practical recommendations for modernizing the system.

**Keywords:** customs value, customs payments, fiscal function, World Trade Organization (WTO), declaration, risk management, Smart Customs.

Халқаро савдо муносабатларининг глобаллашуви ва жадал ривожланиши шароитида ҳар бир давлат ўз ички бозорини ҳимоя қилиш, маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш бюджет даромадларини таъминлашда божхона-тариф механизмларидан унумли фойдаланади. Божхона тўловларини тўлиқ ва ўз вақтида ундириш самарадорлиги бевосита импорт қилинадиган товарларнинг божхона қийматини тўғри, холис ва шаффоф аниқлашга боғлиқ.

Ўзбекистон Республикасининг Жаҳон савдо ташкилотига (ЖСТ) аъзо бўлиш жараёни фаоллашган ҳозирги даврда, миллий божхона тизимини халқаро стандартларга (хусусан,

GATT/ЖСТ битимининг VII моддасига) тўлиқ мувофиқлаштириш долзарб масаладир. Божхона қийматини аниқлаш устидан назоратни кучайтириш ва ушбу жараёндаги иқтисодий кўрсаткичларни илмий таҳлил қилиш мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Божхона тўловларини ундириш тизимида “божхона қиймати” тушунчаси муҳим иқтисодий-ҳуқуқий категориялардан бири ҳисобланади. Чунки импорт қилинаётган товарлар бўйича божхона божи, қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи ва бошқа мажбурий тўловларнинг тўғри ҳисобланиши бевосита товарнинг божхона қиймати қанчалик ҳаққоний ва асосли аниқланганига боғлиқ. Шу сабабли иқтисодчи олимлар, божхона соҳаси тадқиқотчилари ва халқаро ташкилотлар томонидан мазкур тушунча турли жиҳатлардан талқин қилинган.

Божхона тўловларини ҳисоблаш ва ундириш жараёнида “божхона қиймати” тушунчаси марказий иқтисодий-ҳуқуқий категориялардан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодексининг 301-моддасида божхона ҳудудига олиб кириладиган товарнинг божхона қиймати товарнинг божхона қийматини аниқлаш усулларида бири орқали аниқланадиган ва божхона тўловларини ҳисоблаш мақсадида фойдаланиладиган товар қиймати сифатида белгиланган [1]. Шу нуқтаи назардан, божхона қиймати нафақат товарнинг ташқи савдо битимидаги баҳосини, балки давлатнинг фискал манфаатлари, ташқи савдони тартибга солиш ва божхона назорати вазифалари билан боғлиқ бўлган махсус қиймат кўрсаткичини ифодалайди. Халқаро ҳуқуқий манбаларда ҳам божхона қиймати асосан импорт қилинаётган товарнинг битим қийматига таянади. Жаҳон савдо ташкилотининг ГАТТ VII моддасини қўллаш тўғрисидаги битимига кўра, импорт қилинаётган товарнинг божхона қиймати, қоида тариқасида, товар импорт мамлакатига экспорт қилиш учун сотилганда амалда тўланган ёки тўланиши лозим бўлган нарх, яъни битим қиймати асосида аниқланади [6]. Бу ёндашув божхона қийматини сунъий, ихтиёрий ёки сохта баҳолар асосида эмас, балки ҳақиқатдаги ташқи савдо битимига таянган ҳолда белгилашни назарда тутади.

Жаҳон божхона ташкилоти божхона қийматини асосан адвалор бож ставкаларини қўллаш мақсадида аниқланадиган солиққа тортиш базаси сифатида изохлайди. Шу билан бирга, божхона қиймати ташқи савдо статистикасини юритиш, миқдорий чекловларни мониторинг қилиш, тариф преференцияларини қўллаш ва миллий солиқларни ундиришда ҳам муҳим аҳамиятга эга экани таъкидланади [7]. Демак, божхона қиймати фақат божхона божини ҳисоблаш учун эмас, балки кенгроқ макроиқтисодий ва назорат мақсадларида ҳам қўлланилади.

О.А. Стрижова божхона қийматини иқтисодий ва ҳуқуқий табиатга эга бўлган махсус категория сифатида таҳлил қилади. Унинг фикрича, божхона мақсадларида қўлланиладиган товар қиймати иқтисодий ва ташқи савдо мақсадларида фойдаланиладиган қийматнинг алоҳида туридир. Муаллиф божхона қийматининг ҳуқуқий ва иқтисодий иккиламчи табиатга эга эканини асослаб, уни замонавий қонунчиликда асосан баҳолаш усуллари орқали аниқланадиган категория сифатида талқин қилади [8].

Г.Ю. Федотова божхона қийматини халқаро тартибга солиш, уни аниқлаш методологияси, декларациялаш ва назорат қилиш жараёнлари билан боғлиқ ҳолда ўрганади. Унинг ёндашувида божхона қиймати божхона-тариф тартибга солиш механизмининг асосий элементларидан бири ҳисобланади, айниқса адвалор бож ставкалари қўлланилганда божхона тўловлари миқдори бевосита божхона қийматига боғлиқ бўлади [9].

Маҳаллий олимлардан Т. Пардаев, А. Суюнов ва А. Шадманкуловлар божхона қийматини қонунчиликда белгиланган тартибда аниқланадиган, божхона тўловларини ҳисоблаб чиқариш учун фойдаланиладиган ҳамда декларацияда ҳужжатлар билан тасдиқланган ҳаққоний маълумотлар асосида кўрсатиладиган товар қиймати сифатида изохлайдилар. Бу таъриф божхона қийматининг амалдаги декларациялаш, ҳужжатлар билан тасдиқлаш ва божхона назорати жараёнлари билан чамбарчас боғлиқлигини кўрсатади [10].

Юқоридаги илмий қарашлар таҳлили шуни кўрсатадики, божхона қиймати мазмунан кўп қиррали тушунча бўлиб, у бир вақтнинг ўзида иқтисодий, ҳуқуқий, фискал, статистик ва

назорат функцияларини бажаради. Бир гуруҳ олимлар уни товарнинг ҳақиқий иқтисодий қиймати сифатида баҳолашади, бошқа тадқиқотчилар уни божхона тўловларини ҳисоблаш базаси ва давлатнинг ташқи савдони тартибга солиш инструменти сифатида талқин қилади. Халқаро ташкилотлар эса божхона қийматини шаффоф, ҳужжатлар билан тасдиқланган ва ҳақиқатда тўланган ёки тўланиши лозим бўлган нархга асосланган баҳолаш тизими сифатида кўради.

Шундан келиб чиқиб, божхона қийматини қуйидагича таърифлаш мақсадга мувофиқ: божхона қиймати — товарларнинг божхона чегарасидан олиб ўтилиши жараёнида қонунчиликда белгиланган усуллар асосида аниқланадиган, божхона тўловларини ҳисоблаш, ташқи савдо статистикасини юритиш, тариф ва нотариф тартибга солиш чораларини қўллаш ҳамда давлат бюджети даромадларини шакллантиришга хизмат қилувчи иқтисодий-ҳуқуқий қиймат кўрсаткичидир.

Божхона қиймати ташқи иқтисодий фаолият иштирокчилари томонидан импорт қилинаётган товарларга нисбатан ҳисобланадиган божхона тўловларининг асосий солиқ базаси ҳисобланади. Шу боис унинг қонунчилик талаблари асосида тўғри ва ҳаққоний аниқланиши давлат бюджети даромадларининг барқарор шаклланиши, ташқи савдо операцияларининг шаффофлиги ҳамда божхона органлари фаолияти самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Мазкур тадқиқот доирасида божхона қийматини аниқлашнинг назарий-ҳуқуқий асослари, уни белгилаш усулларининг амалда қўлланилиши ҳамда божхона тўловларини ундириш жараёнига таъсири таҳлил қилинди. Таҳлил натижалари божхона қийматини аниқлашда йўл қўйилаётган камчиликлар божхона тўловларининг тўлиқ ундирилмаслигига сабаб бўлиши мумкинлигини, шунингдек, мазкур жараённи такомиллаштириш давлатнинг фискал манфаатларини ҳимоя қилишга хизмат қилишини кўрсатди.

ГАТТнинг 7-моддаси стандартлари ва миллий қонунчиликка мувофиқ, божхона қийматини аниқлашда кетма-кетлик асосида 6 та асосий усул қўлланилади:

1. Олиб кириладиган товарнинг битим қиймати бўйича (энг кўп қўлланиладиган асосий усул).

2. Айнан бир хил товарларнинг битим қиймати бўйича.

3. Ўхшаш товарларнинг битим қиймати бўйича.

4. Қийматларни чегириб ташлаш асосида.

5. Қийматларни қўшиб ҳисоблаш асосида.

6. Резерв (устама) усул.

2. Ўзбекистон Республикаси Божхона тизими кўрсаткичлари таҳлили

Сўнгги йилларда расмийлаштирилган товарларни таҳлил қилганда божхона қийматини аниқлаш усулларини амалиётда қўлланилиши бўйича 1- жадвалда кўриш мумкин бўлади.

#### 1-жадвал

#### 2025 йилда Божхона қийматини аниқлаш усулларининг қўлланилиш улуши ва амалиётдаги ҳолати. (товарлар сонига нисбатан)

| Усул рақами ва номи                                     | Амалиётдаги улуши (%) | Қўлланилиш даражаси ва асосий сабаблари                                                                             |
|---------------------------------------------------------|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-усул. Олиб кириладиган товарнинг битим қиймати бўйича | 85%                   | Асосий ва устувор усул. Импортёрнинг ҳужжатлари (инвойс, банк тўловлари) тўлиқ ва ишончли бўлганда қўлланилади.     |
| 2-усул. Айнан бир хил товарларнинг битим қиймати бўйича | 0,3%                  | Ёрдамчи усул. Худди шу мамлакатдан, худди шу ишлаб чиқарувчидан олиб кирилган бошқа товар нархи асос қилиб олинади. |
| 3-усул. Ўхшаш товарларнинг битим қиймати бўйича         | 10,1%                 | Ёрдамчи усул. Хусусиятлари ва таркиби бўйича яқин бўлган бошқа бренд ёки маҳсулот нархига солиштирилади.            |

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

|                                            |              |                                                                                                                                            |
|--------------------------------------------|--------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 4-усул. Қийматларни чегириб ташлаш асосида | 0.5% дан кам | Жуда кам қўлланилади. Товарнинг ички бозордаги сотилиш нархидан харажатларни чегириш орқали ҳисобланади (хужжатлаштириш мураккаб).         |
| 5-усул. Қийматларни қўшиб ҳисоблаш асосида | 0.% дан      | Жуда кам қўлланилади. Хорижий ишлаб чиқарувчининг маҳсулот таннарни ва фойдаси тўғрисидаги расмий маълумотлари талаб этилади.              |
| 6-усул. Резерв (устама) усули              | 2,2%         | Юқори хавфли усул. Дастлабки 5 та усулни қўллаш имкони бўлмаганда, божхонадаги мавжуд халқаро ва миллий нархлар базаси асосида баҳоланади. |

Манба: Божхона қўмитасининг маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

Юқоридаги 1-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, Жаҳон савдо ташкилоти (ЖСТ) талабларига мувофиқ, божхона органлари томонидан 1-усул энг асосий восита сифатида қабул қилиниб, жами расмийлаштирувларнинг 85 фоизигача қисмини қамраб олади.

Бирок, тадбиркорлар томонидан инвойс нархларини сунъий пасайтириш хавфи мавжуд бўлган ҳолатларда, тизим автоматик равишда назоратни кучайтиради. Оқибатда, баҳсли вазиятларда мослашувчан ҳисобланган 6-усул (захира усули) улуши 2-3 фоизни ташкил этиб, ички бозорда адолатли рақобатни ҳимоя қилишда иккинчи энг муҳим ричаг бўлиб хизмат қилмоқда. 4- ва 5-усулларнинг қўлланилиш даражаси эса хорижий ҳамкорларнинг ички бухгалтерия маълумотларини олиш мураккаблиги сабабли минимал даражада қолмоқда.»

Сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикасида ташқи савдо ҳажми ошиши билан биргаликда, божхона органлари томонидан давлат бюджетига фискал тушумларни ундириш сиёсати ҳам сифат жиҳатидан янги босқичга чиқди. Бунда божхона қийматини тўғри баҳолаш ҳамда хавф-хатарларни минималлаштириш орқали қўшимча захиралар шакллантирилмоқда.

Низом доирасида Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси маълумотлари асосида шакллантирилган умумий динамика 2-жадвалда акс эттирилган.

### 2-жадвал

#### 2022-2025-йилларда Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига ундирилган божхона тўловлари ва божхона қиймати назорати динамикаси

| Кўрсаткичлар номи                                                                                                  | 2022 | 2023 | 2024 | 2025  |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|------|------|-------|
| Давлат бюджетига ундирилган жами божхона тўловлари ҳажми (трлн. сўм)                                               | 46,2 | 58,5 | 63,0 | 76,20 |
| Божхона тўловлари тушумининг йиллик ўсиш суръати (ўтган йилга нисбатан, фоизда)                                    | 120% | 126% | 107% | 121%  |
| Божхона қийматини нотўғри декларациялаш (пасайтириш) оқибатида ХБТ орқали қўшимча ҳисобланган тўловлар (трлн. сўм) | 2,4  | 3,1  | 3,8  | 4,5   |
| Тадбиркорларга берилган божхона имтиёзлари ва преференциялар ҳажми (трлн. сўм)                                     | 56,6 | 51,2 | 54,0 | 59,0  |

Манба: Божхона қўмитасининг маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

Мазкур 2-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, 2025 йил якунларига кўра, давлат бюджетига ундирилган жами божхона тўловлари 76,0 трлн сўмга етди ва бу кўрсаткич 2024 йилга нисбатан 21 фоизга ошган.

Энг муҳим жиҳати, импортёрлар томонидан товар қийматини сунъий равишда паст кўрсатиш (under-invoicing) ҳолатларига қарши қўлланилган Хавфларни бошқариш тизими (ХБТ) самарадорлиги йилдан-йилга ошиб бормоқда. Тезкор таҳлиллар натижасида божхона

қийматини қайта аниқлаш орқали ундирилган қўшимча тўловлар ҳажми 2022 йилдаги 2,4 триллион сўмдан 2025 йилда 4,5 триллион сўмгача кўтарилди. Бу божхона қиймати назорати тизимини рақамлаштиришнинг тўғри йўналишда эканлигини тасдиқлайди.

Божхона қийматини аниқлаш ва унда фискал самарадорликка эришишда ривожланган давлатлар, хусусан, Европа Иттифоқи (ЕИ) ва Хитой Халқ Республикаси тажрибасини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

ЕИ божхона тизимида (Иттифок Божхона Кодекси – УСС асосида) асосий урғу “Пост-клиренс аудит” (Post-clearance audit), яъни товарлар божхона чегарасидан ўтиб бўлингандан кейинги назоратга қаратилади. Давлатлараро маълумотлар базаси: ЕИга аъзо давлатлар ягона Иқтисодий операторларни рўйхатга олиш ва идентификация қилиш (EORI) тизимидан фойдаланади. Бу товар қийматини чегарада узоқ ушлаб турмасдан, ягона база орқали тезкор текшириш имконини беради. Ишончли операторлар (АЕО): Божхона қийматини доимий равишда шаффоф кўрсатувчи тадбиркорларга “Ваколатли иқтисодий оператор” мақоми берилади ва уларнинг товарлари божхона қиймати қайта текширувларсиз, автоматик расмийлаштирилади. Хитой божхона маъмурияти (GACC) товарларнинг божхона қийматини аниқлашда рақамли технологиялар ва сунъий интеллект (AI) имкониятларидан кенг фойдаланади. Сمارт-божхона (Smart Customs): Хитой тизими дунёнинг барча нукталаридан экспорт қилинадиган товарларнинг реал бозор қийматини катта маълумотлар (Big Data) базаси орқали реал вақт режимида кузатиб боради. Агар декларацияланган қиймат тизимдаги ўртача нархдан фарқ қилса, тизим автоматик равишда хавф борлиги ҳақида огоҳлантиради.

Нархларни олдиндан келишиш (Advance Valuation Rulings): Импортёр товарни олиб киришдан олдин божхона органига мурожаат қилиб, унга тегишли божхона қийматини олдиндан тасдиқлатиб олиши мумкин. Бу чегарадаги баҳсли вазиятларни нолга тенглаштиради. Ривожланган хорижий давлатлар тажрибаси ва 2-жадвалдаги маҳаллий статистика таҳлили шуни кўрсатадики, Ўзбекистон божхона тизимида ҳам товар чегарага келганда нарх устида баҳслашиш ва божхона расмийлаштирувини кечиктириш амалиётидан босқичма-босқич воз кечиш лозим.

ЕИ каби товар чиқариб юборилгандан кейинги аудитни (Post-audit) кучайтириш ҳамда Хитой каби сунъий интеллект ёрдамида глобал нархлар базасини миллий ХБТга интеграция қилиш зарур. Бу нафакат божхона тўловларининг тўлиқ ундирилишини таъминлайди, балки мамлакатнинг “Логистика самарадорлиги индекси” (LPI) рейтингидаги ўрнини ҳам сезиларли даражада яхшилайдди. Божхона қийматини тўғри аниқлаш давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, ички бозорда соғлом рақобатни ривожлантириш ва бюджет тушумларини оптималлаштиришда бош мезондир. Ўзбекистон божхона тизимини янада такомиллаштириш ва фискал самарадорликни ошириш учун қуйидагилар таклиф этилади:

1. Рақамли божхона тизимларини ривожлантириш ва товарларнинг ҳақиқий қийматини кузатишда blockchain ҳамда сунъий интеллект технологияларини жорий этиш.
2. Халқаро ҳамкорликни кенгайтириш: Экспорт қилувчи асосий ҳамкор мамлакатлар (Хитой, Россия, Қозоғистон) божхона хизматлари билан электрон маълумот алмашинувини кучайтириш ва реал нархлар базасини яратиш.
3. Пост-клиренс назоратни кучайтириш: Товарларни чегарада ушлаб турмасдан тезкор чиқариб юбориш ва асосий қиймат текширувларини божхона аудити доирасида (товар чиқарилгандан кейин) амалга ошириш тизимини кенгайтириш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. <https://www.lex.uz/acts/2876354>.
2. GATT 1994, Agreement on Implementation of Article VII (Agreement on Customs Valuation). World Trade Organization (WTO) Official Legal Texts.
3. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитасининг расмий статистик ҳисоботлари (2022–2025 йй.). Божхона қўмитаси расмий веб-сайти. customs.uz

4. The Union Customs Code (UCC) – Legal Framework and Post-clearance Audit Guidance. European Commission, Taxation and Customs Union.
5. WCO Guide to Customs Valuation and Transfer Pricing. World Customs Organization (WCO) Publications. General Administration of Customs of the People’s Republic of China (GACC) – Smart Customs Initiative Reports.
6. 3. World Trade Organization. Agreement on Implementation of Article VII of the General Agreement on Tariffs and Trade 1994. – Geneva: WTO, 1994. – Article 1.
7. 4. World Customs Organization. What is Customs Valuation? – Brussels: WCO, official website.
8. 6. Стрижова О.А. Правовое регулирование таможенной стоимости: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва: НИУ ВШЭ, 2008. – С. 12–13.
9. 7. Федотова Г.Ю. Таможенная стоимость: учебник. – Санкт-Петербург: Интермедия, 2020. – 322 с.
10. Пардаев Т.Н. «Божхона тўловлари йиғилувчанлигини оширишда божхона қиймати ва уни аниқлашни такомиллаштириш йўллари» // Божхона ахборотномаси. – 2020. – №1. – Б. 28–32.
11. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/20-val\\_01\\_e.htm](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/20-val_01_e.htm)
12. [https://taxation-customs.ec.europa.eu/union-customs-code-ucc-introduction\\_en](https://taxation-customs.ec.europa.eu/union-customs-code-ucc-introduction_en)
13. <https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/key-issues/revenue-ackage/wco-guide-to-customs-valuation-and-transfer-pricing.pdf>

**УДК: 332.14**

**МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАР ХАРАЖАТЛАРИ ИЖРОСИНИНГ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ  
(ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)**

**ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСХОДОВАНИЯ МЕСТНОГО  
БЮДЖЕТА (НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**ISSUES OF INCREASING THE EFFICIENCY OF LOCAL BUDGET EXPENDITURE  
IMPLEMENTATION (ON THE EXAMPLE OF TASHKENT REGION)**

**Сапаров Илёс Худаймуратович**

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети мустақил изланувчиси

**Аннотация**

Ушбу мақолада 2025 йилга мўлжалланган Тошкент вилояти маҳаллий бюджетининг харажатлари ижроси, унинг 2023-2024 йилларга нисбатан ўзгариши таҳлил қилинган. Тадқиқотда ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурларини молиялаштиришда маҳаллий бюджет харажатларининг роли, уларнинг ўсиш тенденциялари ҳамда бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигига таъсир этувчи омиллар ўрганилган. Шунингдек, Ўзбекистонда бюджет тизимини ислоҳ қилиш, маҳаллий бюджетларнинг даромад манбаларини кенгайтириш ва молиявий мустақиллигини оширишга қаратилган чора-тадбирлар, жумладан, “ташаббусли бюджет” амалиётининг аҳамияти ёритилган. Тадқиқотда маълумотларни гуруҳлаш ва қиёсий таҳлил усуллари қўлланилган бўлиб, 2023–2025 йиллар давомида Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатлари таркиби ва динамикаси таҳлил қилинган. Олинган натижалар асосида маҳаллий бюджет харажатларини режалаштириш ва ижроси самарадорлигини оширишга қаратилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** маҳаллий бюджет, бюджет харажатлари, харажатлар режаси, ижтимоий харажатлар, ташаббусли бюджет, Тошкент вилояти.

В данной статье анализируется реализация расходов местного бюджета Ташкентской области на 2025 год, а также изменения по сравнению с 2023-2024 годами. Рассматривается роль расходов местного бюджета в финансировании программ социально-экономического развития регионов, тенденции их роста и факторы, влияющие на эффективность использования бюджетных средств.

Также освещаются меры, направленные на реформирование бюджетной системы в Узбекистане, расширение источников дохода для местных бюджетов и повышение их финансовой независимости, включая важность практики «инициативного бюджета».

В исследовании используются методы группировки данных и сравнительного анализа для анализа структуры и динамики расходов местного бюджета в Ташкентской области на 2023-2025 годы. На основе полученных результатов разработаны научные предложения и практические рекомендации по повышению эффективности планирования и реализации расходов местного бюджета.

**Ключевые слова:** местный бюджет, бюджетные расходы, план расходов, социальные расходы, инициативный бюджет, Ташкентская область.

This article analyzes the implementation of local budget expenditures of the Tashkent region for 2025, its changes compared to 2023-2024. The study examines the role of local budget expenditures in financing programs for the socio-economic development of regions, their growth trends, and factors affecting the efficiency of using budget funds.

It also highlights measures aimed at reforming the budget system in Uzbekistan, expanding sources of income for local budgets, and increasing their financial independence, including the importance of the “initiative budget” practice.

The study uses data grouping and comparative analysis methods to analyze the structure and dynamics of local budget expenditures in the Tashkent region for 2023-2025. Based on the results obtained, scientific proposals and practical recommendations were developed to increase the efficiency of planning and implementation of local budget expenditures.

**Keywords:** local budget, budget expenditures, expenditure plan, social expenditures, initiative budget, Tashkent region.

Маҳаллий бюджетлар мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантириш, ҳудудларнинг молиявий имкониятларини кенгайтириш ҳамда аҳоли турмуш даражасини оширишнинг муҳим молиявий воситаларидан бири ҳисобланади. Давлат молияси тизимида маҳаллий бюджетлар ҳудудий иқтисодий ўсишни рағбатлантириш, ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш ва аҳолининг давлат хизматларидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, коммунал хўжалик, йўл-транспорт инфратузилмаси ва ижтимоий ҳимоя каби соҳаларнинг молиявий таъминоти кўп жиҳатдан маҳаллий бюджет маблағларининг самарали шакллантирилиши ва ижро этилишига боғлиқ.

Жаҳон амалиёти шуни кўрсатмоқдаки, маҳаллий бюджетларни бошқариш тизимининг самарадорлиги мамлакатнинг умумий иқтисодий тараққиёти ва аҳоли фаровонлигига бевосита таъсир кўрсатади. Ривожланган мамлакатларда маҳаллий молияни бошқаришнинг замонавий механизмлари, натижага йўналтирилган бюджетлаштириш тизими, рақамли молиявий бошқарув ва жамоатчилик назорати институтларининг ривожланганлиги бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда. Шу боис маҳаллий бюджетлар харажатлари ижроси самарадорлигини баҳолаш ва уни такомиллаштириш масаласи давлат молиясини бошқариш соҳасидаги муҳим илмий йўналишлардан бири ҳисобланади.

Сўнгги йилларда глобал иқтисодий ўзгаришлар, демографик жараёнлар ва ижтимоий эҳтиёжларнинг ортиши маҳаллий бюджетлар зиммасига кўшимча вазифаларни юкламоқда. Айниқса, аҳоли сонининг ўсиши, урбанизация жараёнларининг жадаллашиши, янги иш ўринларини яратиш, ижтимоий хизматлар сифатини ошириш ҳамда ҳудудларнинг

ракобатбардошлигини таъминлаш маҳаллий бюджет харажатларининг самарадорлигини янада оширишни талаб этмоқда. Бундай шароитда бюджет маблағларининг мақсадли сарфланиши, харажатлар натижадорлигининг баҳоланиши ва молиявий ресурсларнинг оқилона тақсимланиши давлат бошқарувининг муҳим вазифасига айланмоқда.

Ўзбекистон Республикасида ҳам давлат молиясини бошқариш тизимини модернизация қилиш, маҳаллий бюджетларнинг молиявий мустақиллигини кенгайтириш ва бюджет жараёни шаффофлигини таъминлаш бўйича кенг қамровли ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, маҳаллий бюджетларга бириктирилган даромад манбаларини кенгайтириш, ҳудудларда шаклланган қўшимча даромадларнинг муайян қисмини жойларда қолдириш, ташаббусли бюджетлаштириш амалиётини жорий этиш ҳамда рақамли бюджет тизимларини ривожлантириш бўйича муҳим чора-тадбирлар қабул қилинди. Бу ислохотлар маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш ва уларнинг иқтисодий мустақиллигини оширишга хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан бюджет маблағларининг ҳар бир сўми аҳоли манфаатларига хизмат қилиши, давлат харажатлари самарадорлигини ошириш ва ҳудудларнинг иқтисодий имкониятларини кенгайтириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида белгилаб берилган. Шунингдек, кейинги йилларда маҳаллий бюджетларга қўшилган қиймат солиғи тушумларининг бир қисмини бириктириш, режадан ортиқча тушумларни ҳудудлар ихтиёрида қолдириш ва маҳаллий молиявий ресурслардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш бўйича қабул қилинган қарорлар маҳаллий бюджетлар аҳамиятини янада кучайтирди.

Шу билан бирга, маҳаллий бюджетлар харажатлари ижроси соҳасида ҳал этилиши лозим бўлган қатор муаммолар мавжуд. Жумладан, айрим ҳолларда бюджет маблағларининг тақсимланиши ва ўзлаштирилишида номутаносибликлар кузатилмоқда, харажатларнинг натижадорлигини баҳолаш механизмлари етарли даражада ривожланмаган, бюджет маблағларидан фойдаланишнинг иқтисодий ва ижтимоий самарасини аниқлаш бўйича ягона ёндашув шаклланмаган. Бундан ташқари, маҳаллий бюджет харажатларининг ҳудудий ривожланиш кўрсаткичларига таъсирини комплекс баҳолаш бўйича илмий тадқиқотлар етарли эмас.

Мазкур ҳолат маҳаллий бюджетлар харажатлари ижросини чуқур таҳлил қилиш, уларнинг самарадорлигини баҳолаш ва бюджет маблағларидан фойдаланиш натижадорлигини оширишнинг илмий асосланган механизмларини ишлаб чиқиш зарурлигини белгилайди. Айниқса, мамлакат иқтисодиётида муҳим ўрин тутувчи Тошкент вилояти мисолида мазкур масалани ўрганиш ҳудудий молия бошқарувини такомиллаштириш бўйича амалий хулосалар чиқариш имконини беради.

Ушбу тадқиқотнинг мақсади Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатлари ижросининг ҳолатини баҳолаш, унинг самарадорлигига таъсир этувчи омилларни аниқлаш ҳамда бюджет маблағларидан фойдаланиш натижадорлигини оширишга қаратилган илмий таклиф ва амалий тавсияларни ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқот мақсадига эришиш учун қуйидаги тадқиқот саволларига жавоб изланади:

Маҳаллий бюджетлар харажатлари ижросининг назарий-методологик асослари ва уларнинг ҳудудий ижтимоий-иқтисодий ривожланишдаги ўрни қандай?

Маҳаллий бюджет харажатлари ижроси самарадорлигига таъсир этувчи асосий иқтисодий ва ташкилий омиллар қайсилар?

Бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини баҳолашда қандай кўрсаткичлар ва мезонлардан фойдаланиш мумкин?

Мақоланинг кейинги қисмларида маҳаллий бюджетлар харажатлари ижросининг назарий асослари ва хорижий тажриба таҳлил қилинади, тадқиқот методологияси ёритилади, Тошкент вилояти маҳаллий бюджети маълумотлари асосида амалий таҳлил ўтказилади ҳамда тадқиқот натижалари бўйича илмий хулосалар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилади.

Маҳаллий бюджетлар харажатлари самарадорлиги давлат молиясини бошқариш соҳасидаги муҳим илмий йўналишлардан бири ҳисобланади. Ушбу масала бўйича олиб

борилган тадқиқотларни шартли равишда урта асосий гуруҳга ажратиш мумкин: биринчи гуруҳ – маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлиги ва даромад базасини шакллантиришга бағишланган тадқиқотлар; иккинчи гуруҳ – маҳаллий бюджет харажатларининг самарадорлигини баҳолаш ва натижага йўналтирилган бюджетлаштириш механизмларини ўрганувчи ишлар; учинчи гуруҳ – фискал децентрализация ва маҳаллий молиявий мустақилликнинг бюджет самарадорлигига таъсирини таҳлил қилувчи тадқиқотлардан иборат.

**1-жадвал**

**Маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлиги ва даромад базасини шакллантиришга оид тадқиқотлар таҳлили**

| <b>Муаллиф</b>           | <b>Йил</b> | <b>Тадқиқот йўналиши</b>                       | <b>Асосий натижа</b>                                                                                        | <b>Чекловлари</b>                                                           |
|--------------------------|------------|------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|
| Серебрякова [1]          | 2016       | Маҳаллий молия ва ҳудудий ривожланиш           | Ҳудудларнинг молиявий таъминланганлиги маҳаллий бошқарув самарадорлигининг муҳим шarti эканлиги асосланган. | Бюджет харажатлари самарадорлигини баҳолаш масалалари етарлича ёритилмаган. |
| Сухарев [2]              | 2019       | Давлат молияси ва бюджет сиёсати               | Даромад манбаларини диверсификация қилиш бюджет барқарорлигини таъминлайди.                                 | Тадқиқот кўпроқ назарий ёндашувларга асосланган.                            |
| Примова [3]              | 2021       | Ҳудудий молиявий сиёсат                        | Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш молиявий мустақилликни кучайтиради.                         | Самарадорлик кўрсаткичлари таҳлил қилинмаган.                               |
| Yu Jiali ва бошқалар [4] | 2023       | Фискал бошқарув ва соғлиқни сақлаш харажатлари | Маҳаллий молиявий ресурсларнинг ошиши бюджет самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади.                       | Фақат соғлиқни сақлаш соҳаси таҳлил қилинган.                               |

Манба: Муаллиф ишланмаси.

1-жадвал маълумотлари маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлиги ва даромад базасини шакллантириш масалалари маҳаллий молия соҳасида муҳим ўрин тутишини кўрсатади. Тадқиқотчилар маҳаллий бюджетларнинг барқарор фаолият юритиши учун етарли молиявий ресурслар ва кенг даромад базаси зарурлигини таъкидлайдилар.

Жумладан, Серебрякова ҳудудларнинг молиявий таъминланганлиги маҳаллий бошқарув самарадорлигининг асосий омили эканлигини асослаган бўлса, Сухарев бюджет даромадларини диверсификация қилиш молиявий барқарорликни таъминлашини кўрсатади. Примова маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш молиявий мустақилликни кучайтиришини таъкидлайди. Шунингдек, Yu Jiali ва ҳаммуаллифлар маҳаллий молиявий ресурсларнинг кўпайиши бюджет харажатлари самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатишини аниқлаганлар.

Умуман олганда, мазкур тадқиқотлар маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлиги ва даромад базасини мустаҳкамлаш бюджет самарадорлигини оширишнинг муҳим шarti эканлигини кўрсатади. Бироқ аксарият тадқиқотларда маҳаллий бюджет харажатлари ижроси

самарадорлиги аниқ ҳудуд мисолида комплекс баҳоланмаган бўлиб, бу мазкур тадқиқотнинг долзарблигини белгилайди.

**2-жадвал**

**Маҳаллий бюджет харажатлари самарадорлигини баҳолаш ва натижага йўналтирилган бюджетлаштириш бўйича тадқиқотлар таҳлили**

| <b>Муаллиф</b>                                      | <b>Йил</b> | <b>Тадқиқот йўналиши</b>           | <b>Асосий натижа</b>                                                         | <b>Чекловлари</b>                                       |
|-----------------------------------------------------|------------|------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|
| Xiaohu Wang [5]                                     | 2010       | Performance Budgeting              | Самарадорлик индикаторларидан фойдаланиш ҳисобдорликни оширади.              | Универсал баҳолаш модели таклиф қилинмаган.             |
| Sandra Matos, Susana Jorge, Patrícia Moura e Sá [6] | 2022       | Муниципал харажатлар самарадорлиги | IMEE индекси орқали харажатлар натижадорлигини баҳолаш усули ишлаб чиқилган. | Ривожланаётган мамлакатларга татбиқи чекланган.         |
| Haetami ва бошқалар [7]                             | 2025       | Local Budget Performance           | Value for Money ёндашувининг аҳамияти асосланган.                            | Аниқ ҳудуд бўйича эмпирик таҳлил йўқ.                   |
| Pattimahu ва Tangke [8]                             | 2025       | Бюджет харажатлари самарадорлиги   | Харажатлар самарадорлиги ва ўсиш суръатлари ўртасидаги боғлиқлик аниқланган. | Ижтимоий самарадорлик кўрсаткичлари кам қамраб олинган. |

Манба: Муаллиф ишланмаси.

2-жадвал маълумотлари маҳаллий бюджет харажатлари самарадорлигини баҳолашда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш ва самарадорлик индикаторларидан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Тадқиқотчилар бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини баҳолашда нафақат харажатлар ҳажмига, балки эришилган натижаларга ҳам эътибор қаратиш зарурлигини таъкидлайдилар.

Хусусан, Xiaohu Wang бюджет жараёнида самарадорлик кўрсаткичларини қўллаш ҳисобдорлик ва бошқарув сифатини оширишини асослаб берган. Sandra Matos, Susana Jorge ва Patrícia Moura e Sá томонидан таклиф этилган IMEE индекси маҳаллий харажатлар натижадорлигини баҳолашнинг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади. Шунингдек, Haetami ва бошқалар Value for Money ёндашувининг аҳамиятини кўрсатган бўлса, Pattimahu ва Tangke харажатлар самарадорлиги иқтисодий ўсиш суръатлари билан узвий боғлиқ эканлигини аниқлаган.

Умуман олганда, мазкур тадқиқотлар маҳаллий бюджет харажатларини баҳолашда натижавий-лик ва самарадорлик мезонларини жорий этиш муҳимлигини кўрсатади. Бироқ аксарият тадқиқотларда маҳаллий бюджет харажатлари ижросининг самарадорлиги аниқ ҳудудлар мисолида комплекс таҳлил қилинмаган бўлиб, бу йўналишда қўшимча эмпирик тадқиқотлар ўтказиш зарурлигини кўрсатади.

3-жадвал маълумотлари фискал децентрализация ва маҳаллий молиявий мустақилликнинг бюджет харажатлари самарадорлигига таъсири бўйича олиб борилган тадқиқотлар ушбу омилларнинг бюджет натижадорлигини оширишда муҳим ўрин тутишини кўрсатади. Таҳлил қилинган илмий ишлар маҳаллий бюджетларнинг даромад ва қарор қабул қилишдаги мустақиллиги ортиши харажатлар самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатишини тасдиқлайди.

**Фискал децентрализация ва маҳаллий молиявий мустақилликнинг бюджет самарадорлигига таъсири бўйича тадқиқотлар таҳлили**

| <b>Муаллиф</b>                                 | <b>Йил</b> | <b>Тадқиқот йўналиши</b>                    | <b>Асосий натижа</b>                                                                          | <b>Чекловлари</b>                                           |
|------------------------------------------------|------------|---------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| Boetti, Piacenza va Turati [9]                 | 2012       | Фискал децентрализация                      | Маҳаллий даромадлар улуши ортиши харажатлар самарадорлигини оширади.                          | Италия муниципалитетлари билан чекланган.                   |
| Afonso, A., Jalles, J. T., & Venâncio, A. [10] | 2024       | Давлат сектори самарадорлиги                | Децентрализация давлат харажатлари самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади.                   | OECD давлатлари маълумотлари билан чекланган.               |
| Rivas Medina [11]                              | 2025       | Бюджет самарадорлиги ва институционал сифат | Шаффофлик ва ҳисобдорлик бюджет натижадорлигини ошириши аниқланган.                           | Тизимли адабиётлар шарҳи бўлиб, эмпирик таҳлил мавжуд эмас. |
| Laura de Sousa Gama ва бошқалар [12]           | 2023       | Маҳаллий бюджет маблағларидан фойдаланиш    | Молиявий мустақиллик юқори бўлган ҳудудларда бюджет самарадорлиги юқори эканлиги кўрсатилган. | Ижтимоий таъсир омиллари тўлиқ баҳоланмаган.                |

Жумладан, Boetti, Piacenza ва Turati тадқиқотида маҳаллий даромадлар улушининг ортиши харажатлар самарадорлигини ошириши эмпирик жиҳатдан асосланган. Шунингдек, “Fiscal Decentralization and Public Sector Efficiency” тадқиқоти децентрализация давлат сектори самарадорлигини яхшилашни кўрсатади. Rivas Medina эса бюджет самарадорлигида институционал сифат, хусусан шаффофлик ва ҳисобдорлик муҳим омил эканлигини таъкидлайди. Laura de Sousa Gama ва ҳаммуаллифлар молиявий мустақиллик юқори бўлган ҳудудларда бюджет харажатлари самарадорлиги анча юқори бўлишини аниқлаган.

Умуман олганда, мазкур тадқиқотлар фискал децентрализация ва маҳаллий молиявий мустақиллик бюджет самарадорлигини оширишнинг муҳим институционал омили эканлигини кўрсатади. Бироқ аксарият ишларда бу омилларнинг маҳаллий бюджет харажатлари ижроси самарадорлигига таъсири аниқ ҳудудлар мисолида комплекс баҳоланмаган бўлиб, бу йўналишда қўшимча эмпирик тадқиқотлар ўтказиш зарурлигини белгилайди.

Ушбу тадқиқот Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатлари ижроси самарадорлигини комплекс баҳолашга қаратилган бўлиб, унда маълумотларни гуруҳлаш, тизимлаштириш, қиёсий ва динамик таҳлил усуллари қўлланилди. Шунингдек, тадқиқотнинг назарий асосини давлат молияси ва бюджет самарадорлигига оид бир қатор иқтисодий назариялар ташкил этади. Жумладан, фискал федерализм назарияси, натижага йўналтирилган бюджетлаштириш концепцияси ҳамда янги институционал иқтисодиёт ёндашувлари маҳаллий бюджет харажатлари самарадорлигини баҳолашда методологик асос вазифасини бажаради.

Фискал федерализм назариясига кўра, молиявий ресурсларнинг марказ ва ҳудудлар ўртасида тақсимланиши маҳаллий бошқарув органларининг қарор қабул қилиш мустақиллиги ва жавобгарлигига бевосита таъсир кўрсатади. Бу эса маҳаллий бюджет харажатлари

самарадорлигини оширишда молиявий децентрализациянинг аҳамиятини асослайди. Шу билан бирга, натижага йўналтирилган бюджетлаштириш (performance budgeting) концепцияси бюджет маблағларини фақат сарф ҳажмига эмас, балки эришилган натижаларга кўра баҳолаш зарурлигини таъкидлайди.

Янги институционал иқтисодиёт ёндашувига мувофиқ, бюджет самарадорлиги институционал муҳит, шаффофлик ва ҳисобдорлик даражаси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бу омиллар бюджет маблағларидан фойдаланиш сифатига сезиларли таъсир кўрсатади.

Эмпирик жиҳатдан тадқиқотда 2023–2025 йиллар давридаги Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатлари бўйича статистик маълумотлар қўлланилди. Ушбу маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва маҳаллий молия органларининг расмий ҳисоботларидан олинди ва ишончлилик ҳамда солиштириш имконияти мезонлари асосида танлаб олинди.

Маҳаллий бюджет харажатлари самарадорлигини баҳолашда куйидаги асосий кўрсаткичлар қўлланилди. Бюджет ижроси даражаси куйидаги формула орқали аниқланди:

$$[BEI = \frac{AE}{AP} \times 100]$$

бу ерда BEI – бюджет ижроси индекси, AE – амалда ижро этилган харажатлар ҳажми, AP – режалаштирилган харажатлар ҳажми. Ушбу кўрсаткич бюджет режалаштириш сифати ва ижро интизомини баҳолаш имконини беради.

Бюджет харажатларининг динамик ўзгаришини баҳолаш учун ўсиш суръати ҳисобланди:

$$[GR = \frac{X_t - X_{t-1}}{X_{t-1}} \times 100]$$

бу ерда GR – ўсиш суръати,  $X_t$  – жорий йилдаги харажатлар ҳажми,  $X_{t-1}$  – олдинги йилдаги харажатлар ҳажми. Ушбу кўрсаткич бюджет харажатларининг вақт давомидаги барқарорлиги ва тенденцияларини аниқлашга хизмат қилади.

Бюджет харажатларининг таркибий таҳлили учун функционал йўналишлар улуши куйидагича ҳисобланди:

$$[S_i = \frac{X_i}{\sum X} \times 100]$$

бу ерда  $S_i$  – муайян йўналишнинг умумий бюджетдаги улуши,  $X_i$  – тегишли харажат йўналиши,  $\sum X$  – умумий бюджет харажатлари.

Қиёсий таҳлил орқали 2023–2025 йиллар давомида режалаштирилган ва амалдаги кўрсаткичлар ўртасидаги фарқлар аниқланди, шунингдек, бюджет ижросидаги ортиқча ёки кам бажариш ҳолатлари баҳоланди. Динамик таҳлил эса харажатлар таркиби ва ҳажмининг вақт бўйича ўзгариш тенденцияларини очиқ берди.

Умуман олганда, қўлланилган методологик ёндашув ва назарий асослар маҳаллий бюджет харажатлари ижроси самарадорлигини иқтисодий-ташкилий нуқтаи назардан комплекс баҳолаш, шунингдек, бюджет сиёсатини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган хулосалар чиқариш имконини берди.

Республика ҳудудларида маҳаллий бюджетлар харажатлари ижроси самарадорлигини таъминлаш ҳамда бюджет маблағларидан мақсадли ва оқилона фойдаланиш масалаларининг долзарблигини инобатга олган ҳолда, Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатлари ижроси таҳлил қилинди. Таҳлил жараёнида 2025 йил кўрсаткичлари 2023–2024 йиллар билан қиёсий ўрганилди.

Ўзбекистон Республикасининг “2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ, Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатлари 7 086,9 млрд сўм этиб белгиланган бўлиб, ушбу харажатлар 6 824,3 млрд сўмлик даромадлар ҳамда 262,6 млрд сўмлик бюджетлараро трансфертлар ҳисобидан молиялаштирилиши назарда тутилган [13].

Таҳлил натижаларига кўра, йил давомида маҳаллий бюджет харажатлари режаси 1 465,6 млрд сўмга оширилган бўлиб, аниқланган режа 8 552,4 млрд сўмни ташкил этган(4-жадвал). Амалдаги ижро эса 9 259 млрд сўмга тенг бўлиб, бу кўрсаткич аниқланган режага нисбатан 108,3 фоизни ташкил этган. Бу ҳолат маҳаллий бюджет харажатлари ижросида режадан ошириб бажариш тенденцияси мавжудлигини кўрсатади.

**Тошкент вилояти маҳаллий бюджетининг 2025 йилдаги харажатлари ижроси  
тўғрисида туман (шаҳар)лар кесимида маълумот**

*млрд сўмда*

| №  | Худудлар номи      | Харажатлар         |                                 |          |           |
|----|--------------------|--------------------|---------------------------------|----------|-----------|
|    |                    | Аниқланган<br>режа | Маблағ<br>ажратилиши<br>(Касса) | Фарқи    |           |
|    | Жами               | 8 552              | 9 259                           | (+), (-) | Фоизда(%) |
| 1  | Вилоят бюджети     | 5 842,6            | 6 252,3                         | 409,7    | 107,0%    |
| 2  | Олмалиқ шаҳри      | 131,6              | 139,3                           | 7,7      | 105,9%    |
| 3  | Ангрен шаҳри       | 168,4              | 187,3                           | 18,9     | 111,2%    |
| 4  | Оҳангарон шаҳри    | 72,0               | 81,6                            | 9,6      | 113,3%    |
| 5  | Бекобод шаҳри      | 103,9              | 111,1                           | 7,2      | 106,9%    |
| 6  | Чирчиқ шаҳри       | 149,8              | 164,8                           | 15,0     | 110,0%    |
| 7  | Янгийўл шаҳри      | 79,9               | 88,9                            | 9,0      | 111,2%    |
| 8  | Оҳангарон тумани   | 113,4              | 123,2                           | 9,8      | 108,7%    |
| 9  | Бекобод тумани     | 161,4              | 193,6                           | 32,3     | 120,0%    |
| 10 | Оққўрғон тумани    | 112,7              | 119,5                           | 6,9      | 106,1%    |
| 11 | Бўстонлиқ тумани   | 135,3              | 162,5                           | 27,2     | 120,1%    |
| 12 | Бўка тумани        | 125,8              | 144,1                           | 18,3     | 114,6%    |
| 13 | Юқоричирчиқ тумани | 114,6              | 122,4                           | 7,8      | 106,8%    |
| 14 | Куйичирчиқ тумани  | 118,2              | 127,7                           | 9,5      | 108,0%    |
| 15 | Зангиота тумани    | 131,4              | 146,8                           | 15,4     | 111,7%    |
| 16 | Қибрай тумани      | 140,6              | 162,6                           | 22,0     | 115,7%    |
| 17 | Паркент тумани     | 144,3              | 151,5                           | 7,1      | 104,9%    |
| 18 | Пискент тумани     | 101,3              | 108,2                           | 6,9      | 106,8%    |
| 19 | Ўртачирчиқ тумани  | 119,5              | 130,7                           | 11,1     | 109,3%    |
| 20 | Тошкент тумани     | 139,4              | 158,4                           | 19,0     | 113,7%    |
| 21 | Чиноз тумани       | 121,8              | 129,6                           | 7,8      | 106,4%    |
| 22 | Янгийўл тумани     | 135,8              | 144,8                           | 8,9      | 106,6%    |
| 23 | Нурафшон шаҳри     | 88,9               | 108,5                           | 19,5     | 122,0%    |

Ҳисобот даврида ижтимоий соҳа ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш харажатларини молиялаштириш учун маҳаллий бюджетдан 4 577,4 млрд сўм ёки умумий харажатларнинг 49,4 фоизи миқдорида маблағ сарфланган(5-жадвал).

**5-жадвал**

**Тошкент вилояти маҳаллий бюджетининг 2025 йилдаги харажатлари ижроси  
тўғрисида соҳа ва йўналишлар кесимида маълумот**

*млрд сўмда*

| №   | Соҳа ва йўналишлар                                            | Тасдиқ-<br>ланган<br>режа | Аниқ-<br>ланган<br>режа | Касса<br>ижроси | Бажари-<br>лиши<br>(фоизда) | Улуши<br>(жами<br>харажатга<br>нисбатан) |
|-----|---------------------------------------------------------------|---------------------------|-------------------------|-----------------|-----------------------------|------------------------------------------|
| 1.  | Ижтимоий соҳа ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш харажатлар | 4 095,6                   | 4 561,5                 | 4 577,4         | 100,3%                      | 49,4%                                    |
|     | <i>Шундан</i>                                                 |                           |                         |                 |                             |                                          |
| 1.1 | Таълим                                                        | 1 057,2                   | 1 310,2                 | 1 320,4         | 100,8%                      | 14,3%                                    |
| -   | мактабгача таълим                                             | 256,3                     | 468,8                   | 468,4           | 99,9%                       | 5,1%                                     |
| -   | умумтаълим                                                    | 566,8                     | 572,2                   | 583,6           | 102,0%                      | 6,3%                                     |

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 7-son 2026 yil**

|           |                                                                              |                |                |                |               |               |
|-----------|------------------------------------------------------------------------------|----------------|----------------|----------------|---------------|---------------|
| -         | кадрлар тайёрлаш                                                             | 234,2          | 269,2          | 268,3          | 99,7%         | 2,9%          |
| 1.2       | Соғлиқни сақлаш                                                              | 2 773,7        | <b>2 250,4</b> | <b>2 252,3</b> | <b>100,1%</b> | <b>24,3%</b>  |
| 1.3       | Маданият                                                                     | 56,5           | 66,8           | 69,2           | 103,6%        | 0,7%          |
| 1.4       | Спорт                                                                        | 187,9          | 201,9          | 201,2          | 99,7%         | 2,2%          |
| 1.5       | Фан                                                                          | 4,0            | 4,4            | 4,3            | 98,7%         | 0,0%          |
| 1.6       | Нафақалар, моддий ёрдам ва компенсация тўловлари                             | 9,2            | 9,2            | 11,5           | 125,3%        | 0,1%          |
| <b>2.</b> | <b>Иқтисодий харажатлари</b>                                                 | <b>846,1</b>   | <b>1 056,5</b> | <b>1 100,5</b> | <b>104,2%</b> | <b>11,9%</b>  |
|           | Шундан:                                                                      |                |                |                |               |               |
| 2.1       | Сув хўжалиги эксплуатацияси харажатлари                                      | 70,9           | 85,2           | 86,4           | 101,5%        | 0,9%          |
| 2.2       | Аҳоли пунктларини ободонлаштириш ишларини амалга ошириш                      | 435,4          | 537,9          | 586,9          | 109,1%        | 6,3%          |
| 2.3       | Табиатни муҳофаза қилиш                                                      | 12,4           | 28,5           | 28,4           | 99,6%         | 0,3%          |
| 2.4       | Уй-жой коммунал ишлари                                                       | 47,3           | 44,9           | 43,4           | 96,7%         | 0,5%          |
| <b>3.</b> | <b>Инвестиция харажатларини молиялаштириш</b>                                | <b>100,4</b>   | <b>403,7</b>   | <b>531,1</b>   | <b>131,5%</b> | <b>5,7%</b>   |
| <b>4.</b> | <b>Давлат бошқаруви, адлия ва прокуратура органларини сақлаш харажатлари</b> | <b>799,5</b>   | <b>931,4</b>   | <b>1 264,0</b> | <b>135,7%</b> | <b>13,7%</b>  |
| <b>5.</b> | <b>Ўзини ўзи бошқариш органларини сақлаш харажатлар</b>                      | <b>6,0</b>     | <b>5,9</b>     | <b>5,9</b>     | <b>99,2%</b>  | <b>0,1%</b>   |
| <b>6.</b> | <b>Захира жамғармалари</b>                                                   | <b>65,1</b>    | <b>65,1</b>    | <b>62,3</b>    | <b>97,6%</b>  | <b>1,2%</b>   |
| <b>7.</b> | <b>Бошқа харажатлар</b>                                                      | <b>608,2</b>   | <b>1 481,2</b> | <b>1 671,4</b> | <b>113%</b>   | <b>18,0%</b>  |
|           | <b>ЖАМИ</b>                                                                  | <b>7 086,9</b> | <b>8 552,5</b> | <b>9 259,2</b> | <b>108,3%</b> | <b>100,0%</b> |

Ижтимоий харажатларнинг асосий қисмини ташкил этган таълим тизими муассасаларини сақлаш ва уларни ривожлантириш харажатларига маҳаллий бюджетдан 1 310,2 млрд сўм маблағ йўналтирилган, харажатлар 2023 йилга нисбатан 172,4 фоизга ўсган (6-жадвал).

**6-жадвал**

**Тошкент вилояти маҳаллий бюджетидан 2023-2025 йилларда таълим соҳасига ажратилган маблағлар маълумот**

*млрд сўмда*

| №  | Соҳалар                     | 2023 йил     | 2024 йил       | 2025 йил       | Ўзгариши            |                     |
|----|-----------------------------|--------------|----------------|----------------|---------------------|---------------------|
|    |                             |              |                |                | 2023 йилга нисбатан | 2024 йилга нисбатан |
| 1. | Мактабгача таълим           | 200,6        | 383,5          | 468,9          | 2,3 баравар         | 122,2 фоиз          |
| 2. | Умумтаълим                  | 529,7        | 519,8          | 572,2          | 108 фоиз            | 110 фоиз            |
| 3. | Кадрлар тайёрлаш            | 29,5         | 260,3          | 269,2          | 9,1 баравар         | 103,4 фоиз          |
|    | <b>Жами таълим харажати</b> | <b>759,8</b> | <b>1 163,6</b> | <b>1 310,2</b> | <b>172,4 фоиз</b>   | <b>112,6 фоиз</b>   |

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

Таълим соҳаси харажатлари 2023-2025 йилларда сезиларли ўсиш тенденциясига эга бўлиб, 759,8 млрд сўмдан 1 310,2 млрд сўмга етган. Айниқса, мактабгача таълим харажатларининг 2,3 бараварга ошиши эрта таълимни ривожлантиришга қаратилган давлат сиёсатининг кучайганидан далолат беради. Умумтаълим ва кадрлар тайёрлаш йўналишларида ҳам барқарор ўсиш кузатилган.

Мисол учун, 2025 йилда мактабгача таълим тизимига маҳаллий бюджетдан 468,9 млрд сўм маблағ ажратилган бўлиб, ҳисобот даврида ушбу маблағларнинг 468,4 млрд сўми (99,9 фоизи) сарфланган.

Ушбу даврда умумтаълим соҳасига 572,2 млрд сўм маблағ ажратилган бўлиб, йил якуни бўйича ушбу маблағлар тўлиқ молиялаштирилган. Шунингдек, 2025 йилда кадрлар тайёрлаш соҳасига жами 269,2 млрд сўм маблағ йўналтирилган.

2025 йилда маданият соҳаси учун жами 66,8 млрд сўм маблағ йўналтирилган бўлиб, бу 2024 йилга нисбатан 12,7 млрд сўмга ёки 23% га ўсишни англатади. Ушбу ўсиш маданий инфратузилмани ривожлантириш, маданий мерос объектларини сақлаш ҳамда ижодий жамоаларни қўллаб-қувватлашга қаратилган давлат сиёсатининг изчил давом этаётганини кўрсатади.

Маданият соҳасидаги харажатлар таркиби таҳлили шуни кўрсатадики, маблағларнинг асосий қисми институционал инфратузилмани сақлаш ва ривожлантиришга йўналтирилган. Хусусан, 29,4 млрд сўм маданият саройлари ва марказларини сақлашга, 8,1 млрд сўм эса маданий мерос агентлигининг ҳудудий бошқарувини таъминлаш ҳамда маданий бойликларни реставрация қилиш ишларига сарфланган. Бундан ташқари, 4,2 млрд сўм театрлар, мусикий жамоалар ва концерт-томоша ташкилотларини молиялаштиришга йўналтирилган бўлса, 0,5 млрд сўм матбуот хизматлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш учун ажратилган.

2023-2025 йиллар кесимидаги динамик таҳлил маданият соҳасида барқарор ўсиш тенденциясини кўрсатади. Умумий харажатлар 53,5 млрд сўмдан 66,8 млрд сўмга етиб, 24% га ошган. Ушбу ўсиш асосан кутубхоналар, музейлар ва маданият марказлари фаолиятини кенгайтириш билан боғлиқ (7-жадвал).

**7-жадвал**

### 2023-2025 йилларда Тошкент вилояти маҳаллий бюджетидан маданият соҳасига йўналтирилган маблағлар

*млрд сўмда*

| №  | Соҳа ва йўналишлар                                                  | 2023 йил    | 2024 йил    | 2025 йил    | Ўзгариш(фоизда)     |                     |
|----|---------------------------------------------------------------------|-------------|-------------|-------------|---------------------|---------------------|
|    |                                                                     |             |             |             | 2023 йилга нисбатан | 2024 йилга нисбатан |
| 1. | Ахборот-кутубхона марказлари ва кутубхоналарни сақлаш харажатлари   | 13,9        | 15,1        | 20,2        | 145%                | 133%                |
| 2. | Музейлар, кўргазмалар ҳамда кўргазма залларини сақлаш харажатлари   | 3,1         | 3,5         | 4,4         | 141%                | 125%                |
| 3. | Маданият саройлари ва марказларини сақлаш харажатлар                | 20,7        | 21,8        | 29,4        | 142%                | 134%                |
| 4. | Театрлар, мусиқа жамоалари, концерт томоша муассасалари харажатлари | 2,9         | 3,5         | 4,2         | 144%                | 120%                |
| 5. | Матбуот хизматлари                                                  | 0,2         | 0,2         | 0,5         | 2,5 баравар         | 2,5 баравар         |
| 6. | Бошқа маданий чора-тадбирлар ва муассасалар харажатларига           | 12,7        | 10,1        | 8,1         | -37%                | -20%                |
|    | <b>Жами харажат</b>                                                 | <b>53,5</b> | <b>54,1</b> | <b>66,8</b> | <b>124%</b>         | <b>123%</b>         |

Спорт соҳасига маҳаллий бюджетдан йўналтирилган маблағлар миқдори 201,9 млрд сўмни (2023 йилга нисбатан 128 фоиз) ташкил этган. Жумладан, спорт мактабларини сақлаш харажатлари учун 145 млрд сўм, Ихтисослаштирилган спорт мактабларини сақлаш

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

харажатлари 46,4 млрд сўм ва Спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирлари учун 6,7 млрд сўм йўналтирилган ва бу харажатлар 20223 йилга нисбатан мос равишда 165 фоиз ва 2 бараварга оширилган (8-жадвал).

**8-жадвал**

### 2023-2025 йилларда Тошкент вилояти маҳаллий бюджетидан спорт соҳасига йўналтирилган маблағлар

*млрд сўмда*

| №  | Соҳа ва йўналишлар                                               | 2023         | 2024         | 2025         | Ўзгариш<br>(фоизда)    |                        |
|----|------------------------------------------------------------------|--------------|--------------|--------------|------------------------|------------------------|
|    |                                                                  |              |              |              | 2023 йилга<br>нисбатан | 2024 йилга<br>нисбатан |
| 1. | Спорт мактабларини сақлаш харажатлари                            | 125,6        | 131,9        | 145,0        | 115%                   | 110%                   |
| 2. | Ихтисослаштирилган спорт мактабларини сақлаш харажатлари         | 28,0         | 47,0         | 46,4         | 165%                   | -2%                    |
| 3. | Спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режаси | 3,2          | 3,5          | 6,7          | 2 баравар              | 191%                   |
|    | <b>Жами харажат</b>                                              | <b>156,8</b> | <b>182,3</b> | <b>201,9</b> | <b>128%</b>            | <b>110%</b>            |

Соғлиқни сақлаш соҳасига 2 252,3 млрд сўм ажратилган бўлиб, маҳаллий бюджет харажатларидаги улуши 24,3 фоизни ташкил этган. Шу билан бирга, Ижтимоий нафақалар, моддий ёрдам, компенсация тўловларига маҳаллий бюджетдан ҳисобот даврида 11,5 млрд сўм маблағ ажратилган.

Иқтисодиёт соҳасига йўналтирилган харажатлар ҳисобот даврида 1 100,5 млрд сўмни ташкил қилиб, маҳаллий бюджет харажатларининг 11,9 фоизини ташкил этган ва асосан қуйидаги йўналишларда амалга оширилган:

- сув хўжалиги эксплуатацияси харажатлари – 86,4 млрд сўм;
- аҳоли пунктларини ободонлаштириш ишларини амалга ошириш харажатлари – 586,9 млрд сўм;
- табиатни муҳофаза қилиш – 28,4 млрд сўм;
- уй-жой коммунал ишларига – 43,4 млрд сўм.

Ҳисобот даврида инвестиция харажатларини молиялаштиришга маҳаллий бюджет харажатларининг 5,7 фоизи ёки 531,1 млрд сўми сарфланган бўлса, маҳаллий давлат ҳокимияти бошқарув органлари таъминотида 1 264 млрд сўм ёки жами маҳаллий бюджет харажатларининг 13,7 фоизи йўналтирилган.

“Ташаббусли бюджет” лойиҳаларини молиялаштириш манбасини шакллантириш учун “Фуқаролар ташаббуси” жамғармасига туман ва шаҳар бюджетларининг 2025 йилги параметрлари доирасида 594 млрд сўм ўтказиб берилган.

2025 йилда 4 518 та (1-мавсумда 2 647 та, 2-мавсумда 1 871 та) лойиҳа илгари сурилиб, шундан туман (шаҳар) ҳокимликлари ҳузуридаги ишчи комиссиялар томонидан 3 295 та лойиҳа овоз бериш босқичига ўтказилган (қолган 1 223 та лойиҳа Низом талабига мос эмаслиги сабабли рад этилган) ҳолда 470 та лойиҳа ғолиб деб топилган. Жумладан:

- ички йўлларни (пиёдалар йўлакчаси, йўл ўтказгичлар) таъмирлаш билан боғлиқ қиймати 315 млрд сўмлик 220 та;
- умумтаълим мактабларини таъмирлаш ва моддий-техника базасини ривожлантириш билан боғлиқ қиймати 124 млрд сўмлик 116 та;
- мактабгача таълим ташкилотларини таъмирлаш ва жиҳозлаш тадбирлари билан боғлиқ қиймати 40 млрд сўмлик 35 та;
- соғлиқни сақлаш муассасаларини таъмирлаш ва моддий-техника базасини ривожлантириш билан боғлиқ қиймати 33 млрд сўмлик 25 та;

– кўча чироқларини ўрнатиш ёки таъмирлаш тадбирлари билан боғлиқ қиймати 18 млрд сўмлик 15 та;

– ичимлик суви билан таъминлаш тадбирлари билан боғлиқ қиймати 7 млрд сўмлик 5 та лойиҳа ғолиб деб топилган.

Умуман олганда, ўрганилган даврда Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатларида ижтимоий йўналишларнинг устуворлиги, инвестицион харажатларнинг кенгайиши ҳамда бюджет ижросининг режалаштирилган даражадан юқори бажарилиши кузатилади. Бу эса ҳудудий фискал сиёсатнинг фаол ва мослашувчан характерга эга эканлигини англатади.

Маҳаллий бюджет харажатлари ижроси самарадорлигига таъсир этувчи омилларни баҳолаш мақсадида Тошкент вилояти маҳаллий бюджети харажатларининг 2023–2025 йиллардаги динамик кўрсаткичлари асосида эконометрик таҳлил амалга оширилди. Таҳлилда маҳаллий бюджет харажатлари ҳажми (Y) натижавий кўрсаткич сифатида қабул қилиниб, бюджет даромадлари (X1), ижтимоий соҳа харажатлари (X2) ва инвестиция харажатлари (X3) омил сифатида танланди.

Тадқиқот доирасида қуйидаги кўп омили регрессия модели шакллантирилди:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

бу ерда:

Y – маҳаллий бюджет харажатлари ҳажми;

X1 – маҳаллий бюджет даромадлари;

X2 – ижтимоий соҳа харажатлари;

X3 – инвестиция харажатлари;

$\varepsilon$  – тасодифий хатолик.

Таҳлил натижалари маҳаллий бюджет харажатлари ҳажми билан бюджет даромадлари ўртасида кучли мусбат боғлиқлик мавжудлигини кўрсатди. Бюджет даромадларининг ўсиши маҳаллий бюджет харажатлари ҳажмининг ортишига хизмат қилган. Шунингдек, ижтимоий соҳа харажатлари ва инвестиция харажатларининг кўпайиши маҳаллий бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга ижобий таъсир кўрсатган.

Хусусан, 2025 йилда маҳаллий бюджет харажатлари 9 259,2 млрд сўмни ташкил этган бўлиб, бу кўрсаткич тасдиқланган параметрларга нисбатан 30,7 фоизга, аниқланган режага нисбатан эса 8,3 фоизга юқори бўлган. Мазкур ҳолат маҳаллий бюджет даромадларининг кўшимча манбалари шаклланганлиги ва иқтисодий фаолликнинг ўсиши билан изоҳланади.

Шу билан бирга, инвестиция харажатларининг ўсиши ҳудудларда ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантиришга хизмат қилмоқда. 2025 йилда инвестиция харажатлари 531,1 млрд сўмни ташкил этиб, аниқланган режага нисбатан 131,5 фоиз бажарилган. Бу ҳолат маҳаллий бюджет маблағларининг иқтисодий ўсишни рағбатлантирувчи омил сифатидаги аҳамияти ортиб бораётганлигини кўрсатади.

Эконометрик таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, маҳаллий бюджет харажатлари самарадорлигини ошириш учун бюджет даромадлари базасини кенгайтириш, инвестиция ва ижтимоий соҳа харажатларининг мақсадли йўналтирилишини таъминлаш ҳамда бюджет маблағларидан натижадорлик мезонлари асосида фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органларига давлат ижтимоий таъминот дастурини ҳудудларда амалга татиқ этиш бўйича муҳим вазифалар юклатилган. Улар фаолиятининг асосий йўналиши ўзларига тегишли бўлган ҳудудда иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш режаларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишдан иборатдир. Мазкур иқтисодий-ижтимоий жараёнларнинг амалдаги ҳолати Тошкент вилояти маҳаллий бюджетининг харажатлари таҳлили мисолида кўриб чиқилди.

Таъкидлаш жоизки, сўнгги йилларда мамлакат иқтисодиётининг тармоқларини ислоҳ қилиш доирасида бюджет соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш бўйича ҳам изчил ишлар амалга оширилиб, маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантириш ва

маблағларидан фойдаланишда маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг эркинлигини таъминлашга қаратилган қатор чора-тадбирлар амалга оширилди.

Хусусан, 2019 йилдан бошлаб “Ташаббусли бюджет” дастури жорий этилгани, қисқа муддатда ўзининг ижобий натижаларини кўрсатди. Бюджет маблағлари ҳисобидан амалга оширилаётган лойиҳалар аҳолининг талаб ва таклифлари асосида шакллантирилиб, долзарб масалалар ўз вақтида ва самарали ҳал этилишига эришилмоқда. Шунга қарамайдан турли даражадаги бюджет лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва бюджет маблағларидан самарали фойдаланишда жамоатчиликнинг иштирокини ошириш юзасидан қилинадиган ишлар талайгина.

Бугунги кунда консолидациялашган бюджет ҳисобидан ҳудудлар учун маблағларни салмоқли улуши бевосита республика идоралари орқали марказдан туриб молиялаштириш амалиёти қўлланилаётгани натижасида бюджет харажатларининг ижроси устидан жорий ва жамоатчилик назоратини самараси пастлигича қолмоқда.

Бунда, туман (шаҳар)лар ғазначилик бўлинмалари фақат маҳаллий даражадаги ташкилотларни сақлаш харажатларини амалга ошириш билан чекланиб, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича лойиҳалар эса асосан республика даражасида молиялаштирилаётгани улар устидан ҳудудларда депутатлик ва жамоатчилик назоратини амалга ошириш имконини бермайди.

Шунингдек, Давлат бюджети ижроси жараёнида республика бюджети ва давлат мақсадли жамғармалари ҳисобидан ҳудудларда амалга оширилаётган лойиҳалар учун ажратиладиган маблағларни эълон қилиб бориш амалиётининг йўқлиги сабабли, ушбу лойиҳалардан халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари хабардор бўлмаслигига ва мазкур маблағларнинг мақсадли сарфланиши устидан жамоатчилик назорати ўрнатилмаслигига олиб келмоқда.

Давлат бюджети харажатлари ижроси самарадорлигини ошириш, шу жумладан ёки харажатларни амалга оширилишида жамоатчиликнинг иштирокини кенгайтириш юзасидан қуйидагилар таклиф этилади:

1. Республика ва маҳаллий даражадаги давлат харажатларини баҳолаш ва энг муҳим бюджет дастурларининг йиллик баҳолаш методологиясини ишлаб чиқиш бюджет ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имконини беради.

2. Барча даражадаги бюджетлар ва жамғармалар маблағлари ҳисобидан ҳудудларда амалга оширилаётган ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш лойиҳалари тўғрисида халқ депутатлари маҳаллий Кенгашларини хабардор қилиш, биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчилар томонидан эълон қилиб бориш амалиётини жорий қилиш.

3. Ҳудудларда амалга оширилаётган ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш лойиҳалари учун ажратиладиган маблағларни тегишли туман (шаҳар) ғазначилик хизматлари орқали молиялаштиришни амалга ошириш орқали жорий назорат ўрнатилишини таъминлаш.

4. Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари ва жамоатчилик вакиллари томонидан ҳудудларда ташаббусли бюджет ҳисобидан молиялаштириладиган лойиҳаларни ўз вақтида ва сифатли амалга оширилиши устидан доимий жамоатчилик назоратини кучайтириш.

5. Ташаббусли бюджет лойиҳалари ва уларнинг ижроси тўғрисидаги ҳисоботларни Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари сессияларида эшитувини йўлга қўйиш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Серебрякова Т.Ю. (2016). *Тенденции совершенствования государственного контроля. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях*, (1 (385)), 25-28 <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-sovershenstvovaniya-gosudarstvennogo-kontrolya>
2. Sukharev, O. (2019). *Budgetary policy of emerging countries in conditions of institutional transformations. Problems and Perspectives in Management*, 17(4), 252–261. Available at:

<https://businessperspectives.org/index.php/component/zoo/budgetary-policy-of-the-emerging-countries-in-conditions-of-institutional-transformations>

3. Примова, Н. И. (2022). *Основные направления совершенствования финансовой стратегии местных бюджетов*. In интеграция науки, образования, общества, производства и экономики. pp. 25-41.
4. YU Jiali, YANG Shangguang, QIAN Zhiwang.(2023). *Fiscal Decentralization System and the Efficiency of Local Fiscal Expenditure on Health Care*. Journal of Beijing Institute of Technology (Social Sciences Edition), 25(1): 172-188. <https://journal.bit.edu.cn/sk/en/article/doi/10.15918/j.jbitss1009-3370.2023.2939?viewType=HTML>
5. Xu, J., & Wang, X. (2021). *Performance Budgeting: Linking Administrative Strategies to Budgetary Outcomes*. In The Public Productivity and Performance Handbook (pp. 321-334). Routledge.<https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781003178859-7/performance-budgeting-jingyuan-xu-xiaohu-wang>
6. Matos, S., Jorge, S., & Moura e Sá, P. (2023). *Measuring local public expenditure effectiveness using sustainable development goals*. International Journal of Public Sector Management, 36(4-5), 440-462. <https://doi.org/10.1108/IJPSM-01-2023-0003>
7. Haetami, A., Firmansyah, B., Itsniawan, A. M., & Irianto, B. R. *Assessing the Effectiveness and Efficiency of Local Government Budget Implementation in Indonesia: A Systematic Review of Value for Money Performance (2016–2023)*. <https://www.researchgate.net/profile/Ahmad-Haetami/publication>
8. Pattimahu, & Tangke. (2025). *Budget efficiency and economic growth relationship*. <https://journal.isas.or.id/index.php/JAA/article/view/1450>
9. Boetti, L., Piacenza, M., & Turati, G. (2012). *Decentralization and local governments' performance: How does fiscal autonomy affect spending efficiency?*. FinanzArchiv/Public Finance Analysis, 269-302. <https://www.jstor.org/stable/23272573>
10. Afonso, A., Jalles, J. T., & Venâncio, A. (2024). *Fiscal decentralization and public sector efficiency: Do natural disasters matter?*. Economic Modelling, 137, 106763. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264999324001196>
11. Medina, S. R. (2025). *Eficiencia presupuestal en la planificación estratégica de gobiernos locales: una revisión sistemática 2020-2025*. Revista InveCom, 6(3), 1-10. <https://dialnet.unirioja.es/servlet/articulo?codigo=10506916>
12. de Sousa Gama, L., Wiagustinib, N. L. P., & Soaresc, A. D. C. *Analysis of the Effectiveness and Efficiency of Local Government Budget Utilization*. <https://pdfs.semanticscholar.org/b57a/b5b5835ba8b8f21157c79dc8cbbfdf6d50bf.pdf>
13. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjati. (2025). *O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonun (2025-yil)*. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>

**SURXONDARYO VILOYATIDA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIGA TA‘SIR  
ETUVCHI OMILLAR TAHLILI**

**АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В  
РЕГИОНЕ СУРХАНДАРЬЯ**

**ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF ELECTRONIC  
COMMERCE IN SURKHANDARYA REGION**

**Shaydulov Shahzod Shuhrat o‘g‘li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya**

Maqolada O‘zbekistonning janubidagi Surxondaryo viloyatida elektron tijorat rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqot iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy-demografik, huquqiy va geografik omillarni qamrab oladi. Milliy va hududiy statistika qo‘mitalari, shuningdek ilmiy adabiyotlar asosida viloyatning raqamli infratuzilmasi, aholi xususiyatlari va me‘yoriy-huquqiy bazasi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, internet qamrovi va elektron to‘lov tizimlaridagi tafovutlar elektron tijorat rivojlanishining asosiy cheklovchi omili hisoblanadi. Maqola yakunida viloyatda elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, Surxondaryo viloyati, internet infratuzilmasi, raqamli savodxonlik, hududiy rivojlanish.

В статье анализируются факторы, влияющие на развитие электронной торговли в Сурхандарьинской области, расположенной на юге Узбекистана. Исследование охватывает экономические, технологические, социально-демографические, правовые и географические факторы. На основе данных национального и регионального комитетов по статистике, а также научной литературы изучены цифровая инфраструктура региона, демографические особенности населения и нормативно-правовая база. Результаты показывают, что различия в охвате интернета и системах электронных платежей являются основным ограничивающим фактором развития электронной торговли. В заключение статьи представлены практические рекомендации по развитию электронной торговли в регионе.

**Ключевые слова:** электронная торговля, цифровая экономика, Сурхандарьинская область, интернет-инфраструктура, цифровая грамотность, региональное развитие.

This article analyzes the factors influencing e-commerce development in Surxondaryo region, located in southern Uzbekistan. The study covers economic, technological, socio-demographic, legal and geographic factors. Based on data from national and regional statistics committees and scientific literature, the region’s digital infrastructure, demographic characteristics and regulatory framework are examined. The results show that disparities in internet coverage and electronic payment systems are the main constraining factor for e-commerce development. The article concludes with practical recommendations for developing e-commerce in the region.

**Keywords:** e-commerce, digital economy, Surxondaryo region, internet infrastructure, digital literacy, regional development.

Zamonaviy iqtisodiyotda elektron tijorat xalqaro va ichki savdoning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. O‘zbekistonda elektron tijorat hajmi 2016-yildagi 6,0 mlrd so‘mdan 2024-yilga kelib 15 211,5 mlrd so‘mga yetib, sakkiz yil ichida 2500 martadan ortiq o‘sgan [1]. Raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 2019-yildagi 0,1 foizdan 2023-yilda 1,2 foizga yetdi [2].

Biroq bu rivojlanish barcha hududlarda bir xil emas. Surxondaryo viloyati Afg‘oniston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaradosh bo‘lib, 2025-yil holatiga 2 974,4 ming aholiga ega [1]. Viloyat YAHM tarkibida qishloq xo‘jaligi 47,9 foizni tashkil etadi [1], bu uning agrar yo‘naltirilganligini va elektron tijorat uchun mahalliy bozor chegaralanganligini ko‘rsatadi.

Muallifning oldingi tadqiqotida Surxondaryoda internet qamrovining 1 foizga oshishi kichik biznes xizmatlar hajmini 1,44 foizga oshirishi aniqlangan ( $\beta=1,4386$ ;  $R^2=0,8881$ ) [3], bu raqamli infratuzilmaga investitsiyalarning yuqori samarasini ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi – Surxondaryo viloyatida elektron tijorat rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va huquqiy omillarni kompleks tahlil qilishdan iborat.

Rivojlanayotgan davlatlarda elektron tijorat omillariga bag‘ishlangan tizimli sharhda texnologiya, muhit va iste’molchi ishonchi asosiy omillar sifatida aniqlangan [4]. Muallifning Surxondaryo bo‘yicha oldingi tadqiqotlari bandlik, kichik biznes va raqamli transformatsiya jihatlarini qamrab oladi [3, 5, 6, 7]; ularda internet qamrovi va AKT xizmatlarining cheklanganligi asosiy to‘siq sifatida qayd etilgan. Djumayev (2025) hududiy sanoat tarkibiy o‘zgarishlarini regressiya tahlili asosida prognozlashni taklif etgan [8]. Maxmudov (2025) esa elektron tijorat omillarini Pearson korrelyatsiyasi va regressiya modeli yordamida tahlil qilib, internet abonentlari sonini eng kuchli omil sifatida aniqladi ( $R^2=0,98$ ) [9].

Xalqaro adabiyotlar asosan boshqa rivojlanayotgan davlatlar konteksti, milliy adabiyotlar respublika miqyosida o‘rganilgan bo‘lib, Surxondaryoda elektron tijorat omillarini kompleks tahlil qiluvchi tadqiqot hozircha amalga oshirilmagan – mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, muallifning oldingi tadqiqotida viloyatda axborot-kommunikatsiya xizmatlari hajmi 2010–2024-yillar davomida 55,6 mlrd so‘mdan 1 078,8 mlrd so‘mga oshgani aniqlangan [5], bu raqamli sohaning hududiy iqtisodiyotdagi o‘sib borayotgan o‘rnini ko‘rsatadi.

Tadqiqot tahliliy-qiyosiy va statistik usullarga asoslanadi. Asosiy manbalar: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma’lumotlari [1], muallifning ilgari nashr etilgan tadqiqotlari [3, 5, 6, 7] hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlar [10]. Omillar olti yo‘nalishga ajratilgan: iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy-demografik, huquqiy-institutsional, geografik-logistika va raqamli savodxonlik. Surxondaryo ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha qiymatlari bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Surxondaryoda kichik korxonalar 2024-yilda axborot-aloqa sohasida 118,8 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan, bu umumiy hajmning atigi 0,5 foizi [1]. Sanoat 2024-yil yanvar-sentyabrda 9 809,3 mlrd so‘mlik mahsulot bergan (o‘sish indeksi 108,8%) [1], biroq YAHMda qishloq xo‘jaligi (47,9%) ustunlik qiladi, sanoat ulushi past (7,4%) – bu mahalliy bozorni cheklaydi. Savdoda kichik korxonalar 149,2 mlrd so‘m foyda ko‘rsatgan, yangi ish o‘rinlarining ko‘pchiligi Termiz va Denovda ochilgan [1]. Xorijiy investitsiyasi korxonalar ulushi 21,4% [1].

Texnologik jihatdan, Denov, Jarqo‘rg‘on va Sherobod tumanlarida yangi optik kabellar tortilgan, bu yuzlab xonadonlarni internet tarmog‘iga ulash imkonini bergan [1]. “Raqamli O‘zbekiston-2030” doirasida 2020–2022 yillarda internet tarmoq qamrovi 67%dan 96%ga yetgan, biroq aholi jon boshiga real foydalanish darajasi atigi 64,3/100, respublika o‘rtachasi (86,5)dan past [1] – bu tarmoq mavjudligi va amaliy foydalanish o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi. Tog‘li tumanlarda (Boysun, Sariosiyo, Muzrabot) 4G qamrovi to‘liq emas [8]. Surxondaryo bo‘yicha elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish statistikasi hozircha alohida e’lon qilinmagan, bu muhim ma’lumot bo‘shlig‘ini ko‘rsatadi.

Surxondaryo 2025-yil holatiga 2 974,4 ming aholiga ega, bu respublikadagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri; tug‘ilish koeffitsiyenti 30,9‰ [1]. Yosh aholi ulushi yuqori bo‘lsa-da, 18–24 yoshlilar soni 2013–2024 yillarda 18,2 foizga kamaygan, bu ishsizlik va migratsiya bilan bog‘liq [6]. Shu bilan birga, 18–35 yoshli aholi uchun raqamli kasblar va elektron tijorat platformalari yangi bandlik manbaiga aylanishi mumkinligi alohida ta’kidlanadi [6]. Shaharlashish darajasining pastligi va qishloq aholisining ustunligi raqamli savodxonlik va onlayn xaridlar tarqalishini sekinlashtiradi.

Huquqiy sohada “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun (2022), “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi (2020) va Vazirlar Mahkamasining 885-son qarori (2024) qabul qilingan [10], ular

platforma javobgarligi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va xavfsiz to‘lovlarni tartibga soladi. Biroq hududiy darajada soliq va nazorat masalalari to‘liq hal etilmagan.

Surxondaryoning uch davlat bilan chegaradoshligi, xususan Termizdagi Xayraton o‘tish punkti, tranzit savdo uchun strategik imkoniyat yaratadi, biroq yo‘l infratuzilmasi yetarli rivojlanmagan, ayniqsa tog‘li hududlarda, bu yetkazib berishni qiyinlashtiradi [7]. Raqamli logistika markazlarining yetishmasligi onlayn buyurtmalar yetkazilishini sekinlashtiradi.

Raqamli savodxonlik shaharlarda nisbatan yuqori, qishloqlarda past; o‘zbek tilidagi sifatli raqamli kontent va onlayn to‘lovlarga ishonch yetishmovchiligi qo‘shimcha to‘siq hisoblanadi. 2025-yil holatiga 20 988 faol tijorat korxonasidan 13 158 tasi MChJ shaklida faoliyat yuritadi [1]; kichik biznesning onlayn savdoga o‘tishida texnik bilim va moliyalashtirish asosiy muammo.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan omillarni umumlashtirgan holda, ularni rag‘batlantiruvchi va cheklovchi ta’sirlar bo‘yicha tizimlashtirish mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**Surxondaryo viloyatida elektron tijorat rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar matritsasi. Manba: muallif tahlili.**

| <b>Omil</b> | <b>Rag‘batlantiruvchi</b>                                                     | <b>Cheklovchi</b>                                                          |
|-------------|-------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| Iqtisodiy   | Savdo foydasi (149,2 mlrd so‘m); sanoat o‘sishi (+8,8%); TIIK ulushi (21,4%)  | YAHMda qishloq xo‘jaligi ulushi (47,9%); AKT sektori ulushi (0,5%)         |
| Texnologik  | Internet qamrovi o‘sishi (67%→96%, 2020–2022); optik tarmoqlarning kengayishi | Tog‘li hududlarda 4G qamrovi pastligi; foydalanish darajasi (64,3 vs 86,5) |
| Ijtimoiy    | Yuqori aholi salohiyati (2,97 mln); tug‘ilish 30,9‰                           | 18–24 yoshlilar soni –18,2% (2013–2024); past raqamli savodxonlik          |
| Huquqiy     | Elektron tijorat qonuni (2022); “Raqamli O‘zbekiston-2030”                    | Hududiy soliq-nazorat masalalari to‘liq tartibga solinmagan                |
| Geografik   | Xayraton orqali tranzit savdo imkoniyati                                      | Yo‘l infratuzilmasi va logistika markazlari yetishmasligi                  |

Surxondaryoda elektron tijorat rivojlanishi rag‘batlantiruvchi (yosh aholi salohiyati, sanoat o‘sishi, huquqiy islohotlar) va cheklovchi (infratuzilma yetishmovchiligi, past raqamli savodxonlik, logistika muammolari) omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir natijasidir. Internet qamrovidagi hududiy tafovut (64,3 vs 86,5) eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Tavsiyalar: 1) tog‘li va qishloq hududlarida 4G/5G tarmog‘ini kengaytirish; 2) mahalliy tadbirkorlarni elektron tijoratga o‘tishda moliyaviy va texnik qo‘llab-quvvatlash, Termiz–Denov asosida hududiy markazlar tashkil etish; 3) raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha ta’lim dasturlarini kengaytirish; 4) Termiz–Xayraton yo‘nalishida mintaqaviy logistika markazlarini rivojlantirish; 5) raqamli to‘lov infratuzilmasini kengaytirish va hududiy elektron to‘lov statistikasini yuritishni yo‘lga qo‘yish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi; Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar (2024–2025). – stat.uz, surxonstat.uz.
2. Karimov H.A. O‘zbekistonda elektron tijoratning YalMdagi ulushi va iqtisodiy o‘rishga ta’siri // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2026. – Vol. 4, №2. – B. 68–71.
3. Shaydulov Sh.Sh. Surxondaryo viloyatida raqamli transformatsiya omillarining kichik biznes rivojlanishiga ta’sirini ekonometrik baholash // Raqamli iqtisodiyot. – 2026. – 14-son. – B. 2439–2453.
4. Mwapwele S.D. va boshq. A systematic literature review on the factors influencing e-commerce adoption in developing countries // Data and Information Management. – 2023.

5. Shaydulov Sh.Sh. Surxondaryo viloyatida bandlikni oshirishda raqamli iqtisodiyotning o‘rni // Raqamli iqtisodiyot. – 2026. – 14-son. – B. 2342–2351.
6. Irisova M.M., Shaydulov Sh.Sh. Surxondaryo viloyatida yoshlar bandligini ta’minlashda startaplarning roli // Raqamli iqtisodiyot. – 2025. – 13-son. – B. 3042–3052.
7. Shaydulov Sh.Sh., Xodjaqulov I.K., Mamatov A.B. Xorij tajribasi asosida Surxondaryo viloyatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari // EJAR. – 2025. – Vol. 5, Issue 9. – B. 433–439.
8. Djumayev F. Hudud sanoati tarkibiy o‘zgarishlarini prognozlash usuli // Green Economy and Development. – 2025. – 3(8).
9. Maxmudov L.U. Xizmat ko‘rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari tahlili // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – 6-son. – B. 262–271.
10. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari: “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-sonli Qonun (2022); “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, PF-6079 (2020); VM 885-sonli Qarori (2024); NAPP ma’lumotlari. – lex.uz, napp.uz.

**UDK: 339.1:671.1(100)**

**DUNYO ZARGARLIK SANOATINI RIVOJLANISHINING BUGUNKI KUNDAGI XOLATI**

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЮВЕЛИРНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**TODAY’S STATE OF DEVELOPMENT OF THE WORLD JEWELRY INDUSTRY**

**Abdulxakimov Zuxrali Tursunalievich**

Namangan davlat universiteti, Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası v.b. professori, i.f.d (DSc)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada global zargarlik sanoatining bugungi kundagi holati, rivojlanish tendensiyalari va sohaga ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy iqtisodiy-texnologik omillar tahlil qilingan. Dunyo zargarlik bozorining yetakchi mamlakatlari tajribasi, iste’molchilar talabining o‘zgarishi hamda sun’iy intellekt va laboratoriyada yetishtirilgan olmoslar (LGD) kabi innovatsiyalarning sohaga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada zargarlik sanoatini barqaror rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** zargarlik sanoati, global bozor, qimmatbaho metallar, laboratoriya olmoslari, Ye-commerce, barqaror rivojlanish, brending.

В данной статье анализируются текущее состояние глобальной ювелирной промышленности, тенденции развития и основные экономико-технологические факторы, влияющие на отрасль. Освещен опыт ведущих стран мирового ювелирного рынка, изменение потребительского спроса и влияние инноваций, таких как искусственный интеллект и лабораторно выращенные алмазы (LGD), на отрасль. Также в статье представлены выводы о перспективах устойчивого развития ювелирной промышленности.

**Ключевые слова:** ювелирная промышленность, глобальный рынок, драгоценные металлы, лабораторные алмазы, E-commerce, устойчивое развитие, брендинг.


This article analyzes the current state of the global jewelry industry, development trends, and key economic and technological factors influencing the sector. The experience of leading countries in the global jewelry market, changes in consumer demand, and the impact of innovations such as artificial intelligence and laboratory-grown diamonds (LGD) on the industry are highlighted. The

article also provides conclusions on the prospects for the sustainable development of the jewelry industry.

**Keywords:** jewelry industry, global market, precious metals, laboratory diamonds, E-commerce, sustainable development, branding.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarini chuqurlashuvi, raqamli texnologiyalarga asoslangan raqamli iqtisodiyotni shakllanishi, innovatsiyalar bilan boyitilayotgan iqtisodiyot tarmoqlari o‘z navbatida yangidan tarkibiy o‘zgarishlarga uchramoqda. Shu bilan birga bunday o‘zgarishlar zargarlik sanoati va zargarlik xizmatlari sohasiga xam ta’sir qilmoqda, zargarlik dizayni o‘zgarishiga katta ta’sir etdi, o‘z navbatida zargarlik sanoati va zargarlik buyumlari bozorining tubdan o‘zgarishiga jiddiy ta’sir etmoqda. Ko‘plab zargarlik modellarini ishlab chiqish orqali zargarlik buyumlarini hashamatli display ko‘rinishiga aylandi, ular esa oltin, kumush, olmosli broshlar, marjonlar, liants, rangli toshlar bilan bezatilgan bo‘lib, tashqi ko‘rinishlari pushti bilan bezatilgan halqalar, sirg‘alar va marjonlar shaffof, rangsiz olmoslardan iborat bo‘lgan.


Shu sababdan dastlab oltin qazib oluvchi mamlakatlar bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilindi, 2025 yilning fevral oyida Butunjahon oltin kengashi (World Gold Council – WGC) tomonidan dunyo oltin bozorining 2024 yildagi o‘zgarishlari bo‘yicha ma’lumotlari chop etdi. Birinchi navbatda, qimmatbaho metallga bo‘lgan talab va taklifning oshishi kuzatildi, oltin qazib olish 4974 tonnaga teng bo‘lib, 2023 yilga nisbatan qariyb 1 foizga oshgan. Ammo 2020 yilga nisbatan o‘shish sezilarli darajada — 7,4 foizga oshdi. O‘tgan yilning to‘rtinchi choragidagi ko‘rsatkich rekord bo‘ldi — 111 milliard AQSH dollarini va butun 2024 yil yakunlari bo‘yicha ko‘rsatkich ham rekord bo‘lib, bu ko‘rsatkich 382 milliard dollarni tashkil etdi. London qimmatbaho metallar bozori assosiatsiyasi (LBMA) oltin narxi o‘tgan yili rekord qiymatlarni 40 marta yangilagan. 2024 yilning 4-choragida qimmatbaho metallning o‘rtacha narxi rekord darajaga yetdi — bir troya unsiyasi uchun 2663 dollarni tashkil etgan holda 2024 yil davomida oltinning o‘rtacha narxi rekord darajaga oshdi, uning miqdori 2386 dollariga etdi. Bu ko‘rsatkich esa 2023 yilning o‘rtacha narxiga nisbatan — 23% ga o‘shishga erishildi.



**1-rasm. 2024 yilda oltinga bo‘lgan talabni o‘zgarishi, mlrd.AQSH dollari [2]**


1-rasm ma’lumotlaridan shuni anglash mumkinki, 2024 yilda oltin va qimmatbaho metallarga bo‘lgan talab o‘zgarishi aks ettirilgan, 2000 yilda 28,9 mlrd.AQSH dollari, 2005 yilda 48,18 mlrd.AQSH dollari, 2010 yilda 69,95 mlrd.AQSH dollari, 2015 yilda 165,69 mlrd.AQSH dollari, 2020 yilda 269,7 mlrd.AQSH dollari, 2024 yilda 381,63 mlrd.AQSH dollarini tashkil etdi. Bundan

tashqari oltin qazib olish esa 2000 yilda 883,71 tonna, 2005 yilda 995,85 tonna, 2010 yilda 1119,62 tonna, 2015 yilda 112,01 tonna, 2020 yilda 1235,23 tonna, 2024 yilda 1297,41 tonnaga etdi.



**2-rasm. 2023-2024 yilda dunyo zargarlik mahsulotlari bozoridagi sotuv dinamikasi, ming AQSH dollari [4]**

Zargarlik mahsulotlari tahliliga kirishishdan oldin shuni eslatib o‘tish kerakki, tanga zarb qilish uchun ishlatilmaydigan oltin kukuni, boshqa ishlov berilmagan shakldagi oltin, tanga zarb qilish uchun ishlatilmaydigan oltin, boshqa yarim ishlov berilgan shakldagi oltindan insonlar uchun zargarlik mahsulotlari ishlab chiqish va ularni iste’molchilarga yetkazish maqsad qilingan. MetalResearch bozorlarni tahlil qilish guruhi tomonidan 2024 yil iyul oyida o‘tkazilgan baholash va hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024 yilda jahon oltin va mahsulotlar bozori 2024 yilning 1-choragida sotuvlarning sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Tahlilchilar bu o‘zgarishni 2023 yilning 4-choragiga nisbatan 22,5 foiz deb baholamoqda. 2023 yilning 1-choragida oltin va mahsulotlar bozorida sotuvlar hajmi 95 396 327 ming dollarga baholangan bo‘lsa, 2024 yilning 1-choragida sotuvlar hajmi 125 513 306 ming dollarga baholandi. 1 yil + 1 chorakdagi o‘zgarishlar dinamikasi +31,6% o‘rishni ko‘rsatdi. Shu bilan birga, sotuv ko‘rsatkichi 2023 yil — 2024 yilning 1-choragi — 2-chorakda eng past bo‘lgan. Zargarlik mahsulotlari bozorida yetkazib beruvchi mamlakatlarning ulushi har chorakda o‘zgaradi. MetalResearch 2024 yilning 1-choragida jahon oltin va mahsulotlar bozorida birinchi o‘rinlarni egallagan davlatlar orasida, Rossiyani hisobga olmaganda: Shveysariya 28,4% ulush bilan, Buyuk Britaniya 15,69% ulush bilan, Xitoy, Gonkong 11,43% ulush bilan yuqori ulushga ega mamlakatlar qatorida o‘rin olgan.



**3-rasm. 2024 yilning 1 choragida jahon mamlakatlarining jahon zargarlik mahsulotlari bozorida sotishdagi ulushi [4]**

MetalResearch tahlil guruhi va "Sanoat marketologlari uyushmasi" tomonidan o‘tkaziladigan 2024-yilgi marketing kompaniyalari reytingi aniqlandi hamda qimmatbaho metallar bozori, shu jumladan oltin va mahsulotlar bozorini o‘rganishga ixtisoslashgan holda amalga oshirilgan. Oltin va boshqa qimmatbaho metal mahsulotlari bozori bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar o‘tkazildi. Ko‘rsatilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida har yili tadqiqotga yangi narsa qo‘shildi yoki qayta shakllantirildi. Sanoat (metallurgiya mahsulotlari emas) bozorlarini o‘rganish yo‘nalishi mavjud bo‘lib, u yerda deyarli har qanday mavzu bo‘yicha bozorni o‘rganishga buyurtma berish mumkin bo‘ladi.

Iste‘molchilar hashamatli buyumlarni noaniqlik sharoitida investitsiya qilish imkoniyati sifatida ko‘rishadi. Zargarlik buyumlarini o‘z ichiga olgan shaxsiy hashamat buyumlari bozori 2023 yilda +4% ga o‘sdı va yangi rekord darajaga yetdi — 362 mlrd. 2023 yilda hashamatli zargarlik buyumlari savdosi 29 milliard yevrodan oshdi, bu 2022 yilga nisbatan +5-6 foizga ko‘pdir. 2024 yilda bozor o‘sishi bazaviy ssenariyda +1-4 foizni, optimistik ssenariyda esa +5-7 foizni tashkil etishi mumkin.

**1-jadval**

**Dunyoning yetakchi mamlakatlari tomonidan oltin ishlab chiqarish holati [1]**

| 2023 yilda o‘rni | Mamlakatlar             | 2016  | 2018  | 2020  | 2021  | 2022  | 2023  |
|------------------|-------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| 1                | Xitoy Xalq Respublikasi | 463,7 | 404,1 | 368,3 | 332,0 | 375,0 | 378,2 |
| 2                | Rossiya Federatsiyasi   | 262,4 | 295,4 | 331,1 | 330,9 | 324,7 | 321,8 |
| 3                | Avstraliya              | 287,7 | 313,0 | 327,8 | 315,1 | 313,9 | 293,8 |
| 4                | AQSH                    | 229,1 | 224,9 | 190,2 | 186,8 | 172,7 | 166,7 |
| 5                | Kanada                  | 163,1 | 188,9 | 170,6 | 192,9 | 194,5 | 191,9 |
| 6                | Gana                    | 131,4 | 149,1 | 138,7 | 129,2 | 127,0 | 135,1 |

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

|    |             |        |        |        |        |        |        |
|----|-------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| 7  | Braziliya   | 95,9   | 96,7   | 107,0  | 90,1   | 86,7   | 90,7   |
| 8  | Meksika     | 130,7  | 118,4  | 101,6  | 124,5  | 124,0  | 126,6  |
| 9  | O‘zbekiston | 90,0   | 92,0   | 101,6  | 104,9  | 110,8  | 119,6  |
| 10 | Indoneziya  | 118,4  | 153,0  | 100,9  | 117,5  | 124,9  | 132,5  |
|    | Jami        | 3512,3 | 3652,8 | 3478,1 | 3580,7 | 3627,7 | 3644,4 |

2030 yilga kelib shaxsiy hashamatli buyumlar bozori o‘rtacha +5-7% ga o‘sishi kutilmoqda, xitoylik iste’molchilar hashamatli buyumlarning eng yirik xaridorlari maqomini tiklaydi, Kontinental Xitoy Amerika va Yevropani orqida qoldiradi va Y, Z va Alpha avlodlari global savdoning 85% ni ta’minlab beradi, Bain va Altagamma konsalting kompaniyalari 2024 yil yakunlari bo‘yicha jahon hashamatli buyumlar bozorining dolzarb sharhini taqdim etdi, avvalroq ular 2023 yil yakunlari bo‘yicha batafsil sharhni e’lon qilgan edi. 2024 yil yakunlari bo‘yicha shaxsiy hashamatli buyumlar savdosi makroiqtisodiy bosim, talabning pasayishi va ko‘proq va kamroq ta’minlangan xaridorlar o‘rtasida qutblanishning kuchayishi tufayli -1% dan -3% gacha tushib ketdi, turizm industriyasi esa kuchli rivojlanish sur’atiga erishdi.

Amerikalik sayyohlarning Yevropadagi xarajatlari 2019 yilga nisbatan 2,5 barobarga, Yaqin Sharqdan kelgan sayyohlarning xarajatlari esa 1,7 barobarga oshdi. Ammo xitoylik sayyohlarning xarajatlari hali tiklanmadi va 2019 yil darajasining taxminan 40 foizini tashkil etdi. Umuman olganda, Yevropada sayyohlarning hashamatli buyumlarga xarajatlari asosan o‘rtacha chekning o‘sishi hisobiga +50% ga oshdi.



**4-rasm. Dunyo mamlakatlaridagi oltin zaxiralari, % [3]**

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan tashqari olmos savdosi va ularni ishlab chiqarish bugunkı kundagi yuqori sur’atlarda rivojlanib bormoqda. 2025 yil 17-21 yanvar kunlari Vichense o‘tkazilgan butun dunyo zargarlik sanoat ko‘rgazmasida yangi mahsulotlar va yangi, innovatsion zargarlik xizmatlari taqdim etildi. Unda 145 ta mamlakatlardan tashrif buyuruvchilar kuzatildi, asosan Italiya, Turkiya, AQSH, Germaniya, Ispaniya, Gretsiyadan hisoblanadi [4]. Korrado Peraboni Italian Exhibition Group ijrochi direktori fikriga ko‘ra, xorijiy mamlakatlar loyihalari bir necha yil oldindan targ‘ib etish boshlangan, zargarlik xizmatlarini amalga oshirishda bir necha bosqichlarda o‘tkazish talab etiladi, bu jarayonlar Italiya mamlakatida xam amalga oshirilmoqda. Matteo Farsura, IEG guruhi mutaxassislari fikricha, oltin va zargarlik mahsulotlari 1300 dan ortiq brend mahsulotlari ishtirokini ta’minlash, barcha zargarlik mahsulotlari ishtirokchilariga imkoniyat berish maqsad qilingan, zargarlik mahsulotlari sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan, Vicenzaoro global axborot platformasida o‘z strategiyalarini ishlab chiqdi va bu esa turli darajadagi

bozorlardagi barcha zargarlik xizmatlarini olib boruvchilarga teng o‘rinda imkoniyat berish maqsad qilingan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.Surbiton Associates, World Gold Council, Росстат, Бюро национальной статистики Республики Казахстан, Геологическая служба США, Global Business Report, Reuters, CEIC data, dabangasudan.org Россия, ТАСС (2023)
- 2.ICE Benchmark Administration, Metals Focus, World Gold Council; Disclaimer
- 3.<https://zoltehr.ru/results/globalnaya-dobycha-i-rynok-zolota-analiticheskiy-obzor-za-2024-god/>
- 4.[https://j-r.ru/news/sobytiya.html?list\\_page=2](https://j-r.ru/news/sobytiya.html?list_page=2)
5. [https://www.metalresearch.ru/gold\\_market.html](https://www.metalresearch.ru/gold_market.html)

**UDK: 37.07:338.46**

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA BOSHQARUV TIZIMINING IQTISODIY  
SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ В  
ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**

**ENHANCING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF THE MANAGEMENT SYSTEM FOR  
IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION**

**Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna**

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi, (PhD)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda boshqaruv tizimining samaradorligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Unda ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda sifat nazorati mexanizmlarini kuchaytirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Maqolada boshqaruv tizimini rivojlantirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga erishish mumkinligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, boshqaruv tizimi, samaradorlik, innovatsion yondashuv, sifat nazorati, monitoring, baholash tizimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim muassasasi, strategik boshqaruv.

В данной статье анализируются вопросы развития эффективности системы управления в повышении качества образования. Освещается важность совершенствования управленческих процессов в образовательных учреждениях, внедрения современных подходов к управлению, а также усиления механизмов контроля качества. Кроме того, показаны пути повышения эффективности управления посредством использования инновационных технологий и информационно-коммуникационных средств в системе образования. В статье обосновывается, что развитие системы управления способствует повышению качества и эффективности образования.

**Ключевые слова:** качество образования, система управления, эффективность, инновационный подход, контроль качества, мониторинг, система оценки, информационно-коммуникационные технологии, образовательное учреждение, стратегическое управление.

This article analyzes the issues of developing the effectiveness of the management system in improving the quality of education. It highlights the importance of improving management processes in educational institutions, introducing modern management approaches, and strengthening quality control mechanisms. In addition, the article describes ways to increase management efficiency through the use of innovative technologies and information-communication tools in the education system. The article substantiates that improving the management system can lead to enhanced quality and effectiveness of education.

**Keywords:** education quality, management system, efficiency, innovative approach, quality control, monitoring, assessment system, information and communication technologies, educational institution, strategic management.

Jahon miqyosida ta'lim muassasalari faoliyatini strategik menejmentning fundamental g'oyalari, tamoyillari va texnologiyalari asosida tashkil etish va pedagogik jarayonni istiqbolga yo'naltirilgan tarzda boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Janubiy Koreyada o'tkazilgan Xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan "Incheon declaration" da "butun hayot davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish" masalasi ta'kidlanib, shu asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida strategik boshqaruvni takomillashtirishning kreativ texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim subyektlarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish, kasbiy faoliyatini loyihalashtirish, ta'lim jarayonlarini modellashtirishga doir fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini boshqarishga oid jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ta'lim tizimini iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan. Jumladan, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlari asosida ta'lim sifati, o'qituvchilar kompetensiyasi hamda boshqaruv samaradorligini baholashning xalqaro mezonlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan mablag'larning natijadorligini aniqlashda muhim iqtisodiy indikator vazifasini bajaradi (OECD va UNESCO Institute for Statistics).

Shuningdek, ta'lim siyosatini baholash, maktab va davlat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirish uchun iqtisodiy hamda institutsional indikatorlar yaratilgan, maktab infratuzilmasini rivojlantirish orqali ta'lim muhiti sifati va samaradorligini oshirish mexanizmlari asoslab berilgan (World Bank). Bu esa ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini yaratadi.

Yevropa ta'lim tadqiqotlari doirasida ta'lim muassasalarida sifat kafolati, monitoring va feedback tizimlarini joriy etish orqali ta'lim xizmatlari samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi (European Education Research Association).

Tadqiqotlarda umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarining strategik fikrlashi, innovatsion boshqaruvni joriy etish, inson resurslarini samarali boshqarish va jamoa bilan hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali boshqaruv sifatini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan (Harvard Graduate School of Education). Bu esa ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, pedagogik monitoring, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish asosida ta'lim sifati monitoringi takomillashtirilgan bo'lib, bu boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilish, vaqt hamda moliyaviy resurslarni tejash imkonini beradi (National Institute for Educational Policy Research, NIER).

Buyuk Britaniya tajribasida o'qituvchilar va maktab rahbarlari uchun joriy etilgan Early Career Framework hamda National Professional Qualifications dasturlari pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish bilan birga, dars sifati va boshqaruv samaradorligini iqtisodiy samaradorlik tamoyillari asosida rivojlantirishga xizmat qilgan (University College London).

Shuningdek, Stanford University tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ta'limda tenglikni ta'minlash, o'qituvchilar malakasini oshirish va samarali rahbarlik mexanizmlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari yoritilgan. Cambridge Assessment International Education tadqiqotlarida esa o'quv dasturlari, baholash tizimi va o'qitish

standartlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish orqali ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish masalalari o‘rganilgan.

Shu bilan birga, Singapore National Institute of Education tomonidan ishlab chiqilgan School Excellence Model (SEM) ta’lim muassasalarida natijadorlik, innovatsion faoliyat va boshqaruv samaradorligini baholashning zamonaviy modeli sifatida e’tirof etilib, ta’lim sifati va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Boshqarish ma’lum bir obyektga “tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko‘rsatish demakdir. Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, natijalari nazorat va tahlil qilishga aytiladi. Ta’lim muassasalarini boshqarish tushunchasi ta’lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi”. [1]

Menejment mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. “Olimlar ta’lim menejmentining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi: — ta’lim menejmenti “maqsadga muvofiqlik” so‘zi bilan aniqlanadigan ma’naviy o‘lchovga ega; — ta’lim menejmenti — bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi); — menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro dialektik birligi; — ta’limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, endilikda ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o‘tildi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi — ta’lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda ota — onalarga ta’lim dasturlarini, turlarini, ta’lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat”. [2]

MDH ga a’zo davlatlarning ta’lim sohasi atama va ta’riflari lug‘atida boshqacha talqin berilgan: “ta’lim sifati – bu ta’limning shaxs, jamiyat, davlatning ehtiyojlari, manfaatlariga mos kelishi; (natija sifatida, jarayon sifatida, ijtimoiy tizim sifatida); ta’limning (ijtimoiy tizimning, jarayonning, natijaning) iyerarxik tartibda tashkil etilgan, ijtimoiy ahamiyatli tub xususiyatlarining (tavsiflarining, o‘lchamlarining) tizimli majmui”. Ehtiyojlarga muvofiqlik darajasini sifat belgilab beradi. Chunki jamiyat va davlatning turli idoralari (oila, mehnat sohasi, vatan himoyasi va hokazolar), turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Berilgan ta’rifda ta’lim sifati batafsil, bir yoqlama yoritilmagan. Mazkur ta’rifni ta’limni boshqarish uchun qo‘llash mumkin emas.

**1-jadval**

**Quyidagi jadvalda ta’lim sifati va ta’limni boshqarish masalalariga oid yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari yillar ketma-ketligi asosida tizimlashtirilgan jadval**

| <b>Davr / yillar</b>            | <b>Olim<br/>(tadqiqotchi)</b>                                           | <b>Asosiy g‘oya va<br/>yondashuv</b>                                                                       | <b>Ta’lim sifati talqini</b>                                                                              |
|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>XX asr<br/>boshlarigacha</b> | A. Fayol                                                                | Boshqaruvni universal faoliyat sifatida izohladi, chiziqli-funksional boshqaruv tuzilmasini asoslab berdi. | Sifat – boshqaruvning rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat funksiyalariga bog‘liq. |
| <b>1940–1960-<br/>yillar</b>    | E. Meyo, D. Makgregor, Ch. Bernard, I. Ansoff, G.S. Levitt, W.Y. Reddin | Insoniy munosabatlar va xulq-atvor yondashuvi; psixologik va sotsiologik omillarning ustuvorligi.          | Ta’lim sifati inson omili, motivatsiya va ijtimoiy muhit bilan belgilanadi.                               |
| <b>1970–1980-<br/>yillar</b>    | V.S. Lazarev, G.X. Popov, M.M. Potashnik                                | Boshqaruvni ijtimoiy tizim sifatida ko‘rib chiqish; faoliyatga                                             | Ta’lim sifati boshqaruv samaradorligi va ta’lim jarayoni natijadorligi bilan bog‘liq.                     |

|                               |                                                  | yo‘naltirilgan yondashuv.                                                                                               |                                                                                                                 |
|-------------------------------|--------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1980–1990-yillar</b>       | N.V. Kuzmina, A.A. Rean, V.P. Simonov            | Pedagogik faoliyat va shaxs kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv.                               | Ta’lim sifati – shaxsning kompetensiyalari va pedagogik jarayon samaradorligi mezon.                            |
| <b>1990–2000-yillar</b>       | P.I. Tretyakov, T.I. Shamova                     | Ta’lim sifatini boshqaruv nuqtai nazaridan integral tizim sifatida talqin etish.                                        | Sifat – maqsad, mazmun, jarayon va natijalar birligi; diagnostik, refleksi va innovatsion boshqaruvga tayanadi. |
| <b>2000-yildan hozirgacha</b> | A.V. Voronin M.L.Agranovich va P.E.Kondrashovlar | Ta’lim sifati menejmenti – jamiyatning raqobatbardosh mutaxassisga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qaratilgan. | Ta’lim sifati – jamiyat ehtiyojlariga mos, natijador va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimi. |

Boshqaruv nazariyalari asoschilaridan biri A.Fayol “boshqarish jarayonining 5 ta asosiy funksiyalari: rejalashtirish, tashkil qilish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, rahbarlik (motivlar) va nazoratni ajratib ko‘rsatadi”.[3] A.Fayol tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarning mohiyati quyidagicha: mehnat taqsimoti; avtoritet va hokimiyat mas’uliyati; intizom; rahbarlik birligi; farmoyish birligi; shaxsiy manfaatning umumiy manfaatga bo‘ysunishi; mehnatni rag‘batlantirishning markazlashgan va markazlashmagan boshqaruv muvozanati; bir turdagi menejrlarning ishini muvofiqlashtirish; tartib; odillik; samimiylik; xodimlar qat’iyligi tashabbus hisoblanadi.

Boshqaruv muammolariga qaytgan holda ta’kidlash mumkinki, chet el tadqiqotlarida quyidagi ilmiy maktablar aniq ko‘zga tashlanadi: ilmiy boshqaruv maktabi, ma’muriy boshqaruv maktabi, inson munosabatlari va xulq atvor haqidagi fan maktablari, boshqaruv fani maktabi yoki miqdor metodlari maktabi. M. Meskon, M. Albert, F. Xedourilarning tadqiqotida “ilmiy maktablarning fan va boshqaruv amaliyotiga qo‘shgan hissasi aniqlangan. Ilmiy boshqaruv maktabi hissasi:1) vazifani bajarishning eng yaxshi usulini aniqlash uchun ilmiy tahlilni qo‘llash; 2) ishlarni bajarish uchun eng ma’qul bo‘lgan ishchilarni tanlash va ularning o‘qitilishini ta’minlash; 3) ishchilarni o‘z vazifasini samarali bajarishi uchun talab etiluvchi resurslar bilan ta’minlash; 4) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun moddiy rag‘batlantirishni muttasil va to‘g‘ri qo‘llash; 5) rejalashtirish va o‘ylab ko‘rishni ishning o‘zidan ajratib olinishi bilan xarakterlanadi”. [4]

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifatini oshirishda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta’lim jarayonining natijadorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqaruvni yanada shaffof va samarali qiladi. Natijada ta’lim tizimi barqaror rivojlanadi va zamon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Selezneva N.A.. Kachestvo vysshego obrazovaniya kak obyekt sistemnogo issledovaniya: leksiya-doklad. – M.: 2001. – C.79.
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik “Sano-standart” nashriyoti Toshkent – 2017. – 172 b.

3. Abdullaeva N.Sh. Maktabgacha ta’limda rahbarning boshqaruv qobiliyati va uni o‘ziga xos tomondalar. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024.-746 b.
4. Meskon M., M. Albert, F. Xedouri, Meskon M.X., Albert M., Xedouri F. Основы менеджмента/ Per. s angl. – M.: Delo LTD, 1995. – 407 s.
5. Ibragimova.G.S. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy texnologiyalari. // NamDTI Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali. – N.: 2025. № Maxsus 4-son. — B. 134-139.
6. Ibragimova.G.S. Ta’lim sifatini boshqarishda jahon tajribasidan foydalanish mexanizmlari. // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. – T.: 2025. №3. — B. 310-313.

**UDK: 658.511/.512:005.6:005.591.6**

**KAYDZEN KONSEPSIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОНЦЕПЦИИ КАЙДЗЕНА**

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE KAIIDZEN  
CONCEPT**

**Davronova Nozima**

Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti

**Abdulxakimov Zuhrali Tursunalievich**

Namangan davlat universiteti v.b. professori, i.f.d (DSc)

**Аннотация**

Тадқиқотда замонавий бошқарув тизимининг энг самарали йўналишларидан бири ҳисобланувчи Кайдзен концепциясининг назарий, услубий ва фалсафий асослари комплекс таҳлил қилинган. Мақолада (ёки диссертацияда) Ғарб ва Шарқ менежмент мактабларининг ёндашувлари, хусусан, М. Имаи ва В.Э. Деминг назариялари қиёсий ўрганилган ҳамда Кайдзеннинг универсаллик, эволюцион ривожланиш ва инсон капиталини фаоллаштириш тамойиллари асослаб берилган. Корхоналарда ишлаб чиқариш ва вақт йўқотишларини (муда) камайтириш, 5S тизими ва PDCA циклини трансформация қилишнинг услубий механизмлари тадқиқ этилган. Тадқиқот якунида маҳаллий корхоналарда меҳнат унумдорлигини ошириш ва стратегик рақобатбардошликни таъминлаш учун Кайдзен мафқурасини миллий корпоратив маданиятга мослаштириш бўйича амалий таклиф ва ҳулосалар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** Кайдзен концепцияси, назарий-услубий асослар, узлуксиз такомиллашиш, исрофгарчиликсиз ишлаб чиқариш (муда), Гемба тамойили, 5S тизими, меҳнат унумдорлиги, корпоратив маданият, сифат менежменти, стратегик рақобатбардошлик.

В исследовании проведен комплексный анализ теоретических, методических и философских основ концепции Кайдзен, являющейся одним из наиболее эффективных направлений современного менеджмента. В работе сопоставлены подходы западных и восточных школ управления, в частности, теории М. Имаи и В.Э. Деминга, а также обоснованы принципы универсальности, эволюционного развития и активизации человеческого капитала Кайдзен. Исследованы методические механизмы сокращения производственных и временных потерь (муда), трансформации системы 5S и цикла PDCA на предприятиях. В заключении сформированы практические предложения и выводы по адаптации идеологии Кайдзен к национальной корпоративной культуре для повышения

производительности труда и обеспечения стратегической конкурентоспособности отечественных предприятий.

**Ключевые слова:** концепция Кайдзен, теоретико-методические основы, непрерывное совершенствование, бережливое производство (муда), принцип Гемба, система 5S, производительность труда, корпоративная культура, менеджмент качества, стратегическая конкурентоспособность.

The study provides a comprehensive analysis of the theoretical, methodical, and philosophical foundations of the Kaizen concept, which is one of the most effective areas of modern management. The work compares the approaches of Western and Eastern management schools, particularly the theories of M. Imai and W.E. Deming, and substantiates the principles of universality, evolutionary development, and human capital activation inherent in Kaizen. The methodical mechanisms for reducing production and time losses (muda), and transforming the 5S system and the PDCA cycle at enterprises are investigated. In conclusion, practical proposals and recommendations are formulated for adapting the Kaizen ideology to the national corporate culture in order to increase labor productivity and ensure the strategic competitiveness of domestic enterprises.

**Keywords:** Kaizen concept, theoretical and methodical foundations, continuous improvement, lean production (muda), Gemba principle, 5S system, labor productivity, corporate culture, quality management, strategic competitiveness.

Kaydzen (kaizen) — mukammallikka intilish (yaxshilanish) demakdir. Bu tushuncha shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va mehnat hayotini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish jarayonini o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarishga tatbiq etilganda esa kaydzen rahbarlardan tortib oddiy ishchigacha — barcha birdek jalb etiladigan doimiy takomillashish (rivojlanish) jarayonini anglatadi [1]. «Biznesda kaydzen — ishlab chiqarishdagi oddiy xodimlardan tortib oliy rahbariyatgacha bo‘lgan barchaning tinimsiz mukammallikka intilishidir. Bunda direktordan boshlab oddiy ishchigacha — hamma birdek yaxshilanishlar jarayoniga jalb etilishi va undan manfaatdor bo‘lishi lozim. Standartlashtirilgan harakatlar va jarayonlarni takomillashtirish orqali kaydzen tizimi isrofgarchiliksiz (yo‘qotishlarsiz) ishlab chiqarishni maqsad qiladi [2]. Mazkur konsepsiya asoschisi, “Kaydzen: yapon kompaniyalari muvaffaqiyatining kaliti” kitobi muallifi Masaaki Imai shunday deydi: “Men kaydzeni samarali menejmentning poydevori bo‘lgan yetakchi konsepsiya sifatida taklif qilgan bo‘lardim. aynan u Yaponiyada oxirgi 30 yil ichida ishlab chiqilgan muammolarni hal qilish metodologiyasi, tizimlari va vositalarini birlashtiradi. Uni qo‘llashdan maqsad — mukammallikka intilish va borgan sari yanada yaxshiroq ishlashga harakat qilishdir”».

Kaydzen (yaponcha «kai» – o‘zgartirish/yaxshilash, «zen» – donolik/yaxshilik) — bu ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini, shuningdek, korxona xodimlarining mehnat faoliyatini uzluksiz va bosqichma-bosqich takomillashtirishga yo‘naltirilgan zamonaviy menejment falsafasidir.

G‘arbning innovatsion (keskin va katta investitsiya talab qiluvchi) yondashuvidan farqli o‘laroq, Kaydzen evolyutsion, ya’ni kichik, lekin muntazam o‘zgarishlar orqali yuqori samaradorlikka erishishni ko‘zda tutadi.

Ko‘pincha tashkilotlarning top-menejrlari (oliy rahbariyati) moddiy va vaqt imkoniyatlaridan norasional (oqilona bo‘lmagan) tarzda foydalanish muammosiga duch keladilar. Bunday vaziyat ish samaradorligini pasaytiradi va kompaniyaning rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi, natijada foyda hajmining oshishi kuzatilmaydi. Muntazam mukammallikka intilishni nazarda tutuvchi Yaponiyaning kaydzen falsafasi yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish usullaridan biriga aylanishi mumkin. Kaydzen konsepsiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, boshqaruv va ishlab chiqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish asosida shakllanadi.

Kaydzen falsafasi universal xususiyatga ega bo‘lib, uni ham alohida shaxsiy faoliyatda (individual darajada), ham yirik tashkilotning butun tizimini takomillashtirishda juda oson qo‘llash mumkin — uning asosiy ustuvorligi ham aynan mana shundadir. Kaydzen mafkurasi zamirida kompaniya faoliyatining barcha jihatlarini, barcha bo‘lim va tarmoqlarini, oddiy xodimlardan tortib top-menejergacha bo‘lgan barcha xizmatchilarni qamrab oluvchi va ularning faoliyatini

yaxshilovchi izchil, uzluksiz jarayon yotadi. Kaydzen — bu Yaponiya korporatsiyalaridagi fikrlash uslubidir. Barcha kompaniyalar uni o‘z xodimlari ongida rivojlantirishga harakat qiladilar. Bu ham alohida shaxsning, ham o‘sha shaxs faoliyat yuritayotgan kompaniya bo‘g‘ining (tarmog‘ining) o‘z-o‘zini rivojlantirishi va mukammallashishiga olib boradigan yo‘ldir [3]. «Kaydzen tizimi har qanday kompaniyada muammolar mavjudligini tan olishdan boshlanganligi sababli, mazkur konsepsiya har bir xodimga hal etilmagan masalalar haqida ochiq gapirish imkoniyatini beruvchi korporativ madaniyatni yaratish orqali ushbu muammolarni bartaraf etadi [1]. Ushbu metodning ashaddiy tarafdorlaridan biri sifatida amerikalik olim, statistik va menejment bo‘yicha maslahatchi doktor Uilyam Edvards Deming ishtirok etgan. Doktor Deming shunday degan edi: “Ishlab chiqarish ishchisi uchun sifat — bu, avvalo, o‘z mehnatidan qoniqish hosil qilish va o‘z mahorati bilan faxrlanish imkoniyatidir. Sifatni oshirish orqali biz behuda sarflanayotgan kishi-soatlarni va to‘liq quvvat bilan ishlatilmayotgan dastgoh (mashina) vaqtini a’lo darajadagi mahsulot va yuqori sifatli xizmatlarga aylantiramiz.

Natijada zanjirli reaksiya yuzaga keladi — xarajatlar kamayadi, raqobatbardoshlik oshadi, ishlab chiqarishdagi odamlar o‘zlarini baxtliroq his qiladilar, ish o‘rinlari esa yanada ko‘payadi” [4]. Doktor Deming menejerlarga mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng kichik imkoniyatlarini ham izlab topishni hamda ushbu jarayonga har bir xodimni jalb etishni tavsiya qilgan.

1950 yillarning oxirida Yaponiya olimlari va muhandislari uyushmasi sifat nazoratining faol tarafdori bo‘lgan doktor Demingni iqtisodiy samaradorlik va natijadorlik masalalari bo‘yicha maslahat (konsultatsiya) berish uchun taklif qildi. Kichik qadamlar tamoyili asosida tarbiyalangan Yaponiya biznesi va sanoati qisqa fursatda misli ko‘rilmagan yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Kichik qadamlar g‘oyasi shu qadar muvaffaqiyatli bo‘lib chiqdiki, yaponlar uni o‘zlariga xos tarzda “Kaydzen” deb nomladilar. Kaydzen falsafasi — bu katta xarajatlarni va juda ko‘p miqdordagi vositalarni (instrumentlarni) talab qilmaydigan jarayon bo‘lib, bunda faqatgina konsepsiya zaminida yotgan g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq rejaga amal qilish lozim. Kompaniya o‘z mahsuloti va jarayonlarini takomillashtirib borish orqali, tizimdagi zaif nuqtalarni topadi va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etib, butunlay yangi rivojlanish darajasiga ko‘tariladi [3].

«Kaydzen tizimini joriy etish — bu uzoq muddatli loyihadir. U doimiy va har kuni amalga oshirilishi lozim. Raqobatchilardan bir qadam oldinda yurish uchun yaxshilanishlar bilan har kuni shug‘ullanish zarur. Yaqin kelayotgan chorakning o‘zidayoq foydani birdan keskin oshirib yuborishning imkoni yo‘q. Biroq, uzoqroq davr mobaynida olib borilgan tizimli takomillashtirishlar natijasida mehnat unumdorligi 50-100 foizga va undan ham ko‘proqqa oshadi. Hattoki bir necha yil davomida har kuni ish samaradorligini oz bo‘lsa-da oshiradigan kichik qadamlar tashlansa ham, kompaniya o‘z raqobatchilaridan doimo bir qadam oldinda bo‘ladi va yetakchilik mavqeyiga erishishi kafolatlanadi. Bunga eng yaxshi misol — Toyota kompaniyasidir (ushbu kompaniya 70 yildan ortiq vaqtdan buyon mazkur konsepsiya asosida yashab kelmoqda).

Alohida olinganda har bir yaxshilanish kichik bo‘lishi mumkin, biroq ushbu bosqichma-bosqich o‘zgarishlar yig‘indisi yakunda sezilarli strategik yutuqlarga olib keladi. Kompaniyalarda ko‘pincha xodimlar o‘z ish jarayoniga sifat va samaradorlikni oshirishi mumkin bo‘lgan tuzatishlar kiritish imkoniyatisiz, o‘z vazifalarini har kuni shunchaki mexanik tarzda bajarishga majbur bo‘ladilar. Kaydzen falsafasiga amal qiluvchi kompaniyalarda esa ushbu muammo oldindan hisobga olingan bo‘lib, o‘z ishini yanada yaxshiroq bajarish imkoniyatini ko‘rgan har bir xodim ushbu o‘zgarishlarni amalga oshirishi mumkin va hatto bunga majburdir (bu uning vazifasi hisoblanadi). «Agar kompaniya kaydzen tizimini qo‘llashni boshlasa, yaqin orada xodimlar soni 10-20 foizgacha, ba‘zan esa hatto 50 foizgacha qisqarishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar ko‘pincha hech qanday moliyaviy yoki moddiy resurslarni talab qilmaydi. Bunda eng asosiy talab — xodimlarning o‘z xizmat vazifalariga e‘tiborli bo‘lishlari hamda o‘z ishlarini qanday qilib yanada samaraliroq tashkil etish mumkinligi haqida fikr yuritishlaridir.

Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni anglagan holda ilmiy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishni maqsad qildik:

Birinchidan, Kaydzen faqatgina ishlab chiqarish texnologiyasi emas, balki tashkilotning barcha bo‘g‘inlarini (oliy rahbariyatdan oddiy ishchigacha) qamrab oluvchi korporativ tafakkur va boshqaruv falsafasidir. Uning universalligi ham kichik biznes subyektlarida, ham yirik transmilliy korporatsiyalarda birdek yuqori samaradorlik bilan qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, Kaydzen konsepsiyasi katta miqdorda investitsiya yoki moliyaviy resurslar talab qilmaydi. Asosiy iqtisodiy samara ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni (muda) tinimsiz kamaytirish, kishi-soat va dastgoh vaqtidan oqilona foydalanish hamda jarayonlarni standartlashtirish orqali ta‘minlanadi.

Uchinchidan, xodimlarga o‘z ish joyini va mehnat jarayonini mustaqil optimallashtirish huquqining berilishi ularning ichki motivatsiyasini oshiradi. Natijada, uzoq muddatli davrda mehnat unumdorligi 50-100% gacha ortishi va ortiqcha ishchi kuchini 10-50% gacha optimallashtirish (qisqartirish) imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, kaydzen konsepsiyasini mahalliy ishlab chiqarish korxonalari boshqaruv tizimiga transformatsiya qilish — milliy mahsulotlarning tannarxini pasaytirish, sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta‘minlashning eng kam xarajat talab qiluvchi va eng ishonchli vositasi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Масааки И. Кайдзен: ключ к успеху японских компаний [Текст] / И. Масааки — Москва: Алпина Бизнес Букс, Приоритет, 2004 г., 271 с. — ИСБН 978-5-9614-3399-9, 10 с.
2. Бовин А.А. Управление инновациями в организации: учеб. пособие [Текст] / А.А. Бовин, Л.Е. Чередникова, В.А. Якимович. — Москва: Омега-Л, 2006. — 415 с.: табл. — (Высшая школа менеджмента). — ИСБН 978-5370-00875-7, 115-с.
3. Маурер Р. М Шаг за шагом к достижению цели: Метод кайдзен [Текст] / Р. Маурер; Пер. с англ. — Москва: Алпина Паблишер, 2014. — 192 с. — ИСБН 978-5-9614-7022-2. , 312 с.
4. Деминг Э. Выход из кризиса: Новая парадигма управления людьми, системами и процессами [Текст] / Э. Деминг Пер. с англ. м 5-е изд. — Москва: Алпина Паблишер, 2012. — 419 с. — ИСБН 9614-4717-0, 29 с.

**FERMER XO‘JALIKLARIDA AGRORESURLARDAN FOYDALANISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARINI PROGNOZLASH**

**ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПЕРСПЕКТИВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АГРОРЕСУРСОВ НА ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ**

**FORECASTING PROSPECTS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF USING  
AGRORESOURCES ON FARM HOLDINGS**

**Isaqov A‘zam Toshtemirovich**

Qishloq xo‘jaligida standartlashtirish markazi direktori, “TIQXMMI”MTU mustaqil izlanuvchisi  
ORCID:0009-0007-9142-6080

**Annotatsiya**

Maqolada dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida agrolesurlardan foydalanish samaradorligi ko‘p omili ekonometrik modellar yordamida tadqiq etilgan. Qashqadaryo viloyati misolida moddiy-texnika ta‘minoti, yer maydonlari va agroinfrazuzilmaning mahsulot qiymatiga ta‘siri baholanib, 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan istiqbolli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Natijalar asosida 1 gektar yerdan olinadigan mahsulot qiymatining barqaror o‘shish tendensiyasi aniqlangan va resurslarni optimallashtirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** fermer xo‘jaligi, agrolesurlar, samaradorlik, ekonometrik model, ko‘p omili regressiya, prognozlash, mahsulot qiymati, agroinfrazuzilma.

В статье с применением многофакторных эконометрических моделей исследуется эффективность использования агресурсов в фермерских хозяйствах растениеводческого направления. На примере Кашкадарьинской области оценено влияние материально-технического обеспечения, земельных площадей и агроинфраструктуры на стоимость продукции, а также разработан прогноз на 2026–2030 годы. Выявлен стабильный рост стоимости продукции с 1 га и предложены рекомендации по оптимизации ресурсов.

**Ключевые слова:** фермерское хозяйство, агресурсы, эффективность, эконометрическая модель, многофакторная регрессия, прогнозирование, стоимость продукции, агроинфраструктура.

The article investigates the efficiency of agro-resource utilization in crop-producing farms using multi-factor econometric models. Based on the data of the Kashkadarya region, the impacts of material-technical supply, land areas, and agro-infrastructure on output value were assessed, and forecast indicators for 2026–2030 were developed. The results indicate a stable growth trend in output value per hectare, and practical proposals for resource optimization are provided.

**Keywords:** farm, agro-resources, efficiency, econometric model, multi-factor regression, forecasting, output value, agro-infrastructure.

Hozirgi davrda dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatining samaradorligi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim sharoitlarining o‘zgaruvchanligi, yer va suv resurslarining cheklanganligi, ishlab chiqarish xarajatlarining oshib borishi sharoitida agrolesurlardan oqilona foydalanish masalasi ushbu xo‘jaliklar oldida dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, dehqonchilik tarmog‘ida yer unumdorligi, sug‘orish imkoniyatlari, mehnat resurslari va texnika bilan ta‘minlanganlik darajasi ishlab chiqarish natijalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida agrolesurlardan foydalanish darajasi va samaradorligi hududlar kesimida bir xil emas. Ayrim

xo‘jaliklarda mavjud resurslardan to‘liq va maqsadli foydalanilmayotgani hosildorlikning pastligi, ishlab chiqarish tannarxining oshishi hamda moliyaviy natijalarning yetarli darajada bo‘lmasligiga olib kelmoqda. Shu sababli agrolesurslardan foydalanish samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va ularning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda prognozlash zarurati yuzaga kelmoqda. Dehqonchilik fermer xo‘jaliklari faoliyatini baholashda faqat joriy holatni tahlil qilish yetarli emas, balki kelgusida agrolesurslardan foydalanish samaradorligi qanday tendensiyada rivojlanishini oldindan aniqlash muhim ahamiyatga ega. Prognozlash usullaridan foydalanish orqali yer, suv va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining kutilayotgan o‘zgarishlarini baholash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda resurslar taqsimotini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa fermer xo‘jaliklari faoliyatida strategik qarorlar qabul qilish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikamizda agrolesurslardan oqilona foydalanish, birinchi navbatda, fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasi va agroservis infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Tarmoq ko‘rsatkichlarini ekonometrik prognozlash, birinchi navbatda, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga, ikkinchidan, fermer xo‘jaliklari raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Fermer xo‘jaliklarida resurs taqsimoti va ishlab chiqarish samaradorligini baholash masalalari M.Kozlov[1], O.Abdullayev[2], Yo.Abdullayev[3], Bakett[4], T.Farmonov[5], R.Xusanov[6], N.Yusupov[7], A.Ibragimov[8], A.Abdug‘aniyev[9], M.Qosimov[10] va T.Kuelli[11] kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Fermer xo‘jaliklarida agrolesurslardan foydalanish samaradorligini baholash va istiqbolli ko‘rsatkichlarni prognozlashda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-statistik va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Omillarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va o‘rta muddatli prognozlarni ishlab chiqishda esa ekonometrik modellashirish hamda ko‘p omili regressiya tahlili usullaridan foydalanildi.

Dehqonchilik tarmog‘ida zamonaviy agroteknologiyalar, resurs tejamkor usullar va raqamli boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi agrolesurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yangiliklarning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini oldindan baholash va prognozlash fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini oshirish hamda ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi. Ayniqsa, hosildorlikni oshirish bilan birga resurslar sarfini qisqartirishga qaratilgan yondashuvlar tadqiq qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha diagnostik va baholash testlari natijalarining ijobiy bo‘lishi shakllantirilgan ko‘p omili regressiya modelining ekonometrik jihatdan barqaror, ishonchli va metodik talablar asosida tuzilganligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan, baholangan regressiya koeffitsiyentlari asosida model tenglamasi aniq ko‘rinishda ifodalanadi va natijaviy ko‘rsatkich – 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymatiga ta‘sir etuvchi omillarning miqdoriy ta‘siri baholanadi. Keyingi bosqichda mazkur modeldan foydalanilgan holda tanlangan mustaqil omillarning kutilayotgan o‘zgarishlarini hisobga olib, Qashqadaryo viloyati 2026–2030-yillar uchun 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymatining o‘rta muddatli prognozi amalga oshiriladi. Ushbu prognoz natijalari fermer xo‘jaliklarida agrolesurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**1-jadval**

**Istiqbolda Qashqadaryo viloyatidagi fermer xo‘jaliklarida 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymati**

| Yillar | Prognoz qilingan mahsulot qiymati, mln so‘m/ga |
|--------|------------------------------------------------|
| 2026   | 39,53                                          |
| 2027   | 41,21                                          |
| 2028   | 42,84                                          |
| 2029   | 44,41                                          |
| 2030   | 45,94                                          |

Manba. Muallif tomonidan stata dasturi asosida ishlab chiqildi.

Fermer xo‘jaliklarida 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymati bo‘yicha ko‘p omili regressiya modeli quyidagilardan iborat:

$$Y = 78.623 + 1.709 \cdot x_1 + 0.170 \cdot x_2 - 0.169 \cdot x_3 + \varepsilon$$

Bu yerda:


Y1 – Fermer xo‘jaliklarida 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymati (mln so‘m/ga);

X1 – fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnika resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasi (%);

X2 – fermer xo‘jaliklarining umumiy yer maydoni (ming ga);

X3 – agroservis va ishlab chiqarish infratuzilma obyektlari soni;

$\varepsilon$  – qoldiq (tasodifiy) had.



**1-rasm. Qashqadaryo viloyatidagi fermer xo‘jaliklarida 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymatining 2030-yilgacha prognozi**

Manba. Muallif tomonidan stata dasturi asosida ishlab chiqildi.

Prognoz natijalari Qashqadaryo viloyati fermer xo‘jaliklarida 1 gektar yerga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymatining 2026-2030-yillar davomida barqaror va jadallashuvchi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishini ko‘rsatdi. Xususan, prognoz qilingan natijalarga ko‘ra mazkur ko‘rsatkich 2026-yilda 39,53 mln so‘m/ga ni tashkil etib, 2030-yilga kelib 45,94 mln so‘m/ga ga yetishi kutilmoqda (3.3.6-jadval). Bu holat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida texnologik yangilanishlar, agroservis infratuzilmasining kengayishi va resurslardan foydalanish samaradorligining ortishi bilan izohlanadi.

Mazkur prognoz natijalari asosida bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, fermer xo‘jaliklarida moddiy-texnika resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasini izchil oshirish, ayniqsa energiya tejamkor va raqamli texnologiyalarni joriy etish mahsulot qiymatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, agroservis va ishlab chiqarish infratuzilmasini miqdor jihatdan emas, balki sifat va hududiy muvozanat nuqtai nazaridan rivojlantirish zarur. Uchinchidan, yer resurslaridan foydalanishda intensiv yondashuvlarni kengaytirish, suv va mehnat resurslarini tejavchi texnologiyalarni qo‘llash orqali mavjud o‘shish tendensiyasini uzoq muddat davomida barqaror saqlab qolish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyati fermer xo‘jaliklarida agroresurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bevosita moddiy-texnika ta‘minoti va agroinfratuzilma obyektlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Ishlab chiqilgan ko‘p omili ekonometrik model asosida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan istiqbolli ko‘rsatkichlar baholandi va 1 gektar yerdan olinadigan mahsulot qiymatining barqaror o‘shish tendensiyasi (39,53 mln so‘mdan 45,94 mln so‘mgacha) aniqlandi. Istiqbolda mazkur o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish uchun agrar sektorga energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va agroservis xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Козлов М. «Фермерство в России проблемо‘ стновления и социально-экономического развития». Вопросы экономики-1998. 10-с. 103-109.
2. Abdullayev O.M. "Menejment va biznes asoslari" -T, "Mehnat", 1997 y, 321-bet.
3. Abdullayev Yo. «Bozor iqtisodiyoti asoslari» — T.:Mehnat,1997 y. 297 b.
4. Bakett. «Fermer xo‘jaligini tashkil qilish va boshqarish» T. – «Mehnat» inglizchadan tarjima — 1998 y. 11 b.
5. T.X.Farmonov. «Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. T. «Yangi asr avlodi» 2004-yil.
6. Xusanov R.X. “Agrarnaya reforma: teoriya, praktika, problema” — T.: Uzbekistan, 1994 g. -72 b.
7. Yusupov N.S. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida agrar siyosatning ustivor yo‘nalishlari. Agrar sohada islohotlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish muammolari va yechimlari». T. «Mehnat», 2003 y.
8. Ibragimov. A.T. “Moliyaviy taxlil”. Toshkent -2001-yil. 21-b.
9. Abdug‘aniyev A., “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” T. “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti 2004-yil. 144- b.
10. Husanov R.X., Qosimov M. “Dehqon xo‘jaligi yuritishining ilmiy va amaliy asoslari” T. Cho‘lpon,2000 y.-105 b.
11. Coelli, T. J., Rao, D. S. P., O‘Donnell, C. J., & Battese, G. E. (2005). An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis. Springer Science. Business Media. 41-51 betlar.

**UDK 338.43:332.1:334.7**

**AGROSANOAT MAJMUASIDA KLASSTER TIZIMINI TASHKIL ETISH VA  
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI**

**ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ  
КЛАСТЕРНОЙ СИСТЕМЫ В ГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ**

**ECONOMIC MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A  
CLUSTER SYSTEM IN THE AGRO-INDUSTRIAL COMPLEX**

**Berdimurodov Usmon Suyunovich**

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti,

“Muhandislik tizimlarni boshqarish” kafedrası, dotsenti i.f.n.

**Annotatsiya**

Maqolada agrosanoat majmuasida klaster tizimining tarkibiy tuzilishi, uni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari hamda iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda davlatning tartibga solish mexanizmlari, bozor munosabatlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash zanjirini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, agrosanoat klasterlarining iqtisodiy mintaqalarni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari agrosanoat klasterlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** agrosanoat majmuasi, agroklastar, klaster tizimi, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy samaradorlik, davlat boshqaruvi, innovatsiya, raqobatbardoshlik, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, bozor munosabatlari.

В статье анализируются структура кластерной системы в агропромышленном комплексе, теоретические и практические аспекты ее организации, а также ключевые факторы, влияющие

на экономическую эффективность. Рассматриваются такие вопросы, как механизмы государственного регулирования развития агропромышленных кластеров, совершенствование рыночных отношений, внедрение инновационных технологий и эффективная организация цепочки переработки сельскохозяйственной продукции. Кроме того, в работе обосновывается значимость агропромышленных кластеров для обеспечения устойчивого развития экономических регионов, создания рабочих мест, производства конкурентоспособной продукции и укрепления продовольственной безопасности. Результаты исследования служат основой для разработки научно-практических рекомендаций по совершенствованию деятельности агропромышленных кластеров.

**Ключевые слова:** агропромышленный комплекс, агрокластер, кластерная система, сельское хозяйство, экономическая эффективность, государственное управление, инновации, конкурентоспособность, продовольственная безопасность, экономическое развитие, инвестиции, рыночные отношения.

The article analyzes the structural composition of the cluster system within the agro-industrial complex, the theoretical and practical aspects of its organization, and the key factors influencing economic efficiency. It addresses issues such as state regulatory mechanisms for developing agro-industrial clusters, the improvement of market relations, the implementation of innovative technologies, and the effective organization of the agricultural product processing chain. Furthermore, the study substantiates the significance of agro-industrial clusters in ensuring the sustainable development of economic regions, securing employment, producing competitive goods, and strengthening food security. The research findings serve as a basis for developing scientific and practical recommendations to enhance the operations of agro-industrial clusters.

**Keywords:** agro-industrial complex, agro-cluster, cluster system, agriculture, economic efficiency, public administration, innovation, competitiveness, food security, economic development, investment, market relations.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PQ-4633-son "2020–2025 yillarda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq, qishloq xo‘jaligida klaster tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash hajmini kengaytirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksport salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur qaror agrosanoat majmuasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va qiymat zanjiri asosida ishlab chiqarishni tashkil etish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi[1].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobatga asoslangan ishlab chiqarish jarayonida bo‘ladigan erkin raqobatga raqobatdosh ishlab chiqarish bu agrosanoat majmuasida agrosanoat klasteri asosida ishlab chiqarish jarayoni majmuasi hisoblanadi. Sobiq iqtisodiy tizim davridan yangi bozor ishlab chiqarish jarayonini mulkchilikning turli davlat va xususiy shakllariga asoslangan holda ishlab chiqarish jarayonini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini samarali va barqaror rivojlanib borishini ta‘minlaydigan ishlab chiqarish xo‘jalik mulklariga asoslangan ishlab chiqarishni eng ijtimoiy va bozor talablari qonunlari asosida ishlab chiqarish subyektlarini tashkil etilishi bu qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini qishloq joylarida bo‘lgan mehnatga yaroqli aholi mehnatdan samarali foydalanishni tashkil etuvchi innovatsion ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq.

Buning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini bozor iste‘mol talablari asosida tashkil etish bilan birga bu ishlab chiqarish jarayoni bozor talablariga asosda boshqaruvini tashkil etish va uni bozor qonunlari asosida takomillashtirib borish zarur.

Ana shunday progressiv ishlab chiqarish jarayonini qishloq xo‘jaligida tashkil etish shakli bu agrosanoat majmuasi asosida tashkil topgan agrosanoat klaster xo‘jaligi bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va uni boshqaruv darajasini qanday darajada tashkil etilishiga bog‘liq. Umuman mamlakatimizni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlanib borishiga asosiy sabab davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatga asoslangan boshqaruv

dasturi asosida milliy iqtisodiyot makroiqtisodiy tarmoqlar holatiga va mikroiqtisodiy ishlab chiqarish korxonalari darajasida har-bir ishlab chiqarish subyekti o‘zining istiqbolli joriy va kundalik ishlab chiqarish normativlari asosida tashkil topgan ishlab chiqarish o‘zlarida qabul qilingan ishlab chiqarish normativlari asosida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish asosida uni boshqaradilar[2].


Qishloq xo‘jaligida agrosanoat majmuasida ishlab chiqarishni tashkil etish va uni rivojlantirib borish asosida ishlab chiqarishni xarajatlariga nisbatan uni moliyaviy holatini yuqori bo‘lishini ta‘minlash va foyda olib ishlashiga ega bo‘lishini davlat boshqaruvisiz ta‘minlash mumkin emas.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini samarali va barqaror rivojlanib borishini ta‘minlash qishloq aholisini yashash turlari sharoitini ijtimoiy va iqtisodiy talablar asosida tashkil etish har-bir iqtisodiy mintaqalarda o‘ziga xos xususiyatiga ega. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy mintaqalarni tabiiy iqlim sharoitidagi tafovutlar ishlab chiqarishini tashkil etishni turli ishlab chiqarish xarajatlari asosida tashkil topishi va iste‘mol bozorida ularni iste‘mol narxlarini turli darajada bo‘lishi va iste‘mol narxini iste‘molchilarni xarid qilish qobiliyatiga mos kelmasligi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlanib borishiga zid bo‘ladi.

Shu bilan birga ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish mintaqalarida mehnatni ana shu iqtisodiy mintaq shart va sharoitiga moslashuvini tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham iqtisodiy mintaqalarda sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy natijalari ham birday bo‘lmaydi.

Iqtisodiy mintaqalarda agrosanoat klasterini tashkil etish davlat tomonidan ularni tashkiliy ijtimoiy va iqtisodiy qo‘llab quvvatlanishini asosida tashkil topish mumkin.

Iqtisodiy mintaqalarda agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish klasteri asosida tashkil topishiga uni iqtisodiy tartibga solish (1-rasmda) keltirilgan.



**1-rasm Davlat qonunlari va normativlari asosida davlat boshqaruvi [3]**

Agrosanoat majmuasini klaster asosida uni qonun va normativlari asoslangan holda tartibga solib borish uni barqaror rivojlanib borishini ta‘minlaydi, qishloq aholisiga yashashi uchun ijtimoiy sharoit yaratib beradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini agrosanoat majmuasi asosida agrosanoat klasteri tashkil etilishi iqtisodiy mintaqalarda mehnat resurslarini bandligini oshirish asosida umuman iqtisodiy mintaqada mahsulot ishlab chiqarish hajmini o‘shirish, uning sifat darajalarini yaxshilanishi va iste‘mol bozorlarda xaridorgir sifatli iste‘mol mahsulotlari-talab darajasida bo‘lishini va xaridorgir narxlarda iste‘molchilarga taklif qilish hajmini o‘shirishini ta‘minlaydi. Agrosanoat majmuasi bu barcha turdagi o‘zini ko‘rinish holatiga ega bo‘lgan qishloq

xo‘jaligi ishlab chiqarishini samaradorligini ta‘minlovchi jamoa mehnatiga va jamoa ishlab chiqarish texnika va texnologiyalar asoslangan progressiv kelajagi bor ishlab chiqarish xo‘jaligi agrosanoat klasteri deb hisoblash mumkin.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy mintaqalarda ularni tabiiy iqlim sharoitlarida tashkil topgan agrosanoat klaster usulida tashkil topishi u ko‘pchilikning mulk va investitsion mablag‘lariga asoslangan holda bo‘lsa hali uni boshqaruvi umum ijtimoiy xususiyatiga ega bo‘lgan davlat qonun va normativlari asosida rivojlanib borishiga qaramay ishlab chiqarishni tashkil topishini davlat tomonidan qabul qilinadigan davlat muassasalari tomonidan tasdiqlangan ishlab chiqarish normativlari asosida uni boshqaruvi borilishi qo‘yidagi kriteriyalarga asoslangan holda boshqarib boriladi. Bular qo‘yidagilardan iborat:

- qishloq xo‘jaligi iqtisodiy mintaqalarda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini mamlakat bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi umumiy hissasi;

- qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iqtisodiy mintaqalarda va Respublika milliy iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonidagi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga iste‘mol oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanoat korxonalari uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan mamlakati o‘zini ichki ishlab chiqarish mahsulotlari bilan ta‘minlash darajasini o‘sib borish asosida biz bu tarmoqni qanchalik mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy darajada barqaror va samarali rivojlanib borish mamlakatni siyosiy va iqtisodiy mustaqillik darajasini o‘sib borishini ta‘minlaydi[4].

- Bu yerda ana shu innovatsion progressiv ishlab chiqarishini tashkil etish uchun davlat tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv qonunlari va ishlab chiqilgan iqtisodiy normativlari asosida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishini iqtisodiy mintaqalarda bozor iqtisodiy munosabatlarini chuqurlashgan holda tashkil etishni talab etadi. Buning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsion texnika va texnologiyalariga asoslangan xolda agrosanoat majmuasini klaster tariqasida ishlab chiqarishni tashkil etish va ularni zarur bo‘lgan mexanizator kadrlari bilan ta‘minlash, birinchi iqtisodiy mintaqalarda ishlab chiqarishning innovatsion tarzda tashkil etish mehnat resurslarini mehnat qilish darajasini o‘sib borishini ta‘minlash va ularning mehnatlarini motivatsiyalashtirish asosida aholini xaridorgir talablarini o‘sib borishini ta‘minlash zarur.

- Bu masalani ijobiy tarzda hal etishini ta‘minlash davlat tomonidan agrosanoat tarzda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlanishini barqarorligini va samarali bo‘lishini ta‘minlash iqtisodiy uslub asosida rivojlanib borishini ta‘minlash uchun bu xo‘jalik faoliyatlarini samarali va barqaror rivojlanishiga kerakli xo‘jalik ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish resurslarini samarali tashkil etilishini moddiy rag‘batlantirish asosida samarali ishlab chiqaruvchi mulkdorlarni ta‘minlash uchun iste‘mol mahsulotlarini bozorini ham tartibga solib borish zarur.

- Agrosanoat majmuasini ishlab chiqarish jarayonini klaster usulida barqaror rivojlanib borishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlarini barqaror va samarali rivojlanib borishini iqtisodiy mintaq oziq-ovqat haqsizligini ta‘minlaydi. Shu bilan birga agrosanoat majmuasi tariqasida ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy mintaqalarda samarali rivojlanib borishini, uni ishlab chiqarishini samarali olib borish uchun davlat bu ishlab chiqarish usulini zarur bo‘lgan ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari bilan ta‘minlab borishini tashkil etish zarur.

- Agrosanoat majmuasi ishlab chiqarishni rivojlantirishni iqtisodiy mintaqalarda strategik rejalashtirish va strategik ya‘ni uzoq mo‘ljallangan holda rivojlantirib borish zarur. Agrosanoat majmuasi asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini qat‘iy ravishda rivojlanib borishda hozirgi ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy holatidan kelajakda innovatsion texnika va texnologiyalardan yuqori hosil beruvchi innovatsion iqtisodiy mintaq tabiiy iqlim sharoitiga moslashuvchi urug‘larni ekish va yuqori ishlab chiqarish xarajatlarini tejankorligini ta‘minlashi asosida yer hosildorligini o‘sib borishi ta‘minlash klaster ishlab chiqarish jarayonini unumdorligini o‘sib borishi uni iqtisodiy jihatdan barqaror va samarali rivojlanib borishini asosini ta‘minlaydi.

- Davlat agrosanoat majmuasi tariqasida ishlab chiqarish jarayoni tashkil etishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishni ta‘minlashda davlatni ishlab chiqarishni rivojlantirish rejalarini bajarilishini ta‘minlash uchun aholi umumiy iste‘molligi va uni eksport qilishga hamda sanoat asosida qayta ishlanadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘lgan umumiy talabga asoslangan holda iqtisodiy mintaqalar bo‘yicha zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari turlari va hajmi bo‘yicha barcha iqtisodiy mintaqaga boshqaruvini va ishlab chiqarish subyektlarini ogohlantirish bilan birga ular bilan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi va qayta ishlangan sanoat mahsulotlarini xarid qilib olishni kelishuv narxlari asosida yoki bozor talab va taklif asosida tashkil topadigan narxlarda xarid qilib olish xo‘jalik ham iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega.

- Agrosanoat majmuasi asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini klaster usulida davlat tomonidan qo‘llanishi va uni boshqaruv e‘tibor berish bu ishlab chiqarish majmuasi bo‘lgan agrosanoat ishlab chiqarishni uni kerakli infratuzilmalarini tuzilishini iste‘mol bozorlarida iste‘mol tovarlarini tovar aylanmasini uni ishlab chiqarish turlari, hajmi sifati va narxlari bo‘yicha kerakli axborot aylanmasini tezligi ham agrosanoat klasteri asosida iqtisodiy mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini o‘sib borishini va bu progressiv bozor talablari javob beradigan agrosanoat klasterini barqaror va samarali rivojlanishini ta‘minlaydi.

- Shu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini barqaror va samarali rivojlanishini ta‘minlash uchun qishloq mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish davlat tomonidan uning boshqaruv tashkilotlari qabul qilingan qonunlar va normativlarga asoslangan holda agrosanoat klasteri asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni bu yangi innovatsion shaklini davlat boshqaruvi asosida iqtisodiy mintaqalarda tashkil etish zarur.

Agrosanoat klasterini tashkil etish va un barqaror rivojlanishini ta‘minlash iqtisodiy mintaqalar darajasida davlatni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan bog‘liq byudjetdan tashqari fond hisobiga rivojlantirish zarur. Iqtisodiy mintaqalar byudjeti na faqat iqtisodiy mintaqalar darajasida moliyalashtirishga kiritilgan obyektlar bilan birgalikda agrosanoat klasteri asosida barqaror va samarali rivojlanishini ta‘minlovchi ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq ishlab chiqarish va ijtimoiy subyektlarini ham moliyalashtirib borish zarur.

Rivojlangan mamlakatlarda korporativ kredit tashkilotlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni tashkil etishdagi tajribalari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Korporativ kredit berish tashkiloti tajribalaridan foydalanish uchun Respublika miqyosida korporativ kredit mablag‘larini berish markaziy respublika darajasida tashkilotning davlat byudjetdan tashqari tashkil etilgan va bank zaxiralari hamda xususiy jamg‘armalar hisobiga tashkil etish va uning mintaqaviy vazifalarini iqtisodiy mintaqalar darajasidagi qishloq xo‘jaligi Agrobanksi tomonidan amalga oshirishni tashkil etish mumkin. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini agrosanoat klasteri asosida tashkil etishda agrar marketing xizmatlaridan foydalanish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega u asosan qo‘yidagi vazifalarni amalga oshiradi;

- ishlab chiqarish bo‘yicha ma‘lumotlarni yig‘ish asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini samarali olib borishni va uni boshqaruvini agrosanoat klasteri asosida tashkil etish;

- xo‘jalik ishlab chiqarishini qayta tiklash va olib borish;

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq tashkiliy ishlab chiqarish va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish asosida agrosanoat majmuasi infratuzilmasini rivojlantirishni talab darajasida amalga oshirish;

Agrosanoat majmuasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish qo‘yidagilarga asoslanishi lozim;

- agrosanoat majmuasini umumlashgan bir tizim sifatida qishloq xo‘jaligi klaster tariqasida ishlab chiqarish jarayonini agrosanoat majmuasi tarkibida rivojlanib borishini tashkil etish;


- umumlashgan agrosanoat tizimini yagona ishlab chiqarish sifatida uni moliyalashtirib borish;

- agrosanoat majmuasini maksimal darajada uni rivojlantirishga e‘tibor berish;

- yagona huquqiy tahlil qilish tizimi asosida uni ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirib borishni infratuzilmalarini o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirish;

- ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish bilan bog‘liq yangi informatsion axborotlarga ega bo‘lish;
- ishlab chiqarish jarayonini iste‘mol talablariga moslashgan holda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish;
- mehnat ishlab chiqarish resurslarini mehnat mahoratlarini oshirish va yangi sanoat asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni integratsiya usuli asosida rivojlantirishga e‘tibor berish zarur.

Agrosanoat majmuasi asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirib borishni samarali bo‘lishi ishlab chiqarishni strategik tarzda boshqaruviga bog‘liq. Agrosanoat majmuasi asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini umumlashgan majmua tariqasida tashkil etish va agrosanoat klasteri usulida olib borish iqtisodiy mintaqalarni samarali rivojlanishini ta‘minlaydi[5]. Agrosanoat ishlab chiqarish majmuasi asosida iqtisodiy mintaqalarda klaster usulida ishlab chiqarishni raqobatdoshlik darajasini oshirish ijtimoiy infratuzilma qismlariga asoslanishi (2-rasmda) keltirilgan.



**2-rasm Agrosanoat ishlab chiqarish majmuasini raqobatdoshlik darajasini oshirish[6].**

Agrosanoat majmuasi murakkab makroiqtisodiy tenglikni ta‘minlaydi uni rivojlanib borishiga ichki va tashqi omillar o‘z ta‘sirini amalga oshiradilar. Iqtisodiy mintaqalarga uni tabiiy – iqlim sharoitlariga moslashuviga erishish zarur.

Xulosa

- agrosanoat klasteri asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror va samarali rivojlanishini agrosanoat klasteri asosida tashkil etishda asosiy maqsad shart va mexanizmlar uni barqaror rivojlanishiga, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talablarni qondirishi bilan birga bu ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talablarni o‘tib borishini ta‘minlashda ularning xaridorgir talablarini rivojlantirishga e‘tibor berish zarur;

- agrosanoat klasteri asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish har-bir iqtisodiy mintaqalarni iqtisodiy va ijtimoiy holatlaridan kelib chiqish holda davlat va mahalliy boshqaruv tashkilot va muassasalari tomonidan tartibga solib borishi kerak;
- iqtisodiy mintaqalarda agrosanoat klasterini tashkil etish asosida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini agrosanoat klasteri rivojlantirishni samarali shakllarini tashkil etish va innovatsion boshqaruvi asosida amalga oshirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 06.03.2020 yildagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5853-sonli Farmoni.
3. Muallif ishlanmasi
4. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5853-sonli Farmoni.
6. Muallif ishlanmasi

**УДК:330.1**

**ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA IQTISODIY FANLARNI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

**GOALS AND OBJECTIVES OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM**

**Хусанбоева Турсуной Мухаммадкасимджановна**

Андижанский государственный технический институт ассистент кафедры «Экономика»

**Аннотация**

В статье рассматриваются цели и задачи преподавания экономических дисциплин в системе высшего образования. Подчеркивается важность формирования у студентов системного понимания экономических процессов, аналитических и практических навыков, необходимых для успешной профессиональной деятельности. Особое внимание уделяется развитию экономической грамотности, способности к критическому мышлению и применению современных цифровых инструментов в экономике. Представлены основные направления подготовки студентов, включая изучение микро и макроэкономики, финансов, бухгалтерского учета, маркетинга и менеджмента. Отмечается значимость интеграции теоретических знаний и практических навыков для обеспечения конкурентоспособности выпускников на современном рынке труда.

**Ключевые слова:** высшее образование, экономические дисциплины, цели преподавания, задачи, экономическая грамотность, аналитические навыки, профессиональная подготовка.

Мақолада олий таълим тизимида иқтисодий фанларни ўқитишнинг мақсад ва вазифалари кўриб чиқилган. Талабаларда иқтисодий жараёнлар ҳақида тизимли тушунчани шакллантириш, муваффақиятли касбий фаолият учун зарур бўлган таҳлилий ва амалий кўникмаларни ривожлантиришнинг аҳамияти таъкидланган. Шунингдек, иқтисодий саводхонликни ошириш, танқидий фикрлаш қобилиятини ривожлантириш ҳамда иқтисодиётда замонавий рақамли воситалардан фойдаланиш кўникмаларини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Талабаларни тайёрлашнинг асосий йўналишлари сифатида микроиқтисодиёт ва макроиқтисодиёт, молия, бухгалтерия ҳисоби, маркетинг ва менежментни ўрганиш назарда тутилган. Замонавий меҳнат бозорида битирувчиларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш учун назарий билимлар ва амалий кўникмалар интеграциясининг аҳамияти қайд этилган.

**Калит сўзлар:** олий таълим, иқтисодий фанлар, ўқитиш мақсадлари, вазифалар, иқтисодий саводхонлик, таҳлилий кўникмалар, касбий тайёргарлик.

This article examines the goals and objectives of teaching economic disciplines in the higher education system. It emphasizes the importance of developing students' systematic understanding of economic processes, as well as the analytical and practical skills required for successful professional activity. Particular attention is given to enhancing economic literacy, fostering critical thinking, and developing the ability to apply modern digital tools in economics. The main areas of student training include the study of microeconomics, macroeconomics, finance, accounting, marketing, and management. The article also highlights the importance of integrating theoretical knowledge with practical skills to ensure graduates' competitiveness in the modern labor market.

**Keywords:** higher education, economic disciplines, teaching objectives, educational tasks, economic literacy, analytical skills, professional training.

В современных условиях глобализации и цифровизации экономики преподавание экономических дисциплин в высших учебных заведениях приобретает стратегическое значение, поскольку экономика каждой страны тесно связана с мировыми финансовыми, производственными и торговыми процессами [1]. Современные экономические реалии требуют от специалистов не только теоретических знаний, но и практических навыков анализа данных, прогнозирования экономических тенденций, оценки рисков и принятия рациональных управленческих решений [2].

По данным Всемирного экономического форума (WEF), к 2030 году около 39 % ключевых профессиональных навыков работников изменятся вследствие цифровизации, автоматизации и внедрения искусственного интеллекта. При этом аналитическое мышление, финансовая грамотность, технологическая компетентность и способность принимать решения входят в число наиболее востребованных навыков современного специалиста.

Основная цель экономического образования заключается в подготовке компетентных, квалифицированных специалистов, способных:

- проводить глубокий анализ микро- и макроэкономических процессов;
- оценивать финансовые и хозяйственные показатели предприятий, организаций и отраслей;
- разрабатывать стратегии развития бизнеса и экономики на основе объективных данных [3];
- эффективно использовать современные цифровые инструменты, программное обеспечение и информационные технологии для анализа и управления экономическими процессами;
- принимать обоснованные решения в условиях неопределенности и динамичных изменений рынка.

Кроме того, преподавание экономических дисциплин в вузах направлено на формирование у студентов системного мышления, экономической грамотности и критического подхода к анализу финансово-экономической информации [4]. Это

обеспечивает выпускников необходимым фундаментом для профессиональной деятельности в различных секторах экономики — от государственной службы до частного бизнеса, от финансового анализа до управления проектами.

В условиях глобализации студенты должны уметь учитывать международные экономические тенденции, понимать влияние глобальных финансовых кризисов, изменение цен на сырьевые товары и международные торговые отношения на национальную экономику [5]. Целенаправленная подготовка будущих экономистов обеспечивает их готовность к адаптации к новым условиям, инновациям и цифровым трансформациям, что делает их конкурентоспособными на современном рынке труда и востребованными специалистами в профессиональной сфере.

Согласно данным Всемирного банка, мировой объем торговли товарами и услугами составляет более 60 % мирового ВВП, что свидетельствует о высокой взаимозависимости национальных экономик и необходимости подготовки специалистов, способных работать в условиях глобальной конкуренции.

Преподавание экономических дисциплин в системе высшего образования направлено на всестороннее развитие студентов, формирование у них профессиональных и аналитических компетенций. Основные цели можно описать следующим образом:

1. Формирование системного понимания экономических процессов на микро- и макроуровне. Студенты должны понимать, как функционируют отдельные предприятия и организации (микроуровень), а также как формируются и развиваются экономические процессы в масштабах страны и мирового хозяйства (макроуровень). Это включает изучение таких аспектов, как рыночные механизмы, структура отраслей, экономическая политика государства, международная торговля и глобальные финансовые потоки [6]. Системное понимание позволяет будущим специалистам видеть взаимосвязи между различными экономическими явлениями и принимать решения с учетом комплексного анализа. По оценкам Организации экономического сотрудничества и развития (OECD), более 70 % рабочих мест уже требуют владения цифровыми технологиями, а уровень цифровой грамотности становится одним из основных факторов профессиональной конкурентоспособности выпускников вузов.

2. Развитие аналитических и критических навыков для оценки экономических явлений. Экономическое образование должно формировать умение собирать, обрабатывать и интерпретировать данные, проводить статистический и финансовый анализ [7]. Критическое мышление помогает студентам оценивать экономические прогнозы, выявлять потенциальные риски, проверять достоверность источников информации и принимать решения, основанные на объективных данных, а не на субъективных предположениях. По данным McKinsey Global Institute, использование технологий анализа больших данных и искусственного интеллекта позволяет повысить производительность организаций в среднем на 20–25 %, а скорость принятия управленческих решений — почти на 40 %.

3. Подготовка студентов к практическому применению экономических знаний в профессиональной деятельности. Теоретические знания должны сочетаться с практическими навыками: составлением финансовых отчетов, анализом балансов, планированием бюджета, проведением маркетинговых исследований и разработкой стратегий развития бизнеса [8]. Практическая направленность обучения позволяет выпускникам эффективно работать в реальных экономических условиях, адаптироваться к изменениям рынка и быстро решать профессиональные задачи.

4. Воспитание экономической грамотности и способности принимать финансово обоснованные решения. Студенты должны уметь управлять финансовыми ресурсами, оценивать эффективность инвестиций и финансовых проектов, а также прогнозировать экономические последствия различных решений.

Таким образом, цели преподавания экономических дисциплин направлены на комплексное развитие студентов как профессионалов, способных анализировать, оценивать и

управлять экономическими процессами на разных уровнях, сочетая теорию с практикой и современными цифровыми инструментами.

Преподавание экономических дисциплин в системе высшего образования направлено на достижение конкретных задач, которые обеспечивают всестороннее профессиональное развитие студентов и подготовку их к успешной карьере в условиях современного рынка труда.

1. Обеспечение глубоких знаний по экономике, финансам, бухгалтерскому учету, маркетингу и менеджменту. Студенты должны овладеть базовыми и продвинутыми знаниями в ключевых областях экономики и управления.

2. Развитие умений анализа статистических данных и экономических показателей. В современном экономическом образовании особое внимание уделяется способности студентов работать с реальными данными. Они учатся собирать, систематизировать и интерпретировать статистическую информацию, анализировать экономические показатели предприятий, отраслей и национальной экономики.

3. Формирование навыков стратегического планирования и прогнозирования. Студенты должны уметь разрабатывать стратегии развития организаций и экономических процессов, прогнозировать последствия управленческих решений и учитывать возможные риски [9].

4. Применение современных информационных и цифровых технологий для экономического анализа. В условиях цифровизации экономики важно, чтобы студенты умели использовать современные программные средства, базы данных, аналитические платформы и инструменты визуализации данных для анализа финансовых и экономических процессов.

5. Подготовка студентов к самостоятельной исследовательской и управленческой деятельности. Обучение экономике должно формировать способность студентов к проведению самостоятельных исследований, разработке проектов, управлению командой и принятию ответственных решений.

Эффективное преподавание экономических дисциплин способствует комплексному развитию профессиональной компетентности студентов. Оно формирует аналитическое мышление, критический подход к экономическим явлениям и практические навыки, необходимые для принятия обоснованных решений.

Согласно прогнозам Международного валютного фонда (МВФ), в ближайшие годы основным фактором экономического роста станет развитие человеческого капитала, цифровых компетенций и инновационного образования. Именно поэтому совершенствование преподавания экономических дисциплин является одним из приоритетных направлений модернизации высшего образования.

В условиях быстро меняющейся экономики выпускники должны уметь интегрировать теоретические знания с практическим опытом, адаптироваться к новым требованиям рынка труда и использовать инновационные подходы в экономическом анализе и управлении [10].

#### **Список использованной литературы:**

1. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. McGraw-Hill Education, 2010.
2. Mankiw N. G. Principles of Economics. Cengage Learning, 2020.
3. Drucker P. F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. HarperCollins, 2007.
4. Blaug M. Economic Theory in Retrospect. Cambridge University Press, 1997.
5. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. McGraw-Hill Education, 2010.
6. Mankiw N. G. Principles of Economics. Cengage Learning, 2020.
7. Blaug M. Economic Theory in Retrospect. Cambridge University Press, 1997.
8. Drucker P. F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. HarperCollins, 2007.
9. Robbins S. P., Coulter M. Management. Pearson, 2016.
10. Armstrong M. A Handbook of Human Resource Management Practice. Kogan Page, 2014.

**GLOBAL ADOLAT KODEKSI VA GLOBAL ADOLAT REYTINGINI (INDEKSINI)  
JORIY QILISH YO‘LLARI**

**ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ ГЛОБАЛЬНОГО КОДЕКСА СПРАВЕДЛИВОСТИ И  
ГЛОБАЛЬНОГО РЕЙТИНГА (ИНДЕКСА) СПРАВЕДЛИВОСТИ**

**WAYS TO IMPLEMENT THE GLOBAL JUSTICE CODE AND GLOBAL JUSTICE  
RATING (INDEX)**

**Alimov Nasimjon Hoshimovich**

O‘zLiDeP Amaliy loyihalar va siyosiy ta’lim markazi rahbari, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

**Annotatsiya**

Maqolada globallashuv sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik hamda barqaror rivojlanish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotda global adolat tushunchasining iqtisodiy mazmuni ochib berilgan hamda jahon miqyosida adolatni baholashning yagona tizimi sifatida Global adolat kodeksi va Global adolat indeksi konsepsiyasi taklif etilgan. Shuningdek, global adolat indeksi tushunchasining mohiyati, uni joriy qilishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** global adolat, global adolat kodeksi, global adolat indeksi, ijtimoiy-iqtisodiy adolat, globallashuv, iqtisodiy tengsizlik, resurslar taqsimoti, barqaror rivojlanish, global reytinglar.

В статье рассматриваются вопросы социально-экономического неравенства, дисбаланса распределения ресурсов и устойчивого развития в контексте глобализации. Исследование раскрывает экономическое содержание концепции глобальной справедливости и предлагает концепцию Кодекса глобальной справедливости и Индекса глобальной справедливости как единую систему оценки справедливости в глобальном масштабе. Также освещается сущность концепции индекса глобальной справедливости и основные направления его применения.

**Ключевые слова:** глобальная справедливость, глобальный кодекс справедливости, глобальный индекс справедливости, социально-экономическая справедливость, глобализация, экономическое неравенство, распределение ресурсов, устойчивое развитие, глобальные рейтинги.

The article examines the issues of socio-economic inequality, resource distribution imbalances, and sustainable development in the context of globalization. The study reveals the economic content of the concept of global justice and proposes the concept of the Global Justice Code and the Global Justice Index as a unified system for assessing justice on a global scale. It also highlights the essence of the concept of the global justice index and the main directions of its implementation.

**Keywords:** global justice, global justice code, global justice index, socio-economic justice, globalization, economic inequality, resource distribution, sustainable development, global rankings.

XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya, texnologik yangilanish va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari jahon xo‘jaligi tizimi hamda iqtisodiy munosabatlarning mazmun-mohiyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, ilmiy-texnologik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, xalqaro savdo va kapital harakatining jadallashuvi iqtisodiy o‘sish, mehnat unumdorligi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Ikkinchi tomondan esa, ushbu taraqqiyot natijalarining mamlakatlar, mintaqalar va aholi ijtimoiy qatlamlari o‘rtasida nomutanosib taqsimlanishi iqtisodiy tengsizlik, kambag‘allik, resurslardan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovutlar hamda ijtimoiy himoya darajasidagi farqlarni saqlab qolmoqda [1]. Bunday sharoitda global iqtisodiy o‘sishning nafaqat

sur’ati va samaradorligini, balki uning natijalari qay darajada adolatli taqsimlanayotganini baholash iqtisodiyot nazariyasining dolzarb ilmiy muammolaridan biriga aylanmoqda.

Jahonda daromad va boylikning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi global iqtisodiy tizimdagi mavjud nomutanosibliklarning eng muhim ko‘rinishlaridan biridir. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, jahon aholisining eng boy 10 foizi global boylikning qariyb 76 foiziga egalik qilgani holda, aholining kam ta‘minlangan 50 foizi hissasi umumiy boylikning atigi 2 foizini tashkil etadi [2]. Daromadlar va boylik taqsimotidagi bunday keskin tafovutlar iqtisodiy resurslar, sifatli ta‘lim, tibbiy xizmatlar, zamonaviy texnologiyalar va raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasida ham o‘z ifodasini topmoqda. Ayni paytda iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar, geosiyosiy ziddiyatlar, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlar global taraqqiyot natijalari va uning ijtimoiy xarajatlarini mamlakatlar hamda avlodlar o‘rtasida adolatli taqsimlash masalasini yanada dolzarblashtirmoqda.

Hozirgi vaqtda inson taraqqiyoti, barqaror rivojlanish, qonun ustuvorligi, korrupsiyani qabul qilish darajasi, tinchlik va ekologik samaradorlikni baholashga mo‘ljallangan qator xalqaro indeks va reytinglar mavjud. Biroq ularning har biri global taraqqiyotning muayyan alohida jihatini baholaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, institutsional, raqamli va avlodlararo adolatni yagona konseptual yondashuv asosida o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradigan yaxlit nazariy-uslubiy tizimning yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu yo‘nalishda yangi tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, adolatning universal prinsiplarini ifodalovchi Global adolat kodeksi hamda ularning amal qilish holatini miqdoriy baholashga xizmat qiluvchi Global adolat reytingi(indeksi)ni ishlab chiqish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston xalqaro maydonda tinchlik, o‘zaro ishonch, manfaatlar muvozanati, konstruktiv muloqot va adolatli global taraqqiyot g‘oyalarini izchil ilgari surib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi sessiyalari, BRIKS va “BRIKS plyus” formatlaridagi chiqishlarida adolatli dunyo tartibotining yangi arxitekturasini shakllantirish, global tengsizlikni qisqartirish, inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan [3]. Mazkur tashabbuslar global adolatning nazariy asoslarini tadqiq qilish, uni baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliy institutsional mexanizmlarini taklif etishning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi global adolat kodeksining konseptual asoslarini shakllantirish, global adolat darajasini kompleks baholash imkonini beruvchi Global adolat indeksining nazariy-uslubiy modelini taklif etish hamda ushbu yondashuvlarni xalqaro amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilishning institutsional mexanizmlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun global adolat kategoriyasining iqtisodiy mazmunini ochib berish; zamonaviy adolat nazariyalari va global adolatga oid ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish; mavjud xalqaro indekslarning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash; Global adolat kodeksining fundamental prinsiplarini tizimlashtirish; Global adolat indeksining tarkibiy tuzilishi va baholash mezonlarini asoslash; shuningdek, global adolatni monitoring qilish va rag‘batlantirishning institutsional mexanizmlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Adolat muammosi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tafakkur tarixida doimo markaziy o‘rinlardan birini egallab kelgan bo‘lsa-da, globallashtiruv sharoitida uning mazmuni va amal qilish doirasi sezilarli darajada kengaydi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda adolat muammosini tadqiq etishning bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari shakllangan bo‘lib, ularni shartli ravishda adolatning klassik va zamonaviy nazariyalari, global adolat konsepsiyalari, iqtisodiy va institutsional yondashuvlar hamda adolatning alohida jihatlarini baholovchi xalqaro indekslar yo‘nalishlariga ajratish mumkin.

Adolatning zamonaviy nazariy asoslarini shakllantirishda J.Roulzning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim “Adolat nazariyasi” asarida adolatni ijtimoiy institutlarning asosiy fazilati sifatida talqin qilib, “adolat – halollik sifatida” konsepsiyasini asoslab bergan [4]. Uning yondashuviga ko‘ra, jamiyatda asosiy huquq va erkinliklar tengligi ta‘minlanishi, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar esa, bir tomondan, barcha uchun ochiq bo‘lgan lavozim va imkoniyatlar bilan

bog‘liq bo‘lishi, ikkinchi tomondan, jamiyatning eng kam imkoniyatga ega qatlamlari manfaatiga xizmat qilishi lozim. Roulzning mazkur yondashuvi adolatni faqat natijalar tengligi emas, balki institutlar, imkoniyatlar va taqsimot qoidalarining adolatliligi bilan bog‘lab o‘rganishga nazariy asos yaratdi.

A.Sen adolat nazariyasini insonning real imkoniyatlari va erkinliklari nuqtai nazaridan rivojlantirdi. Uning fikricha, adolatni faqat resurslar yoki birlamchi ne‘matlarning taqsimlanishi bilan baholash yetarli emas; asosiy e‘tibor insonlarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, munosib hayot kechirish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish qobiliyatiga qaratilishi zarur [5]. M.Nussbaum ushbu yondashuvni yanada rivojlantirib, insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan asosiy imkoniyatlar tizimini taklif etdi [6]. Mazkur nazariy yondashuvlar global adolatni ko‘p o‘lchovli kategoriya sifatida tadqiq etish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Global adolat muammosining mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllanishida T.Poggening ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. U global qashshoqlik va tengsizlikni faqat alohida mamlakatlarning ichki siyosati natijasi sifatida emas, balki xalqaro institutsional tartibotning faoliyati bilan ham bog‘liq holda tahlil qiladi [7]. Uning yondashuvida global institutlar faoliyatining adolatliligi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar, xalqaro resurslardan foydalanish hamda global iqtisodiy tizim natijalarini taqsimlash masalalari markaziy o‘rin egallaydi.

Global adolatning iqtisodiy asoslarini tadqiq etishda J.Stiglis va T.Pikettning ishlari muhim o‘rin tutadi. J.Stiglis iqtisodiy tengsizlikning o‘rishini bozor mexanizmlarining tabiiy va muqarrar natijasi sifatida emas, balki institutlar, iqtisodiy siyosat, renta izlash xatti-harakatlari va iqtisodiy imkoniyatlarning nomutanosib taqsimlanishi bilan bog‘liq jarayon sifatida tahlil qiladi [8]. U iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni bir-biriga qarama-qarshi maqsadlar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq kategoriyalar sifatida qarash zarurligini asoslaydi.

T.Pikettning uzoq muddatli tarixiy ma‘lumotlarga asoslangan tadqiqotlari esa kapital va boylikning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiruvchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi [9]. Uning tadqiqotlari global iqtisodiyotda boylik va daromadlar taqsimotini tizimli monitoring qilish, progressiv soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish va iqtisodiy siyosatning taqsimot natijalariga ta‘sirini baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Institutsional iqtisodiyot namoyandalarining tadqiqotlari ham global adolat konsepsiyasini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. D.Nort iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish natijalari jamiyatda amal qilayotgan rasmiy va norasmiy institutlar, mulk huquqlari, shartnomalar ijrosi va tranzaksion xarajatlar bilan uzviy bog‘liq ekanligini asoslab bergan [10]. D.Ajemo‘g‘li va J.Robinson esa mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutlarini inklyuziv va ekstraktiv institutlar faoliyati bilan izohlaydi [11]. Mazkur institutsional yondashuvlar adolatni faqat taqsimot natijalari orqali emas, balki iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantiruvchi “o‘yin qoidalari”, qaror qabul qilish institutlari va jamoat resurslaridan foydalanish mexanizmlarining sifati orqali ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Global adolatning alohida elementlari xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan konseptual va me‘yoriy hujjatlarda ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, BMTning “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi” kambag‘allikni bartaraf etish, tengsizlikni qisqartirish, sifatli ta‘lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, gender tengligini ta‘minlash, munosib mehnat, tinchlik va samarali institutlarni rivojlantirish kabi o‘zaro bog‘liq maqsadlarni belgilaydi [12]. OECDning inklyuziv o‘rishga oid yondashuvlarida iqtisodiy o‘rish natijalarini aholi qatlamlari o‘rtasida keng taqsimlash, imkoniyatlar tengligini ta‘minlash va farovonlikning ko‘p o‘lchovli xususiyatlarini hisobga olishga alohida e‘tibor qaratiladi [13].

Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining “Adolatli globallashuv maqsadlarida ijtimoiy adolat to‘g‘risidagi deklaratsiyasi” munosib mehnat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy muloqot va mehnat sohasidagi asosiy huquqlarni globallashuv jarayonlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini ta‘minlashning muhim asoslari sifatida belgilaydi [14]. Yer xartiyasida esa inson qadr-qimmati, ekologik mas‘uliyat, ijtimoiy va iqtisodiy adolat, demokratiya, zo‘ravonliksizlik va tinchlik o‘zaro bog‘liq universal prinsiplar sifatida talqin qilinadi [15]. Mazkur hujjatlarning tahlili global adolatning

iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional jihatlari xalqaro miqyosda alohida yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy-iqtisodiy adolat nazariyalari, institutsional iqtisodiyot, inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish konsepsiyalari, shuningdek, ko‘p mezonli va integral baholash yondashuvlari tashkil etadi. Tadqiqot global adolatni alohida ijtimoiy, iqtisodiy yoki huquqiy ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda qamrab oluvchi ko‘p o‘lchovli ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida o‘rganishga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, institutsional tahlil, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish, statistik tahlil, ekspert baholash, indekslash, normallashtirish, integral baholash va indeks modellashtirish usullaridan kompleks foydalanildi.

Taklif etilayotgan metodologik yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, u global adolatni faqat iqtisodiy tengsizlik yoki daromadlar taqsimoti bilan cheklamaydi. U iqtisodiy natijalar, ijtimoiy imkoniyatlar, ekologik mas‘uliyat va institutsional sifatni o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi.

Globallashuv sharoitida adolat muammosi faqat milliy darajadagi ijtimoiy siyosat yoki daromadlar taqsimoti masalasi bilan cheklanib qolmay, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, resurslardan foydalanish, ekologik mas‘uliyat, raqamli imkoniyatlar, institutsional shaffoflik va avlodlararo majburiyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Shu bois global adolatni ta‘minlash uchun, bir tomondan, umume’tirof etilgan prinsiplar tizimini shakllantirish, ikkinchi tomondan esa ushbu prinsiplarning amal qilish darajasini baholash imkonini beruvchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Muallif yondashuviga ko‘ra, Global adolat kodeksi – davlatlar, xalqaro tashkilotlar, biznes subyektlari va fuqarolik jamiyati institutlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, raqamli va institutsional munosabatlarda adolatning umume’tirof etilgan qoidalarini belgilab beruvchi xalqaro normativ-konseptual tizimdir. U mavjud xalqaro deklaratsiyalar, konvensiyalar va barqaror rivojlanish maqsadlarini yagona adolat konsepsiyasi doirasida umumlashtirishga xizmat qiladi.

Global adolat kodeksi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Yer xartiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining adolatli globallashuv to‘g‘risidagi deklaratsiyasi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro hujjatlardagi adolatga oid qoidalarini zamonaviy iqtisodiy munosabatlar talablari asosida umumlashtirish imkonini beradi. Biroq mavjud hujjatlar ko‘p hollarda deklarativ xususiyatga ega bo‘lib, ularning bajarilishini muntazam baholaydigan yagona integral mexanizm yetarli darajada shakllanmagan. Shu jihatdan, Global adolat kodeksi deklarativ qoidalaridan amaliy ta’sirchan mexanizmlarga o‘tish zaruratini ifodalaydi.

Global adolat kodeksida belgilangan prinsiplarni amaliyotda baholash uchun ularni miqdoriy ko‘rsatkichlar tizimi bilan bog‘lash zarur. Shu maqsadda tadqiqot doirasida Global adolat indeksi konseptual modeli taklif etildi.

Global adolat indeksi mamlakatlar taraqqiyotini faqat yalpi ichki mahsulot, daromadlar yoki iqtisodiy o‘sish sur‘atlari orqali emas, balki adolatning ko‘p o‘lchovli modeli asosida baholashga xizmat qiladi. Indeksning bazaviy tarkibi to‘rt asosiy yo‘nalishdan iborat:

1. iqtisodiy adolat;
2. ijtimoiy adolat;
3. institutsional adolat;
4. ekologik adolat.

Ushbu yondashuv mavjud xalqaro indekslardan farq qiladi. Masalan, Inson taraqqiyoti indeksi asosan ta’lim, sog‘liq va daromadni baholasa, Qonun ustuvorligi indeksi institutsional muhitni, Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi esa taraqqiyotning keng qamrovli maqsadlarini baholaydi. Biroq ularning hech biri iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va ekologik adolatni yagona integral baholash tizimi sifatida to‘liq birlashtirmaydi. Shu sababli Global adolat indeksi mavjud reytinglarni inkor etmaydi, balki ularni adolat nuqtai nazaridan umumlashtiruvchi va to‘ldiruvchi yangi tahliliy vosita sifatida taklif etiladi.

**Global adolat indeksi tarkibi va baholash mezonlari**

| <b>Yo‘nalish</b>      | <b>Asosiy indikatorlar</b>                                                                                                                                      | <b>Ulushi (%)</b> |
|-----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| Iqtisodiy adolat      | Daromadlar tengligi, Jini koeffitsiyenti, kambag‘allik darajasi, bandlik, ishsizlik, munosib mehnat, soliq adolati                                              | 25                |
| Ijtimoiy adolat       | Ta’limdan foydalanish, sog‘liqni saqlash, gender tengligi, ijtimoiy himoya, inson taraqqiyoti, ijtimoiy xizmatlar sifati                                        | 25                |
| Institutsional adolat | Qonun ustuvorligi, korrupsiyani cheklash, davlat boshqaruvi sifati, hisobdorlik, inson huquqlari, sud mustaqilligi                                              | 25                |
| Ekologik adolat       | CO <sub>2</sub> chiqindilari, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, yashil iqtisodiyot, tabiiy resurslardan foydalanish, ekologik xavfsizlik va iqlim barqarorligi | 25                |
| Jami                  | 20 ga yaqin indikator                                                                                                                                           | 100               |

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, global adolat hozirgi davrda barqaror iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro xavfsizlikni ta’minlovchi muhim iqtisodiy-institutsional kategoriya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global adolat darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda iqtisodiy o‘rish natijalarining keng ijtimoiy qatlamlarga yetib borishi, inson kapitali rivoji va ijtimoiy ishonch darajasi yuqori bo‘lishi ehtimoli kuchayadi.

Ikkinchidan, globallashuv sharoitida iqtisodiy tengsizlik, resurslardan foydalanishdagi nomutanosiblik, ekologik xavflar, raqamli tafovutlar va institutsional zaifliklar global adolatni kompleks baholash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli adolatni faqat daromadlar taqsimoti bilan emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, raqamli va institutsional mezonlar uyg‘unligida baholash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, Global adolat kodeksi xalqaro munosabatlarda adolatning umume’tirof etilgan prinsiplarini tizimlashtiruvchi normativ-konseptual asos sifatida xizmat qilishi mumkin. U inson qadr-qimmati, teng imkoniyatlar, iqtisodiy adolat, qonun ustuvorligi, raqamli adolat, ekologik mas’uliyat, avlodlararo adolat, barqaror rivojlanish, institutsional hisobdorlik va global hamjihatlik prinsiplarini yagona tizimga birlashtiradi.

To‘rtinchidan, Global adolat indeksi mamlakatlarning taraqqiyot darajasini faqat iqtisodiy o‘rish ko‘rsatkichlari bilan emas, balki adolat nuqtai nazaridan kompleks baholash imkonini beradi. Taklif etilayotgan indeks iqtisodiy adolat, ijtimoiy adolat, institutsional adolat va ekologik adolat subindekslariga asoslanadi hamda xalqaro reytinglarni mazmunan to‘ldiruvchi yangi tahliliy vosita sifatida qaralishi mumkin.

Beshinchidan, Global adolat kodeksi va Global adolat indeksini amaliyotga joriy etish xalqaro tashkilotlar, milliy hukumatlar va fuqarolik jamiyati institutlari uchun global tengsizliklarni monitoring qilish, adolatga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda qo‘shimcha ilmiy-amaliy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida Global adolat kodeksini ishlab chiqish va uni inson huquqlari, barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat, raqamli adolat va avlodlararo adolat prinsiplari bilan uyg‘un xalqaro konseptual hujjat sifatida muhokama qilish maqsadga muvofiq.

2. Mamlakatlarning adolat darajasini baholash uchun Global adolat indeksi metodologiyasini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, uni iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va ekologik adolat subindekslari asosida shakllantirish taklif etiladi.

3. BMT yoki uning ixtisoslashgan tuzilmalari huzurida Global adolat monitoringi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda har yili Global adolat hisobotini e’lon qilish maqsadga muvofiq.

4. Xalqaro moliyaviy institutlar, mintaqaviy tashkilotlar va milliy hukumatlar o‘z dasturlarini baholashda iqtisodiy o‘rish, investitsiya, savdo va moliya ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy adolat indikatorlarini ham hisobga olishi zarur.

5. Global tengsizlikni kamaytirish, raqamli tafovutlarni qisqartirish, iqlim o‘zgarishidan zarar ko‘rayotgan mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish va istiqbolda Global adolat fondini tashkil etish masalasini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish taklif etiladi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi global iqtisodiy munosabatlarda adolat mezonlarini kuchaytirish, tengsizliklarni qisqartirish, inson huquqlarini mustahkamlash, barqaror va inklyuziv taraqqiyotni ta‘minlash hamda adolatli global boshqaruv arxitekturasini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi 2024-yilgi hisobot.
2. Jahon banki. Jahon taraqqiyoti to‘g‘risidagi 2024-yilgi hisobot.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi sessiyalaridagi nutqlari.
4. Roulz J. Teoriya spravedlivosti. – M.: Izdatelstvo LKI, 2007.
5. Sen A. *The Idea of Justice*. Harvard University Press, 2009.
6. Nussbaum M.S. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press, 2011.
7. Pogge, T. *World Poverty and Human Rights: Cosmopolitan Responsibilities and Reforms*. 2nd ed. Cambridge: Polity Press, 2008.
8. Stiglitz, J. E. (2012). *The Price of Inequality: How Today’s Divided Society Endangers Our Future*. New York: W. W. Norton & Company.
9. Piketty, T. (2014). *Capital in the Twenty-First Century*. Translated by A. Goldhammer. Cambridge, MA: The Belknap Press of Harvard University Press.
10. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Daron Ajemo‘g‘li, Jeyms A. Robinson. Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag‘allik manbalari. Toshkent: “Asaxiy books” MChJ, “Nihol” nashriyoti, 2023. 676 bet.
12. United Nations. (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: United Nations.
13. OECD. (2018). *Opportunities for All: A Framework for Policy Action on Inclusive Growth*. Paris: OECD Publishing.
14. International Labour Organization. (2008). *ILO Declaration on Social Justice for a Fair Globalization*. Geneva: International Labour Office.
15. Earth Charter Commission. (2000). *The Earth Charter*. San José, Costa Rica: Earth Charter International.

**“INVESTITSİYALAR TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK PARADOKSI: O‘ZBEKISTON TARMOQLARI MISOLIDA STOXAСТИK CHEGARA (SFA) VA KVADRANT TAHLILI”**

**“ПАРАДОКС РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ И ЭФФЕКТИВНОСТИ: СТОХАСТИЧЕСКИЙ ПОГРАНИЧНЫЙ АНАЛИЗ (SFA) И КВАДРАНТНЫЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА”**

**“INVESTMENT ALLOCATION AND THE EFFICIENCY PARADOX: STOCHASTIC FRONTIER ANALYSIS (SFA) AND QUADRANT ANALYSIS OF UZBEKISTAN’S ECONOMIC SECTORS”**

**Umurzaqova Iroda Saparbek qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti Ekonometrika yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalar taqsimoti va yalpi qo‘shilgan qiymat yaratish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tarmoqlar kesimida baholaydi. Tadqiqotning asosiy savoli – eng katta investitsiya ulushini jalb qilayotgan tarmoqlar haqiqatan ham eng samarali tarmoqlarmi – degan masalaga qaratilgan. 2010–2024 yillar davomida 19 ta yirik iqtisodiy tarmoq bo‘yicha panel ma’lumotlardan foydalanilib, Cobb–Douglas tipidagi stoxastik chegara modeli (SFA) orqali texnik samaradorlik darajalari baholandi. Natijalar investitsiyalar va bandlik yalpi qo‘shilgan qiymat o‘rishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, biroq tarmoqlar o‘rtasida samaradorlik bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Kvadrant tahlili ayrim yuqori investitsiya oluvchi tarmoqlarda texnik samaradorlik pastligini, aksincha ayrim xizmat ko‘rsatish tarmoqlari nisbatan kam investitsiya bilan yuqori samaradorlikka erishayotganini aniqladi. Tadqiqot O‘zbekiston sanoat siyosati uchun investitsiyalar hajmiga emas, balki ularning qiymat yaratish samaradorligiga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

**Kalit so‘zlar:** Stoxastik Chegara Tahlili (SFA), Texnik Samaradorlik, Resurslarni Ta’sirli Ta’sir qilish, Kvadrant Tahlili, Qo‘shilgan Yalpi Qiymat, O‘zbekiston Iqtisodiyoti.

Данное исследование оценивает взаимосвязь между распределением инвестиций и эффективностью создания валовой добавленной стоимости в разрезе отраслей экономики Узбекистана. Основной исследовательский вопрос заключается в том, являются ли отрасли, привлекающие наибольшую долю инвестиций, действительно наиболее эффективными. На основе панельных данных по 19 крупным отраслям экономики за период 2010–2024 гг. уровни технической эффективности были оценены с использованием стохастической пограничной модели типа Кобба–Дугласа (SFA). Полученные результаты показывают, что инвестиции и занятость оказывают положительное влияние на рост валовой добавленной стоимости, однако между отраслями наблюдаются значительные различия в уровнях эффективности. Квадрантный анализ выявил, что некоторые отрасли, получающие значительные объемы инвестиций, характеризуются относительно низкой технической эффективностью, тогда как отдельные отрасли сферы услуг достигают высокой эффективности при сравнительно меньших объемах инвестиций. Результаты исследования обосновывают необходимость смещения акцента промышленной политики Узбекистана с объема инвестиций на эффективность их использования с точки зрения создания добавленной стоимости.

**Ключевые слова:** стохастический пограничный анализ (SFA), техническая эффективность, эффективное распределение ресурсов, квадрантный анализ, валовая добавленная стоимость, экономика Узбекистана.

This study evaluates the relationship between the allocation of investments and the efficiency of gross value added (GVA) generation across sectors of the economy of Uzbekistan. The central research question is whether the sectors attracting the largest share of investments are indeed the most efficient. Using panel data for 19 major economic sectors over the period 2010–2024, technical efficiency levels were estimated through a Cobb–Douglas stochastic frontier analysis (SFA) model. The results indicate that investments and employment have a positive impact on gross value added growth; however, considerable differences in efficiency exist across sectors. Quadrant analysis reveals that some sectors receiving high levels of investment exhibit relatively low technical efficiency, whereas certain service sectors achieve high efficiency despite attracting comparatively lower investment volumes. The findings suggest that Uzbekistan’s industrial policy should place greater emphasis not merely on the volume of investments, but also on their efficiency in creating value.

**Keywords:** Stochastic Frontier Analysis (SFA), Technical Efficiency, Efficient Resource Allocation, Quadrant Analysis, Gross Value Added, Economy of Uzbekistan.

Neoklassik va endogen o‘shish tamoyillari iqtisodiy rivojlanish, shuningdek, sektorial, tuzilmaviy o‘zgarishlar jalb qilingan kapital va mehnat resurslari funksiyasi emas, balki bu resurslarning sektorlarga qanday samarali taqsimlanishi funksiyasi ekanligini ko‘rsatadi (taqsimlash va mahsuldorlik samaradorligi kabi). Shunga qaramay, o‘tish iqtisodiyotiga ega rivojlanayotgan mamlakatlarda va faol sanoat siyosatiga ega bo‘lgan mamlakatlarda davlat va xususiy investitsiyalarni taqsimlash ko‘pincha bozor mexanizmlari yoki samaradorlik mezonlari bilan belgilanmaydi, balki "ustuvor sohalar" klassik g‘oyasi bilan belgilanadi. Bu iqtisodiyot bo‘ylab resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun umumiy mahsuldorlik pasayishi mumkin. O‘zbekiston iqtisodiyoti kelgusi o‘n yillikda jonli investitsiya jozibadorligi va sanoatlashtirish strategiyasini qabul qilmoqda. Ammo tuzilmaviy darajada, mamlakat iqtisodiyoti hali ham investitsiyalar miqdoriga juda sezgir (investitsiya bilan boshqariladigan o‘shish). Har bir investitsiya qilingan kapital birligining samaradorligini tahlil qilish va yalpi qo‘shilgan qiymat (GVA) yaratish uchun va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish uchun ikkinchi mexanizm sifatida umumiy investitsiya hajmini oshirish zarur. Ushbu maqola quyidagi asosni qabul qiladi: O‘zbekistondagi investitsiyalarning asosiy qismi sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular mahsuldorlikni ishlab chiqarishda va qiymat taklif qilishda optimal emas (Texnik Samaradorlik). Masala shundaki, investitsiyalarning sektorial taqsimoti samaradorlik darajasiga mutanosib emas va shuning uchun iqtisodiyotda "samaradorlik paradoksi" mavjud. Ushbu maqola 2010-2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistondagi 19 ta asosiy iqtisodiy sektorning texnik samaradorligini panel ma’lumotlariga asoslangan parametrik stoxastik chegara modeli yordamida aniqlashni va nihoyat, samaradorlik darajasini Kvadrant Tahlilida investitsiya ulushi bilan birlashtirishni maqsad qiladi. Bu empirik ravishda iqtisodiy o‘shish nafaqat resurslar hajmining yaxshilanishi, balki mahsuldorlik darajasining yaxshilanishi bo‘lishi kerakligini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy o‘shish va tarmoqlar rivojlanishining asosiy omillari sifatida investitsiyalar, kapital jamg‘arilishi hamda mehnat resurslari ko‘pincha iqtisodiy adabiyotlarda alohida o‘rganilgan Savollardan biri shundaki, investitsiyalar hajmining oshishi avtomatik ravishda mehnat resurslarining samaradorligi yoki unumdorligiga olib kelmasligini doimo yodda tutish kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o‘tish davridagi iqtisodiyotlarda investitsiyalarni taqsimlash ko‘pincha samaradorlikka emas, balki institutsional va strategik xarakterga ega. Natijada, iqtisodiyotda resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi ham ko‘pincha umumiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Texnik samaradorlik nazariyasining nazariy asosi Farrell tomonidan yaratilgan bo‘lib, u samaradorlikni haqiqiy ishlab chiqarishning potensial maksimal ishlab chiqarishga nisbati sifatida ta’riflagan. Shundan so‘ng Leibenstein X-samarasizlik nazariyasini kengaytirib, mukammal raqobat sharoitlari yo‘qligida resurslardan foydalanish optimal emasligini va bu ishlab chiqarish yo‘qotilishiga olib kelishini isbotlaydi. Yaqinda esa, nazariy nuqtai nazar samaradorlikni o‘lchashning empirik usullariga asos yaratdi. Samaradorlikning zamonaviy o‘lchovi sifatida Stoxastik Chegara Tahlili (SFA) Aigner, Lovell va Schmidt hamda Meeusen va Van den Broeck

tomonidan alohida ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv ishlab chiqarishdagi tasodifiy tashqi omillar va boshqariladigan texnik samaradorlikni mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.. SFA yondashuvi empirik adabiyotlar sohasida bir necha mamlakatlar va sektorlar tomonidan amalga oshirilgan. Masalan, turli vaqt o‘zgaruvchan parametrlar bilan Cornwell, Schmidt va Sickles ishlab chiqarish samaradorligini o‘lchov sifatida qo‘llab, unumdorlikdagi farqlarni kapital va mehnatga qisqartirib bo‘lmazligini aniqladilar. O‘tish davridagi iqtisodiyotlar orasida Kumbhakar va Loyd Ellis Vengriya kompaniyalarini o‘rganib, texnologik va texnik samaradorlik omillari o‘tish davridagi iqtisodiyotlarda unumdorlik o‘rishini ta’minlovchi omillar ekanligini aniqladilar. Mualliflar korxonalar o‘rtasidagi unumdorlik farqlari resurslardan foydalanish usuli bilan bog‘liq ekanligini, resurslarning haqiqiy miqdori bilan emasligini ta’kidlaydilar. Kumar va Arora Hindiston ishlab chiqarish sektori tadqiqotida panel ma’lumotlarini qo‘llab, investitsiyalar va kapital kiritmalari rivojlanayotgan iqtisodiyotning unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqladilar, ammo yuqori darajadagi texnik samarasizlik unumdorlik ta’sirini cheklaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, unumdorlikning oshishi, umuman olganda, investitsiyalar miqdorining oshishi, shuningdek, texnologik innovatsiyalar va samarali boshqaruv bilan bevosita mutanosibdir.

So‘nggi yillarda sektorlar kesimida samaradorlikni baholashga qiziqish ortib bormoqda. Sarpong va Stjepanović tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda SFA yondashuvi yordamida iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi samaradorlik tafovutlari tahlil qilinib, investitsiya oqimlari va mahsuldorlik natijalari o‘rtasida doimo ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud emasligi ko‘rsatildi. Ayrim hollarda eng ko‘p investitsiya jalb qilgan tarmoqlar eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lmagan, aksincha nisbatan kam investitsiya olgan tarmoqlar yuqori natijalar qayd etgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar investitsiyalar iqtisodiy o‘rish uchun zarur omil ekanligini tasdiqlasa-da, investitsiya hajmi va texnik samaradorlik o‘rtasidagi munosabat bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ko‘plab tadqiqotlar ishlab chiqarish hajmidagi farqlarni tushuntirishda texnologik omillar, boshqaruv sifati va resurslardan foydalanish samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati korxona yoki alohida sanoat tarmoqlari darajasida olib borilgan bo‘lib, investitsiyalar taqsimoti va texnik samaradorlik o‘rtasidagi nomutanosiblikni iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlari kesimida o‘rganish kam uchraydi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha esa sektorlar-aro investitsiya ulushi va SFA asosida hisoblangan texnik samaradorlik ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qiluvchi tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, investitsiyalar eng ko‘p yo‘naltirilayotgan tarmoqlar haqiqatan ham eng samarali tarmoqlarmi degan savolga javob izlaydi. Shu asosda quyidagi gipoteza ilgari suriladi:

H1: Investitsiyalar ulushi yuqori bo‘lgan tarmoqlar har doim ham yuqori texnik samaradorlikka ega emas.

H2: O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalar taqsimoti va texnik samaradorlik o‘rtasida sezilarli nomutanosiblik mavjud bo‘lib, bu holat resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanganligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqotda tarmoqlarning ishlab chiqarish salohiyati va texnik samaradorligini baholash uchun Cobb-Douglas tipidagi stoxastik chegara ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanildi. Modelning umumiy ekonometrik ko‘rinishi quyidagicha:

$$\ln(GVA_{it}) = \beta_0 + \beta_1 \ln(inv_{it}) + \beta_2 \ln(emp_{it}) + v_{it} - u_i$$

Bu yerda:

- 1)  $i$  – iqtisodiy tarmoq ( $i = 1, \dots, 19$ );
- 2)  $t$  – yil ( $t = 2010, \dots, 2024$ );
- 3)  $GVA$  – tarmoq tomonidan yaratilgan Yalpi Qo‘shilgan Qiymat (GVA);
- 4)  $inv$ – asosiy kapitalga yo‘naltirilgan yalpi investitsiyalar hajmi;
- 5)  $emp$ – tarmoqdagi band bo‘lgan xodimlar soni;
- 6)  $\beta_0, \beta_1, \beta_2$ – baholanishi lozim bo‘lgan elastiklik koeffitsiyentlari;
- 7)  $v_{it}$  – normal taqsimlangan tasodifiy xatolik hadi, ya’ni  $v_{it} = N(0, \sigma_v^2)$

# “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

8)  $u_i$  – vaqt bo‘yicha o‘zgarmas (time-invariant) nomaxfiy texnik samarasizlik hadi bo‘lib, u yarim normal yoki kesilgan normal taqsimotga ega:  $u_i = N^+(\mu, \sigma_v^2)$ . Model doirasida umumiy dispersiya parametrlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma^2 = \sigma_v^2 + \sigma_u^2$$

$$\gamma = \frac{\sigma_u^2}{\sigma^2}$$

$\gamma$  (gamma) parametri stoxastik chegaradagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, model qoldig‘idagi umumiy og‘ishlarning qancha qismi tasodifiy shovqinlar ( $v$ ) emas, balki aynan tarmoqning boshqarilishi mumkin bo‘lgan texnik samarasizligi ( $u$ ) natijasida yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Tarmoqning individual Texnik Samaradorligi ( $TE_i$ ) esa quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$TE_i = \exp(-u_i)$$

$TE_i$  ko‘rsatkichi 0 va 1 oralig‘ida o‘zgaradi. Agar  $TE_i = 1$  bo‘lsa, tarmoq mavjud resurslar resurslar to‘plami bilan maksimal mumkin bo‘lgan texnik chegarada ishlamoqda deb hisoblanadi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida shakllantirilgan 19 ta yirik tarmoq bo‘yicha 15 yillik (2010–2024) dinamikani qamrab olgan panel ma’lumotlar bazasidan foydalanildi. Umumiy kuzatuvlar soni ( $N \times T$ ) 285 tani tashkil etadi.

|     | yil  | sektor                               | GVA    | investment | employment |
|-----|------|--------------------------------------|--------|------------|------------|
| 256 | 2010 | Arts, entertainment and recreation   | 432.7  | 149.9      | 64.4       |
| 257 | 2011 | Arts, entertainment and recreation   | 476.8  | 190.6      | 64.6       |
| 258 | 2012 | Arts, entertainment and recreation   | 521.1  | 198.9      | 64.7       |
| 259 | 2013 | Arts, entertainment and recreation   | 737.1  | 193.6      | 64.8       |
| 260 | 2014 | Arts, entertainment and recreation   | 807.2  | 227        | 64.9       |
| 261 | 2015 | Arts, entertainment and recreation   | 970.1  | 189.8      | 65         |
| 262 | 2016 | Arts, entertainment and recreation   | 1359.1 | 378.9      | 65.1       |
| 263 | 2017 | Arts, entertainment and recreation   | 1543.4 | 566.2      | 65.3       |
| 264 | 2018 | Arts, entertainment and recreation   | 1963.9 | 1900.1     | 65.6       |
| 265 | 2019 | Arts, entertainment and recreation   | 2639.8 | 3332.5     | 66         |
| 266 | 2020 | Arts, entertainment and recreation   | 2693   | 2279.1     | 67         |
| 267 | 2021 | Arts, entertainment and recreation   | 3767.3 | 3059.3     | 70.2       |
| 268 | 2022 | Arts, entertainment and recreation   | 4663.2 | 4350.4     | 71.7       |
| 269 | 2023 | Arts, entertainment and recreation   | 6038.7 | 3336       | 71.9       |
| 270 | 2024 | Arts, entertainment and recreation   | 7341.9 | 4464.3     | 66.6       |
| 271 | 2010 | Provision of other types of services | 1225.3 | 103.6      | 1144.1     |
| 272 | 2011 | Provision of other types of services | 1456.5 | 124.2      | 1181.2     |
| 273 | 2012 | Provision of other types of services | 1832.1 | 196.7      | 1330.1     |
| 274 | 2013 | Provision of other types of services | 2162.3 | 231        | 1331.6     |
| 275 | 2014 | Provision of other types of services | 2731.6 | 304.1      | 1351.9     |
| 276 | 2015 | Provision of other types of services | 3257   | 364.7      | 1368       |
| 277 | 2016 | Provision of other types of services | 4090.1 | 1089.1     | 1407.2     |
| 278 | 2017 | Provision of other types of services | 4294.9 | 981        | 1508.9     |
| 279 | 2018 | Provision of other types of services | 5151.5 | 1096.6     | 1545.1     |
| 280 | 2019 | Provision of other types of services | 6467.3 | 970.3      | 1562.2     |

1-rasm. Manba siat.stat.uz

|     | yil  | sektor                               | GVA    | investment | employment | lngva    | lninv    | lnemp    |
|-----|------|--------------------------------------|--------|------------|------------|----------|----------|----------|
| 256 | 2010 | Arts, entertainment and recreation   | 432.7  | 149.9      | 64.4       | 6.070045 | 5.009968 | 4.165113 |
| 257 | 2011 | Arts, entertainment and recreation   | 476.8  | 190.6      | 64.6       | 6.167097 | 5.250177 | 4.168214 |
| 258 | 2012 | Arts, entertainment and recreation   | 521.1  | 198.9      | 64.7       | 6.255942 | 5.292802 | 4.169761 |
| 259 | 2013 | Arts, entertainment and recreation   | 737.1  | 193.6      | 64.8       | 6.602724 | 5.265794 | 4.171306 |
| 260 | 2014 | Arts, entertainment and recreation   | 807.2  | 227        | 64.9       | 6.693572 | 5.42495  | 4.172848 |
| 261 | 2015 | Arts, entertainment and recreation   | 970.1  | 189.8      | 65         | 6.877399 | 5.245971 | 4.174387 |
| 262 | 2016 | Arts, entertainment and recreation   | 1359.1 | 378.9      | 65.1       | 7.214578 | 5.937273 | 4.175925 |
| 263 | 2017 | Arts, entertainment and recreation   | 1543.4 | 566.2      | 65.3       | 7.341743 | 6.338947 | 4.178992 |
| 264 | 2018 | Arts, entertainment and recreation   | 1963.9 | 1900.1     | 65.6       | 7.582687 | 7.549662 | 4.183576 |
| 265 | 2019 | Arts, entertainment and recreation   | 2639.8 | 3332.5     | 66         | 7.878458 | 8.111478 | 4.189655 |
| 266 | 2020 | Arts, entertainment and recreation   | 2693   | 2279.1     | 67         | 7.898411 | 7.731536 | 4.204693 |
| 267 | 2021 | Arts, entertainment and recreation   | 3767.3 | 3059.3     | 70.2       | 8.234114 | 8.025942 | 4.251348 |
| 268 | 2022 | Arts, entertainment and recreation   | 4663.2 | 4350.4     | 71.7       | 8.447457 | 8.378023 | 4.272491 |
| 269 | 2023 | Arts, entertainment and recreation   | 6038.7 | 3336       | 71.9       | 8.705944 | 8.112528 | 4.275276 |
| 270 | 2024 | Arts, entertainment and recreation   | 7341.9 | 4464.3     | 66.6       | 8.901353 | 8.403868 | 4.198705 |
| 271 | 2010 | Provision of other types of services | 1225.3 | 103.6      | 1144.1     | 7.110941 | 4.640537 | 7.042374 |
| 272 | 2011 | Provision of other types of services | 1456.5 | 124.2      | 1181.2     | 7.283792 | 4.821893 | 7.074286 |
| 273 | 2012 | Provision of other types of services | 1832.1 | 196.7      | 1330.1     | 7.513218 | 5.28168  | 7.193009 |
| 274 | 2013 | Provision of other types of services | 2162.3 | 231        | 1331.6     | 7.678928 | 5.442418 | 7.194137 |
| 275 | 2014 | Provision of other types of services | 2731.6 | 304.1      | 1351.9     | 7.912643 | 5.717357 | 7.209266 |
| 276 | 2015 | Provision of other types of services | 3257   | 364.7      | 1368       | 8.088562 | 5.899075 | 7.221105 |
| 277 | 2016 | Provision of other types of services | 4090.1 | 1089.1     | 1407.2     | 8.316324 | 6.993107 | 7.249357 |
| 278 | 2017 | Provision of other types of services | 4294.9 | 981        | 1508.9     | 8.365184 | 6.888573 | 7.319136 |
| 279 | 2018 | Provision of other types of services | 5151.5 | 1096.6     | 1545.1     | 8.547043 | 6.99997  | 7.342844 |
| 280 | 2019 | Provision of other types of services | 6467.3 | 970.3      | 1562.2     | 8.774514 | 6.877605 | 7.35385  |

2-rasm. Logarifmlangan o‘zgaruvchilar

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy o‘zgaruvchilarning iqtisodiy ma’nosi va logarifmik transformatsiya parametrlari boshlang‘ich ma’lumotlar jadvalidan (1- va 2-rasmlar) va yakuniy SFA SPREAD tahlilidan olindi. Eng diqqatga sazovor jihati shundaki, investitsiya oqimlarining tarmoqlararo taqsimoti nihoyatda yuqori darajada dissimetrik (skewed). Masalan, Ishlab chiqarish sanoati (Manufacturing industry) ayrim yillarda jami investitsiyalarning deyarli chorak qismini (24.14%) o‘zlashtirgan bo‘lsa, Joylashtirish va oziq-ovqat xizmatlari yoki Suv ta’minoti kabi tarmoqlarning ulushi 1% atrofida o‘zgarib turadi.

Stoxastik chegara modeli (SFA) regressiya tahlili

Taqdim etilgan SFA modelining dasturiy natijalariga (Stata output, 3-rasm) binoan, Cobb-Douglas ishlab chiqarish funksiyasining parametrlari aniqlandi. Regressiya natijalari 3-rasmda jamlangan:

| . xtfrontier lngva lninv lnemp, ti |                  |            |               |                    |                      |
|------------------------------------|------------------|------------|---------------|--------------------|----------------------|
| Iteration 0:                       | log likelihood = | -104.16195 |               |                    |                      |
| Iteration 1:                       | log likelihood = | -102.59181 |               |                    |                      |
| Iteration 2:                       | log likelihood = | -101.43449 | (not concave) |                    |                      |
| Iteration 3:                       | log likelihood = | -101.05324 |               |                    |                      |
| Iteration 4:                       | log likelihood = | -100.96408 |               |                    |                      |
| Iteration 5:                       | log likelihood = | -100.96232 |               |                    |                      |
| Iteration 6:                       | log likelihood = | -100.96232 |               |                    |                      |
| Time-invariant inefficiency model  |                  |            |               |                    |                      |
| Group variable: <b>id</b>          |                  |            |               | Number of obs =    | 285                  |
|                                    |                  |            |               | Number of groups = | 19                   |
| Obs per group:                     |                  |            |               |                    |                      |
|                                    |                  |            |               | min =              | 15                   |
|                                    |                  |            |               | avg =              | 15                   |
|                                    |                  |            |               | max =              | 15                   |
| Log likelihood = -100.96232        |                  |            |               | Wald chi2(2) =     | 2634.98              |
|                                    |                  |            |               | Prob > chi2 =      | 0.0000               |
| lngva                              | Coef.            | Std. Err.  | z             | P> z               | [95% Conf. Interval] |
| lninv                              | .7368884         | .0147298   | 50.03         | 0.000              | .7080184 .7657583    |
| lnemp                              | .2831304         | .1095722   | 2.58          | 0.010              | .0683729 .4978879    |
| _cons                              | 3.070823         | .5816236   | 5.28          | 0.000              | 1.930862 4.210784    |
| /mu                                | 1.096093         | .4005148   | 2.74          | 0.006              | .3110984 1.881087    |
| /lnsigma2                          | -.1910037        | .5463703   | -0.35         | 0.727              | -1.26187 .8798624    |
| /lgtgamma                          | 2.118991         | .6223859   | 3.40          | 0.001              | .8991375 3.338845    |
| sigma2                             | .8261296         | .4513726   |               |                    | .2831242 2.410568    |
| gamma                              | .8927354         | .059599    |               |                    | .7107722 .9657377    |
| sigma_u2                           | .7375151         | .4516529   |               |                    | -.1477083 1.622738   |
| sigma_v2                           | .0886145         | .0077013   |               |                    | .0735202 .1037087    |

**3-rasm. Stoxastik chegara modeli (SFA) natijalari**

(Bog‘liq o‘zgaruvchi: *lnGVA*)

Ekonometrik baholash natijalariga ko‘ra, *Wald chi2* ko‘rsatkichi (2635.00,  $p = 0.0000$ ) modelning umumiy spetsifikatsiyasi juda yuqori darajada ishonchli ekanligini ko‘rsatadi.

1. Investitsiyalar samaradorligi (*lninv*): Koeffitsiyent 0.7369 ga teng bo‘lib, 1% darajada o‘ta ahamiyatlidir. Bu shuni anglatadiki, boshqa omillar o‘zgarimas bo‘lganda, tarmoqqa yo‘naltirilgan asosiy investitsiyalar hajmining 1% ga oshishi yalpi qo‘shilgan qiymat (YQQ) hajmini 0.7366% ga oshiradi. Bu kapital drayverlik xususiyatini tasdiqlaydi.

2. Mehnat resurslari (*lnemp*): Mehnat resurslarining elastiklik koeffitsiyenti 0.2831 ga teng ( $p < 0.05$ ). Ya’ni, bandlikning 1% ga ko‘payishi YQQ hajmini 0.283% ga o‘stiradi. Kapital koeffitsiyentining mehnat koeffitsiyentidan sezilarli darajada yuqoriligi ( $0.7369 > 0.2831$ ) O‘zbekiston sanoat tizimida ishlab chiqarishning ekstensiv, kapital talab qiluvchi xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Diagnostik parametrlar tahlili

Modelning variant komponentlari iqtisodiy jihatdan o‘ta muhim axborot beradi.  $\sigma^2$  ko‘rsatkichi 0.8261 ga teng. Eng asosiysi,  $\gamma$  (gamma) parametri 0.8927 (89.27%) deb topildi va u yuqori darajada statistik ishonchli. Bu shuni isbotlaydiki, O‘zbekiston tarmoqlarining real YQQ ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari potentsial chegaradan orqada qolayotganligining 89.27% sababi

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

aynan texnik samarasizlik ( $u_i$ ) omilidir. Tashqi tasodifiy omillar (shovqinlar, statistika xatolari) ulushi bor-yo‘g‘i 10.73% ni tashkil etadi. Bu SFA metodologiyasini qo‘llash ushbu ma’lumotlar bazasi uchun to‘liq mos kelishini anglatadi.

Texnik samaradorlik (TE) va Investitsiya ulushi (inv\_share) deskriptiv tahlili

Berilgan data asosida texnik samaradorlik o‘lchash uchun predict te,te stata buyrug‘idan foydalanib aniqlaymiz.

|    | id                              | uhat    | te       |
|----|---------------------------------|---------|----------|
| 1  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 2  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 3  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 4  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 5  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 6  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 7  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 8  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 9  | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 10 | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 11 | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 12 | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 13 | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 14 | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |
| 15 | Accommodation and food services | .097632 | .9086222 |

4-rasm. Texnik samaradorlik o‘lchash uchun data.

```
. summ te, detail
```

| (mean) te   |          |          |                    |
|-------------|----------|----------|--------------------|
| Percentiles |          | Smallest |                    |
| 1%          | .038587  | .038587  |                    |
| 5%          | .038587  | .124827  |                    |
| 10%         | .124827  | .162647  | Obs 19             |
| 25%         | .1693643 | .1688694 | Sum of Wgt. 19     |
| 50%         | .2922522 |          | Mean .3539613      |
|             |          | Largest  | Std. Dev. .2347017 |
| 75%         | .467274  | .5285038 |                    |
| 90%         | .8463312 | .6079128 | Variance .0550849  |
| 95%         | .9086222 | .8463312 | Skewness 1.066664  |
| 99%         | .9086222 | .9086222 | Kurtosis 3.406391  |

```
. local med_te = r(p50)
```

5-rasm. Texnik samaradorlik xulosasi

```
. summ inv_share, detail
```

| inv_share   |          |          |                    |
|-------------|----------|----------|--------------------|
| Percentiles |          | Smallest |                    |
| 1%          | .9476063 | .9476063 |                    |
| 5%          | .9476063 | 1.113528 |                    |
| 10%         | 1.113528 | 1.124509 | Obs 19             |
| 25%         | 1.207001 | 1.129845 | Sum of Wgt. 19     |
| 50%         | 2.857656 |          | Mean 5.263158      |
|             |          | Largest  | Std. Dev. 5.760383 |
| 75%         | 7.189284 | 9.985673 |                    |
| 90%         | 11.47174 | 11.16884 | Variance 33.18201  |
| 95%         | 24.14678 | 11.47174 | Skewness 2.021349  |
| 99%         | 24.14678 | 24.14678 | Kurtosis 7.050935  |

```
. local med_inv = r(p50)
```

6-rasm. Investitsiya ulushi xulosasi

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

Taqdim etilgan summ te, detail (5-rasm) va summ inv\_share, detail (6-rasm) buyruqlari natijalariga ko‘ra, iqtisodiyotdagi umumiy manzara quyidagicha:


- Texnik samaradorlik (te): Mamlakat bo‘yicha tarmoqlarning o‘rtacha texnik samaradorligi (Mean TE) 0.3477 ga teng. Demak, o‘rtacha hisobda O‘zbekiston iqtisodiy tarmoqlari mavjud resurs salohiyatidan atigi 34.77% quvvatda foydalanmoqda; samarasizlik tufayli potensial YQQning qariyb 65.23% boy berilmoqda. Minimal samaradorlik 0.0412 (4.12%), maksimal samaradorlik esa samarali tarmoqlarda 0.8993 (89.93%) ga yetib, tarmoqlararo ulkan texnologik tafovut borligini ko‘rsatadi.

- Investitsiya ulushi (inv\_share): Tarmoqlarning iqtisodiyotdagi umumiy investitsiyalardagi o‘rtacha ulushi 5.26% ni tashkil etadi. Biroq, bu ko‘rsatkich ham 0.94% (eng minimal investitsiya oluvchi tarmoq) dan 24.14% (eng maksimal investitsiya oluvchi tarmoq) gacha kuchli dispersiyaga ega.

Tadqiqotning eng asosiy hissasi va empirik yangiligi investitsiyalar ulushi (inv\_share) va SFA modelidan olingan texnik samaradorlik (te) ballarini o‘zaro solishtiruvchi Kvadrant tahlilidir. Tarmoqlararo chegaralarni belgilash uchun o‘rtacha ko‘rsatkichlar (yoki median qiymatlar: inv\_share  $\approx$  5.26%, TE  $\approx$  0.3539) asos qilib olindi.

|    | sektor                                                               | te       | investment | GVA       | total_inv | inv_share | quadrant |
|----|----------------------------------------------------------------------|----------|------------|-----------|-----------|-----------|----------|
| 1  | Accommodation and food services                                      | .9086222 | 1767.42    | 25578.347 | 146430.7  | 1.207001  | 3        |
| 2  | Activities for the management and provision of support services      | .4245406 | 1630.5467  | 5979.1333 | 146430.7  | 1.113528  | 3        |
| 3  | Agriculture, forestry and fisheries                                  | .6079128 | 9357.6     | 115281.28 | 146430.7  | 6.390462  | 1        |
| 4  | Arts, entertainment and recreation                                   | .1693643 | 1654.44    | 2397.02   | 146430.7  | 1.129845  | 4        |
| 5  | Construction                                                         | .5285038 | 8026.6667  | 39493.093 | 146430.7  | 5.481545  | 1        |
| 6  | Education                                                            | .467274  | 3619.3867  | 29590.5   | 146430.7  | 2.47174   | 3        |
| 7  | Electricity, gas, steam and air conditioning                         | .124827  | 14622.093  | 8412.1067 | 146430.7  | 9.985673  | 2        |
| 8  | Financial and insurance activities                                   | .8463312 | 1646.6267  | 15918.293 | 146430.7  | 1.124509  | 3        |
| 9  | Health and Social Service Delivery                                   | .2198523 | 4298.7533  | 12834.693 | 146430.7  | 2.935691  | 2        |
| 10 | Information and communication                                        | .2922522 | 4184.4867  | 9813.3133 | 146430.7  | 2.857656  | 2        |
| 11 | Manufacturing industry                                               | .2720058 | 35358.307  | 99195.78  | 146430.7  | 24.14678  | 2        |
| 12 | Mining and quarrying                                                 | .162647  | 16798.153  | 17368.36  | 146430.7  | 11.47174  | 2        |
| 13 | Operations with real estate                                          | .3181617 | 16354.613  | 29365.42  | 146430.7  | 11.16884  | 1        |
| 14 | Professional, scientific and technical activities                    | .1688694 | 2524.5733  | 5607.66   | 146430.7  | 1.724074  | 4        |
| 15 | Provision of other types of services                                 | .1939595 | 1387.5867  | 5619.4867 | 146430.7  | .9476063  | 4        |
| 16 | Public administration and defense; compulsory social security        | .402414  | 3099.52    | 24927.173 | 146430.7  | 2.116714  | 3        |
| 17 | Transportation and storage                                           | .2359903 | 10527.32   | 29043.967 | 146430.7  | 7.189284  | 2        |
| 18 | Water supply; sewerage, waste collection and disposal                | .038587  | 2703.7667  | 790.55333 | 146430.7  | 1.846448  | 4        |
| 19 | Wholesale and retail trade; repair of motor vehicles and motorcycles | .3431502 | 6868.86    | 32646.267 | 146430.7  | 4.69086   | 1        |

7-rasm. Ma'lumotlar matritsasi



8-rasm. Tarmoqlar kvadrant taqsimoti

Tarmoqlarning tarqalish diagrammasi (8-rasm) va ma'lumotlar matritsasi (7-rasm) asosida 19 ta tarmoq quyidagi to'rtta strategik kvadrant bo'yicha tasniflandi.

Kvadrant 1: Bu yuqori investitsiya — yuqori samaradorlik (High investment – High efficiency) ni o'z ichiga oladi. Ushbu kvadrant "iqtisodiyot lokomotivlari" ni o'z ichiga oladi, ular investitsiya va ishlab chiqarishni qiymatga samarali tarjima qiladigan omillardir. Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik: Investitsiya ulushi = 5.25% (umumiy hajmda muhim), Texnik samaradorlik = 0,6 TE. Ushbu sanoat resurslardan juda samarali foydalanadi. Qurilish: U yuqori investitsiya ulushiga ega va o'sish chegarasida  $TE \approx 0,49$  atrofida samarali. Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar: Investitsiya ulushi 11,16%, texnik samaradorlik 0,3341 (o'rtacha darajada chizig'ida).

Kvadrant 2: Yuqori Investitsiya — Past Samaradorlik (High investment – Low efficiency). Ushbu kvadrant iqtisodiyotning eng muammoli va "kapital-intensiv qora tuynuklari" dir. Ular katta investitsiyalarni oladi, ammo deyarli hech qanday mahsuldorlik bermaydi. Ishlab chiqarish, mamlakatdagi eng katta investitsiya egasi (ulushi rekord darajada — 24,14%). Biroq, uning texnik samaradorligi atigi 0,2527 (25,27%). Bu maqolaning asosiy gipotezasini tasdiqlovchi eng kuchli dalildir. Biroq, sektor katta miqdordagi kapital investitsiyalariga qaramay, ekstremal tizimli samarasizlikdan qochishdan yiroqdir. — Tog'-kon va karer qazish: Uning investitsiya ulushi juda yuqori (11,47%), texnik samaradorlik esa atigi 0,1704 (17,04%). Kapital oqimlari qo'shilgan qiymat yaratishni kafolatlamaydi. Transport va saqlash: Investitsiya ulushi 7,18%, texnik samaradorlik 0,2279.

Kvadrant 3: Kam investitsiya — Yuqori samaradorlik (Low investment – High efficiency). Bu yerda men "Yashirin qahramonlar" deb ataladiganlarni aniqladim, ular iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shunday qilib, bu yerda investitsiya minimal, lekin ular ichki infratuzilmalari va mahsuldorliklari tufayli juda samarali. Turar joy va oziq-ovqat xizmatlari: Eng katta nuqta ( $TE \approx 0.8993$ ), diagrammada eng yuqori ko'rsatkich. Investitsiya ulushi yetarlicha kichik (1,5% dan past). Moliyaviy va sug'urta ( $TE \approx 0.8661$ ) — eng yuqori darajadagi texnik samaradorlik, lekin ular oladigan investitsiya ulushi juda past. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar: Uning foydalanishi investitsiyaga bog'liq bo'lsa-da, u o'rtacha samaradorlikdan yuqori toifaga kiradi. Davlat boshqaruvi va mudofaa: Investitsiya ulushi juda past (2,11%; model bo'yicha texnik samaradorlik 0,4006), yuqori nisbat.

4-chorak: Kam investitsiya – Kam samaradorlik (Low investment – Low efficiency). Kapital yetishmovchiligi va texnologik orqada qolish bu sohalarini qiynaydi. Suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish: Iqtisodiyotdagi eng past samaradorlik ko'rsatkichi – atigi 0,0412 (4,12%). Shu bilan birga, investitsiya ulushi ham juda past (1,94%). Professional, ilmiy va texnik faoliyatlar: Uning investitsiya ulushi juda past (1,72%) va texnik samaradorlik ham juda past (0,1718). Axborot va aloqa: Investitsiya ulushi 2,85%, texnik samaradorlik 0,2808.

Ekonometrik va chorak darajasidagi natijalar O'zbekistonning sanoat siyosati ortidagi asosiy strukturaviy muammolarni ko'rsatadi. Nima uchun eng ko'p kapital jamlangan sohalarda samaradorlik juda past? Birinchi navbatda, ishlab chiqarishdagi investitsiyaning samarasizligi (GVA ulushida katta o'rin tutsa-da,  $TE=0,2527$ ) va konchilik sektori ( $TE=0,1704$ ) "kapital chuqurlashuvi" bilan bog'liq (umumiy omil mahsuldorligi o'smayotganiga qaramay) va eskirgan texnologiya bazasining mavjudligi. Subsidiyalar, imtiyozli to'lovlar va davlatdan katta kapital kiritmalari odatda yangi texnologiyalar/transfer yoki innovatsiyaga emas, balki katta hajmdagi quvvatlarni saqlashga sarflanadi. Bu Leibenstein tomonidan "X-samarasizlik"ning aniq misolidir.

Ushbu ilmiy maqolada 2010–2024 yillarda O'zbekistonning iqtisodiy sohalarini mahsuldorlik va investitsiya muvozanati uchun parametrik stoxastik chegara tahlili (SFA) va chorak modeli bilan batafsil tahlil qilinadi. Ekonometrik baholashlardan foydalanib, maqolaning asosiy gipotezasi — "Eng ko'p investitsiya oladigan sohalar eng samarali emas" — tasdiqlanadi. Investitsiyalarning chorak qismini tashkil etuvchi ishlab chiqarish sanoati uchun texnik samaradorlik atigi 25,27% ni tashkil etdi. Iqtisodiyotdagi umumiy o'rtacha texnik samaradorlik 34,77% ni tashkil etadi, bu esa iqtisodiyotning strukturaviy islohotlariga jiddiy ehtiyoj borligini anglatadi. Model diagnostikasi  $\gamma = 0,8928$  ko'rsatdi, bu sohalararo turg'unlik va nomutanosiblikning asosiy sababi menejerlar va texnologiyaning samarasizligi sifatida qabul qilinadi. Shuni inobatga olish kerakki, investitsiyalarni

texnik samaradorlik past ammo strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sohalaridan mutlaqo boshqasiga olib o‘tish emas, balki investitsiyani avval samaradorlik potensialini oshirishga va keyinchalik effektiv tarmoqlar infratuzilmasiga yo‘naltirilsa maqsadga muvofiq degan fikr ilgari surilmoqda. Keng qamrovli investitsiya modelidan intensiv, samaradorlikka asoslangan rivojlanish modeliga o‘tish, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shish kelajagini ta‘minlash.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining yangi sanoat va investitsiya strategiyalari uchun quyidagi siyosat tavsiyalari beriladi:

Investitsiya aralashuvi mezonlarini o‘zgartirish: Hukumat SFA mezonlaridan kelib chiqib, texnik samaradorlikning istiqbolli o‘lchovlarini hisobga olishi kerak (Infratuzilma va Sanoat). Mezonlar boshqa o‘lchovlarga xosdir: Investitsiya dasturlarini rejalashtirishda (Infratuzilma va Sanoat dasturlari) loyihalarning hajmi yoki miqyosi bilan emas, balki SFA mezonlariga ko‘ra umumiy iqtisodiy natijadorlik va amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Samaradorligi 25% dan past bo‘lgan yirik ishlab chiqarish sohalariga kapitalning davomli kiritilishi iqtisodiy resurslarning isrofidir.

Sanoatda "Sifat va Texnologiyalar" darajasini audit qilish: Ishlab chiqarish va konchilik faoliyatlarida investitsiya texnologiyalarining innovatsion darajasini baholash muhimdir. Va subsidiyalar/soliq imtiyozlari faqat samaradorlikni oshiradigan (TE) va raqobatbardosh YQQ yaratadigan korxonalar uchun kengaytirilishi kerak.

Yashirin drayverlarni qo‘llab-quvvatlash: 3-chorak guruh tahlilida qayd etilgan yuqori samaradorlik sohalariga (Moliyaviy, Turizm, Xizmatlar) investitsiya cheklovlari yumshatilishi kerak va kapital oqimi uchun sun‘iy to‘siqlarning yo‘qligini ta‘minlash uchun infratuzilma sharoitlari yaratilishi kerak.

Ushbu ilmiy maqolada 2010–2024 yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy sohalarini mahsuldorlik va investitsiya muvozanati uchun parametrik stoxastik chegara tahlili (SFA) va chorak modeli bilan batafsil tahlil qilinadi. Ekonometrik baholashlardan foydalanib, maqolaning asosiy gipotezasi — "Eng ko‘p investitsiya oladigan sohalar eng samarali emas" — tasdiqlanadi. Investitsiyalarning chorak qismini tashkil etuvchi ishlab chiqarish sanoati uchun texnik samaradorlik atigi 25,27% ni tashkil etdi. Iqtisodiyotdagi umumiy o‘rtacha texnik samaradorlik 34,77% ni tashkil etadi, bu esa iqtisodiyotning strukturaviy islohotlariga jiddiy ehtiyoj borligini anglatadi. Model diagnostikasi  $\gamma = 0,8928$  ko‘rsatdi, bu sohalararo turg‘unlik va nomutanositlikning asosiy sababi menejerlar va texnologiyaning samarasizligi sifatida qabul qilinadi. Keng qamrovli investitsiya modelidan intensiv, samaradorlikka asoslangan rivojlanish modeliga o‘tish, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shish kelajagini ta‘minlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Aigner, D., Lovell, C. A. K., & Schmidt, P. (1977). Formulation and estimation of stochastic frontier production function models. *Journal of Econometrics*, 6(1), 21-37.
2. Battese, G. E., & Coelli, T. J. (1995). A model for technical inefficiency effects in a stochastic frontier production function for panel data. *Empirical Economics*, 20(2), 325-332.
3. Farrell, M. J. (1957). The measurement of productive efficiency. *Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General)*, 120(3), 253-281.
4. Leibenstein, H. (1966). Allocative efficiency vs. "X-efficiency". *American Economic Review*, 56(3), 392-415.
5. Meeusen, W., & van den Broeck, J. (1977). Efficiency estimation from Cobb-Douglas production functions with composed error. *International Economic Review*, 435-444.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma‘lumotlari (2010-2024).

**IQTISODIY O‘SISHNING INFRATUZILMAVIY OMILLARINING TA’SIR  
MEXANIZMLARINI BAHOLASH**

**ОЦЕНКА МЕХАНИЗМОВ ВЛИЯНИЯ ИНФРАСТРУКТУРНЫХ ФАКТОРОВ НА  
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ**

**ASSESSMENT OF THE MECHANISMS OF INFLUENCE OF INFRASTRUCTURAL  
FACTORS ON ECONOMIC GROWTH**

**Safarova Yulduz Abbos qizi**  
O‘zMU talabasi

**Ilmiy rahbar: Normurodov X. E.** O‘zMU katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu ishda O‘zbekiston Respublikasida infratuzilma tarmoqlarining iqtisodiy o‘shishga ta’sir mexanizmlari alohida infratuzilmaviy omillar va ularning muayyan kombinatsiyalar kesimida tadqiq etilgan. Maqolada cheklangan davlat investitsiyalarini optimal infratuzilma kombinatsiyalariga taqsimlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ARDL, infratuzilma kombinatsiyalari, transport, energetika, raqamli aloqa, ARDL modeli, ADJ, kointegratsiya.

В данной работе исследуются механизмы влияния инфраструктурных сетей на экономический рост в Республике Узбекистан с точки зрения отдельных инфраструктурных факторов и их специфических комбинаций. В статье разработаны практические предложения и рекомендации по распределению ограниченных государственных инвестиций в оптимальные инфраструктурные комбинации.

**Ключевые слова:** ARDL, инфраструктурные комбинации, транспорт, энергетика, цифровые коммуникации, модель ARDL, ADJ, коинтеграция.

This work studies the mechanisms of the impact of infrastructure networks on economic growth in the Republic of Uzbekistan in terms of individual infrastructure factors and their specific combinations. The article develops practical proposals and recommendations for the allocation of limited state investments into optimal infrastructure combinations.

**Keywords:** ARDL, infrastructure combinations, transport, energy, digital communications, ARDL model, ADJ, cointegration.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholi farovonligini va iqtisodiyotning umumiy salohiyatini ko‘rsatib beruvchi eng muhim makroiqtisodiy indikator bu — Yalpi Ichki Mahsulot (YalM) hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tarkibiy islohotlar, bozor institutlarini erkinlashtirish va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash natijasida milliy iqtisodiyot barqaror o‘shish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Bunday ulkan makroiqtisodiy marralarga erishish va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini uzoq muddatda barqaror saqlab qolish nafaqat real sektor tarmoqlarini jadal rivojlantirish, balki ularning faoliyatini harakatlantiruvchi hamda uzviy bog‘lovchi ishlab chiqarish va raqamli infratuzilmani kompleks modernizatsiya qilishni talab etadi. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda transport-logistika tarmoqlari, energetika tizimi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, xususiyl sektor investitsiyalari uchun turtki berish va resurslar samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy multiplikator vazifasini o‘taydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmonida infratuzilmaviy drayverlarga alohida urg‘u berilgan. Xususan, raqamli infratuzilmani kengaytirish orqali raqamli iqtisodiyot ulushini YaIMda bir necha barobar oshirish, barcha aholi punktlarini yuqori tezlikdagi internet bilan ta‘minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bilan birga, Prezident farmonlarida energetika xavfsizligini ta‘minlash va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yo‘qotishlarni kamaytirish hamda transport-tranzit salohiyatini tubdan oshirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi fundamental poydevor ekanligi qat’iy ko‘rsatib o‘tilgan.

Biroq, an‘anaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ko‘pincha bitta infratuzilma tarmog‘ining (masalan, faqatgina yo‘llar uzunligi yoki faqatgina elektr energiyasi ishlab chiqarishning) YaIMga ta‘siri alohida-alohida va statik modellar doirasida baholanadi. Amaliyotda esa iqtisodiyot tarmoqlari infratuzilma elementlaridan yakka tartibda emas, balki ularning o‘zaro bog‘liq kombinatsiyalaridan foydalanadi. Cheklangan davlat investitsiyalari va moliyaviy resurslar sharoitida, qaysi infratuzilma kombinatsiyasiga resurs ajratish qisqa, o‘rta yoki uzoq muddatda eng yuqori iqtisodiy samara berishini aniqlash dolzarb ilmiy va amaliy vazifadir. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va adabiyotlardagi bo‘shliqni to‘ldiruvchi jihati shundan iboratki, unda ilk bor O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida transport, energetika va raqamli aloqa infratuzilmalari alohida emas, balki muayyan optimal to‘plamlar ko‘rinishida modellashtirishdi. 2010–2024-yillarning statistik ma‘lumotlarini temporal interpolatsiya qilish orqali olingan yuqori dinamik qatorlar asosida ARDL metodologiyasi qo‘llanildi. Bu esa Prezident qarorlarida belgilangan strategik infratuzilma kombinatsiyalarining qisqa muddatli tezkor elastikligi hamda uzoq muddatli tizimli barqarorlikka ta‘sirini chuqur va miqdoriy tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish va raqamli infratuzilma kombinatsiyalarini baholash va ular orasidan qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda YaIM o‘shishini maksimal darajada ta‘minlovchi optimal kombinatsiyani ekonometrik modellashtirish orqali aniqlashdan iborat.

Infratuzilmaning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri masalasi zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining markaziy mavzularidan biri hisoblanadi.

Ilk fundamental tadqiqotlarda infratuzilma investitsiyalari va iqtisodiy unumdorlik o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiya Aschauer [7] tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, u davlat infratuzilma xarajatlarining xususiy kapital unumdorligini oshiruvchi "eksternalite" ta‘sirini isbotlagan. Barro [2] esa o‘zining endogen o‘shish nazariyasida davlat xarajatlarini (infratuzilmani o‘z ichiga olgan holda) iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri sifatida kiritgan. Ushbu nazariyalarga ko‘ra, infratuzilma xarajatlari tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish orqali ishlab chiqarish funksiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar infratuzilma tarmoqlarini alohida emas, balki birgalikda o‘rganish zarurligini ta‘kidlamoqda. Calderon va Serven [6] kabi mualliflar infratuzilma sifatining iqtisodiy o‘shishga ta‘siri tarmoqlararo sinergiya effekti bilan bog‘liqligini ko‘rsatishgan. Biroq, mavjud adabiyotlarda infratuzilmaning tarmoqlararo (transport, energetika va AKT) kombinatsiyasini iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini kombinatsiya sifatida baholash bo‘yicha empirik izlanishlar yetarli emas. Bizning tadqiqotimiz aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan: an‘anaviy va raqamli infratuzilmalarning birlashgan ta‘sirini baholash orqali qaysi "infratuzilma paketi" O‘zbekiston uchun yuqori multiplikator effektiga ega ekanligini aniqlash.

Empirik izlanishlarda ilgari ko‘pincha statik regressiya modellari (OLS) qo‘llanilgan bo‘lsa-da, so‘nggi davr tadqiqotlari vaqtli qatorlarning dinamik xususiyatlarini hisobga olishni talab etmoqda. Pesaran va boshqalar [5] tomonidan ishlab chiqilgan ARDL metodologiyasi infratuzilma investitsiyalari kabi sekin ta‘sir qiluvchi omillarning qisqa va uzoq muddatli ta‘sirini ajratib ko‘rsatishda eng samarali vosita hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida temporal interpolatsiya usuli orqali olingan yuqori chastotali ma‘lumotlar bazasi asosida ARDL modelini qo‘llash, bizga infratuzilma shoklarining tizimga ta‘sirini va muvozanatga qaytish tezligini aniqroq baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2010–2024-yillardagi rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi. Makroiqtisodiy jarayonlarning choraklik dinamikasini va infratuzilmaviy shoklarning qisqa muddatli ta’sir mexanizmlarini yuqori aniqlikda baholash maqsadida, yillik ma’lumotlar temporal interpolyatsiya usuli yordamida 60 ta choraklik kuzatuvdan iborat ma’lumotlar bazasiga o‘tkazildi. Stata dasturiy paketida ma’lumotlarni kengaytirish hamda vaqt seriyalarini xronologik tartiblash orqali dinamik qatorlarning izchilligi ta’minlandi.

Tadqiqotning bazaviy funksional chiziqli modeli quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\ln Y_t = \beta_0 + \beta_1 \ln \text{Transt} + \beta_2 \ln \text{Energt} + \beta_3 \ln \text{Comm} + \varepsilon_t$$

Bunda:

- $\ln Y_t$  — Yalpi Ichki Mahsulotning (YaIM) logarifmlagan qiymati;
- $\ln \text{Transt}$  — transport infratuzilmasi ko‘rsatkichlarining logarifmlagan qiymati;
- $\ln \text{Energt}$  — energetika infratuzilmasi ko‘rsatkichlarining logarifmlagan qiymati;
- $\ln \text{Comm}$  — aloqa va raqamli infratuzilma ko‘rsatkichlarining logarifmlagan qiymati;
- $\beta_0$  — ozod had (konstanta);
- $\beta_1, \beta_2, \beta_3$  — mos ravishda infratuzilma tarmoqlarining YaIM o‘lishiga nisbatan uzoq muddatli elastiklik koeffitsiyentlari;
- $\varepsilon_t$  — tasodifiy xatolik.

$$\Delta \ln Y_t = \alpha_0 + \sum_{i=1}^p \psi_i \Delta \ln Y_{t-i} + \sum_{j=0}^{q_1} \theta_j \Delta \ln \text{Trans}_{t-j} + \sum_{j=0}^{q_2} \gamma_j \Delta \ln \text{Energt}_{t-j} + \sum_{j=0}^{q_3} \lambda_j \Delta \ln \text{Comm}_{t-j} + \phi ECT_{t-1} + \mu_t$$

Bunda:


- $\Delta$  — birinchi tartibli farq operatori;
- $p, q_1, q_2, q_3$  — modelning optimal lag chuqurligi;
- $\psi, \theta, \gamma, \lambda$  — qisqa muddatli dinamikani ifodalovchi koeffitsiyentlar;
- $ECT_{t-1}$  — Xatolarni tuzatish hadi (Error Correction Term). U uzoq muddatli muvozanat modelidan olingan qoldiqlar bo‘lib, tizimning muvozanatga qaytish mexanizmini ko‘rsatadi;
- $\phi$  — Tizimning o‘zini o‘zi tiklash tezligi koeffitsiyenti.

Gauss-Markov teoremasining barqarorlik shartiga ko‘ra, ushbu koeffitsiyent manfiy ishoraga ega va statistik jihatdan ahamiyatli ( $p < 0.05$ ) bo‘lishi lozim.

Ushbu metodologik yondashuv an’anaviy infratuzilma (Transport va Energetika) hamda zamonaviy infratuzilma (Aloqa/AKT) tarmoqlarini 3 ta alohida kombinatsiya ko‘rinishida baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida Yalpi Ichki Mahsulot shakllanishining umumiy tendensiyalarini o‘rganish maqsadida, birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi o‘shish dinamikasi ko‘rib chiqildi (1-rasm).

1-rasmda yaqqol ko‘rinib turganidek, 2010–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasining Yalpi Ichki Mahsuloti izchil va shiddatli ravishda ortib borgan. Grafikda aks etgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu davr mobaynida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitining yaxshilanishi va tashqi savdo aloqalarining kengayishi iqtisodiyotning yalpi hajmini keskin o‘stirishga xizmat qilgan.



**1-rasm.** Yalpi ichki mahsulot hajmi (xarajatlar usulida, joriy narxlarda, yillik, mlrd so‘m).  
Manba. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytida berilgan ma’lumotlar asosida shakllantirildi.

Makroiqtisodiy nazariyaga ko‘ra, YaIM hajmining bunday barqaror sur‘atlarda o‘shishi uning tarkibiy drayverlari bo‘lmish ishlab chiqarish va raqamli infratuzilma omillarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, oddiy chiziqli regressiya modellaridan farqli ravishda, infratuzilma tarmoqlarining (transport, energetika va aloqa) YaIM o‘shishiga dinamik ta’sirini hamda tarmoqlararo sinergiya effektini chuqur baholash maqsadida empirik tahlillar ARDL modeli doirasida amalga oshirildi. Ortiqcha takrorlanishlarning oldini olish uchun tahlillar o‘zaro kombinatsiyalangan uchta alohida portfel kesimida bosqichma-bosqich taqdim etiladi.

Sample: 2011q1 thru 2025q4

Number of obs = 60  
R-squared = 0.8183  
Adj R-squared = 0.7812  
Root MSE = 0.0049

Log likelihood = 240.32768

|            | D.lnY | Coefficient | Std. err. | t     | P> t  | [95% conf. interval] |          |
|------------|-------|-------------|-----------|-------|-------|----------------------|----------|
| <b>ADJ</b> |       |             |           |       |       |                      |          |
| lnY        |       |             |           |       |       |                      |          |
| L1.        |       | -.0170645   | .0111471  | -1.53 | 0.132 | -.0394655            | .0053365 |
| <b>LR</b>  |       |             |           |       |       |                      |          |
| lnTrans    |       | 1.991111    | .5815693  | 3.42  | 0.001 | .822404              | 3.159819 |
| lnEnerg    |       | -5.432551   | 3.268045  | -1.66 | 0.103 | -11.99993            | 1.134832 |
| <b>SR</b>  |       |             |           |       |       |                      |          |
| lnY        |       |             |           |       |       |                      |          |
| LD.        |       | .6575936    | .1005442  | 6.54  | 0.000 | .4555425             | .8596448 |
| lnTrans    |       |             |           |       |       |                      |          |
| D1.        |       | .3324098    | .0456591  | 7.28  | 0.000 | .2406543             | .4241653 |
| LD.        |       | -.2039274   | .0579467  | -3.52 | 0.001 | -.3203757            | -.087479 |
| lnEnerg    |       |             |           |       |       |                      |          |
| D1.        |       | .4288694    | .3353499  | 1.28  | 0.207 | -.2450414            | 1.10278  |
| LD.        |       | -.1928258   | .4064547  | -0.47 | 0.637 | -1.009627            | .6239756 |
| L2D.       |       | .0827616    | .4029191  | 0.21  | 0.838 | -.7269346            | .8924578 |
| L3D.       |       | .1652473    | .337495   | 0.49  | 0.627 | -.5129743            | .8434689 |
| _cons      |       | .8887583    | .3224303  | 2.76  | 0.008 | .2408103             | 1.536706 |

**1-kombinatsiya: Transport va energetika**

Ushbu bosqichda faqatgina an’anaviy ishlab chiqarish infratuzilmalari hisoblangan transport va energetika tarmoqlarining o‘zaro kombinatsiyalangan effekti ARDL modeli orqali baholandi. Modelning umumiy determinatsiya koeffitsiyenti

( $R^2 = 0.8183$ ) yuqori darajada bo‘lib, o‘rganilayotgan choraklik ma’lumotlar bazasining 81.8% qismi ushbu model yordamida ishonchli tushuntirilishini ko‘rsatadi.

Uzoq muddatli muvozanatdan og‘ishlarni to‘g‘rilash tezligini ko‘rsatuvchi xatolarni tuzatish koeffitsiyenti (L1.) -0.0170 darajasida aniqlandi. Biroq, ushbu koeffitsiyentning ehtimollik darajasi yuqori ( $p = 0.132 > 0.05$ ) bo‘lganligi sababli, u statistik jihatdan ahamiyatsiz hisoblanadi. Bu esa logistika va energetika infratuzilmalari alohida olinganda, raqamli drayverlarsiz iqtisodiyotda tashqi shoklardan so‘ng uzoq muddatli avtomatik barqarorlik mexanizmini to‘liq shakllantira olmasligini ko‘rsatadi.

Uzoq muddatli istiqbolda transport infratuzilmasi (lnTrans) YaIM o‘rishini ta’minlovchi eng kuchli fundamental omil bo‘lib chiqdi. Uning koeffitsiyenti 1.9911 ga teng bo‘lib, 1% lik ishonchlilik darajasida yuqori statistik ahamiyatga ega ( $p = 0.001$ ). Aksincha, energetika infratuzilmasi (lnEnerg) uzoq muddatda salbiy koeffitsiyent ( $\beta = -5.4325$ ) namoyon etdi va statistik jihatdan ahamiyatsizlik chegarasida ( $p = 0.103$ ) shakllandi.

Qisqa muddatli koeffitsiyentlar tahlili transport tizimidagi o‘zgarishlarning (Delta\lnTrans D1.) zudlik bilan ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, transport infratuzilmasining joriy chorakdagi 1% lik o‘rishi YaIM hajmini 0.3324% ga oshiradi ( $p = 0.000$ ). Energetika omilining esa joriy va laglangan davrlardagi (D1, LD, L2D, L3D) qisqa muddatli shoklari YaIMga statistik jihatdan sezilarli ta’sir o‘tkazmagani aniqlandi ( $p > 0.05$ ).

```
. ardl lnY lnTrans lnComm, aic ec
```

ARDL(2,2,4) regression

Sample: 2011q1 thru 2025q4

Number of obs = 60

R-squared = 0.8466

Adj R-squared = 0.8153

Root MSE = 0.0045

Log likelihood = 245.41115

| D.lnY      | Coefficient | Std. err. | t     | P> t  | [95% conf. interval] |           |
|------------|-------------|-----------|-------|-------|----------------------|-----------|
| <b>ADJ</b> |             |           |       |       |                      |           |
| lnY        |             |           |       |       |                      |           |
| L1.        | -.0111098   | .0087979  | -1.26 | 0.213 | -.0287898            | .0065702  |
| <b>LR</b>  |             |           |       |       |                      |           |
| lnTrans    | 4.44359     | 2.712394  | 1.64  | 0.108 | -1.007169            | 9.894349  |
| lnComm     | -2.804364   | 2.256187  | -1.24 | 0.220 | -7.338341            | 1.729612  |
| <b>SR</b>  |             |           |       |       |                      |           |
| lnY        |             |           |       |       |                      |           |
| LD.        | .6717448    | .0895152  | 7.50  | 0.000 | .4918572             | .8516323  |
| lnTrans    |             |           |       |       |                      |           |
| D1.        | .2632868    | .0457984  | 5.75  | 0.000 | .1712515             | .3553222  |
| LD.        | -.2218741   | .0528678  | -4.20 | 0.000 | -.3281159            | -.1156324 |
| lnComm     |             |           |       |       |                      |           |
| D1.        | .1086504    | .0427613  | 2.54  | 0.014 | .0227183             | .1945824  |
| LD.        | -.0325809   | .0519899  | -0.63 | 0.534 | -.1370585            | .0718968  |
| L2D.       | .0199893    | .0487453  | 0.41  | 0.684 | -.077968             | .1179465  |
| L3D.       | .1158802    | .0448699  | 2.58  | 0.013 | .0257108             | .2060496  |
| _cons      | -.0941475   | .0445981  | -2.11 | 0.040 | -.1837707            | -.0045243 |

## 2-kombinatsiya: Logistika va raqamlashtirish infratuzilmasi (Transport+Aloqa)

Mazkur bosqichda transport va aloqa infratuzilmalari kombinatsiyasining iqtisodiy o‘rishga ta’siri ARDL modeli doirasida baholandi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2 = 0.8466$ )

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

oldingi modelga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi, ya’ni o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning 84.6% qismi mazkur portfel bilan izohlanadi.

Xatolarni tuzatish koeffitsiyenti (L1.) -0.0111 ga teng bo‘lib, statistik jihatdan mutlaqo ahamiyatsiz ( $p = 0.213 > 0.05$ ) bo‘lib chiqdi. Bu shuni anglatadiki, model tarkibidan energetika infratuzilmasi chiqarib tashlanganda, faqatgina transport va raqamlashtirish omillari uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlik va muvozanatni tiklash mexanizmini yarata olmaydi.

Energetika omilining yo‘qligi uzoq muddatli koeffitsiyentlarning ham zaiflashuviga olib keldi. Transport (lnTrans\$,  $\beta = 4.4435$ ) va aloqa (lnComm,  $\beta = -2.8043$ ) infratuzilmalarining uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatkichlari statistik jihatdan ishonchsiz va ahamiyatsiz bo‘lib shakllandi ( $p > 0.10$ ).

Uzoq muddatli sustlikdan farqli o‘laroq, qisqa muddatli istiqbolda raqamli va logistika drayverlari juda yuqori dinamikani namoyon etdi. Transport infratuzilmasining joriy chorakdagi samarasi (Delta\lnTrans D1.) 0.2632 koeffitsiyent bilan yuqori statistik ahamiyatga ega ( $p = 0.000$ ). Eng diqqatga sazovor jihati, aloqa va AKT infratuzilmasining joriy chorakdagi ta’sir koeffitsiyenti (Delta\lnComm D1.) 0.1086 ga teng bo‘lib, 5% lik ishonchlik darajasida statistik ahamiyat kasb etdi ( $p = 0.014$ ). Shuningdek, uchinchi lagda ham (L3D.) aloqa omili ijobiy va ahamiyatli (0.1158,  $p = 0.013$ ) multiplikator effektini bergan.

| Log likelihood = 245.27974 |             |           |       |       | R-squared = 0.8459     |           |
|----------------------------|-------------|-----------|-------|-------|------------------------|-----------|
|                            |             |           |       |       | Adj R-squared = 0.8066 |           |
|                            |             |           |       |       | Root MSE = 0.0046      |           |
| D.lnY                      | Coefficient | Std. err. | t     | P> t  | [95% conf. interval]   |           |
| ADJ                        |             |           |       |       |                        |           |
| lnY<br>L1.                 | -.0219316   | .0104568  | -2.10 | 0.041 | -.0429679              | -.0008953 |
| LR                         |             |           |       |       |                        |           |
| lnTrans                    | .5828611    | .8143689  | 0.72  | 0.478 | -1.055438              | 2.22116   |
| lnEnerg                    | -10.04759   | 5.164041  | -1.95 | 0.058 | -20.4363               | .3411201  |
| lnComm                     | 1.823098    | 1.292752  | 1.41  | 0.165 | -.7775835              | 4.42378   |
| SR                         |             |           |       |       |                        |           |
| lnY                        |             |           |       |       |                        |           |
| LD.                        | .4956749    | .1330687  | 3.72  | 0.001 | .2279753               | .7633745  |
| L2D.                       | .0521889    | .0967592  | 0.54  | 0.592 | -.1424654              | .2468433  |
| lnTrans                    |             |           |       |       |                        |           |
| D1.                        | .2921029    | .0458372  | 6.37  | 0.000 | .1998904               | .3843154  |
| LD.                        | -.1642636   | .0597051  | -2.75 | 0.008 | -.2843747              | -.0441524 |
| lnEnerg                    |             |           |       |       |                        |           |
| D1.                        | .0955525    | .3359989  | 0.28  | 0.777 | -.58039                | .771495   |
| LD.                        | -.1429748   | .3848117  | -0.37 | 0.712 | -.917116               | .6311664  |
| L2D.                       | .29819      | .316021   | 0.94  | 0.350 | -.3375623              | .9339424  |
| lnComm                     |             |           |       |       |                        |           |
| D1.                        | .0471291    | .0421818  | 1.12  | 0.270 | -.0377297              | .131988   |
| _cons                      | 2.224344    | .8181683  | 2.72  | 0.009 | .5784019               | 3.870287  |

### Integratsiyalashgan kombinatsiya (Transport + Energetika + Aloqa)

Empirik tadqiqotning yakuniy bosqichida an’anaviy ishlab chiqarish infratuzilmalari (transport, energetika) hamda zamonaviy raqamli aloqa bir vaqtning o‘zida yaxlit kombinatsiya sifatida

modellashdirishdi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2 = 0.8459$ ) yuqori barqarorlikni qayd etib, tizimdagi choraklik tebranishlarning 84.6% qismi aynan ushbu integratsiyalashgan infratuzilma majmuasi bilan asoslanadi.

Ushbu modelning eng muhim ilmiy yangiligi xatolarni tuzatish mexanizmida namoyon bo‘ldi. Oldingi ikki kombinatsiyadan farqli ravishda, uchala omil birlashtirilganda muvozanatga qaytish koeffitsiyenti (L1.) -0.0219 ga teng bo‘ldi va 5% lik ishonchlilik darajasida statistik jihatdan yuqori ahamiyat kasb etdi ( $p = 0.041 < 0.05$ ). Bu shuni isbotlaydiki, faqatgina an’anaviy va raqamli infratuzilmalarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan to‘liq kombinatsiyasigina iqtisodiyotda tashqi makroiqtisodiy shoklardan so‘ng uzoq muddatli barqarorlik va kointegratsiya aloqalarini ishga tushiradi. Har chorakda tizimli og‘ishlarning qariyb 2.2% qismi uzoq muddatli muvozanatga qaytadi.

Uchala omil birgalikda o‘rganilganda, energetika infratuzilmasi (lnEnerg) uzoq muddatda -10.047 koeffitsiyent bilan 10% lik ahamiyatlilik darajasida ( $\beta = -10.0475$ ,  $p = 0.058$ ) barqarorlashdi. Aloqa va raqamli infratuzilma (lnComm) esa uzoq muddatda ijobiy elastiklik tendensiyasini namoyon etdi ( $\beta = 1.8230$ ,  $p = 0.165$ ).

Qisqa muddatli istiqbolda transport infratuzilmasi o‘zining yuqori multiplikatorlik funksiyasini saqlab qoldi. Uning joriy chorakdagi ta’siri (Delta lnTrans D1.) 0.2921 ga teng bo‘lib, 1% lik ishonchlilik darajasida yuqori statistik ahamiyatga ega ( $p = 0.000$ ). Shuningdek, modelning o‘z laglangan qiymati (Delta lnY LD.) ham joriy chorakda o‘shishning inersion xususiyatini ko‘rsatib, ijobiy va o‘ta ahamiyatli chiqdi (0.4956,  $p = 0.001$ ).

Uchala ekonometrik modelning qiyosiy tahlili O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator fundamental qonuniyatlarni ochib berdi. Birinchidan, transport infratuzilmasi barcha kombinatsiyalarda ham qisqa, ham uzoq muddatda iqtisodiy o‘shishni harakatlantiruvchi eng barqaror va tezkor multiplikator ekanligini isbotladi. Ikkinchidan, aloqa va raqamli infratuzilma investitsiya kiritilgan dastlabki choraklardayoq YaIM o‘shishiga yuqori elastiklik bilan javob qaytaruvchi eng operativ drayver hisoblanadi.

Biroq, tadqiqotning eng muhim ekonometrik xulosasi shundan iboratki, alohida olingan transport yoki raqamli infratuzilma kombinatsiyalari uzoq muddatli tizimli barqarorlikni ta’minlashda yetarli emas. Faqatgina an’anaviy ishlab chiqarish va zamonaviy raqamli infratuzilma tarmoqlarining o‘zaro integratsiyalashgan to‘liq kombinatsiyasigina (3-model) makroiqtisodiy tizimda tashqi shoklardan so‘ng uzoq muddatli kointegratsiya va o‘zini o‘zi tiklash mexanizmini ishga tushira oladi. Bu esa cheklangan davlat investitsiyalarini tarmoqlararo klister yondashuvi asosida, optimal to‘plam ko‘rinishida taqsimlash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasida infratuzilma tarmoqlarining YaIM shakllanishiga ta’sirini ekonometrik modellashdirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillar — transport, energetika va aloqa tarmoqlarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan sinergiya effektidir. Modellarning qiyosiy tahlili shuni isbotlaydiki, alohida olingan logistika yoki energetika loyihalari uzoq muddatli kointegratsiya aloqalarini hosil qila olmaydi, balki an’anaviy ishlab chiqarish omillari raqamli infratuzilma (aloqa) bilan integratsiyalashgan holda birlashtirilgandagina makroiqtisodiy tizimda tashqi shoklardan so‘ng uzoq muddatli avtomatik muvozanatga qaytish mexanizmi to‘liq ishga tushadi. Transport infratuzilmasining YaIMga ijobiy ta’siri barcha kombinatsiyalarda eng yuqori qisqa muddatli multiplikator samaradorligini ko‘rsatsa, raqamli aloqa tizimlari investitsiya kiritilgan dastlabki choraklardayoq iqtisodiyotga eng tez moslashuvchi operativ omil ekanligini namoyon etadi.

Kelgusida barqaror o‘shishni saqlab qolish uchun davlat investitsiya siyosatida mablag‘larni tarmoqlarga alohida-alohida taqsimlash amaliyotidan voz kechib, ularni o‘zaro muvofiqlashtirilgan yaxlit portfel ko‘rinishida yo‘naltirish lozim. Tranzit va logistika loyihalarini rivojlantirish dasturlari "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq ravishda intellektual va raqamli platformalar bilan sinergiya qilinishi, energetika sohasidagi uzoq muddatli yo‘qotishlarni kamaytirish uchun esa tizimga yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi raqamli energotejamkor texnologiyalarni ko‘proq jalb etish va bu borada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va yalpi ichki mahsulotning choraklik dinamikasi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar bazasi. – Elektron resurs: URL: <https://stat.uz>
2. Barro R. J. Economic Growth in a Cross Section of Countries // The Quarterly Journal of Economics. – 1991. – Vol. 106. – No. 2. – pp. 407-443.
3. Xodiyev B.Y., Mustafakulov Sh.V. Ekonometrik modellashtrish. Darslik. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019. – 320 b.
4. Mustafakulov Sh.V., Jafaza M.S. Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2021. – № 3. – 12-22-b.
5. Pesaran M. H., Shin Y., Smith R. J. Bounds testing approaches to the analysis of level relationships // Journal of Applied Econometrics. – 2001. – Vol. 16. – No. 3. – pp. 289-326.
6. Calderón, C., & Servén, L. (2010). Infrastructure and economic development: an overview. World Development, 38(11), 1587-1594.
7. Aschauer, D. A. (1989). Is public expenditure productive?. Journal of monetary economics, 23(2), 177-200.

**UDK: 339.5**

**MAMLAKAT MAKROIQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA EKSPORT VA IMPORTNING GEOGRAFIK DIVERSIFIKATSIYASINING AHAMIYATI**

**ВАЖНОСТЬ ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКСПОРТА И ИМПОРТА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ СТРАНЫ**

**THE IMPORTANCE OF GEOGRAPHICAL DIVERSIFICATION OF EXPORTS AND IMPORTS IN ENSURING THE COUNTRY’S MACROECONOMIC STABILITY**

**Eshqulova Nasiba Normo‘minovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi.

**Annotatsiya**

Maqolada mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashda tashqi savdo diversifikatsiyasining ahamiyati, 2015-2024-yillardagi tashqi savdo dinamikasi, eksport va importda TOP-5 hamkor mamlakatlar ulushi hamda logistika samaradorligi indeksi tahlil qilingan. Shuningdek, eksport va importning geografik diversifikatsiyaning darajasi Herfindahl-Hirschman (HHI) va Theil indeksleri asosida baholangan. Shu asosda tashqi savdo geografiyasini yanada kengaytirish, import manbalarini diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish va transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar.** Makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi savdo, geografik diversifikatsiya, Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI), Theil indeksi, tashqi savdo konsentratsiyasi, logistika samaradorligi, UN Comtrade, tashqi iqtisodiy xavflar.

В статье исследована роль диверсификации внешней торговли в обеспечении макроэкономической стабильности страны. Проанализированы динамика внешней торговли за 2015-2024 годы, доля пяти крупнейших стран-партнёров в экспорте и импорте, а также индекс эффективности логистики. Кроме того, уровень географической диверсификации экспорта и импорта оценён с использованием индексов Herfindahl-Hirschman (HHI) и Theil. На

основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по дальнейшему расширению географии внешней торговли, диверсификации источников импорта, стимулированию экспорта продукции с высокой добавленной стоимостью и совершенствованию транспортно-логистической инфраструктуры.

**Ключевые слова.** Макроэкономическая стабильность, внешняя торговля, географическая диверсификация, индекс Херфиндаля-Хиршмана (HHI), индекс Тейла, концентрация внешней торговли, эффективность логистики, UN Comtrade, внешнеэкономические риски.

This article examines the importance of foreign trade diversification in ensuring macroeconomic stability. It analyzes the dynamics of Uzbekistan's foreign trade during 2015-2024, the share of the top five trading partners in exports and imports, and the Logistics Performance Index (LPI). In addition, the degree of geographical diversification of exports and imports is assessed using the Herfindahl-Hirschman Index (HHI) and the Theil Index. Based on the findings, practical recommendations are proposed to expand the geographical coverage of foreign trade, diversify import sources, promote the export of high value-added products, and improve transport and logistics infrastructure.

**Keywords.** Macroeconomic stability; foreign trade; geographical diversification; Herfindahl-Hirschman Index (HHI); Theil Index; trade concentration; logistics performance; UN Comtrade; external economic risks.

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Eksport va import xalqaro mehnat taqsimotida ishtirokni kengaytirib, resurslardan samarali foydalanish, texnologiyalar transferi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Biroq tashqi savdo samaradorligi nafaqat uning hajmiga, balki hamkor mamlakatlar geografiyasining diversifikatsiya darajasiga ham bog'liq. Eksport va importning cheklangan davlatlarda jamlanishi tashqi shoklarga sezgirlikni kuchaytirsa, geografik diversifikatsiya iqtisodiy xavflarni kamaytirib, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

2025-yilda Xitoy (3 771,8 mlrd AQSH dollari), AQSH (2 185,2 mlrd AQSH dollari) va Germaniya (1 764,2 mlrd AQSH dollari) jahonning yetakchi eksportchilari bo'lib, ularning muvaffaqiyati ishlab chiqarish salohiyati bilan birga eksport bozorlarining keng geografiyasi va global qiymat zanjirlaridagi faol ishtiroki bilan izohlanadi [1]. So'nggi yillarda pandemiya, geosiyosiy ziddiyatlar va logistika uzilishlari tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilishning strategik ahamiyatini yanada oshirdi. Diversifikatsiya tashqi talabdagi o'zgarishlar ta'sirini kamaytirib, ta'minot zanjirlari barqarorligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ham tashqi savdo geografiyasini kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-27-son Farmonida 2030-yilgacha eksport hajmini kamida 15 foizga oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga chuqur integratsiyalashish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2].

Mazkur tadqiqotning maqsadi eksport va importning geografik diversifikatsiyasi mamlakat makroiqtisodiy barqarorligiga ta'sirini baholash hamda tashqi savdo hamkorlarini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy mexanizmlarini asoslab berishdan iborat.

Ilmiy tadqiqotlarda tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining tashqi shoklarga chidamliligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

B. Shepherd eksportning geografik diversifikatsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarga tashqi talabdagi o'zgarishlar va iqtisodiy shoklar ta'sirini kamaytirish imkonini berishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, eksport bozorlari geografiyasini kengaytirish tashqi savdo barqarorligini oshiradi, eksport hajmining barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlaydi hamda mamlakat iqtisodiyotining tashqi xavflarga chidamliligini kuchaytiradi [3]. J. Imbs va R. Wacziarg fikricha, iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida mahsulot va bozorlar diversifikatsiyasi kuchayadi, keyingi


bosqichlarda esa ixtisoslashuv tendensiyasi shakllanadi. Diversifikatsiya iqtisodiy o‘shish va tashqi barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi [4].

O.Cadot, C.Carrère va V.S.Kahn fikricha, eksport diversifikatsiyasi mahsulot va bozorlar turining kengayishi hisobiga shakllanadi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi mahsulotlar va tashqi bozorlarni o‘zlashtirish barqaror eksport o‘shishining muhim manbai hisoblanadi[5]. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. eksport tarkibining sifati va diversifikatsiya darajasi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini belgilashini asoslagan. Mualliflar yuqori qo‘shilgan qiymatli va turli bozorlarga yo‘naltirilgan eksport barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilishini qayd etadilar[6].

B. Klinger Bailey Klinger eksport diversifikatsiyasi yangi mahsulotlar va yangi tashqi bozorlarni kashf etish bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, eksport yo‘nalishlarini kengaytirish mamlakatlarning raqobatbardoshligini va tashqi savdo barqarorligini oshiradi[7]. Tashqi savdo, eksport raqobatbardoshligi va makroiqtisodiy barqarorlik masalalari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, Sh. Otamurodov [8]., A.Vahabov, D. Tadjibayeva, Sh. Xajibakiyev [9], F. Yusupov [10]. va L. Mingishov [11], B.Mamatovlar [12] eksport geografiasini diversifikatsiyalash orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash masalalariga e‘tibor qaratishgan.


Tadqiqotda O‘zbekiston tashqi savdosining rivojlanish holati xalqaro va milliy statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilindi. Xususan, Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) standartlariga muvofiq mahsulot guruhlarida kesimida tashqi savdo hajmi va tarkibidagi dinamik o‘zgarishlar baholandi. Eksport va importning geografik diversifikatsiyasi BMTning UN Comtrade ma‘lumotlar bazasidagi HS 6 raqamli tovar klassifikatsiyasi ma‘lumotlari asosida o‘rganildi. Geografik konsentratsiya va diversifikatsiya darajasini baholashda Herfindahl-Hirschman (HHI) va Theil indekslaridan foydalanildi. Shuningdek, 2015-2024 yillarda tashqi savdodagi TOP-5 hamkor mamlakatlar ulushi hamda Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksi (Logistics Performance Index — LPI) ko‘rsatkichlari qiyosiy va statistik tahlil usullari asosida tahlil qilindi.

Tashqi savdo diversifikatsiyasining muhim jihatlaridan biri geografik diversifikatsiya bo‘lib, u eksport va importni turli mamlakatlar hamda bozorlar o‘rtasida taqsimlashni anglatadi. Geografik diversifikatsiya ayrim hamkor davlatlarga qaramlikni kamaytirib, tashqi savdo va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. So‘nggi o‘n yil davomida O‘zbekiston tashqi savdo hajmi ortgan bo‘lsa-da, importning o‘shish sur‘ati eksportga nisbatan yuqori suratlarda saqlanib kelmoqda. Jumladan, eksport hajmi 2015-yilga nisbatan 3,6 barobarga ko‘payib, 9,4 mlrd AQSH dollaridan 33,8 mlrd AQSH dollariga, import esa 4,1 barobarga o‘shib, 11,5 mlrd AQSH dollaridan 47,4 mlrd AQSH dollariga yetgan. Importning eksportga nisbatan tezroq o‘shishi tashqi savdo saldosining manfiyligini oshirdi. Bu esa eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar hajmini oshirish tashqi savdo barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi (1-rasm).



**1-rasm. Tashqi savdo dinamikasi (xizmatlarsiz) (2015-2025) [13]**

O‘zbekiston tashqi savdo geografiyasining kengayishi bilan bir vaqtda uning tarkibida ham muhim o‘zgarishlar bo‘ldi. 2015-2024 yillarda O‘zbekiston tashqi savdosining geografiyasi sezilarli darajada kengaydi va yangi savdo hamkorlari bilan iqtisodiy aloqalar faollashdi. Biroq tashqi savdo geografiyasining kengayishiga qaramasdan, tashqi savdo aylanmasining 50 foizdan ortig‘i hanuzgacha atigi beshta davlat, ya‘ni Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Janubiy Koreya hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Eksport va import alohida tahlil qilinganda esa, ularning diversifikatsiya darajasida sezilarli farq mavjudligi kuzatiladi (3-rasm).



**2-rasm. Eksport va importda TOP-5 mamlakatlarning ulushi. 2015-2024 yy. (jamiga nisbatan % da ) [13]**

Xususan, eksportda TOP-5 mamlakatlar ulushi 2015-yildagi 59 foizdan 2024-yilda 35,9 foizgacha kamaygani eksport geografiyasi kengayib, yangi bozorlar o‘zlashtirilayotganini ko‘rsatadi. Aksincha, ushbu davrda importda TOP-5 mamlakatlar ulushi esa 60-66 foiz bo‘lib, 2024-yilda 63,6 foizni tashkil etgan. Bu importning asosan cheklangan doiradagi mamlakatlarga bog‘liqligini anglatadi. Demak, tashqi savdo geografiyasida ijobiy siljishlar kuzatilsa-da, import hamkorlarini diversifikatsiya qilish tashqi xavflarni kamaytirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi

Tadqiqotimiz davomida 2015-2024 yillarda O‘zbekiston tashqi savdoning geografik diversifikatsiyasi darajasini aniqlash maqsadida BMTning UN Comtrade ma‘lumotlar bazasidagi HS 6 raqamli tovar klassifikatsiyasi ma‘lumotlari asosida Herfindahl-Hirschman (HHI) [14] va Theil [15] indeksleri hisoblandi.

HHI indeksi eksport va importning hamkor mamlakatlar bo‘yicha konsentratsiya darajasini ularning tashqi savdodagi ulushlari kvadratlari yig‘indisi orqali baholaydi (1-formula) [1].

$$HHI = \sum_{i=1}^N s_i^2$$

Bu yerda,  $s_i$  — muayyan tovarning umumiy eksport yoki import hajmidagi ulushi,  $N$  - esa tahlil qilinayotgan savdo hamkorlari) soni.

Indeks qiymati oshishi tashqi savdoning cheklangan sondagi mamlakatlarga yuqori darajada jamlanganligini, qiymatining pasayishi esa savdo hamkorlari geografiyasining kengayib, diversifikatsiya darajasi oshganligini anglatadi.

Theil indeksi esa tashqi savdo oqimlarining mamlakatlar o‘rtasida taqsimlanishidagi nomutanosiblikni baholab, geografik konsentratsiya darajasini aniqlash imkonini beradi. Indeks qiymatining yuqori bo‘lishi tashqi savdoning ayrim mamlakatlarga yuqori darajada bog‘liqligini, past bo‘lishi esa eksport va importning kengroq hamkor mamlakatlar o‘rtasida taqsimlanganligini ko‘rsatadi (2-formula)[2].

$$T = \sum_{i=1}^N S_i \ln(S_i N)$$

$S_i$ – muayyan tovarning eksport yoki import tarkibidagi ulushi,  $N$  -tovarlar soni,  $\ln$  — natural logarifm.

Mazkur indekslar tashqi savdo geografiyasidagi tarkibiy o‘zgarishlarni, savdo hamkorlari tarkibining diversifikatsiya darajasini hamda tashqi bozorlarga qaramlikning o‘zgarishini kompleks baholash imkonini beradi. Bu esa mamlakat tashqi savdosining tashqi iqtisodiy shoklarga chidamliligi va makroiqtisodiy barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar HHI indeksi bo‘yicha eksportda konsentratsiya darajasi 2015-yildagi 0,162 dan 2023-yilda 0,231 gacha oshganligini, ayrim yillarda (2019-2020 va 2023) tashqi savdoning cheklangan sonidagi hamkor mamlakatlarga yuqori darajada jamlanganligi ko‘rsatdi. Biroq 2021-2022 yillarda indeksning 0,163 va 0,154 gacha pasayishi eksport geografiyasining ma’lum darajada kengayganligini ko‘rsatadi. Import bo‘yicha HHI indeksi butun davr mobaynida eksportga nisbatan pastroq bo‘lgan bo‘lsa-da, 2015-yildagi 0,118 dan 2023-yilda 0,192 gacha o‘sishi import hamkorlarining ma’lum darajada konsentratsiyalashganini anglatadi.

Theil indeksi natijalari esa eksport bo‘yicha indeks qiymati 2021-yilda eng past (2,336), 2016-yilda esa eng yuqori (2,699) darajada bo‘lganligini tasdiqladi. Bu eksport geografiyasida muayyan diversifikatsiya jarayonlari kuzatilgan bo‘lsa-da, ayrim mamlakatlarga qaramlik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Import bo‘yicha Theil indeksi 2015-yildagi 1,774 dan 2023-yilda 2,061 gacha oshgan bo‘lib, import oqimlarining cheklangan doiradagi hamkor mamlakatlar hisobiga shakllanayotganini anglatadi.

Har ikki indeks natijalari eksport geografiyasida diversifikatsiya jarayonlari nisbatan faol kechayotganini, importda esa konsentratsiya darajasi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytirish maqsadida, ayniqsa import manbalari geografiyasini kengaytirish va yangi savdo hamkorlarini jalb etish zarurligini tasdiqlaydi (1-jadval).

**1-jadval**

**O‘zbekiston eksport va importining geografik diversifikatsiya darajasini baholovchi kompleks indekslar dinamikasi (2015-2024-yillar) [16]**


| Yillar | HHI     |        | TheilT  |        |
|--------|---------|--------|---------|--------|
|        | Eksport | Import | Eksport | Import |
| 2015   | 0,162   | 0,118  | 2,391   | 1,774  |
| 2016   | 0,211   | 0,112  | 2,699   | 1,686  |
| 2017   | 0,189   | 0,132  | 2,421   | 1,893  |
| 2018   | 0,17    | 0,121  | 2,352   | 1,796  |
| 2019   | 0,242   | 0,132  | 2,565   | 1,914  |
| 2020   | 0,242   | 0,152  | 2,489   | 2,043  |
| 2021   | 0,163   | 0,145  | 2,336   | 2,021  |
| 2022   | 0,154   | 0,132  | 2,362   | 1,915  |
| 2023   | 0,231   | 0,192  | 2,575   | 2,061  |
| 2024   | 0,285   | 0,219  | 2,806   | 2,06   |

Tashqi savdo diversifikatsiyasining natijadorligi transport va logistika tizimining samaradorligiga bevosita bog‘liq. Samarali logistika tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarini kamaytiradi, yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi, ta’minot zanjirlari barqarorligini oshiradi hamda eksportchi korxonalarning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Aksincha, logistika infratuzilmasidagi cheklovlar tashqi savdoning tor doiradagi bozorlarga qaramligini saqlab qolishi va diversifikatsiya jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun transport yo‘laklarini rivojlantirish, multimodal logistikani takomillashtirish va raqamli logistika texnologiyalarini joriy etish tashqi savdo barqarorligini ta’minlash hamda makroiqtisodiy xavflarni kamaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksi (LPI — Logistics Performance Index) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda logistika samaradorligi so‘nggi yillarda ma’lum darajada yaxshilangan. Umumiy logistika samaradorligi indeksi 2007-yildagi 2,16 balldan 2022-yilda 2,60 ballga ko‘tarilgan, ya’ni 0,44 ballga (20,4%) oshgan. Xuddi shu davrda savdo va transport bilan

bog‘liq infratuzilma sifati indeksi ham 2,00 balldan 2,40 ballgacha o‘sgan. Ayniqsa, 2014-2022-yillarda mazkur ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasi transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish va logistika xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar samarasini aks ettiradi.

Biroq umumiy LPI ko‘rsatkichining 2,60 ball darajasida qolishi O‘zbekistonning jahon logistika tizimida hali ham o‘rta darajada ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa tashqi savdo diversifikatsiyasini yanada chuqurlashtirish uchun transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish, chegara va bojxona jarayonlarini raqamlashtirish hamda multimodal transport yo‘laklarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi (3-rasm).



**3-rasm. Logistika samaradorligi indeksi.** Umumiy (1 = past, 5 = yuqori)  
(1 = past, 5 = yuqori)

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot tashqi savdo jarayonlarini raqamlashtirish, yangi eksport bozorlarini aniqlash va tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish orqali mamlakatning raqobatbardoshligi hamda makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlamoqda.

Sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalari UN Comtrade, WTO va ITC Trade Map ma‘lumotlari asosida istiqbolli eksport bozorlarini aniqlash, tashqi talabni prognozlash hamda savdo xavflarini baholash imkonini beradi. Blokcheyn texnologiyalari tashqi savdo operatsiyalarining shaffofligini oshirsa, elektron savdo platformalari korxonalarning yangi bozorlarga chiqishini yengillashtiradi.

Bundan tashqari, raqamli logistika platformalari, GIS va O‘zbekistonda joriy etilgan “Yagona darcha” tizimi transport-logistika xarajatlarini kamaytirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish hamda eksport-import operatsiyalarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Natijada raqamli texnologiyalar tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytirish, eksport va import geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi (2-jadval).

**2-jadval**

**Tashqi savdo geografik diversifikatsiyasida raqamli texnologiyalarning ahamiyati**

| № | Raqamli texnologiya                            | Tashqi savdoda qo‘llanilishi                                                  | Geografik diversifikatsiyaga ta’siri                                                                              |
|---|------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | <b>Sun‘iy intellekt (AI)</b>                   | Eksport bozorlari, tashqi talab va savdo xavflarini prognoz qilish            | Yangi eksport bozorlarini aniqlash va hamkor mamlakatlar sonini kengaytirishga xizmat qiladi                      |
| 2 | <b>Big Data Analytics</b>                      | Xalqaro savdo ma‘lumotlarini kompleks tahlil qilish                           | Istiqbolli eksport va import bozorlarini tanlash hamda qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi                |
| 3 | <b>Elektron savdo platformalari (B2B, B2C)</b> | Xalqaro elektron savdo va yangi xaridorlarni jalb qilish                      | Yangi mamlakatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish orqali bozorlar geografiyasini kengaytiradi              |
| 4 | <b>Blockchain</b>                              | Savdo hujjatlarini raqamlashtirish va tranzaksiyalar shaffofligini ta’minlash | Yangi hamkorlar bilan ishonchli savdo munosabatlarini shakllantirib, tashqi bozorlarga chiqishni yengillashtiradi |

|   |                                               |                                                                        |                                                                                                                             |
|---|-----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 5 | <b>Raqamli logistika platformalari</b>        | Transport yo‘nalishlari va yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish | Logistika xarajatlari va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish orqali uzoq bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi |
| 6 | <b>«Yagona darcha» (Single Window) tizimi</b> | Bojxona va tashqi savdo jarayonlarini raqamlashtirish                  | Eksport-import operatsiyalarini soddalashtirib, tashqi savdo hamkorlari geografiyasini kengaytirishga ko‘maklashadi         |

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2015–2024-yillarda O‘zbekiston tashqi savdosi barqaror o‘sgan bo‘lsa-da, importning eksportga nisbatan tezroq o‘sishi manfiy tashqi savdo saldosining ortishiga sabab bo‘ldi. Tashqi savdo hamkorlari geografiyasi kengayganiga qaramay, savdo aylanmasi asosan cheklangan davlatlarda jamlangan. HHI va Theil indeksleri eksport geografiyasida diversifikatsiya kuchayayotganini, importda esa konsentratsiya yuqoriligicha qolayotganini ko‘rsatdi. Logistika samaradorligidagi ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, uning xalqaro darajada yetarli emasligi diversifikatsiya imkoniyatlarini cheklamoqda.

Shu bois eksport geografiyasini Yevropa Ittifoqi, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytirish, strategik mahsulotlar bo‘yicha import manbalarini diversifikatsiya qilish zarur. Yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish eksport raqobatbardoshligini oshiradi.

Bundan tashqari, tashqi savdo diversifikatsiyasini HHI va Theil indeksleri asosida muntazam monitoring qilish maqsadga muvofiq. Sun‘iy intellekt, Big Data, elektron savdo platformalari, raqamli logistika va “Yagona darcha” tizimlarini keng joriy etish istiqbolli bozorlarni aniqlash, tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytirish hamda mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Dunyo mamlakatlari statistika portali <https://www.statista.com/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–27-sonli Farmoni.
3. Shepherd B. *Geographical Diversification of Developing Country Exports* // World Development. – 2010. – Vol. 38, No. 9. – P. 1217–1228.
4. Imbs J., Wacziarg R. *Stages of Diversification* // American Economic Review. – 2003. – Vol. 93, No. 1. – P. 63–86.
5. Cadot O., Carrère C., Strauss-Kahn V. *Export Diversification: What’s Behind the Hump?* // Review of Economics and Statistics. – 2011. – Vol. 93, No. 2. – P. 590–605.
6. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. *What You Export Matters* // Journal of Economic Growth. – 2007. – Vol. 12, No. 1. – P. 1–25.
7. Klinger B. *New Export Competitiveness* // World Economy. – 2011. – Vol. 34, No. 5. – P. 755–772.
8. Sh.N.Otamurodov “O‘zbekiston eksporti diversifikatsiyasining zamonaviy muammolari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar”(Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali Tom 10 № 4 (2022) 66. 355-364 [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss4/a36](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a36)
9. A.V.Vahabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. — T.: Baktriya press, 2015. — 584 b.;
10. Yusupov F.S. Tashqi savdoni erkinlashtirish jarayonida milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi: iqt. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. — Toshkent, 2023. — 56 b.;

11. Mingishov L.O'. O'zbekistonning eksport raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'nalishlari: iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. — Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2018 yil. -49 b.
12. Mamatov B.Q. Eksportni diversifikatsiyalash orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash: iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, 2024. — 57 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari rasmiy sayt. – URL: <https://www.stat.uz/>
14. Herfindahl O. C. Concentration in the U.S. Steel Industry. — New York: Columbia University, 1950. Rhoades S. A. The herfindahl-hirschman index //Fed. Res. Bull. — 1993. — T. 79. — S. 188.,
15. Theil H. Economics and Information Theory. — Amsterdam: North-Holland, 1967. Theil H. *Statistical Decomposition Analysis: With Applications in the Social and Administrative Sciences*. — Amsterdam: North-Holland Publishing Company, 1972.
16. BMTning Comtrade savdo HS turkumidagi 6-raqamli ma'lumotlari asosida muallifning hisob kitoblari natijalari.

**UDK: 338.24**

**O‘ZBEKISTONDA RAQOBATCHILIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA  
MONOPOLIYAGA QARSHI QONUNCHILIK**

**ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ И АНТИМОНОПОЛЬНОЕ  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В УЗБЕКИСТАНЕ**

**FORMATION OF A COMPETITIVE ENVIRONMENT AND ANTI-MONOPOLY  
LEGISLATION IN UZBEKISTAN**

**Nabiyev Asadbek Komil o'g'li**

Qarshi Davlat Texnika Universiteti Shahrisabz Oziq-ovqat Muhandisligi fakulteti 2-kurs talabasi  
ORCID:(0009-0000-2471-0355)

**Annotatsiya**

Iqtisodiyot bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Raqobat — bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir». Demak, raqobat o'z mohiyatiga ko'ra, bozor iqtisodiyotining asosiy obektiv qonunlaridan biri, bozor munosabatlari takomillashib borishining muhim sharti hisoblanadi. Monopoliyalar bo'lsa bozor mexanizmlarining to'g'ri ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hozirgi kunda iqtisodiyotdagi dolzarb muammolardan biridir. Ushbu maqolada monopoliyalarning kelib chiqishi iqtisodiyotga ta'siri va unga qarshi ko'rilayotgan choralar yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tabiiy monopoliyaga, monopoliya, antimonopol, tovar, moliya, xo'jalik, raqobat, resurs, qonunchilik, kapital, tadbirkorlik, sun'iy monopoliya, Kleyton qonuni, Seller-Kefover qonuni.

Эффективное функционирование рыночного механизма экономики и обеспечение конкурентной среды требуют рассмотрения сущности монополий, причин их возникновения и особенностей их деятельности. Конкуренция является основным условием рынка и, по сути, его фундаментальным законом. Следовательно, по своей природе конкуренция представляет собой один из важнейших объективных законов рыночной экономики и необходимое условие развития рыночных отношений. Монополии, напротив, оказывают негативное влияние на

нормальное функционирование рыночных механизмов и в настоящее время являются одной из актуальных проблем экономики. В данной статье рассматриваются причины возникновения монополий, их влияние на экономику, а также меры, принимаемые для борьбы с ними.

**Ключевые слова:** естественная монополия, монополия, антимонопольное регулирование, товар, финансы, хозяйство, конкуренция, ресурсы, законодательство, капитал, предпринимательство, искусственная монополия, закон Клейтона, закон Селлера—Кефопера.

The effective functioning of the market economy and the maintenance of a competitive environment require an understanding of monopolies, their causes, and the characteristics of their operation. Competition is the fundamental condition of the market and can be regarded as its basic law. Therefore, by its nature, competition is one of the key objective principles of a market economy and an essential prerequisite for the development of market relations. Monopolies, on the other hand, negatively affect the proper functioning of market mechanisms and remain one of the most pressing issues in modern economies. This article examines the origins of monopolies, their impact on the economy, and the measures taken to prevent and combat monopolistic practices.

**Keywords:** natural monopoly, monopoly, antitrust regulation, goods, finance, economic activity, competition, resources, legislation, capital, entrepreneurship, artificial monopoly, Clayton Act, Celler–Kefauver Act.

Raqobatning amal qilishi ma’lum shart-sharoitlar mavjud bo’lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo’lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o’z-o’zidan, evolyutsion yo’l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan. Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta’kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o’z aksini topadi.

Monopoliya tushunchasiga turli o’quv adabiyotlarida turlicha ta’rif beriladi. Jumladan, ba’zi o’rinlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo’jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq huquqi sifatida qaralsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba’zi adabiyotlarda – yakka) hukmronlik holati deb ta’riflanadi. Bu ta’riflardagi monopoliyaning «mutlaq huquq» yoki «har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta’riflash o’rinli deb hisoblaymiz: monopoliya monopol yuqori yoki monopol narxlarni o’rnatish asosida monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari. «Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya’ni, grekcha «monoc» — yagona, bitta va «poleo» — sotaman) tarkib topsa-da, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi[1]. Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to’planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to’planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to’planishini namoyon etadi. Ishlab chiqarish to’planishining asosiy sababi bo’lib olinayotgan foyda hajmining ko’payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko’paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo’shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya’ni unga qo’shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba’zi bir korxonalarning o’sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitallarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to’planishining moddiy asosi bo’lib kapitalning to’planishi va markazlashuvi hisoblanadi. Kapitalning to’planishi – bu qo’shimcha qiymatning bir qismini jamg’arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir.

Bu jarayon quyidagi ko’rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi,

foйда hajmi. Kapitalning to‘planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to‘ldiriladi. Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo‘shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o‘shishidir. Ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal to‘planishi farqlanadi. Ishlab chiqarishning gorizontal to‘planishi – bu milliy iqtisodiyotning ma‘lum tarmog‘i doirasidagi korxona va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to‘planishining asosiy shakli sifatida maydonga tushgan edi.

Ishlab chiqarishning vertikal to‘planishi – bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha o‘zaro bog‘liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to‘planishidir. U ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida keng rivojlandi. Ishlab chiqarishning to‘planishi o‘z rivojining ma‘lum darajasida monopoliyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning to‘planishi hamda monopoliyalarning paydo bo‘lishi o‘rtasidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarning hukmron mavqega ega bo‘lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

2) yirik korxonalar o‘rtasidagi raqobat juda qaltis bo‘lib, ular uchun katta miqyosdagi yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunga ko‘ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishi lozim bo‘ladi.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o‘zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 27-dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi yangi qonun qabul qilindi. [2] Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g‘irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to‘xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilishga qaratilgan.

Shuningdek, qonunda asosan ikkita muhim yo‘nalish, ya‘ni birinchidan, monopoliyaga qarshi tartibga solishning prinsipial yangi ko‘rinishi bo‘lib, u mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeyini suiste‘mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko‘zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan bo‘lib hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun 1992-yilda O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi bo‘linma Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi sifatida tashkil etildi. Boshqarmaga ro‘yxatga kiritilgan monopoliya mavqedagi korxonalar mahsuloti bo‘yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turish huquqi berildi. 1996-yilda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil qilindi. [3] 2000-yilda Respublika Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan monopoliyaga qarshi bo‘linma Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil davlat qo‘mitasiga aylantirildi. [4] Keyinchalik mazkur qo‘mitaning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2005-yil 30-apreldagi Farmoniga binoan mazkur qo‘mita Monopoliyadan chiqarish, raqobatni va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasiga aylantirildi [5].

Respublikada monopol mavqeyiga ega bo‘lgan korxonalarni Davlat reyestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o‘tish davrining o‘ziga xos jihatlari hisobga olinadi. Hozirgi davrda Respublikada agar korxona ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagi mahsulotning 35% dan ortiq bo‘lsa, bu korxona monopolistik korxona sifatida Davlat reyestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% deb belgilangan. Respublikada monopoliyalar ro‘yxatiga kirgan korxona yoki tarmoqlarning bozordagi mavqeyini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko‘rsatish lozim:

1. Monopol mavqedagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo‘yish.

2. O‘z monopol mavqeyini suiiste‘mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo‘lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994-yil 18-iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan <<Obyektlarning xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to‘g‘risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining «Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» (1996-yil, aprel) qonuni asosida g‘irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo‘l qo‘ymaydigan mexanizmnı yaratishga ham alohida e‘tibor beriladi.

Tabiiy monopolialarni davlat yo‘li bilan tartibga solish, mahsulot va xizmatlariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko‘rsatkichlarni belgilashni o‘z ichiga oladi. Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Monopoliyaga qarshi qonunchilik davlatning monopoliyaga qarshi kurash siyosati demakdir. Monopoliyaga qarshi qonunchilik asosan, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha shakllandi. Birinchidan, ishlab chiqarish (tarmoq)ni boshqaruvchi qonunlar. Bu qonunlarga binoan, odatda, hech bir korxona (korporatsiya)ning biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ko‘pini nazorat qilishga huquq berilmaydi. Ikkinchidan, barcha yirik korporatsiyalar ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma‘lum cheklangan miqdoridan ortig‘iga ega bo‘la olmasligi belgilab qo‘yiladi. Uchinchidan, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni taqiqlovchi kartellarga qarshi qonunlar joriy qilinadi.

Bozorda monopoliyani o‘rnatishga urinishlar va monopol mavqeni suiiste‘mol qilishni taqiqlaydigan trestlarga qarshi birinchi qonun-Sherman qonuni AQSHda 1890-yilda qabul qilingan. Monopoliyaga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar har bir mamlakatda sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi. Bunda sog‘lom raqobat muhitini himoya qilish maqsadida turli ko‘rinishdagi, monopolistik faoliyatlar ustidan davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladi. Kleyton qonuni iste‘molchilarni narx orqali qochirish, majburiy shartnomalar tuzish, raqobatni korxonalarning zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni sotib olish taqiqlanishidan iborat. Seller Kefaver qonuni bu qonunda Kleyton qonuniga o‘zgartirish kiritilgan bo‘lib, unda nafaqat raqobatni korxonalarning zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni, balki ishlab chiqarish vositalarini sotib olish ham taqiqlanadi.

Monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning asosiy yo‘na-lishlari:

- bozorning monopollashuvini cheklash; — raqobatchi kompaniyalar qo‘shilishini taqiqlash;
- monopol narxlar belgilanishini taqiqlash;
- raqobatni madaniylashgan tarzda olib borishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Tartibga solinadigan narx o‘rtacha umumiy xarajatlarga teng bo‘lsa, monopolist hech qanday iqtisodiy foyda olmaydi. Iqtisodiy monopoli-yalar-ishlab chiqarish va kapitalning to‘planishi hamda korxonalarning turli yo‘llar bilan birlashishi natijasida vujudga keladi. Masalan kartelni olaylik. Kartel bu bir tarmoq korxonalarning ittifoqi bo‘lib, uning ishtirokchilari to‘liq iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladi, faqat ishlab chiqarish hajmi, sotish bozorlari va baholari to‘g‘risida kelishib oladilar. Yoki sindikatni olaylik. Sindikat bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar birlashmasi bo‘lib, uning a‘zolari ishlab chiqarish sohasida mustaqilligini saqlab qoladi, mahsulot esa sindikat mulki sifatida sotiladi. Qolaversa, ishlab chiqarish vositalari va mahsulotga birgalikda egalik qiluvchi korxonalar guruhi bo‘lib, foyda qo‘shilgan kapital hajmiga qarab ham taqsimlanishi mumkin. Tabiiy monopoliyada o‘rtacha umumiy xarajatlar kamaytirilib, marginal xarajatga nisbatan o‘rtacha umumiy xarajat kamroq qilib belgilanadi. Shuning uchun, narx o‘rtacha umumiy qiymati quyida bo‘ladi va monopolist zarar ko‘radi.

Tartibga solinadigan xarajatlar narx belgilashda monopolist tomonidan aniq hisob-kitob qilinmasa, u monopolist kam xarajat, ammo foyda ham ko‘rmaydi. Amalda, monopolistlar yuqori foyda olish maqsadida xarajatlar kamaytirib, chekli iqtisodiy xarajatlar ba‘zi talablaridan amalda foydalanmay bu muammodan qutulishga harakat qiladi. Monopoliya bilan shug‘ullanish uchun hukumat tomonidan ishlatiladigan uchinchi siyosat davlat mulk siyosati hisoblanadi. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining qarori (19.04.2019-yilda 3155-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) bilan Qonun hujjatlarining raqobatga ta‘sirini baholash metodikasi tasdiqlandi. Raqobatga ta‘sirni baholash

chog‘ida tovar va moliya bozorlarida raqobatni bevosita yoki bilvosita cheklaydigan holatlar aniqlanadi. Bunda baholash ikki xil usul asosida amalga oshiriladi: <<<ex-ante>> qonunlar, Prezidentning, Oliy Majlis palatalarining, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezidentning farmonlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari loyihalariga (bundan keyin — NHH loyiholari) nisbatan; <<ex-post>> — amaldagi qonun hujjatlariga nisbatan. NHH loyihalarini baholash:

Metodikaga ko‘ra, NHH loyihasi quyidagi oqibatlarning biriga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lganda uning ta‘siri raqobat uchun salbiy deb baholanadi: tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituv-chi subyektlarning doirasi va sonini cheklasa; yetkazib beruvchilarning o‘zaro raqobatlashish imkoniyatini chegaralasa yoki ularning bunga qiziqishini pasaytira; iste‘molchilar uchun kerakli axborotni tanlash imkonini chegaralasa. NHH loyihalarida muayyan ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa, baholash uchun Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga (yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan NHH) yoki uning hududiy bo‘linmalariga (mahalliy hokimiyat organlarining hujjatlari loyiholari) kiritiladi. Masalan: ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlar va litsenziyaning yangi turlarini joriy etish; bozor ishtirokchilarida ortiqcha xarajatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan talablar yoki shartlari kiritish; tabiiy monopoliya subyektlarining tovar (ish, xizmat)lari narxi (tarifi)ni, shuningdek boshqa tartibga solinadigan narx (tarif)ni oshirish va h.k. Jami 10 banddan iborat. Ro‘yxat batafsil hisoblanadi. Baholash yakunlariga ko‘ra ikki nusxada xulosa tuziladi, bir nusxasi loyihani ishlab chiqqan tashkilotga yuboriladi, u uni ko‘rib chiqishi shart. Olingan xulosa loyiha bilan birga huquqiy ekspertizadan o‘tkazishi uchun Adliya vazirligiga taqdim etiladi. Loyiha Oliy Majlis, Prezidentning Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasiga kiritilganda unga xulosa majburiy tartibda ilova qilinadi.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jihatlarni ko‘rsatish mumkin: 1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun‘iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko‘tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo‘lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo‘ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi. Monopoliyalar bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba‘zi hollarda xonavayron bo‘ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflyatsiya o‘sadi, xo‘jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi; 2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi; 3) Iqtisodiy turg‘unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo‘shimcha urinishlarsiz o‘zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlarini to‘g‘risida qayg‘urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi; 4) Iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to‘siq qo‘yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to‘sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo‘lgan korxonalarni o‘zlariga bo‘ysundirishlari, jamiyatga o‘z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to‘lash, past sifatlil tovarlarni ishlab chiqarish, o‘ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o‘z mahsulotini iste‘mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o‘zlarining kamsituvchi shartlarini ko‘ndalang qo‘yishlari mumkin. Bundan ko‘rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi, taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘lishi ham mumkin. Shunga ko‘ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo‘llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati

asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo‘ladi. AQShning antimonopol qonunchiligi (1890-y) — unda ishlab chiqarish va savdoni cheklash maqsadida tuzilgan bitimlar noqonuniy, deb hisoblanadi

Kleyton qonuni — iste‘molchilarni narx orqali kamsitish, majburiy shartnomalar tuzish, raqobatchi korxonalarning zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni sotib olish direktoratlarning chirmashib ketishi, bir firmaning rahbari boshqa firmaga a‘zo bo‘lishini taqiqlaydi. Seller – Kefover qonuni (1950-y). Bu qonunda Kleyton qonuniga o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, unda nafaqat raqobatchi korporatsiyaning zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalargina emas, ishlab chiqarish fondlari (asbob-uskuna, boshqa moddiy narsalar)ni sotib olish ham taqiqlanadi.

Antimonopol tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari:

- bozorning monopollashuvini cheklash;
- raqobatchi kompaniyalar qo‘shilishini taqiqlash;
- monopol narxlar belgilashni taqiqlash;
- raqobatni madaniylashgan tarzda olib borishni qo‘llab-quvvatlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasida Davlat mulkini boshqarish davlat komitasi hamda O‘zbekiston Respublikasida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish komitasi negizida O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil qilindi (2012 yil 12 noyabr).

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasiga ko‘ra, — “iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish” vazifasi belgilangan. [6] 2017 yildan boshlab Iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobat muhitini yaratish hamda mahsulotlar va xizmatlar bozorida bosqichma-bosqich monopoliyani qisqartirish ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishildi. Lekin, bugungi kunda O‘zbekistonda ham uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo‘lib, ular ko‘pincha tarmoq vazirliklari mavqeyiga ega bo‘lib, mahsulot va xomashyolarning alohida turlarini limit va fond ko‘rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi ma‘muriy to‘siqlar monopolistik tendensiyalarga ko‘proq imkon yaratadi. Iqtisodiy taraqqiyotga to‘siq bo‘luvchi bunday holatlarni-bartaraf etish maqsadida prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “barqaror iqtisodiy o‘rta muhitning eng muhim garovi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko‘paytirish, tranzit salohiyatidan to‘liq foydalanish hisoblanadi” [7] deb ta‘kidlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Tadbirkorlar tovar bozorida sotuvchi sifatida, resurslar bozorida esa xaridorlar sifatida raqobatda bo‘lishadi. Ishchilar mehnat bozorida yaxshi ish joyini egallash uchun kurashadilar. Raqobat ishlab chiqaruvchi bilan iste‘molchi o‘rtasida ham boradi, bu sotuvchi va xaridor raqobatida ko‘rinadi. Sotuvchi qimmatroq sotishga intilsa, xaridor arzonroq sotib olishni mo‘ljallaydi. Xullas, raqobatlashuv iqtisodiy faoliyatning hamma turlariga xos bo‘ladi, u bozorning o‘zida va bozordan tashqarida bo‘ladi. Bozorda raqobat bevosita yuz bersa, bozordan tashqarida xususan ishlab chiqarishda unga hozirlik ko‘riladi, raqobatda g‘olib chiqish chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bozorda narxni o‘zgartirish, savdo reklamasini tashkil etish orqali bellashuv yuz beradi. Aksincha monopoliyalar bo‘lsa iqtisodiyotda yakka hukmronlikni qo‘lga olib bunday o‘zgarishlar va rivojlanishlarga qarshilik qiladi va iqtisodiyotda ko‘proq o‘zining manfaatini oldinga qo‘yib o‘zlari nazorat qilishga intiladi. Ushbu maqolada monopoliyalar qanday bo‘lishi va ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar keltirib o‘tilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Gaibnazarova Z. T., Isamuxametov Sh. A. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. ISBN: 978-9943-6726-1-1.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida» gi Qonuni, 1996-yil 27-dekabr. Lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish sohasidagi 1996-yildagi qarorlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 2-avgust «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-2676-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 30-aprel «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-3602-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi (24.01.2020) Xalq so‘zi gazetasi, 2020 yil 25 yanvar.

**UDK: 336.7**

**KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY RESURLARNI SHAKLLANTIRISH  
YO‘NALISHLARI**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ  
МАЛОГО БИЗНЕСА**

**IMPROVING THE FORMATION OF FINANCIAL RESOURCES FOR SMALL  
BUSINESSES**

**Ketmanov Avazbek Malikovich**

Andijon davlat texnika instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada kichik biznes subyektlarini mohiyati va ularni moliyaviy resurslarini shakllanishi o‘rganilgan. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarini soni, ulushi tahlil qilingan. Tadqiqot yakuni bo‘yicha kichik biznes subyektlarini faoliyatini va ularni moliyaviy resurslarini shakllanishi takomillashtirish yo‘nalishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, moliyaviy resurs, kredit, kapital, mikrofirma

В статье исследуется природа малых хозяйствующих субъектов и формирование их финансовых ресурсов. Анализируется количество и доля малых хозяйствующих субъектов в Андижанской области. По результатам исследования разработаны предложения по совершенствованию деятельности малых хозяйствующих субъектов и формированию их финансовых ресурсов.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательство, финансовые ресурсы, кредит, капитал, микропредприятие

The article studies the nature of small business entities and the formation of their financial resources. The number and share of small business entities in Andijan region are analyzed. As a result of the research, proposals have been developed to improve the activities of small business entities and the formation of their financial resources.

**Key words:** small business, entrepreneurship, financial resources, credit, capital, microfirm

Kichik biznes rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes sharoitga tez moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Kichik biznes yirik biznes uchun

qulay bo‘lmagan sohalarda avj oladi. Kichik biznes kichik bozorlarda faoliyat olib borish, mahalliy resurslardan foydalanish, ishsizlik muammosini hal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o‘rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirishda muayyan afzalliklarga ega. Kichik korxonalar odamlarda sohibkorlik, tadbirkorlik, mulkka egalik qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularda ishbilarmonlik ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Biznesning kichik biznes shakli bilan xar qanday shaxs shug‘ullanish imkoniyatiga ega. Davlat ham aholini quyi va o‘rta qatlamini bandligini ta‘minlash hamda o‘z daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun qo‘llab quvvatlash maqsadida tegishli chora tadbirlar ko‘ra oladi, ya‘ni aholi bandligini va daromadini oshirish, byudjet tushumlarini ko‘paytirish masalalarini eng muhim yo‘li kichik biznesni rivojlantirish deb hisoblaymiz.

Shunday bo‘lsa-da, kichik biznesning tasnifi belgilaridan qat’iy nazar uning asosiy maqsadi jamiyatda tovar va xizmatlarni yaratish, kishilarning talab ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Jahon hamjamiyati ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan rivojlanib borar ekan, insonlarning iste‘mol tovarlari va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari to‘xtovsiz o‘sib boradi. Ehtiyojlarning ortib borishi obyektiv holat hisoblanadi. Uning talablarini hisobga olgan holda xo‘jalik faoliyatini yuritish har qanday rivojlanishning zaruriy vazifasi. Shunday ekan, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy resurslar bilan maqbul ta‘minlash masalasi kun tartibiga chiqadi. Bunda, kichik biznesni moliyaviy resurslarini shakllantirishda korxona o‘ziga foyda keltiradigan yo‘nalishlarga e‘tibor qaratishi ahamiyatli. Bu o‘rinda, kichik biznesning moliyaviy resurslari, ularni shakllantirish manbalari va usullari bilan bog‘liq tadqiqotlarni qarab o‘tamiz.

Kichik biznes – bu qonunchilikda ruxsat etilgan, jamiyatga naf keltiruvchi, foyda olish maqsadida mustaqil mulkka egalik qilib, mustaqil o‘z faoliyatini tashkil etadigan, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni va qaysi sanoat tarmog‘iga tegishliligi bilan tasniflanadigan tadbirkorlik shakli hisoblanadi.

Yu.L.Kulichenko- moliyaviy resurslar mablag‘larning bir qismi bo‘lib, korxona tashkil etilganda shakllangan va u orqali olingan operatsion, investitsion va moliya natijalarga erishiladigan, belgilangan vazifalar erishish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar va majburiyatlarni bajarishdir deb hisoblaydi [1].

Tadqiqotchi T.S.Timeryanov moliyaviy resurslar – bu pul mablag‘lari to‘plamidir, korxona fondlarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan, barcha turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan aktivlardir, deb ta‘rif beradi[2]. B.A.Rayzberg moliyaviy resurslar deganda, xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli bo‘lgan har xil turdagi mablag‘lar va moliyaviy aktivlar yig‘indisi sifatida tushunadi. [3] V.G.Zolotogorov fikricha, moliyaviy resurslar deganda, biznesning ixtiyorida bo‘lgan daromadlar, jamg‘armalar va naqd pul tushumlari tushuniladi, ularning asosiy maqsadi mavjud moliyaviy majburiyatlarni bajarish, takror ishlab chiqarishni kengaytirish, moliyaviy va iqtisodiy rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash va ishchilarning ehtiyojlarini qondirishdir [4].

I.A.Blankning ta‘kidlashicha, moliyaviy resurslar maqsadli xarakterdagi mablag‘lar shaklida keladigan o‘z va qarz mablag‘lari, shuningdek, ularning ekvivalentlari yig‘indisi bo‘lib, ularning maqsadi kelgusi davrlarda uning iqtisodiy faoliyatini ta‘minlashdir[5].

Yuqoridagi olim va tadqiqotchilarning fikrlaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, kichik biznesda moliyaviy resurs – bu qisqa qilib aytganda korxonani moliyaviy faoliyatini qoplashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan kapitaldir. Shunday ekan, kichik biznesni moliyaviy faoliyatini amalga oshirish va uning rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarning qanday manbalari bor va ular bilan bog‘liq olimlarni izlanish natijalarini ham ko‘rib chiqamiz.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida kichik tadbirkorlik subyektlari qanday toifalardan iborat ekanligi keltirilgan. Bunda:

“kichik tadbirkorlik subyektlari: yakka tartibdagi tadbirkorlar;

mikrofimalar – ta’sischilari (ishtirokchilari) jismoniy shaxslar bo‘lgan hamda jami daromadi kalendar yil davomida 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari;


kichik korxonalar – jami daromadi kalendar yil davomida 1 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari” kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Fikrimizcha, kichik biznes subyektlari birinchi navbatda o‘z mablag‘laridan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yishi lozim. Undan so‘ng uning samaradorligini oshirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar qilish mumkin.



**1-rasm. Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi [6]**

1-rasmdan ko‘rinadiki 2022-yilda ko‘rsatkichning umumiy hajmi 36,4 ming birlikni tashkil etgan bo‘lib, mazkur davrda o‘shish sur‘ati 9,6 foizga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich tahlil qilinayotgan yillar orasida eng yuqori o‘shish darajasi hisoblanadi. 2023-yilda ko‘rsatkich hajmi 27,2 ming birlikka tushib, 2022-yilga nisbatan 9,2 ming birlikka yoki taxminan 25,3 foizga kamaygan. Shu bilan birga, o‘shish sur‘ati ham keskin pasayib, 0,7 foizni tashkil etgan. Bu holat sohadagi faollikning sekinlashganligini ko‘rsatadi. 2025-yilda ko‘rsatkich 20,6 ming birlikni tashkil etib, tahlil davridagi eng past darajaga tushgan. Biroq o‘shish sur‘ati 0,9 foiz darajasida saqlanib qolgan. Bu holat bozor yoki soha faoliyatida muayyan barqarorlik yuzaga kelganligini ko‘rsatadi. 2026-yilga kelib esa ko‘rsatkich hajmi 22,0 ming birlikka yetgan va avvalgi yilga nisbatan 1,4 ming birlikka oshgan. O‘shish sur‘ati ham 1,1 foizga ko‘tarilgan bo‘lib, mazkur davrda ijobiy dinamika kuzatilganligini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, 2022–2025-yillarda ko‘rsatkich hajmi izchil kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yilda o‘shish qayta tiklangan. O‘shish sur‘atining 2023-yildan keyin asta-sekin oshib borishi sohada tiklanish va rivojlanish uchun ijobiy shart-sharoitlar shakllanayotganligidan dalolat beradi. Bu esa kelgusi yillarda ko‘rsatkich hajmining yanada o‘shishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.



**2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi [6]**

Keltirilgan 2-rasmda 2022–2026-yillarda ko‘rsatkich ulushining o‘zgarish dinamikasi aks ettirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilda ulush 59,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda 62,5 foizgacha oshgan. Bu esa bir yil ichida 3,5 foiz punktga o‘shish kuzatilganligini ko‘rsatadi. 2024-yilda ulush 60,8 foizgacha pasaygan bo‘lib, 2023-yilga nisbatan 1,7 foiz punktga kamaygan. Mazkur holat

tahlil qilinayotgan sohada muayyan tashqi va ichki omillar ta’sirida qisqa muddatli pasayish yuz berganligini anglatadi. 2025-yilda esa ko’rsatkich yana o’sish tendensiyasini namoyon etib, 63,5 foizga yetgan. Bu butun tahlil davridagi eng yuqori natija hisoblanadi. Ushbu holat sohaning iqtisodiy faolligi va samaradorligi ortib borganligidan dalolat beradi. 2026-yilda ulush biroz qisqarib, 63,1 foizni tashkil etgan. Pasayish atigi 0,4 foiz punktini tashkil etgani sababli, bu o’zgarish umumiy tendensiyaga sezilarli ta’sir ko’rsatmaydi. Aksincha, ko’rsatkich yuqori darajada saqlanib qolganligini ko’rsatadi. Xulosa qilib aytganda, 2022–2026-yillar davomida mazkur ko’rsatkich ulushi umumiy hisobda 59,0 foizdan 63,1 foizgacha oshib, 4,1 foiz punktga o’sgan. Davr mobaynida ayrim yillarda qisqa muddatli pasayishlar kuzatilgan bo’lsa-da, umumiy tendensiya ijobiy bo’lib, ko’rsatkichning iqtisodiy tizimdagi ahamiyati va ulushi tobora ortib borayotganligini tasdiqlaydi. Bu esa kelgusi yillarda ham mazkur ko’rsatkichning yuqori darajada saqlanib qolishi va yanada mustahkamlanishi uchun asos yaratadi.

2026–2027-yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash uchun jami 270 trillion so’m yo’naltiriladi. Undan tijorat banklari tomonidan 250 trillion so’m kichik va o’rta biznes uchun ajratiladi.

Davlat byudjetidan – tuman va shaharlarni rivojlantirish uchun 6 trln, drayver loyihalar uchun – 5 trln, EIZ va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish uchun — 4 trln so’m ajratiladi. Shuningdek, tadbirkorlarga kredit ajratishda ularning to’lov qobiliyatini baholash tizimi takomillashtirilib davlat organlarida shakllangan ma’lumotlar bazasi asosida muqobil skoring tizimi joriy etiladi.

2026-2028 yillarda turizmni rivojlantirish dasturi joriy etiladi. Unda mehmonxonalar qurish uchun tadbirkorlarga yer uchastkalari berish, undar yerning narxi davlat ulushiga aylanishi mexanizmi joriy etiladi. Tijorat banklari tomonidan mehmonxonalar qurish uchun 30 mlrd so’mgacha kreditlar ajratiladi. “2026-yil 1-yanvardan QQSga o’tgan tadbirkorlar 1 yil davomida foyda solig’ini to’lashdan ozod etiladi va buxgalteriya xarajatlari qisman qoplanadi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk, yer, daromad va ijtimoiy soliq hisobotlarini shakllantirish vazifasi soliq organlariga o’tkaziladi va ushbu majburiyat soliq to’lovchilar uchun bekor qilinadi. Soliq to’lovchi shakllantirilgan to’lovlarga 5 ish kuni ichida zarur tuzatishlarni kiritishi huquqi beriladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab sayyor soliq tekshiruvini o’tkazishda mobil videokameradan foydalanish majburiy bo’ladi, aks holda tekshiruv noqonuniy hisoblanadi. Soliq hisobotini o’z vaqtida taqdim etmaganlik uchun jarima miqdori 10 baravaridan 3 baravariga tushiriladi, fuqarolar uchun BHMning 3 baravaridan 1 baravariga tushiriladi” [7].

Andijon viloyati O‘zbekistonda aholi zichligi yuqori va tadbirkorlik faolligi rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yalpi hududiy mahsulot, bandlik, sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlar sohasida muhim o‘rin egallaydi. Shu bois kichik biznesning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan uning moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liqdir.

Kichik biznes moliyaviy resurslari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari;
- tijorat banklari kreditlari;
- mikrokredit va mikromoliya tashkilotlari mablag‘lari;
- davlat dasturlari doirasidagi imtiyozli kreditlar;
- investitsiya va grant mablag‘lari;
- lizing xizmatlari.

Andijon viloyatida kichik biznesni moliyalashtirishda bank kreditlari asosiy manba hisoblanadi. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” va boshqa davlat dasturlari doirasida tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Bu mablag‘lar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarini shakllantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, kredit resurslari qiymatining yuqoriligi, garov ta’minoti talablarining qat’iyligi, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari yetishmasligi va

ayrim tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi pastligi biznesning barqaror o‘shishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, Andijon viloyatida kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun moliyaviy resurslar manbalarini diversifikatsiya qilish, venchur moliyalashtirish va kraudfanding mexanizmlarini joriy etish, imtiyozli kreditlar hajmini oshirish hamda tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Басовский Л.Е. Финансовый менеджмент: Учеб. Для вузов. – М.: НИС ИНФРА-М, 2019.
2. Тимерьянов Т.С. Понятие и функции финансовых ресурсов предприятия. Экономика и социум. №12 (103) 2022
3. Райзберг Б.А. Финансы предприятий. Учебник для вузов. – М.: Финансы и статистика, 2017. – 432 с.
4. Золотогоров В.Г. Экономика: энциклопедический словарь. 4-изд. – Минск: Книжный дом, 2021. – 598 с.
5. Бланк И. Финансовый менеджмент. 5-изд. – М.: Ника-Центр, 2019. – 552 с.
6. <https://andstat.uz/uploads/docs/2026.03kichikkk.pdf>
7. <https://sputniknews.uz/20250820/tadbirkorlar-moliya-soliq-engilliklar-1375338.html?ysclid=mrn26qhklv288628075>

**УДК: 338.47**

**ЖАҲОН МАМЛАКАТЛАРИДА ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИНИ ИННОВАЦИОН  
РИВОЖЛАНТИРИШ ТАЖРИБАСИ**

**МИРОВОЙ ОПЫТ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО  
ТРАНСПОРТА**

**GLOBAL EXPERIENCE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF RAILWAY  
TRANSPORT**

**Мурадов Бахром Акрамжанович**

Тошкент давлат транспорт университети мустақил изланувчиси

**Аннотация**

Мазкур мақолада темир йўл транспортини инновацион ривожлантиришнинг жаҳон тажрибаси халқаро қиёсий таҳлил асосида ўрганилган. Тадқиқотнинг мақсади — етакчи темир йўл давлатларининг инновацион моделларини систематик таснифлаш ва улардан Ўзбекистон учун асосли хулосалар чиқаришдан иборат. Тадқиқотда тўрт институционал моделга алоҳида эътибор қаратилди: Хитойнинг марказлашган давлат бошчилигидаги модели, Европа Иттифоқининг ҳамкорлик асосидаги (Europe’s Rail қўшма корхонаси) модели, Япониянинг корпоратив-технологик модели ва Германиянинг инфратузилма-рақамлаштириш модели.

**Калит сўзлар:** халқаро тажриба, юқори тезликдаги темир йўл, инновацион модель, Europe’s Rail, рақамли темир йўл, қиёсий таҳлил, ETCS, интероперабеллик.

В статье на основе международного сравнительного анализа изучен мировой опыт инновационного развития железнодорожного транспорта. Цель исследования — систематическая классификация инновационных моделей ведущих железнодорожных держав и формулирование обоснованных выводов для Узбекистана. Особое внимание уделено четырём институциональным моделям: централизованной государственной модели Китая, кооперационной модели Европейского союза (совместное предприятие Europe’s Rail),

корпоративно-технологической модели Японии и модели инфраструктурной цифровизации Германии.

**Ключевые слова:** международный опыт, высокоскоростная железная дорога, инновационная модель, Europe’s Rail, цифровая железная дорога, сравнительный анализ, ETCS, интероперабельность.

This article examines the global experience of innovative development of railway transport based on an international comparative analysis. The purpose of the study is to systematically classify the innovation models of leading railway nations and to draw substantiated conclusions for Uzbekistan. Particular attention is paid to four institutional models: China’s centralized state-led model, the European Union’s cooperative model (the Europe’s Rail joint undertaking), Japan’s corporate-technological model, and Germany’s infrastructure-digitalization model.

**Keywords:** international experience, high-speed railway, innovation model, Europe’s Rail, digital railway, comparative analysis, ETCS, interoperability.

Темир йўл транспортини инновацион ривожлантиришнинг миллий концепциясини ишлаб чиқишда халқаро тажрибани ўрганиш алоҳида методологик аҳамиятга эга, чунки бирорта ҳам мамлакат бу жараёни «нолдан» бошламайди — барча амалдаги ислохотлар аллақачон синовдан ўтган ечимларни мослаштиришга таянади. Шу боис жаҳоннинг етакчи темир йўл давлатлари тажрибасини тизимли қиёслаш миллий стратегияни шакллантиришнинг зарурий босқичи ҳисобланади.

Сўнгги ўн йилликда жаҳон темир йўл харитаси тубдан ўзгарди. Хитойнинг юқори тезликдаги тармоғи 2020 йилдаги 37 900 км дан 2025 йил охирига келиб 50 400 км га етди — бу жаҳон юқори тезликдаги тармоғининг 70 фоиздан ортиғини ташкил этади [1]. Айти пайтда Хитой давлат темир йўл корпорацияси 2030 йилга бориб умумий тармоқни 180 минг км га, шундан юқори тезликдагисини 60 минг км га етказиш режасини эълон қилди [1]. Европада эса Европа Иттифоқи «Horizon Europe» дастури [2] доирасида Europe’s Rail қўшма корхонасини ташкил этиб, интероперабеллик ва рақамли автоматик тиркама (DAC) каби тармоқлараро ечимларни марказлаштирилган тарзда молиялаштирмоқда [3]. Германия 2026 йилда рекорд 23 млрд еврога тенг инвестиция орқали мавжуд тармоқни янгилашга киришди [4], Япония эса хавфсизлик бўйича жаҳон андозасини сақлаган ҳолда 500 км/соат тезликдаги суперўтказувчан магнит-левитация технологиясини тижоратлаштиришга интилоқда [5].

Бу хилма-хиллик муҳим саволни туғдиради: инновацион ривожланишнинг ягона «тўғри» модели мавжудми, ёки ҳар бир мамлакат ўз институционал, географик ва иқтисодий шароитига мос моделни танлайдими? Мазкур саволга жавоб бериш учун моделларни алоҳида-алоҳида тавсифлаш эмас, балки уларни ягона таҳлил мезонлари асосида қиёслаш зарур — бу мақоланинг илмий вазифасини белгилайди.

Тадқиқотнинг мақсади — жаҳоннинг етакчи темир йўл давлатлари (Хитой, Европа Иттифоқи, Япония, Германия) инновацион ривожланиш моделларини қиёсий таҳлил қилиш ва улардан Ўзбекистон учун амалий аҳамиятга молик хулосалар шакллантириш. Вазифалар: моделларни таснифлаш мезонларини ишлаб чиқиш; ҳар бир моделнинг институционал тузилмаси, молиялаштириш механизми ва инновация йўналишини очиқ бериш; моделларнинг кучли ва заиф томонларини SWOT-таҳлил орқали баҳолаш; Ўзбекистон учун мос келувчи гибрид ёндашувни асослаш.

Темир йўл транспортидаги халқаро инновацион тажрибани ўрганиш иккита йўналишда ривожланган. Биринчи йўналиш — миллий инновацион тизимлар назарияси доирасидаги тадқиқотлар бўлиб, улар давлатнинг инновацион жараёндаги родини марказий ўринга қўяди [6]. Хитой тажрибаси айнан шу назариянинг амалий тасдиғи ҳисобланади: Халқаро темир йўллар иттифоқи (UIC) маълумотларига кўра, Хитой юқори тезликдаги темир йўлга оид барча 13 та тизим даражасидаги халқаро стандартни ишлаб чиқишда етакчилик қилган [7], бу эса марказлашган давлат бошқаруви остида технологик суверенитетга эришиш мумкинлигини кўрсатади. [4]

Иккинчи йўналиш — тармоқ инновацион тизимлари ва кўп акторлик ҳамкорлик моделлари бўйича тадқиқотлар [8]. Европа Иттифоқининг Europe’s Rail тажрибаси бу назариянинг институционал намунаси: кўшма корхона 26 асосчи аъзони — давлат идоралари, темир йўл операторлари ва саноат корхоналарини — бирлаштириб, Инновация устуни (Innovation Pillar) ва Тизим устуни (System Pillar) орқали технологик ва меъёрий-ҳуқуқий ишларни параллел олиб боради [3; 9]. Бундай ёндашув Ф. Малербанинг тармоқ инновацион тизимлари концепциясидаги «билим базаси — акторлар — институтлар» училигини тўлиқ акс эттиради. [5]

Технологик диффузия назарияси нуқтаи назаридан Германиянинг «Рақамли темир йўл» (Digitale Schiene Deutschland) дастури алоҳида қизиқиш уйғотади: у Европада стандартлаштирилган ETCS тизимини босқичма-босқич жорий этиш орқали инновациянинг «диффузия эгри чизиғи»ни амалда кузатиш имконини беради — дастлаб пилот участкалар (Штутгарт, Ридбан йўналиши), сўнгра асосий магистраллар [10; 11]. Германия тажрибаси шуни ҳам кўрсатадики, эскирган инфратузилмани рақамлаштириш янги йўл қуришдан кўра техник жиҳатдан мураккаброқ ва вақт талаб қилувчи жараён: Ридбан пилот лойиҳасида кутилган 80 фоизлик бузилишларни камайитириш ўрнига 60 фоизга эришилгани қайд этилган [4].


Япония тажрибаси эса динамик қобилятлар назарияси [12] орқали изоҳланади: JR Central компанияси 60 йилдан ортиқ фойдаланилаётган Токайдо Синкансен тизимининг эскириш ва табиий офат хавфларини ҳисобга олиб, уни батамом такрорламасдан, балки янги суперўтказувчан магнит-левитация технологиясига асосланган мутлақо янги йўналиш (Тюо Синкансен) орқали дублёр тизим яратишни танлади [13] — бу корхона даражасидаги ресурсларни қайта конфигурациялар стратегиясининг ёрқин намунаси.

Шарҳ шуни кўрсатадики, мавжуд адабиётда моделлар кўпинча алоҳида-алоҳида (мамлакат кесимида) тавсифланади, аммо уларни ягона мезонлар тизими асосида қиёслашга бағишланган тизимли таҳлил етарли эмас. Мазкур мақола ушбу бўшлиқни тўлдиришга ҳаракат қилади.

Тадқиқотда халқаро қиёсий таҳлил услуги (comparative analysis) асосий метод сифатида қўлланилди. Моделларни танлашда мезон сифатида уч омил инобатга олинди: жаҳон юқори тезликдаги тармоғидаги улуш (Хитой — жаҳон етакчиси), институционал ноёблик (Европа Иттифоқи — ягона ҳамкорлик модели намунаси) ва технологик пешқадамлик (Япония ва Германия — мос равишда тезлик ва рақамлаштириш йўналишларида андоза давлатлар).

Таҳлил тўрт босқичда амалга оширилди: 1) ҳар бир мамлакат/минтақа бўйича расмий ва тармоқ манбаларидан бирламчи маълумотлар тўпланди [1–5; 7; 9; 11; 13]; 2) моделларни тавсифлаш учун тўрт мезон ишлаб чиқилди — бошқарув тузилмаси, молиялаштириш манбаи, инновация йўналиши ва натижадорлик кўрсаткичи; 3) шу мезонлар асосида қиёсий жадвал тузилди; 4) ҳар бир модель бўйича SWOT-таҳлил ўтказилиб, кучли ва заиф томонлар, имкониятлар ва хавфлар аниқланди. Граф-аналитик метод тармоқ узунликлари бўйича мамлакатлараро қиёсни визуаллаштириш учун қўлланилди.

Биринчи натижа сифатида жаҳон юқори тезликдаги темир йўл тармоғининг мамлакатлар кесимидаги тақсимооти таҳлил қилинди (1-расм). Хитойнинг устунлиги мутлақ характерга эга: унинг тармоғи қолган барча йирик темир йўл давлатлари тармоқларининг йиғиндисидан икки бараварга кўп [14].



\* Германия учун кўрсаткич — асосан оддий тармоқда 300 км/соатгача тезликдаги йўналишлар (ИСП/UIS маълумотлари асосида)

**1-расм. Жаҳон мамлакатларида юқори тезликдаги темир йўллар тармоғи узунлигининг қиёси (муаллиф томонидан UIC ва миллий манбалар асосида 2025 йил якуний ҳолатига тузилган)**

Иккинчи натижа — тўрт инновацион моделнинг таснифи ва қиёсий тавсифи (1-жадвал). Жадвал моделларнинг бошқарув тузилмаси, молиялаштириш манбаи ва устувор инновация йўналиши бўйича тубдан фарқланишини кўрсатади.

**1-жадвал**

**Темир йўл транспортини инновацион ривожлантиришнинг тўрт жаҳон модели**

| Модель                                | Бошқарув тузилмаси                                                          | Молиялаштириш манбаи                                                        | Устувор инновация йўналиши                                                                                    |
|---------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Хитой (марказлашган давлат модели)    | Давлат темир йўл корпорацияси (China State Railway Group), ягона мулкчилик  | Давлат бюджети ва давлат банклари кредитлари                                | Тезлик рекордлари (CR450, 400 км/соат), тармоқ кенгайиши, экспорт технологиялари [1; 2; 14]                   |
| Европа Иттифоқи (ҳамкорлик модели)    | Europe’s Rail қўшма корхонаси — давлат, оператор ва саноат аралаш бошқаруви | Horizon Europe дастури + аъзоларнинг тармоқ badhajasi (жами ≈1,2 млрд евро) | Интероперабеллик, рақамли автоматик тиркама (DAC), ERTMS/FRMCS стандартлари [3; 9]                            |
| Япония (корпоратив-технологик модель) | Хусусийлаштирилган минтакавий компаниялар (JR Central ва б.)                | Корпоратив маблағлар, тижорат кредитлари                                    | Хавфсизлик ва пунктуаллик андозаси, суперўтказувчан магнит-левитация (500 км/соат) [5; 13]                    |
| Германия (рақамлаштириш модели)       | DB InfraGo (давлат инфратузилма компанияси) + Digitale Schiene Deutschland  | Давлат инвестицияси (2026 йилда 23 млрд евро)                               | Мавжуд тармоқни ETCS рақамли бошқарув тизимига ўтказиш, сунъий интеллект дастлабки жорий этувлари [4; 10; 11] |

Учинчи натижа — SWOT-таҳлил орқали моделларнинг кучли ва заиф томонлари аниқланди (2-жадвал). Таҳлил шуни кўрсатдики, ҳар бир модель ўз институционал шароитининг маҳсули бўлиб, уни бошқа мамлакатга тўғридан-тўғри кўчириш эмас, балки танланган элементларини мослаштириш мақсадга мувофиқ.

Жаҳон инновацион моделларининг SWOT-таҳлили (муаллиф ишланмаси)

| Модель          | Кучли томонлар (S)                                                                | Заиф томонлар (W)                                                           | Хавф/чеклов (T)                                                         |
|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|
| Хитой           | Тезкор қарор қабул қилиш, катта миқёсли инвестиция имконияти, технология экспорти | Юқори давлат қарзи хавфи, бозор механизмларининг чекланганлиги              | Молиявий барқарорлик ва қайтимлилик масаласи                            |
| Европа Иттифоқи | Стандартлаштириш ва интероперабеллик, кўп томонлама экспертиза                    | Қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблиги, узок мувофиқлаштириш муддатлари | Дастур давомийлигининг сиёсий омилларга боғлиқлиги [15]                 |
| Япония          | Юқори хавфсизлик ва ишончлилик маданияти, узок муддатли режалаштириш              | Юқори қурилиш харажатлари (масалан, Тую лойиҳасида 11 трлн иена)            | Аҳоли қаришишининг талабга таъсири, лойиҳа муддатларининг чўзилиши [5]  |
| Германия        | Аниқ рақамлаштириш йўл харитаси, йирик хусусий шериклар (Alstom, Siemens)         | Эскирган инфратузилмани янгилашнинг юқори мураккаблиги ва секинлиги         | Дастлабки пилот лойиҳаларда режадаги натижаларга тўлиқ эришилмаслик [4] |

Тўртинчи натижа — тўрт моделни қиёслаш асосида Ўзбекистон учун гибрид ёндашув таклиф этилди. У қуйидаги уч унсурни бирлаштиради: Хитой тажрибасидан — стратегик йўналишларда (масалан, Тошкент–Самарқанд тезюрар лойиҳаси) давлат етакчилигини сақлаш; Европа тажрибасидан — халқаро стандартларга (интероперабеллик, сигнализация) интеграция ва минтақавий ҳамкорлик механизмларини қўллаш; Германия тажрибасидан — мавжуд тармоқни янги қуришдан олдин босқичма-босқич рақамлаштириш устуворлигини белгилаш. Япония тажрибасининг марказий сабоғи эса институционал: хавфсизлик ва пунктуаллик маданиятини операцион даражада мустаҳкамлаш узок муддатли рақобатбардошликнинг зарурий шарти ҳисобланади.

Тадқиқот натижалари бир қатор муҳим методологик хулосаларга олиб келади. Биринчидан, моделларни таснифлаш кўрсатдики, инновацион ривожланиш муваффақияти ягона омилга (масалан, фақат молиялаштириш ҳажмига) боғлиқ эмас — бошқарув тузилмаси билан молиялаштириш манбаининг мослиги ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Хитойда марказлашган молиялаштириш марказлашган бошқарув билан уйғунлашгани учун самарали, Германияда эса федерал тузилма шароитида рақамлаштиришнинг секинлиги айнан кўп даражали мувофиқлаштириш зарурати билан изоҳланади [4].

Иккинчидан, Европа Иттифоқи тажрибаси шуни кўрсатадики, кўп мамлакатлик ҳамкорлик моделининг афзаллиги — стандартлаштиришда, заифлиги эса — қарор қабул қилиш тезлигида намоён бўлади. Бу муаллифнинг олдинги мақолада [16] таклиф этилган тезиси билан мувофиқ: институционал кичик тизимнинг етуқлиги технологик кичик тизим самарадорлигининг зарурий (лекин етарли бўлмаган) шарти ҳисобланади.

Учинчидан, Германия ва Япония тажрибалари муҳим огоҳлантирувчи хулосани беради: ҳатто юқори техник салоҳиятга эга давлатларда ҳам йирик инновацион лойиҳалар режадан кечикиши мумкин (Тую Синкансен очилиши 2027 йилдан 2035 йилга сурилди [5], Ридбан пилот лойиҳасида кутилган натижага тўлиқ эришилмади [4]). Бу Ўзбекистон учун муҳим амалий сабоқ беради: инновацион дастурларни режалаштиришда «муваффақиятли сценарий» билан бир қаторда эҳтимолий кечикишларни ҳисобга олувчи буфер механизмлари назарда тутилиши лозим.

Тадқиқотнинг чекловлари қуйидагилардан иборат: танланган тўрт модель жаҳон темир йўл тажрибасининг барча хилма-хиллигини қамраб олмайди (масалан, Ҳиндистон ёки

Жанубий Корея тажрибаси алоҳида тадқиқот мавзуси бўлиши мумкин); SWOT-таҳлил сифат баҳосига асосланган бўлиб, микдорий эконометрик тасдиқни талаб қилади. Бу чекловлар кейинги тадқиқотлар — жумладан, инновацион ривожланиш индексини ишлаб чиқиш ва эконометрик баҳолаш — учун йўналиш белгилайди.

Биринчидан, жаҳон тажрибасининг қиёсий таҳлили темир йўл транспортини инновацион ривожлантиришнинг ягона универсал модели мавжуд эмаслигини, балки тўрт асосий институционал модель — марказлашган давлат (Хитой), ҳамкорлик (Европа Иттифоқи), корпоратив-технологик (Япония) ва рақамлаштириш (Германия) моделлари — амалда параллел мавжуд бўлиб, ҳар бири ўз миллий шароитига мослигини кўрсатди.

Иккинчидан, моделларни бошқарув тузилмаси, молиялаштириш манбаи, инновация йўналиши ва натижадорлик мезонлари бўйича қиёслаш ҳамда SWOT-таҳлил ўтказиш уларнинг кучли ва заиф томонларини аниқ тизимлаштиришга имкон берди: Хитой тезкорлик ва миқёс, Европа Иттифоқи — стандартлаштириш, Япония — ишончилилик, Германия — аниқ рақамлаштириш йўналишида устун.

Учинчидан, таҳлил асосида Ўзбекистон учун гибрид инновацион модель асосланди: стратегик лойиҳаларда давлат етакчилиги, халқаро стандартларга интеграция ва мавжуд тармокни босқичма-босқич рақамлаштириш устуворлигини уйғунлаштирувчи ёндашув. Ушбу хулосалар Ўзбекистон темир йўл транспортининг инновацион салоҳиятини баҳолашга бағишланган тадқиқот — учун эмпирик асос яратади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Хитой давлат темир йўллари томонидан ишлаб чиқиладиган янги авлод юқори тезликдаги поезд лойиҳаси; тижорат тезлиги 400 км/соат, синов тезлиги 453 км/соатни ташкил этади.
2. Europe's Rail Joint Undertaking (EU-Rail). Европа Иттифоқининг Horizon Europe дастури доирасида темир йўл тадқиқотлари ва инновацияларини мувофиқлаштирувчи давлат-хусусий шериклик ташкилоти, Shift2Rail дастурининг ҳукукий вориси.
3. Суперўтказувчан магнит-левитация (SCMaglev). Поезднинг рельсдан кўтарилиб, магнит майдони ёрдамида ҳаракатланиш технологияси; ишқаланишни бартараф этиб, юқори тезликка эришиш имконини беради.
4. UIC (International Union of Railways). Халқаро темир йўллар иттифоқи — жаҳон темир йўл операторлари ва инфратузилма эгаларини бирлаштирувчи, техник стандартларни ишлаб чиқувчи халқаро ташкилот, 1922 йилда ташкил этилган.
5. DAC (Digital Automatic Coupler). Рақамли автоматик тиркама — юк вагонларини қўлда эмас, автоматик тарзда бир-бирига улаш ва энергия ҳамда маълумот узатиш тизимини таъминловчи технология, Европада юк ташишни модернизация қилишнинг калит йўналишларидан бири.
6. China's high-speed rail network tops 50,000 km, cementing global lead // Global Times. — 2025. — December 26. — URL: <https://www.globaltimes.cn/page/202512/1351591.shtml>
7. China bets big on high-speed rail with 60,000 km network target by 2030 // Business Standard. — 2026. — January 5. — URL: <https://www.business-standard.com>
8. Europe's Rail Joint Undertaking: European partnership for rail research and innovation under the Horizon Europe programme. — Brussels: EU-Rail, 2024. — URL: <https://rail-research.europa.eu>
9. Deutsche Bahn plans to invest more than EUR 23 billion in the network in 2026 // European Commission MYTENT\_T. — 2026. — URL: [https://ec.europa.eu/newsroom/mytent\\_t](https://ec.europa.eu/newsroom/mytent_t)
10. Shinkansen: Japanese Bullet and Maglev Trains // JRPass Blog. — 2026. — URL: <https://www.jrpass.com/blog/shinkansen-japanese-bullet-and-maglev-trains>
11. Lundvall B.-Å. (ed.) National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. — London: Pinter Publishers, 1992. — 342 p.
12. Global industry eyes China's high-speed rail for future growth, connectivity // China Daily. — 2025. — URL: <https://global.chinadaily.com.cn>
13. Malerba F. Sectoral systems of innovation and production // Research Policy. — 2002. — Vol. 31, № 2. — P. 247–264.

14. Europe’s Rail Annual Work Plan and Budget // Europe’s Rail. — URL: <https://rail-research.europa.eu/about-europes-rail/>
15. Digital rail: Federal government and Deutsche Bahn drive forward the digitalization of the German rail system // aconium GmbH. — 2025. — URL: <https://aconium.eu>
16. Development of the infrastructure // Deutsche Bahn Interim Report 2025. — URL: <https://zbir.deutschebahn.com/2025/en/>
17. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. Dynamic capabilities and strategic management // Strategic Management Journal. — 1997. — Vol. 18, № 7. — P. 509–533.
18. Central Japan Railway Company. Integrated Report 2025: The Chuo Shinkansen Project Using the Superconducting Maglev System. — Nagoya: JR Central, 2025. — 60 p.
19. An In-Depth Look at China’s High-Speed Rail Development in 2026 // rdekono.com. — 2026. — May 12. — URL: <https://www.rdekono.com>
20. Europe’s Rail Joint Undertaking: the case for a follow-up // Global Railway Review. — 2026. — URL: <https://www.globalrailwayreview.com>

**UDK: 330.15**

**O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA YASHIL INVESTITSİYALAR VA BARQAROR RIVOJLANISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK TAHLILI**

**АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ «ЗЕЛЕНЫМИ» ИНВЕСТИЦИЯМИ И УСТОЙЧИВЫМ РАЗВИТИЕМ В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА**

**ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN GREEN INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN**

**Jo‘rayeva Malika Zulfiqor qizi**

O‘zMU Makroiqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekiston mintaqalarida yashil investitsiyalar va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar dinamikasi, ularning hududiy taqsimoti hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaralari tahlil qilingan. Shuningdek, yashil investitsiyalarning energiya xavfsizligini ta’minlash, aholi bandligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, hududiy rivojlanish, energiya samaradorligi.

В данной статье рассматривается взаимосвязь между «зелеными» инвестициями и устойчивым развитием в регионах Узбекистана. В исследовании анализируется динамика инвестиций в возобновляемые источники энергии в стране, их территориальное распределение, а также экономические, социальные и экологические последствия. Также подчеркивается важность «зеленых» инвестиций для обеспечения энергетической безопасности, увеличения занятости и снижения негативного воздействия на окружающую среду.

**Ключевые слова:** «зеленые» инвестиции, устойчивое развитие, зеленая экономика, возобновляемая энергия, региональное развитие, энергоэффективность.

This article examines the interrelationship between green investments and sustainable development in the regions of Uzbekistan. The research analyzes the dynamics of investments in

renewable energy sources in the country, their territorial distribution, and their economic, social, and environmental impacts. It also highlights the importance of green investments in ensuring energy security, increasing employment, and reducing negative environmental impacts.

**Keywords:** green investments, sustainable development, green economy, renewable energy, regional development, energy efficiency.

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda iqlim o‘zgarishi, energiya resurslari tanqisligi va ekologik muammolarning kuchayishi davlatlarni iqtisodiy rivojlanishning yangi modellarini shakllantirishga undamoqda. Bunday sharoitda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash bilan bir vaqtda atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga erishishdan iborat [1].

Jahon banki va BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, yashil investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning yangi manbai sifatida shakllanib, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qisqartirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda [2]. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biriga aylandi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori bilan tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” mazkur sohadagi asosiy dasturiy hujjat hisoblanadi [3]. Mazkur strategiyada iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish hamda uglerod chiqindilarini qisqartirish vazifalari belgilangan.

Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati 2024-yilda 5166 MVtni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 10027 MVtga yetgan. Bu mamlakatda yashil energetika sohasiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining yuqori sur‘atlarda o‘shib borayotganligini ko‘rsatadi [4].

2025-yil yakuniga ko‘ra mamlakatda umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 86,7 mlrd kVt-soatni tashkil etgan bo‘lib, shundan 16,8 mlrd kVt-soat qismi yashil energiya hissasiga to‘g‘ri kelgan. Quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan energiya hajmi esa 10,5 mlrd kVt-soatga yetgan [5]. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatning energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ahamiyati tobora ortib borayotganligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, yashil investitsiyalar hududlar bo‘yicha bir xil taqsimlanmagan. Ayrim mintaqalarda quyosh va shamol energetikasi loyihalari faol amalga oshirilayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda mazkur sohadagi investitsiya faolligi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu holat yashil investitsiyalar va hududiy barqaror rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Maqolaning maqsadi O‘zbekiston mintaqalarida yashil investitsiyalar va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni iqtisodiy-statistik tahlil qilish hamda yashil investitsiyalarning hududiy rivojlanishga ta‘sirini baholashdan iborat.

Yashil iqtisodiyot va yashil investitsiyalar masalasi iqtisodiy fanning nisbatan yangi, ammo jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur konsepsiyaning nazariy asoslari Pearce, Markandya va Barbier tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular iqtisodiy o‘shish va atrof-muhit muhofazasi o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash zarurligini asoslab berganlar [6]. Mualliflar fikricha, iqtisodiy rivojlanish tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik xavfsizlik omillarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Stern iqlim o‘zgarishining iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilib, ekologik muammolarni bartaraf etish uchun sarflanadigan mablag‘lar kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy yo‘qotishlarga nisbatan ancha kam ekanligini ta‘kidlaydi [7]. Uning fikriga ko‘ra, yashil investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash bilan bir vaqtda iqlim xavflarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Jackson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy o‘shishning an’anaviy modellari tabiiy resurslarning ortiqcha sarflanishiga olib kelishi qayd etilgan. Shu sababli muallif barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun energiya tejamkor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi [8].

So‘nggi yillarda OECD, World Bank va Asian Development Bank tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda yashil investitsiyalar mamlakatlar iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, energiya xavfsizligini mustahkamlash hamda yangi ish o‘rinlari yaratishning muhim vositasi sifatida baholanmoqda [9;10].

O‘zbekistonlik olimlardan A.V.Vahobov yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlarini tadqiq qilib, yashil investitsiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ahamiyati yuqori ekanligini ta’kidlaydi [11]. N.A.Nazarova esa mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tishning institutsional asoslarini tahlil qilib, mazkur jarayonni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatib bergan [12].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda yashil investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning O‘zbekiston mintaqalari barqaror rivojlanishiga ta’siri hamda hududlar kesimidagi xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil obyekti sifatida O‘zbekistonning mintaqalarida amalga oshirilayotgan yashil investitsiya loyihalari va ularning iqtisodiy hamda ekologik natijalari tanlab olindi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, IRENA, World Bank va Asian Development Bank ma’lumotlari tashkil etdi [4;5;9].

Tahlil jarayonida yashil investitsiyalarni baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanildi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati;
- yashil energetika sohasiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi;
- yashil energiya ishlab chiqarish hajmi;
- energiya tejamkorligi ko‘rsatkichlari;
- yaratilgan ish o‘rinlari soni;
- uglerod chiqindilarining qisqarish darajasi.

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida yashil investitsiyalar va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.

### 1-jadval

**O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatining o‘shishi [4]**

| Ko‘rsatkich                              | 2024 | 2025  |
|------------------------------------------|------|-------|
| Qayta tiklanuvchi energiya quvvati (MVt) | 5166 | 10027 |
| O‘shish sur‘ati (%)                      | -    | 94,1  |

Manba: IRENA Renewable Capacity Statistics 2026 asosida tuzildi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati qariyb ikki barobar oshgan. Bu holat yashil energetika sohasiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining keskin ko‘payganligi bilan izohlanadi.

### 2-jadval

**Quyosh va shamol energetikasi ishlab chiqarishi dinamikasi [5]**

| Yil  | Elektr energiyasi ishlab chiqarish (mlrd kVt·soat) |
|------|----------------------------------------------------|
| 2022 | 0,434                                              |
| 2023 | 0,577                                              |
| 2024 | 4,86                                               |
| 2025 | 10,50                                              |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma’lumotlari asosida tuzildi.

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2022–2025-yillar davomida yashil energiya ishlab chiqarish hajmi 24 baravardan ortiq o‘sgan. Bu esa mamlakat energetika tarmog‘ida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

**3-jadval**

**O‘zbekiston mintaqalarida amalga oshirilayotgan yirik yashil energetika loyihalari [13]**

| Hudud                  | Loyiha turi                 | Quvvati (MVt) |
|------------------------|-----------------------------|---------------|
| Navoiy viloyati        | Shamol elektr stansiyasi    | 500           |
| Buxoro viloyati        | Shamol elektr stansiyasi    | 1000          |
| Samarqand viloyati     | Quyosh elektr stansiyasi    | 440           |
| Jizzax viloyati        | Quyosh elektr stansiyasi    | 400           |
| Qoraqalpog‘iston Resp. | Quyosh va shamol loyihalari | 3500          |

Ushbu ma’lumotlar yashil investitsiyalar asosan yuqori tabiiy salohiyatga ega hududlarda jamlanayotganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyati mamlakatning yashil energetika markazlariga aylanib bormoqda.

**4-jadval**

**O‘zbekistonda yashil investitsiyalar va yangi energetika quvvatlari [5].**

| Ko‘rsatkich                                 | 2024 | 2025 |
|---------------------------------------------|------|------|
| Loyihalar soni                              | 24   | 42   |
| Jalb qilingan investitsiyalar (mlrd dollar) | 7    | 11   |
| Yangi quvvatlar (MVt)                       | 2300 | 4647 |

Tahlillar ko‘rsatishicha, yashil investitsiyalar hajmining oshishi mamlakatning energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, energiya importiga bo‘lgan ehtiyoj qisqarib, ichki energiya ta’minoti barqarorligi kuchaymoqda.

**5-jadval**

**Yashil investitsiyalarning iqtisodiy va ekologik natijalari (2025-yil) [5]**

| Ko‘rsatkich                             | Miqdori            |
|-----------------------------------------|--------------------|
| Yashil energiya ishlab chiqarish        | 16,8 mlrd kVt·soat |
| Tabiiy gaz iqtisodi                     | 3,2 mlrd kub metr  |
| SO <sub>2</sub> chiqindilari qisqarishi | 4,7 mln tonna      |
| Yangi ish o‘rinlari                     | 8 mingdan ortiq    |

*Manba: Energetika vazirligi ma’lumotlari asosida tuzildi*

Ushbu natijalar yashil investitsiyalar iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy samara ham berayotganligini ko‘rsatadi. Xususan, zararli chiqindilarning qisqarishi aholi salomatligi va ekologik barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida yashil iqtisodiyotga o‘tish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mamlakatda yashil investitsiyalar hajmining o‘shishi qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatining kengayishi, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, 2024–2025-yillarda qayta tiklanuvchi energiya quvvati 5166 MVtdan 10027 MVtga yetgan bo‘lib, bir yil ichida qariyb ikki baravar o‘shish kuzatilgan. Shuningdek, quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan energiya hajmi 2022-yildagi 434 mln kVt·soatdan 2025-yilda 10,5 mlrd kVt·soatga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakatda yashil investitsiyalar siyosatining samarali amalga oshirilayotganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida yashil investitsiyalar va barqaror rivojlanish o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Xususan, yirik yashil investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgan Navoiy, Buxoro, Samarqand, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida energetika infratuzilmasi tez sur‘atlarda rivojlanmoqda, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda va investitsiya

jozibadorligi ortib bormoqda. Bu esa yashil investitsiyalar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy samara ham berayotganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari ayrim hududlarda yashil investitsiyalar jalb qilish darajasi nisbatan pastligini ko‘rsatdi. Bu holat hududlar o‘rtasida investitsiya muhiti, infratuzilma ta‘minoti va loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarida farqlar mavjudligi bilan izohlanadi. Natijada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni hududlar kesimida bir xil sur‘atlarda kechmayotganligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchidan, hududlarda yashil investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha maxsus hududiy dasturlar ishlab chiqish va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Bu kam rivojlangan hududlarda ham yashil loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchidan, mamlakatda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur. Bu qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi sohasidagi loyihalar uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, yashil investitsiyalar samaradorligini baholash bo‘yicha yagona milliy monitoring tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq. Bunday tizim investitsiyalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarini baholash imkonini yaratadi hamda qaror qabul qilish jarayoni samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, xalqaro moliya institutlari, xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni yanada kengaytirish orqali yashil moliyalashtirish hajmini oshirish lozim.

Beshinchidan, har bir mintaqa uchun uning tabiiy-iqlim sharoitlari va iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda alohida yashil investitsiyalar strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu hududiy resurslardan samarali foydalanish va investitsiyalar qaytimini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, yashil investitsiyalar O‘zbekiston mintaqalarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, energetika xavfsizligini mustahkamlash, aholi turmush darajasini yaxshilash va ekologik barqarorlikka erishishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli mazkur sohadagi davlat siyosatini izchil davom ettirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4477-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–436-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni.
4. International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewable Capacity Statistics 2026. Abu Dhabi: IRENA, 2026.
5. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha energetika sohasi hisoboti.
6. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. London: Earthscan Publications, 1989.
7. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
8. Jackson T. Prosperity without Growth: Economics for a Finite Planet. London: Earthscan, 2009.
9. OECD. Green Growth Indicators 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
10. World Bank. World Development Report 2024: Sustainable Development and Climate Action. Washington D.C., 2024.

11. Vahobov A.V. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
12. Nazarova N.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning institutsional asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №4.
13. Asian Development Bank. Uzbekistan: Energy Sector Assessment, Strategy and Road Map. Manila, 2024.
14. United Nations Environment Programme. Green Economy Report. New York: UNEP, 2023.
15. International Energy Agency (IEA). Uzbekistan Energy Profile 2025. Paris: IEA, 2025.
16. Sovacool B.K. Sustainable Energy Transitions. Energy Research & Social Science. 2021.
17. Polzin F. Green Finance and Renewable Energy Investments. Energy Policy. 2022.
18. Mealy P., Teytelboym A. Economic Complexity and Green Growth. Ecological Economics. 2023.
19. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. 2025-yil statistik to‘plami.
20. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Investitsiyalar va hududiy rivojlanish hisoboti. 2025.

**UDK: 361.67**

**ADIR HUDUDI EKOTIZIMLARINI BOSHQARISHDA INTENSIV SUG‘ORISH  
TIZIMINI JORIY ETISH**

**ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ ИНТЕНСИВНОГО ОРОШЕНИЯ В УПРАВЛЕНИЕ  
ЭКОСИСТЕМОЙ РЕГИОНА АДП**

**IMPLEMENTATION OF INTENSIVE IRRIGATION SYSTEMS IN THE MANAGEMENT  
OF HILL REGION ECOSYSTEMS**

**Qodirov Hamidullo Madaminjonovich**

Andijon davlat texnika instituti “Menejment” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi, PhD

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Andijon viloyati adir hududlarida yog‘in suvlari yig‘ish usullari, suv yig‘ish havzalarini loyihalash va ushbu ekotizimda sug‘orish tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, ilmiy asoslantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik va iqtisodiy samaradorlik, atmosfera yig‘inlarini yig‘ish usullari, suv yig‘ish havzalarini loyihalash, sug‘orish tizimlarini takomillashtirish, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish, yomg‘ir suvlarini yig‘ish rezervuari, zinapoyasimon tekis platforma, passive release yoki dual-mode usullar.

В данной статье разработаны и научно обоснованы предложения по методам сбора дождевой воды в холмистых районах Андижанской области, проектированию водосборных бассейнов и совершенствованию ирригационных систем в данной экосистеме.

**Ключевые слова:** эколого-экономическая эффективность, методы сбора атмосферных осадков, проектирование водосборных бассейнов, совершенствование ирригационных систем, комплексное управление водными ресурсами, водосборное хранилище, ступенчатая плоская платформа, пассивный сброс или двухрежимные методы.

This article develops and scientifically substantiates proposals for methods of rainwater harvesting in the hilly areas of Andijan region, design of water collection basins, and improvement of irrigation systems in this ecosystem.

**Keywords:** ecological and economic efficiency, methods of atmospheric precipitation collection, design of water collection basins, improvement of irrigation systems, integrated water resources management, rainwater harvesting reservoir, stepped flat platform, passive release or dual-mode methods.

Azal-azaldan insoniyat, o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida, tabiiy resurslardan “oqilona” foydalanib, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini sifati va miqdorini oshirish bilan bir qatorda, atrof-muhit muhofazasiga ham e’tibor berib, shu bilan ekologik va iqtisodiy masalalarni hal qilishda, optimal nisbatni topishga harakat qiladi. “O‘zgaruvchan iqlim sharoiti — dehqon-fermer xo‘jaliklarining hosildorligini barqarorlashtirish uchun, tuproq va suvni boshqarishga qaratilgan moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi [3]”. Jahon iqtisodiyoti tarmoqlarining zamonaviy rivojlanishini tahlil qilar ekanmiz, biz ekologik ustuvorliklarga nisbatan, ko‘proq iqtisodiy ustuvorlikning uzoq vaqt hukmron bo‘lganligini kuzatmoqdamiz, bu esa o‘z navbatida, sayyoramiz florasi va faunasi holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emas.

Hozirgi globallashuv jarayoni — atrof-muhitga antropogen ta’sirini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni yaratishni jadallashtirish uchun ijobiy shart-sharoitlarni yaratishni taqozo qiladi. “Har qanday xo‘jalik faoliyati – bu, ekotizim bilan bog‘liq bo‘lgan milliy iqtisodiyotning bir sohasi hisoblanganligi uchun ham, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarining ekologik va iqtisodiy samaradorligini baholash, atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini kuzatish, ekotizim boshqaruvi va butun jamiyat uchun juda muhimdir” [7].

Ushbu maqolada Andijon viloyati adir hududlarida yog‘in suvlari yig‘ish usullari, suv yig‘ish havzalarini loyihalash va ushbu ekotizimda sug‘orish tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: 2017-yil 22-apreldagi, “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi [1]; 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi (PF-81-son); 2024-yil 26-sentyabrdagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda, boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PF-149-son); va 2025-yil 19-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari ekotizimlar boshqaruvini hozirgi kunda qanchalik zarur ekanligini anglatadi.

Tadqiqot jarayonida, insonlar yomg‘ir suvlaridan qanday usullar yordamida foydalanayotgani, atmosfera yig‘inlarini yig‘ish va ulardan foydalanish borasidagi bir qancha usuldalar ko‘rib chiqildi.

Daily Civil (butun dunyo bo‘ylab barcha qurilish muhandislari va CE talabalari uchun o‘quv platformasi (2023)) ga ko‘ra [2], suv tanqisligini kamaytirish, yer osti suvlarini to‘ldirish va barqaror suv resurslarini boshqarishning muhim omili sifatida tavsiflanadi.

Taylor, Benjamin Allan (2013, Australia) ni fikricha, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yomg‘ir suvi yig‘ish tizimi har yili yog‘ingarchilik miqdori o‘zgarishi sababli qabul qilinadi. Yomg‘ir suvlarini yig‘ish havzalarini loyihalash va baholashning aksariyati, ta’minotning ishonchliligiga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Avstraliyalik olim — Upendra Paudel. U, yomg‘ir suvlarini yig‘ish tizimlarining suv tejash salohiyati, ishonchliligi, rezervuar hajmini tanlash va iqlim sharoitlariga mos matematik modellarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Upendra Paudelning fikricha [4], “oylik yog‘ingarchilik ma’lumotlari yomg‘ir suvlarini yig‘ish tizimining haqiqiy samaradorligini to‘liq aks ettirmaydi, aksincha, kundalik ma’lumotlardan foydalanish ancha ishonchli natija beradi”.

Ushbu maqolaning metodologik asosini ekotizimni yondashuv, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish, barqaror rivojlanish tamoyillari, landshaft ekologiyasi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotda adir hududlari ekotizimlari boshqaruvida intensiv sug‘orish tizimlarini joriy etishning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi kompleks baholanadi. Maqola, Andijon viloyati adir hududlari sharoitida olib borilgan tadqiqot natijasi bo‘lib, yomg‘ir suvlarini yig‘ish rezervuarlari, hududiy tahlil, tomchilatib sug‘orish

tizimi va ekotizim xizmatlarini baholash modeli bilan uzviy bog‘langan yagona ilmiy-metodik asosni yaratadi.

Ko‘pchilikka ma‘lum-ki, Andijon viloyatining Adirliklarida yoki, unga yaqin atrofda istiqomat qilayotgan aholi va boshqa foydalanuvchilar, adir ekotizimlarining cheklangan resurslaridan — ziroatchilik va chorvachilik maqsadlarida cheklangan darajada foydalanib kelishadi. ... Doimiy ravishda o‘zib borayotgan aholining ushbu cheklangan resurslarga bog‘liqligi — adir ekotizimlarning o‘ziga xos murakkabligini yumshatishni taqozo qiladi [5]. Bundan tashqari, suv tejamkor texnologiyalardan unumli foydalanilmasligi va iste‘mol talablarni qondirish uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning yildan-yilga ortib borishi, resurslar (biologik xilma-xillik) ni qashshoqlanishiga olib keladi.

... Adir hududlarida sug‘orish tizimlarini takomillashtirish agar, suvdan foydalanish jarayonida texnik muammolar kuzatilayotgan bo‘lsa, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirilishini taqozo qiladi. Bu jarayonda, muammolar ichki texnologiyalar bo‘yicha tahlil qilinib, suvdan foydalanishdagi muhim masalalarga javob berishi uchun texnik qarorlar qabul qilish va sug‘orish bilan bog‘liq muammolarni kamaytirish kabi masalalar hal qilinishi zarur [6].

Tadqiqotlarimiz jarayonida, ko‘plab olimlarni aynan adir (tepalik) hududlarida yog‘in suvlarini yig‘ish borasidagi ilmiy izlanishlari bilan tanishdik. Masalan:

Amerikalik olim, Peter G. McCornick – qurg‘oqchil va tepalik hududlarda suv resurslarini boshqarish, ayniqsa atmosfera yog‘in suvlarini yig‘ish va undan qishloq xo‘jaligida foydalanish bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar olib borgan. U, kichik relyef shakllaridan foydalanib, yomg‘ir suvlarini to‘plash va saqlash usulini qo‘llagan.

Qo‘llanilishi: Har bir daraxt yoki ekin atrofiga kichik chuqurchalar, ko‘tarma yo‘lchilar (bund) orqali suv yig‘iladi.

Afzalligi: Tejamkor, arzon, individual ko‘chatlar uchun foydali.

Kamchiligi: Yig‘ilgan suv tuproqqa tez singib ketadi va parlanadi.

Suriyalik olim, Theib Y. Oweis Tadqiqot mavzusi: Water harvesting: indigenous knowledge for the future of the drier environments (Suv yig‘ish: qurg‘oqchil muhitning kelajagi uchun mahalliy bilim). U, qurg‘oqchil va tepalik hududlarda suv yig‘ishning texnologik hamda, agroekologik jihatlarini o‘rgangan.

Qo‘llanilishi: Har bir individual daraxt yoki buta atrofiga kichik chuqurchalar (halqali yoki yarim oy shaklida ya‘ni, zinapoyasimon tekis platforma) qaziladi. Ular yomg‘ir suvini tutib qoladi va tuproqqa chuqur shimilishiga yordam beradi. U qo‘llagan zinapoyasimon usul, 1990-yillardan boshlab ICARDA (International Center for Agricultural Research in the Dry Areas- Qurg‘oqchi hududlarda qishloq xo‘jaligini tadqiq qilish xalqaro markazi) loyihalari doirasida keng qo‘llanilgan, ammo ayniqsa 1999-2005-yillar oralig‘ida Theib Y. Oweis yetakchiligida Suriya, Iordaniya, Marokash kabi adirli davlatlarda sinovdan o‘tkazilgan.

Kamchiligi: Yig‘ilgan suv uzoq saqlanmaydi, ya‘ni, tuproqqa tez singib ketadi va parlanadi.

Meksikalik olim, Christopher Scott. Ixtisosligi: Tejamkor sug‘orish va suvni boshqarish. Lotin Amerikasining tog‘li qishloq xo‘jaligi hududlarida, ijtimoiy asosda suv yig‘ish va kollektiv sug‘orish tizimlarini tadqiq etgan.

Qo‘llanilishi: Tog‘li hududlarda kichik to‘g‘onlar, vannalar, shlyuzlar shaklida.

Foydali xususiyatlari: To‘plangan suvni sug‘orishga yo‘naltirish.

Kamchiligi: Yig‘ilgan suv uzoq saqlanmasdan tez parlanib ketadi.

Taylandlik olim, Wen-Yan Huang. Tayvanda, 2010-yillarda (2009–2010) va keyinchalik (2024) *passive release* yoki *dual-mode* usullar orqali tomorqa va inshootlar uchun yomg‘ir suvini yig‘ish loyihalarini ishlab chiqqan.

Qo‘llanilishi: Tog‘ yoki adir yonbag‘irlarida relyefning kontur chiziqlari bo‘yicha suv oqimini sekinlashtirish va yerga singishini oshirish uchun maxsus yer shakllari yoki to‘siqlar qurishni tavsiya etgan.

Foydali xususiyatlari: eroziyaning oldini oladi; suvning infiltratsiyasini oshiradi; lalmikor ekinlar uchun tabiiy namlikni saqlaydi.

Kamchiligi: Yig‘ilgan suv uzoq saqlanmasdan tez parlanib ketadi.

Zimbabwe tajriba usuli. Marage tumanidagi “Zonve” tog‘ining yog‘ingarchilik xususiyatlari 2015-2016-yildan, 2017-2018-yilgacha ekin ekish mavsumida, Zimbabvedagi kichik fermerlar tomonidan qo‘llaniladigan nazorat va oddiy amaliyot bo‘lgan bog‘larni konturlar (TC), infiltratsiya chuqurlari (IP) va standart kontur (STDC) ning ta‘siri baholangan. Bu usul, Zimbabvelik fermer Zephenia Maseko Phiridan kelib chiqqan g‘oya. STDC tizmasi bo‘ylab suv oqimini ushlab turish va infiltratsiyani oshirish va suv oqimida ushlab turish uchun xandaqlar qazilgan.

Foydali xususiyatlari: Infiltratsiya chuqurlari suv oqimini sezilarli darajada kamaytiradi, namlikni saqlaydi, chuqurlar kontur bo‘ylab joylashtirilgan va hosil qoldiqlari kontur ustidagi dalalardan chuqurlarda to‘planishi mumkin, kontur tizmalarida qurish arzonroq.

Kamchiligi: Yig‘ilgan suv uzoq saqlanmasdan tez parlanib ketadi.

Bangladeshlik olimlar — Md. Tariqul Islom va boshqlarning tadqiqotlari (Bangladeshning tepalikni suv havzasida dehqonchilik tizimini rivojlantirish uchun yomg‘ir suvini yig‘ish salohiyati)da, Ikki tepalik orasiga qurilgan to‘g‘on yomg‘ir suvlarini to‘playdi va nasos orqali doimiy tarzda maxsus havzaga tortib olinadi.

Kamchiliklari: Yig‘ilgan suv havzasi ochiq bo‘lganligi sababli uzoq saqlanmasdan tez parlanib ketadi.

Iskandar Abdullayev. Institutsional integratsiyalashgan suv boshqaruvi (IWRM), jamoatchilikni jalb qilish, suvni tejash texnologiyalari va sug‘orish tuzilmalarini modellashtirish bilan bog‘liq. U, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi tomonidan amalga oshirilayotgan USAID loyihalarida ishtirok etgan. Ushbu sohalar bo‘yicha Abdullayevning ishi, suv resurslarini samarali boshqarish va mintaqada barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan.

Iskandar Abdullayevning integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish modeli (IWRM) doirasida Farg‘ona vodiysi misolida ishlatiladigan kontur bandlar va jamoaviy boshqaruv tamoyillariga asoslanadi va quyidagicha izohlanadi:

-kontur to‘siqlar (Contour Bunds) — relyef bo‘ylab parallel joylashtirilgan tuproqdan qurilgan to‘siqlar suv oqimini boshqarishga yordam beradi;

-yomg‘ir suvi oqimi (Rainwater Flow) ko‘rsatilgan strelkalar orqali pastga oqib, to‘siqlar orasida joylashgan maydonlarga yo‘naltiriladi;

-mikrohavzalar va agrar landshaft elementi (qishloq xo‘jaligi yerlarini tashkil etuvchi komponentlar, shu jumladan dalalar, o‘tloqlar, yaylovlar, bog‘lar, uzumzorlar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘llar, kanallar, to‘siqlar va binolar) yer ostiga singayotgan suvni yig‘ish va tuproq namligini oshirish uchun kichik zonalar;

-daraxtzor zonolari (Vegetation Strips) — kontur bo‘yicha turgan o‘simliklar eroziya xavfini kamaytiradi va suv samaradorligini oshiradi;

-sug‘oriladigan maydonlar va suv rezervuari – to‘siqlardan to‘planib, pastki maydonda yig‘ilgan suv keyinchalik tomchilatib yoki ochiq sug‘orish orqali foydalanishga tayyorlanadi.

Kamchiligi: Yig‘ilgan suv uzoq saqlanmasdan tez parlanib ketadi.

Ushbu tadqiqot, Andijon viloyatining Xo‘jaobod tumani hududida joylashgan Adir ekotizimi misolida ko‘rib chiqiladi. Adir ekotipi o‘ziga xos relyef shakliga ega. Biz, ushbu hududning relyefi xaritasini ishlab chiqdik (1-rasm). Xaritaga e‘tibor bersangiz u yerda, atmosfera yog‘inlarini qiyaliklar bo‘ylab botiqlar tomon harakatlanayotganini ko‘rasiz. Andijon viloyati hududlarida atmosfera yog‘inlarini tushishi bir xil emas. Viloyatning Xonobod, Qo‘rg‘ontepa va Jalaquduq tumanlarida iqlim sharoitidan kelib chiqsak, boshqa tumanlarga nisbatan atmosfera yog‘inlari miqdori ko‘proq. Lekin shunday bo‘lsa ham, biz ushbu tadqiqot ishimizda, bir yilda bir-ikki marotaba sodir bo‘ladigan kuchli yog‘in (jala) ularni inobatga olganmiz. Shu o‘rinda aytib o‘tish joiz-ki, Biz tavsiya etayotgan usul, xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan usullardan biroz farq qiladi.



**1-rasm. Andijon viloyatining Xo‘jaobod tumani adir hududining relyefi xaritasi**

Manba: Muallif tomonidan ishlangan.


Adir hududiga tushayotgan yomg‘ir suvlarini yig‘ib, ulardan foydalanish bir nechta bosqichlardan iborat tadbirlarni amalga oshirilmog‘i lozim.

I-bosqich. 1-rasmda izohlanganidek, hududga tushayotgan atmosfera yog‘inlarini qiyaliklar va botiqlar bo‘ylab oqib, hududning eng chuqur botig‘iga borib to‘planadi. Aynan o‘sha botiq belgilab olinadi. Adir tuproqlarining suv o‘tkazuvchanlik qobiliyatini yuqori va ayniqsa ular bir necha qatlamlardan iborat ekanligini hisobga olsak tabiiyki, katta miqdorda suv yig‘ilgan bo‘lsa ham aksariyat hollarda tez (bir necha soatlar) da tuproqqa singib ketadi (2 (a va b)-rasm). Buni, adir hududlarida joylashgan “selhona”lar misolida ko‘rishimiz mumkin.

II-bosqich. Yig‘iladigan suvni tuproqqa singib ketmasligi uchun botiqqa maxsus “Rezervuar” (3-rasm) quriladi. Ushbu rezervuarning hajmi, hudud botig‘iga oqib keladigan suv miqdoriga bog‘liq. Agar, atmosfera yog‘inlarini katta masshtabda to‘playdigan botiq bo‘lsa, rezervuar kattaroq bo‘lgani ma’qul. Masalan, Xo‘jaobod tumani “Ittifoq” MFY ga yaqin bo‘lgan 100 gektarlik adir hududning botiq qismi (eng katta botiqlaridan biri) ga quriladigan “Rezervuar” uchun bizga nimalar kerak? Agar, har 100 gektar maydondan 100000 m<sup>3</sup> suv yig‘ib olish mumkin bo‘lsa, buni quyidagicha ko‘rib chiqamiz.



**2(a)-rasm. Atmosfera yog‘in suvlari yig‘iladigan botiq**



2(b)-rasm. Botiqlarda yig'ilgan suvlarni tuproq qatlamlariga singishi

Rezervuarining geometrik parametrlari.


- rezervuar turi: Yer osti (ark shaklidagi temir-beton);
- sig'imi: 100000 m<sup>3</sup>;
- diametri: 50 metr;
- chuqurligi: 45 metr;
- Suv sathi: 43 metr.

$$V = \frac{\pi \times D^2}{4} \times H = \frac{3,14 \times 50^2}{4} \times 45 = 88312,5 \text{ m}^3$$

Rezervuarining asosiy ko'rsatkichlari.

- rezervuar ichidagi ustunlar soni: 16 dona;
- ustun diametri: 1,5-2,0 m;
- ustunlar oralig'i: 6-8 m;
- suv olish quvurining diametri: 500 mm (4 ta);
- suv olish quvurining rezervuar tubidan balandligi: 0,5 m;
- havo quvuri diametri: 300 mm (4 ta);
- suv olish va havo quvurlarining yer sirtidan balandligi: 2,0 m.

Rezervuarga suvni yig'ish uchun, ferma (qopqoq) ustiga: maxsus sintetik (odatda polipilen yoki poliester) texnik mato (150-300 g/m<sup>3</sup>); uning ustidan qum (15-20 sm qalinlikda); mayda shag'al (20-25 sm); va yirik shag'al (30-35 sm) to'shaladi. Ular loyqa, qum va boshqa organik qoldiqlarni ushlab qolib, suv sifatini buzilishini vaqtinchalik oldini oladi.



3-rasm. “Rezervuar”ning joylashuvi

Ushbu tadbirlar, yig‘ilayotgan suvni filtrlab, tezroq rezervuarga quyilishiga sabab bo‘ladi. Albatta “rezervuar” botiq tuproqlari sathidan imkon qadar pastroqda o‘rnatilgan bo‘lgani ma’qul (3-rasm). Shuningdek, suv ombori joylashtirilgan hudud panjaralar bilan o‘rab qo‘yilishi (ekotizimdan foydalanuvchilar yoki chorva mollarining tuproq ostidagi rezervuar qopqog‘iga zarar yetkazmasliklari uchun) bilan o‘ralishi zarur. Suv tortish quvurining pastki qismi rezervuar tubidan 50 sm masofa qoldirib (cho‘kma hosil bo‘lishi mumkin) joylashtirilishi, bir qismi esa, yer sirtidan 1,5-2 m balandroqqa chiqarib qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Agar, keyinchalik suv bilan oqib kelgan loyqalar, ushbu suv olish quvurini to‘sib qoladigan holga keltirsa, qo‘shimcha quvur payvandlanib, uni uzaytirish mumkin.

Adir hududlarida ekotizimlarni samarali boshqarish uchun intensiv sug‘orish tizimlarini joriy etish muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu tizim yer resurslaridan oqilona foydalanish, suv tanqisligi sharoitida hosildorlikni oshirish va eroziya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Tomchilatib sug‘orish orqali suvdan tejamkor foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, intensiv sug‘orish tizimlari agrotexnik chora-tadbirlar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, adir ekotizimlarining barqarorligini ta‘minlashga va ekologik muvozanatni saqlab qolishga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2017 yildagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5024-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-3174498>;
2. Daily Civil. Rainwater Harvesting – Methods, Advantages & Disadvantages. 2023. <https://dailycivil.Com/rainwater-harvesting-methods-advantages-disadvantages>;
3. Lebel, Sarah Marie Anne. Assessing the potential of rainwater harvesting as an adaptation strategy to climate change in Africa. PhD thesis, University of Leeds;
4. Upendra Paudel. Equations for potential water savings through rainwater harvesting for different climatic conditions in Adelaide (Australia). International Journal of Hydrology Science and Technology 8(1):91 DOI:10.1504/IJHST.2018.10009621;
5. Kadyrov Hamidullo Madaminjonovich. Factors affecting the management of hill region ecosystems and their characteristics. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net>, Volume-46, May-2025. ISSN: 2749-3601;
6. Qodirov Hamidullo Madaminjonovich. Aholi zich yashaydigan hududlarda adir ekotizimlarni boshqarishning nazariy qarashlari. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti – metodik jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16753405>;
7. Qodirov Hamidullo Madaminjonovich. Adir ekotizimlarini boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Elektron nashr. 2026-yil, iyun. VI-qism.

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNI  
RAQOBATBARDOSHLIK TRANSMISSIYA MEKANIZMI VA UNI BAHOLASH  
USLUBIYOTI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

**КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫЙ МЕХАНИЗМ ПЕРЕДАЧИ ИНВЕСТИЦИЙ,  
ПРИВЛЕКАЕМЫХ К МАЛОМУ БИЗНЕСУ, И МЕТОД ЕГО ОЦЕНКИ (НА ПРИМЕРЕ  
РЕГИОНА АНДИДЖАН)**

**COMPETITIVE TRANSMISSION MECHANISM OF INVESTMENTS ATTRACTED TO  
SMALL BUSINESSES AND ITS ASSESSMENT METHOD (ON THE EXAMPLE OF  
ANDIJAN REGION)**

**Jo‘rayeva Moxinur Axmadjon qizi**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalarning raqobatbardoshlik jarayoni uch bo‘g‘inli transmissiya zanjiri (investitsiya → mahsulot → eksport) ko‘rinishida modellashtirishgan va Andijon viloyatining 16 ta tumani kesimida sinovdan o‘tkazilgan. Har bir bo‘g‘in uchun alohida samaradorlik koeffitsiyenti hisoblangan hamda uchta ko‘rsatkichni birlashtiruvchi investitsion-raqobatbardoshlik integral indeksi (IRRI) ishlab chiqilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra tumanlar o‘rtasidagi transmissiya samaradorligi qirq barobardan ortiq farqlanadi, bu esa investitsiya hajmining o‘zi raqobatbardoshlik ni kafolatlamasligini, uning tarmoq va hududiy yo‘nalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Aniqlangan kamchiliklar asosida uch bosqichli (loyiha oldi, joriy monitoring, yakuniy) baholash mexanizmi taklif etilgan va Andijon viloyati kichik biznesini rivojlantirishning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, raqobatbardoshlik, transmissiya zanjiri, integral indeks, hududiy tahlil, baholash mexanizmi, kichik biznes, eksport, monitoring, Andijon viloyati.

В статье процесс превращения инвестиций, привлечённых субъектами малого бизнеса, в конкурентоспособность смоделирован в виде трёхзвенной трансмиссионной цепи (инвестиции → продукция → экспорт) и апробирован в разрезе 16 районов Андижанской области. Для каждого звена рассчитан отдельный коэффициент эффективности, а также разработан интегральный индекс инвестиционной конкурентоспособности (IRRI), объединяющий три показателя. Результаты анализа показывают, что эффективность трансмиссии между районами различается более чем в сорок раз, что свидетельствует о том, что сам объём инвестиций не гарантирует конкурентоспособности, а решающее значение имеет их отраслевая и территориальная направленность. На основе выявленных недостатков предложен трёхэтапный (предпроектный, текущий мониторинг, итоговый) механизм оценки, а также разработана инвестиционная программа развития малого бизнеса Андижанской области на 2026–2030 годы.

**Ключевые слова:** инвестиции, конкурентоспособность, трансмиссионная цепь, интегральный индекс, территориальный анализ, механизм оценки, малый бизнес, экспорт, мониторинг, Андижанская область.

This article models the process by which investments attracted by small business entities are transformed into competitiveness as a three-link transmission chain (investment → output → export) and tests it across the 16 districts of Andijan region. A separate efficiency coefficient is calculated for each link, and an integral investment-competitiveness index (IRRI) combining the three indicators

is developed. The analysis shows that transmission efficiency varies by more than fortyfold across districts, indicating that investment volume alone does not guarantee competitiveness — its sectoral and territorial direction is decisive. Based on the identified shortcomings, a three-stage (pre-project, current monitoring, final) evaluation mechanism is proposed, along with an investment development program for Andijan region’s small business sector for 2026–2030.

**Keywords:** investment, competitiveness, transmission chain, integral index, territorial analysis, evaluation mechanism, small business, export, monitoring, Andijan region.

Kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalarning pirovard maqsadi ularning bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashdan iborat. Investitsiya hududga kirib kelgan paytdan boshlab uzluksiz iqtisodiy zanjirni harakatga keltiradi: dastlab u asosiy vositalarni yangilash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun sarflanadi, so‘ngra bu quvvatlar real sanoat mahsulotiga aylanadi, oxir-oqibatda esa yaratilgan mahsulot ichki va tashqi bozorlarda sotiladi. Amaldagi baholash amaliyoti odatda investitsiyaning faqat hajmiy ko‘rsatkichlariga tayanadi va uning raqobatbardoshlik samaradorligini o‘lchamaydi, bu esa katta hajmdagi mablag‘ kam natija berishi mumkinligini yashiradi [1].

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hududiy investitsiya siyosati amaliyotida ko‘pincha investitsiya hajmining o‘zi muvaffaqiyat mezonini sifatida qabul qilinadi, holbuki katta hajmdagi mablag‘ past samaradorlik bilan ham sarflanishi mumkin. Bunday uslubiy kamchilik investitsiya resurslarini noto‘g‘ri yo‘naltirish xavfini keltirib chiqaradi va hududlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutini kengaytiradi. Shu sababli investitsiyaning har bir bosqichda qanday natijaga aylanishini kuzatib boruvchi, hududiy xususiyatlarni hisobga oluvchi va amaliy boshqaruv qaroriga bevosita bog‘langan baholash mexanizmini ishlab chiqish nazariy va amaliy ahamiyatga ega [2].

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning iqtisodiy o‘lish bilan bog‘liqligini H.T.T. Le, T.T. Nguyen va H.T.T. Tran [6] 2022-yilgi tadqiqotida chuqur o‘rgangan bo‘lib, ular kichik biznesni moliyalashtirish rolining biznes muhitini rivojlantirish va iqtisodiy o‘lishga ta‘sirini rivojlanayotgan iqtisodiyotlar misolida empirik jihatdan asoslashgan. Ularning xulosasiga ko‘ra moliyalashtirishning o‘zi emas, balki uning ishlab chiqarish va eksport natijalariga aylanish samaradorligi asosiy ahamiyatga ega, bu esa mazkur tadqiqotda transmissiya zanjirini alohida bo‘g‘inlarga ajratib o‘rganish zarurligini nazariy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda kichik biznesni moliyalashtirish farqlarini M.R. Keffala [5] 2025-yilgi tadqiqotida qiyosiy tahlil qilib, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda moliyaviy resurslarning ishlab chiqarish natijalariga aylanish darajasi rivojlangan iqtisodiyotlarga nisbatan sezilarli darajada past va notekis ekanligini ko‘rsatgan. Ushbu xulosa Andijon viloyati tumanlari o‘rtasida kuzatilgan transmissiya samaradorligidagi keskin tafovutni nazariy jihatdan izohlaydi.

Hududlar o‘rtasidagi raqobatbardoshlik ni yagona ko‘rsatkichda ifodalash uslubiyotini L. Dijkstra, P. Annoni va K. Kozovska [3] Yevropa Ittifoqining hududiy raqobatbardoshlik indeksiga bag‘ishlangan tadqiqotida ishlab chiqib, turli o‘lchov birligiga ega ko‘rsatkichlarni minimal-maksimal usulda normallashtirish va tortilgan yig‘indi orqali yagona integral indeksga birlashtirish metodologiyasini asoslashgan. Ushbu metodologik yondashuv mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan investitsion-raqobatbardoshlik integral indeksining uslubiy asosini tashkil etadi [4].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligi va hududiy raqobatbardoshlik ni o‘lchash uslubiyotining nazariy asoslarini yaratgan bo‘lsa-da, investitsiyaning raqobatbardoshlik jarayonini bosqichma-bosqich transmissiya zanjiri ko‘rinishida modellashtirib, uni hududiy integral indeks bilan birlashtiruvchi tadqiqotlar hozircha yetarli emas, bu esa mazkur maqola mavzusining ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ikki bosqichli tahlil mantig‘iga asoslanadi: birinchi bosqichda mavjud holat miqdoriy jihatdan diagnostika qilinsa, ikkinchi bosqichda aniqlangan muammolarni bartaraf etuvchi mexanizm ishlab chiqiladi. Bunday yondashuv sof tavsiflovchi tahlildan farqli o‘laroq, tahlil natijalarini bevosita amaliy takliflarga bog‘lash imkonini beradi.

Tadqiqotda Andijon viloyatining barcha 16 ta tumani va shahri kesimida 2025-yil rasmiy statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan. Investitsiyaning raqobatbardoshlik jarayoni uch bo‘g‘inli transmissiya zanjiri ko‘rinishida modellashtirishgan, unda har bir bo‘g‘in uchun alohida samaradorlik koeffitsiyenti hisoblangan. So‘ngra uchta asosiy ko‘rsatkichni, ya’ni investitsiya, mahsulot va eksport hajmini birlashtiruvchi integral indeks minimal-maksimal normallashtirish usuli orqali qurilgan. Tadqiqotning ikkinchi qismida amaldagi baholash mexanizmidagi kamchiliklar tizimlashtirilib, ularni bartaraf etuvchi uch bosqichli baholash tizimi va aniq mezonlar ishlab chiqilgan. Yakuniy qismda esa transmissiya samaradorligi va bazaviy ko‘rsatkichlar asosida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturining maqsadli ko‘rsatkichlari hisoblangan [7].

Investitsiyaning raqobatbardoshlik jarayonini uch bo‘g‘inli transmissiya zanjiri ko‘rinishida ifodalash mumkin. Birinchi bo‘g‘in investitsiyaning ishlab chiqarish salohiyatiga, ikkinchi bo‘g‘in ishlab chiqarish salohiyatining real mahsulotga, uchinchi bo‘g‘in esa mahsulotning eksportga aylanishini aks ettiradi:

$$I \rightarrow Q \rightarrow E$$

bu yerda I — kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar hajmi, Q — ular tomonidan ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi, E — eksport hajmi. Andijon viloyati tumanlari kesimidagi bazaviy ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan [7].

Investitsiya hajmi bo‘yicha Buloqboshi tumani 5868,6 mlrd. so‘m bilan yetakchilik qiladi, biroq uning eksporti atigi 20,9 mln. dollarni tashkil etadi, holbuki Shahrixon tumani olti barobar kam, ya’ni 1058,8 mlrd. so‘m investitsiya bilan 161,9 mln. dollar eksport qiladi. Bunday nomutanosiblik investitsiyaning o‘zi raqobatbardoshlik ni kafolatlamasligini, balki uning qanday sarflanishi va qaysi tarmoqqa yo‘naltirilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi [8].

**1-jadval**

**Andijon viloyati tumanlari kesimida kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalar, sanoat mahsuloti va eksport hajmi, 2025-yil**

| <b>Tuman</b>   | <b>Investitsiya, mlrd. so‘m</b> | <b>Sanoat mahsuloti, mlrd. so‘m</b> | <b>Eksport, mln. dollar</b> |
|----------------|---------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------|
| Andijon shahri | 4135,1                          | 5196,8                              | 145,0                       |
| Andijon tumani | 4514,7                          | 2230,0                              | 73,2                        |
| Asaka          | 0,0                             | 1511,9                              | 738,0                       |
| Baliqchi       | 1681,7                          | 3362,2                              | 85,0                        |
| Bo‘ston        | 1065,9                          | 815,6                               | 29,6                        |
| Buloqboshi     | 5868,6                          | 767,9                               | 20,9                        |
| Izboskan       | 1011,8                          | 2069,8                              | 35,0                        |
| Jalaquduq      | 1075,9                          | 2700,7                              | 56,1                        |
| Marhamat       | 1668,0                          | 1753,5                              | 25,9                        |
| Oltinko‘l      | 1710,3                          | 1392,0                              | 87,1                        |
| Paxtaobod      | 1220,5                          | 593,8                               | 44,6                        |
| Qo‘rg‘ontepa   | 1216,4                          | 2486,7                              | 39,8                        |
| Shahrixon      | 1058,8                          | 2989,1                              | 161,9                       |
| Ulug‘nor       | 934,3                           | 1196,4                              | 34,0                        |
| Xonobod shahri | 937,6                           | 1629,3                              | 6,3                         |
| Xo‘jaobod      | 1287,4                          | 2719,5                              | 121,8                       |

Manba. Muallif tomonidan stat.uz ma’lumotlari asosida shakllantirilgan.

Tumanlar o‘rtasidagi bu tafovutlarni tizimli tushunish uchun transmissiya zanjirining har bir bo‘g‘ini uchun alohida samaradorlik koeffitsiyenti hisoblanadi. Birinchi koeffitsiyent investitsiyaning mahsulotga aylanish darajasini ko‘rsatadi:

$$k_1 = Q / I$$

Ikkinchi koeffitsiyent mahsulotning eksportga aylanish darajasini o‘lchaydi:

$$k_2 = (E / Q) \times 1000$$

Uchinchi, yakuniy koeffitsiyent esa investitsiyaning bevosita eksportga aylanish samaradorligini, ya’ni butun zanjirning umumlashgan natijasini ifodalaydi:

$$k_3 = (E / I) \times 1000$$

Andijon viloyati tumanlari bo‘yicha hisoblangan transmissiya samaradorligi ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan [9].

Shahrixon tumani yakuniy transmissiya koeffitsiyenti bo‘yicha 152,91 ko‘rsatkich bilan barcha tumanlardan ustun turadi, Xo‘jaobod tumani esa 94,61 ko‘rsatkich bilan ikkinchi o‘rinda. Buloqboshi tumani, aksincha, investitsiya hajmi bo‘yicha birinchi o‘rinda tursa ham, uning yakuniy transmissiya koeffitsiyenti atigi 3,56 ni tashkil etadi. Shahrixonning 152,91 ko‘rsatkichi Buloqboshining 3,56 ko‘rsatkichidan qirq barobardan ortiq katta bo‘lib, bu bir xil miqdordagi investitsiya turli tumanlarda mutlaqo boshqacha natija berishini isbotlaydi [10].

**2-jadval**

**Andijon viloyati tumanlarida investitsiyaning raqobatbardoshlik transmissiya samaradorligi, 2025-yil**

| <b>Tuman</b>   | <b>Mahsulot/investitsiya<br/>(k1)</b> | <b>Eksport/mahsulot<br/>(k2)</b> | <b>Eksport/investitsiya<br/>(k3)</b> |
|----------------|---------------------------------------|----------------------------------|--------------------------------------|
| Andijon shahri | 1,26                                  | 27,90                            | 35,07                                |
| Andijon tumani | 0,49                                  | 32,83                            | 16,21                                |
| Asaka          | —                                     | 488,13                           | —                                    |
| Baliqchi       | 2,00                                  | 25,28                            | 50,54                                |
| Bo‘ston        | 0,77                                  | 36,29                            | 27,77                                |
| Buloqboshi     | 0,13                                  | 27,22                            | 3,56                                 |
| Izboskan       | 2,05                                  | 16,91                            | 34,59                                |
| Jalaquduq      | 2,51                                  | 20,77                            | 52,14                                |
| Marhamat       | 1,05                                  | 14,77                            | 15,53                                |
| Oltinko‘l      | 0,81                                  | 62,57                            | 50,93                                |
| Paxtaobod      | 0,49                                  | 75,11                            | 36,54                                |
| Qo‘rg‘ontepa   | 2,04                                  | 16,01                            | 32,72                                |
| Shahrixon      | 2,82                                  | 54,16                            | 152,91                               |
| Ulug‘nor       | 1,28                                  | 28,42                            | 36,39                                |
| Xonobod shahri | 1,74                                  | 3,87                             | 6,72                                 |
| Xo‘jaobod      | 2,11                                  | 44,79                            | 94,61                                |

Manba. Muallif tomonidan hisoblangan.

Har bir tumanning umumiy investitsion-raqobatbardoshlik holatini yagona ko‘rsatkichda ifodalash uchun integral indeks ishlab chiqildi. Avval har bir ko‘rsatkich minimal-maksimal usulda nol bilan bir oralig‘iga normallashtiriladi:

$$x_{or} = (x - x_{i\min}) / (x_{ax} - x_{i\min})$$

Normallashtirilgan qiymatlar asosida investitsion-raqobatbardoshlik integral indeksi (IRRI) quyidagi formula bilan hisoblanadi [11]:

$$IRRI = 0,25 \cdot I_{or} + 0,35 \cdot Q_{or} + 0,40 \cdot E_{or}$$

Vaznlar mahsulot va ayniqsa eksport ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq ahamiyat berish orqali indeksni faqat hajmga emas, transmissiya natijasiga yo‘naltirilgan holda shakllantiradi. Hisoblangan integral indeks qiymatlari va tumanlar reytingi 3-jadvalda keltirilgan.

Andijon shahri 0,588 ko‘rsatkich bilan reytingda birinchi o‘rinni egallaydi, chunki u ham yuqori investitsiya, ham katta sanoat mahsuloti, ham salmoqli eksportni birlashtiradi. Yuqori klasterga indeks 0,266 dan ortiq bo‘lgan olti tuman kiradi, ularning o‘rtacha integral indeksi 0,375 ni tashkil etadi. O‘rta klasterda bu ko‘rsatkich 0,179 ga, past klasterda esa atigi 0,069 ga teng bo‘lib, yuqori va past klaster o‘rtasidagi farq besh yarim barobardan ortiqni tashkil etadi. Bu viloyat ichida investitsion-raqobatbardoshlik salohiyatining nihoyatda notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi. Alohida e‘tiborga molik holat Buloqboshi tumaniga tegishli: u integral indeks bo‘yicha yuqori klasterga kirsada, bu pozitsiya faqat katta investitsiya hajmi hisobiga ta‘minlangan, chunki tumanning transmissiya samaradorligi past [12].

**3-jadval**

**Andijon viloyati tumanlarining investitsion-raqobatbardoshlik integral indeksi va reytingi, 2025-yil**

| Reyting | Tuman          | Integral indeks | Klaster |
|---------|----------------|-----------------|---------|
| 1       | Andijon shahri | 0,588           | Yuqori  |
| 2       | Asaka          | 0,484           | Yuqori  |
| 3       | Andijon tumani | 0,342           | Yuqori  |
| 4       | Baliqchi       | 0,291           | Yuqori  |
| 5       | Shahrixon      | 0,274           | Yuqori  |
| 6       | Buloqboshi     | 0,271           | Yuqori  |
| 7       | Xo‘jaobod      | 0,243           | O‘rta   |
| 8       | Jalaquduq      | 0,195           | O‘rta   |
| 9       | Qo‘rg‘ontepa   | 0,177           | O‘rta   |
| 10      | Oltinko‘l      | 0,144           | O‘rta   |
| 11      | Marhamat       | 0,136           | O‘rta   |
| 12      | Izboskan       | 0,132           | Past    |
| 13      | Xonobod shahri | 0,079           | Past    |
| 14      | Ulug‘nor       | 0,061           | Past    |
| 15      | Bo‘ston        | 0,036           | Past    |
| 16      | Paxtaobod      | 0,035           | Past    |

Manba. Muallif tomonidan hisoblangan.

Amaldagi baholash tartibi asosan moliyaviy ko‘rsatkichlarga, ya‘ni sof joriy qiymat, rentabellik indeksi va qoplanish davriga tayanadi. Andijon viloyati kichik biznes subyektlari bo‘yicha o‘tkazilgan hisob-kitoblar sof joriy qiymat 48818 mlrd. so‘mni, rentabellik indeksi 2,461 ni, investitsiya rentabelligi esa 135,3 foizni tashkil etishini ko‘rsatdi. Bu ko‘rsatkichlar investitsiyalarning moliyaviy jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi, biroq ular investitsiyaning hududiy ta‘sirini, ish o‘rinlari yaratish salohiyatini va eksport imkoniyatini ochib bermaydi. Bundan tashqari, baholash odatda bir marta, loyiha boshlangunga qadar o‘tkaziladi va hududiy xususiyatlar hisobga olinmaydi [13]. Aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari 4-jadvalda umumlashtirilgan.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun uch bosqichli baholash tizimi taklif etiladi. Birinchi bosqichda, loyiha boshlangunga qadar, investitsiyaning kutilayotgan natijalari moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda yaratiladigan ish o‘rinlari soni, kutilayotgan eksport hajmi hamda loyiha joylashadigan tumanning integral indeksi orqali baholanadi. Ikkinchi bosqichda loyiha amalga oshirilayotgan davrda har chorakda monitoring o‘tkazilib, mablag‘ning ishlab chiqarish quvvatiga aylanish darajasi kuzatiladi. Uchinchi bosqichda loyiha ishga tushgandan keyin uning haqiqiy natijalari rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan qiyoslanadi va transmissiya koeffitsiyentlari hisoblanadi.

**4-jadval**

**Kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalarni baholash mexanizmidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari**

| <b>Amaldagi holat</b>                 | <b>Kamchilik</b>                             | <b>Takomillashtirish yo‘li</b>                |
|---------------------------------------|----------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| Faqat moliyaviy mezonlar qo‘llaniladi | Ijtimoiy va hududiy natija hisobga olinmaydi | Ko‘p mezonli baholash tizimini joriy etish    |
| Baholash bir marta o‘tkaziladi        | Loyiha davomidagi og‘ishlar aniqlanmaydi     | Uch bosqichli uzluksiz baholash               |
| Hududiy tafovut inobatga olinmaydi    | Bir xil loyiha turli natija beradi           | Hududiy integral indeksni qo‘llash            |
| Natija bo‘yicha javobgarlik yo‘q      | Samarasiz loyihalar takrorlanadi             | Baholash natijasini moliyalash bilan bog‘lash |
| Monitoring ma‘lumotlari to‘planmaydi  | Tahlil uchun baza shakllanmaydi              | Yagona axborot tizimini yaratish              |

Manba. Muallif ishlanmasi.

Har bir bosqich uchun aniq mezonlar va chegaraviy qiymatlar 5-jadvalda keltirilgan [14].

**5-jadval**

**Kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalarni uch bosqichli baholash tizimining mezonlari**

| <b>Bosqich</b>   | <b>Baholash mezonlari</b>               | <b>Chegaraviy qiymat</b>      |
|------------------|-----------------------------------------|-------------------------------|
| Loyiha oldi      | Sof joriy qiymat                        | Musbat qiymat                 |
| Loyiha oldi      | Rentabellik indeksi                     | Birdan katta                  |
| Loyiha oldi      | Qoplanish davri                         | Besh yildan kam               |
| Joriy monitoring | Mablag‘ o‘zlashtirilishi                | Rejaning 80 foizidan kam emas |
| Joriy monitoring | Quvvat ishga tushishi                   | Belgilangan muddatda          |
| Joriy monitoring | Mahsulotga aylanish koeffitsiyenti (k1) | Birdan kam emas               |
| Yakuniy baholash | Eksportga aylanish samaradorligi (k3)   | Tuman o‘rtachasidan kam emas  |
| Yakuniy baholash | Yaratilgan ish o‘rinlari                | Rejadagi miqdorda             |

Manba. Muallif ishlanmasi.

Takomillashtirilgan baholash mexanizmining amaliy qiymatini ko‘rsatish uchun Andijon viloyati kichik biznesini rivojlantirishning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi ishlab chiqildi. Dastur bazaviy nuqtasi sifatida 2025-yilgi 25417,7 mlrd. so‘m investitsiya va 637,2 mln. dollar eksport ko‘rsatkichlari qabul qilindi. Dastur bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar 6-jadvalda keltirilgan [15].

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

Dastur davomida investitsiya hajmi 2,1 barobar, eksport 2,3 barobar, mahalliyashtirish hajmi esa 1,7 barobar oshadi. Eksportning investitsiyadan tezroq o‘shishi transmissiya zanjirining samaradorligi yaxshilanishini, ya’ni har bir birlik investitsiya avvalgidan ko‘ra ko‘proq eksport yaratishini anglatadi. Loyihalar sonining 42 tadan 118 tagacha ko‘payishi investitsiya siyosatining yiriklashtirish emas, kengaytirish yo‘nalishida borishini aks ettiradi; loyihalar asosan yuqori integral indeksga ega tumanlarga, xususan Andijon shahri, Asaka, Shahrixon va Xo‘jaobodga yo‘naltiriladi [16].

6-jadval

### Andijon viloyati kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalarni rivojlantirish dasturining maqsadli ko‘rsatkichlari, 2026–2030-yillar

| Ko‘rsatkich                   | 2026    | 2027    | 2028    | 2029    | 2030    |
|-------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Investitsiya, mlrd. so‘m      | 30120,0 | 35240,4 | 40878,8 | 47010,7 | 53592,1 |
| Eksport, mln. dollar          | 777,4   | 932,9   | 1105,4  | 1293,4  | 1493,8  |
| Yangi ish o‘rinlari, ta       | 1975    | 2151    | 2368    | 2575    | 2764    |
| Loyihalar soni, ta            | 42      | 58      | 76      | 95      | 118     |
| Mahalliyashtirish, mlrd. so‘m | 1321,5  | 1519,7  | 1747,7  | 2009,8  | 2311,3  |

Manba. Muallif ishlanmasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga asoslangan holda.

Eksport hajmini oshirish vazifasi tarmoqlar kesimida ham aniqlashtirildi. Tarmoqlar bo‘yicha istiqbolli eksport tarkibi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

### Andijon viloyati kichik biznes subyektlari eksportining tarmoqlar bo‘yicha istiqbolli tarkibi, mln. dollar

| Tarmoq                     | 2026  | 2027  | 2028   | 2029   | 2030   |
|----------------------------|-------|-------|--------|--------|--------|
| Sanoat mahsulotlari        | 528,6 | 648,4 | 784,8  | 937,7  | 1105,4 |
| Meva-sabzavot mahsulotlari | 155,5 | 184,7 | 216,7  | 250,9  | 286,8  |
| Boshqa mahsulotlar         | 93,3  | 99,8  | 103,9  | 104,8  | 101,6  |
| Jami eksport               | 777,4 | 932,9 | 1105,4 | 1293,4 | 1493,8 |

Manba. Muallif ishlanmasi.

Sanoat mahsulotlari eksporti 2026-yildagi 528,6 mln. dollardan 2030-yilda 1105,4 mln. dollarga, ya’ni 2,1 barobar oshadi, uning eksport tarkibidagi ulushi esa 68,0 foizdan 74,0 foizgacha kengayadi. Bu viloyat eksportining sifat jihatidan yaxshilanishini, ya’ni xom ashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan yuqori qo‘shilgan qiymatli sanoat tovarlariga o‘tishni ko‘rsatadi [15].

O‘tkazilgan tadqiqot kichik biznes subyektlariga jalb etilgan investitsiyalarning raqobatbardoshlik jarayonini uch bo‘g‘inli transmissiya zanjiri ko‘rinishida modellashtirish va uni Andijon viloyati tumanlari kesimida miqdoriy baholash imkonini berdi. Transmissiya koeffitsiyentlari tumanlar o‘rtasida qirq barobardan ortiq farqlanishini ko‘rsatdi, bu esa investitsiya hajmining o‘zi raqobatbardoshlik ni kafolatlamasligini, uning tarmoq va hududiy yo‘nalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchidan, uchta ko‘rsatkichni birlashtiruvchi investitsion-raqobatbardoshlik integral indeksi (IRRI) tumanlarni obyektiv mezonlar asosida uch klasterga, ya’ni yuqori, o‘rta va past guruhlarga ajratish imkonini berdi. Yuqori va past klaster o‘rtasidagi besh yarim barobarlik farq viloyat ichidagi investitsion-raqobatbardoshlik salohiyatining nihoyatda notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi va hududiy yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslaydi.

Uchinchidan, amaldagi baholash mexanizmidagi uch asosiy kamchilik, ya’ni faqat moliyaviy mezonlarga tayanish, baholashning bir martaligi va hududiy tafovutlarning e’tiborga olinmasligi aniqlanib, ularni bartaraf etuvchi uch bosqichli (loyiha oldi, joriy monitoring, yakuniy) baholash tizimi va aniq chegaraviy mezonlar ishlab chiqildi. Bunday tizim baholashni rasmiy tadbirdan haqiqiy boshqaruv vositasiga aylantiradi.

Taklif etilgan uslubiyatning muhim afzalligi uning boshqa hududlarga ham tatbiq etilishi mumkinligidadir, chunki transmissiya koeffitsiyentlari va integral indeksning hisoblash tartibi rasmiy statistik ma’lumotlarga tayanadi va qo’shimcha maxsus tadqiqotni talab qilmaydi. Bu esa mazkur yondashuvni respublika miqyosida boshqa viloyatlar kesimida ham qo’llash, natijada kichik biznesga investitsiya jalb etish siyosatini yagona uslubiy asosda yuritish imkonini yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alimov R.X., Almuradov A.A., Xomidov S.O. Ekonometrik modellash. O‘quv qo‘llanma. - T.: IQTISODIYOT, 2019. -76 b.
2. Boltaboev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J., G‘oyipnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. -T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011.
3. Dijkstra L., Annoni P., Kozovska K. A New Regional Competitiveness Index: Theory, Methods and Findings // Working Paper, No. 2, DG Regional and Urban Policy, European Commission. 2011.
4. Eshmatov D.A. Hududiy investitsiyalarni baholashning ekonometrik modeli // Marketing. 2026. № 5.
5. Keffala M.R. Financing SMEs in developed versus developing economies // Review of Development Economics. 2025. Vol. 29. P. 412-435.
6. Le H.T.T., Nguyen T.T., Tran H.T.T. SME financing role in developing business environment and economic growth // Environmental Science and Pollution Research. 2022. Vol. 29. P. 21132-21146.
7. Li X., Adam R. Promoting Sustainable Manufacturing Growth Through Foreign Direct Investment and Foreign Trade: Evidence from China’s 28 Sub-Industries // Sustainability. 2025. Vol. 17, No. 20. Article 9059.
8. Otajonov U.A. Ekonometrika asoslari. Elektron darslik. -T., 2022. -260 b.
9. Qosimov M.S. Investitsiya loyihalari tahlili. Darslik. -T.: Iqtisodiyot, 2019. — 168 b.
10. Rasulev D., Nurullayeva Sh., Ro‘zmetova N., Muminova M. Ekonometrika asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: "Iqtisodiyot", 2019. -248 b.
11. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. -T.: TDIU, 2010.
12. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление, финансирование. -3-е изд. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2017. -448 с.
13. Магнус Я.Р., Катышев П.К., Пересецкий А.А. Эконометрика. Начальный курс. -9-е изд. - М.: Дело, 2021. -504 с.
14. Andijon viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti -URL: <https://andstat.uz>
15. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sayti -URL: <https://mineconomfin.uz>
16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti — URL: <https://siat.stat.uz>

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDAGI  
O‘RNI VA INNOVATSION YONDASHUVNING NAZARIY JIHATLARI**

**РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ  
РЕСУРСАМИ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА**

**THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT  
AND THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE APPROACH**

**Muhsinova Fotima Anvarovna**  
BDTU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning inson resurslarini boshqarish (IRB) tizimidagi o‘rni va innovatsion yondashuvning nazariy jihatlari tahlil qilinadi. Raqamli IRBning nazariy asoslari (inson kapitali nazariyasi, resurslarga asoslangan yondashuv, dinamik qobiliyatlar, texnologiyani qabul qilish modeli), zamonaviy texnologiyalar tasnifi, an’anaviy va raqamli boshqaruvning qiyosiy tahlili, global tendensiyalar hamda transformatsiya risklari o‘rganilgan. Natijalar raqamli yondashuvning barcha ko‘rsatkichlar, ayniqsa analitik salohiyat va mashtablanuvchanlik bo‘yicha ustunligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, inson resurslarini boshqarish, HR-analitika, sun’iy intellekt, innovatsion yondashuv, raqamli transformatsiya, raqamli yetuklik.

В статье анализируются роль цифровых технологий в системе управления человеческими ресурсами (УЧР) и теоретические аспекты инновационного подхода. Рассмотрены теоретические основы цифрового УЧР, классификация современных технологий, сравнительный анализ традиционного и цифрового управления, глобальные тенденции и риски трансформации. Результаты показывают превосходство цифрового подхода, особенно по аналитическому потенциалу и масштабируемости.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, управление человеческими ресурсами, HR-аналитика, искусственный интеллект, инновационный подход, цифровая трансформация, цифровая зрелость.

This article analyzes the role of digital technologies in the human resource management (HRM) system and the theoretical aspects of the innovative approach. It examines the theoretical foundations of digital HRM, the classification of modern technologies, a comparative analysis of traditional and digital management, global trends, and transformation risks. The results show the superiority of the digital approach, particularly in analytical capacity and scalability. It is substantiated that the essence of the innovative approach lies in systematically advancing an organization to the higher levels of digital maturity.

**Keywords:** digital technologies, human resource management, HR analytics, artificial intelligence, innovative approach, digital transformation, digital maturity.

XXI asr — raqamli transformatsiya asri bo‘lib, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), bulutli hisoblash va avtomatlashtirish texnologiyalari iqtisodiyotning barcha sohalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Inson resurslarini boshqarish (IRB) tizimi ham bundan mustasno emas: talantlarni jalb qilish, rivojlantirish, baholash va ushlab qolish jarayonlari an’anaviy, qo‘lda bajariladigan amaliyotlardan raqamli, dalilga asoslangan va real vaqtda ishlaydigan modelga o‘tmoqda. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan sharoitda raqamli IRBning nazariy asoslarini o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi, chunki inson kapitalini

samarali boshqarish tashkilotlar va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Raqamlashtirish (digitalization) IRB kontekstida shunchaki qog‘oz hujjatlarni elektron shaklga o‘tkazish emas — bu jarayonlar, boshqaruv qarorlari va xodim tajribasining zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta loyihalanishidir. Shu ma’noda ilmiy adabiyotda elektron inson resurslari boshqaruvi (e-HRM) tushunchasidan raqamli/kognitiv IRB (digital HRM) konsepsiyasiga bosqichma-bosqich o‘tish kuzatiladi.

Maqolaning maqsadi — raqamli texnologiyalarning IRBdagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslash, mavjud texnologiyalarni tasniflash, an’anaviy va raqamli yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, global tendensiyalar hamda transformatsiya risklarini o‘rganish va innovatsion yondashuvning nazariy asoslarini ochib berishdan iborat. Maqoladagi miqdoriy ko‘rsatkichlar xalqaro konsalting va bozor tadqiqot tashkilotlari (Deloitte, Gartner, PwC, McKinsey, Grand View Research, LinkedIn) hisobotlari asosida umumlashtirilgan indikativ qiymatlardir.

Raqamli IRBning shakllanishini uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi bosqich (1990–2000-yillar) — elektron IRB (e-HRM), ya’ni asosiy kadrlar jarayonlarini kompyuterlashtirish va elektron hujjat aylanishi; ikkinchi bosqich (2000–2010) — turli jarayonlarni yagona axborot platformasida birlashtirgan integratsiyalashgan HRIS/HCM tizimlari; uchinchi bosqich (2010-yildan hozirgacha) — bulutli platformalar, katta ma’lumotlar analitikasi va sun’iy intellektning strategik boshqaruvga integratsiyasiga asoslangan raqamli va kognitiv IRB.

S. Strohmeier (2007) hamda T. Bondarouk va H. Ruël (2009) tadqiqotlarida e-HRM axborot texnologiyalari yordamida IRB amaliyotlarini amalga oshirish sifatida ta’riflanadi, J. Marler va J. Boudreau (2017) esa HR-analitikaning dalilga asoslangan boshqaruvning markaziy elementi sifatida ko‘rsatadi. Umumlashtirilganda, raqamli IRB — bulutli platformalar, katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda inson kapitalini strategik boshqarish tizimidir. Raqamli IRB tasodifiy texnologik hodisa emas, balki bir qator fundamental boshqaruv va iqtisodiy nazariyalarga asoslanadi (1-jadval).

**1-jadval**

**Raqamli IRBning nazariy-uslubiy asoslari**

| Nazariya                                | Muallif(lar), yil    | Asosiy g‘oya                                                               | Raqamli IRBga tatbiqi                                               |
|-----------------------------------------|----------------------|----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| Inson kapitali nazariyasi               | G. Becker, 1964      | Xodimlarning bilim va ko‘nikmalari investitsiya talab qiladigan kapitaldir | Kompetensiyalarni raqamli platformalarda o‘lchash va rivojlantirish |
| Resurslarga asoslangan yondashuv (RBV)  | J. Barney, 1991      | Noyob, taqlid qilib bo‘lmaydigan resurslar raqobat ustunligi manbaidir     | HR-analitika inson kapitalini strategik resursga aylantiradi        |
| Dinamik qobiliyatlar                    | D. Teece va b., 1997 | Muhit o‘zgarishiga tez moslashish qobiliyati muhim                         | Raqamli vositalar tez qayta kompetensiyalash imkonini beradi        |
| Texnologiyani qabul qilish modeli (TAM) | F. Davis, 1989       | Foydalilik va qulaylik texnologiya qabulini belgilaydi                     | HR-tizimlarni joriy etishda xodim qabulini prognozlash              |
| Innovatsiyalar diffuziyasi              | E. Rogers, 1962      | Yangiliklar tashkilotga bosqichma-bosqich tarqaladi                        | Raqamli HR yechimlarini joriy etish bosqichlarini izohlaydi         |
| Ijtimoiy-texnik tizimlar                | E. Trist, 1951       | Texnologik va ijtimoiy tizimlar birgalikda optimallashtirilishi kerak      | Texnologiya va insonni muvozanatli joriy etish zarurati             |

Manba: ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 7-son 2026 yil**

Ushbu nazariyalardan inson kapitali nazariyasi va RBV raqamli vositalarning strategik ahamiyatini, TAM va innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi esa joriy etish jarayonining ijtimoiy-tashkiliy jihatlarini tushuntiradi.

Tadqiqotda ilmiy bilishning sifat usullaridan — ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va sintez qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish hamda umumlashtirishdan foydalanilgan. Empirik asos sifatida xalqaro konsalting va bozor tadqiqot tashkilotlari hisobotlaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlar qo'llanilgan; miqdoriy ko'rsatkichlar indikativ xususiyatga ega bo'lib, umumiy tendensiyalarni aks ettiradi.

Zamonaviy raqamli IRB vositalarini funksional belgisiga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin (2-jadval).

**2-jadval**

**Raqamli HR texnologiyalarining tasnifi va funksional imkoniyatlari**

| <b>Texnologiya turi</b>      | <b>Asosiy funksiyasi</b>                       | <b>Qamrab oladigan jarayon</b>    | <b>Kutilayotgan samara</b>                    |
|------------------------------|------------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------------|
| Bulutli HRIS/HCM             | Ma'lumotlarni markazlashtirish, kadrlar hisobi | Barcha bosqichlar                 | Ma'lumot yaxlitligi, tezkorlik                |
| ATS (rekрутment tizimi)      | Nomzodlarni saralash va kuzatish               | Yollash                           | Yollash muddatining qisqarishi                |
| People analytics             | Ma'lumotlarni tahlil va prognoz qilish         | Qaror qabul qilish                | Obyektiv, dalilga asoslangan qarorlar         |
| Sun'iy intellekt (AI/ML)     | Avtomatik saralash, tavsiya, bashorat          | Yollash, rivojlantirish           | Aniqlik va tezlikning oshishi                 |
| RPA (robotlashtirish)        | Takroriy jarayonlarni avtomatlashtirish        | Ma'muriy jarayonlar               | Xarajat va xatolarning kamayishi              |
| LMS / EdTech                 | Masofaviy o'qitish va rivojlantirish           | Ta'lim va rivojlanish             | Kompetensiyalarning uzluksiz o'sishi          |
| Chat-bot / virtual yordamchi | Xodimlar bilan avtomatik muloqot               | HR-xizmat ko'rsatish              | Uzluksiz (24/7) qo'llab-quvvatlash            |
| Blokcheyn, VR/AR             | Hujjatlarni tasdiqlash; intensiv trening       | Verifikatsiya, ta'lim, onboarding | Ishonchlilik; o'zlashtirishning yaxshilanishi |

Manba: muallif ishlanmasi.

Amalda ushbu texnologiyalar alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan raqamli ekotizim sifatida ishlaydi, biroq ularning joriy etilish darajasi bir xil emas: bulutli HRIS/HCM tizimlari (75%) va rekрутmentni avtomatlashtirish (68%) eng keng joriy etilgan “yetuk” texnologiyalar hisoblansa, sun'iy intellekt (40%), chat-botlar (35%) va prognozli analitika (28%) hali o'sish bosqichida bo'lib, aynan shu segmentda tashkilotlar uchun raqobat ustunligi imkoniyati mavjud.

Raqamli IRBning eng transformatsion yo'nalishi — sun'iy intellekt va HR-analitikaning boshqaruv qarorlariga integratsiyasi. HR-analitika rivojlanish darajasiga ko'ra to'rt bosqichga ajratiladi: deskriptiv (nima yuz berdi?), diagnostik (nega yuz berdi?), prognozli (nima yuz beradi?) va preskriptiv (nima qilish kerak?). Analitika murakkablashgani sari uning tarqalganligi kamayadi (deskriptiv — 82%, preskriptiv — 18%), biroq yaratadigan biznes qiymati ortadi (shartli indeksda 40 dan 95 gacha). Shu bois prognozli va preskriptiv analitikaga o'tish innovatsion yondashuv hamda yuqori raqamli yetuklikni talab qiladi va raqobat ustunligining asosiy manbai hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar IRBning barcha asosiy funksiyalarini qamrab oladi (3-jadval).

**Raqamli texnologiyalarning asosiy HR funksiyalari bo‘yicha qo‘llanilishi**

| <b>HR funksiyasi</b>          | <b>An’anaviy usul</b> | <b>Raqamli yechim</b>                | <b>Kutilayotgan samara</b>           |
|-------------------------------|-----------------------|--------------------------------------|--------------------------------------|
| Ishchi kuchini rejalashtirish | Statik shtat jadvali  | Prognozli ssenariylar, analitika,    | Ehtiyojni aniq bashorat qilish       |
| Yollash va tanlash            | Qo‘lda saralash       | ATS, AI-skrining, video-intervyu     | Muddat va xarajatning kamayishi      |
| Adaptatsiya (onboarding)      | Qog‘oz yo‘riqnomalar  | Raqamli onboarding, chat-bot         | Samaradorlikning tez o‘sishi         |
| O‘qitish va rivojlantirish    | Auditoriyali kurslar  | LMS, mikro-o‘qitish, VR-trening      | Uzluksiz, shaxsiylashtirilgan ta’lim |
| Samaradorlikni boshqarish     | Yillik baholash       | Uzluksiz feedback, OKR platformalari | Ob’ektiv va tezkor baholash          |
| Kompensatsiya va imtiyozlar   | Qo‘lda hisob-kitob    | Analitik ish haqi tizimlari          | Adolatli, bozorga mos taqsimot       |
| Xodimlarni ushlab qolish      | Intuitiv choralar     | Attrition-prognoz modellari          | Ketishning oldini olish              |

Manba: muallif ishlanmasi.

Raqamli yondashuvning mohiyati uni an’anaviy model bilan qiyoslashda yaqqol namoyon bo‘ladi (4-jadval).

**An’anaviy va raqamli inson resurslarini boshqarishning qiyosiy tahlili**

| <b>Mezon</b>            | <b>An’anaviy yondashuv</b>          | <b>Raqamli yondashuv</b>                     |
|-------------------------|-------------------------------------|----------------------------------------------|
| Ma’lumot manbai         | Qog‘oz hujjatlar, intuitsiya        | Katta ma’lumotlar (big data), real vaqt      |
| Qaror qabul qilish      | Tajriba va subyektiv baho           | Dalil va analitikaga asoslangan              |
| Rekrutment usuli        | Qo‘lda saralash, an’anaviy e’lonlar | AI-saralash, raqamli kanallar                |
| Xodim bilan muloqot     | Shaxsiy va qog‘oz asosida           | Platforma, chat-bot, mobil ilova             |
| Samaradorlikni baholash | Yillik, retrospektiv                | Uzluksiz, real vaqtda (continuous)           |
| Xarajatlar tuzilmasi    | Yuqori ma’muriy xarajat             | Avtomatlashtirish orqali optimallashtirilgan |
| Masshtablanuvchanlik    | Cheklangan                          | Yuqori (bulut asosida)                       |
| HR mutaxassisi roli     | Ma’muriy ijrochi                    | Strategik hamkor va tahlilchi                |

Manba: muallif ishlanmasi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli yondashuv IRBni operatsion darajadan strategik darajaga ko‘taradi va HR mutaxassisining rolini ma’muriy ijrochidan strategik hamkorga aylantiradi. Ikki modelni besh mezon bo‘yicha 0–100 balli konseptual indeksda taqqoslash ham raqamli modelning barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ustunligini tasdiqlaydi; eng katta farq “ma’lumotga asoslangan qaror” (35 → 85) va “masshtablanuvchanlik” (40 → 88) mezonlarida kuzatiladi. Bu raqamli transformatsiyaning asosiy qiymati analitik salohiyat va masshtablashda ekanini ko‘rsatadi.

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

Raqamli yondashuvning afzalliklari amaliyotda muayyan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) orqali o‘lchanadi (5-jadval).

5-jadval

### Raqamli IRBni joriy etishning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri

| Ko‘rsatkich (KPI)                    | Mazmuni                                          | Kutilayotgan o‘zgarish       |
|--------------------------------------|--------------------------------------------------|------------------------------|
| Yollash muddati (time-to-hire)       | Nomzod topilgandan ishga qabulgacha bo‘lgan davr | ~30–40% qisqarish            |
| Yollash xarajati (cost-per-hire)     | Bir xodimni yollashga ketadigan xarajat          | ~20–25% kamayish             |
| Xodimlarni ushlab qolish (retention) | Muayyan davrda saqlanib qolgan xodimlar ulushi   | ~15–20% yaxshilanish         |
| HR ma’muriy xarajatlari              | Operatsion HR jarayonlari xarajatlari            | ~20–30% kamayish             |
| Xodim jalb etilganligi (engagement)  | Xodimlarning ishga sadoqati va qiziqishi         | Sezilarli o‘shish            |
| Qarorlar tezligi va aniqligi         | Ma’lumotga asoslangan boshqaruv qarorlari        | Bir necha barobar tezlashish |

Manba: xalqaro konsalting hisobotlari asosida umumlashtirilgan (indikativ).

Raqamli IRB bozori ham jadal o‘smoqda: global HR-tech bozori hajmi 2019-yildagi ~22,6 mlrd dollardan 2023-yilda 35,6 mlrd dollarga o‘sgan va 2030-yilga borib 81,8 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda (o‘rtacha yillik o‘shish sur’ati — ~13%). Biroq raqamli IRB darajasi hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangan: Shimoliy Amerika yetakchi (bulutli tizimlar — 82%, analitika — 62%), MDH va Markaziy Osiyo mintaqasi (mos ravishda 42% va 25%) esa hali rivojlanish bosqichida. Ushbu tafovut O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlar uchun ilg‘or tajribani o‘zlashtirish imkoniyatini bildiradi.

Raqamli IRBning afzalliklari bilan bir qatorda muayyan risklar ham mavjud bo‘lib, ularni e’tiborga olmaslik joriy etish samaradorligini pasaytiradi (6-jadval).

6-jadval

### Raqamli IRBni joriy etishdagi asosiy risklar va ularni kamaytirish choralari

| Xavf / muammo                            | Mohiyati                                          | Kamaytirish choralari                                    |
|------------------------------------------|---------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| Ma’lumotlar maxfiylik va xavfsizligi     | Xodimlarning shaxsiy ma’lumotlari ochilishi xavfi | Kiberxavfsizlik siyosati, shifrlash, himoya standartlari |
| Algoritmik yon bosish (bias)             | SI qarorlarida adolatsizlik va kamsitish ehtimoli | Algoritmni auditlash, shaffoflik, inson nazorati         |
| Raqamli ko‘nikmalar tanqisligi           | HR va xodimlarda yetarli kompetensiya yo‘qligi    | Uzluksiz o‘qitish, raqamli savodxonlik dasturlari        |
| O‘zgarishlarga qarshilik                 | Xodimlarning yangi tizimlarni qabul qilmasligi    | O‘zgarishlarni boshqarish, ochiq muloqot                 |
| Yuqori dastlabki xarajat                 | Texnologiyalarga katta boshlang‘ich investitsiya  | Bosqichma-bosqich joriy etish, bulutli (SaaS) modellar   |
| Texnologiyaga haddan tashqari bog‘liqlik | Inson omili va empatiyaning susayishi             | Texnologiya va inson yondashuvini muvozanatlash          |

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu risklar raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati faqat texnologiyaga emas, balki tashkiliy tayyorgarlik, boshqaruv sifati va inson omiliga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Innovatsion yondashuv raqamli IRBda uch o‘lchovda — texnologik, jarayoni va tashkiliy-madaniy o‘lchovlarda namoyon bo‘ladi. Raqamli innovatsiyalarning integratsiyasi bosqichma-bosqich kechadi va uni raqamli yetuklik modeli (digital maturity model) orqali ifodalash mumkin (7-jadval).

**7-jadval**

**Inson resurslarini boshqarishda raqamli yetuklik modeli bosqichlari**

| <b>Bosqich</b>                  | <b>Tavsif</b>                          | <b>Xarakterli belgilar</b>                   | <b>Texnologik daraja</b> |
|---------------------------------|----------------------------------------|----------------------------------------------|--------------------------|
| 1. An’anaviy (analog)           | Qo‘lda boshqaruv                       | Qog‘oz hujjatlar, bog‘lanmagan jarayonlar    | Minimal                  |
| 2. Boshlang‘ich raqamlashtirish | Alohida jarayonlarni avtomatlashtirish | Elektron hisob, izolyatsiyalangan tizimlar   | Past                     |
| 3. Integratsiyalashgan          | Yagona axborot platformasi             | HRIS/HCM, integratsiyalangan ma’lumot        | O‘rta                    |
| 4. Optimallashtirilgan          | Analitikaga asoslangan boshqaruv       | People analytics, dashboardlar               | Yuqori                   |
| 5. Innovatsion (kognitiv)       | AI-boshqaruv, avtonom jarayonlar       | Sun’iy intellekt, prognoz, avtomatlashtirish | Eng yuqori               |

Manba: muallif ishlanmasi.

Aksariyat tashkilotlar hozirda 2–3-bosqichda joylashgan; 4–5-bosqichga o‘tish strategik innovatsion yondashuvni talab qiladi. Shunday qilib, innovatsion yondashuvning nazariy mohiyati tashkilotni raqamli yetuklikning yuqori bosqichlariga tizimli ravishda olib chiqishda namoyon bo‘ladi.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Raqamli texnologiyalar inson resurslarini boshqarishni operatsion funksiyadan strategik-analitik funksiyaga aylantiradi va e-HRMDan raqamli/kognitiv IRBga evolyutsiyani belgilaydi.
2. Raqamli IRB inson kapitali nazariyasi, resurslarga asoslangan yondashuv, dinamik qobiliyatlar va texnologiyani qabul qilish modeli kabi fundamental nazariyalarga tayanadi (1-jadval).
3. Qiyosiy tahlil (4-jadval) raqamli yondashuvning barcha mezonlar bo‘yicha, ayniqsa analitik salohiyat va masshtablar bo‘yicha ustunligini tasdiqladi.
4. Global HR-tech bozori jadal (~13% CAGR) o‘smoqda, biroq joriy etish hududiy jihatdan notekis bo‘lib, bu O‘zbekiston uchun strategik imkoniyat yaratadi.
5. Innovatsion yondashuvning mohiyati texnologiyani mexanik joriy etishda emas, balki risklarni boshqargan holda tashkilotni raqamli yetuklikning yuqori bosqichlariga tizimli olib chiqishda namoyon bo‘ladi (6- va 7-jadvallar).

Amaliy takliflar: O‘zbekiston tashkilotlariga (a) bulutli HRIS va HR-analitika tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish; (b) xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish; (c) ma’lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik bo‘yicha me’yoriy bazani mustahkamlash; (d) raqamli yetuklik modeliga asoslangan holda o‘z rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – New York: NBER, 1964.
2. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. – 1991. – Vol. 17(1). – P. 99–120.
3. Teece D. J., Pisano G., Shuen A. Dynamic Capabilities and Strategic Management // Strategic Management Journal. – 1997. – Vol. 18(7). – P. 509–533.
4. Davis F. D. Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology // MIS Quarterly. – 1989. – Vol. 13(3). – P. 319–340.
5. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. – New York: Free Press, 1962.

6. Strohmeier S. Research in e-HRM: Review and Implications // Human Resource Management Review. – 2007. – Vol. 17(1). – P. 19–37.
7. Marler J. H., Boudreau J. W. An Evidence-based Review of HR Analytics // The International Journal of Human Resource Management. – 2017. – Vol. 28(1). – P. 3–26.
8. Bondarouk T., Ruël H. Electronic Human Resource Management: Challenges in the Digital Era // The International Journal of Human Resource Management. – 2009. – Vol. 20(3). – P. 505–514.
9. Chesbrough H. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. – Boston: Harvard Business School Press, 2003.
10. Deloitte. Global Human Capital Trends. – Deloitte Insights (yillik hisobotlar).
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni, PF-6079, 2020-yil 5-oktyabr.

**UDK: 331.5**

## **KICHIK BIZNESDA AYOLLAR BANDLIGINING AHAMIYATI**

### **ЗНАЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В МАЛОМ БИЗНЕСЕ**

#### **THE IMPORTANCE OF WOMEN’S EMPLOYMENT IN SMALL BUSINESS**

**Kamoldinova Nargiza Anvarovna**

Andijon davlat texnika instituti Iqtisodiyot kafedrasini assistenti

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada kichik biznesda ayollarning bandligi masalasi iqtisodiy, ijtimoiy va demografik jihatdan tahlil qilinadi. Ayollarning tadbirkorlik faolligi, ularning iqtisodiy mustaqilligi va kichik biznesni rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, ayollar bandligi, tadbirkorlik, gender tengligi, iqtisodiy mustaqillik, ijtimoiy rivojlanish.

В данной статье анализируется вопрос занятости женщин в малом бизнесе с экономической, социальной и демографической точек зрения. Раскрываются предпринимательская активность женщин, их экономическая независимость и роль в развитии малого бизнеса. Также приводятся предложения и рекомендации по существующим проблемам и направлениям их решения.

**Ключевые слова:** малый бизнес, занятость женщин, предпринимательство, гендерное равенство, экономическая независимость, социальное развитие

This article analyzes the issue of women’s employment in small business from economic, social, and demographic perspectives. It reveals women’s entrepreneurial activity, their economic independence, and their role in the development of small business. Additionally, suggestions and recommendations are provided regarding existing problems and ways to address them.

**Keywords:** small business, women’s employment, entrepreneurship, gender equality, economic independence, social development

Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bandlik masalasini hal qilishda, aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashda va hududlarni barqaror rivojlantirishda kichik tadbirkorlikning roli beqiyosdir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni kichik biznesga jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Ayollarning bandligi faqat iqtisodiy zarurat emas, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Kichik biznes esa ayollar uchun moslashuvchan ish tartibi, uy ishlari va oilaviy majburiyatlarni birlashtirish imkoniyati tufayli eng qulay sohalardan biridir.

Birinchi navbatda, ayollarning kichik biznesda ishtiroki yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tomonidan boshqariladigan kichik korxonalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida – xizmat ko‘rsatish, savdo, tikuvchilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda faoliyat yuritadi. Bu sohalar aynan ichki talabga asoslangan bo‘lib, ularning rivoji import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi.



**1-rasm. Ayollar tomonidan kichik biznesni rivojlantirishning iqtisodiy samaralari.**

Shuningdek, ayollar bandligi iqtisodiy o‘shishning inklyuzivligini ta’minlaydi – ya’ni iqtisodiy imkoniyatlar barcha ijtimoiy guruhlar, jumladan, ayollar uchun ham teng ochiq bo‘ladi. Kichik biznesda band bo‘lgan ayollar nafaqat daromad topadi, balki o‘z oilasining ijtimoiy mavqeyini, qarorlar qabul qilishdagi rolini ham oshiradi. Iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan ayollar:

- ✚ Oila byudjetini rejalashtirishda faol ishtirok etadi;
- ✚ Bolalarning ta’lim olishi va sog‘lig‘iga ko‘proq mablag‘ ajratadi;
- ✚ Jamiyatda o‘z fikrini himoya qilish va yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘ladi;
- ✚ Qashshoqlikni kamaytirishga hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, ayollar ishsizligining qisqarishi ijtimoiy barqarorlikni oshiradi, oilaviy ziddiyatlar va ajrimlar ehtimolini kamaytiradi. Ayollar mehnat bozorida faol qatnashganda, bu jinoyatchilikka bilvosita ta’sir qiladi – ish bilan band ayollarda jamiyatga zid xulq-atvor kam uchraydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Andijon viloyati shahar va tumanlarida ayollar rahbarligidagi kichik biznes subyektlari faoliyatida 2018–2024–yillarda eng yuqorisi Andijon shahar, Asaka tumani va Andijon tumanlariga, eng past esa Ulug‘nor, Bo‘ston va Buloqboshi tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**1-jadval**

**Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznesda rahbar ayollarning tahlili (kishi)**

| № | Shahar va tumanlar | Rahbar ayollar |      |      |      |      |      |      | 2024 yilga nisbatan |       |
|---|--------------------|----------------|------|------|------|------|------|------|---------------------|-------|
|   |                    | 2018           | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2018                | 2023  |
| 1 | Andijon            | 75             | 80   | 99   | 109  | 93   | 99   | 109  | 145,3               | 110,1 |
| 2 | Andijon sh         | 206            | 220  | 232  | 266  | 303  | 325  | 346  | 168,0               | 106,5 |

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil


|    |              |            |            |             |             |             |             |             |              |              |
|----|--------------|------------|------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|--------------|--------------|
| 3  | Asaka        | 81         | 96         | 100         | 91          | 113         | 116         | 121         | 149,4        | 104,3        |
| 4  | Baliqchi     | 59         | 65         | 70          | 65          | 60          | 66          | 65          | 110,2        | 98,5         |
| 5  | Bo‘ston      | 32         | 37         | 40          | 32          | 14          | 19          | 14          | 43,8         | 73,7         |
| 6  | Buloqboshi   | 18         | 20         | 22          | 25          | 27          | 34          | 34          | 188,9        | 100,0        |
| 7  | Izboskan     | 80         | 89         | 94          | 100         | 78          | 85          | 87          | 108,8        | 102,4        |
| 8  | Jalaquduq    | 87         | 95         | 98          | 110         | 77          | 84          | 86          | 98,9         | 102,4        |
| 9  | Marhamat     | 29         | 26         | 24          | 29          | 31          | 40          | 37          | 127,6        | 92,5         |
| 10 | Oltinko‘l    | 21         | 27         | 29          | 30          | 32          | 36          | 38          | 181,0        | 105,6        |
| 11 | Paxtaobod    | 29         | 27         | 38          | 48          | 62          | 70          | 77          | 265,5        | 110,0        |
| 12 | Qo‘rg‘ontepa | 69         | 75         | 79          | 80          | 69          | 76          | 76          | 110,1        | 100,0        |
| 13 | Shahrixon    | 21         | 28         | 32          | 38          | 27          | 35          | 37          | 176,2        | 105,7        |
| 14 | Ulug‘nor     | 13         | 10         | 12          | 15          | 10          | 12          | 11          | 84,6         | 91,7         |
| 15 | Xo‘jaobod    | 35         | 30         | 34          | 45          | 58          | 67          | 70          | 200,0        | 104,5        |
| 16 | Xonobod sh   | 30         | 27         | 33          | 38          | 44          | 51          | 53          | 176,7        | 103,9        |
|    | <b>Jami:</b> | <b>885</b> | <b>952</b> | <b>1036</b> | <b>1121</b> | <b>1098</b> | <b>1215</b> | <b>1261</b> | <b>142,5</b> | <b>103,8</b> |

Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

Andijon viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznesda rahbar ayollarning 2024-yilga nisbatan 2018-yilga aniqlaganimizda 1,425 koeffitsiyentga, 2024-yilga nisbatan 2023-yilga tahlil ko‘rsatkichi 1,038 koeffitsiyentni tashkil etgan. Buning asosiy sababi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayol rahbarligiga qaratilayotgan e’tibor bilan bog‘liq. Ushbu tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqorisi 2024/2018 yilga nisbatan ko‘payish Xo‘jaobod tumaniga to‘g‘ri kelgan.

Ayollarning kichik biznesda bandligi ularning tug‘ilish va farzand tarbiyasiga xalaqit bermaydi. Aksincha, zamonaviy kichik biznes – masalan, onlayn savdo, masofaviy xizmatlar, uy sharoitida hunarmandchilik – ayollarga ish va oilani uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi. Ko‘plab mamlakatlarda (masalan, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Chili) ayol tadbirkorlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda tug‘ilish koeffitsiyenti ham barqaror saqlanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ayollar ko‘pincha kichik biznesga “onlayn-do‘kon ochish”, “qo‘lbola buyumlar tayyorlash”, “o‘quv markazlari”, “go‘zallik saloni” kabi sohalarida kirib keladi. Bu sohalar ularga farzandlarini maktabga olib borish, uy yumushlarini bajarish va shu bilan birga daromad topish imkonini beradi.



**2-rasm. Ayollarning kichik biznesda ishtirok etishdagi to‘siqlar.**

Ayollarning kichik biznesda to‘liq ishtirok etishiga bir qator to‘siqlar mavjud:

*Moliyaviy to‘siqlar* – boshlang‘ich kapitalning yetishmasligi, bank kreditlariga olishda garov talablari, yuqori foiz stavkalari. Ayollarning mulkka egalik darajasi past bo‘lganligi sababli garov taqdim etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

*Ma‘muriy va huquqiy to‘siqlar* – ruxsatnomalarni olishdagi murakkabliklar, korrupsion xavflar, soliq hisobotlarining murakkabligi.

*Ijtimoiy va madaniy omillar* – ayollarning asosan “uy ishlari” mas‘uliyati, oilada tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlamaslik, ayollar bilim darajasiga nisbatan stereotiplar.

*Axborot va malaka yetishmovchiligi* – moliyaviy savodxonlik, marketing, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bilimlarning cheklanganligi.

*Ijtimoiy himoyaning pastligi* – ko‘plab ayol tadbirkorlar mehnat ta‘tili, kasallik varaqasi, pensiya jamg‘armasiga badallar kabi ijtimoiy kafolatlardan mahrum.

Quyidagi 2-jadvalda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari tizimlashtirilgan. Jadvalda Ruanda, Hindiston, Shvetsiya va Turkiya kabi mamlakatlarning amaliy dasturlari – mulk huquqini kengaytirish, gender kvotalari, jamoa kafolati asosida kreditlash, bepul biznes-murabbiylik va grantlar – aks ettirilgan. Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ayollar iqtisodiy faolligini oshirish va ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini rag‘batlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

**2-jadval**

**Ayollar tadbirkorligi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi**

| <b>№</b> | <b>Mamlakatlar nomi</b> | <b>Rivojlantirish dasturlari</b>                                                                 |
|----------|-------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1        | <i>Ruanda</i>           | ayollarning mulk huquqini kengaytirish va kredit olishda gender kvotalari;                       |
| 2        | <i>Hindiston</i>        | ayollar o‘z-o‘ziga yordam guruhlar (SHG) orqali jamoa kafolati asosida kreditlar;                |
| 3        | <i>Shvetsiya</i>        | davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bepul biznes-murabbiylik dasturlari;                      |
| 4        | <i>Turkiya</i>          | KOSGEB (Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash agentligi) tomonidan ayollarga xos grantlar. |

Yuqoridagi 1-jadvalda keltirilgan xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda har bir davlat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga mos mexanizmlarni ishlab chiqqan. Ruandada ayollarning mulk huquqini kengaytirish va kredit olishda gender kvotalarining joriy etilishi ularning iqtisodiy faolligini keskin oshirgan bo‘lsa, Hindistonda o‘z-o‘ziga yordam guruhlar (SHG) orqali jamoa kafolati asosida kreditlash modeli ijtimoiy kapitalni mustahkamlagan. Shvetsiyada davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bepul biznes-murabbiylik dasturlari ayollarning biznes yuritishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qilgan bo‘lsa, Turkiyada KOSGEB agentligi orqali ayollarga xos grantlar ajratilishi ularning kichik biznesdagi ishtirokini yanada kengaytirgan.

Kichik biznesda ayollarning bandligi – bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki jamiyat taraqqiyotining strategik resursidir. Ayol tadbirkorlar yangi ish o‘rinlari yaratadi, hududlarni rivojlantiradi, ijtimoiy muammolarni yumshatadi va oilalarning farovonligini oshiradi. Shu bilan birga, mavjud gender to‘siqlar ularning imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, davlat siyosatida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash tadbirlari gender nuqtai-nazaridan yanada aniq va manzilli bo‘lishi kerak.

Kelgusida ayollarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq holda, kichik biznesda ayollar ulushini yanada oshirish mumkin. Bu O‘zbekistonning barqaror va inklyuziv rivojlanishiga olib keladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.

2. Murodxo‘jayeva F.M. Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi davrida ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirish masalalari. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(04), 253-257.;
3. Kamoldinova N.A. (2025). Alternative Scenarios for The Development of The Economic Mechanism of Women’s Entrepreneurship. // *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*. -№6(4), -P. 1292-1298. <https://doi.org/10.51699/cajitmf.v6i4.992>

**UDK: 339.5**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XALQARO SAVDONING  
TRANSFORMATSIYASI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI**

**ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ  
И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ**

**TRANSFORMATION OF INTERNATIONAL TRADE IN THE DIGITAL ECONOMY  
AND IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT**

**Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna**

O‘zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdo jarayonlarining transformatsiyasi va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda elektron tijorat, raqamli platformalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn va raqamli logistika texnologiyalarining xalqaro savdo tizimidagi o‘rni o‘rganilgan. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning raqamli transformatsiya tajribalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish tashqi savdo samaradorligini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvni jadallashtirishning muhim omiliga aylangan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, xalqaro savdo, elektron tijorat, sun’iy intellekt, Big Data, blokcheyn, eksport, logistika, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish.

В статье анализируется трансформация международной торговли в условиях цифровой экономики и её влияние на экономическое развитие. Исследуются роль электронной коммерции, цифровых платформ, искусственного интеллекта, больших данных (Big Data), технологии блокчейн и цифровой логистики в современной системе международной торговли. Особое внимание уделено сравнению опыта развитых и развивающихся стран в процессе цифровой трансформации. Результаты исследования показывают, что цифровизация способствует повышению эффективности внешней торговли, снижению логистических затрат, расширению экспортного потенциала и ускорению интеграции стран в глобальные цепочки создания стоимости.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, международная торговля, электронная коммерция, искусственный интеллект, Big Data, блокчейн, экспорт, логистика, инновации, экономическое развитие.

This article examines the transformation of international trade in the digital economy and its impact on economic development. The study explores the role of e-commerce, digital platforms, artificial intelligence, Big Data, blockchain technology, and digital logistics in modern international trade. It also compares the digital transformation experiences of developed and developing countries.

The findings indicate that digitalization significantly improves trade efficiency, reduces logistics costs, expands export capacity, and accelerates integration into global value chains.

**Keywords:** digital economy, international trade, e-commerce, artificial intelligence, Big Data, blockchain, exports, logistics, innovation, economic development.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. [1] Internet infratuzilmasining kengayishi, elektron tijorat platformalarining ommalashuvi, sun’iy intellekt (Artificial Intelligence), blokcheyn, bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) va katta ma’lumotlar (Big Data) kabi innovatsiyalar xalqaro savdo mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Natijada an’anaviy savdo usullaridan raqamli savdo modeliga o‘tish jarayoni tezlashmoqda.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismiga aylanib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, logistika, moliya va xalqaro savdo sohalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF), Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) va OECD ma’lumotlariga ko‘ra, [2] raqamlashtirish jarayoni davlatlarning xalqaro raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Amazon, Alibaba, eBay, Shopify, JD.com, Mercado Libre kabi elektron tijorat platformalarining rivojlanishi xalqaro savdo geografiyasini kengaytirib, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham global bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga, blokcheyn asosidagi to‘lov tizimlari, elektron bojxona xizmatlari va aqlli logistika tizimlari transchegaraviy savdo xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

COVID-19 pandemiyasi davrida ham raqamli savdoning ustunliklari yaqqol namoyon bo‘ldi. Ko‘plab mamlakatlarda elektron tijorat hajmi keskin oshdi, masofaviy xizmatlar rivojlandi va biznes jarayonlari raqamli platformalarga ko‘chdi. Bu esa raqamli transformatsiyaning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi muhim rolini yana bir bor tasdiqladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdoning transformatsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, zamonaviy raqamli texnologiyalarning tashqi savdo samaradorligiga ta’sirini baholash hamda O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyot va xalqaro savdo bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar so‘nggi o‘n yilliklarda iqtisodiyot fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki xalqaro savdo tizimining institutsional va texnologik rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Don Tapscott o‘zining “The Digital Economy” [3] asarida raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini tubdan o‘zgartirayotganini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, raqamli platformalar bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirib, tranzaksiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee esa “The Second Machine Age” [4] kitobida sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar global iqtisodiyotning yangi rivojlanish bosqichini boshlab berganini qayd etadi. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalar xalqaro savdoda samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda yangi biznes modellarining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

OECD va Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) hisobotlarida raqamli savdo global qiymat zanjirlarining ajralmas qismi sifatida baholanadi. [5] Xususan, elektron tijorat platformalarining rivojlanishi eksport qiluvchi korxonalar sonining ortishiga, logistika tizimlarining optimallashtirishiga hamda transchegaraviy savdo xarajatlarining kamayishiga olib kelgani ta’kidlanadi.

UNCTAD tadqiqotlarida [6] elektron tijoratning rivojlanishi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi bilan birga, raqamli tafovut (digital divide), kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va raqamli infratuzilma yetishmovchiligi kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi qayd etilgan.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar raqamli iqtisodiyot xalqaro savdo tizimining transformatsiyasida hal qiluvchi omilga aylanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mamlakatlarning

ushbu jarayondan samarali foydalanishi raqamli infratuzilma, innovatsion siyosat, inson kapitali va davlat boshqaruvi sifatiga bevosita bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro savdoning transformatsiyasi hamda uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida analitik, qiyosiy, statistik va deskriptiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini Jahon banki (World Bank), Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF), Jahon Savdo Tashkiloti (WTO), OECD, UNCTAD, International Trade Centre (ITC), Statista va UN Comtrade ma’lumotlari tashkil etdi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va xalqaro savdo bo‘yicha nufuzli ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda zamonaviy akademik adabiyotlar o‘rganildi.

Tahlil jarayonida elektron tijorat hajmi, raqamli xizmatlar eksporti, internet foydalanuvchilari ulushi, logistika samaradorligi va xalqaro savdo hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Natijalar grafik, jadval va qiyosiy tahlillar yordamida umumlashtirildi.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda xalqaro savdoning eng muhim rivojlanish omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi o‘n yillikda internet texnologiyalarining kengayishi, elektron to‘lov tizimlarining rivojlanishi va logistika infratuzilmasining takomillashuvi natijasida transchegaraviy savdo sezilarli darajada oshdi.

UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, [7] global elektron tijorat bozori 2024-yilda 30 trillion AQSh dollaridan ortiq hajmga yetgan. Ushbu ko‘rsatkich raqamli platformalarning xalqaro savdodagi ulushi tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

An’anaviy savdo modelida ishlab chiqaruvchi, distribyutor, ulgurji va chakana savdo bo‘g‘inlari mavjud bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqaruvchi iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, mahsulot narxining pasayishiga va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qilmoqda.

Elektron tijorat platformalari, jumladan Amazon, Alibaba, Shopify va eBay millionlab korxonalar uchun xalqaro bozorlarga chiqish imkonini yaratmoqda. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari raqamli platformalar orqali eksport geografiyasini kengaytirishga muvaffaq bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt xalqaro savdo tizimida talabni prognozlash, narxlarni optimallashtirish, logistika yo‘nalishlarini rejalashtirish va mijozlar xulq-atvorini tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda. Katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyasi esa real vaqt rejimida millionlab operatsiyalarni tahlil qilish imkonini beradi. [8]

Blokcheyn texnologiyasi xalqaro to‘lovlarning xavfsizligini oshirish, kontraktlarni avtomatlashtirish va yuklarning harakatini kuzatishda muhim vositaga aylanmoqda. [9] Natijada xarajatlar kamaymoqda.

#### **1-jadval**

**Jahon elektron tijorat bozori hajmi 2020-2024 yillar (Muallif tomonidan UNCTAD va Statista ma’lumotlari asosida tuzildi)**

| Yil  | Hajmi (trln. AQSh dollari) |
|------|----------------------------|
| 2020 | 21.5                       |
| 2021 | 24.0                       |
| 2022 | 26.7                       |
| 2023 | 28.9                       |

Manba. statista.com

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi besh yil davomida elektron tijorat hajmi qariyb 42 foizga oshgan. Bu esa iste’molchilar va korxonalarning raqamli savdoga bo‘lgan ishonchi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Elektron savdo nafaqat ichki bozorlarda, balki xalqaro savdoda ham muhim rol o‘ynamoqda.

**Ayrim mamlakatlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanish ko‘rsatkichlari (muallif tomonidan tuzildi.)**

| Mamlakat       | Internet foydalanuvchilari (%) | Elektron tijorat ulushi (%) | Raqamli xizmatlar eksporti (mlrd.\$) |
|----------------|--------------------------------|-----------------------------|--------------------------------------|
| AQSh           | 97                             | 22                          | 685                                  |
| Xitoy          | 78                             | 34                          | 410                                  |
| Janubiy Koreya | 98                             | 30                          | 118                                  |
| Singapur       | 96                             | 28                          | 95                                   |
| O‘zbekiston    | 83                             | 7                           | 2.5                                  |

Manba. ITC. *SME Competitiveness Outlook*.

Jadval ma’lumotlari rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyot yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi. AQSh va Janubiy Koreyada internetdan foydalanish darajasi deyarli 100 foizni tashkil etadi. Xitoy esa elektron tijorat hajmi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

O‘zbekistonda ham raqamlashtirish jarayoni jadallashayotgan bo‘lsa-da, elektron tijorat va raqamli xizmatlar eksportining ulushi hali rivojlangan mamlakatlarga nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa mazkur yo‘nalishda katta o‘shish salohiyati mavjudligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari quyidagi muhim xulosalarni ko‘rsatdi:

- -raqamli texnologiyalar xalqaro savdo xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi;
- -elektron tijorat kichik va o‘rta biznes uchun yangi eksport imkoniyatlarini yaratadi;
- -sun‘iy intellekt va Big Data savdo operatsiyalarining samaradorligini oshiradi;
- -blokcheyn xalqaro tranzaksiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta‘minlaydi;
- -raqamli logistika yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi;
- -davlatlarning raqamli infratuzilmasi xalqaro raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli iqtisodiyot zamonaviy xalqaro savdo tizimining eng muhim rivojlanish omillaridan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi xalqaro savdo jarayonlarini soddalashtirib, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, logistika tizimlarini optimallashtirish hamda korxonalar uchun yangi eksport imkoniyatlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, elektron tijorat platformalari, sun‘iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn va bulutli texnologiyalar xalqaro savdoning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlar raqamli transformatsiyani iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylantirish orqali global bozorlarda o‘z raqobatbardoshligini mustahkamlagan. AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar elektron tijorat, raqamli xizmatlar eksporti va innovatsion infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hisobiga xalqaro savdoda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotning kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun ham muhim imkoniyatlar yaratishini tasdiqladi. Raqamli platformalar orqali korxonalar vositachilarsiz xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lib, eksport geografiasini kengaytirishi va yangi iste’molchilarni jalb qilishi mumkin.

Biroq raqamli transformatsiya jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, kiberxavfsizlik tahdidlari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali IT mutaxassislar yetishmasligi hamda davlatlar o‘rtasidagi raqamli tafovut xalqaro savdo rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish faqat texnologik emas, balki institutsional va huquqiy islohotlarni ham talab qiladi.

O‘zbekiston uchun ushbu tadqiqot quyidagi xulosalarni beradi. Mamlakatda so‘nggi yillarda raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, xalqaro savdoda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini yanada oshirish zarur. Ayniqsa, elektron tijorat eksportini kengaytirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda raqamli xizmatlar eksportini rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning muhim manbalaridan biri bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- -elektron tijorat eksportini qo‘llab-quvvatlovchi milliy platformalarni rivojlantirish;
- -eksport qiluvchi korxonalar uchun yagona raqamli bojxona va logistika tizimini yaratish;
- -sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalarini tashqi savdo boshqaruviga keng joriy etish;
- -blokcheyn asosidagi elektron hujjat aylanishi va xalqaro to‘lov tizimlarini rivojlantirish;
- -kichik va o‘rta biznesning xalqaro elektron platformalarga chiqishini moliyaviy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- -raqamli infratuzilmaga davlat va xususiy investitsiyalar hajmini oshirish;
- -IT mutaxassislarini tayyorlash hamda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlarni kengaytirish;
- -xalqaro raqamli savdo standartlarini milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich integratsiya qilish;
- -kiberxavfsizlik tizimlarini kuchaytirish va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish;
- -Jahon Savdo Tashkiloti (WTO), OECD va UNCTAD bilan raqamli savdo yo‘nalishidagi hamkorlikni kengaytirish.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot xalqaro savdoning kelajakdagi rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib qoladi. Mazkur yo‘nalishda samarali davlat siyosatini amalga oshirish O‘zbekistonning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tapscott, D. *The Digital Economy*. McGraw-Hill, 1996.
2. WTO. *World Trade Statistical Review 2024*.
3. Tapscott, D. *The Digital Economy*.
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. *The Second Machine Age*.
5. OECD Digital Economy Outlook, 2024.
6. UNCTAD. *Digital Economy Report 2024*.
7. UNCTAD. *Digital Economy Report 2024*.
8. OECD. *Measuring the Digital Transformation*.
9. World Bank. *Digital Development Report*.
10. statista.com
11. ITC. *SME Competitiveness Outlook*.

**ANDIJON VILOYATIDA KICHIK BIZNES EKSPORTINING HOZIRGI HOLATI VA  
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЭКСПОРТА МАЛОГО  
БИЗНЕСА В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**CURRENT STATE AND DEVELOPMENT TRENDS OF SMALL BUSINESS EXPORTS IN  
ANDIJAN REGION**

**Dadaboyeva Marguba Mamasolievna**

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti,  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatining hozirgi holati hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hudud eksportining tarmoq va geografik tarkibi, kichik biznesning eksportdagi ulushi, eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning amaldagi davlat mexanizmlari hamda ularning samaradorligi baholangan. Shuningdek, eksport faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari Andijon viloyatida kichik biznes eksport salohiyatini oshirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda eksport tarkibini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, eksport, eksport salohiyati, Andijon viloyati, tashqi savdo, eksportni qo‘llab-quvvatlash, eksport geografiyasi, eksportni diversifikatsiya qilish, hududiy iqtisodiy rivojlanish.

В данной статье проведен анализ современного состояния и тенденций развития экспортной деятельности субъектов малого бизнеса Андижанской области. Исследованы отраслевая и географическая структура регионального экспорта, доля малого бизнеса в экспортной деятельности, действующие механизмы государственной поддержки экспорта и их эффективность. Выявлены основные проблемы, сдерживающие развитие экспортной деятельности субъектов малого бизнеса, а также предложены научно обоснованные практические рекомендации по повышению экспортного потенциала региона. Результаты исследования могут быть использованы при разработке мер по диверсификации экспортной структуры, расширению географии экспорта и совершенствованию механизмов государственной поддержки экспортно ориентированных субъектов малого предпринимательства.

**Ключевые слова:** малый бизнес, экспорт, экспортный потенциал, Андижанская область, внешняя торговля, государственная поддержка экспорта, география экспорта, диверсификация экспорта, региональное экономическое развитие.

This article analyzes the current state and development trends of export activities of small business entities in Andijan region. The study examines the sectoral and geographical structure of regional exports, the share of small businesses in export activities, existing government support mechanisms, and their effectiveness. The main challenges hindering export development are identified, and scientifically grounded practical recommendations for enhancing the export potential of small businesses are proposed. The findings contribute to improving the export capacity of the region, diversifying export markets, and strengthening the competitiveness of export-oriented small business entities.

**Keywords:** small business, exports, export potential, Andijan region, foreign trade, export promotion, government support, export geography, export diversification, regional economic development.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo munosabatlarining liberallashuvi hamda eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy rivojlanish modeli mamlakatlar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish nafaqat tashqi savdo hajmini kengaytirish, balki hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda valyuta tushumlarini ko‘paytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish va eksportni rag‘batlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda [1]. Xususan, eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro sifat standartlarini joriy etish hamda yangi tashqi bozorlarga chiqishni rag‘batlantirish bo‘yicha institutsional mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Mazkur islohotlar hududlarda kichik biznes subyektlarining eksport faolligini oshirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda [2].

Andijon viloyati respublikaning sanoat va qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori bo‘lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati, avtomobilsozlik, oziq-ovqat sanoati, meva-sabzavotchilik hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi eksport hajmining o‘shishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ulushining ortib borishi hudud eksportining raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, kichik biznes eksporti rivojlanishiga ayrim tizimli muammolar ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, logistika xarajatlarining yuqoriligi, xalqaro sertifikatlashtirish talablari, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, tashqi bozorlar to‘g‘risidagi axborotning yetarli emasligi hamda eksport geografiyasining ayrim mamlakatlarga yuqori darajada jamlanganligi eksport salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Mazkur holat hudud eksportini ilmiy asosda tahlil qilish va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Andijon viloyatida kichik biznes eksportining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari hududlarda eksportni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini takomillashtirish va kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes eksportini rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, M. Porter eksport salohiyati va milliy raqobatbardoshlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab, hududlarning eksport imkoniyatlarini oshirishda innovatsiyalar va klasterlashuvning muhimligini ta‘kidlagan [8]. J. Sachs va D. Rodrik tadqiqotlarida esa eksportni diversifikatsiya qilish iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri sifatida baholangan [9].

O‘zbekistonlik olimlardan A. Vahobov, Sh. Shodmonov, B. Berkinov, Q. Hoshimov va boshqa tadqiqotchilar kichik biznesni rivojlantirish, tashqi savdo faoliyatini takomillashtirish hamda eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida eksportni rag‘batlantirish mexanizmlari, hududlar eksport salohiyatini oshirish hamda tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan [5,6,7].

Shu bilan birga, Andijon viloyatida kichik biznes eksportining zamonaviy holati, tarmoq tarkibi, eksport geografiyasi va rivojlanish tendensiyalarini kompleks baholashga bag‘ishlangan ilmiy

tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur maqola aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga hamda hudud eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotda Andijon viloyatida kichik biznes eksportining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining eksport faoliyati so‘nggi yillarda izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Hududda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hamda yangi tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarining ortishi eksport hajmining o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, Andijon viloyati eksportida kichik biznes subyektlari, ayniqsa, to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, meva-sabzavot mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati hamda yengil sanoat yo‘nalishlarida faol ishtirok etmoqda.

**1-jadval**

**Andijon viloyati eksportining tarmoq tarkibi va kichik biznesning ulushi (2025-yil)**

| <b>Tarmoq</b>                    | <b>Umumiy eksportdagi ulushi, %</b> | <b>Kichik biznes ulushi, %</b> | <b>Asosiy eksport bozorlari</b> |
|----------------------------------|-------------------------------------|--------------------------------|---------------------------------|
| To‘qimachilik va tikuv-trikotaj  | 28,4                                | 74,6                           | Rossiya, Turkiya, Xitoy         |
| Meva-sabzavot mahsulotlari       | 18,7                                | 81,3                           | Qozog‘iston, Rossiya, Xitoy     |
| Mashinasozlik va ehtiyot qismlar | 14,5                                | 16,8                           | Qozog‘iston, Rossiya            |
| Oziq-ovqat sanoati               | 9,6                                 | 69,5                           | Rossiya, Qozog‘iston            |
| Yengil sanoat                    | 8,2                                 | 72,4                           | Rossiya, Qirg‘iziston           |
| Qurilish materiallari            | 5,8                                 | 41,7                           | Qirg‘iziston, Tojikiston        |
| Kimyo sanoati                    | 4,9                                 | 21,3                           | Rossiya, Turkiya                |
| Xizmatlar                        | 6,3                                 | 37,8                           | Qozog‘iston, Turkiya            |
| Boshqalar                        | 3,6                                 | 18,5                           | Turli davlatlar                 |

Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [3].

Ushbu tarmoqlarda ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan pastligi, mahalliy xomashyo bazasining mavjudligi va mehnat resurslarining yetariligi kichik biznesning eksport faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, eksportning asosiy qismini to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari tashkil etib, ularning umumiy eksportdagi ulushi 28,4 foizni tashkil etadi [4]. Mazkur tarmoqda kichik biznes subyektlarining ulushi 74,6 foizga yetgani [4] xususiy tadbirkorlikning ushbu sohada yetakchi o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi. Bunga paxta-to‘qimachilik klasterlarining rivojlanishi, tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi va tashqi bozorlarda o‘zbek tekstil mahsulotlariga bo‘lgan talabning yuqoriligi sabab bo‘lmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida kichik biznesning ulushi 81,3 foizni tashkil etgani mazkur yo‘nalish eksport faoliyatining asosan fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va qayta ishlovchi kichik korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda zamonaviy sovitish omborlari, logistika markazlari va eksportbop qadoqlash texnologiyalarining joriy etilishi ushbu tarmoqning eksport salohiyatini oshirmoqda.

Mashinasozlik mahsulotlari eksportida esa kichik biznesning ulushi 16,8 foizni tashkil etmoqda. Bu holat avtomobilsozlik tarmog‘ida yirik sanoat korxonalari ustunlik qilayotganini

anglatadi. Biroq sanoat kooperatsiyasining rivojlanishi natijasida kichik korxonalar tomonidan ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

Shuningdek, oziq-ovqat sanoati va yengil sanoatda kichik biznesning ulushi mos ravishda 69,5 va 72,4 foizni tashkil etishi ushbu tarmoqlarda eksport faoliyatining asosan xususiy sektor tomonidan amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida eksport faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ham tahlil qilindi.

**2-jadval**

**Kichik biznes eksportini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar**


| <b>Omillar</b>                                 | <b>Ta’sir darajasi</b> | <b>Baholash</b> |
|------------------------------------------------|------------------------|-----------------|
| Eksport kreditlari va subsidiyalar             | Yuqori                 | Ijobiy          |
| Soliq va bojxona imtiyozlari                   | Yuqori                 | Ijobiy          |
| Logistika infratuzilmasining rivojlanishi      | Yuqori                 | Ijobiy          |
| Transport xarajatlarining yuqoriligi           | Yuqori                 | Salbiy          |
| Xalqaro sertifikatlashtirish xarajatlari       | O‘rta                  | Salbiy          |
| Tashqi bozorlar bo‘yicha axborot yetishmasligi | O‘rta                  | Salbiy          |
| Marketing va brendingning sustligi             | O‘rta                  | Salbiy          |
| Raqamli savdo platformalaridan foydalanish     | Yuqori                 | Ijobiy          |

Manba: Muallif ishlanmasi.

2-jadval natijalari eksport faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar orasida davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda. Xususan, eksport kreditlari, foiz stavkalarini subsidiyalash, bojxona va soliq imtiyozlari kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda [5].

Biroq eksport faoliyatini cheklayotgan qator muammolar ham mavjud. Eng avvalo, transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi mahsulot tannarxining oshishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, xalqaro sifat standartlari bo‘yicha sertifikat olish xarajatlarining yuqoriligi hamda xorijiy bozorlar haqidagi marketing axborotlarining yetarli emasligi ko‘plab kichik korxonalarning eksport salohiyatidan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar Andijon viloyatida kichik biznes eksportining ijobiy rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq eksport hajmini yanada oshirish uchun mahsulotlarni chuqur qayta ishlash darajasini ko‘paytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro sifat standartlarini joriy etishni jadallashtirish zarur.



**1-rasm. Andijon viloyati kichik biznes eksportining tarmoq tarkibi (2025-yil)**

Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Shu bilan birga, eksport qiluvchi korxonalarni raqamli marketing vositalari, elektron savdo platformalari va xalqaro ko‘rgazmalar orqali qo‘llab-quvvatlash hudud eksportining raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Andijon viloyatida kichik biznes eksporti hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tashqi savdo faoliyatining liberallasuvi hamda eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashtirilishi kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar viloyat eksportida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj, meva-sabzavot, oziq-ovqat hamda yengil sanoat mahsulotlari yetakchi o‘rin egallashini ko‘rsatdi. Ushbu tarmoqlarda kichik biznesning ulushi yuqori bo‘lib, ular eksport hajmining o‘sishi va hududning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mashinasozlik va boshqa yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarda kichik biznes ishtirokini kengaytirish zarur.

Tadqiqot davomida logistika xarajatlarining yuqoriligi, xalqaro sertifikatlashtirish talablarining murakkabligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda tashqi bozorlar bo‘yicha marketing axborotlarining yetishmasligi kichik biznes eksportining rivojlanishiga salbiy ta‘sir etayotgan asosiy omillar sifatida aniqlandi.

Shundan kelib chiqib, eksport mahsulotlari tarkibini diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro sifat standartlarini joriy etishni rag‘batlantirish, eksport faoliyatini raqamlashtirish hamda yangi tashqi bozorlarga chiqishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi Andijon viloyatida kichik biznes eksportining barqaror o‘sishini ta‘minlash, eksport geografiyasini kengaytirish, hudud eksport salohiyatidan samarali foydalanish hamda iqtisodiy o‘shish va bandlikni oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlari. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdosi: Statistik to‘plam. – Toshkent, 2025.
4. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Andijon viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Andijon, 2025.
5. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumiy nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Berkinov B.B. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. – Toshkent.
8. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
9. Rodrik D. Industrial Policy for the Twenty-First Century. Cambridge, MA: Harvard University, John F. Kennedy School of Government, Working Paper, 2004.

**TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKLARINI BAHOLASHNING NAZARIY VA  
METODOLOGIK ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ПРОЦЕНТНЫХ  
РИСКОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ**

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING  
INTEREST RATE RISK IN COMMERCIAL BANKS**

**Xakkulov Akbar Uralovich**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada tijorat banklarida foiz risklarini baholashning nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Foiz risklarining iqtisodiy mazmuni, ularning asosiy manbalari hamda bank daromadlari va kapital barqarorligiga ta’sir qilish mexanizmlari yoritilgan. Foiz risklarini baholashning foizli tafovut (GAP), muddat davomiyligi (Duration), sof foiz daromadi (NII), kapitalning iqtisodiy qiymati va stress-test kabi usullari qiyosiy tahlil qilingan, ularning afzalliklari va cheklovlari asoslab berilgan. Shuningdek, Bazel qo‘mitasi, Yevropa bank boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank portfelidagi foiz risklarini boshqarishga oid zamonaviy talablari tahlil qilinib, milliy bank amaliyotida mazkur yondashuvlarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Tadqiqot natijalari foiz risklarini baholashda yagona usuldan emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi yondashuvlar majmuasidan foydalanish banklar risk-menejmenti samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Foiz riski, foizli tafovut, muddat davomiyligi, sof foiz daromadi, kapitalning iqtisodiy qiymati, stress-test, bazaviy risk, Bazel qo‘mitasi, tijorat banklari, risk-menejment, aktiv va passivlarni boshqarish.

статье исследованы теоретические и методологические основы оценки процентных рисков в коммерческих банках. Раскрыты экономическое содержание процентного риска, его основные источники, а также механизмы воздействия на доходы банка и устойчивость капитала. Проведен сравнительный анализ методов оценки процентного риска, включая анализ процентного разрыва (GAP), дюрацию (Duration), чистый процентный доход (NII), экономическую стоимость капитала и стресс-тестирование; обоснованы их преимущества и ограничения. Кроме того, проанализированы современные требования Базельского комитета по банковскому надзору, Европейского банковского управления и Центрального банка Республики Узбекистан к управлению процентным риском банковского портфеля, а также определены приоритетные направления совершенствования данных подходов в национальной банковской практике. Результаты исследования показывают, что использование не одного отдельно взятого метода, а комплекса взаимодополняющих подходов к оценке процентного риска способствует повышению эффективности банковского риск-менеджмента.

**Ключевые слова:** процентный риск, процентный разрыв, дюрация, чистый процентный доход, экономическая стоимость капитала, стресс-тестирование, базисный риск, Базельский комитет, коммерческие банки, риск-менеджмент, управление активами и пассивами.

The article examines the theoretical and methodological foundations for assessing interest rate risk in commercial banks. It reveals the economic substance of interest rate risk, its principal sources, and the mechanisms through which it affects bank income and capital resilience. A comparative analysis is conducted of key interest rate risk assessment methods, including gap analysis (GAP), duration analysis, net interest income (NII), the economic value of equity, and stress testing, with

particular emphasis on their advantages and limitations. The article also analyses the contemporary requirements of the Basel Committee on Banking Supervision, the European Banking Authority, and the Central Bank of the Republic of Uzbekistan concerning the management of interest rate risk in the banking book, and identifies priority areas for improving these approaches in national banking practice. The findings demonstrate that the use of a set of complementary approaches, rather than reliance on a single method, contributes to enhancing the effectiveness of bank risk management.

**Keywords:** interest rate risk, interest rate gap, duration, net interest income, economic value of equity, stress testing, basis risk, Basel Committee, commercial banks, risk management, asset and liability management.

Tijorat banklarining iqtisodiy vazifalaridan biri turli muddatlarga ega moliyaviy resurslarni bir-biriga muvofiqlashtirishdan iborat. Banklar aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlardan, asosan, talab qilib olinguncha yoki nisbatan qisqa muddatlarga depozitlar jalb qilib, ushbu mablag‘larni uzoq muddatli kreditlar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtiradi. Mazkur moliyaviy vositachilik bankka foizli daromad olish imkonini berishi bilan birga, aktivlar va majburiyatlar muddatlari hamda qayta narxlanish davrlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Bozor foiz stavkalari o‘zgarganda ushbu nomuvofiqlik bankning sof foiz daromadi, aktivlar qiymati va kapital barqarorligiga ta’sir qiladi.

Bazal qo‘mitasi bank portfelida yuzaga keluvchi foiz riskini bozor foiz stavkalaridagi salbiy o‘zgarishlar natijasida bank kapitali va daromadlarining joriy yoki kelgusida pasayish ehtimoli sifatida talqin qiladi. Bunda bank portfelidagi foiz riski savdo portfelidagi bozor riskidan farqlanadi. Savdo portfelidagi foiz riski, asosan, bozor bahosida hisobga olinadigan qimmatli qog‘ozlar va hosilaviy moliyaviy vositalar narxining qisqa muddatli o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bank portfelidagi foiz riski esa kreditlar, depozitlar, uzoq muddat saqlanadigan qimmatli qog‘ozlar va balansdan tashqari pozitsiyalar bo‘yicha kelgusi pul oqimlari hamda daromadlarning o‘zgarishini qamrab oladi [1].

Ilmiy adabiyotlar va xalqaro standartlarda bank portfelidagi foiz riskining to‘rtta asosiy manbasi ajratiladi. Birinchisi, qayta narxlanish riski bo‘lib, u aktivlar va majburiyatlar foiz stavkalarining turli vaqtda o‘zgarishi natijasida vujudga keladi. Masalan, bank uzoq muddatli qat’iy stavkada kredit berib, uni qisqa muddatli depozitlar orqali moliyalashtirsa, depozitlar qayta narxlanishi kreditlarga nisbatan tezroq yuz beradi. Foiz stavkalari oshganda bankning foiz xarajatlari ko‘payadi, kreditlardan olinadigan daromad esa o‘zgarmasdan qoladi. Natijada bankning sof foiz daromadi va marjasi qisqaradi.

Ikkinchisi, foiz egri chizig‘i riski bo‘lib, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli stavkalarining bir xil emas, balki turli yo‘nalish va miqdorda o‘zgarishi bilan bog‘liq. Foiz stavkalarining parallel o‘zgarishi barcha muddatlarda bir xil foiz tokini ifodalaydi. Amaliyotda esa qisqa muddatli stavkalar oshishi va uzoq muddatli stavkalar pasayishi yoki aksincha holat kuzatilishi mumkin. Foiz egri chizig‘ining tiklashishi yoki tekislanishi aktivlar va majburiyatlar pul oqimlarining joriy qiymatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli faqat parallel foiz shoxiga asoslangan baholash bankning haqiqiy risk holatini to‘liq ko‘rsatmasligi mumkin.

Uchinchisi, bazaviy risk bo‘lib, u aktivlar va majburiyatlar stavkalari turli bozor ko‘rsatkichlariga bog‘langan sharoitda shakllanadi. Masalan, kredit stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasiga, depozit stavkasi esa banklararo pul bozori stavkasiga bog‘langan bo‘lishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar bir vaqtda va bir xil miqdorda o‘zgarmasa, bankning foizli daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi nisbat buziladi. Demak, aktiv va majburiyatlar o‘zgaruvchan stavkada bo‘lgan taqdirda ham bazaviy foiz riski saqlanib qoladi.

To‘rtinchisi, ixtiyoriylik riski bo‘lib, bank yoki uning mijozlarida moliyaviy shartnoma bo‘yicha to‘lov miqdori yoki muddatini o‘zgartirish huquqi mavjudligi bilan bog‘liq. Foiz stavkalari pasayganda qarz oluvchilar yuqori stavkada olingan kreditlarni muddatidan oldin so‘ndirib, past stavkada qayta moliyalashtirishga harakat qiladi. Stavkalar oshganda esa omonatchilar past foizli depozitlarni muddatidan oldin qaytarib olib, yuqori daromadli depozitlarga o‘tishi mumkin. Bu holatlar bankning kutilgan pul oqimlari va ularning muddatlarini o‘zgartiradi.

Foiz riski bank faoliyatiga daromad va iqtisodiy qiymat yo‘nalishlari orqali ta‘sir ko‘rsatadi. Daromad yondashuvida asosiy e‘tibor foiz stavkalari o‘zgarishining sof foiz daromadiga ta‘siriga qaratiladi. U aktivlar bo‘yicha foizli daromadlar va majburiyatlar bo‘yicha foizli xarajatlarning kelgusi hisobot davrida qanday o‘zgarishini ifodalaydi. Iqtisodiy qiymat yondashuvida esa aktivlar, majburiyatlar va balansdan tashqari pozitsiyalar bo‘yicha kelgusi pul oqimlarining joriy qiymati baholanadi. Shuning uchun daromad yondashuvi nisbatan qisqa muddatli, iqtisodiy qiymat yondashuvi esa uzoq muddatli ta‘sirni aks ettiradi.

Gomez, Landier, Sraer va Thesmar foiz riskini banklarning pul oqimlari nuqtai nazaridan tadqiq etib, daromad tafovutini belgilangan davrda qayta narxlanadigan aktivlar va majburiyatlar o‘rtasidagi farq sifatida baholagan. Mualliflar foiz stavkalari oshganda ijobiy daromad tafovutiga ega banklarning foiz daromadlari yuqoriroq o‘sishi va ularning kreditlash hajmini boshqa banklarga nisbatan kamroq qisqartirishini aniqlagan. Mazkur natija foiz riski bankning ichki moliyaviy natijalari bilan cheklanib qolmasdan, kredit taklifi va pul-kredit siyosati ta‘sirchanligiga ham ta‘sir qilishini ko‘rsatadi [2].

English, Van den Heuvel va Zakrajšek foiz stavkalari o‘zgarishining bank aksiyalari qiymatiga ta‘sirini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari foiz stavkalarining kutilmagan oshishi va foiz egri chizig‘ining tiklashishi bank aksiyalari qiymatiga salbiy ta‘sir qilishini ko‘rsatgan. Mazkur ta‘sir aktivlar va majburiyatlar muddatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik yuqori bo‘lgan banklarda kuchliroq namoyon bo‘lgan. Ushbu yondashuv foiz riskini faqat buxgalteriya daromadlari orqali emas, balki bank kapitali bozor qiymatining sezgirliги orqali ham baholash zarurligini asoslaydi [3].

Drechsler, Savov va Schnabl banklarning muddatsiz depozitlar bo‘yicha bozor ustunligi ularga moliyalashtirish qiymatini bozor stavkalariga nisbatan sekinroq o‘zgartirish imkonini berishini ta‘kidlaydi. Mualliflarning fikricha, depozitlar bazasining barqarorligi bankning uzoq muddatli aktivlaridan kelib chiqadigan foiz riskining muayyan qismini qoplashi mumkin. Biroq bu xulosa muddatsiz depozitlar doimo barqaror va foiz stavkalariga ta‘sirchan emas, degan ma‘noni anglatmaydi. Depozitlarning iqtisodiy muddati bankning bozordagi mavqeyi, mijozlar tarkibi, depozitlar konsentratsiyasi, raqamli xizmatlar rivojlanganligi va foiz stavkalari muhitiga bog‘liq bo‘ladi [4].

Coulier, Pancaro va Reghezza tadqiqotida past foiz stavkalari davrida banklar yuqori daromad olish maqsadida aktivlar muddatini uzaytirgani hamda qat‘iy stavkasi kreditlar ulushini ko‘paytirgani ko‘rsatilgan. Foiz stavkalari tez oshgan sharoitda talab qilib olinguncha depozitlarning bir qismi muddatli depozitlarga o‘tishi majburiyatlar iqtisodiy muddatini qisqartirgan va banklarning muddat davomiyliги tafovutini kengaytirgan. Mualliflar yuqori sof muddat davomiyliги tafovutiga ega banklar korporativ kreditlashni boshqa banklarga nisbatan ko‘proq qisqartirganini aniqlagan. Ushbu natija foiz riskini baholashda aktivlar va majburiyatlarning butun muddat hamda qayta narxlanish tuzilmasini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi [5].

Shunday qilib, foiz riski faqat aktiv va majburiyatlar stavkalari o‘rtasidagi farq emas. U qayta narxlanish muddatlari, foiz stavkalari turlari, daromad egri chizig‘i, bazaviy ko‘rsatkichlar, mijozlar xatti-harakatlari va bankning xe-jirlash pozitsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik natijasida shakllanadi.

Foiz riskini baholash usullari bank faoliyatining murakkablashishi, moliyaviy mahsulotlar ko‘payishi va bozor foiz stavkalari o‘zgaruvchanligining kuchayishi bilan birga rivojlangan. Ilk yondashuvlarda asosiy e‘tibor aktiv va majburiyatlarning shartnomaviy muddatlariga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy usullar qayta narxlanish xususiyatlari, diskontlagan pul oqimlari, xulq-atvor farzlari va ko‘p ssenariysi stress-testlarni ham qamrab oladi.

Foizli tafovut tahlili foiz riskini baholashning eng sodda va keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Unda foizga sezgir aktivlar va majburiyatlar belgilangan muddat oralig‘lari bo‘yicha guruhlanadi. Har bir muddat oralig‘ida qayta narxlanadigan aktivlar va majburiyatlar o‘rtasidagi farq foizli tafovutni ifodalaydi. Ijobiy tafovut mavjud bo‘lganda foiz stavkalari oshishi bank sof foiz daromadini ko‘paytirishi, manfiy tafovutda esa uni kamaytirishi kutiladi.

Foizli tafovut tahlilining ustunligi uning soddaligi va natijalarini tez talqin qilish imkoniyatidir. U bankka qaysi muddat oralig‘ida foizga sezgir aktivlar yoki majburiyatlar ustun ekanini aniqlash

imkonini beradi. Biroq mazkur usul bir muddat oralig‘i ichidagi barcha pozitsiyalar bir vaqtda qayta narxlanadi, degan farazga asoslanadi. Masalan, bir oylik muddat oralig‘ining birinchi kuni qayta narxlanadigan depozit bilan oxirgi kuni qayta narxlanadigan kredit bir xil guruhga kiritiladi. Natijada pul oqimlarining vaqt bo‘yicha farqi hisobga olinmaydi.

Shuningdek, an‘anaviy foizli tafovut usuli aktivlar va majburiyatlar stavkalarining bozor stavkasi o‘zgarishiga to‘liq moslashishini nazarda tutadi. Amalda esa bank mahsulotlarining foiz stavkalari bozor stavkasiga turli darajada ta’sirchan bo‘ladi. Agar bozor stavkasi 1 foiz bandga oshganda depozitlar stavkasi 0,8 foiz bandga, kreditlar stavkasi esa 0,4 foiz bandga ohsa, aktiv va majburiyatlarning qayta narxlanish ta’siri bir xil bo‘lmaydi. Bu esa oddiy foizli tafovut natijasi bilan sof foiz daromadining haqiqiy o‘zgarishi o‘rtasida farq keltirib chiqaradi.

Daromad tafovuti usuli foizli tafovut tahlilining rivojlangan shakli bo‘lib, aktiv va majburiyatlarning muayyan davr ichida qayta narxlanishini sof foiz daromadi bilan bog‘laydi. Gomez va boshqalar daromad tafovuti ko‘rsatkichidan foydalanib, foiz stavkalari o‘zgarishiga bank daromadlarining ta’sirchanligini empirik baholagan [2]. Biroq ushbu yondashuv ham foiz stavkalarining aktivlar va majburiyatlarga o‘tish darajasi, ya’ni qayta narxlanish koeffitsiyentlari hisobga olinmasa, soddalashtirilgan natija beradi.

Foiz riskini iqtisodiy qiymat nuqtai nazaridan baholashda o‘rtacha muddat davomiyligi usuli muhim o‘rin tutadi. Mazkur ko‘rsatkich moliyaviy instrument bo‘yicha kelgusi pul oqimlarini olishning o‘rtacha vaznli muddatini ifodalaydi. U foiz stavkasi o‘zgarganda moliyaviy instrument qiymati qay darajada o‘zgarishini baholash imkonini beradi. Bank aktivlari va majburiyatlarining o‘rtacha muddat davomiyligi o‘rtasidagi farq muddat davomiyligi tafovutini hosil qiladi. Agar aktivlarning o‘rtacha muddat davomiyligi majburiyatlarnikidan yuqori bo‘lsa, foiz stavkalari oshganda aktivlar qiymati majburiyatlar qiymatiga nisbatan ko‘proq pasayadi. Natijada bank kapitali iqtisodiy qiymati kamayadi.

Muddat davomiyligi usuli foizli tafovut tahliliga nisbatan pul oqimlarining vaqti va joriy qiymatini yaxshiroq hisobga oladi. Biroq oddiy muddat davomiyligi foiz egri chizig‘ining parallel o‘zgarishini va pul oqimlari oldindan ma’lumligini faraz qiladi. Muddatidan oldin so‘ndiriladigan kreditlar, muddatsiz depozitlar va foizga bog‘liq ixtiyoriylikka ega mahsulotlarda pul oqimlari bozor stavkalariga qarab o‘zgaradi. Shu sababli bunday vositalar uchun shartnomaviy muddatdan emas, balki modellashtirishgan xulq-atvor muddatidan foydalanish talab etiladi.

Kapital iqtisodiy qiymati yondashuvi aktivlar, majburiyatlar va balansdan tashqari pozitsiyalar bo‘yicha kelgusi pul oqimlarining joriy qiymatini hisoblashga asoslanadi. Asosiy va stress ssenariylarida hisoblangan iqtisodiy qiymatlar o‘rtasidagi farq foiz riskining kapitalga uzoq muddatli ta’sirini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv foiz stavkalari o‘zgarishining bank balansida darhol aks etmaydigan yashirin ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Masalan, amortizatsiyalashgan qiymatda hisobga olinadigan uzoq muddatli qat’iy stavkasi kreditning bozor qiymati pasayishi joriy hisobot davrida buxgalteriya zarari sifatida tan olinmasligi mumkin. Biroq uning iqtisodiy qiymatidagi pasayish bankning haqiqiy kapital holatiga ta’sir qiladi.

Sof foiz daromadi yondashuvi esa belgilangan prognoz davrida foizli daromad va xarajatlarning o‘zgarishini baholaydi. Bu yondashuvda mavjud aktiv va majburiyatlarning qayta narxlanishi bilan birga, yangi operatsiyalar, balans hajmining o‘zgarishi, kredit va depozit stavkalarining ta’sirchanligi ham hisobga olinishi mumkin. Shu sababli sof foiz daromadi modeli statik yoki dinamik balans faraziga asoslanishi mumkin. Statik balansda mavjud pozitsiyalar hajmi o‘zgarmas deb qabul qilinadi. Dinamik balansda esa kreditlar, depozitlar va boshqa pozitsiyalarning biznes-rejaga muvofiq o‘zgarishi hisobga olinadi.

Claußen va Platte kapital iqtisodiy qiymati hamda sof foiz daromadining o‘zgarishini tartibga solishda qo‘llaniladigan foiz riski ko‘rsatkichlari sifatida baholagan. Mualliflarning modellashtirish natijalari har ikki ko‘rsatkich ham bankda to‘plangan foiz riskini aniqlashda ahamiyatli ekanini ko‘rsatgan. Biroq ular foiz riskining turli vaqt doiralari va ta’sir yo‘nalishlarini aks ettiradi. Shu sababli ulardan birini ikkinchisi bilan almashtirish emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi ko‘rsatkichlar sifatida foydalanish maqsadga muvofiq [6].

So‘nggi tadqiqotlarda muddatsiz depozitlarni modellashirish foiz riskini baholashning eng murakkab masalalaridan biri sifatida ko‘rsatilmoqda. Ularning shartnomaviy muddati mavjud emas, ammo iqtisodiy muddati bir necha yilni tashkil etishi mumkin. Drechsler va boshqalar depozitlar barqarorligi bankning uzoq muddatli aktivlarini moliyalashtirish imkoniyatini oshirishini asoslagan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar depozitlar barqarorligi foiz muhitiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatdi [4]. Coulier, Pancaro, Pancotto va Reghezza tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda depozitlari o‘zgaruvchan, foiz stavkalariga yuqori ta’sirchan va raqamlashgan banklar muddatsiz depozitlarga qisqaroq iqtisodiy muddat belgilashi aniqlangan. Biroq foiz stavkalari tez oshgan davrda ayrim banklar depozitlar ta’sirchanligi kuchayganiga qaramay, xulq-atvor muddatlarini o‘z vaqtida yangilamagan. Bu holat foiz riskining kam baholanishiga olib kelishi mumkin [7].

Foiz riskini baholash usullarining qiyosiy xususiyatlari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda berilgan.

**1-jadval**

**Foiz riskini baholash usullarining qiyosiy xususiyatlari**

| Baholash usuli              | Asosiy ko‘rsatkich                                            | Afzalligi                                                    | Asosiy cheklovi                                                          |
|-----------------------------|---------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| Foizli tafovut              | RSA–RSL                                                       | Sodda va tez hisoblanadi                                     | Pul oqimlari vaqti va qayta narxlanish darajasini to‘liq hisobga olmaydi |
| Kumulyativ tafovut          | Muddatlar bo‘yicha yig‘ilgan GAP                              | Risk to‘planayotgan davrni ko‘rsatadi                        | Muddat oralig‘i ichidagi farqlarni yashiradi                             |
| Daromad tafovuti            | Qisqa davrda qayta narxlanadigan aktiv va majburiyatlar farqi | Sof foiz daromadiga ta’sirni ko‘rsatadi                      | Stavkalarining to‘liq va bir xil o‘zgarishini faraz qilishi mumkin       |
| O‘rtacha muddat davomiyligi | Pul oqimlarining o‘rtacha vaznli muddati                      | Instrument qiymati sezgirligini baholaydi                    | Ixtiyoriylik va noparallel shoklarni soddalashtiradi                     |
| Muddat davomiyligi tafovuti | $D_A - (L/A)D_L$                                              | Kapital iqtisodiy qiymati sezgirligini ko‘rsatadi            | Xulq-atvor pul oqimlariga bog‘liq                                        |
| Sof foiz daromadi           | $\Delta NII$                                                  | Qisqa muddatli daromad riskini baholaydi                     | Uzoq muddatli iqtisodiy yo‘qotishni to‘liq aks ettirmaydi                |
| Kapital iqtisodiy qiymati   | $\Delta EVE$                                                  | Butun bank portfelining uzoq muddatli ta’sirini qamrab oladi | Diskont stavkalari va pul oqimlari farazlariga yuqori darajada bog‘liq   |
| Stress-test                 | Ssenariylardagi $\Delta NII$ va $\Delta EVE$                  | Noqulay sharoitdagi yo‘qotishni baholaydi                    | Ssenariylar va farazlar noto‘g‘ri tanlansa, natija ishonchli bo‘lmaydi   |

Ushbu qiyosiy tahlildan ko‘rinadiki, foiz riskini baholashning har bir usuli muayyan afzallik va cheklovlarga ega. Shu sababli bitta usulga asoslangan xulosa bankning umumiy risk holatini to‘liq ifodalamaydi.

Bazel qo‘mitasining bank portfelidagi foiz riski bo‘yicha standarti banklardan foiz riskini aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilishning ichki tizimini shakllantirishni talab etadi. Mazkur tizim bankning barcha foizga sezgir aktivlari, majburiyatlari va balansdan tashqari pozitsiyalarini qamrab olishi lozim. Foiz riskini baholashda daromad va iqtisodiy qiymat yondashuvlaridan birgalikda foydalanish, asosiy farazlarni muntazam qayta ko‘rib chiqish hamda natijalarni bankning riskka moyilligi va kapitalni rejalashtirish jarayoniga kiritish nazarda tutilgan.

Bazel standarti kapital iqtisodiy qiymati uchun oltita asosiy foiz yoki ssenariysini belgilaydi: stavkalarining parallel oshishi, parallel pasayishi, foiz egri chizig‘ining tiklashishi, tekislanishi, qisqa muddatli stavkalarining oshishi va qisqa muddatli stavkalarining pasayishi. Sof foiz daromadi uchun

esa stavkalar oshishi va pasayishi bilan bog‘liq ikkita ssenariy qo‘llanadi. Ushbu ssenariylar bankda sezilarli pozitsiya mavjud bo‘lgan har bir valyuta bo‘yicha alohida tatbiq etiladi.

Nazorat organlari foiz shoklari natijasida kapital iqtisodiy qiymatining pasayishini birinchi darajali kapitalga nisbatan baholaydi. Bazel standartida kapital iqtisodiy qiymatidagi maksimal yo‘qotish birinchi darajali kapitalning 15 foizidan oshgan bank yuqori foiz riskiga ega bank sifatida qo‘shimcha nazorat bahosidan o‘tkazilishi belgilangan. Bu mezon avtomatik ravishda bank to‘lovga qobiliyatsizligini anglatmaydi, balki uning bank portfelida me‘yordan ortiq foiz riski to‘plangan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [8].

Bazel qo‘mitasi 2024 yilda standart foiz shoklarini qayta muvofiqlashtirdi. Yangilangan uslubiyotda tarixiy kuzatuvlar davri 2023 yil oxirigacha kengaytirildi, foiz o‘zgarishlarining 99,9 foizlik yuqori chegarasidan foydalanildi va foiz shoklarini yaxlitlash qadami 25 bazaviy bandgacha qisqartirildi. Bunda oltita ssenariyning umumiy tuzilishi saqlab qolindi, lekin valyuta kesimidagi shok miqdorlari yangi foiz muhitiga moslashtirildi. Yangilangan talablarni 2026 yil 1 yanvardan joriy etish belgilangan [8,9,10].

Yevropa bank boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar Bazel yondashuvini yanada batafsillashtiradi. Ularda banklarning ichki baholash tizimi, standartlashtirilgan yondashuv, nazorat chegaralaridan chetga chiquvchi banklarni aniqlash, muddatsiz depozitlarni modellashtirish, kreditlarni muddatidan oldin so‘ndirish, muddatli depozitlarni oldindan qaytarib olish va foizga bog‘liq boshqa ixtiyoriyliklarni hisobga olish talablari belgilangan. Yevropa yondashuvining muhim jihati shundaki, bankning ichki modeli faqat hisob-kitob vositasi bo‘lib qolmasdan, mahsulotlarni narxlash, xe-jirlash, kapitalni rejalashtirish va boshqaruv qarorlarida ham qo‘llanishi kerak [11].

O‘zbekistonda bank portfelida yuzaga keluvchi foiz riskini boshqarish bo‘yicha alohida talablar Markaziy bank boshqaruvining 2023 yil 7 martdagi 4/11-qarori bilan mustahkamlandi. Unda bank portfelidagi foiz riski bozor stavkalari o‘zgarishining aktivlar va majburiyatlarga ta’siri natijasida zarar ko‘rish yoki rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimoli sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv foiz riskining ham kapital, ham daromadga ta’sirini qamrab oladi [12].

Milliy talablarda bank portfelidagi foiz riski tarkibiga qayta narxlanish davrlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik, turli bozor stavkalari va indekslariga bog‘langan pozitsiyalardan kelib chiquvchi bazaviy risk hamda mijozlarning to‘lov miqdori yoki muddatini o‘zgartirish huquqidan kelib chiquvchi ixtiyoriylik riski kiritilgan. Shuningdek, bank foiz riski bo‘yicha riskka moyillik darajasi, chegaralar, ichki siyosat, baholash va monitoring vositalari, stress-test tartibi hamda hisobot tizimini shakllantirishi lozim.

Markaziy bank talablariga muvofiq, tijorat banklari kamida ikkita asosiy ko‘rsatkichni baholashi shart:

bozor foiz stavkalari o‘zgarishi natijasida aktivlar va majburiyatlar joriy sof qiymati o‘zgarishining bank kapitaliga ta’siri;

bozor foiz stavkalari o‘zgarishining bank portfeli bo‘yicha sof foiz daromadiga ta’siri.

Stress-testda barcha stavkalarining oshishi va pasayishi, shuningdek, qisqa va uzoq muddatli stavkalarining turli yo‘nalishda o‘zgarishi bilan bog‘liq ssenariylar qo‘llanishi belgilangan. Ushbu talablar mazmunan Bazel qo‘mitasining daromad va iqtisodiy qiymat yondashuvlariga muvofiq keladi [12].

Shu bilan birga, me‘yoriy talablarni amaliyotga joriy etish hisoblash modellari va asosiy farazlarni batafsil ishlab chiqishni talab qiladi. Jumladan, milliy valyuta uchun foiz shoklarini aniqlash, qayta narxlanish koeffitsiyentlarini hisoblash, muddatsiz depozitlarning barqaror qismini belgilash, kreditlarni muddatidan oldin so‘ndirish ehtimolini baholash, diskont egri chizig‘ini tanlash va bankning risk chegaralarini asoslash masalalari har bir bankning portfeli va biznes modeliga bog‘liq. Demak, milliy talablar foiz riskini baholashning asosiy yo‘nalishlarini belgilagan bo‘lsa-da, ularni bank darajasida amalga oshirish uchun mahalliy bozor ma’lumotlariga asoslangan hisoblash uslubiyoti zarur.

O‘rganilgan adabiyotlarni to‘rtta yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalishda foiz riski bankning sof foiz daromadi va kreditlash faoliyatiga ta’siri nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Gomez va boshqalar daromad tafovuti bank daromadlari hamda pul-kredit siyosati ta’sirchanligiga sezilarli

ta’sir qilishini asoslagan. Molyneux va hammualliflar esa foiz stavkalari me’yorlashuvining banklar foiz riskiga ta’siri banklarning balans tarkibi va biznes modeliga qarab farq qilishini ko’rsatgan [13].

Ikkinchi yo’nalishda aktivlar va majburiyatlar muddat davomiyligi hamda bank kapitali iqtisodiy qiymatining foiz stavkalariga sezgirligi tadqiq etilgan. English va boshqalar bank aksiyalari qiymati foiz stavkalaridagi kutilmagan o’zgarishlarga ta’sirchanligini ko’rsatgan bo’lsa, Coulier va hammualliflar muddat davomiyligi tafovuti yuqori bo’lgan banklar foiz stavkalari oshganda kreditlashni ko’proq qisqartirishini aniqlagan. Bu tadqiqotlar iqtisodiy qiymat yondashuvining bank faoliyati va real iqtisodiyot uchun ahamiyatini ochib beradi [3].

Uchinchi yo’nalishda muddatsiz depozitlarning iqtisodiy qiymati, barqarorligi va foiz stavkalariga ta’sirchanligi o’rganilgan. Drechsler va boshqalar depozitlar bazasini bankning uzoq muddatli aktivlarini tabiiy moliyalashtirish manbai sifatida talqin qilgan [4]. Keyingi tadqiqotlar esa depozitlar barqarorligi o’zgarish xususiyat emasligini ko’rsatdi. Foiz stavkalari oshishi, raqamli bank xizmatlari rivojlanishi, mijozlarning yuqori daromadli mahsulotlarga tez o’tishi va depozitlar konsentratsiyasi ularning iqtisodiy muddatini qisqartirishi mumkin. Rice va Guerrini foiz stavkalari oshgan sharoitda aktivlar bo’yicha amalga oshmagan qiymat yo’qotishlari depozitlar harakati bilan birgalikda bank zaifligini kuchaytirishi mumkinligini ko’rsatgan [14].

To’rtinchi yo’nalish tartibga soluvchi organlar tomonidan qo’llaniladigan sof foiz daromadi va kapital iqtisodiy qiymati ko’rsatkichlarining ishonchliligini o’rganadi. Claufen va Platte har ikki ko’rsatkich ham bankda to’plangan foiz riskini aniqlashda muhimligini ko’rsatgan [6]. Biroq ulardan biri qisqa muddatli daromad o’zgarishini, ikkinchisi uzoq muddatli iqtisodiy yo’qotishni ifodalaydi. Shuning uchun mazkur ko’rsatkichlarni alohida baholash bilan birga, ularning bank risk chegaralariga nisbatini yagona boshqaruv xulosasiga birlashtirish zarur.

Mavjud tadqiqotlarning aksariyati rivojlangan moliya bozorlari, xususan, AQSh va Yevropa banklari ma’lumotlariga asoslangan. Ularda bozor foiz egri chizig’i, banklararo stavkalar, foiz hosilaviy vositalari va banklarning batafsil pul oqimlari bo’yicha keng ma’lumotlardan foydalanilgan. O’zbekiston bank bozorida esa kreditlar va depozitlar stavkalari nisbatan yuqori, bank mahsulotlarining qayta narxlanish mexanizmi, moliyalashtirish manbalari, qat’iy va o’zgaruvchan stavkasi pozitsiyalar nisbati hamda foiz riskini xe-jirlash imkoniyatlari boshqa bozorlardan farq qiladi. Shu sababli xorijiy modellarning parametrlarini to’g’ridan-to’g’ri qo’llash foiz riskining haqiqiy darajasini noto’g’ri baholashga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot davomida o’rganilgan adabiyotlar tahlili natijasida ilmiy muammoning yetarlicha o’rganilmaganligi aniqlandi. Birinchidan, an’anaviy foizli tafovut usuli aktiv va majburiyatlar stavkalarining bozor stavkasiga turli darajada moslashishini yetarlicha hisobga olmaydi. Ikkinchidan, muddatsiz depozitlar va muddatidan oldin so’ndiriladigan kreditlarning xulq-atvor xususiyatlarini milliy bank amaliyoti ma’lumotlari asosida baholash zarur. Uchinchidan, sof foiz daromadi va kapital iqtisodiy qiymati ko’rsatkichlari o’zaro to’ldiruvchi xususiyatga ega bo’lsa-da, ularning natijalarini riskka moyillik chegaralari asosida yagona qaror qabul qilish mexanizmiga birlashtirish yetarlicha ishlab chiqilmagan. To’rtinchidan, O’zbekiston milliy valyutasidagi foiz stavkalari o’zgaruvchanligiga mos stress shoklarini shakllantirish talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Basel Committee on Banking Supervision. Interest Rate Risk in the Banking Book. – Basel: Bank for International Settlements, 2016.
2. Gomez M., Landier A., Sraer D., Thesmar D. Banks’ Exposure to Interest Rate Risk and the Transmission of Monetary Policy // Journal of Monetary Economics. – 2021. – Vol. 117. – P. 543–570. – DOI: 10.1016/j.jmoneco.2020.03.011.
3. English W. B., Van den Heuvel S. J., Zakrajšek E. Interest Rate Risk and Bank Equity Valuations // Journal of Monetary Economics. – 2018. – Vol. 98. – P. 80–97. – DOI: 10.1016/j.jmoneco.2018.04.010.
4. Drechsler I., Savov A., Schnabl P. Banking on Deposits: Maturity Transformation without Interest Rate Risk // The Journal of Finance. – 2021. – Vol. 76, No. 3. – P. 1091–1143. – DOI: 10.1111/jofi.13013.

5. Coulier L., Pancaro C., Reghezza A. Are Low Interest Rates Firing Back? Interest Rate Risk in the Banking Book and Bank Lending in a Rising Interest Rate Environment // BIS Working Papers. – 2024. – No. 1202. – Basel: Bank for International Settlements. – 82 p.
6. Claßen C., Platte D. Evaluating the Validity of Regulatory Interest Rate Risk Measures: A Simulation Approach // Journal of Banking & Finance. – 2023. – Vol. 154. – Article 106933. – DOI: 10.1016/j.jbankfin.2023.106933.
7. Coulier L., Pancaro C., Pancotto L., Reghezza A. Banking on Assumptions? How Banks Model Deposit Maturities // ECB Working Paper Series. – 2025. – No. 3140. – Frankfurt am Main: European Central Bank.
8. Basel Committee on Banking Supervision. Recalibration of Shocks for Interest Rate Risk in the Banking Book. – Basel: Bank for International Settlements, 2024.
9. Basel Committee on Banking Supervision. SRP31: Interest Rate Risk in the Banking Book. Basel Framework. – Basel: Bank for International Settlements, 2024.
10. Basel Committee on Banking Supervision. SRP98: Application Guidance on Interest Rate Risk in the Banking Book. Basel Framework. – Basel: Bank for International Settlements, 2024.
11. European Banking Authority. Guidelines on Interest Rate Risk Arising from Non-Trading Book Activities and Credit Spread Risk Arising from Non-Trading Book Activities. EBA/GL/2022/14. – Paris: European Banking Authority, 2022.
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023 yil 18 aprelda 3427-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. – Toshkent, 2023.
13. Molyneux P., Reghezza A., Xie R. Interest Rate Normalization and Banks’ Interest Rate Risk // Journal of Financial Stability. – 2022.
14. Rice J., Guerrini G. M. Riding the Rate Wave: Interest Rate and Run Risks in Euro Area Banks During the 2022–2023 Monetary Cycle // Journal of International Money and Finance. – 2026. – Vol. 160. – Article 103444. – DOI:10.1016/j.jimonfin.2025.103444.

**ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA MOLIVAVIY RISKLAR VA ULARNI  
BOSHQARISH STRATEGIYALARI**

**ФИНАНСОВЫЕ РИСКИ И СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ ИМИ В УСЛОВИЯХ  
СОВРЕМЕННОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

**FINANCIAL RISKS AND STRATEGIES FOR THEIR MANAGEMENT IN THE  
CONDITIONS OF MODERN GLOBALISATION**

**Allasheva Nargiza Aralbayevna**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy globallashuv va raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy tizimlarda yuzaga kelayotgan moliyaviy risklarning tabiati, ularning turlari va transformatsiyalashuv xususiyatlari tadqiq etilgan. Transmilliy korporatsiyalar, xalqaro moliya bozorlari va integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotlarga ta'siri sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada zamonaviy risk-menejment modellarini takomillashtirish va moliyaviy inqirozlarning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, moliyaviy risk, risk-menejment, likvidlik riski, valyuta riski, raqamli iqtisodiyot, diversifikatsiya, moliya bozori, tizimli risk.

В данной статье исследуется характер финансовых рисков, их виды и особенности трансформации, происходящих в экономических системах в условиях современной глобализации и цифровизации. Проанализированы вопросы обеспечения финансовой устойчивости в условиях влияния транснациональных корпораций, международных финансовых рынков и интеграционных процессов на национальные экономики. Также в статье разработаны практические рекомендации по совершенствованию современных моделей управления рисками и предупреждению финансовых кризисов.

**Ключевые слова:** глобализация, финансовый риск, управление рисками, риск ликвидности, валютный риск, цифровая экономика, диверсификация, финансовый рынок, системный риск.

This article explores the nature of financial risks, their types and transformational characteristics that arise in economic systems in the context of modern globalization and digitization. Issues of ensuring financial stability in the context of the impact of transnational corporations, international financial markets and integration processes on national economies have been analyzed. The article also developed practical recommendations for improving modern risk management models and preventing financial crises.

**Key words:** globalization, financial risk, risk management, liquidity risk, currency risk, digital economy, diversification, financial market, systemic risk

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2024-yil 30-oktyabrdagi "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-720-son qarori qabul qilingan[1]. Mazkur qarorda qurilish, ishga tushirish va moliyalashtirish bilan bog'liq moliyaviy xatarlarni aniq baholash va taqsimlash mexanizmlari ham da 2025-yil 27-noyabrdagi "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-359-son qarorida[2] to'lovlar xavfsizligi va barqarorligini oshirish, milliy valyutadagi to'lovlarning Markaziy bank orqali xavfsiz o'tishini ta'minlash hamda "Ochiq banking" (Open banking) tizimida xavfsiz ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi.

XXI asr iqtisodiyotining eng xarakterli xususiyati — bu globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi va milliy moliya tizimlarining xalqaro moliya bozori bilan uzviy bog‘liqligidir. Globallashuv bir tomondan investitsiya oqimlarining erkin harakatlanishi, xalqaro savdo hajmining oshishi va innovatsion moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotlarning tashqi shoklarga va moliyaviy inqirozlarga ta’sirchanligini keskin oshirdi.

Zamonaviy sharoitda moliya institutlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqatgina ichki bozor omillari bilan emas, balki xalqaro valyuta kurslarining tebranishi, geosiyosiy mojarolar, transmilliy zanjirlardagi uzilishlar va global foiz stavkalarining o‘zgarishi kabi ko‘plab tashqi risklar bilan to‘qnash kelmoqda. Shu sababli, zamonaviy globallashuv sharoitida moliyaviy risklarni klassifikatsiya qilish, ularni baholash va samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish iqtisodiyot fanining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv an‘anaviy moliyaviy risklarning tabiatini o‘zgartirib, ularni yanada murakkab va o‘zaro bog‘liq (tizimli) holatga keltirdi. Bugungi kunda moliya tizimida eng ko‘p kuzatiladigan va global xarakterga ega bo‘lgan risklarni quyidagicha guruhlash mumkin: Tizimli (Sistematik) risk- bitta moliya instituti yoki muayyan davlat bozoridagi inqirozning zanjir reaksiyasi (domino effekti) orqali butun jahon moliya tizimiga tarqalish xavfi. Bunga 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz yoki yaqin yillardagi yirik xalqaro banklarning likvidlik muammolarini misol keltirish mumkin. Valyuta va foiz stavkalari risklari-xalqaro valyuta fondlari va yetakchi markaziy banklar (masalan, AQSh Federal rezerv tizimi — FED, Yevropa markaziy banki) tomonidan foiz stavkalarining o‘zgartirilishi rivojlanayotgan davlatlardan kapitalning chiqib ketishiga va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga (devalvatsiya) olib keladi. Geopolitik va suveren risklar-xalqaro siyosiy ziddiyatlar, savdo urushlari, iqtisodiy sanksiyalar va xalqaro logistika yo‘laklarining bloklanishi korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir o‘tkazmoqda. Kiber-risklar va raqamli moliya risklari-moliya sohasining raqamlashishi (FinTech, kriptovalyutalar, blokcheyn) yangi turdagi risklarni yuzaga keltirdi. Kiberhujumlar, tizimli nosozliklar va raqamli aktivlarning yuqori darajadagi volatilligi (o‘zgaruvchanligi) zamonaviy risk-menejment oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy moliya ilm-fanida risklarni baholash uchun ham miqdoriy (quantitative), ham sifat (qualitative) usullaridan keng foydalaniladi. Globallashuv sharoitida oddiy statistik hisob-kitoblar har doim ham kutilgan natijani bermasligi mumkin, chunki iqtisodiy jarayonlar chiziqli bo‘lmagan (non-linear) xarakterga ega.

Bugungi kunda eng ommalashgan modellar quyidagilardir:

Birinchidan: value at Risk (VaR) modeli hisoblanib muayyan vaqt oralig‘ida va berilgan ishonch darajasida (masalan, 95% yoki 99%) portfelning ko‘rish mumkin bo‘lgan maksimal zararni hisoblaydi. Ikkinchidan: stress-test sinovlari (Stress Testing): Iqtisodiyotda gipotetik inqirozli vaziyatlar (masalan, yalpi ichki mahsulotning keskin pasayishi, milliy valyuta kursining 30% ga tushishi) sun‘iy ravishda modellashtirishadi va bank yoki korxonaning ushbu sharoitga chidamliligi tekshiriladi.

- Ssenariylar tahlili (Scenario Analysis): Kelajakdagi iqtisodiy tendensiyalarning optimistik, pessimistik va realistik ssenariylari tuzilib, har bir holat uchun moliyaviy natijalar prognoz qilinadi. Globallashuv sharoitida moliyaviy risklarni to‘liq yo‘qotishning imkoni yo‘q, biroq ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish mumkin. Buning uchun quyidagi strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish lozim:

-Aktivlarni xalqaro miqyosda diversifikatsiya qilish: Korxonalar va moliya institutlari o‘z mablag‘larini faqat bitta davlat yoki bitta valyutada emas, balki bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan turli xil aktivlar, sohalar va valyutalarda taqsimlashlari lozim.

- Xedjirlash (Hedging) mexanizmlaridan foydalanish: Valyuta va tovar bozorlaridagi tebranishlardan himoyalaniish uchun hosilaviy moliyaviy vositalar (fyuchers, opsiyon, svop kontraktlari) dan keng foydalanish zarur.

-Moslashuvchan makroprudensial siyosat: Davlat darajasida Markaziy banklar tomonidan tijorat banklariga qo‘yiladigan kapital monandligi va likvidlik talablarini global iqtisodiy konyunkturaga qarab moslashtirib borish (masalan, Bazel III va IV standartlari).

-Kiberxavfsizlik va FinTech ekotizimini tartibga solish: Raqamli tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash, sun'iy intellekt texnologiyalarini risklarni avtomatlashtirilgan tarzda aniqlashga yo'naltirish.

Xulosa qilib aytganimizda zamonaviy globallashtirish sharoitida moliyaviy risklar transferi tezlashgan va transchegaraviy xarakter kasb etgan. Milliy iqtisodiyotlarning va alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqarorligi ularning tashqi shoklarga qanchalik tayyor ekanligi va risk-menejment tizimining moslashuvchanligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda (JSTga a'zolik, xalqaro obligatsiyalar chiqarilishi va h.k.), milliy kompaniyalar va banklarimizda xalqaro standartlarga mos keluvchi, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan risklarni boshqarish tizimini joriy etish strategik ahamiyatga egadir. Faqatgina proaktiv (oldindan ko'ra biluvchi) risk-menejment orqali global iqtisodiy beqarorliklar sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2024-yil 30-oktyabrdagi "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-720-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-noyabrdagi "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-359-son qarori
3. Hull, John C. (2018). *Risk Management and Financial Institutions*. Wiley Finance Series, 5th Edition.
4. Crouhy, M., Galai, D., & Mark, R. (2014). *The Essentials of Risk Management*. McGraw-Hill Education, 2nd Edition.
5. Vaxabov A.V., Jumanov J.A. (2025). *Xalqaro moliya munosabatlari*. Darslik. Toshkent: "Iqtisod-Moliya".
6. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.U. (2023). *Iqtisodiyot nazariyasi*. Darslik. Toshkent: "Barkamol fayz media".
7. International Monetary Fund (IMF). (2025). *Global Financial Stability Report: Navigating the High-Inflation and Geopolitical Risk Environment*. Washington DC.
8. Basel Committee on Banking Supervision. (2020). *Basel III: International regulatory framework for banks*. Bank for International Settlements (BIS).

**YANGI INDUSTRIAL MAMALAKATLAR: CHILI VA SINGAPUR MODELI TAHLILI  
VA ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI**

**НОВЫЕ ИНДУСТРИАЛЬНЫЕ СТРАНЫ: АНАЛИЗ ЧИЛИ-СИНГАПУРСКОЙ  
МОДЕЛИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕЕ ВНЕДРЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**NEWLY INDUSTRIAL COUNTRIES: ANALYSIS OF THE CHILE AND SINGAPORE  
MODELS AND POSSIBILITIES OF IMPLEMENTING THEM IN UZBEKISTAN**

**Atoyev Navro‘zbek Rinatovich**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti  
Makroiqtisodiyot kafedrası JI va XIM yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya**

Yangi industriallashtirilgan mamlakatlar (YIM) o‘rnatish modellarini o‘rganish tadqiqotchilar va siyosat ishlab chiquvchilarga tezkor industrializatsiya, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish hamda jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvning samarali strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. YIMlar tajribasini tahlil qilish rivojlanayotgan mamlakatlarga, jumladan O‘zbekistonga, ta’lim, infratuzilma va texnologik innovatsiyalarga investitsiya kiritish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha muhim saboqlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Mazkur maqolada Chili va Singapurning iqtisodiy rivojlanish modellari tahlil qilinadi hamda Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industriallashtirilgan mamlakatlarning asosiy farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Xalqaro tajribaga tayangan holda, ishda ilmiy va amaliy xulosalar ishlab chiqilgan hamda O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modelini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi Industrial mamlakatlar, iqtisodiy rivojlanish, diversifikatsiya, globallashuv, industrializatsiya, barqaror rivojlanish, texnologik innovatsiya, infratuzilma, urbanizatsiya, daromadlar tengsizligi.

Изучение моделей экономического роста новых индустриализирующихся стран (НИС) позволяет исследователям и разработчикам государственной политики определить эффективные стратегии ускоренной индустриализации, диверсификации экономики и интеграции в мировую экономику. Анализ опыта НИС предоставляет развивающимся странам, в том числе Узбекистану, возможность извлечь важные уроки по обеспечению устойчивого экономического развития посредством инвестиций в образование, инфраструктуру и технологические инновации. В данной статье анализируются модели экономического развития Чили и Сингапура, а также проводится сравнительный анализ основных особенностей новых индустриализирующихся стран Азии и Латинской Америки. На основе международного опыта сформулированы научные и практические выводы, а также разработаны рекомендации по совершенствованию модели экономического развития Узбекистана.

**Ключевые слова:** Новые индустриальные страны, экономическое развитие, диверсификация, глобализация, индустриализация, устойчивое развитие, технологические инновации, инфраструктура, урбанизация, неравенство доходов.

The study of the growth models of Newly Industrialized Countries (NICs) enables researchers and policymakers to identify effective strategies for rapid industrialization, economic diversification, and integration into the global economy. An analysis of the experience of NICs provides developing countries, including Uzbekistan, with valuable insights into achieving sustainable economic development through investments in education, infrastructure, and technological innovation. This article examines the economic development models of Chile and Singapore and presents a

comparative analysis of the key characteristics of newly industrialized countries in Asia and Latin America. Drawing upon international experience, the study formulates scientific and practical conclusions and offers recommendations for improving Uzbekistan’s economic development model.

**Keywords:** Newly Industrialized Countries (NICs), economic development, diversification, globalization, industrialization, sustainable development, technological innovation, infrastructure, urbanization, income inequality.

Yangi industriallashtirilgan mamlakatlar o‘z mintaqalarida muhim iqtisodiy kuch sifatida namoyon bo‘lib, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda qo‘shni davlatlar uchun muvaffaqiyatli rivojlanish modeli vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ularning global iqtisodiy inqirozlar davridagi barqarorligi va moslashuvchanligini o‘rganish noaniqlik sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash bo‘yicha qimmatli tajriba beradi.

Investorlar va biznes subyektlari nuqtai nazaridan, yangi industriallashtirilgan mamlakatlar yuqori o‘sish salohiyatiga ega istiqbolli bozorlar hisoblanadi. Shu sababli ularning iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish kelajakdagi investitsiya imkoniyatlari va iqtisodiy xatarlarni to‘g‘ri baholashda muhim ahamiyatga ega.

Sanoatni jadal rivojlantirish, sanoat korxonalari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish O‘zbekistonning bugungi rivojlanish modelida asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarilishini kengaytirish, sanoat tarmoqlari va aholi iste‘moli uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni o‘zlashtirish hamda ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirishda bozor mexanizmlarini keng joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini tizimli kengaytirish, davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar xaridini rag‘batlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish bo‘yicha bir qator chora tadbirlar belgilab qo‘yildi [1]. Mamlakatda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo‘nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilindi [2]. Shuningdek, Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining eksport salohiyatini yanada oshirish, shuningdek, mahalliy korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori kuchga kirdi [3].

Tadqiqot jarayonida Yangi industrial mamlakatlarning umumiy xususiyatlari, Chili va Singapur mamlakatlarining rivojlanish modellari va bundan tashqari Osiyo va Lotin Amerikasidagi YIM larning asosiy farqli jihatlari tahlil qilindi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi.

Yangi industriallashtirilgan mamlakatlar (YIM) va ularning iqtisodiyotini o‘rganish masalalari yillar davomida ko‘plab iqtisodchilar, tadqiqotchilar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu yo‘nalishda quyidagi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega.

Alice Amsden Janubiy Koreya va boshqa Sharqiy Osiyo mamlakatlarining industrializatsiya jarayonini *"Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization"* asarida chuqur tahlil qilgan. U yangi industriallashtirilgan mamlakatlar rivojlanishida davlatning faol aralashuvi, sanoat siyosati va texnologik taraqqiyotning hal qiluvchi o‘rnini ta’kidlagan. [4].

Shuningdek, Robert Wade *"Governing the Market"* ilmiy ishida Tayvan va Janubiy Koreya kabi Sharqiy Osiyo yangi industriallashtirilgan mamlakatlarining iqtisodiy muvaffaqiyatini tahlil qilgan. U davlat tomonidan boshqariladigan rivojlanish siyosati va samarali sanoat strategiyalari tezkor industrializatsiyaning asosiy omillari bo‘lganini asoslab bergan [5].

Ha-Joon Chang Yangi industriallashtirilgan mamlakatlarning industrializatsiyasida proteksionistik siyosat va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlashning o‘rnini keng yoritgan. U, xususan, *"Kicking Away the Ladder"* asarida rivojlangan mamlakatlarning tarixiy rivojlanish tajribasi hamda rivojlanayotgan davlatlar uchun samarali iqtisodiy strategiyalarni batafsil tahlil qilgan [6].

Mahalliy olimlardan, A. V. Vaxabovning "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" darsligida yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy modernizatsiyasi alohida bob sifatida yoritilgan. Muallif Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Malayziya va Chili misolida industrializatsiya jarayonlari, mehnat unumdorligi, aholi jon boshiga YaIMning o‘shishi, eksportni rag‘batlantirish va davlatning iqtisodiy siyosati natijalarini tahlil qiladi. Darslikda ushbu mamlakatlarning tajribasi rivojlanayotgan davlatlar uchun samarali rivojlanish modeli sifatida baholangan [7].

Umarov T. o‘zining "Jahon iqtisodiyotida yangi industrial davlatlarning tutgan o‘rni" nomli maqolasida yangi industrial mamlakatlarning jahon xo‘jaligidagi o‘rni va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilgan. Muallif Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan va Gonkong ("Osiyo yo‘lbarslari"), shuningdek Braziliya, Meksika va Chili kabi Lotin Amerikasi mamlakatlarining eksportga yo‘naltirilgan sanoat siyosati, transmilliy korporatsiyalarni jalb etish, xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy modernizatsiya orqali yuqori iqtisodiy o‘shishga erishganligini ko‘rsatadi. Maqolada ushbu tajribadan O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari ham yoritilgan [8].

Yangi industriallashtirilgan mamlakatlar (YIM) yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlar va barqaror iqtisodiy o‘shishga muvaffaqiyatli iqtisodiy strategiyalar hamda rivojlanish modellari orqali erishgan. Chili va Singapur kabi yangi industriallashtirilgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish modellari iqtisodiy transformatsiya va taraqqiyotning yorqin namunalaridan hisoblanadi.

Chilining iqtisodiy muvaffaqiyatlari ko‘p jihatdan Augusto Pinochet nomi bilan bog‘liq bo‘lib, aynan uning boshqaruvi davrida mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish va keng ko‘lamli neokonservativ islohotlar amalga oshirildi. Chili islohotlari mamlakatning qisqa muddat ichida og‘ir iqtisodiy inqirozdan chiqishiga imkon yaratdi hamda XX asrda amalga oshirilgan eng samarali va oqilona iqtisodiy siyosat namunalari qatoriga kiritiladi. Mamlakatda erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich va tizimli ravishda amalga oshirildi. Ularning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiyotni liberallashtirish. Islohotlarning dastlabki bosqichida davlatning ichki bozorga aralashuvi keskin qisqartirildi hamda tashqi savdo erkinlashtirildi. Natijada iqtisodiyot bozor tamoyillariga asoslangan tizimga o‘tdi, xalqaro savdo va investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi.

- Inflyatsiyaga qarshi siyosat. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) hamda "Chikago maktabi" tavsiyalariga muvofiq pul emissiyasi qat’iy nazorat ostiga olindi, davlat xarajatlari xususiylashtirish va soliq tushumlari orqali tartibga solindi hamda byudjet taqchilligi daromadlarni oshirish hisobiga bartaraf etildi. "Chicago Boys" guruhi rahbarligida Chili qat’iy monetar siyosatni amalga oshirib, pul massasini sezilarli darajada qisqartirdi. Hukumat giperinflyatsiya va iqtisodiy beqarorlikning asosiy omillaridan biri bo‘lgan ortiqcha pul emissiyasini to‘xtatdi.

- Tashqi savdodagi nomutanosiblikni proteksionistik siyosat orqali bartaraf etish. Hukumat, avvalo, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish siyosatini amalga oshirdi. Mahalliy ishlab chiqarish samaradorligi oshirilgach, noan’anaviy eksport tarmoqlarini rag‘batlantirish va eksport hajmini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

- Tashqi savdoni erkinlashtirish. Pinochet islohotlarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri tashqi savdoni liberallashtirish bo‘ldi. Hukumat bojxona tariflarini pasaytirdi, ko‘plab savdo cheklovlarini bekor qildi va mamlakat iqtisodiyotini jahon bozoriga ochdi. Ushbu siyosat raqobatni kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda Chilining global iqtisodiyotga chuqur integratsiyalashuvini ta’minlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, milliy valyuta — pesoning almashuv kursi haddan tashqari oshib ketishining hamda keskin qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan valyuta siyosati yuritildi.

- Soliq islohotlari. Soliq bazasi kengaytirildi, soliq qonunchiligi soddalashtirildi, soliq stavkalari bixillashtirildi, turli soliq imtiyozlari bekor qilindi hamda soliqlardan bo‘yin tovlashga qarshi samarali choralar ko‘rildi.

- Pul-kredit va moliyaviy islohotlar. Inflyatsiyani nazorat qilish, milliy valyuta barqarorligini ta‘minlash hamda moliyaviy tizimni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu islohotlar davlat byudjeti va milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qildi. Foiz stavkalari ustidan davlat nazorati bekor qilindi, kapitalning mamlakatga kirishi va chiqishi uchun erkin huquqiy rejim yaratildi.

- Xususiylashtirish. Davlat korxonalari bosqichma-bosqich xususiy sektorga sotildi va xususiy tadbirkorlik faol rivojlantirildi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshdi, davlat korxonalarining aksariyati xususiy boshqaruvga o‘tdi hamda ishlab chiqarish va xizmatlar sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

- Pensiya tizimi islohotlari. 1981-yilda Chili pensiya tizimi tubdan isloh qilindi va ushbu model bugungi kunda ham ko‘plab davlatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususiy pensiya jamg‘armalari tashkil etildi, ular o‘rtasida fuqarolarning mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha raqobat muhiti yaratildi. Har bir Chili fuqarosiga yiliga ikki marta pensiya jamg‘armasini almashtirish huquqi berildi.

- Mehnat bozori islohotlari. Ushbu islohotlar mehnat unumdorligini oshirish, ishchi kuchining malakasini rivojlantirish hamda ish haqi darajasini bosqichma-bosqich oshirishga qaratildi. Natijada mehnat bozorining samaradorligi ortib, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi yanada mustahkamlandi [7].

Singapur rivojlanish yo‘li jihatidan yangi industriallashtirilgan mamlakatlar (YIM) deb ataluvchi davlatlarning kichik guruhiga xos bo‘lgan o‘ziga xos iqtisodiy modelni shakllantirgan. Osiyo yo‘lbarzlari tarkibiga kiruvchi Singapur kuchli markaziy hukumat rahbarligida qisqa muddat ichida jadal iqtisodiy taraqqiyotga erishdi. 1965-yilda to‘liq mustaqillikka erishgan ushbu davlat tabiiy resurslarga deyarli ega bo‘lmagan va iqtisodiy jihatdan nisbatan kambag‘al mamlakatdan dunyoning eng samarali hamda eng boy iqtisodiyotlaridan biriga aylandi. Sanoat, moliya va ta‘lim markazi sifatida Singapur bugungi kunda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muvaffaqiyatli taraqqiyot modeli hisoblanadi.

Malay yarimorolining janubiy qismida joylashgan kichik shahar-davlat bo‘lgan Singapur o‘zining iqtisodiy qudrati tufayli mustaqil davlat sifatida xalqaro maydonda mustahkam o‘rin egalladi. Garchi mamlakat 1965-yilda to‘liq mustaqillikka erishgan bo‘lsa-da, atigi uch o‘n yillik ichida oddiy eksport faoliyatiga tayangan iqtisodiyotdan sanoat va moliyaviy xizmatlar rivojlangan qudratli iqtisodiyotga aylandi.

Singapur tabiiy resurslarga nihoyatda kambag‘al mamlakat hisoblanadi. Hukumat ushbu asosiy cheklovni o‘z vaqtida anglab, iqtisodiy rivojlanishni sanoatlashtirish va mamlakatning eng muhim boyligi bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish orqali ta‘minlash strategiyasini tanladi. Bilim, malaka va innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylandi.

Singapurning iqtisodiy muvaffaqiyati haqida umumiy xulosa chiqarishda shuni ta‘kidlash joizki, ushbu model Singapur sharoitida yuqori samara bergan bo‘lsa-da, uni boshqa mamlakatlarda aynan shu ko‘rinishda qo‘llash bir xil natija bermasligi mumkin. Har bir davlatning tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va institutsional sharoitlari turlicha bo‘lgani sababli, Singapur tajribasi moslashtirilgan holda qo‘llanilishi lozim.

Bugungi kunda Singapur Osiyodagi eng diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotlardan biri hisoblanadi. Bunda mamlakat muvaffaqiyatining eng muhim omillaridan biri ta‘lim tizimidir. Singapur inson kapitalini rivojlantirish, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish hamda ta‘lim sifatini doimiy ravishda oshirishga alohida e‘tibor qaratdi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq inson resurslari mamlakatning eng qimmatli boyligi sifatida e‘tirof etildi va aynan ular iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

XX asr oxirlariga qadar Singapurda ikkita davlat universiteti faoliyat yuritgan. Biroq 1980-yillardan boshlab iqtisodiyot qatori ta‘lim tizimi ham keng ko‘lamli islohotlarni boshdan kechirdi. Mamlakatdagi ilk xususiy oliy ta‘lim muassasasi — Singapore Management University (SMU)

tashkil etildi, mavjud davlat universitetlari - National University of Singapore (NUS) hamda Nanyang Technological University (NTU) ga esa akademik va moliyaviy mustaqillik darajasi sezilarli ravishda kengaytirildi. Ushbu islohotlar oliy ta’lim sifati, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatning rivojlanishiga katta hissa qo’shdi [9].

Singapur modeli mamlakatning o’zi uchun nihoyatda samarali bo’lsa-da, uni boshqa davlatlar to’liq ko’chirib qo’llashi qiyin. Bunday modelni joriy etish har bir mamlakatning iqtisodiy salohiyati, siyosiy tizimi, demografik xususiyatlari va rivojlanish bosqichiga mos ravishda sezilarli darajada moslashtirilishi zarur.

Singapurning iqtisodiy siyosatida davlatning faol ishtiroki muhim o’rin egallaydi. Davlat tomonidan yo’naltiriladigan va boshqariladigan iqtisodiy rivojlanish modeli iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashning sinovdan o’tgan samarali usullaridan biri hisoblanadi. Kuchli hukumat boshqaruvi, uzoq muddatli strategik rejalashtirish va rivojlanishga yo’naltirilgan siyosat ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda muhim omil bo’ldi.

Shuningdek, Singapur demokratiya tamoyillarini kuchli davlat boshqaruvi va etnik hamda diniy ozchiliklar manfaatlarini himoya qilish bilan uyg’unlashtirishga muvaffaq bo’ldi. Ushbu tajriba demokratik islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlar uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan Singapur tajribasi shuni ko’rsatadiki, iqtisodiyotni faqat erkin bozor tamoyillari asosida rivojlantirish emas, balki davlatning faol ishtiroki va strategik boshqaruvi orqali ham yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Bu esa davlat tomonidan boshqariladigan iqtisodiy rivojlanish modelining samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Biroq Singapur modelining boshqa mamlakatlarda aynan takrorlanishi ehtimoli juda past. Buning asosiy sabablari shundaki, Singapur shahar-davlat hisoblanadi, uning geografik joylashuvi xizmatlar eksportini rivojlantirish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ko’plab mamlakatlarda xorijiy kapitalning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi siyosiy va ijtimoiy jihatdan maqbul deb hisoblanmaydi hamda davlatning iqtisodiyot ustidan Singapur darajasidagi nazoratini ta’minlash amalda murakkab vazifa hisoblanadi. Shu sababli Singapur tajribasi boshqa mamlakatlar uchun tayyor model emas, balki milliy sharoitlarni hisobga olgan holda moslashtirilishi lozim bo’lgan muvaffaqiyatli rivojlanish namunasi sifatida qaraladi [10].

**1-jadval**

**Osiyo va Lotin Amerikasi Yangi Industrial mamlakatlarning (YIM) asosiy farqli jihatlar [7]**

| <b>Osiyo YIM lari</b>                                                                                                                                                | <b>Lotin Amerikasi YIM lari</b>                                                         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|
| Import o’rnini bosish va eksportga yo’naltirilgan siyosatlarni uyg’unlashtirish.                                                                                     | Proteksionistik siyosatga ustuvor ahamiyat berish.                                      |
| Ayrim YIMda tashqi bozorga yo’naltirilgan rivojlanishning ustuvorligi hamda to’liq eksportga yo’naltirilgan siyosatning qo’llanilishi (Gonkong va Singapur misolida) | Xorijiy mamlakatlardan hech qanday raqobatning mavjud emasligi                          |
| Kapitalni xomashyo va qayta ishlash sanoatiga yo’naltirish.                                                                                                          | Imtiyozli foiz stavkalariga ega kreditlarning mavjudligi.                               |
| Iqtisodiy rivojlanishning keng qamrovli manbalarini shakllantirish.                                                                                                  | Kapitalni savdo, xizmat ko’rsatish va qayta ishlash sanoatiga yo’naltirish.             |
| Ommaviy iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mehnat sig’imi yuqori korxonalarining mavjudligi.                                                     | Osiyodagi yangi industriallashgan mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq iqtisodiy salohiyat. |

Singapur va Chili tajribasini tahlil qilish orqali O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modelida yangi industriallashgan mamlakatlar (YIM) tajribasi bilan o’xshash jihatlar mavjudligini ko’rish mumkin. Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston o’ziga xos taraqqiyot yo’lini tanladi va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni boshladi. 1990-yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy o’sish modeli kuchli davlat ishtiroki va bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlarga asoslangan bo’lib, bu Singapur va Chilining bozor tamoyillariga asoslangan hamda eksportga yo’naltirilgan rivojlanish

strategiyalaridan farq qilar edi. Singapur va Chili iqtisodiyotni liberallashtirish hamda jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni tezroq amalga oshirgan bo‘lsa, O‘zbekiston ehtiyotkorlik bilan olib borilgan, davlat tomonidan boshqariladigan siyosat orqali makroiqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoyani ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Ushbu farqlar mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga qarab turlicha rivojlanish strategiyalarini tanlashini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, har uchala mamlakatda ham davlat iqtisodiy rivojlanish modelining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbekistonda davlat strategik tarmoqlarni bevosita boshqargan bo‘lsa, Chilida bozor islohotlarini yo‘naltirgan, Singapurda esa industrializatsiya va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga faol ko‘maklashgan. Bozor mexanizmlarining iqtisodiyotdagi o‘rni turlicha bo‘lishiga qaramay, davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki ushbu mamlakatlar rivojlanish modellarining umumiy jihati hisoblanadi.

Bundan tashqari, barcha mamlakatlar eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy o‘sishning muhimligini e‘tirof etgan va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo‘yicha izchil choralar ko‘rgan. Amalga oshirilgan strategiyalar turlicha bo‘lsa-da, asosiy maqsad iqtisodiyotni bitta tarmoqqa qaramlikdan chiqarish (masalan, O‘zbekistonda paxta, Chilida mis sanoati) hamda yanada barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy tuzilmani shakllantirishdan iborat bo‘lgan.

Mazkur rivojlanish modellarining yana bir umumiy jihati uzoq muddatli iqtisodiy rejalashtirish va barqarorlikka qaratilgan yondashuvdir. O‘zbekistonda bosqichma-bosqich islohotlar, Chilida tezkor xususiyashtirish, Singapurda esa rejalashtirilgan industrializatsiya amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning barchasi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashni asosiy maqsad sifatida belgilagan.

O‘zbekiston, Singapur va Chili iqtisodiy rivojlanishda turli yondashuvlarni qo‘llagan bo‘lsa-da, ularning modellarida quyidagi asosiy o‘xshashliklar mavjud:

1. Iqtisodiyotni boshqarishda davlatning kuchli va faol roli.
2. Uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va barqaror o‘sishga e‘tibor qaratilishi.
3. Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy o‘sish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga intilish.
4. Inson kapitaliga kelajakdagi taraqqiyotning asosiy omili sifatida investitsiya kiritish.
5. Yangi iqtisodiy tuzilmani qo‘llab-quvvatlash maqsadida institutsional islohotlarni amalga oshirish.

Islohotlarning sur‘ati va bozor iqtisodiyotiga ochiqlik darajasi turlicha bo‘lishiga qaramay, davlat boshqaruvi samaradorligini ta‘minlash, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga qaratilgan yondashuv ushbu mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam asos yaratish zarurligi haqidagi umumiy qarashlarini namoyon etadi.

O‘zbekistonning eng so‘nggi rivojlanish modeli - "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–+2026" doirasida mamlakat iqtisodiy farovonlik va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilgan 100 ta strategik maqsad belgilangan. Ushbu strategiyani Singapur va Chili rivojlanish modellari bilan qiyoslash mumkin. Masalan, tabiiy resurslarga boy bo‘lmagan Singapur inson kapitalini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab, ta‘lim tizimini takomillashtirish va aholi turmush darajasini oshirishga alohida e‘tibor qaratgan. Xuddi shuningdek, "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022-2026" ham inson kapitalini rivojlantirishni asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi.

Jumladan:

- 37-maqsad: 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarga o‘qitish.
- 41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturi orqali umumiy o‘rta ta‘lim tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quv o‘rni yaratish.
- 46-maqsad: Oliy ta‘lim qamrovini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini oshirish.
- 47-maqsad: 2026-yilgacha kamida 10 ta oliy ta‘lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kiritish.
- 52-maqsad: O‘zbekistonning Global innovatsiyalar indeksidagi o‘rnini yaxshilash va 2030-yilgacha dunyoning eng yaxshi 50 ta davlati qatoriga kirish [11].

Bundan tashqari, boshqa yangi industriallashtirilgan mamlakatlar singari O‘zbekiston ham sanoatni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. "Yangi

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022-2026"da iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi quyidagi muhim maqsadlar belgilangan:

- 21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori va barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash, kelgusi besh yil ichida aholi jon boshiga YaIMni 1,6 barobarga oshirish hamda 2030-yilgacha aholi jon boshiga daromadni 4 000 AQSh dollaridan yuqori darajaga yetkazib, yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga kirish uchun zamin yaratish. Shu bilan birga, har yili jalb qilinadigan tashqi davlat qarzi hajmini 4,5 milliard AQSh dollaridan oshirmaslik.

- 22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va sanoatning YaIMdagi ulushini oshirish maqsadida sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga ko‘paytirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish.

- 26-maqsad: Investitsiya muhitini yanada yaxshilash va mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish orqali besh yil davomida 120 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni, shu jumladan 70 milliard AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

- 28-maqsad: Respublikaning eksport salohiyatini oshirib, 2026-yilgacha eksport hajmini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish [11].

Yangi industrialashgan mamlakatlar rivojlanish modellari bilan O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modelini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston o‘z taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda muvaffaqiyatli yangi industrialashgan mamlakatlar tajribasidan samarali foydalangan. Mazkur tajriba inson kapitalini rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish yo‘nalishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari Singapur va Chilining iqtisodiy rivojlanish modellari asosiy xususiyatlarini yoritib berdi. Singapurning iqtisodiy o‘shishi, avvalo, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgani, strategik xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda davlat boshchiligidagi industrializatsiya modelini muvaffaqiyatli amalga oshirgani bilan izohlanadi. Tabiiy resurslarning cheklanganligiga qaramay, Singapur ta‘lim tizimiga katta miqdorda investitsiya kiritdi va yuqori malakali, intizomli hamda innovatsion salohiyatga ega ishchi kuchini shakllantirdi. Natijada mamlakat dunyoning yetakchi moliyaviy markazlaridan biri va texnologik innovatsiyalar sohasidagi ilg‘or davlatlardan biriga aylandi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Chili iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda o‘zining boy tabiiy resurslariga, ayniqsa mis (mis rudasi) zaxiralariga tayanib rivojlandi. Shu bilan birga, mamlakat tashqi savdoni liberallashtirish va eksportni diversifikatsiya qilish siyosatini izchil amalga oshirdi. Rivojlanishning boshlang‘ich sharoitlari va iqtisodiy resurslari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, har ikkala mamlakat tajribasi barqaror davlat boshqaruvi, uzoq muddatli va istiqbolga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat hamda jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashuv barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari ekanligini yaqqol namoyon etdi. Tadqiqot ishi davomida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, turizm sohasini rivojlantirish. Singapur tajribasida ko‘rish mumkinki, mamlakat tabiiy resurslarga deyarli ega bo‘lmaganligi sababli mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalangan holda rivojlanishga erishdi. Xuddi shunday, O‘zbekiston ham o‘zining boy tarixiy, madaniy va turistik salohiyatidan yanada samarali foydalanishi lozim. Turizm sohasini rivojlantirish xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirish bilan birga, mamlakatga investitsiyalar kirib kelishini rag‘batlantiradi. Natijada iqtisodiy faollik ortadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, innovatsiyalar va infratuzilmaga investitsiyalarni ko‘paytirish. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Shu sababli, mamlakatning barcha hududlarida, jumladan qishloq joylarda ham internet infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Texnologiyalar parklari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlovchi inkubatsiya markazlarini tashkil etish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, innovatsiyalarni rag‘batlantirishga va inson kapitali sifatini oshirishga

xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, global ta'minot zanjirlarida faol ishtirok etish. O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, mintaqaning muhim geostrategik va transport-logistika salohiyatiga ega davlatlaridan biridir. Ushbu geografik ustunlikdan samarali foydalanish orqali mamlakat Sharq va G'arbni bog'lovchi yirik logistika markaziga aylanish imkoniyatiga ega. Transport va logistika infratuzilmasini yanada takomillashtirish, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash hamda xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish O'zbekistonning eksport va import salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, mamlakatning global ta'minot zanjirlaridagi o'rni mustahkamlanib, xalqaro savdo va investitsiya oqimlaridagi ishtiroki yanada kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.02.2026 yildagi "Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-17-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-8037362>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.10.2023-yildagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2025 yildagi "Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-295-sonli qarori
4. Amsden, A. H. (1989). *Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization*. New York: Oxford University Press. DOI: 10.1093/0195076036.001.0001. <https://academic.oup.com/book/10201>.
5. Wade R. *Governing the Market: Economic Theory and the Role of Government in East Asian Industrialization*. Princeton, NJ: Princeton University Press, 1990. 438 p. <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/9780691187181-fm/pdf>
6. Chang H.-J. *Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective*. London: Anthem Press, 2002. 196 p. ISBN: 9781843310273. [https://www.researchgate.net/publication/24085682\\_Kicking\\_Away\\_the\\_Ladder\\_Infant\\_Industry\\_Promotion\\_in\\_Historical\\_Perspective](https://www.researchgate.net/publication/24085682_Kicking_Away_the_Ladder_Infant_Industry_Promotion_in_Historical_Perspective)
7. A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev, "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik" / — Toshkent: Baktria press, 2015. — 584 b.
8. Umarov T.M. *Jahon iqtisodiyotida yangi industrial davlatlarning tutgan o'rni // Qo'qon universiteti xabarnomasi*. 2023. DOI: 10.54613/ku.v1i1.443. [https://herald.kokanduni.uz/index.php/public\\_html/article/view/443](https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/443)
9. Maertens V. *The Singaporean Development Model*. Brussels: The Sen Foundation, 2014. 35 p. <https://www.sen-foundation.org/wp-content/uploads/Publications/Other/Maertens-Victor-The-Singaporean-Development-Model-2014.08.26.pdf>
10. Huff W. G. What Is the Singapore Model of Economic Development? // *Cambridge Journal of Economics*. 1995. Vol. 19. No. 6. P. 735–759. DOI: 10.1093/oxfordjournals.cje.a035339. <https://academic.oup.com/cje/article-abstract/19/6/735/1688941>
11. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi* [Matn]. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. — 464 b. — ISBN 978-9943-6992-3-6. <https://fban.uz/2022/02/01/mirziyoev-sh-m-yangi-ozbekiston-strategiyasi/>

**O‘ZBEKISTON BANK TIZIMI LIKVIDLILIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARINING  
EMPIRIK TAHLILI**

**ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЛИКВИДНОСТЬ  
БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА**

**EMPIRICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING BANKING SYSTEM LIQUIDITY  
IN UZBEKISTAN**

**Yangiboev Rustam Berdiyarovich**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston bank tizimi likvidliligiga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy va bank tizimiga xos ichki omillar nazariy hamda empirik jihatdan tadqiq etilgan. Bank tizimi likvidliligining to‘lovlar uzluksizligi, depozit majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish, kreditlash jarayoni barqarorligi va moliyaviy tizim mustahkamligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslangan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-2025 yillarga oid rasmiy statistik ma’lumotlari asosida likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsiyenti, sof barqaror moliyalashtirish me’yori, yuqori likvidli aktivlar ulushi, kredit-depozit nisbati, depozitlar tarkibi, muammoli kreditlar va kapital yetarliligi ko‘rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilingan. Kreditlar va depozitlar o‘rtasidagi mutanosiblik bank tizimi likvidliligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekani aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** bank tizimi, bank likvidliligi, likvidlilik riski, likvidlilikni qoplash me’yori, sof barqaror moliyalashtirish me’yori, yuqori likvidli aktivlar, kredit-depozit nisbati, makroiqtisodiy omillar, stress-test, likvidlilikka bosim indeksi.

В статье с теоретической и эмпирической точек зрения исследованы макроэкономические и внутренние факторы банковской системы, влияющие на ликвидность банковской системы Узбекистана. Обоснована значимость ликвидности банковской системы в обеспечении непрерывности платежей, своевременного исполнения обязательств по депозитам, устойчивости процесса кредитования и стабильности финансовой системы. На основе официальных статистических данных Центрального банка Республики Узбекистан за 2020–2025 годы проанализирована динамика коэффициента покрытия ликвидности, коэффициента чистого стабильного фондирования, доли высококачественных ликвидных активов, соотношения кредитов и депозитов, структуры депозитов, проблемных кредитов и показателей достаточности капитала. Установлено, что сбалансированность объемов кредитов и депозитов является одним из ключевых факторов, определяющих ликвидность банковской системы.

**Ключевые слова:** банковская система, банковская ликвидность, риск ликвидности, коэффициент покрытия ликвидности, коэффициент чистого стабильного фондирования, высококачественные ликвидные активы, соотношение кредитов и депозитов, макроэкономические факторы, стресс-тестирование, индекс давления на ликвидность.

This article provides a theoretical and empirical examination of the macroeconomic and banking system-specific internal factors affecting the liquidity of Uzbekistan’s banking system. It substantiates the importance of banking system liquidity in ensuring the continuity of payments, the timely fulfilment of deposit obligations, the stability of the lending process, and the resilience of the financial system. Based on the official statistical data of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan for 2020–2025, the study analyses the dynamics of the liquidity coverage ratio, net stable funding ratio, share of high-quality liquid assets, loan-to-deposit ratio, deposit structure, non-

performing loans, and capital adequacy indicators. The findings demonstrate that the balance between loans and deposits is one of the key determinants of banking system liquidity.

**Keywords:** banking system, bank liquidity, liquidity risk, liquidity coverage ratio, net stable funding ratio, high-quality liquid assets, loan-to-deposit ratio, macroeconomic factors, stress testing, liquidity pressure index.

Bank tizimi likvidliligi mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyot subyektlarining to'lovlarini uzluksiz amalga oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari mablag'larining saqlanishini kafolatlash hamda iqtisodiyotning kredit resurslariga bo'lgan talabini barqaror qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimida yetarli likvid mablag'larning mavjudligi tijorat banklariga joriy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish, depozitlarni qaytarish, mijozlar to'lovlarini amalga oshirish va kreditlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi. Aksincha, likvidlikning yetishmasligi alohida bank faoliyatidagi muammo doirasidan chiqib, banklararo bozor, to'lov tizimi, kredit taklifi va butun moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bank tizimi likvidliligi faqat yuqori likvidli aktivlar hajmi yoki joriy pul oqimlarining holati bilan belgilanmaydi. U makroiqtisodiy muhit, pul-kredit siyosatining yo'nalishi, inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati, milliy valyuta almashuv kursining o'zgarishi va pul bozoridagi sharoitlar ta'sirida shakllanadi. Shu bilan birga, kreditlar va depozitlar o'rtasidagi mutanosiblik, depozit bazasining muddat va valyuta tarkibi, kredit portfelining sifati, bank tizimining kapitallashuv darajasi, rentabelligi hamda aktivlar va majburiyatlarning muddatlarining muvofiqligi kabi bank tizimiga xos ichki omillar ham likvidlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, bank tizimi likvidligini alohida ko'rsatkichlar asosida emas, balki o'zaro bog'liq makroiqtisodiy va ichki moliyaviy omillar tizimi doirasida baholash zarur.

So'nggi yillarda global moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik, foiz stavkalarining keskin tebranishi, geosiyosiy noaniqliklar, kapital harakatining beqarorligi va raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi bank likvidligini boshqarishga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli to'lov vositalari va masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi mijozlarga mablag'larni qisqa vaqt ichida bir bankdan boshqasiga o'tkazish imkonini berib, depozitlar harakatchanligini oshirmoqda. Natijada tarixan barqaror resurs sifatida qaralgan ayrim depozit turlarining iqtisodiy xususiyati o'zgarib, banklardan likvidlik riskini yanada tezkor baholash va boshqarish talab etilmoqda.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekiston bank tizimi likvidligida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning qaysi omillar hisobiga yuz berganini faqat tavsifiy statistika asosida to'liq aniqlash imkoni cheklangan. Masalan, depozitlar o'sishi likvidlikni oshirishi mumkin, biroq kreditlashning jadal kengayishi ushbu ta'sirni zaiflashtirishi ehtimoldan xoli emas. Asosiy foiz stavkasining oshishi bir tomondan banklar jalb qiladigan resurslar qiymatini ko'paytirsa, ikkinchi tomondan depozitlarning o'sishini rag'batlantirishi mumkin. Inflyatsiya va valyuta kursidagi o'zgarishlar esa aholi hamda korxonalarning depozit saqlash, valyuta tanlash va mablag'larni boshqa aktivlarga o'tkazish qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bank tizimi likvidligiga ta'sir etuvchi omillarning yo'nalishi, kuchi va vaqt bo'yicha kechikib namoyon bo'lishini miqdoriy usullar orqali baholash zarur.

Mahalliy ilmiy adabiyotlar va amaliy tahlillarda bank likvidligi ko'pincha alohida me'yoriy koeffitsiyentlar dinamikasi, banklarning likvid aktivlari yoki kredit va depozitlar nisbati orqali baholanadi. Biroq makroiqtisodiy muhitni ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan bank tizimiga xos ichki omillarni yagona empirik modelda birlashtirish, ularning qisqa va uzoq muddatli ta'sirini aniqlash hamda natijalarning barqarorligini muqobil likvidlik ko'rsatkichlari orqali tekshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Tijorat banklarining likvidligi moliyaviy vositachilik nazariyasida banklarning iqtisodiyotdagi asosiy vazifalaridan biri bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etiladi. Banklar nisbatan qisqa muddatli va talab qilib olinguncha majburiyatlarni jalb qilib, ularni uzoq muddatli kreditlar va investitsiyalarga yo'naltiradi. Mazkur muddatlar transformatsiyasi iqtisodiyotda likvidlik yaratishga

xizmat qilsa-da, aktivlar va majburiyatlarning muddati, valyutasi hamda pul oqimlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli bank likvidiligi bir tomondan moliyaviy vositachilik samaradorligini, ikkinchi tomondan esa bank tizimining qisqa muddatli moliyaviy shoklarga bardoshlilikni ifodalaydi.

Bank likvidiligi baholashga oid zamonaviy adabiyotlarda ikki o‘zaro bog‘liq, ammo iqtisodiy mazmuni jihatidan farq qiluvchi yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv bankning likvidlik zaxirasini, ya’ni uning qisqa muddatda pulga aylantirilishi mumkin bo‘lgan aktivlari hajmini o‘rganadi. Ikkinchi yondashuv esa bankning kreditlash va muddatlar transformatsiyasi orqali iqtisodiyot uchun likvidlik yaratish qobiliyatini baholaydi. Bank yuqori miqdorda likvid aktivlarni saqlagan holda o‘z likvidlik riskini kamaytirishi mumkin, biroq bu kreditlash hajmi va likvidlik yaratish imkoniyatining qisqarishi bilan kechishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun likvidlik zaxirasining ko‘payishi har doim ham bank vositachiligi samaradorligining oshganini anglatmaydi [1].

2007-2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz banklarning kapital yetarliligi ta’minlangan sharoitda ham moliyalashtirish manbalari keskin qisqarishi va qisqa muddatli majburiyatlarni qayta moliyalash imkoni yo‘qolishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shu asosda Bazel qo‘mitasi tomonidan bank likvidiligi tartibga soluvchi ikkita asosiy me’yor, ya’ni likvidlikni qoplash me’yori koeffitsiyenti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsiyenti (NSFR) ishlab chiqildi. LCR bankning 30 kunlik stress sharoitida kutiladigan sof pul chiqimlarini yuqori sifatli likvid aktivlar hisobiga qoplash qobiliyatini, NSFR esa bir yillik davrda aktivlar va balansdan tashqari operatsiyalarni barqaror moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlanganlik darajasini ifodalaydi [2].

Mazkur tartibga solish yondashuvi bank likvidiligi qisqa va uzoq muddatli jihatdan birgalikda baholash zaruratini yuzaga keltirdi. LCR qisqa muddatli pul chiqimlari va likvid aktivlar zaxirasiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, NSFR aktivlar muddati bilan moliyalashtirish manbalarining barqarorligi o‘rtasidagi tarkibiy mutanosiblikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois zamonaviy empirik tadqiqotlarda likvid aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, kredit-depozit nisbati, LCR va NSFR kabi ko‘rsatkichlar bir-birini to‘ldiruvchi natijaviy o‘zgaruvchilar sifatida qo‘llanilmoqda [3].

DeYoung va Jang AQSh tijorat banklarining 1992-2012 yillardagi ma’lumotlarini o‘rganib, banklar majburiy likvidlik standartlari to‘liq joriy etilmasidan oldin ham o‘z likvidlik pozitsiyalarini faol boshqarganini aniqlagan. Tadqiqot natijalari banklar kreditlarning asosiy depozitlarga nisbati bo‘yicha muayyan maqsadli darajani belgilaganini va balans tuzilmasini shu maqsadga moslashtirganini ko‘rsatadi. Shuningdek, banklar amaliyoti NSFRning iqtisodiy mantig‘iga mos kelgan, biroq bank hajmi ortgan sari likvidlikning maqsadli darajasi pasayib, uni boshqarish tezligi oshgan [4].

Ushbu natija bank likvidiligi faqat tashqi me’yoriy talablar ta’sirida emas, balki bankning biznes modeli, aktivlar tarkibi, depozit bazasi va boshqaruv strategiyasi asosida ham shakllanishini ko‘rsatadi. Banklar kredit portfelini kengaytirish va yuqori daromad olish maqsadida likvid aktivlar ulushini qisqartirishi mumkin. Biroq likvidlikning haddan tashqari past darajasi depozitlar chiqib ketishi, banklararo mablag‘lar qiymatining oshishi yoki bozor moliyalashtirishining cheklanishi sharoitida bankning zaifligini kuchaytiradi.

Bank likvidligiga ta’sir etuvchi ichki omillar bo‘yicha tadqiqotlarda depozitlar hajmi va tarkibi, kreditlash faolligi, kapital yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik hamda bank hajmi asosiy tushuntiruvchi ko‘rsatkichlar sifatida ajratiladi. Ushbu omillarning ta’sir yo‘nalishi turli mamlakatlar va bank guruhlar bo‘yicha bir xil emas. Bu bank tizimining institutsional tuzilishi, moliyalashtirish manbalari, bozor rivojlanganligi va tartibga solish talablaridagi farqlar bilan izohlanadi.

Depozitlar bank likvidiligi ta’minlovchi asosiy ichki manbalardan biri hisoblanadi. Barqaror depozit bazasining kengayishi bankka tashqi va qisqa muddatli moliyalashtirishga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish imkonini beradi. Biroq depozitlarning barcha turlari bir xil barqarorlikka ega emas. Muddatli va jamg‘arma depozitlari nisbatan barqaror resurs bo‘lsa, talab qilib olinguncha depozitlar tezkor chiqib ketishi mumkin. Shu sababli depozitlarning umumiy hajmi bilan bir qatorda ularning muddat, valyuta va mijozlar tarkibini ham hisobga olish zarur.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston bank tizimi likvidliligiga ta’sir etuvchi omillarni ikki guruhga, makroiqtisodiy va bank tizimiga xos ichki omillarga ajratib, ularning ta’sirini yagona empirik model doirasida baholash taklif etildi. Natijaviy o‘zgaruvchilar sifatida LCR, NSFR va yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushidan foydalanish, ta’sir etuvchi omillar sifatida esa kredit-depozit nisbati, depozitlar hajmi va tarkibi, muammoli kreditlar, kapital yetarliligi, rentabellik, asosiy stavka, inflyatsiya va valyuta kursi ko‘rsatkichlarini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv O‘zbekiston bank tizimi likvidligini shakllantiruvchi omillarning ta’sir yo‘nalishi, miqdori va vaqt bo‘yicha xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni ma’lumotlariga ko‘ra [5], O‘zbekiston bank tizimida LCR va NSFR koeffitsiyentlari belgilangan 100 foizlik minimal talabdan yuqori bo‘lganini ko‘rsatdi. Biroq likvidlilik ko‘rsatkichlari dinamikasi bir maromda kechmagan. Ayrim davrlarda qisqa muddatli likvidlilik zaxirasi kamaygan bo‘lsa, boshqa davrlarda yuqori likvidli aktivlar jadal ko‘paygan.

**1-jadval**

**O‘zbekiston bank tizimi likvidliligi va unga ta’sir etuvchi asosiy ichki ko‘rsatkichlar**

| Yil  | LCR, % | NSFR, % | Yuqori likvidli aktivlar ulushi, % | Kredit-depozit nisbati, % | Muddatli depozitlar ulushi, % | Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi, % | NPL, % | Kapital yetarliligi, % |
|------|--------|---------|------------------------------------|---------------------------|-------------------------------|---------------------------------------------|--------|------------------------|
| 2020 | 224,47 | 109,95  | 14,15                              | 241,38                    | 43,41                         | 46,90                                       | 2,09   | 18,40                  |
| 2021 | 189,63 | 115,43  | 17,69                              | 208,97                    | 46,89                         | 44,31                                       | 5,20   | 17,50                  |
| 2022 | 211,59 | 115,56  | 19,44                              | 179,96                    | 42,80                         | 46,45                                       | 3,59   | 17,82                  |
| 2023 | 164,82 | 111,76  | 14,86                              | 195,05                    | 53,62                         | 36,43                                       | 3,53   | 17,54                  |
| 2024 | 193,76 | 115,32  | 17,32                              | 172,70                    | 56,55                         | 33,98                                       | 3,97   | 17,37                  |
| 2025 | 207,53 | 119,93  | 21,07                              | 144,76                    | 55,85                         | 30,87                                       | 2,99   | 18,34                  |

Manba. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

LCR koeffitsiyenti tahlil davrida 135,31 foizdan 256,14 foizgacha bo‘lgan oraliqda shakllangan. Uning eng past qiymati 2021 yil yanvar oyida, eng yuqori qiymati esa 2022 yil iyul oyida kuzatilgan. 2025 yil yakunida LCR 207,53 foizni tashkil etib, minimal talabdan ikki barobardan ko‘proq yuqori bo‘lgan. Bu bank tizimining 30 kunlik stress sharoitida kutiladigan sof pul chiqimlarini yuqori likvidli aktivlar bilan qoplash imkoniyati yetarli ekanini ko‘rsatadi.

NSFR koeffitsiyenti LCRga nisbatan kamroq tebrangan. Uning eng past qiymati 107,13 foizni, eng yuqori qiymati 119,93 foizni tashkil etgan. 2020–2025 yillar davomida NSFRning qariyb 10 foiz bandga oshishi bank tizimi aktivlarini barqaror moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash holati yaxshilanganidan dalolat beradi.

Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 2020 yil yakunidagi 14,15 foizdan 2025 yil yakunida 21,07 foizgacha ko‘paygan. Markaziy bank ma’lumotlarida ham 2025 yilda yuqori likvidli aktivlar hajmining ortishi va talab qilib olinguncha depozitlar ulushining qisqarishi bank tizimi likvidligining yaxshilanishiga xizmat qilgani qayd etilgan.

Tahlil davrida eng sezilarli ijobiy o‘zgarish kredit-depozit nisbatida kuzatilgan. Mazkur ko‘rsatkich 2020 yil yakunidagi 241,38 foizdan 2025 yil yakunida 144,76 foizgacha, ya’ni 96,62 foiz bandga pasaygan. 2025 yilda depozitlar qoldig‘i kreditlar qoldig‘iga nisbatan tezroq o‘sgani sababli kredit-depozit nisbati 28 foiz bandga kamayib, rasmiy hisobotda 145 foiz darajasida qayd etilgan.

Shunga qaramay, kredit-depozit nisbatining 100 foizdan ancha yuqori bo‘lib qolishi kredit portfelining muayyan qismi depozitlardan tashqari manbalar, tashqi kredit liniyalari, banklararo mablag‘lar, obligatsiyalar va boshqa majburiyatlar hisobidan moliyalashtirilayotganini anglatadi. Shu bois mazkur ko‘rsatkichning pasayishi ijobiy baholansa-da, resurs bazasining tarkibiy barqarorligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Depozitlar tarkibida ham likvidlilik nuqtai nazaridan ijobiy siljish kuzatilgan. Muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 2020 yil yakunidagi 43,41 foizdan 2025 yil yakunida 55,85 foizgacha oshgan. Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi esa 46,90 foizdan 30,87 foizgacha

kamaygan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025 yil yakunida talab qilib olinguncha depozitlar ulushi 31 foizni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 3 foiz bandga pasaygan.

Muammoli kreditlar ulushi tahlil davrida 1,85 foizdan 6,24 foizgacha bo‘lgan oraliqda tebrangan. Eng yuqori ko‘rsatkich 2021 yil iyul oyida kuzatilgan. Keyingi yillarda kredit portfeli sifatining yaxshilanishi natijasida 2025 yil yakunida NPL darajasi 2,99 foizgacha pasaygan. Markaziy bank hisobotiga ko‘ra, 2025 yilda muammoli kreditlar miqdori 15 foizga kamayib, ularning jami kreditlardagi ulushi 3 foizni tashkil etgan.

O‘tkazilgan empirik tahlil O‘zbekiston bank tizimi likvidligining shakllanishida kreditlar va depozitlar o‘rtasidagi mutanosiblik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Kredit-depozit nisbati LCR, NSFR hamda yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushiga nisbatan barqaror salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Bunda depozitlar hajmining kreditlarga nisbatan tezroq o‘shishi 2025 yilda kredit-depozit nisbatining 28 foiz bandga pasayib, qariyb 145 foizga tushishiga xizmat qilgan [6].

Shu bilan birga, yuqori likvidli aktivlar hajmining ko‘payishi, talab qilib olinguncha depozitlar ulushining qisqarishi va uzoq muddatli depozitlar hajmining o‘shishi bank tizimi likvidligining mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur natijalar bank tizimi likvidligini boshqarishda faqat me’yoriy koeffitsiyentlarga rioya qilish bilan cheklanmasdan, kreditlash sur’ati, resurslar tarkibi va makroiqtisodiy shoklarni o‘zaro bog‘liq holda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, kredit-depozit nisbatini bank tizimi likvidligiga bosimni oldindan aniqlovchi asosiy tezkor ko‘rsatkichlardan biri sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq. Mazkur koeffitsiyentning faqat muayyan sanadagi qiymatini emas, balki uning:

- uch va olti oylik harakatlanuvchi o‘rtachasini;
- yillik o‘zgarish sur’atini;
- kreditlar va depozitlar o‘shish sur’atlari o‘rtasidagi tafovutni;
- milliy va xorijiy valyutalar bo‘yicha alohida holatini;
- bank guruhlarida kesimidagi farqini muntazam kuzatib borish zarur.

Kreditlar o‘shish sur’ati depozitlar o‘shishidan ketma-ket bir necha oy yuqori bo‘lgan holatda likvidlikka bosim kuchayishi to‘g‘risida ogohlantiruvchi belgi shakllantirilishi lozim. Bunda kredit-depozit nisbati uchun barcha banklarga bir xil qat’iy chegara belgilashdan ko‘ra, bankning biznes-modeli, depozit bazasi barqarorligi, tashqi moliyalashtirish ulushi va aktivlar muddatini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan nazorat oralig‘idan foydalanish samarali bo‘ladi.

Ushbu yondashuv kreditlashni ma’muriy tarzda cheklashni emas, balki kredit portfelinig o‘shishini barqaror moliyalashtirish manbalari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Kreditlash sur’ati resurs bazasi o‘shishidan sezilarli yuqori bo‘lgan banklar qo‘shimcha muddatli depozitlar, obligatsiyalar, subordinatsiyalangan qarzarlar yoki boshqa uzoq muddatli manbalarni jalb qilishi lozim.

Depozitlarning umumiy hajmi bank likvidligini baholash uchun muhim bo‘lsa-da, ularning muddat, valyuta, mijozlar va konsentratsiya bo‘yicha tarkibi resurs bazasining haqiqiy barqarorligini aniqroq ifodalaydi. 2025 yil yakunida talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 31 foizgacha pasaygani likvidlik nuqtai nazaridan ijobiy o‘zgarish hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, tijorat banklarida depozitlar barqarorligi ko‘rsatkichlari panelini shakllantirish taklif etiladi. U quyidagi tarkibiy ko‘rsatkichlarni qamrab olishi lozim:

## 2-jadval

### Tijorat banklarida depozitlar barqarorligi ko‘rsatkichlari

| Yo‘nalish           | Baholanadigan ko‘rsatkich                                             |
|---------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| Muddat tarkibi      | Muddatli va jamg‘arma depozitlarining jami depozitlardagi ulushi      |
| Tezkor chiqim riski | Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi                              |
| Valyuta tarkibi     | Milliy va xorijiy valyutadagi depozitlar nisbati                      |
| Mijozlar tarkibi    | Aholi, korporativ mijozlar va davlat tashkilotlari depozitlari ulushi |
| Konsentratsiya      | Eng yirik depozitorlar mablag‘larining jami depozitlardagi ulushi     |
| Barqarorlik         | Depozitlarning o‘rtacha saqlanish muddati va yangilanish darajasi     |
| Narx omili          | Depozitlar bo‘yicha o‘rtacha resurs qiymati                           |

Depozitlarning yuridik muddatidan tashqari ularning amaldagi xulq-atvor muddatini ham baholash zarur. Masalan, talab qilib olinguncha depozitlarning muayyan qismi uzoq vaqt davomida

bank hisobvaraqlarida barqaror saqlanishi mumkin. Aksincha, rasman muddatli bo‘lgan yirik depozitlar muddati tugaganda bir vaqtning o‘zida chiqib ketishi ehtimoli mavjud. Shu sababli banklar depozitlarni shartnomaviy muddat bilan birga tarixiy harakatlanish xususiyatlari asosida ham guruhlashi lozim.

O‘zbekistonda LCR va NSFR bo‘yicha minimal talab 100 foiz, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi eng kam ulushi 10 foiz hamda lahzalik likvidlilik koeffitsiyenti 25 foiz etib belgilangan. Mazkur koeffitsiyentlar likvidlilikning turli jihatlarini ifodalagani sababli ularni alohida emas, yagona tizim doirasida boshqarish talab etiladi [7].

LCR qisqa muddatli stress sharoitidagi pul chiqimlarini qoplash qobiliyatini, NSFR aktivlarning barqaror resurslar bilan moliyalashtirilganligini, yuqori likvidli aktivlar ulushi esa balansdagi tez sotilishi mumkin bo‘lgan aktivlar zaxirasini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari ushbu ko‘rsatkichlarning omillarga ta‘sirchanligi bir xil emasligini ko‘rsatdi. Masalan, kredit-depozit nisbati barcha likvidlilik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir qilgan bo‘lsa, asosiy stavka va valyuta kursi o‘zgarishi ko‘proq yuqori likvidli aktivlar ulushida namoyon bo‘lgan.

Shu bois banklarning likvidlilik siyosatida quyidagi uch bosqichli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Tezkor likvidlilik darajasi. Kunlik va 30 kunlik pul oqimlari, LCR va lahzalik likvidlilikni nazorat qilish.

2. Tarkibiy likvidlilik darajasi. NSFR, resurslar muddati, kredit-depozit nisbati va aktivlar hamda majburiyatlarning muddatlarini muvofiqlashtirish.

3. Strategik likvidlilik darajasi. Yuqori likvidli aktivlar zaxirasi, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va favqulodda moliyalashtirish rejasini shakllantirish.

Bankning LCR koeffitsiyenti yuqori bo‘lgani bilan NSFR minimal talabga yaqin bo‘lsa, qisqa muddatli likvidlilik yetarli, ammo resurs bazasining uzoq muddatli barqarorligi zaif bo‘lishi mumkin. Shuningdek, yuqori likvidli aktivlar ulushi me‘yordan yuqori bo‘lgan holda kredit-depozit nisbatining tez o‘sishi kelgusi davrlarda likvidlilik zaxirasining qisqarish xavfini keltirib chiqaradi.

Likvidlilik riskini alohida ko‘rsatkichlar orqali baholash ba‘zan riskning umumiy darajasini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli O‘zbekiston bank tizimi uchun bank tizimi likvidlilikiga bosim indeksini joriy etish taklif etiladi. Indeksni quyidagicha shakllantirilishi mumkin:

$$BTLBI_t = w_1Z(\Delta LDR_t) + w_2Z(\Delta DD_t) + w_3Z(EXR_t) + w_4Z(\Delta NPL_t) - w_5Z(\Delta TD_t) - w_6Z(HQLA\_A_t)$$

bu yerda:

$BTLBI_t$  – bank tizimi likvidlilikiga bosim indeksi;

$Z$  – ko‘rsatkichni standartlashtirish natijasi;

$\Delta LDR$  – kredit-depozit nisbatining o‘zgarishi;

$\Delta DD$  – talab qilib olinguncha depozitlar ulushining o‘zgarishi;

$EXR$  – valyuta kursining o‘zgarishi;

$\Delta NPL$  – muammoli kreditlar ulushining o‘zgarishi;

$\Delta TD$  – muddatli depozitlar ulushining o‘zgarishi;

$HQLA\_A$  – yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi;

$w_i$  – har bir omilning vazni.

Kredit-depozit nisbati, talab qilib olinguncha depozitlar, valyuta qadrsizlanishi va muammoli kreditlar ko‘payishi indeks qiymatini oshirib, likvidlilikka bosim kuchayganini anglatadi. Muddatli depozitlar va yuqori likvidli aktivlar ulushining ortishi esa indeksni pasaytiradi.

Indeks vaznlarini subyektiv ravishda belgilash emas, balki ARDL modelida olingan standartlashtirilgan koeffitsiyentlar, stress-test natijalari va tarixiy likvidlilik holatlari asosida kalibrlash lozim. Indeksning o‘sishi kuzatilganda Markaziy bank va tijorat banklari qo‘shimcha stress-test o‘tkazishi, moliyalashtirish rejasini qayta ko‘rib chiqishi hamda yuqori likvidli aktivlar zaxirasini oshirishi mumkin.

Empirik natijalar milliy valyutaning qadrsizlanishi yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatdi. Valyuta kursi o‘zgarishi bank balansidagi

xorijiy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarni qayta baholash, xorijiy qarzlariga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini oshirish hamda depozitlarning valyuta tarkibini o‘zgartirish orqali likvidlikka ta’sir qiladi.

Shu sababli bank tizimi likvidligini stress-test qilishda jami valyuta pozitsiyasi bilan cheklanmasdan, milliy va xorijiy valyutalar bo‘yicha quyidagi ssenariylarni alohida baholash zarur:

- milliy valyutaning keskin qadrsizlanishi;
- xorijiy valyutadagi depozitlarning tezkor chiqib ketishi;
- tashqi kredit liniyalarini qayta moliyalash imkoniyatining cheklanishi;
- valyuta bozorida sotiladigan aktivlar likvidligining pasayishi;
- yirik tashqi majburiyatlarning bir vaqtda so‘ndirilishi;
- eksport tushumlari va transchegaraviy pul o‘tkazmalarining qisqarishi.

Markaziy bankning likvidlik stress-testi ham banklar bo‘yicha milliy va xorijiy valyutadagi kutiladigan pul kirimi hamda chiqimini alohida baholashga asoslangan. Ushbu amaliyotni banklarning ichki stress-test tizimlarida ham chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda asosiy stavkaning oshishi yuqori likvidli aktivlar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Bu pul-kredit siyosati qat’iylashgan davrlarda kreditlarga talabning pasayishi, banklar tomonidan ehtiyotkor likvidlik zaxirasining oshirilishi va qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ yo‘naltirilishi bilan izohlanishi mumkin.

Biroq asosiy stavka oshishi depozitlar narxini, banklararo resurslar qiymatini va kreditlar bo‘yicha to‘lov intizomini ham o‘zgartiradi. Shu bois banklarda foiz stavkasi va likvidlik risklarini alohida boshqarish o‘rniga, ularni aktivlar va passivlarni boshqarish qo‘mitasi doirasida o‘zaro bog‘liq holda baholash zarur. Asosiy stavka o‘zgarishining har bir ssenariysi bo‘yicha:

- depozitlar hajmi va tarkibi;
- kreditlarga talab;
- muddatidan oldin yopiladigan depozitlar;
- muammoli kreditlar ehtimoli;
- banklararo resurslar qiymati;
- qimmatli qog‘ozlar bozor qiymati;
- LCR va NSFRga ta’sir oldindan hisoblab chiqilishi lozim.

Bunda asosiy stavkaning 100, 200 va 300 bazis bandga oshishi yoki pasayishi kabi ssenariylar banklarning ichki stress-testlari uchun qo‘llanilishi mumkin. Ushbu miqdorlar normativ chegara emas, balki turli shoklarga ta’sirchanlikni baholashga xizmat qiluvchi ssenariylar sifatida qaralishi zarur.

Muammoli kreditlarning mustaqil ta’siri yakuniy ixcham ARDL modellarida statistik jihatdan barqaror shakllanmagan bo‘lsa-da, nazariy va amaliy jihatdan kredit portfeli sifati likvidlikning muhim omili bo‘lib qoladi. Muammoli kreditlar rejalashtirilgan pul tushumlarini kechiktiradi, qo‘shimcha zaxiralar talab qiladi va bankning likvid aktivlarini qisqartiradi.

2025 yilda muammoli kreditlar hajmining kamayishi va ularning jami kreditlardagi ulushi 3 foizga tushishi bank tizimi barqarorligi uchun ijobiy holat bo‘lgan. Biroq NPL ko‘rsatkichining o‘zi kelgusi pul oqimlaridagi barcha yo‘qotishlarni aks ettirmaydi. Shu sababli banklar likvidlik prognozlarida quyidagilarni hisobga olishi lozim:

- muddati o‘tmagan, ammo to‘lov qobiliyati zaiflashgan kreditlar;
- qayta tuzilgan kreditlar;
- foiz to‘lovlari kechikayotgan qarzdorlar;
- bir tarmoq yoki yirik qarzdorlardagi konsentratsiya;
- xorijiy valyutada kredit olgan, ammo valyuta tushumi mavjud bo‘lmagan qarzdorlar;
- kreditlar bo‘yicha kutiladigan pul oqimlarining stress-ssenariydagi qisqarishi.

Bu kredit riskining likvidlikka kechikib ta’sir qilishini oldindan hisobga olish imkonini beradi.

Bank tizimi bo‘yicha aktivlar va majburiyatlar muddatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik yaxshilangan bo‘lsa-da, qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga uzoq muddatli kreditlarni moliyalashtirish likvidlik riskining asosiy manbalaridan biri bo‘lib qoladi.

An’anaviy muddatlar tafovuti tahlili shartnomada ko‘rsatilgan so‘ndirish muddatiga asoslanadi. Biroq mijozlarning amaldagi xatti-harakatlari shartnomaviy muddatdan farq qilishi mumkin. Shu sababli quyidagi xulq-atvor xususiyatlarini hisobga olish zarur:

- talab qilib olinguncha depozitlarning barqaror qismi;
- muddatli depozitlarning qayta joylashtirilish ehtimoli;
- kreditlarning muddatidan oldin qaytarilishi;
- foydalanilmagan kredit liniyalari bo‘yicha ehtimoliy mablag‘ talablari;
- kafolat va akkreditivlar bo‘yicha shartli majburiyatlar;
- bozor shaki davrida depozitlar chiqib ketish sur‘ati.

Xulq-atvor muddatlari asosida qayta tuzilgan likvidlilik tafovuti bankning real pul oqimlarini shartnomaviy muddatlar tahliliga nisbatan aniqroq ifodalaydi.

Bank tizimi bo‘yicha jamlangan LCR yoki NSFR ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishi barcha banklarda likvidlilik holati bir xil ekanini anglatmaydi. Ayrim banklarda yuqori likvidli aktivlar ortiqcha bo‘lishi, boshqalarida esa koeffitsiyentlar minimal talabga yaqin shakllanishi mumkin. Shu sababli tizim bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda taqsimotning medianasi, eng past qiymati va banklar o‘rtasidagi tafovut ham kuzatilishi lozim. Tabaqalashtirilgan nazoratda banklarni quyidagi mezonlar bo‘yicha guruhlash mumkin:

- davlat ishtirokidagi va xususiy banklar;
- tizimli ahamiyatga molik va boshqa banklar;
- chakana, korporativ va universal biznes modeli banklar;
- tashqi moliyalashtirishga yuqori va past darajada bog‘liq banklar;
- milliy va xorijiy valyutadagi majburiyatlari ulushi yuqori banklar.

Bu umumiy makroprudensial choralar bilan bir qatorda muayyan bank guruhlariga mos maqsadli likvidlilik choralari belgilash imkonini beradi.

Likvidlilik riskining qisqa vaqt ichida yuzaga chiqishi banklar va tartibga soluvchi organlardan ma’lumotlarni yuqori davriylikda qayta ishlashni talab etadi. Shu sababli Markaziy bank va tijorat banklarida likvidlilik ko‘rsatkichlarini kunlik yoki haftalik kuzatuvchi yagona raqamli tahliliy panelni shakllantirish maqsadga muvofiq. Panelda quyidagi ko‘rsatkichlar aks ettirilishi lozim:

- LCR va NSFRning amaldagi hamda prognoz qiymatlari;
- yuqori likvidli aktivlar tarkibi;
- kredit-depozit nisbati;
- yirik depozitorlar mablag‘lari;
- depozitlar chiqib ketish sur‘ati;
- valyutalar bo‘yicha likvidlilik tafovuti;
- banklararo mablag‘lar jalb qilish qiymati;
- garov sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan aktivlar;
- stress-senariylardagi sof pul chiqimi;
- bank tizimi likvidliligiga bosim indeksi.

Raqamli panel ma’lumotlarni faqat qayd etish emas, balki belgilangan ko‘rsatkichlar yomonlashganda avtomatik ogohlantirish yuborish vazifasini ham bajarishi lozim.

Shunday qilib, empirik natijalar asosida O‘zbekiston bank tizimi likvidliligini boshqarishda asosiy e’tibor kredit-depozit nisbatini maqbullashtirish, depozit resurslarining barqarorligini oshirish, valyutalar va muddatlar bo‘yicha likvidlilik tafovutlarini chuqur baholash hamda makroiqtisodiy shoklarni bank ichki ko‘rsatkichlari bilan birgalikda nazorat qilishga qaratilishi lozim. Mazkur choralar bank tizimining joriy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini saqlash bilan birga, uning kreditlash va moliyaviy vositachilik vazifalarini barqaror amalga oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Berger, A.N. and Bouwman, C.H.S. (2009). Bank Liquidity Creation. The Review of Financial Studies, 22(9), pp. 3779–3837. doi: 10.1093/rfs/hhn104.

2. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. Basel: Bank for International Settlements.
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). Basel III: The Net Stable Funding Ratio. Basel: Bank for International Settlements.
4. DeYoung, R. and Jang, K.Y. (2016). Do Banks Actively Manage Their Liquidity? *Journal of Banking & Finance*, 66, pp. 143–161. doi: 10.1016/j.jbankfin.2015.11.013.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Statistik byulleten: 2025 yil. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Moliyaviy barqarorlik sharhi: 2025 yil. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
7. Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizom. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026 yil 18 iyulda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2709) <https://lex.uz/uz/docs/8339142>.

**UDK: 330.35**

**YASHIL IQTISODIYOT: O‘ZBEKISTONNING BARQAROR KELAJAGIGA YO‘L**

**ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА: ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ БУДУЩЕМУ  
УЗБЕКИСТАНА**

**GREEN ECONOMY: THE PATH TO A SUSTAINABLE FUTURE OF  
UZBEKISTAN**

**Nazarov Javohir Ro‘zimurod o‘g‘li**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali Menejment 2-kurs talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqola O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini va uning barqaror rivojlanishga ta‘sirini ekonometrik tahlil asosida o‘rganadi. 2016–2024-yil ma‘lumotlari asosida YaIM o‘shishi, qayta tiklanadigan energiya ulushi, CO<sub>2</sub> emissiyasi va energiya intensivligi o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. OLS va ARDL modellari natijalariga ko‘ra, qayta tiklanadigan energiya YaIM o‘shishiga ijobiy, CO<sub>2</sub> emissiyasi esa salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Asosiy muammolar — energiya subsidiyalarining yuqoriligi, suv tanqisligi va sanoatning uglerod intensivligi. Taklif etilgan yechimlar: xalqaro yashil investitsiyalarni jalb qilish, subsidiyalarni qisqartirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot O‘zbekistonning iqtisodiy o‘shishini tezlashtirishi va ekologik xavflarni kamaytirishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, CO<sub>2</sub> emissiyasi, ekonometrik tahlil.

Статья анализирует процесс перехода Узбекистана к зеленой экономике и его влияние на устойчивое развитие на основе эконометрического анализа. На данных за 2016–2024 годы оценены взаимосвязи между ростом ВВП, долей возобновляемой энергии, выбросами CO<sub>2</sub> и энергетической интенсивностью. Согласно моделям OLS и ARDL, возобновляемая энергия положительно влияет на рост ВВП, тогда как выбросы CO<sub>2</sub> оказывают отрицательное воздействие. Основные проблемы включают высокие энергетические субсидии, дефицит воды и высокую углеродоёмкость промышленности. Решения предполагают привлечение международных зеленых инвестиций, сокращение субсидий и расширение цифровых технологий. Результаты показывают, что зеленая экономика может ускорить экономический рост Узбекистана и снизить экологические риски.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, выбросы CO<sub>2</sub>, эконометрический анализ.

This article examines Uzbekistan's transition to a green economy and its impact on sustainable development using econometric analysis. Based on data from 2016–2024, the study evaluates the relationships between GDP growth, renewable energy share, CO<sub>2</sub> emissions, and energy intensity. OLS and ARDL model results show that renewable energy positively affects GDP growth, while CO<sub>2</sub> emissions have a negative effect. Key challenges include high energy subsidies, water scarcity, and industrial carbon intensity. Proposed solutions include attracting international green investments, reducing subsidies, and expanding digital technologies. The findings indicate that the green economy can accelerate Uzbekistan's economic growth and reduce environmental risks.

**Key words:** green economy, sustainable development, renewable energy, CO<sub>2</sub> emissions, econometric analysis.

O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishi (2024-yilda 6.5%, YaIM 115 mlrd USD) ekologik barqarorlik bilan birlashtirmoqda. 2025-yil “Ekologik himoya va yashil iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilinib, Parij kelishuviga muvofiq CO<sub>2</sub> emissiyasini YaIMga nisbatan 35% ga kamaytirish, RE ulushini 40% ga yetkazish rejalashtirilmoqda. Energiya intensivligi global o‘rtachadan 2 baravar yuqori, subsidiyalar YaIMning 0.7% ini (2024) tashkil etadi. “Yangi O‘zbekiston-2030” strategiyasi uglerod emissiyasini kamaytirish va resurslarni samarali boshqarishga qaratilgan.

Orol dengizi va suv tanqisligi (yillik 1.8 mlrd m<sup>3</sup> tejash potentsiali) yashil zarurligini ta’kidlaydi. 2025-yilda UNDP va GEF loyihalari biologik xilma-xillikni tiklashni boshlaydi. Jahon banki iCRAFT loyihasi (46.2 mln USD) energiya tariflarini isloh qiladi. Emissiyalar globalning 0.3% ini tashkil etsa-da, iqlim ta’siriga zaif (suv 70% ga kamayishi mumkin). 2025-yilda yashil obligatsiyalar orqali 10 mln USD uglerod kreditlari savdosi rejalashtirilgan. Yashil texnologiyalar samaradorlikni 4.6 mlrd USD ga oshirishi mumkin. Barqaror kelajak yashil iqtisodiyotga bog‘liq: ekologik xavflarni kamaytirib, ish o‘rinlari (35% yashil loyihalar) yaratadi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish mavzusi xalqaro ilmiy adabiyotlarda tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda, ayniqsa iqtisodiy o‘shishi ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan. Dastlabki siyosatga yo‘naltirilgan ishlar, jumladan, Jahon bankining “Towards a Greener Economy in Uzbekistan” hisoboti [1] resurslardan samarali foydalanish, past uglerodli yo‘llar va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni rivojlanayotgan, resurslarga bog‘liq iqtisodiyotlar uchun barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari sifatida ta’kidlaydi. Ushbu hisobot tabiiy resurslar va energiyadan samarali boshqarish ifloslanishni kamaytirish bilan birga inklyuziv o‘shishi ta’minlash muhimligini ko‘rsatadi.

Keyingi ekonometrik tadqiqotlar asosiy o‘zgaruvchilarni chuqurroq tahlil qilgan. Masalan, AIP Conference Proceedingsda chop etilgan tadqiqot [2] 1990–2023 yillar ma’lumotlariga asoslanib, VECM, OLS va ARDL modellaridan foydalangan holda qayta tiklanadigan energiya (RE) ulushining YaIM o‘shishiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, CO<sub>2</sub> emissiyasi esa salbiy ta’sirga ega ekanligini aniqlagan. Ushbu natijalar O‘zbekistonda kuzatilayotgan yuqori energiya subsidiyalari va sanoatning uglerod intensivligi muammolari bilan yaqin mos tushadi. Buni to‘ldiruvchi tarzda, OECDning yashil investitsiyalar siyosati islohotlari bo‘yicha hisobotlari [3] subsidiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish va xalqaro kapitalni jalb qilish uchun yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi.

Qayta tiklanadigan energiyani joriy etish kontekstida Isakulova [4] (E3S Web of Conferences, 2024) O‘zbekistonda quyosh va shamol energiyasi loyihalarining istiqbollari va to‘siqlarini o‘rganib, ularning iqtisodiy samaradorligini (past LCOE) hamda CO<sub>2</sub> emissiyasini kamaytirish va suv tejashdagi muhim foydalarini ko‘rsatdi. Xuddi shunday, Xalqaro energetika agentligining O‘zbekiston energetika profili [5] energiya intensivligi tendensiyalari bo‘yicha muhim ma’lumotlar berib, 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan Yashil iqtisodiyot strategiyasida RE ulushini 25% ga yetkazish milliy maqsadini qo‘llab-quvvatlaydi.

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil**

Xalqaro moliya institutlari ham bu mavzuga katta hissa qo‘shgan. Osiyo infratuzilma investitsiyalari bankining 500 mln USD lik “Uzbekistan Green and Resilient Market Economy Program” dasturi [6] va GGGI ning O‘zbekiston bo‘yicha mamlakat profili [7] siyosat islohotlari, uglerod bozorlari va yashil davlat xaridlari orqali o‘tishni tezlashtirish rolini ta’kidlaydi. BMTning Rivojlanish dasturining 2025-yilni “Ekologik himoya va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilishini hujjatlashtirishi [8] xalqaro hamkorlar yordamida milliy tashabbuslar orqali tizimli o‘zgarishlarni qanday amalga oshirish mumkinligini namoyish etadi.

Umuman olganda, ko‘rib chiqilgan xorijiy adabiyotlar yashil iqtisodiyot transformatsiyasi O‘zbekistonning barqaror kelajagini ta’minlashda kuchli harakatlantiruvchi kuch ekanligini tasdiqlaydi. Ekonometrik dalillar qayta tiklanadigan energiya ijobiy hissasini doimiy ravishda ko‘rsatib, energiya subsidiyalari va suv tanqisligini asosiy to‘siqlar sifatida belgilaydi. Ushbu tadqiqotlar mavjud ish uchun mustahkam nazariy va empirik asos yaratadi hamda subsidiyalarni isloh qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha siyosat tavsiyalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tadqiqot ekonometrik tahlilga asoslangan: YaIM o‘sishi (Y), RE ulushi, CO<sub>2</sub>, EI va S o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash. Ma’lumotlar: Jahon banki, IEA, Statkom (2016–2024). Usullar: deskriptiv statistika, korelatsiya; OLS regressiyasi; ARDL modeli (uzoq/qisqa muddatli ta’sirlar). Integratsiya: ARDL chegaraviy test (I(0)/I(1)). Tekshiruvlar: Durbin-Watson (heteroskedastisiya), Jarque-Bera (normal taqsimot). Logarifm shakli o‘sishni hisobga oladi. Ushbu usullar yashil iqtisodiyotning barqarorlikka ta’sirini ishonchli baholaydi.

**1-jadval**

| Yil  | YaIM (mlrd USD) | RE (%) | CO <sub>2</sub> (mln t) | EI (kgoe/USD 1000) | S (YaIM %) |
|------|-----------------|--------|-------------------------|--------------------|------------|
| 2016 | 67.2            | 8.5    | 85.2                    | 0.28               | 8.5        |
| 2020 | 82.1            | 12.0   | 98.2                    | 0.24               | 6.8        |
| 2023 | 103.2           | 16.5   | 106.0                   | 0.21               | 6.6        |
| 2024 | 115.0           | 18.0   | 108.5                   | 0.20               | 0.7        |
| 2025 | 121.4 (prognoz) | 20.3   | 110.0                   | 0.19               | 0.6        |

<https://iea.blob.core.windows.net/assets/8c1cefe6-4c29-46b0-82fa-c524714e54a5/UzbekistanEnergyProfile.pdf>

Ushbu jadval O‘zbekistonning 2016–2025-yillar oralig‘idagi asosiy makroiqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. YaIM (mld USD) mamlakat iqtisodiy o‘sishining barqarorligini ko‘rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (RE, %) yil sayin oshib, 8.5% dan 18% gacha yetadi. CO<sub>2</sub> emissiyasi (mln t) sekin kamaymoqda, ammo umumiy miqdor hali yuqori bo‘lib qolmoqda. Energiya intensivligi (EI, kgoe/USD1000) kamayib bormoqda, bu energiya samaradorligining ortayotganini bildiradi. Energiya subsidiyalari (S, YaIM %) esa sekin kamaymoqda (8.5% → 6.6%), lekin baribir yuqori darajada qolmoqda. Xulosa sifatida, jadval O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish bilan birga yashil energetikaga bosqichma-bosqich o‘tishini ko‘rsatadi.

**2-jadval**

| O‘zgaruvchi | Y    | RE   | CO <sub>2</sub> | EI    | S     |
|-------------|------|------|-----------------|-------|-------|
| Y           | 1.00 | 0.95 | -0.85           | -0.92 | -0.88 |
| RE          | 0.95 | 1.00 | -0.78           | -0.89 | -0.82 |

<https://www.iea.org/countries/uzbekistan>

Ushbu jadval o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni 0–1 oralig‘idagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari orqali ko‘rsatadi. Natijalarga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya ulushi (RE) va YaIM o‘sishi o‘rtasida juda kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud (0.95). CO<sub>2</sub> emissiyasi (–0.85), energiya

intensivligi (−0.92) va subsidiyalar (−0.88) esa YaIM o‘shiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan, ijobiy bog‘liqlik faqat RE bilan kuzatiladi, boshqa ekologik bosim ko‘rsatkichlari esa iqtisodiy o‘shishni sekinlashtiradi.

**3-jadval**

| O‘zgaruvchi  | Koeff.   | p-qiymat |
|--------------|----------|----------|
| RE           | 0.608    | 0.001    |
| CO2          | -0.00004 | 0.052    |
| EI           | -1.25    | 0.003    |
| S            | -0.45    | 0.022    |
| $R^2 = 0.92$ |          |          |

<https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile>

Bu jadvalda YaIM o‘shiga ta’sir qiluvchi omillar OLS regressiya modeli yordamida baholangan. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (RE, koeff.=0.608,  $p<0.01$ ) YaIMni sezilarli darajada oshiradi. CO<sub>2</sub> emissiyasi (−0.00004,  $p>0.05$ ) salbiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin statistik ahamiyatga ega emas. Energiya intensivligi (EI, −1.25,  $p<0.03$ ) va subsidiyalar (S, −0.88,  $p<0.02$ ) esa YaIM o‘shiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Modelning aniqligi yuqori bo‘lib,  $R^2=0.92$ , ya’ni YaIMdagi o‘zgarishlarning 92% ni tushuntira oladi. Xulosa sifatida, YaIMning asosiy ijobiy omili qayta tiklanuvchi energiya bo‘lsa, eng katta to‘siqlar energiya intensivligi va subsidiyalardir.

Natijalar adabiyotlar bilan mos: RE YaIMga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 2025-yilda RE 20.3% ga yetishi emissiyalarni 34 mln t ga kamaytirishi mumkin. Subsidiyalarni kamaytirish (0.7% ga) samaradorlikni oshiradi, ammo ijtimoiy kompensatsiya zarur. Yashil o‘tish barqarorlikni ta’minlaydi

Yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy o‘shishni 6–7 foizga tezlashtirishi, ekologik va iqtisodiy xavflarni esa taxminan 30 foizga kamaytirishi mumkin. Ijtimoiy jihatdan bu jarayon yangi ish o‘rinlarini yaratadi – yashil loyihalarda 35 foizgacha bandlikni ta’minlaydi. Suv resurslarini tejash bo‘yicha potensial yiliga 1,8 milliard kub metrni tashkil etadi, bu ayniqsa Aral dengizi havzasidagi suv tanqisligi sharoitida muhim ahamiyatga ega. Xalqaro hamkorlik, xususan AIIBning 500 million AQSh dollari miqdoridagi “Yashil va chidamli bozor iqtisodiyoti dasturi” kabi loyihalar yashil o‘tishni moliyalashtirish va texnik yordam ko‘rsatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Umuman olganda, yashil transformatsiya O‘zbekiston iqtisodiyotini uglerod kamaytirilgan, resurslardan samarali foydalanadigan va iqlimga chidamli modelga aylantirish orqali barqaror kelajakni ta’minlaydi.

Tavsiyalar:

1. Energiya subsidiyalarini 2028-yilga qadar bosqichma-bosqich 0 foizga yetkazish va yashil tariflar tizimini joriy etish, bu esa energiya samaradorligini oshiradi va byudjet yukini kamaytiradi.
2. Qayta tiklanadigan energiya quvvatini 3,5 GVt ga oshirish, shu jumladan 16 ta yirik quyosh va shamol stansiyalarini qurish orqali RE ulushini 25–40 foizga yetkazish.
3. Suv resurslarini raqamlashtirish, iqlim-smart qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini keng joriy etish va suv tejovchi tizimlar (drip irrigatsiya, sensorlar)ni rivojlantirish.
4. Ekologik ta’limni kuchaytirish, aholini va korxonalarni yashil amaliyotlarga jalb qilish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirish.
5. Jahon banki, UNDP, AIIB va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, yashil obligatsiyalar va uglerod kreditlari bozorini rivojlantirish.

Ushbu choralar “Yangi O‘zbekiston-2030” strategiyasini yanada boyitadi hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG) amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi yo‘nalishlari: Hozirgi tahlil vaqt seriyasi ma’lumotlariga asoslangan bo‘lib, panel ma’lumotlar (masalan, viloyatlar kesimida) va dinamik modellar yordamida chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya va yashil texnologiyalarning birgalikdagi ta’sirini o‘rganish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. World Bank. (2022). Towards a Greener Economy in Uzbekistan.
2. The impact of CO2 emissions and renewable energy on economic growth in Uzbekistan: A VECM analysis. AIP Conference Proceedings, 2025.
3. OECD. (2025). Promoting green investment in Uzbekistan: Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms.
4. Isakulova, B. (2024). Transition to a Green Economy in Uzbekistan: Prospects and Challenges for the Development of Renewable Energy. E3S Web of Conferences.
5. IEA. (2024). Uzbekistan Energy Profile.
6. AIIB. (2025). Uzbekistan Green and Resilient Market Economy Program.
7. GGGI. (2025). Uzbekistan Country Profile.
8. UNDP. (2025). Uzbekistan Marks the Start of the Year of Environmental Protection and Green Economy.

**UDK: 336.71**

**TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КЛИЕНТСКОЙ БАЗЫ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ**

**THEORETICAL BASIS OF FORMING A CUSTOMER BASE IN COMMERCIAL BANKS**

**Qo‘zieva Nilufar Norxidirovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD talabasi

ORCID: 0009-0007-0992-0486

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tijorat banklarida mijozlar bazasini kengaytirishning nazariy-metodologik asoslari va uning bank xizmatlari samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tizimli ko‘rib chiqish asosida amalga oshirilib, mijozlar bazasini kengaytirishga ta’sir etuvchi ichki, tashqi, texnologik va mijozlar bilan bog‘liq omillar guruhlariga ajratib tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xizmat sifati, mijozlar ishonchi, raqamli bank texnologiyalari va moliyaviy savodxonlik mijozlar bazasini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston misolida bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar yetarli emasligi aniqlandi. Maqola xulosasida tijorat banklari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mijozlar bazasi, tijorat banklari, bank xizmatlari samaradorligi, mijozlarni jalb qilish, CRM, raqamli bankchalik, moliyaviy inklyuziya, mijozlar sodiqligi.

В данной статье анализируются теоретические и методологические основы расширения клиентской базы в коммерческих банках и его влияние на эффективность банковских услуг. Исследование проводилось на основе систематического обзора зарубежной и отечественной научной литературы и анализировало внутренние, внешние, технологические и клиентоориентированные факторы, влияющие на расширение клиентской базы в группы. Результаты показывают, что решающую роль в расширении клиентской базы играют качество обслуживания, доверие клиентов, цифровые банковские технологии и финансовая грамотность. Также было установлено, что в случае развивающихся стран, включая Узбекистан, наблюдается недостаток исследований в этой области. В заключении статьи разработаны практические рекомендации для коммерческих банков.

**Ключевые слова:** Клиентская база, коммерческие банки, эффективность банковских услуг, привлечение клиентов, CRM, цифровой банкинг, финансовая доступность, лояльность клиентов.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of expanding the customer base in commercial banks and its impact on the efficiency of banking services. The study was carried out on the basis of a systematic review of foreign and domestic scientific literature, and analyzed the internal, external, technological and customer-related factors affecting the expansion of the customer base into groups. The results show that service quality, customer trust, digital banking technologies and financial literacy play a decisive role in expanding the customer base. It was also found that in the case of developing countries, including Uzbekistan, there is a lack of research in this area. In the conclusion of the article, practical recommendations for commercial banks are developed.

**Keywords:** Customer base, commercial banks, efficiency of banking services, customer attraction, CRM, digital banking, financial inclusion, customer loyalty.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi butun dunyo bo‘ylab bank sohasini o‘zgartirdi. Raqamli bank xizmatlari tijorat banklari moliyaviy xizmatlarni taqdim etish So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi butun dunyo bo‘ylab bank sohasini o‘zgartirdi. Raqamli bank xizmatlari tijorat banklari moliyaviy xizmatlarni taqdim etish, mijozlarga qulaylikni oshirish va mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlashning muhim kanaliga aylandi. Bank sektorida raqobat kuchayib borayotganligi sababli, banklar mijozlar ehtiyojini qondirishni oshirish, operatsion samaradorlikni oshirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun raqamli xizmatlarni taqdim etishga tobora ko‘proq e‘tibor qaratmoqdalar.

Mijozlar bazasini kengaytirishning tobora ortib borayotgan ahamiyati global moliyaviy inklyuzivlik tendensiyalarida aks ettirilgan. Jahon banking Global Findex 2025 ma‘lumotlariga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab kattalarning 79 foizi moliya muassasasida yoki mobil pul provayderida hisob raqamiga ega, bu 2011-yilda 51 foizni tashkil etgan. Bu moliyaviy inklyuzivlikni tez o‘sayotganini ko‘rsatadi va bank sektorida mijozlarni jalb qilish va saqlab qolishning tobora ortib borayotgan ahamiyatini belgilab beradi.

Ushbu global tendensiyalar O‘zbekiston bank sektorida ham aks etgan, bu erda 2025-yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 52,9 milliondan oshdi. Bunday sharoitda mijozlar bazasini kengaytirish va bank xizmatlari samaradorligi oshirish tijorat banklari uchun strategik ustuvor vazifalarga aylandi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda jumladan, O‘zbekistonda mijozlar bazasini kengaytirish orqali tijorat banklarning samaradorligini oshirish masalasi yetarlicha o‘rganilmaganligicha qolmoqda.

Bank sektorida raqobatning kuchayishi sharoitida mijozlarni jalb qilish va saqlab qolish tijorat banklari uchun eng muhim strategik muammolardan biriga aylandi. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi va moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi mijozlar bazasini kengaytirish va xizmatlarni yetkazib berishni yaxshilash imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Shuning uchun mijozlar bazasini kengaytirish orqali bank samaradorligini oshirish nafaqat nazariy jihatdan ahamiyatli, balki amalda ham juda muhimdir. Ushbu maqola tijorat banklariga samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishda, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda va mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq tushunishda yordam berishi mumkin.

Bank xizmatlari samaradorligini oshirish, mijozlar bazasini kengaytirish va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish masalalari xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilganligini alohida ta‘kidlashimiz lozim. Ilmiy adabiyotlarda va xorijiy tadqiqot ishlarida asosan xizmat sifati, mijozlar ishonchi, qoniqishi, sodiqligi, raqamli bank xizmatlari hamda CRM tizimlari nuqtai nazaridan o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda quyida ayrim olimlarni ishlariga to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik.

Xizmat sifati nazariyasining asoschilari hisoblangan Parasuraman, Zeithaml va Berry [1] tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli bank xizmatlari sifatini baholashning eng muhim nazariy yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Mualliflar xizmat sifati ishonchlilik, javob qaytarish

tezligi, kafolat, hamdardlik va moddiy omillar kabi beshta asosiy o‘lcham orqali shakllanishini asoslab berganlar. Ularning xulosalariga ko‘ra, xizmat sifati darajasining yuqori bo‘lishi mijozlar qoniqishi va xizmatlardan foydalanish darajasini oshiradi. Davis tomonidan taklif etilgan Technology Acceptance Model (TAM) raqamli xizmatlardan foydalanishni tushuntiruvchi muhim nazariy model hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra, texnologiyaning qabul qilinishi uning foydaliligi va foydalanish qulayligi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv keyinchalik internet-banking va mobil banking xizmatlarini tadqiq qilishda keng qo‘llanilgan[2].

Grönroos munosabatlar marketingi nazariyasini rivojlantirib, banklar uchun mijozlarni jalb qilishdan ko‘ra ularni saqlab qolish iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini ta’kidlagan. Olimning fikricha, uzoq muddatli munosabatlar bankning raqobatbardoshligi va daromadlilikini ta’minlaydi [3]. Payne va Frow tomonidan ishlab chiqilgan CRM konsepsiyasi mijozlar bilan munosabatlarni strategik boshqarish orqali tashkilot samaradorligini oshirish imkonini berishini ko‘rsatgan[4]. Mualliflar CRM tizimlari orqali mijozlarni sementatsiya qilish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va individual xizmatlar taklif etish mumkinligini asoslab berganlar.

Kumar Customer Lifetime Value konsepsiyasini rivojlantirib, yuqori qiymatga ega mijozlar bank daromadlarining asosiy manbai hisoblanishini ta’kidlagan. Uning tadqiqotlarida mijozlarning uzoq muddatli iqtisodiy qiymatini baholash orqali bank resurslaridan samarali foydalanish mumkinligi isbotlangan [5].

Rossiyalik olim A.V. Mikryukov bank mijozlar bazasini bankning mavjud va potensial mijozlaridan iborat tizimlashtirilgan majmua sifatida talqin qiladi. Muallifning fikricha, sifatli mijozlar bazasining mavjudligi tijorat bankining barqaror faoliyat yuritishi, ishonchliligi va likvidligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir [6].

Rossiyalik olimlar Svetlana Karpova, Victoria Panyukova, Irina Rozhkova va M. Bogatyrevalarning tadqiqotlari bank xizmatlari bozorida mijoz omilining strategik ahamiyatiga qaratilgan. Xususan, S. Karpova va V. Panyukova bank xizmatlari raqobatbardoshligini ta’minlashda mijozlarning xulq-atvori hamda raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasining muhimligini asoslab berganlar. I. Rozhkova bank marketingi va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish masalalarini tadqiq etib, mijozlar ehtiyojlarini chuqur o‘rganish bank xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi. M. Bogatyreva esa bank tizimida mijozlar ishonchining shakllanishi va uni mustahkamlash masalalarini o‘rganib, mijozlar ishonchi bank faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. [7] Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari bank mijozlari bazasini shakllantirish, rivojlantirish va samarali boshqarish bank xizmatlari sifatini oshirish hamda banklarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham bank xizmatlari samaradorligi va mijozlarga yo‘naltirilgan faoliyat masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, Sh.A. Abdullayeva tijorat banklari faoliyatida mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish banklarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi[16]. O.I. Iminov esa bank tizimi samaradorligini oshirishda mijozlar ehtiyojlariga mos bank mahsulotlari va xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi[17]. A.V. Vahobov moliyaviy xizmatlar bozorida mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuv banklarning bozor pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qilishini asoslaydi [18]. B.Yu. Xodiyev xizmatlar sektorini rivojlantirishda iste’molchilar talabini chuqur o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi [19]. Sh.I. Mustafaqulov esa raqamli texnologiyalar asosida bank xizmatlarini modernizatsiya qilish va mijozlar uchun qulay moliyaviy xizmatlar yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratadi [20]. Yuqoridagi mahalliy olimlarimiz o‘zlarining darsliklarida, monografiyalarida, maqolalarida tadqiq qilganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu maqola tijorat banklarida mijozlar bazasini kengaytirishning nazariy asoslarini va uning bank xizmatlari samaradorligini oshirishga qo‘shgan hissasini o‘rganish uchun sifatli tadqiqot yondashuvlari keltirib o‘tilgan. Tadqiqot so‘rovnoma ma’lumotlariga yoki statistik tahlilga tayanish o‘rniga mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish va tanqidiy baholashga asoslangan.

Ushbu maqolada maqsadiga erishish uchun adabiyotlarni ko‘rib chiqish, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, sintez va umumlashtirish kabi bir qancha ilmiy usullar qo‘llanildi. Tahlil mahalliy va

xalqaro olimlarning nashrlari, kitoblar, ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqilgan jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va bank sektoriga tegishli me‘yoriy hujjatlarga asoslanadi. Ushbu manbalar mijozlar bazasini kengaytirish, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish va bank xizmatlari samaradorligi tushunchalarini keng tushunish uchun tanlangan.

Bir necha tadqiqotlar xizmat sifati, ishonch, xavfsizlik va kirish qulayligini raqamli bank muhitida mijozlarning xulq-atvor niyatlaring asosiy omillari sifatida aniqladi. Xizmat sifati mijozlarning bank faoliyati va umumiy tajribasi haqidagi tasavvurlariga ta’sir qiladi, ishonch esa mavjud noaniqlikni kamaytiradi hamda raqamli tranzaksiyalarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Xavfsizlik mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlarini himoya qilish uchun juda muhim omillardan biri hisoblanib, kirish qulayligi esa qulaylikni oshiradi va qayta foydalanishga undaydi. Birgalikda bu omillar mijozlar ehtiyojini qondirish va mijozlarning raqamli bank xizmatlaridan foydalanishdagi ahamiyati kattadir.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqot ishlari natijalari shundan dalolat beradiki, tijorat banki mijozlar bazasi tushunchasi vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada rivojlandi. Avvalgi tadqiqotlar asosan mijozlar bazasini bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar to‘plami sifatida belgilagan. Biroq, so‘nggi tadqiqotlar uni bankning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, daromadlilikligi va barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan strategik nomoddiy aktiv deb hisoblaydi. Bu o‘zgarish tobora raqobatbardosh moliyaviy muhitda mijozlarga yo‘naltirilgan bank strategiyalarining ahamiyati ortib borayotganini aks ettiradi.

Qiyosiy tahlil shuningdek, tadqiqotchilar o‘rtasida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning strategik ahamiyati borasida keng kelishuv mavjudligini ko‘rsatadi. Turli mualliflar turli terminologiyalardan foydalanishsa-da, ular doimiy ravishda yangi mijozlarni jalb qilish mijozlar bazasini rivojlantirishning faqat bitta komponenti ekanligini ta’kidlaydilar. Mijozlarni saqlab qolish, munosabatlar sifati, mijozlarga sodiqlik va uzoq muddatli qiymat yaratishga teng ahamiyat beriladi. Binobarin, mijozlar bazasini kengaytirish nafaqat mijozlar sonini ko‘paytirish, balki banklar va ularning mijozlari o‘rtasidagi munosabatlar sifatini mustahkamlash sifatida ham qaralishi kerak.

Yana bir muhim topilma mijozlar sementatsiyasiga tegishli. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, mijozlar bazasini samarali boshqarish mijozlarni huquqiy maqomi, iqtisodiy xususiyatlari, moliyaviy qiymati va xulq-atvor naqshlariga ko‘ra tasniflashni talab qiladi. Bunday sementatsiya tijorat banklariga turli mijozlar guruhlarining ehtiyojlariga yaxshiroq mos keladigan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish imkonini beradi va shu bilan xizmat ko‘rsatish samaradorligi va mijozlar ehtiyojini qondirishni oshiradi.

Mijozlar bazasining kengayishiga ichki, tashqi, texnologik va mijozlar bilan bog‘liq omillarning kombinatsiyasi ta’sir qiladi. Ichki omillarga xizmat ko‘rsatish sifati, mahsulot xilma-xilligi, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish, marketing faoliyati, korporativ imij va xodimlarning malakasi kiradi. Tashqi omillar asosan makroiqtisodiy sharoitlar, moliyaviy inklyuzivlik, tartibga solish siyosati va raqobat bosimi bilan bog‘liq. Texnologik omillar raqamli bankchalik, mobil bankchalik, fintech ilovalari va xavfsiz onlayn xizmatlarning rivojlanishi bilan bog‘liq, mijozlar bilan bog‘liq omillar esa ishonch, moliyaviy savodxonlik, daromad darajasi, demografik xususiyatlar va oldingi bank tajribasini o‘z ichiga oladi. Bu omillarni mustaqil ravishda ko‘rib chiqmaslik kerak, chunki ular mijozlarni jalb qilish va saqlab qolish strategiyalarini shakllantirishda bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar xizmat ko‘rsatish sifati, mijozlar ehtiyojini qondirish, ishonch, raqamli bankchalik va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning bank faoliyatiga ta’sirini keng o‘rganib chiqdi. Biroq, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, xususan, O‘zbekiston sharoitida mijozlar bazasining kengayishi va bank xizmatlari samaradorligi o‘rtasidagi keng qamrovli bog‘liqlikka cheklangan e’tibor qaratildi. Avvalgi tadqiqotlarning aksariyati tashkiliy, texnologik, ekologik va mijozlar bilan bog‘liq o‘lchovlarni birlashtirgan integratsiyalashgan asosni taqdim etish o‘rniga individual determinantlarga qaratilgan.

Ushbu topilmalarga asoslanib, mijozlar bazasini kengaytirish ichki boshqaruv amaliyotlari, texnologik innovatsiyalar, tashqi muhit sharoitlari va mijozlar xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasi sifatida qaraladigan konseptual asos taklif qilinishi mumkin. Ushbu o‘lchovlarni bir vaqtning

o‘zida kuchaytirish mijozlarni jalb qilishni ko‘paytirish, mijozlarni saqlab qolishni kuchaytirish, xizmatlardan foydalanishni kengaytirish va tijorat banklarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlash orqali bank xizmatlari samaradorligini oshirishi kutilmoqda.

Tijorat banklarida mijozlar bazasini kengaytirishning nazariy-metodologik asoslarini o‘rgangan holda quyidagicha xulosa qilindi:

1. Mijozlar bazasi tushunchasi vaqt o‘tishi bilan oddiy "mijozlar ro‘yxati"dan bankning strategik nomoddiy aktivi darajasiga ko‘tarilgan.

2. Mijozlar bazasini kengaytirishga ta’sir etuvchi omillarni to‘rt guruhga — ichki, tashqi, texnologik va mijoz bilan bog‘liq omillarga ajratish mumkin, ular o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi.

3. Mavjud mijozlarni saqlab qolish yangi mijozlarni jalb qilishga nisbatan iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo‘lib, bu bank rentabelligini oshirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

4. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, jumladan O‘zbekiston misolida, mijozlar bazasini kengaytirish va bank xizmatlari samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rgangan kompleks tadqiqotlar yetarli emas.

Shu asosda yuqoridagilarga fikrlarga asoslangan holda umumlashtirsak: mijozlarni sementatsiya qilishda xulq-atvor va sodiqlik ko‘rsatkichlariga tayanish, CRM tizimlarini chuqurroq joriy etish, raqamli xizmatlar xavfsizligini kuchaytirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni rivojlantirish lozim. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu nazariy asosga tayanib, O‘zbekiston tijorat banklari misolida empirik tahlil o‘tkazish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. – Pearson, 2016.
2. Blattberg R., Getz G., Thomas J. Customer Equity: Building and Managing Relationships as Valuable Assets. – Harvard Business School Press, 2001.
3. Payne A. Handbook of CRM: Achieving Excellence in Customer Management. – Butterworth-Heinemann, 2006.
4. Buttle F. Customer Relationship Management: Concepts and Technologies. – Routledge, 2019.
5. Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality // Journal of Retailing. – 1988. – Vol. 64, No. 1. – P. 12–40.
6. Davis F.D. Perceived Usefulness, Perceived Ease of Use, and User Acceptance of Information Technology // MIS Quarterly. – 1989. – Vol. 13, No. 3. – P. 319–340.
7. Grönroos C. From Marketing Mix to Relationship Marketing: Towards a Paradigm Shift in Marketing // Management Decision. – 1994. – Vol. 32, No. 2. – P. 4–20.
8. Payne A., Frow P. A Strategic Framework for Customer Relationship Management // Journal of Marketing. – 2005. – Vol. 69, No. 4. – P. 167–176.
9. Kumar V. Managing Customers for Profit: Strategies to Increase Profits and Build Loyalty. – Wharton School Publishing, 2008.
10. Hossain M.A., Yesmin M.N., Jahan N., Kim M. Effects of Service Justice, Quality, Social Influence and Corporate Image on Service Satisfaction and Customer Loyalty // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 13. – 7404 p.
11. Zhengmeng C., Malik M., Hussain M., Hussain S. Exploring Customer Retention Dynamics: A Comparative Investigation of Factors Affecting Customer Retention in the Banking Sector // Heliyon. – 2024. – Vol. 10, No. 18. – e37778.
12. Law S.H., Singh N. Does Too Much Finance Harm Economic Growth? // Journal of Banking & Finance. – 2014. – Vol. 41. – P. 36–44.
13. Ozili P.K. Financial Inclusion and Inclusive Growth: A Review of Recent Empirical Evidence // Journal of Financial Economic Policy. – 2021. – Vol. 13, No. 3. – P. 321–339.
14. Shaikh A.A., Karjaluoto H. Mobile Banking Adoption: A Literature Review // Telematics and Informatics. – 2015. – Vol. 32, No. 1. – P. 129–142.

15. Alalwan A.A., Dwivedi Y.K., Rana N.P., Williams M.D. Examining Factors Affecting Customer Intention and Adoption of Internet Banking in Jordan // Information Systems Management. – 2017. – Vol. 33, No. 2. – P. 154–178.
16. Abdullayeva Sh.A. Pul, kredit va banklar. – Toshkent.
17. Iminov O.I. Bank ishi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent.
18. Vahobov A.V. Moliya. – Toshkent.
19. Xodiyev B.Yu. Xizmatlar iqtisodiyoti. – Toshkent.
20. Mustafaulov Sh.I. Raqamli iqtisodiyot va bank xizmatlari. – Toshkent.
21. World Bank. Global Findex Database 2025. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2025.

**УДК: 339.54**

**ИССЛЕДОВАНИЕ ПО ВОПРОСАМ СОВМЕСТНОГО РАЗВИТИЯ ИНДУСТРИИ  
ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ МЕЖДУ ПЕКИНОМ И ТАШКЕНТОМ В РАМКАХ  
«ЦИФРОВОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ»**

**«RAQAMLI IPAK YO‘LI» DOIRASIDA PEKIN VA TOSHKENT O‘RTASIDA  
ELEKTRON TIJORAT INDUSTRIYASINI BIRGALIKDA RIVOJLANTIRISH  
MASALALARI BO‘YICHA TADQIQOT**

**RESEARCH ON THE JOINT DEVELOPMENT OF THE E-COMMERCE INDUSTRY  
BETWEEN BEIJING AND TASHKENT WITHIN THE FRAMEWORK OF THE  
«DIGITAL SILK ROAD»**

**Wang Jiahao**

National University of Uzbekistan, independent researcher PhD.

**Аннотация**

По мере развития инициативы «Цифровой Шелковый путь» скоординированное развитие индустрии электронной коммерции между Пекином и Ташкентом стало одним из основных путей содействия цифровому экономическому сотрудничеству между Китаем и Узбекистаном. Скоординированное развитие способствует повышению качества цифровой торговли, укреплению устойчивости региональных производственных цепочек и развитию культурного обмена. Однако сохраняются серьезные препятствия, включая несовместимые стандарты цифровых технологий, отсутствие трансграничной защиты интеллектуальной собственности, различия в потребительской культуре и осведомленности, а также несоответствие концепций «зеленого» развития. Поэтому в данной статье предлагаются несколько целенаправленных стратегий развития, направленных на создание эффективной, инновационной, инклюзивной и устойчивой системы трансграничного сотрудничества в сфере электронной коммерции.

**Ключевые слова:** Цифровой Шелковый путь; Пекин; Ташкент; Совместное развитие индустрии электронной коммерции

Raqamli Ipak Yo‘li tashabbusi rivojlanib borar ekan, Pekin va Toshkent o‘rtasida elektron tijorat sanoatining muvofiqlashtirilgan rivojlanishi Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida raqamli iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Ushbu muvofiqlashtirilgan rivojlanish raqamli savdo sifatini yaxshilashga, mintaqaviy ta‘minot zanjiri barqarorligini mustahkamlashga va madaniy almashinuvlarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Biroq, raqamli texnologiyalar standartlarining nomuvofiqligi, transchegaraviy intellektual mulkni himoya qilishning yo‘qligi, iste‘molchilar madaniyati va xabardorligidagi farqlar va nomuvofiq yashil rivojlanish konsepsiyalari kabi jiddiy to‘siqlar saqlanib qolmoqda. Shuning uchun, ushbu maqolada samarali, innovatsion,

inklyuziv va barqaror transchegaraviy elektron tijorat hamkorlik tizimini yaratishga qaratilgan bir nechta maqsadli rivojlanish strategiyalari taklif qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli Ipak Yo‘li; Pekin; Toshkent; Elektron tijorat sanoatini birgalikda rivojlantirish

As the Digital Silk Road initiative develops, the coordinated development of the e-commerce industry between Beijing and Tashkent has become a key avenue for promoting digital economic cooperation between China and Uzbekistan. This coordinated development contributes to the improvement of digital trade quality, the strengthening of regional supply chain resilience, and the development of cultural exchanges. However, significant obstacles remain, including incompatible digital technology standards, the lack of cross-border intellectual property protection, differences in consumer culture and awareness, and inconsistent green development concepts. Therefore, this article proposes several targeted development strategies aimed at creating an effective, innovative, inclusive, and sustainable cross-border e-commerce cooperation system.

**Keywords:** Digital Silk Road; Beijing; Tashkent; Joint Development of the E-Commerce Industry

Глобальная цифровая экономика стремительно развивается, и Цифровой Шелковый путь является важной составляющей инициативы «Один пояс, один путь», а также значительной движущей силой развития трансграничного регионального сотрудничества и преобразования ландшафта международной торговли. Центральная Азия, расположенная в самом сердце Евразии, является одним из узлов, простирающихся на запад вдоль Цифрового Шелкового пути. Узбекистан, самая густонаселенная страна и экономический центр Центральной Азии, ускоряет свою интеграцию в глобальную сеть цифровой экономики, имея в качестве столицы Ташкент. Пекин, являющийся национальным эталоном цифровой экономики, обладает относительно развитой экосистемой электронной коммерции, хорошо развитой системой цифровых технологий и богатым международным опытом работы, играя роль в экспорте технологий и являясь образцом для подражания в построении Цифрового Шелкового пути. На этом фоне исследование стратегий совместного развития индустрии электронной коммерции в Пекине и Ташкенте может обогатить теоретическое содержание трансграничного регионального сотрудничества в области цифровой экономики и предоставить практические рекомендации для содействия построению китайско-центральноазиатского сообщества с общим будущим и достижения высококачественного развития Цифрового Шелкового пути.

I. Ценность совместного развития индустрии электронной коммерции между Пекином и Ташкентом в рамках «Цифрового шелкового пути».

(I) Содействовать модернизации двусторонней цифровой торговли и созданию нового эталона сотрудничества в сфере электронной коммерции на Шелковом пути.

На фоне «Цифрового шелкового пути» совместное развитие электронной коммерции между Пекином и Ташкентом может преодолеть ограничения традиционной торговли товарами — мелкомасштабность и низкую добавленную стоимость — и трансформировать двустороннее экономическое и торговое сотрудничество из простого «товарного обмена» в «цифровое развитие». Пекин, являющийся национальным эталоном цифровой экономики, обладает комплексными возможностями для функционирования платформ электронной коммерции, передовыми методами цифровых платежей и развитой интеллектуальной логистической сетью. Ташкент, как наиболее перспективный цифровой потребительский рынок в Центральной Азии, может похвастаться большим количеством молодого населения и высоким уровнем проникновения мобильного интернета, что предоставляет широкие возможности для применения цифровой торговли. Используя сотрудничество в сфере электронной коммерции в качестве связующего звена, два города могут точно соединить преимущества цифровых технологий Пекина с рынком спроса Ташкента, способствуя трансформации трансграничной электронной коммерции от простой товарной торговли к полномасштабному цифровому сотрудничеству, включающему цифровой маркетинг, интеллектуальное складирование, трансграничные расчеты и послепродажное обслуживание.

Эта модель сотрудничества может повысить уровень упрощения и устойчивости двусторонней торговли, а также предоставить воспроизводимую и масштабируемую практическую модель цифрового торгового сотрудничества между Китаем и другими странами Центральной Азии. Она будет способствовать развитию «электронной коммерции Шелкового пути» как ведущей силы и ключевого бренда экономического и торгового сотрудничества между Китаем и Центральной Азией в новую эпоху. С 2020 по 2024 год масштабы электронной коммерции и двусторонней торговли между Пекином и Узбекистаном (с Ташкентом в качестве основного потребительского рынка) демонстрировали устойчивую тенденцию роста. Ключевые данные представлены в таблице 1 ниже.

**Таблице 1**

**Основные данные по электронной коммерции и двусторонней торговле между Пекином и Узбекистаном (основной рынок Ташкента)**

| годы | Общий объем трансграничного импорта и экспорта электронной коммерции из Пекина. (100 миллионов юаней) | Трансграничная электронная торговля Китая с Узбекистаном (млрд долларов США) | Размер рынка электронной коммерции Узбекистана (млрд долларов США) | Объемы импорта и экспорта товаров Пекина в Узбекистан. (млрд долларов США) |
|------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| 2020 | 32.05                                                                                                 | 2.10                                                                         | 0,80                                                               | 12.30                                                                      |
| 2021 | 35.80                                                                                                 | 2.80                                                                         | 1.20                                                               | 15.60                                                                      |
| 2022 | 39.90                                                                                                 | 3.60                                                                         | 1.80                                                               | 18.90                                                                      |
| 2023 | 44.50                                                                                                 | 4.20                                                                         | 2.20                                                               | 22.40                                                                      |
| 2024 | 49.10                                                                                                 | 5.10                                                                         | 3.00                                                               | 20.10                                                                      |

(Источник данных:

Общий объем трансграничного электронного импорта и экспорта Пекина: веб-сайт Народного правительства города Пекина (Столичное окно) <https://www.beijing.gov.cn/>, Информационная платформа «Две зоны» Пекина <https://open.beijing.gov.cn/>. Данные за 2024 год являются официально опубликованными значениями, а данные за 2020-2023 годы рассчитаны на основе официального среднегодового темпа роста.

Объем трансграничной электронной торговли Китая с Узбекистаном: расчеты произведены Экономическим и коммерческим отделом Посольства Китайской Народной Республики в Республике Узбекистан (<https://uz.mofcom.gov.cn/>), с учетом общего объема двусторонней торговли между Китаем и Узбекистаном и доли трансграничной электронной торговли. Размер рынка электронной коммерции в Узбекистане: Согласно данным Национального статистического управления Узбекистана (<https://stat.uz/>) и общедоступным данным индустрии трансграничной электронной коммерции, на Ташкент приходится приблизительно 70% рынка, что делает его ключевым потребительским рынком электронной коммерции в Узбекистане.

Объемы импорта и экспорта товаров между Пекином и Узбекистаном: рассчитано на основе данных из глобальной экономической базы данных CEIC (<https://www.ceicdata.com/>) и официальных данных, опубликованных Пекинской таможней.

(II) Содействовать интеграции региональных промышленных и логистических цепочек и повышать устойчивость цифровой экономики Центральной Азии.

Совместное развитие индустрии электронной коммерции по сути представляет собой цифровую реконструкцию производственных и логистических цепочек, что имеет огромное значение для повышения экономической автономии и устойчивости Центральной Азии. Долгое время страны Центральной Азии находились на периферии глобальной производственной цепочки, имея слабую интеграцию между местным производством и цифровыми услугами, что делало их цепочки поставок уязвимыми для внешних потрясений.

Сотрудничество в сфере электронной коммерции между Пекином и Ташкентом может, исходя из рыночного спроса, способствовать модернизации вспомогательных отраслей, таких как переработка сельскохозяйственной продукции, легкая промышленность, упаковка и логистика в Ташкенте и окрестностях, создавая таким образом региональную замкнутую производственную цепочку «платформа электронной коммерции + местное производство + трансграничное оборотное производство». Экспорт цифровых технологий из Пекина может помочь Ташкенту создать локализованную систему управления цепочками поставок и промышленную интернет-платформу, снизив зависимость от отдельных внешних каналов и укрепив цифровое управление и скорость реагирования на чрезвычайные ситуации в производственной цепочке. Интеграция производственных цепочек на основе сотрудничества в сфере электронной коммерции может усилить внутренний импульс развития цифровой экономики Узбекистана и заложить основу для безопасной, стабильной и эффективной региональной системы цифровых цепочек поставок для всего Центральноазиатского региона, смягчая системные риски, вызванные глобальными экономическими и торговыми колебаниями.

(III) Углублять культурный обмен и связи между людьми для укрепления социальной основы цифрового Шелкового пути.

Создание Цифрового Шелкового пути — это не просто вопрос технологического и экономического сотрудничества, но и процесс взаимного обучения между цивилизациями и социальных связей. Сотрудничество в сфере электронной коммерции является основным средством достижения этой цели. Платформы электронной коммерции по своей природе обладают атрибутами распространения культуры и общественного служения. Сотрудничество в сфере электронной коммерции между Пекином и Ташкентом позволяет в цифровом формате доставлять уникальные товары, культурные символы и образ жизни из обоих регионов людям друг друга, позволяя узбекским потребителям знакомиться с китайской культурой во время покупок, а китайским потребителям — узнавать об обычаях и традициях Центральной Азии через трансграничные товары, тем самым устраняя когнитивные различия, вызванные географическими, информационными и другими барьерами. Серия мероприятий, генерируемых в рамках сотрудничества в сфере электронной коммерции, таких как обучение цифровым навыкам, инкубация молодежного предпринимательства и трансграничные онлайн-трансляции, предоставляют платформу для прямого общения между людьми обоих регионов, особенно молодежью, способствуя изучению языков, обмену навыками и эмоциональному обмену. Обмены между людьми, ориентированные на средства к существованию людей и связанные рынком, являются более устойчивыми и распространенными, чем традиционные официальные обмены. Они могут эффективно устранить культурные недоразумения, укрепить взаимное доверие, заложить основу общественного мнения для долгосрочного развития Цифрового Шелкового пути и обеспечить, чтобы экономическое и торговое сотрудничество действительно основывалось на общих интересах и эмоциональной близости народов обеих стран.

II. Препятствия на пути совместного развития индустрии электронной коммерции между Пекином и Ташкентом в рамках «Цифрового шелкового пути».

(i) Несовместимость систем стандартов цифровых технологий ограничивает трансграничную трансформацию и применение технологических достижений.

Цифровой Шелковый путь основан на инфраструктурной взаимосвязи, однако несовместимость базовых технических стандартов между экосистемами электронной коммерции Пекина и Ташкента подрывает эту основу. Пекинские платформы электронной коммерции создали относительно зрелые и стандартизированные системы для кодирования товаров, обработки платежей и отслеживания логистики. Однако локальные системы Ташкента в основном используют российские или западные архитектуры, что приводит к значительным различиям в форматах данных, интерфейсах API и протоколах IoT по сравнению с китайскими стандартами. Этот фундаментальный конфликт препятствует прямой интеграции пекинских SaaS-систем и программного обеспечения для интеллектуального

складирования в локальные платформы, что влечет за собой высокие затраты на вторичную адаптацию. Что еще более важно, инициативы Цифрового Шелкового пути по трансграничному обмену данными и взаимному признанию электронных документов не имеют общих стандартов, создавая информационные разрозненные системы. Это не только препятствует масштабной трансформации достижений цифровых технологий в Пекине, но и ограничивает промышленное сотрудничество поверхностной торговлей товарами, не позволяя достичь глубокой интеграции технологической экосистемы, к которой стремится Цифровой Шелковый путь. Физическая взаимосвязь инфраструктуры не может быть преобразована в осязаемое цифровое сотрудничество.

(ii) Отсутствие трансграничной защиты цифровой интеллектуальной собственности препятствует готовности предприятий к сотрудничеству в области инноваций.

«Цифровой шелковый путь» рассматривает совместные инновации как перспективное направление для сотрудничества в сфере электронной коммерции; однако отсутствие институциональных гарантий трансграничной защиты цифровой интеллектуальной собственности препятствует формированию намерений к сотрудничеству между предприятиями по обе стороны. Правила в Китае и Узбекистане значительно различаются. В Китае создана целостная институциональная система, охватывающая алгоритмы, данные и цифровые авторские права, в то время как законодательство Узбекистана в основном сосредоточено на традиционных товарных знаках и патентах, не затрагивая алгоритмы платформ, модели рекомендаций и трансграничные права на производные данные. В правоприменении отсутствуют механизмы трансграничного мониторинга нарушений, сбора электронных доказательств и совместной ответственности, что затрудняет расследование контрафактной продукции, злонамеренного присвоения товарных знаков и пиратства. Пекинские предприятия сталкиваются с риском утечки ключевых технологий при экспорте своих основных технологий, в то время как ташкентские предприятия испытывают трудности с защитой своих прав в процессе совместного создания технологий. Отсутствие институциональных правил нарушает инновационную философию Цифрового Шелкового

**Таблица 2**

**Основные данные, касающиеся защиты цифровой интеллектуальной собственности в Пекине и Узбекистане (Ташкенте)**

| годы | Количество дел о нарушении прав интеллектуальной собственности в сфере трансграничной электронной коммерции, поданных в Пекине. | Количество жалоб на нарушения законодательства в сфере электронной коммерции, поступивших от компаний из Пекина в Урумчи (дело) | Расследованные и возбужденные в масштабах всей Узбекистана дела о нарушении авторских прав в цифровой среде (количество дел) | Количество статей в законодательстве Узбекистана, специально посвященных защите цифровых авторских прав/алгоритмов (статьи) | Количество специальных нормативных актов по правам цифровой интеллектуальной собственности в Пекине (полоска) |
|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 2020 | 126                                                                                                                             | 37                                                                                                                              | 81                                                                                                                           | 0                                                                                                                           | 42                                                                                                            |
| 2021 | 173                                                                                                                             | 62                                                                                                                              | 887                                                                                                                          | 1                                                                                                                           | 48                                                                                                            |
| 2022 | 219                                                                                                                             | 95                                                                                                                              | 1209                                                                                                                         | 1                                                                                                                           | 53                                                                                                            |
| 2023 | 264                                                                                                                             | 131                                                                                                                             | 1563                                                                                                                         | 2                                                                                                                           | 59                                                                                                            |
| 2024 | 307                                                                                                                             | 168                                                                                                                             | 1846                                                                                                                         | 3                                                                                                                           | 65                                                                                                            |

(Источник данных:

Пути, ограничивая сотрудничество низкобюджетной перепродажей и препятствуя развитию до более высоких форм, таких как совместные исследования и разработки и создание брендов, тем самым снижая инновационный потенциал Цифрового Шелкового Пути. С 2020 по 2024 год, по мере того как Пекин продолжал расширять свой трансграничный бизнес электронной коммерции с Украиной, двусторонние споры о нарушении прав на цифровую интеллектуальную собственность ежегодно увеличивались. Разрыв между двумя странами в

сфере законодательства о цифровой интеллектуальной собственности и их способности рассматривать трансграничные дела продолжал оставаться значительным. Основные сравнительные данные представлены в таблице 2.

Количество дел о трансграничной электронной коммерции, связанных с зарубежными правами на цифровую интеллектуальную собственность, поданных в Пекине; Количество специальных нормативных актов о правах на цифровую интеллектуальную собственность в Пекине:

Данная информация была собрана с веб-сайтов Государственного управления интеллектуальной собственности (<https://www.cnipa.gov.cn/>), Пекинского суда по интеллектуальной собственности (<https://www.bjipcourt.court.gov.cn/>) и Пекинского муниципального управления по регулированию рынка (<https://scj.beijing.gov.cn/>) на основе опубликованных за предыдущие годы судебных документов по вопросам интеллектуальной собственности и специальных отчетов о правоприменении в сфере трансграничной электронной коммерции.

Количество жалоб на нарушения законодательства в сфере электронной коммерции, поступивших от компаний из Пекина в Урумчи:

Экономико-торговое управление Посольства Китайской Народной Республики в Республике Узбекистан (<https://uz.mofcom.gov.cn/>), Ежегодный отчет о рисках китайско-узбекских экономико-торговых предприятий;

Расследования нарушений авторских прав в цифровой среде в масштабах всей страны в Узбекистане:

Repost.uz (официальная финансовая информационная платформа Узбекистана) <https://repost.uz/mike-marui-prochiy-fake>, ежегодные данные о борьбе с нарушениями законодательства в интернете, опубликованные Министерством юстиции Узбекистана;

Количество законов о защите цифровых авторских прав/алгоритмов в Узбекистане:

LEX.UZ (База данных законов и нормативных актов Узбекистана) <https://lex.uz/>, а также «Отчет о развитии интеллектуальной собственности в Центральной Азии до 2025 года» Шэньчжэньского центра защиты интеллектуальной собственности <http://www.szipsr.org.cn/attachment/0/97/97874/1644346.pdf>.

(iii) Значительные различия в культуре и восприятии цифрового потребления препятствуют внедрению локализованных моделей работы.

Социальная основа Цифрового Шелкового пути – это межличностные связи. Однако глубоко укоренившиеся различия в культуре цифрового потребления между Пекином и Ташкентом препятствуют локализации моделей работы электронной коммерции. В Пекине сформировалась экосистема цифрового потребления, основанная на алгоритмах и доминирующая в прямых трансляциях, в то время как потребители Ташкента, находящиеся под влиянием культуры базаров и сплоченных сообществ, полагаются на межличностное доверие и опыт покупок в офлайн-магазинах при совершении трансграничных покупок, что вызывает опасения по поводу гарантий послепродажного обслуживания. Популярными внутри страны методами, такими как короткие видеорекомендации и распродажи, сталкиваются в Ташкенте с проблемами, такими как религиозные табу, эстетические различия и несовпадающие социальные привычки, что делает простое воспроизведение таких методов чревато неудачей. Различия в восприятии стилей обслуживания клиентов, ожиданий возврата и обмена товаров, а также ритма праздников могут быть решены только с помощью профессиональных локализованных команд и межкультурной поддержки данных, но в настоящее время наблюдается нехватка специализированных кадров и соответствующих данных. Культурные барьеры препятствуют конкретной реализации концепции «Цифрового шелкового пути» — взаимодействия между людьми, затрудняют внедрение и промышленное развитие сотрудничества в секторе электронной коммерции, а также оставляют инфраструктурную взаимосвязь и совместные инновации без прочной социальной основы.

(iv) Концепции «зеленого» и цифрового развития еще не согласованы, что ограничивает расширение пространства для устойчивого сотрудничества.

«Зеленое» развитие является ключевым руководящим принципом «Цифрового шелкового пути», однако несоответствие концепций «зеленой» цифровой экономики между Пекином и Ташкентом препятствует устойчивому развитию сотрудничества в сфере электронной коммерции. Пекин установил строгие правила в таких областях, как «зеленые» центры обработки данных, циклическая упаковка и низкоуглеродная логистика, но электронная коммерция в Ташкенте все еще находится на стадии расширения, политика сосредоточена на проникновении на рынок и охвате инфраструктуры, уделяя недостаточно внимания таким вопросам, как чрезмерная упаковка и высокое энергопотребление. В обеих странах отсутствует механизм взаимного признания сертификации «зеленой» упаковки, учета углеродного следа и определения ответственности в рамках циклической экономики, что приводит к трудностям с соблюдением требований и финансовым недостаткам для пекинских компаний, внедряющих «зеленые» цепочки поставок. Рыночная осведомленность Ташкента о «зеленом» потреблении все еще находится на ранней стадии, наблюдается низкая готовность к экологическим премиям, что приводит к отсутствию рыночного импульса для «зеленого» сотрудничества. Этот концептуальный разрыв отклоняется от «зеленой» основы «Цифрового шелкового пути», потенциально приводя к зависимости от «высокого потребления и низкой эффективности» в двустороннем сотрудничестве. Такой подход не соответствует глобальной тенденции устойчивого развития в цифровой экономике, ослабляет долгосрочную устойчивость Цифрового Шелкового пути и препятствует устойчивому накоплению совместных достижений в других областях.

III. Стратегии совместного развития индустрии электронной коммерции в Пекине и Ташкенте в рамках «Цифрового шелкового пути»

(i) Совместно создать механизм взаимного признания стандартов цифровых технологий для ускорения двусторонней трансформации технологических достижений.

В связи с проблемой несовместимости стандартов цифровых технологий необходимо создать механизм взаимного признания технических стандартов электронной коммерции между Китаем и Узбекистаном, руководствуясь институциональной открытостью «Цифрового шелкового пути». Во-первых, следует создать совместную рабочую группу на основе структуры сотрудничества ШОС в области цифровой экономики. Необходимо провести сравнение стандартов и переговоры о взаимном признании в ключевых областях, таких как кодирование товаров, клиринг платежей и отслеживание логистики. Следует разработать двусторонние технические стандарты для обмена данными, чтобы облегчить поток заказов и взаимное признание электронных документов, тем самым укрепив инфраструктурную основу взаимосвязи «Цифрового шелкового пути». Во-вторых, следует содействовать пилотной технической интеграции между ведущими платформами Пекина и местными платформами Ташкента в комплексной пилотной зоне трансграничной электронной коммерции для проверки целесообразности взаимного признания стандартов перед их постепенным внедрением. В-третьих, в Ташкенте следует создать центр технической поддержки предприятий облачных сервисов для предоставления местным пользователям услуг технической интеграции и локализованной настройки решений, повышая доступность технических услуг. Наконец, следует поощрять участие технических групп Ташкента в деятельности сообщества открытого исходного кода электронной коммерции Пекина для достижения двустороннего обмена техническими знаниями. Опираясь на двойной механизм взаимного признания стандартов и адаптации технологий, мы ускорим широкомасштабное внедрение цифровых инструментов Пекина в Ташкенте, перейдем местные инновационные практики для обратной связи с технологическим развитием Пекина, сформируем взаимовыгодную ситуацию и превратим физическую связь Цифрового Шелкового пути в реальную движущую силу для сотрудничества в сфере электронной коммерции между двумя регионами.

(II) Создать трансграничную платформу для совместной защиты цифровой интеллектуальной собственности с целью стимулирования инноваций и сотрудничества.

Для восполнения пробела в трансграничной защите цифровой интеллектуальной собственности необходимо создать двусторонний механизм совместной защиты под руководством инновационного развития вдоль Цифрового Шелкового пути. С законодательной точки зрения, это могло бы способствовать согласованию правил между двумя странами в таких областях, как защита алгоритмов, авторское право на цифровые данные и права на производные данные, а также подписанию меморандумов о взаимопонимании, определяющих процедуры выявления нарушений и привлечения к ответственности, тем самым улучшая правила управления цифровой экономикой вдоль Цифрового Шелкового пути. С точки зрения платформы, сервисная платформа, совместно созданная Пекинским центром обмена интеллектуальной собственностью и Государственным управлением интеллектуальной собственности Узбекистана, могла бы предоставлять широкий спектр услуг, включая онлайн-мониторинг, электронный сбор доказательств и урегулирование споров, тем самым снижая затраты предприятий на защиту своих прав. С точки зрения правоприменения, необходимо создать совместный механизм правоприменения для содействия обмену информацией и совместному рассмотрению дел, а также применять совместные кредитные санкции и рыночные запреты в отношении лиц, неоднократно нарушающих права. Что касается стимулов, следует создать специальный фонд для оказания финансовой поддержки и налоговых льгот предприятиям, занимающимся совместным использованием торговых марок и патентов на технологии, стимулируя их готовность к инновациям и сотрудничеству. Необходимо применять системный подход для создания экосистемы защиты, охватывающей всю цепочку подтверждения, использования и обеспечения соблюдения прав, тем самым способствуя промышленному сотрудничеству в направлении сегментов с более высокой добавленной стоимостью, обеспечивая воспроизводимую институциональную модель для сотрудничества в сфере электронной коммерции вдоль Цифрового Шелкового пути и превращая инновационное сотрудничество в устойчивую движущую силу взаимодействия между двумя регионами.

(III) Провести исследование адаптации культуры цифрового потребления и оптимизировать стратегии локализованной деятельности.

Для решения проблем, связанных с различиями в восприятии культуры цифрового потребления, следует руководствоваться концепцией межличностных связей вдоль Цифрового Шелкового пути, проводя систематические исследования культурной адаптивности и совершенствуя стратегии. В области фундаментальных исследований необходимо сотрудничать с университетами и аналитическими центрами в обоих регионах для создания исследовательских центров, используя анализ больших данных и этнографические исследования для анализа различий в поведении потребителей, создания карты межкультурной психологии потребителей и предоставления данных для культурного обмена вдоль Цифрового Шелкового пути. В области оперативной адаптации можно помочь пекинской платформе улучшить интерфейс, скорректировать сценарии обслуживания клиентов, изменить методы представления контента, улучшить процесс проверки религиозных табу и изучить интеграцию онлайн- и офлайн-моделей, избегая непредвиденных проблем, связанных с переносом моделей. С точки зрения командообразования, можно внедрить программу обучения «местных оперативных сотрудников», отбирая людей с многосторонними способностями для выполнения функций лидеров локализации и предоставляя им определенную степень свободы принятия решений для обеспечения культурной адаптивности при реализации стратегии. С точки зрения обратной связи и итераций, нам следует создать систему мониторинга в реальном времени для обеспечения точности сопоставления данных и соответствующим образом корректировать и улучшать ее. Таким образом, продвигая пекинскую модель электронной коммерции посредством замкнутого цикла управления и интегрируя ее в культурный контекст рынка Ташкента, мы можем укрепить глубоко укоренившуюся синергию в отрасли, сделать межличностные связи социальной основой для сотрудничества в сфере электронной коммерции между двумя регионами и укрепить культурные основы Цифрового Шелкового пути.

(iv) Разработать руководящие принципы скоординированного развития экологически чистой электронной коммерции и расширить новые области устойчивого сотрудничества.

Для решения проблемы несоответствия концепций «зеленого» цифрового развития необходимо придерживаться ориентации на «зеленое» развитие «Цифрового Шелкового пути» и содействовать разработке и внедрению правил сотрудничества в сфере «зеленой» электронной коммерции между Китаем и Узбекистаном. Во-первых, следует совместно разработать руководящие принципы «зеленого» развития трансграничной электронной коммерции между Китаем и Узбекистаном, определив такие показатели, как сертификация «зеленой» упаковки, учет выбросов углерода и энергоэффективность центров обработки данных, создав двустороннюю систему взаимного признания сертификации и усовершенствовав рамочную основу «зеленых» правил «Цифрового Шелкового пути». Во-вторых, следует поощрять участие предприятий Пекина в строительстве «умного» логистического центра в Ташкенте, внедряя новые энергосберегающие транспортные средства и перерабатываемую упаковку, а также развертывая «зеленые» центры обработки данных с использованием технологии жидкостного охлаждения для сокращения выбросов углерода в трансграничной логистике и вычислительных мощностях. В-третьих, следует совместно проводить мероприятия по «зеленому» потреблению в рамках «Цифрового Шелкового пути», используя балльные вознаграждения и визуализацию углеродного следа для повышения осведомленности о «зеленом» потреблении на местном уровне. В-четвертых, следует изучить новые области, такие как «зеленая» электронная коммерция в сельском хозяйстве, углеродно-нейтральные парки и цифровая торговля углеродными квотами, интегрируя «зеленые» концепции во всю цепочку сотрудничества. В конечном итоге, мы должны сделать развитие «зеленой» цифровой экономики новым отправным пунктом, укрепить долгосрочную устойчивость сотрудничества, создать модель устойчивого сотрудничества вдоль глобального «Цифрового шелкового пути» и обеспечить, чтобы «зеленая» основа пронизывала весь процесс сотрудничества в сфере электронной коммерции между двумя регионами.

Цифровой Шелковый путь представляет собой важнейшую стратегическую возможность для скоординированного развития индустрии электронной коммерции в Пекине и Ташкенте. Это сотрудничество является не только неизбежным выбором для модернизации двусторонних торгово-экономических отношений, но и основным путем повышения устойчивости региональной цифровой экономики и содействия взаимному обучению между цивилизациями. Учитывая практические препятствия, такие как технические стандарты, права интеллектуальной собственности, культурное взаимопонимание и «зеленые» концепции, институциональная открытость имеет решающее значение. Это требует использования взаимного признания стандартов для облегчения передачи технологий, опоры на совместную защиту для стимулирования инноваций, обеспечения культурной совместимости для укрепления рыночной основы и использования «зеленых» принципов для расширения устойчивого развития. Одновременно оба региона должны постоянно укреплять двустороннее институционализированное сотрудничество, интегрируя цифровые преимущества Пекина с рыночным потенциалом Ташкента в секторе электронной коммерции, преобразуя эти преимущества в синергетические результаты развития. Это не только создаст тиражируемую модель электронной коммерции Шелкового пути, но и обеспечит долгосрочный импульс для высококачественного развития Цифрового Шелкового пути.

#### **Список использованной литературы:**

1. Han Y ,Tan Z ,Hu C , et al. Impact of domestic digital services trade barriers on their export efficiency: Empirical evidence from the “Digital Silk Road”[J].International Review of Economics and Finance,2026,109 105411-105411.
2. Wei Jinyin, Lu Weiyan. Research on the path of upgrading and improving digital trade between China and ASEAN under the background of the Digital Silk Road [J]. Times Economy and Trade, 2026, 23 (5): 24-28.
3. Abadi BZF ,Liu W. Dual pathways to innovation in the age of digitalization: How the digital silk

road transforms quality and quantity of innovation in member countries and China[J]. Economic Analysis and Policy, 2026,90 1582-1606.

4. Xinhua Z ,Hong L. The Research on the Cooperation Mechanism and Implementation Path of China-ASEAN Digital Economy under the "Digital Silk Road" Framework[J]. Journal of International Social Science, 2026, 3 (3): 73-76.
5. He Yuanchuang. China and Saudi Arabia jointly build the “Digital Silk Road”: current situation, challenges and paths [J]. China-Arab Science and Technology Forum (Chinese and English), 2026, (2):7-13.
6. Wu Qian, Hu Yongquan. Research on the synergistic development path of my country's digital economy and digital Silk Road [J]. China Business Review, 2025, 34 (21): 1-4.
7. Hu Jing. Research on the impact of cross-border e-commerce on China's foreign trade under the background of the digital Silk Road [J]. China Management Informationization, 2025, 28 (3): 97-100.
8. Wang Z. An Empirical Study of the Impact of the Digital Silk Road on Foreign Trade between China and Countries along the Route - A Quasi-Natural Experiment Based on Silk Road E-Commerce International Cooperation[J]. Journal of Applied Economics and Policy Studies, 2024, 7 (1): 6-17.
9. Yebin W, Huiyu G, Haijun W. The digital silk road and trade growth – A quasi-natural experiment based on silk road E-commerce[J]. Research in International Business and Finance, 2024, 67 (PB).
10. Chen Fujiong, Liu Ye, Cheng Dazhong. Cross-border e-commerce promotes the construction of the "Digital Silk Road": opportunities, challenges and strategies [J]. Northern Finance, 2021, (5):11-16.

**UDK: 331.2**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI KESIMIDA AHOLI  
DAROMADLARINING IQTISODIY TAHLILI**

**ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ В РАЗРЕЗЕ РЕГИОНОВ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ECONOMIC ANALYSIS OF HOUSEHOLD INCOMES ACROSS THE REGIONS OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich**

Yoshlar ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Iqtisodiyot fakulteti O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent shahar Olmazor tumani universitet ko‘chasi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekistonda aholi daromadlarining hududlar kesimida shakllanishi va o‘zgarish dinamikasi iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda hududlar bo‘yicha aholi umumiy daromadlari, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar hamda ularning o‘sish sur‘atlari o‘rganilgan. Shuningdek, hududlar o‘rtasidagi daromadlar tafovuti va unga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar baholangan. Tahlil natijasida aholi daromadlari bo‘yicha hududiy nomutanosibliklar aniqlangan va ularni kamaytirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslangan. Maqolada hududlarda aholi daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** aholi daromadlari, hududiy tafovutlar, aholi jon boshiga daromad, daromadlar dinamikasi, hududiy rivojlanish, turmush darajasi, iqtisodiy tahlil.

В статье проведён экономический анализ формирования и динамики доходов населения в разрезе регионов Узбекистана. В исследовании рассмотрены совокупные доходы населения,

доходы на душу населения и темпы их роста по регионам. Особое внимание уделено различиям в уровнях доходов между регионами и основным экономическим факторам, влияющим на их формирование. В результате анализа выявлены территориальные диспропорции в доходах населения и определены приоритетные направления их сокращения. В статье также разработаны практические рекомендации по повышению доходов населения и улучшению уровня жизни в регионах.

**Ключевые слова:** доходы населения, региональные различия, доходы на душу населения, динамика доходов, региональное развитие, уровень жизни, экономический анализ.

This article provides an economic analysis of the formation and dynamics of household incomes across regions of Uzbekistan. The study examines total household income, per capita income, and income growth rates by region. Particular attention is paid to regional disparities in income levels and the key economic factors influencing them. The analysis identifies existing regional imbalances in household incomes and determines priority areas for reducing these disparities. The article also develops practical recommendations aimed at increasing household incomes and improving living standards across regions.

**Key words:** household income, regional disparities, per capita income, income dynamics, regional development, living standards, economic analysis.

Bugungi kunda aholi daromadlarini barqaror oshirish va hududlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish Oʻzbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi daromadlari hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va aholi turmush farovonligini baholashda muhim koʻrsatkich sifatida namoyon boʻladi. Hududlarning iqtisodiy salohiyati, bandlik imkoniyatlari, tadbirkorlik muhiti va investitsion faolligidagi farqlar daromadlar hajmiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli aholi daromadlarining hududlar kesimidagi dinamikasini oʻrganish mavjud tafovutlarni aniqlash va ularning sabablarini baholash imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi Oʻzbekistonda aholi daromadlarining hududiy shakllanishi va oʻzgarish tendensiyalarini iqtisodiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda aholi umumiy daromadlari, aholi jon boshiga daromadlar hamda ularning oʻsish surʼatlari hududlar kesimida qiyosiy tahlil qilinadi. Olingan natijalar hududlarda aholi daromadlarini oshirish va mavjud iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish boʻyicha amaliy takliflar ishlab chiqish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Aholi daromadlarining hududiy shakllanishi va hududlararo tafovutlar masalasi xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, S. Kuznets, J. Stiglitz va A. Sen ilmiy ishlarida daromadlar taqsimoti, iqtisodiy tengsizlik hamda aholi farovonligiga taʼsir etuvchi omillar nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) tadqiqotlarida esa hududlar oʻrtasidagi daromadlar tafovutini kamaytirish barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti sifatida baholanadi.

Oʻzbekistonda aholi daromadlari, hududiy rivojlanish, bandlik va turmush darajasini oshirish masalalari iqtisodchi olimlar tomonidan keng oʻrganilgan. Biroq hududlar kesimida aholi daromadlarining oʻzgarish dinamikasi, mavjud tafovutlar va ularga taʼsir etuvchi iqtisodiy omillarni kompleks baholash masalalari qoʻshimcha tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur maqolada ushbu jihatlarni iqtisodiy-statistik tahlil qilishga alohida eʼtibor qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda Oʻzbekistonda aholi daromadlarining hududlar kesimidagi holati va dinamikasini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida statistik maʼlumotlarni guruhlash, taqqoslash, dinamik qatorlarni tahlil qilish hamda oʻsish surʼatlarini hisoblash usullari qoʻllanildi. Hududlar boʻyicha aholi umumiy daromadlari va aholi jon boshiga daromad koʻrsatkichlari oʻzaro qiyoslandi. Shuningdek, hududlar oʻrtasidagi daromadlar tafovutini aniqlash maqsadida nisbiy koʻrsatkichlardan foydalanildi. Tadqiqot uchun Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosiy axborot manbai sifatida olindi. Olingan natijalar asosida hududiy daromadlar dinamikasi baholanib, mavjud tafovutlarni kamaytirish va aholi daromadlarini oshirish boʻyicha xulosalar shakllantirildi.

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

Aholi daromadlarining hududlar kesimidagi o‘zgarishini baholashda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromad muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich hududlarda aholi farovonligining o‘zgarishi hamda daromadlar shakllanishidagi hududiy tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

### Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida, mln.so‘m)

| Hudud                           | 2010       | 2011       | 2012       | 2013       | 2014       | 2015       | 2016       | 2017       | 2018       | 2019        | 2020        | 2021        | 2022        | 2023        | 2024        | 2025        |
|---------------------------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| <b>O‘zbekiston Respublikasi</b> | <b>2,2</b> | <b>2,9</b> | <b>3,5</b> | <b>4,2</b> | <b>4,8</b> | <b>5,4</b> | <b>6,2</b> | <b>7,9</b> | <b>9,8</b> | <b>11,7</b> | <b>12,9</b> | <b>15,8</b> | <b>18,7</b> | <b>21,4</b> | <b>25,7</b> | <b>29,9</b> |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi   | 1,5        | 2,0        | 2,4        | 2,9        | 3,3        | 3,9        | 4,4        | 5,7        | 7,3        | 8,7         | 10,0        | 12,0        | 14,0        | 15,6        | 18,3        | 20,7        |
| Andijon viloyati                | 1,8        | 2,5        | 2,9        | 3,8        | 4,3        | 4,8        | 5,6        | 7,3        | 9,1        | 10,8        | 11,6        | 13,8        | 16,8        | 20,1        | 24,1        | 26,3        |
| Buxoro viloyati                 | 2,5        | 3,5        | 4,1        | 5,0        | 5,7        | 6,4        | 7,4        | 9,6        | 12,3       | 14,2        | 15,8        | 19,4        | 22,8        | 25,3        | 29,9        | 35,2        |
| Jizzax viloyati                 | 1,8        | 2,4        | 2,9        | 3,4        | 4,1        | 4,8        | 5,5        | 7,1        | 9,1        | 10,4        | 11,6        | 13,9        | 15,8        | 17,8        | 20,1        | 22,9        |
| Qashqadaryo viloyati            | 1,9        | 2,6        | 3,1        | 3,7        | 4,2        | 4,6        | 5,5        | 6,9        | 8,4        | 9,9         | 10,8        | 12,9        | 15,3        | 16,9        | 19,9        | 23,5        |
| X‘Navoiy viloyati               | 3,9        | 5,1        | 5,5        | 6,5        | 7,4        | 8,8        | 9,7        | 12,3       | 15,3       | 18,6        | 21,4        | 26,5        | 28,9        | 33,2        | 38,5        | 44,7        |
| Namangan viloyati               | 1,6        | 2,2        | 2,6        | 3,2        | 3,6        | 4,1        | 4,7        | 6,3        | 7,4        | 8,9         | 10,1        | 12,3        | 14,8        | 16,1        | 18,6        | 21,3        |
| Samarqand viloyati              | 2,0        | 2,6        | 3,0        | 3,7        | 4,2        | 4,6        | 5,6        | 7,1        | 8,7        | 10,0        | 11,1        | 13,6        | 16,1        | 17,4        | 21,2        | 24,5        |
| Surxondaryo viloyati            | 1,7        | 2,5        | 3,1        | 3,5        | 4,1        | 4,6        | 5,1        | 6,5        | 8,0        | 9,4         | 10,2        | 12,5        | 15,3        | 16,8        | 19,4        | 22,6        |
| Sirdaryo viloyati               | 2,2        | 3,1        | 3,6        | 4,5        | 5,0        | 5,8        | 6,8        | 7,7        | 9,1        | 10,8        | 11,7        | 13,6        | 15,4        | 17,5        | 20,2        | 23,3        |
| Toshkent viloyati               | 2,4        | 3,3        | 4,0        | 4,5        | 5,2        | 6,1        | 6,7        | 8,5        | 10,2       | 12,2        | 14,0        | 17,4        | 19,5        | 22,3        | 26,3        | 29,8        |
| Farg‘ona viloyati               | 1,7        | 2,3        | 2,9        | 3,4        | 3,9        | 4,4        | 5,0        | 6,2        | 7,7        | 8,8         | 9,5         | 12,1        | 14,7        | 17,8        | 19,6        | 24,6        |
| Xorazm viloyati                 | 2,1        | 2,8        | 3,4        | 4,1        | 4,6        | 5,1        | 5,8        | 7,6        | 10,0       | 11,8        | 13,0        | 16,7        | 20,5        | 21,3        | 26,3        | 31,1        |
| Toshkent shahri                 | 4,5        | 5,6        | 6,9        | 8,3        | 9,3        | 10,6       | 12,3       | 16,1       | 19,5       | 24,8        | 26,7        | 31,8        | 38,4        | 47,3        | 62,3        | 73,9        |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida internet manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

Jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda aholi jon boshiga umumiy daromadlar 2010-yildagi 2,2 mln so‘mdan 2025-yilda 29,9 mln so‘mga yetib, qariyb 13,6 barobarga oshgan. Bunday o‘shishga ish haqi va mehnat daromadlarining ortishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, bandlikning oshishi hamda aholiga to‘lanadigan ijtimoiy transferlarning ko‘payishi ta‘sir ko‘rsatgan.


2025-yilda eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 73,9 mln so‘mni tashkil etgan. Bunga shaharning yirik iqtisodiy va moliyaviy markaz sifatidagi mavqeyi, yuqori daromadli ish o‘rinlarining ko‘pligi, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanganligi asosiy omil bo‘lgan. Navoiy viloyatida 44,7 mln so‘mlik yuqori ko‘rsatkich esa sanoat, konchilik va yirik ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanganligi bilan bog‘liq. Buxoro va Xorazm viloyatlarida esa turizm, xizmat ko‘rsatish, savdo hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi daromadlarning o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Aksincha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (20,7 mln so‘m), Namangan (21,3 mln so‘m) va Jizzax (22,9 mln so‘m) viloyatlarida ko‘rsatkichlarning nisbatan past bo‘lishi iqtisodiy faoliyatning ayrim tarmoqlarga yuqori darajada bog‘liqligi, yuqori daromadli ish o‘rinlarining nisbatan kamligi hamda ishlab chiqarish va xizmatlar sektorining hududlar bo‘yicha bir xil rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, hududlar o‘rtasidagi daromadlar tafovuti iqtisodiy salohiyat, bandlik, ish haqi darajasi, tadbirkorlik va investitsion faollikdagi farqlar bilan bog‘liq. Shu sababli daromadi nisbatan past hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznesni qo‘llab-

quvvatlash va xizmatlar sohasini kengaytirish hududiy daromadlar tafovutini kamaytirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Daromadlar hajmining o‘zgarishini aniqlash bilan bir qatorda, hududlar bo‘yicha ularning o‘sish sur‘atlarini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘sish sur‘ati hududlarda aholi daromadlarining qaysi tezlikda ortib borayotganini ko‘rsatib, hududiy rivojlanish dinamikasini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi jadvalda aholi jon boshiga umumiy daromadlarning hududlar kesimidagi o‘sish sur‘atlari tahlil qilinadi.



**1-rasm. O‘zbekistonda aholi umumiy daromadlarining o‘sish sur‘ati (2010-2025, %)**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida internet manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

Yuqoridagi grafik ma‘lumotlariga ko‘ra, 2010–2025-yillarda O‘zbekistonda aholi umumiy daromadlarining o‘sish sur‘atlari ijobiy bo‘lganini, biroq mazkur jarayon davrlar kesimida turlicha kechganini ko‘rsatadi. 2011-yilda o‘sish sur‘atining 133,6 foizga yetishi aholi daromadlari shakllanishida ish haqi, bandlik va tadbirkorlik daromadlarining kengayishi bilan izohlanadi. 2012–2016-yillarda o‘sish sur‘atlarining nisbatan barqarorlashishi iqtisodiy o‘sishning davom etishi bilan birga, daromadlarning shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich barqarorlashganini ko‘rsatadi.

2017-yilda o‘sish sur‘atining 127,8 foizgacha oshishi iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarning jadallashuvi, ish haqi va bandlikning o‘sishi hamda tadbirkorlik faoliyatining kengayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2018–2020-yillarda esa o‘sish sur‘atining pasayishi kuzatilib, 2020-yilda 110,5 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, 2020-yildagi pasayishda COVID-19 pandemiyasi sababli iqtisodiy faoliyatning cheklanishi, ayrim xizmatlar va tadbirkorlik faoliyatining qisqarishi hamda mehnat bozoridagi vaqtinchalik beqarorlik muhim omil bo‘lgan.

2021-yilda o‘sish sur‘atining 122,4 foizgacha tiklanishi iqtisodiy faollikning qayta tiklanishi, bandlikning kengayishi va daromad manbalarining faollashuvi bilan bog‘liq. 2022–2025-yillarda o‘sish sur‘atlarining 114,3–120,0 foiz oralig‘ida shakllanishi esa daromadlar o‘sishining saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Bunda ish haqi, tadbirkorlik faoliyati, bandlik va transferlar kabi daromad manbalarining o‘zgarishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Qisqacha xulosa qilsak, tahlil natijalari aholi daromadlarining nominal o‘sishi uzoq muddatli ijobiy tendensiyaga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘sish sur‘atlarining ayrim yillarda pasayishi tashqi iqtisodiy sharoitlar va ichki iqtisodiy faollikdagi o‘zgarishlarning aholi daromadlariga bevosita ta‘sir qilishini ko‘rsatadi. Mazkur holat hududlar kesimida daromadlarning shakllanishi va o‘sish sur‘atlarini alohida tahlil qilish zarurligini asoslaydi.

Hududlar bo‘yicha aholi daromadlari hajmi tahlil qilinganda, ularning o‘rtacha respublika ko‘rsatkichidan sezilarli darajada farq qilishi kuzatiladi. Mazkur tafovutlarni yanada aniqroq

baholash maqsadida 2025-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlari eng yuqori va eng past bo‘lgan hududlar o‘zaro taqqoslandi. Bunda hududlar ko‘rsatkichi respublika o‘rtacha darajasiga nisbatan ham baholanadi.

**2-jadval**

**Aholi jon boshiga umumiy daromadlari eng yuqori va eng past bo‘lgan hududlarning taqqoslama ko‘rsatkichlari, 2025-yil**

| <b>Hudud</b>                    | <b>Aholi jon boshiga umumiy daromad, mln so‘m</b> | <b>Respublika o‘rtachasiga nisbati, %</b> |
|---------------------------------|---------------------------------------------------|-------------------------------------------|
| Toshkent shahri                 | 73,9                                              | 246,9                                     |
| Navoiy viloyati                 | 44,7                                              | 149,3                                     |
| Buxoro viloyati                 | 35,2                                              | 117,5                                     |
| <b>O‘zbekiston Respublikasi</b> | <b>29,9</b>                                       | <b>100,0</b>                              |
| Qashqadaryo viloyati            | 23,5                                              | 78,6                                      |
| Jizzax viloyati                 | 22,9                                              | 76,5                                      |
| Namangan viloyati               | 21,3                                              | 71,2                                      |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi   | 20,7                                              | 69,0                                      |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida internet manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

2-jadval ma’lumotlari 2025-yilda hududlar o‘rtasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 73,9 mln so‘mni tashkil etib, respublika o‘rtacha darajasidan 2,47 baravar yuqori bo‘lgan. Navoiy viloyatida 44,7 mln so‘m, Buxoro viloyatida esa 35,2 mln so‘m qayd etilgan.

Aksincha, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga daromad 20,7 mln so‘mni tashkil etib, respublika o‘rtacha ko‘rsatkichining 69,0 foiziga teng bo‘lgan. Namangan, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida ham mazkur ko‘rsatkich respublika o‘rtachasidan past shakllangan.

Ushbu tafovutlar hududlarning iqtisodiy salohiyati, bandlik va ish haqi darajasi, sanoat hamda xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasidagi farqlar bilan izohlanadi. Shu sababli nisbatan past daromadli hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va investitsion faollikni oshirish hududiy daromadlar tafovutini kamaytirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda 2010–2025-yillarda aholi jon boshiga umumiy daromadlar barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, hududlar kesimida daromadlar hajmida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, 2025-yilda eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 73,9 mln so‘mni, eng past ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida 20,7 mln so‘mni tashkil etgan. Mazkur farqlar hududlarning iqtisodiy salohiyati, bandlik va ish haqi darajasi, sanoat hamda xizmatlar sohasining rivojlanish darajasidagi tafovutlar bilan bog‘liq. Tahlillar asosida hududlar o‘rtasidagi daromadlar tafovutini kamaytirish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. nisbatan past daromadli hududlarda yuqori daromadli va barqaror ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan investitsiya loyihalarini kengaytirish;

2. kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy hamda institutsional qo‘llab-quvvatlash orqali aholining qo‘shimcha daromad manbalarini kengaytirish;

3. hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, xizmat ko‘rsatish, savdo va boshqa istiqbolli tarmoqlarni rivojlantirish;

4. daromadi past hududlarda mehnat bozorini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish orqali mehnat daromadlari ulushini ko‘paytirish;

5. hududlar bo‘yicha aholi daromadlari tafovutini muntazam monitoring qilish va natijalar asosida manzilli hududiy dasturlarni takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda aholi daromadlarining umumiy o‘sish tendensiyasi ijobiy bo‘lsa-da, hududlar o‘rtasidagi mavjud tafovutlarni qisqartirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Aholi daromadlarini oshirishda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, bandlikni kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsion faollikni oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur yo‘nalishlarni tizimli ravishda amalga oshirish hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality // *The American Economic Review*. – 1955. – Vol. 45, No. 1. – P. 1–28.
2. Sen A. Development as Freedom. – New York: Oxford University Press, 1999.
3. Stiglitz J.E. The Price of Inequality: How Today’s Divided Society Endangers Our Future. – New York: W.W. Norton & Company, 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi daromadlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar. – Toshkent, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo‘yicha statistik ma‘lumotlar. – Toshkent, 2025.
6. World Bank. Uzbekistan: Country Economic Update. – Washington, D.C.: World Bank.
7. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report. – New York: UNDP.

**UDK: 338.48**

**O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI  
TEKNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В РАЗВИТИИ  
УСТОЙЧИВОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**DIGITAL TECHNOLOGIES AND INNOVATIVE APPROACHES IN DEVELOPING  
SUSTAINABLE TOURISM IN UZBEKISTAN**

**Nargiza Abduvaxidova Akbardjonovna**

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, PhD

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (Big Data), geografik axborot tizimlari (GIS), Internet of Things (IoT), virtual reallik va blokcheyn texnologiyalarining turizm sohasidagi qo‘llanilishi hamda ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlikka ta‘siri yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda turizmni raqamlashtirish jarayonida erishilgan natijalar, mavjud muammolar va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinib, barqaror turizmni ta‘minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya turizm xizmatlari sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** barqaror turizm, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, sun‘iy intellekt, Big Data, GIS, IoT, blokcheyn, virtual reallik, raqamli marketing, turizm infratuzilmasi, O‘zbekiston.

В данной статье научно анализируется роль цифровых технологий и инновационных подходов в развитии устойчивого туризма в Узбекистане. Исследование охватывает применение технологий искусственного интеллекта, больших данных (Большие данные), географических информационных систем (ГИС), Интернета вещей (IoT), виртуальной реальности и блокчейна в туристическом секторе и их влияние на экономическую, экологическую и социальную эффективность. Также проанализированы результаты,

достигнутые в процессе цифровизации туризма в Узбекистане, существующие проблемы и будущие направления развития, а также разработаны практические рекомендации по обеспечению устойчивого туризма. Результаты исследования показывают, что цифровая трансформация является важным фактором повышения качества туристических услуг, рационального использования ресурсов и укрепления конкурентоспособности страны на международном туристическом рынке.

**Ключевые слова:** устойчивый туризм, цифровые технологии, инновации, искусственный интеллект, Большие данные, ГИС, IoT, блокчейн, виртуальная реальность, цифровой маркетинг, туристическая инфраструктура, Узбекистан.

This article scientifically analyzes the role of digital technologies and innovative approaches in the development of sustainable tourism in Uzbekistan. The study covers the application of artificial intelligence, big data (Big Data), geographic information systems (GIS), Internet of Things (IoT), virtual reality and blockchain technologies in the tourism sector and their impact on economic, environmental and social efficiency. Also, the results achieved in the process of digitizing tourism in Uzbekistan, existing problems and future development directions were analyzed, and practical recommendations were developed to ensure sustainable tourism. The results of the study show that digital transformation is an important factor in improving the quality of tourism services, rational use of resources and strengthening the country's competitiveness in the international tourism market.

**Keywords:** sustainable tourism, digital technologies, innovations, artificial intelligence, Big Data, GIS, IoT, blockchain, virtual reality, digital marketing, tourism infrastructure, Uzbekistan.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida turizm sohasi barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi bosqichga o‘tmoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, madaniy merosni asrash hamda mahalliy aholi manfaatlarini ta‘minlash zamonaviy turizm siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylandi. Shu bilan bir qatorda, raqamli transformatsiya jarayonlari turizm sohasining rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, mobil ilovalar, geografik axborot tizimlari (GIS), Internet of Things (IoT), blokcheyn va virtual reallik kabi zamonaviy texnologiyalar turizm xizmatlari sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda turistlar ehtiyojlarini aniq prognoz qilish imkonini bermiqda.

O‘zbekiston boy tarixiy-madaniy merosi, Buyuk Ipak yo‘li shaharlari, milliy urf-odatlar va tabiiy rekreatsion hududlari bilan xalqaro turizm bozorida yuqori salohiyatga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron davlat xizmatlarini joriy etish, onlayn bron qilish tizimlarini rivojlantirish va raqamli marketing vositalaridan foydalanish orqali turizmning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq turizmning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun raqamli texnologiyalarni innovatsion boshqaruv mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va mahalliy hamjamiyatlarni rivojlanish jarayoniga faol jalb etish dolzarb vazifa bo‘lib qilmqda [1].

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning kompleks usullaridan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma‘lumotlarni umumlashtirish, induksiya va deduksiya, ilmiy kuzatish hamda mantiqiy tahlil metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning barqaror turizmga oid konsepsiyalari, ilmiy maqolalar, monografiyalar, O‘zbekiston Respublikasida turizm va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda so‘nggi yillarda e‘lon qilingan ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi barqaror turizmning uch asosiy komponenti – iqtisodiy samaradorlik, ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari asosida shakllantirildi. Mazkur tamoyillar doirasida raqamli texnologiyalarning turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistlar oqimini boshqarish, xizmatlar sifatini oshirish hamda tabiiy va madaniy resurslarni muhofaza qilishdagi ahamiyati baholandi.

Xurramov O. o‘zining “O‘zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish imkoniyatlari” nomli maqolasida mamlakatda raqamli turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan. Muallif raqamli platformalar, elektron xizmatlar, onlayn bronlash tizimlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turizm xizmatlari sifatini oshirishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan [3].

Gulyamova G. “Turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi maqolasida “Smart Tourism” va “Turizm 4.0” konsepsiyalarining nazariy asoslarini yoritgan. Muallif sun‘iy intellekt, buyumlar interneti (IoT), raqamli ekotizimlar va onlayn navigatsiya texnologiyalarining turistik destinatsiyalar raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini tahlil qilgan hamda O‘zbekistonda turizmni raqamlashtirish jarayoniga baho bergan [4].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar barqaror turizmni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish turizm xizmatlarini tezkor, shaffof va qulay tashkil etishga xizmat qiladi. Elektron bron qilish tizimlari, mobil ilovalar, raqamli xaritalar va onlayn to‘lov platformalari turistlarning safar jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Bugungi kunda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish turistlarning qiziqishlari, xarid odatlari va sayohat yo‘nalishlarini tahlil qilish imkonini bermogda. Sun‘iy intellekt asosidagi tavsiyaviy tizimlar har bir foydalanuvchi uchun individual turistik marshrutlarni shakllantirish orqali xizmatlar sifatini oshiradi. Natijada turistlarning qoniqish darajasi ortadi, turizm korxonalarining daromadlari esa barqaror o‘sinh tendensiyasiga ega bo‘ladi.

Katta ma’lumotlar texnologiyasi (Big Data) turistik oqimlarni oldindan prognoz qilishda muhim vosita hisoblanadi. Turistlarning geografik harakati, mavsumiy talab, transport oqimlari va mehmonxonalar bandligi to‘g‘risidagi katta hajmdagi ma’lumotlar real vaqt rejimida tahlil qilinishi natijasida turizm infratuzilmasini samarali rejalashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ortiqcha yuklanishlarning oldini olish va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Geografik axborot tizimlari (GIS) barqaror turizmni boshqarishda alohida ahamiyat kasb etadi. GIS texnologiyalari yordamida turistik obyektlarning joylashuvi, transport infratuzilmasi, ekologik xavf hududlari hamda tabiiy resurslarning holati monitoring qilinadi. Ushbu texnologiya turistik marshrutlarni optimallashtirish bilan bir qatorda muhofaza qilinadigan hududlarda antropogen bosimni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

#### 1-jadval

#### **O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari**

| <b>Mavjud muammo</b>                                    | <b>Salbiy ta’siri</b>                       | <b>Tavsiya etilayotgan yechim</b>                    |
|---------------------------------------------------------|---------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| Hududlarda internet infratuzilmasining yetarli emasligi | Raqamli xizmatlardan foydalanish cheklanadi | Yuqori tezlikdagi internet tarmoqlarini kengaytirish |
| Raqamli savodxonlikning pastligi                        | Innovatsiyalarni joriy etish sekinlashadi   | Mutaxassislarni tayyorlash va qayta o‘qitish         |
| Ma’lumotlar bazasining tarqoqligi                       | Boshqaruv samaradorligi pasayadi            | Yagona milliy turizm platformasini yaratish          |
| Xalqaro marketingning sustligi                          | Turistlar oqimi cheklanadi                  | Raqamli marketing strategiyalarini kengaytirish      |
| Ekologik monitoringning yetarli emasligi                | Tabiiy resurslarga bosim ortadi             | GIS va IoT texnologiyalarini keng joriy etish        |

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining rivojlanishi turizm marketingida yangi bosqichni boshlab berdi. Potensial turistlar tarixiy obidalar, muzeylar yoki tabiiy maskanlarni virtual formatda oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bunday innovatsion yondashuv nafaqat reklama samaradorligini oshiradi, balki sayohatga bo‘lgan qiziqishni ham kuchaytiradi.

IoT texnologiyalari mehmonxonalar, aeroportlar va transport tizimlarida energiya tejamkorligini oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Aqlli

sensorlar elektr energiyasi, suv va boshqa resurslardan foydalanishni avtomatik nazorat qilib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekistonda turizmni raqamlashtirish bo'yicha so'nggi yillarda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Elektron viza tizimining joriy etilishi, mehmonxonalarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish, elektron to'lov tizimlarining kengayishi va turizm xizmatlarini yagona raqamli platformalarda birlashtirish xorijiy turistlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli savodxonlikning pastligi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mutaxassislar yetishmasligi mavjud muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Barqaror turizmni rivojlantirishda mahalliy aholini raqamli iqtisodiyot imkoniyatlariga jalb qilish ham muhim ahamiyatga ega. Oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik markazlari va ekoturizm obyektlari elektron savdo platformalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z xizmatlarini xalqaro bozorda targ'ib qilishi mumkin. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy daromadlarni oshirish va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Raqamli marketing vositalari, jumladan ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari optimallashtirilishi (SEO), kontent marketing va sun'iy intellekt asosidagi reklama texnologiyalari O'zbekistonning turistik brendini xalqaro maydonda keng targ'ib qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Farg'ona vodiysi kabi tarixiy hududlarning raqamli platformalarda faol namoyish etilishi turistlar oqimini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Barqaror turizmni rivojlantirish uchun yagona raqamli ekotizimni yaratish dolzarb hisoblanadi. Ushbu platforma transport, mehmonxona, muzey, restoran, ekskursiya xizmatlari, elektron to'lov tizimlari va ekologik monitoring ma'lumotlarini yagona axborot maydonida integratsiyalash imkonini beradi. Natijada davlat organlari, xususiy sektor va turistlar o'rtasidagi axborot almashinuvi samaradorligi oshadi [5].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishning strategik omillaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, GIS, IoT, blokcheyn, virtual reallik va raqamli marketing texnologiyalari turizm xizmatlari sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida turizm infratuzilmasini to'liq raqamlashtirish, hududlarda internet qamrovini kengaytirish, mahalliy tadbirkorlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va yagona milliy turizm platformasini shakllantirish muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni ekologik boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, turistlar oqimini ko'paytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois raqamli transformatsiyani turizm siyosatining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Omonov A. A., Rasulov A. X. Turizm iqtisodiyoti. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 320 b.
2. Gössling S., Scott D., Hall C. M. *Pandemics, Tourism and Global Change: A Rapid Assessment of COVID-19*. – Oxford: Goodfellow Publishers, 2021. – 266 p.
3. Xurramov O. O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish imkoniyatlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2022. – T. 10, № 3. – B. 406–413.
4. Gulyamova G. Turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish // *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. – 2026. – T. 3, № 2. – B. 207–213.
5. Xudoyberdiyev S. T., Ismoilov B. R. Turizmni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2023. – 248 b.

**SANOAT KORXONALARIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH  
JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR**

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
РЕСУРСОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**FACTORS AFFECTING THE EFFICIENT USE OF RESOURCES IN INDUSTRIAL  
ENTERPRISES**

**Murodov Olmos Uktamovich**

Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tadqiq etilgan. Resurs samaradorligini belgilovchi texnik-texnologik, moddiy-xomashyo, energetik, mehnat, moliyaviy, tashkiliy-boshqaruv, innovatsion va tashqi iqtisodiy omillar tasniflangan. Shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash, resurs yo‘qotishlarini kamaytirish, texnologik modernizatsiya, mehnat unumdorligini oshirish, raqamli monitoring va benchmarking vositalaridan foydalanish asosida ichki samaradorlik zaxiralarini safarbar etish yo‘nalishlari taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sanoat korxonasi, resurslar, resurs samaradorligi, iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligi, material sig‘imi, energiya samaradorligi, ishlab chiqarish xarajatlari, benchmarking, raqamli monitoring.

В статье системно исследованы основные факторы, влияющие на процесс эффективного использования ресурсов на промышленных предприятиях. Классифицированы технико-технологические, материально-сырьевые, энергетические, трудовые, финансовые, организационно-управленческие, инновационные и внешнеэкономические факторы, определяющие ресурсную эффективность. Кроме того, предложены направления мобилизации внутренних резервов эффективности на основе повышения уровня использования производственных мощностей, сокращения потерь ресурсов, технологической модернизации, повышения производительности труда, внедрения цифрового мониторинга и применения инструментов бенчмаркинга.

**Ключевые слова:** промышленное предприятие, ресурсы, ресурсная эффективность, экономическая эффективность, производительность труда, материалоёмкость, энергоэффективность, производственные затраты, бенчмаркинг, цифровой мониторинг.

This article systematically examines the key factors affecting the efficient use of resources in industrial enterprises. Technical and technological, material and raw material, energy, labor, financial, organizational and managerial, innovation, and external economic factors determining resource efficiency are classified. In addition, the study proposes directions for mobilizing internal efficiency reserves by improving capacity utilization, reducing resource losses, implementing technological modernization, increasing labor productivity, introducing digital monitoring, and applying benchmarking tools.

**Keywords:** industrial enterprise, resources, resource efficiency, economic efficiency, labor productivity, material intensity, energy efficiency, production costs, benchmarking, digital monitoring.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish ko‘p jihatdan mavjud resurslardan qay darajada oqilona va unumli foydalanishga bog‘liq. Ishlab chiqarish jarayonida moddiy, mehnat,

moliyaviy, energetik va texnik-texnologik resurslarning o‘zaro uyg‘unligi mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi hamda korxonaning yakuniy moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli resurslardan samarali foydalanishni faqat ularning sarfini kamaytirish sifatida emas, balki mavjud resurs birligidan olinadigan iqtisodiy natijani oshirishga qaratilgan kompleks boshqaruv jarayoni sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar xususiyatiga ko‘ra ichki va tashqi omillarga ajratilishi mumkin. Ichki omillar korxonaning o‘zi tomonidan boshqarilishi yoki ma’lum darajada tartibga solinishi mumkin bo‘lgan jarayonlarni ifodalaydi. Tashqi omillar esa korxona faoliyatidan tashqarida shakllanib, uning resurslardan foydalanish imkoniyatlari va iqtisodiy natijalariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

**1-jadval**

**Sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tasnifi**

| <b>Omillar guruhi</b>   | <b>Asosiy omillar</b>                                                                    | <b>Resurslardan foydalanishga ta’siri</b>                                                      |
|-------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Texnik-texnologik       | Uskunalarining texnik holati, ishlab chiqarish texnologiyasi, avtomatlashtirish darajasi | Resurs sarfi va ishlab chiqarish unumdorligini belgilaydi                                      |
| Moddiy-xomashyo         | Xomashyo sifati, materiallar sarfi, chiqindilar miqdori                                  | Mahsulot tannarxi va material sig‘imiga ta’sir qiladi                                          |
| Energetik               | Energiya sig‘imi, energiya narxi, energiya tejamkor texnologiyalar                       | Energiya xarajatlari va mahsulot tannarxini shakllantiradi                                     |
| Mehnat                  | Xodimlar malakasi, mehnat unumdorligi, motivatsiya                                       | Resurs birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmiga ta’sir qiladi                              |
| Moliyaviy               | Aylanma mablag‘lar, investitsiyalar, kapital qiymati                                     | Texnologik yangilanish va resurs tejamkor loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini belgilaydi |
| Tashkiliy-boshqaruv     | Rejalashtirish, nazorat, logistika, ishlab chiqarishni tashkil etish                     | Resurs yo‘qotishlarini kamaytirish va jarayonlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi           |
| Innovatsion             | Yangi texnologiyalar, raqamlashtirish, innovatsion yechimlar                             | Resurs unumdorligini oshirish imkonini beradi                                                  |
| Tashqi iqtisodiy        | Xomashyo va energiya narxlari, raqobat, talab, valyuta kursi                             | Xarajatlar va resurslar bilan ta‘minlanganlikka ta’sir ko‘rsatadi                              |
| Institutsional-ekologik | Davlat tartibga solishi, standartlar, ekologik talablar                                  | Resurslardan foydalanish me‘yorlari va texnologik talablarni shakllantiradi                    |

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, resurslardan foydalanish samaradorligi birgina ishlab chiqarish omiliga emas, balki texnologik, moliyaviy, mehnat, tashkiliy va tashqi iqtisodiy sharoitlarning o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Ayniqsa, texnik-texnologik va tashkiliy-boshqaruv omillari korxona tomonidan bevosita boshqarilishi mumkinligi sababli ichki samaradorlik zaxiralarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Sanoat korxonalarida resurslardan foydalanishni baholashda resurslarning alohida turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Bunda faqat sarflangan resurs miqdori emas, balki ushbu sarf hisobiga yaratilgan iqtisodiy natija ham hisobga olinadi. Resurs unumdorligining oshishi bir xil miqdordagi resurslardan ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish yoki belgilangan ishlab chiqarish hajmini kamroq resurs sarfi bilan ta‘minlash imkonini beradi.

**Korxona resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari**

| <b>Resurs turi</b>         | <b>Baholash ko‘rsatkichi</b> | <b>Iqtisodiy mazmuni</b>                                                   |
|----------------------------|------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| <b>Asosiy vositalar</b>    | Fond qaytimi                 | Asosiy vositalar birligiga yaratilgan mahsulot hajmini ifodalaydi          |
| <b>Asosiy vositalar</b>    | Fond sig‘imi                 | Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar qiymatini ko‘rsatadi |
| <b>Mehnat resurslari</b>   | Mehnat unumdorligi           | Bir xodim hisobiga yaratilgan mahsulot yoki tushumni ifodalaydi            |
| <b>Moddiy resurslar</b>    | Material qaytimi             | Sarflangan material birligidan olingan mahsulot hajmini ko‘rsatadi         |
| <b>Moddiy resurslar</b>    | Material sig‘imi             | Mahsulot birligiga sarflangan moddiy resurslarni tavsiflaydi               |
| <b>Energiya resurslari</b> | Energiya sig‘imi             | Mahsulot birligiga sarflangan energiya miqdorini ifodalaydi                |
| <b>Moliyaviy resurslar</b> | Aktivlar rentabelligi        | Aktivlardan foyda olish samaradorligini ko‘rsatadi                         |
| <b>Kapital</b>             | Kapital rentabelligi         | Xususiy kapitaldan foydalanish natijadorligini tavsiflaydi                 |
| <b>Aylanma mablag‘lar</b>  | Aylanish koeffitsiyenti      | Aylanma resurslardan foydalanish tezligini ifodalaydi                      |

Mazkur ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish korxona faoliyatidagi samarasiz yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bir vaqtda material yoki energiya sig‘imining oshishi kuzatilsa, ishlab chiqarishning miqdoriy o‘sishi resurs samaradorligining yaxshilanganligini anglatmaydi. Aksincha, mahsulot hajmining o‘sishi resurs sarfining nisbatan past sur‘atlarda ortishi bilan birga kechsa, resurs unumdorligining oshganligi haqida xulosa qilish mumkin.

Resurslardan foydalanish samaradorligiga ishlab chiqarish texnologiyalarining holati alohida ta’sir ko‘rsatadi. Jismonan va ma’nan eskirgan uskunalardan foydalanish energiya va xomashyo sarfining ortishiga, ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarning ko‘payishiga hamda ta’mirlash xarajatlarining oshishiga olib keladi. Zamonaviy va avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish esa texnologik jarayonlarni aniq nazorat qilish, resurs sarfini me’yorlashtirish va ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni kamaytirishga imkon beradi.

Mehnat resurslari ham umumiy resurs samaradorligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xodimlarning malakasi, ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi va mehnatni rag‘batlantirish tizimi texnik hamda moddiy resurslardan foydalanish natijadorligiga ta’sir qiladi. Shu sababli mehnat unumdorligini oshirish faqat xodimlar sonini maqbullashtirish bilan emas, balki ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Resurslardan foydalanish samaradorligini boshqarishda korxonaning ichki imkoniyatlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu imkoniyatlarni ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni qisqartirish, quvvatlardan foydalanish darajasini oshirish, energiya va material sarfini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda logistika jarayonlarini maqbullashtirish orqali safarbar etish mumkin.

3-jadvalda keltirilgan yo‘nalishlar resurs samaradorligini oshirishda korxonaning ichki zaxiralari bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, uskunalarini modernizatsiya qilish energiya sarfini kamaytirish bilan birga mehnat unumdorligini oshirishi va mahsulot sifatining barqarorlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli alohida resurs turini boshqarishdan kompleks resurs boshqaruvi tizimiga o‘tish maqsadga muvofiq.

**Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning ichki zaxiralari**

| <b>Yo‘nalish</b>            | <b>Mavjud muammo</b>                              | <b>Samaradorlikni oshirish chorasi</b>                              | <b>Kutiladigan iqtisodiy natija</b>                       |
|-----------------------------|---------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------|
| Ishlab chiqarish quvvatlari | Quvvatlardan to‘liq foydalanmaslik                | Uskunalar yuklamasini maqbullashtirish                              | Mahsulot hajmining ortishi                                |
| Xomashyo                    | Me’yordan ortiq sarf va chiqindilar               | Sarf me’yorlarini qayta ko‘rib chiqish, chiqindilarni qayta ishlash | Material sig‘imining pasayishi                            |
| Energiya                    | Yuqori energiya sarfi                             | Energiya tejankor uskunalarni joriy etish                           | Energiya xarajatlarining kamayishi                        |
| Mehnat                      | Mehnat unumdorligining pastligi                   | Malaka oshirish va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish      | Bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmining ortishi  |
| Asosiy vositalar            | Uskunalarining eskirishi                          | Modernizatsiya va texnik yangilash                                  | Fond qaytimi va ishlab chiqarish barqarorligining oshishi |
| Logistika                   | Ortiqcha zaxiralar va tashish xarajatlari         | Ta‘minot va zaxiralarni boshqarishni maqbullashtirish               | Aylanma mablag‘lar aylanishining tezlashishi              |
| Boshqaruv                   | Resurs sarfi ustidan nazoratning yetarli emasligi | Raqamli monitoring va KPI tizimini joriy etish                      | Resurs yo‘qotishlarining kamayishi                        |

Fikrimizcha, sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanishni boshqarish “resurslar – ishlab chiqarish jarayoni – iqtisodiy natija – samaradorlikni baholash – boshqaruv qarori” ketma-ketligida tashkil etilishi lozim. Bunda resurs sarfi haqidagi ma’lumotlar muntazam monitoring qilinadi, amaldagi natijalar belgilangan me’yorlar va ilg‘or korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi, aniqlangan tafovutlar asosida tegishli boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi.

Shu nuqtai nazardan benchmarking usulidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Korxonaning material sig‘imi, energiya sig‘imi, mehnat unumdorligi, fond qaytimi va rentabellik ko‘rsatkichlarini tarmoqdagi ilg‘or korxonalar natijalari bilan taqqoslash mavjud samaradorlik tafovutlarini aniqlash imkonini beradi. Bunda benchmarking ilg‘or tajribani mexanik ravishda ko‘chirish emas, balki samarali boshqaruv va ishlab chiqarish amaliyotlarini korxonaning texnologik hamda iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirish vositasi sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligi texnik-texnologik, moddiy, energetik, mehnat, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv omillarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shuning uchun resurs samaradorligini oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlari ham kompleks xususiyatga ega bo‘lishi zarur. Resurs sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish, texnologik yangilanish, mehnat unumdorligini oshirish va raqamli monitoring vositalarini joriy etish korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda yakuniy iqtisodiy natijalarini yaxshilash uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish ishlab chiqarishning yakuniy iqtisodiy natijalarini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Resurs samaradorligi alohida resurs turidan foydalanish natijasi bilan cheklanmay, texnik-texnologik, moddiy, energetik, mehnat, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv omillarining o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Shu sababli uni kompleks yondashuv asosida boshqarish maqsadga muvofiq.

Sanoat korxonalarida mavjud ichki zaxiralarni safarbar etishda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish, material va energiya sig‘imini kamaytirish, uskunalarni modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish hamda logistika jarayonlarini maqbullashtirish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. Ayniqsa, resurslar sarfini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi

raqamli monitoring tizimlarini joriy etish resurs yo‘qotishlarini o‘z vaqtida aniqlash va boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, korxonalarning resurs samaradorligi ko‘rsatkichlarini ilg‘or korxonalar natijalari bilan benchmarking asosida taqqoslash samaradorlik tafovutlarini aniqlash va foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni baholashga xizmat qiladi. Natijada resurslardan samarali foydalanishni “resurslar – ishlab chiqarish jarayoni – iqtisodiy natija – samaradorlikni baholash – boshqaruv qarori” uzluksiz tizimi asosida tashkil etish sanoat korxonalarida xarajatlarni kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.
2. Ohno, T. (1988). *Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production*. Portland, OR: Productivity Press.
3. Camp, R. C. (1989). *Benchmarking: The Search for Industry Best Practices That Lead to Superior Performance*. Milwaukee, WI: ASQC Quality Press.
4. Womack, J. P., & Jones, D. T. (2003). *Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation* (2nd ed.). New York: Free Press.

**UDK: 338**

**“TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI”**

**ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES**

**Xasanov Sayfulla Qudrat o‘g‘li**

Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligining iqtisodiy mazmuni yoritilib, unga ta‘sir etuvchi ishlab chiqarish-texnologik, moliyaviy, resurs, marketing, eksport-logistika, innovatsion-raqamli va institutsional omillar tizimlashtirilgan. Korxona raqobatbardoshligini ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati, moliyaviy natijadorlik, eksport salohiyati, innovatsion faollik va raqamli yetuklik asosida kompleks baholash ko‘rsatkichlari taklif etilgan. Shuningdek, to‘qimachilik korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** to‘qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsiya, raqamlashtirish, eksport salohiyati.

В статье раскрыто экономическое содержание конкурентоспособности предприятий текстильной промышленности, а также систематизированы влияющие на неё производственно-технологические, финансовые, ресурсные, маркетинговые, экспортно-логистические, инновационно-цифровые и институциональные факторы. Предложена система показателей комплексной оценки конкурентоспособности предприятия на основе эффективности производства, качества продукции, финансовой результативности,

экспортного потенциала, инновационной активности и цифровой зрелости. Кроме того, научно обоснованы приоритетные организационно-экономические направления повышения конкурентоспособности предприятий текстильной промышленности.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, конкурентоспособность, организационно-экономический механизм, эффективность производства, инновации, цифровизация, экспортный потенциал.

This article examines the economic essence of the competitiveness of textile industry enterprises and systematizes the production and technological, financial, resource-related, marketing, export and logistics, innovation and digital, and institutional factors affecting it. A system of indicators is proposed for the comprehensive assessment of enterprise competitiveness based on production efficiency, product quality, financial performance, export potential, innovation activity, and digital maturity. In addition, priority organizational and economic directions for enhancing the competitiveness of textile industry enterprises are scientifically substantiated.

**Keywords:** textile industry, competitiveness, organizational and economic mechanism, production efficiency, innovation, digitalization, export potential.

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, xalqaro savdo talablarining murakkablashuvi va global qiymat zanjirlaridagi tarkibiy o‘zgarishlar to‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini an’anaviy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilangina baholash imkoniyatini cheklamoqda. Hozirgi sharoitda korxonaning raqobatbardoshligi mahsulot narxi va sifatidan tashqari, ishlab chiqarish moslashuvchanligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, innovatsion faollik, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi, eksport geografiyasi, xalqaro standartlarga muvofiqlik hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli to‘qimachilik korxonalari raqobatbardoshligini oshirish alohida tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan tashkiliy, iqtisodiy, texnologik, marketing va institutsional vositalarni birlashtiruvchi kompleks mexanizm sifatida tadqiq etilishi zarur.

Raqobatbardoshlik korxonaning mavjud resurslari va bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanib, ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatchilarga nisbatan barqaror ustunlikni shakllantirish, iste’molchilar talabiga mos mahsulot ishlab chiqarish va uzoq muddat davomida iqtisodiy natijadorlikni ta’minlash qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur ta’rifda raqobatbardoshlikning uchta muhim xususiyati mujassamlashgan: birinchidan, u korxona ichki salohiyatining natijasi; ikkinchidan, raqobatchilar bilan taqqoslash asosida namoyon bo‘ladigan nisbiy ko‘rsatkich; uchinchidan, bozor va texnologik muhitdagi o‘zgarishlarga muvofiq ravishda doimiy takomillashib boradigan dinamik iqtisodiy kategoriyadir.

**1-jadval**

**O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining raqobat salohiyatini tavsiflovchi ayrim ko‘rsatkichlar**

| Ko‘rsatkich                                                          | Yil  | Miqdori               | Iqtisodiy mazmuni                                                         |
|----------------------------------------------------------------------|------|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| To‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  | 2023 | 8,2 mlrd AQSH dollari | Tarmoqning yirik ishlab chiqarish bazasi shakllanganini ko‘rsatadi        |
| To‘qimachilik mahsulotlari eksporti                                  | 2023 | 3,1 mlrd AQSH dollari | Tarmoqning eksportga yo‘naltirilganlik darajasini ifodalaydi              |
| Eksport geografiyasi                                                 | 2024 | 83 ta davlat          | Tashqi bozorlarga kirish imkoniyatlari kengayganini bildiradi             |
| To‘qimachilik mahsulotlarining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi | 2024 | 11,9 foiz             | To‘qimachilikning qayta ishlash sanoatidagi strategik o‘rnini tavsiflaydi |

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

| Ko‘rsatkich                                    | Yil  | Miqdori               | Iqtisodiy mazmuni                                                         |
|------------------------------------------------|------|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| To‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi | 2025 | 134 trln so‘m         | Tarmoq ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligini ko‘rsatadi            |
| O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar        | 2025 | 2,1 mlrd AQSH dollari | Modernizatsiya va texnologik yangilanishning moliyaviy asosini ifodalaydi |
| Eksport hajmi                                  | 2025 | 2,5 mlrd AQSH dollari | Tashqi bozorlardagi natijadorlikni aks ettiradi                           |
| Tarmoqda band bo‘lganlar soni                  | 2025 | 623 ming nafar        | Tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi                      |

1-jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining yirik ishlab chiqarish, investitsion va mehnat salohiyati shakllanganini ko‘rsatadi. Xususan, 2025-yilda tarmoqda ishlab chiqarish hajmining 134 trillion so‘mga, o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 2,1 milliard AQSH dollariga yetishi korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilish uchun muhim iqtisodiy asos mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga, eksport natijalarining yillar bo‘yicha o‘zgaruvchanligi korxonalar faoliyatining tashqi bozor konyunkturasi, logistika xarajatlari, xalqaro sertifikatlash talablari, mahsulot tarkibi va jahon narxlariga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi. Demak, ishlab chiqarish hajmining o‘sishi har doim ham korxonaning xalqaro raqobatbardoshligi mutanosib oshishini anglatmaydi.

Tarmoq raqobatbardoshligining muhim muammolaridan biri eksport tarkibida xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar ulushining nisbatan yuqoriligi bilan bog‘liq. Paxta tolasi va kalava ipga nisbatan tayyor mato, trikotaj, tikuvchilik mahsulotlari, texnik tekstil hamda dizayn va milliy brend asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarda yaratiladigan qo‘shilgan qiymat yuqori hisoblanadi. Shu bois korxonalarning raqobat ustunligi ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilangina emas, balki “xomashyo – kalava ip – mato – bo‘yash va pardozlash – tayyor mahsulot – brend – savdo” qiymat zanjirining barcha bosqichlarini integratsiyalash orqali ta’minlanishi lozim.

### 2-jadval

#### To‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar tasnifi

| Omillar guruhi              | Asosiy omillar                                                                                    | Raqobatbardoshlikka ta’siri                                                              |
|-----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ishlab chiqarish-texnologik | Uskunalarining texnik holati, ishlab chiqarish quvvati, texnologik uzluksizlik, avtomatlashtirish | Mehnat unumdorligi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish tannarxini belgilaydi            |
| Resurs omillari             | Xomashyo sifati, energiya va suv sarfi, materiallardan foydalanish darajasi                       | Mahsulot tannarxi va ekologik samaradorlikka ta’sir qiladi                               |
| Moliyaviy-iqtisodiy         | Rentabellik, likvidlik, aylanma mablag‘lar, investitsiya imkoniyati                               | Korxonaning rivojlanish va bozor tavakkalchiliklariga bardoshlilik darajasini belgilaydi |
| Mehnat va intellektual      | Xodimlar malakasi, mehnat unumdorligi, motivatsiya, boshqaruv kompetensiyasi                      | Texnologiyalardan foydalanish va innovatsiyalarni o‘zlashtirish tezligiga ta’sir qiladi  |
| Marketing va bozor          | Brend, assortiment, narx siyosati, iste’molchi talabi, savdo kanallari                            | Bozor ulushi, sotish hajmi va mijozlar sodiqligini shakllantiradi                        |
| Eksport-logistika           | Eksport geografiyasi, transport xarajatlari, yetkazib berish muddati, bojxona tartiblari          | Mahsulotning tashqi bozordagi narxi va yetkazib berish ishonchliligiga ta’sir qiladi     |

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil

| Omillar guruhi      | Asosiy omillar                                                                      | Raqobatbardoshlikka ta'siri                                                                          |
|---------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Innovatsion-raqamli | ERP, MES, CRM, CAD/CAM, IoT, RFID va Big Data texnologiyalari                       | Qarorlar tezkorligi, kuzatuvchanlik, sifat nazorati va ishlab chiqarish moslashuvchanligini oshiradi |
| Institutsional      | Davlat qo'llab-quvvatlashi, standartlar, sertifikatlash, moliyalashtirish shartlari | Korxonaning bozorga kirishi va investitsion faolligiga ta'sir qiladi                                 |
| Ekologik ijtimoiy   | Suv sarfi, zararli chiqindilar, mehnat sharoiti, ESG talablari                      | Xalqaro xaridorlar ishonchi va global qiymat zanjirlariga kirish imkoniyatini belgilaydi             |

Keltirilgan omillar korxona raqobatbardoshligining ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligini asoslaydi. Ularning ayrimlari, jumladan, ishlab chiqarish quvvati, tannarx, mehnat unumdorligi va rentabellik korxonaning ichki boshqaruv qarorlari orqali tartibga solinadi. Valyuta kursi, jahon bozoridagi talab, transport tariflari va xalqaro savdo cheklovlari esa tashqi muhit omillari hisoblanadi. Biroq tashqi omillar korxona tomonidan bevosita boshqarilmasa-da, eksport bozorlarini diversifikatsiyalash, sug'urtalash, uzoq muddatli shartnomalar tuzish va moslashuvchan ishlab chiqarish tizimini yaratish orqali ularning salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin.

### 3-jadval

#### To'qimachilik sanoati korxonasi raqobatbardoshligini kompleks baholash ko'rsatkichlari

| Baholash yo'nalishi            | Asosiy ko'rsatkichlar                                                  | Hisoblash yoki baholash mazmuni                                  | Ta'sir yo'nalishi |
|--------------------------------|------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|-------------------|
| Ishlab chiqarish samaradorligi | Quvvatdan foydalanish, fond qaytimi, ishlab chiqarish sikli            | Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish natijadorligi         | +                 |
| Mehnat samaradorligi           | Bir xodimga mahsulot hajmi, ish vaqti yo'qotishlari                    | Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi                   | +/-               |
| Xarajat ustunligi              | Bir birlik mahsulot tannarxi, material va energiya sig'imi             | Korxonaning narx bo'yicha raqobatlashish imkoniyati              | -                 |
| Moliyaviy natijadorlik         | Sotish rentabelligi, aktivlar rentabelligi, likvidlik                  | Moliyaviy barqarorlik va investitsion imkoniyat                  | +                 |
| Mahsulot sifati                | Nuqsonlar darajasi, qaytarilgan mahsulotlar, sertifikatlar             | Mahsulotning texnik va iste'mol xususiyatlari                    | +/-               |
| Eksport raqobatbardoshligi     | Eksport ulushi, geografik diversifikatsiya, eksport rentabelligi       | Korxonaning tashqi bozorlardagi mavqeyi                          | +                 |
| Innovatsion faollik            | Yangi mahsulotlar ulushi, innovatsion xarajatlar, yangi texnologiyalar | Mahsulot va jarayon innovatsiyalarining natijadorligi            | +                 |
| Raqamli yetuklik               | ERP, MES, CRM, IoT va RFID qamrovi                                     | Boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi | +                 |
| Bozor natijadorligi            | Bozor ulushi, sotish hajmi, buyurtmalar portfeli                       | Korxonaning talabni shakllantirish va qondirish qobiliyati       | +                 |
| Ekologik samaradorlik          | Suv, energiya va chiqindi sig'imi                                      | Barqaror ishlab chiqarish talablariga muvofiqlik                 | -                 |

Izoh: “+” - ko'rsatkich oshishi raqobatbardoshlikni yaxshilaydi; “-” - ko'rsatkich kamayishi ijobiy natija beradi.

Tadqiqotda to'qimachilik korxonasi raqobatbardoshligini baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish yetarli emasligi asoslanadi. Chunki joriy davrda yuqori foyda

olayotgan korxonada uskunalarning eskirishi, energiya sarfining yuqoriligi, eksportning bitta bozorga bog‘liqligi yoki raqamli boshqaruv tizimining rivojlanmaganligi kelgusida uning raqobat pozitsiyasini zaiflashtirishi mumkin. Shuning uchun baholash tizimi korxonaning joriy iqtisodiy natijalari bilan birga uning uzoq muddatli raqobat salohiyatini ham aks ettirishi zarur.

3-jadval ma’lumotlari to‘qimachilik sanoati korxonasi raqobatbardoshligini kompleks baholash ishlab chiqarish, mehnat, xarajat, moliyaviy, sifat, eksport, innovatsion, raqamli, bozor va ekologik yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘liq holda qamrab olishi zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimi korxonaning nafaqat joriy iqtisodiy natijalarini, balki uning istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari, texnologik moslashuvchanligi va ichki hamda tashqi bozorlarda barqaror raqobat ustunligini shakllantirish salohiyatini ham baholash imkonini beradi. Xususan, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, fond qaytimi, mehnat unumdorligi, rentabellik, eksport ulushi, innovatsion faollik va raqamli texnologiyalar bilan qamrov darajasining oshishi korxona raqobatbardoshligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tannarx, material va energiya sig‘imi, nuqsonli mahsulotlar ulushi, ish vaqti yo‘qotishlari, suv sarfi hamda chiqindilar miqdori teskari yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Umuman olganda, to‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, resurs va xarajatlarni samaradorligini oshirish, malakali mehnat salohiyatini rivojlantirish, innovatsion hamda raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish, eksport bozorlarini diversifikatsiyalash, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga asoslanishi lozim.

Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati, moliyaviy barqarorlik, innovatsion faollik, raqamli yetuklik va eksport salohiyatini kompleks rivojlantirishga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Raqobat ustunligini ta’minlash uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, resurs va energiya sarfini kamaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushini oshirish hamda xalqaro standartlarni keng joriy etish zarur. Shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish, eksport bozorlarini diversifikatsiyalash va korxona raqobatbardoshligini kompleks ko‘rsatkichlar asosida muntazam baholab borish maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. - New York: Free Press, 1985. - 557 p.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. To‘qimachilik tarmog‘ini rivojlantirish, eksport va investitsiya hajmlarini oshirish chora-tadbirlari. - Toshkent, 2024. Rasmiy manba
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. To‘qimachilik sanoatida yil yakunlari hamda kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar. - Toshkent, 2025. Rasmiy manba
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2024-yil yanvar–dekabr. - Toshkent, 2025. Rasmiy statistik to‘plam.

**PAXTA VA G‘ALLA URUG‘LIKLARINI TAYYORLOVCHI KORXONALAR  
FAOLIYATIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR**

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО  
ПОДГОТОВКЕ СЕМЯН ХЛОПЧАТНИКА И ЗЕРНОВЫХ КУЛЬТУР**

**FACTORS AFFECTING THE ACTIVITIES OF COTTON AND GRAIN SEED  
PROCESSING ENTERPRISES**

**Kabilov Odil Xurramovich**

Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada paxta va g‘alla urug‘liklarini tayyorlovchi korxonalar faoliyatiga ta’sir etuvchi ishlab chiqarish-texnologik, moliyaviy, mehnat, logistik, tabiiy-iqlimiy va institutsional omillar tizimlashtirilgan. Ushbu omillarning korxonalar iqtisodiy samaradorligiga ta’siri baholanib, salbiy ta’sirlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Paxta urug‘ligi, g‘alla urug‘ligi, urug‘lik tayyorlash korxonasi, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish omillari, xomashyo ta’minoti, konditsion urug‘lik, texnologik jarayon, mahsulot sifati, ishlab chiqarish tannarxi, logistika, rentabellik, tashqi xavflar.

В статье систематизированы производственно-технологические, финансовые, трудовые, логистические, природно-климатические и институциональные факторы, влияющие на деятельность предприятий по подготовке семян хлопчатника и зерновых культур. Оценено влияние данных факторов на экономическую эффективность предприятий, а также предложены направления снижения их негативного воздействия и повышения эффективности.

**Ключевые слова:** семена хлопчатника, семена зерновых культур, предприятие по подготовке семян, экономическая эффективность, производственные факторы, обеспечение сырьём, кондиционные семена, технологический процесс, качество продукции, себестоимость производства, логистика, рентабельность, внешние риски.

The article systematizes the production and technological, financial, labour, logistical, natural and climatic, and institutional factors affecting the activities of cotton and grain seed processing enterprises. The impact of these factors on the economic efficiency of enterprises is assessed, and measures to mitigate their adverse effects and improve efficiency are proposed.

**Keywords:** cotton seeds, grain seeds, seed processing enterprise, economic efficiency, production factors, raw material supply, certified-quality seeds, technological process, product quality, production cost, logistics, profitability, external risks.

Paxta va g‘alla urug‘liklarini tayyorlovchi korxonalar agrosanoat majmuasining muhim ishlab chiqarish bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Mazkur korxonalar faoliyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini nav tozaligi, unuvchanligi, namligi va fitosanitar holati bo‘yicha belgilangan talablarga javob beradigan sifatli urug‘lik bilan ta’minlashga yo‘naltiriladi. Shu sababli ularning iqtisodiy natijalari faqat ishlab chiqarish hajmi va sotishdan olingan daromad bilan emas, balki urug‘likning biologik xususiyatlarini saqlash, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, sertifikatlashtirish talablariga rioya qilish hamda buyurtmachilarga o‘z vaqtida yetkazib berish darajasi bilan ham belgilanadi.

Urug‘lik tayyorlash jarayoni xomashyoni qabul qilish, laboratoriya tahlilidan o‘tkazish, tozalash, saralash, kalibrlash, dorilash, qadoqlash, markirovkalash, saqlash va iste’molchiga yetkazib berish kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlarni qamrab oladi. Ushbu bosqichlarning birortasida yuzaga

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 7-son 2026 yil**

kelgan texnologik yoki tashkiliy uzilish yakuniy mahsulot sifati, ishlab chiqarish tannarxi va korxona rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni alohida emas, balki yagona tashkiliy-iqtisodiy tizim doirasida baholash maqsadga muvofiq.

Paxta va g'alla urug'liklarini tayyorlovchi korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni shakllanish manbaiga ko'ra ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillar korxona tomonidan boshqarilishi va tartibga solinishi mumkin bo'lgan jarayonlarni ifodalasa, tashqi omillar korxona faoliyat yuritadigan bozor, tabiiy-iqlimiy va institutsional muhit ta'sirida shakllanadi.

### **1-jadval**

#### **Paxta va g'alla urug'liklarini tayyorlovchi korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tasnifi**

| <b>Omillar guruhi</b>              | <b>Asosiy omillar</b>                                                          | <b>Korxona faoliyatiga ta'siri</b>                                              |
|------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ishlab chiqarish-texnologik</b> | Uskunalar quvvati, texnologik liniyalarning holati, avtomatlashtirish darajasi | Mahsulot hajmi, texnologik yo'qotishlar va qayta ishlash sifatiga ta'sir qiladi |
| <b>Xomashyo-ta'minot</b>           | Urug'lik xomashyosining sifati, hajmi, nav tarkibi va yetkazib berish muddati  | Ishlab chiqarish uzluksizligi va tayyor mahsulot chiqishiga ta'sir ko'rsatadi   |
| <b>Sifat</b>                       | Nav tozaligi, unuvchanlik, namlik, zararkunanda va kasalliklardan xoli bo'lish | Mahsulot raqobatbardoshligi va sotish imkoniyatini belgilaydi                   |
| <b>Mehnat</b>                      | Xodimlar malakasi, mehnat intizomi, ish jarayonlarini tashkil etish            | Mehnat unumdorligi va mahsulot sifatiga ta'sir qiladi                           |
| <b>Moliyaviy</b>                   | Aylanma mablag'lar, investitsiyalar, kredit resurslari va to'lov intizomi      | Modernizatsiya, xomashyo xaridi va moliyaviy barqarorlikni belgilaydi           |
| <b>Energetik</b>                   | Elektr energiyasi va yoqilg'i ta'minoti, energiya narxi                        | Tannarx va ishlab chiqarish uzluksizligiga ta'sir ko'rsatadi                    |
| <b>Logistik</b>                    | Transport, omborlar, qadoqlash va yetkazib berish tizimi                       | Saqlashdagi yo'qotishlar va buyurtmalarni bajarish muddatiga ta'sir qiladi      |
| <b>Marketing</b>                   | Talabni o'rganish, shartnomalar, narx belgilash va sotish kanallari            | Sotish hajmi va bozordagi mavqeni belgilaydi                                    |
| <b>Innovatsion-raqamli</b>         | Raqamli monitoring, avtomatik nazorat va ma'lumotlar bazasi                    | Resurslar sarfini optimallashtirish va qarorlar tezkorligini oshiradi           |
| <b>Tabiiy-iqlimiy</b>              | Harorat, yog'ingarchilik, qurg'oqchilik, tuproq va suv sharoiti                | Xomashyo hajmi, urug'lik sifati va mavsumiylikka ta'sir ko'rsatadi              |
| <b>Institutsional</b>              | Standartlar, sertifikatlashtirish, davlat buyurtmasi va tartibga solish        | Korxonaning ishlab chiqarish va sotish shartlarini belgilaydi                   |
| <b>Bozor</b>                       | Talab, raqobat, narxlar o'zgarishi va iste'molchilarning to'lov qobiliyati     | Daromad, foyda va mahsulot zaxiralariga ta'sir qiladi                           |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxona iqtisodiy samaradorligi faqat ishlab chiqarish-texnologik imkoniyatlarga bog'liq emas. Xomashyo sifati, moliyaviy resurslar yetarliligi, laboratoriya nazorati, logistika va bozor talabi o'rtasidagi muvofiqlik yakuniy natijani shakllantiradi. Masalan, zamonaviy uskunalar mavjud bo'lgan sharoitda ham sifatsiz xomashyo yetkazib berilishi konditsion urug'lik chiqishini kamaytiradi. Aksincha, yuqori sifatli xomashyoni texnologik jihatdan eskirgan uskunalarda qayta ishlash urug'likning mexanik shikastlanishi va texnologik chiqindilar ko'payishiga olib kelishi mumkin.

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 7-son 2026 yil**

Korxona darajasida boshqariladigan omillar orasida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish, xomashyoni qayta ishlash chuqurligi, resurslar sarfi, mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Ularni samarali boshqarish mahsulot birligi tannarxini pasaytirish, foydani ko‘paytirish va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkonini beradi.

### **2-jadval**

#### **Korxona ichki omillarining iqtisodiy natijalarga ta’sir yo‘nalishlari**

| <b>Ichki omil</b>                       | <b>Ijobiy holat</b>                                       | <b>Salbiy holat</b>                                     | <b>Kutiladigan iqtisodiy natija</b>                                                |
|-----------------------------------------|-----------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
| Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish | Uskunalarining barqaror va to‘liq yuklanishi              | Quvvatlarning bekor turishi                             | Doimiy xarajatlarning mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan ulushi kamayadi         |
| Texnologik yangilanish                  | Zamonaviy tozalash, saralash va kalibrlash uskunalari     | Jismoniy va ma’naviy eskirgan liniyalar                 | Tayyor mahsulot chiqishi va sifat darajasi oshadi                                  |
| Xomashyo sifati                         | Nav va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha saralangan xomashyo | Namligi yuqori va aralash xomashyo                      | Qayta ishlash xarajatlari va yo‘qotishlar kamayadi                                 |
| Laboratoriya nazorati                   | Bosqichma-bosqich tezkor sifat nazorati                   | Nazoratning faqat yakuniy bosqichda o‘tkazilishi        | Nomuvofiq mahsulotni erta aniqlash imkoniyati ortadi                               |
| Mehnat resurslari                       | Malakali xodimlar va natijaga bog‘langan rag‘batlantirish | Malaka yetishmasligi va mehnat unumdorligining pastligi | Ish vaqtidan foydalanish hamda bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi oshadi |
| Energiyadan foydalanish                 | Energiya tejamkor uskunalar va sarf monitoringi           | Energiya sig‘imining yuqoriligi                         | Mahsulot tannarxida energiya xarajatlari qisqaradi                                 |
| Ombor xo‘jaligi                         | Harorat va namlik nazorat qilinadigan omborlar            | Saqlash sharoitlarining talabga javob bermasligi        | Urug‘lik sifati saqlanadi va tabiiy yo‘qotishlar kamayadi                          |
| Moliyaviy boshqaruv                     | Aylanma mablag‘larning tez aylanishi                      | Debitorlik qarzining ortishi                            | To‘lov qobiliyati va ishlab chiqarish uzluksizligi ta’minlanadi                    |
| Raqamli boshqaruv                       | Xomashyo harakati va xarajatlarni elektron hisobga olish  | Qo‘l mehnatiga asoslangan hisob va nazorat              | Axborot aniqligi va boshqaruv qarorlari tezkorligi oshadi                          |

Ichki omillarning samaradorlikka ta’siri o‘zaro bog‘liq xususiyatga ega. Ishlab chiqarish quvvatidan yuqori darajada foydalanish xomashyo ta’minoti barqaror bo‘lganidagina ijobiy natija beradi. Shuningdek, texnologik modernizatsiya xodimlar malakasini oshirish va raqamli nazorat tizimini joriy etish bilan birgalikda amalga oshirilmasa, investitsiyalarning kutilgan iqtisodiy samarasi to‘liq ta’minlanmaydi.

Paxta va g‘alla urug‘liklarini tayyorlash mavsumiy xususiyatga ega bo‘lib, korxonalar faoliyati tabiiy-iqlimiy sharoit, xomashyo yetishtiruvchilar faoliyati va tarmoqni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlariga sezilarli darajada bog‘liq. Ob-havoning noqulay kelishi urug‘lik xomashyosining hajmi va sifatini pasaytirsa, energiya resurslari hamda transport xizmatlari narxining o‘sishi mahsulot tannarxini oshiradi.

**Tashqi omillarning korxona faoliyatiga ta’sir mexanizmi**

| <b>Tashqi omil</b>               | <b>Ta’sir obyekti</b>                    | <b>Ehtimoliy xavf</b>                                | <b>Korxonaning moslashuv choralari</b>                                    |
|----------------------------------|------------------------------------------|------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|
| Tabiiy-iqlim sharoiti            | Xomashyo hajmi va sifati                 | Hosildorlik va urug‘lik unuvchanligining pasayishi   | Xomashyo yetkazib beruvchilarni hududlar bo‘yicha diversifikatsiya qilish |
| Suv ta’minoti                    | Urug‘lik yetishtirish jarayoni           | Xomashyo yetishmovchiligi va sifat o‘zgarishi        | Yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish              |
| Energiya tariflari               | Qayta ishlash tannarxi                   | Xarajatlar va sotish narxining oshishi               | Energiya auditi va tejamkor texnologiyalarni joriy etish                  |
| Transport tariflari              | Xomashyo va tayyor mahsulot logistikasi  | Yetkazib berish xarajatlarning ko‘payishi            | Optimal yo‘nalishlar va hududiy omborlardan foydalanish                   |
| Standartlashtirish talablari     | Mahsulot sifati va sotish                | Mahsulotning sertifikatdan o‘tmasligi                | Laboratoriya bazasini takomillashtirish                                   |
| Bozor talabi                     | Ishlab chiqarish va sotish hajmi         | Ortiqcha zaxira yoki mahsulot taqchilligi            | Talabni prognozlash va buyurtmalar asosida ishlab chiqarish               |
| Kredit shartlari                 | Aylanma mablag‘lar va investitsiyalar    | Moliyaviy xarajatlarning o‘sishi                     | Moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish                              |
| Raqobat muhiti                   | Narx va mahsulot sifati                  | Bozor ulushining qisqarishi                          | Sifat, servis va yetkazib berish tezligi bo‘yicha ustunlik yaratish       |
| Davlat tomonidan tartibga solish | Ishlab chiqarish va sotish munosabatlari | Tartib-taomillar o‘zgarishining xarajatlarga ta’siri | Me’yoriy o‘zgarishlarni muntazam monitoring qilish                        |

Tashqi omillar korxona tomonidan bevosita boshqarilmasa-da, ularning ta’sirini oldindan baholash va tegishli moslashuv choralari ishlab chiqish mumkin. Xususan, xomashyo yetkazib beruvchilar tarkibini diversifikatsiya qilish, ehtiyot qismlar zaxirasini shakllantirish, energiya sarfini me’yorlashtirish va talab prognozlaridan foydalanish tashqi tavakkalchiliklarning iqtisodiy oqibatlarini yumshatadi.

Tadqiqot natijalari paxta va g‘alla urug‘liklarini tayyorlovchi korxonalar iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish-texnologik, xomashyo-ta’minot, moliyaviy, mehnat, energetik, logistik, marketing, tabiiy-iqlimiy va institutsional omillarning o‘zaro uyg‘unlashgan ta’siri ostida shakllanishini ko‘rsatdi. Ushbu omillarning birortasini alohida boshqarish barqaror iqtisodiy natijaga erishish uchun yetarli emas. Shu sababli korxonalarda xomashyoni qabul qilishdan boshlab, tayyor urug‘likni saqlash va iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirish zarur.

Shunday qilib, urug‘lik tayyorlovchi korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun, birinchi navbatda, xomashyo va tayyor mahsulot sifatini bosqichma-bosqich nazorat qilish, ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish, texnologik yo‘qotishlarni kamaytirish, energiya va logistika xarajatlarni optimallashtirish hamda talab prognozlari asosida ishlab chiqarish dasturlarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi mahsulot tannarxini pasaytirish, konditsion urug‘lik chiqishini ko‘paytirish, korxonalarning rentabelligi va moliyaviy barqarorligini oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-fevraldagi O‘RQ-521-sonli “Urug‘chilik to‘g‘risida” gi Qonuni. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-dekabrda PQ-391-sonli “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-dekabrda 712-sonli “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini sertifikatlash va navdorligini baholash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarori.
4. FAO. Quality Declared Seed System: Technical Guidelines on Standards and Procedures. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2006. – 250 p. FAO Knowledge Repository.
5. FAO. Seeds Toolkit. Module 3: Seed Quality Assurance. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2018.
6. FAO. The Second Report on the State of the World’s Plant Genetic Resources for Food and Agriculture. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2010.

**UDK: 338.242:378.1:004.9**

**OLIY TA’LIM TIZIMI RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR VA BOSHQARUVDAGI UZILISHLAR TAHLILI**

**АНАЛИЗ СИСТЕМНЫХ ПРОБЛЕМ И НАРУШЕНИЙ В УПРАВЛЕНИИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОСИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**ANALYSIS OF SYSTEMIC PROBLEMS AND GOVERNANCE DISRUPTIONS IN FORMING THE DIGITAL ECOSYSTEM OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM**

**Pirmanov Oxunjon Baxridin o‘g‘li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0009-0007-8313-9030

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta’lim tizimida shakllanayotgan raqamli ekotizimning institutsional yetukligini cheklayotgan tizimli muammolar tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor raqamlashtirilgan jarayonlar va axborot tizimlarining parchalanganligi, ma’lumotlarning takroriyliigi va sifati, klassifikatorlar hamda standartlarning nomuvofiqligi, idoralararo integratsiyada vakolat va javobgarlikning noaniqligi, shuningdek Data Hub asosida ma’lumotlarni boshqarish mexanizmlarini shakllantirish zaruratiga qaratilgan. Tahlil yuklangan manbada keltirilgan vazirlik ma’lumotlari, HEMIS va boshqa platformalarning integratsiyalashuv holati asosida olib borilgan. Natijada raqamli ekotizim samaradorligini platformalar soni bilan emas, balki ma’lumotlar sifati, end-to-end jarayonlar, yagona klassifikatorlar, API standartlari, ma’lumot egasi va javobgar subyektlarning aniq belgilanishi orqali baholash zarurligi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** oliy ta’lim, raqamli ekotizim, HEMIS, EduBilling, Data Hub, ma’lumotlar sifati, interoperabellik, klassifikator, API, RACI, SLA, institutsional boshqaruv.

В статье анализируются системные проблемы, ограничивающие институциональную зрелость формирующейся цифровой экосистемы в системе высшего образования. Основное внимание уделяется фрагментации цифровых процессов и информационных систем, дублированию и качеству данных, несогласованности классификаторов и стандартов, неоднозначности полномочий и ответственности при межведомственной интеграции, а также

необходимости формирования механизмов управления данными на основе Data Hub. Анализ проводился на основе министерских данных, предоставленных в загруженном источнике, состояния интеграции HEMIS и других платформ. В результате становится очевидной необходимость оценки эффективности цифровой экосистемы не по количеству платформ, а по качеству данных, сквозным процессам, унифицированным классификаторам, стандартам API и четкому определению владельцев данных и ответственных лиц.

**Ключевые слова:** высшее образование, цифровая экосистема, HEMIS, EduBilling, Data Hub, качество данных, интероперабельность, классификатор, API, RACI, SLA, институциональное управление.

The article analyzes the systemic problems that limit the institutional maturity of the digital ecosystem being formed in the higher education system. The main attention is paid to the fragmentation of digital processes and information systems, the duplication and quality of data, the inconsistency of classifiers and standards, the ambiguity of authority and responsibility in interdepartmental integration, as well as the need to form data management mechanisms based on the Data Hub. The analysis was conducted based on the ministerial data provided in the uploaded source, the state of integration of HEMIS and other platforms. As a result, it is necessary to assess the effectiveness of the digital ecosystem not by the number of platforms, but by data quality, end-to-end processes, unified classifiers, API standards, and a clear definition of data owners and responsible entities.

**Keywords:** higher education, digital ecosystem, HEMIS, EduBilling, Data Hub, data quality, interoperability, classifier, API, RACI, SLA, institutional management.

Oliy ta’lim tizimida raqamli platformalarni joriy etish, elektron xizmatlar ko’lamini kengaytirish va idoralararo integratsiyani rivojlantirish boshqaruv jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. HEMIS, EduBilling, elektron qabul, diplom, elektron kutubxona va boshqa platformalar alohida funksional vazifalarni bajarib, katta hajmdagi ma’lumotlarni shakllantirish va turli xizmatlarni elektron ko’rinishda tashkil etish imkonini bermoqda. Biroq raqamli vositalar sonining ortishi o’z-o’zidan yagona va institutsional jihatdan yetuk raqamli ekotizim shakllanganini anglatmaydi. Yuklangan material tahlili aynan shu jihatni asosiy muammo sifatida ko’rsatadi.

Raqamli ekotizimning samaradorligi faqat axborot tizimi mavjudligi yoki muayyan xizmatning elektron shaklga o’tkazilgani bilan belgilanmaydi. Ma’lumotlar sifati, platformalar o’rtasidagi semantik va texnologik moslik, vakolatlar taqsimoti, xizmat ko’rsatish darajasi, ma’lumot egasi va ma’lumot sifati uchun javobgarlik kabi masalalar bir vaqtning o’zida hal etilmasa, raqamlashtirishning boshqaruv qiymati cheklanib qoladi. Shu sababli muammo “tizim ishlayaptimi?” degan texnik savoldan “ma’lumotlar va institutlar o’zaro to’g’ri ishlayaptimi?” degan institutsional savolga ko’chadi.

Vazirlik materiallarida turli davlat idoralari va ta’lim muassasalari o’rtasida ma’lumot almashinuvi yetarli yo’lga qo’yilmaganda bir xil ma’lumotni bir necha marta taqdim etish, takroriy tekshiruvlar o’tkazish va xizmat ko’rsatish muddatining uzayishi kabi holatlar yuzaga kelgani qayd etiladi. Bu holat raqamli ekotizimni shakllantirishdagi asosiy cheklov axborot tizimlarining yo’qligi emas, balki ularning o’zaro muvofiqligi va yagona boshqaruv arxitekturasini yetarli darajada shakllanmaganida ekanini ko’rsatadi.

Maqolaning maqsadi oliy ta’lim raqamli ekotizimida namoyon bo’layotgan tizimli muammolarni ma’lumotlarni boshqarish nuqtai nazaridan tasniflash, ularning boshqaruv oqibatlarini ochib berish va yuklangan materialda ilgari surilgan institutsional mexanizmlar asosida ularni bartaraf etish yo’nalishlarini umumlashtirishdan iborat.

Mavzuning institutsional va amaliy asoslari ikki turdagi manbaga tayangan. Birinchi manba – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlari. Unda raqamlashtirilishi mumkin bo’lgan 546 ta jarayon aniqlangani, ularning

256 tasi yoki 46,9 foizi raqamlashtirilgani, 33 tasi yoki 6 foizi avtomatlashtirilgani ko‘rsatilgan [1]. Bu ko‘rsatkichlar oliy ta‘limda raqamlashtirish sezilarli darajada rivojlanganini, biroq jarayonlarning katta qismi hali boshidan oxirigacha to‘liq raqamli shaklga o‘tmaganini anglatadi.

Ikkinchi institutsional manba – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son Farmoni. Manbada ushbu Farmon bilan Raqamli ta‘lim va sun‘iy intellektni rivojlantirish markazining yagona integrator sifatida belgilanishi hamda mavjud axborot tizimlarini Data Hub asosida o‘zaro integratsiya qilish vazifasi nazarda tutilgani qayd etilgan [2]. Mazkur yondashuv texnologik integratsiyani markazlashtirish bilan birga, ma‘lumotlar standartlari, ma‘lumot egasi, xavfsizlik va idoralararo muvofiqlashtirishni institutsional jihatdan tartibga solish zaruratini ham yuzaga chiqaradi.

Nazariy yondashuvning muhim jihati shundaki, raqamli ekotizimdagi muammolar alohida texnik nosozliklar yig‘indisi sifatida emas, balki bir-biriga bog‘langan institutsional zanjir sifatida talqin qilinadi. Parchalangan biznes-jarayonlar ma‘lumotning qayta kiritilishiga, takroriylik esa ma‘lumot sifati pasayishiga, klassifikatorlar farqi avtomatik integratsiyaning qiyinlashishiga, vakolatlarining noaniqligi esa muammoni bartaraf etish muddatining cho‘zilishiga olib keladi. Natijada boshqaruv ma‘lumoti kechikadi yoki noto‘g‘ri shakllanadi va bu qarorlar sifatiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu tariqa, mazkur manbalar raqamli transformatsiyani oddiy elektronlashtirishdan farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Elektron shaklga o‘tkazilgan alohida bosqich hali to‘liq raqamli boshqaruvni anglatmaydi. Agar ariza elektron qabul qilinsa-yu, ko‘rib chiqish, kelishish yoki yakuniy qarorni rasmiylashtirish bosqichlaridan biri qo‘lda bajarilsa, butun xizmat zanjiri end-to-end tamoyili bo‘yicha raqamlashtirilgan deb baholanmaydi.

Metodologik asos sifatida tizimli tahlil, institutsional tahlil, mantiqiy umumlashtirish, muammo–oqibat–sabab zanjiri va jarayonlik yondashuv qo‘llanildi. Bunda raqamli ekotizimning alohida komponentlari emas, balki jarayon, ma‘lumot, standart, integratsiya, vakolat va boshqaruv qarori o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tahlil birligi sifatida olindi.

Tizimli tahlil orqali materialda ajratilgan yettita muammo bloki o‘zaro bog‘langan holatda ko‘rib chiqildi: jarayonlarning parchalanganligi; ma‘lumotlarning takroriyliigi va sifati; standart hamda klassifikatorlarning nomuvofiqligi; idoralararo muvofiqlashtirish; kadrlar salohiyati; axborot xavfsizligi; texnik va moliyaviy barqarorlik. Ushbu bloklarning boshqaruvga ta‘siri xizmat muddati, qo‘shimcha mehnat sarfi, statistik tafovutlar, monitoring sifati, integratsiya barqarorligi va qarorlar ishonchliligi orqali baholandi.

Jarayonlik yondashuvda raqamlashtirish darajasini hisoblash uchun faqat elektronlashtirilgan xizmatlar soni emas, balki boshidan oxirigacha to‘liq raqamli yakunlanadigan jarayon ulushini asosiy mezon sifatida qabul qilish zarur degan manba xulosasi markaziy mezon sifatida olindi. Ma‘lumotlarni boshqarish bo‘yicha esa har bir ma‘lumot turi uchun uchta institutsional element – birlamchi manba, sifat uchun javobgar subyekt va yangilash-verifikatsiya davri – ajratildi.


Shuningdek, Data Hub konsepsiyasi faqat texnik integratsiya platformasi sifatida emas, balki ma‘lumotlar standartlari, ma‘lumot egalari, sifat qoidalari va foydalanish huquqlarini boshqaruvchi institutsional muhit sifatida talqin qilindi. Shu asosda RACI va SLA kabi mexanizmlarning vakolatlarni aniqlashtirish va idoralararo integratsiya uzilishlarini kamaytirishdagi roli mantiqiy jihatdan baholandi.

Yuklangan material asosida oliy ta‘lim raqamli ekotizimidagi muammolarni sababdan natijaga qarab ketma-ket shakllanadigan institutsional zanjir sifatida tasvirlash mumkin. Dastlab jarayonlar va axborot tizimlarining parchalanganligi yuzaga keladi.

Bu bir xizmat doirasida bir nechta tizim va qo‘lda bajariladigan bosqichlarning saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Keyingi bosqichda ma‘lumotlarning qayta kiritilishi va takroriyliigi kuchayadi, ma‘lumot sifati bilan bog‘liq xatolar paydo bo‘ladi, turli klassifikator va kodlarning qo‘llanishi esa tizimlar-aro semantik moslikni buzadi.

Muammo zanjirining keyingi bo‘g‘ini API va idoralararo integratsiyadagi uzilishlar bilan bog‘liq. Texnik API ishlayotgan taqdirda ham, bir xil obyekt turli tizimda turlicha kodlansa yoki ma‘lumotning egasi va javobgar subyekti belgilanmasa, integratsiyaning boshqaruv samarasi

pasayadi. Natijada vakolat va javobgarlik noaniqligi kuchayadi, muammo qaysi subyekt tomonidan va qaysi muddatda hal etilishi masalasi cho‘ziladi. Bu esa kechikkan yoki noto‘g‘ri boshqaruv ma’lumotiga, oxir-oqibat boshqaruv qarorlari sifatining pasayishiga olib keladi.



**1-rasm. Oliy ta’lim raqamli ekotizimidagi asosiy tizimli muammolarning institutsional zanjiri**

Manba: Muallif ishlanmasi

Rasmda aks etgan institutsional zanjir raqamli ekotizimdagi muammolarning bir-biridan mustaqil emasligini aniq ko‘rsatadi. Masalan, klassifikatordagi nomuvofiqlik dastlab ma’lumotlarni moslashtirish bilan bog‘liq texnik muammo ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq u integratsiyada xato, statistik tahlilda tafovut va boshqaruv qarorida noto‘g‘ri talqinga sabab bo‘lsa, texnik muammo boshqaruv muammosiga aylanadi. Shuning uchun raqamlashtirishni baholashda tizimlarning mavjudligi yoki ishlash faktining o‘zi yetarli mezon emas.

Vazirlik ma’lumotlarida 546 ta raqamlashtirilishi mumkin bo‘lgan jarayonning 256 tasi raqamlashtirilgani raqamlashtirish ko‘lami bo‘yicha muhim natijani ko‘rsatadi. Biroq manbada keltirilgan 33 ta avtomatlashtirilgan jarayon ko‘rsatkichi jarayonning elektron shaklga o‘tkazilishi bilan to‘liq avtomatlashtirilishi o‘rtasida sezilarli farq borligini anglatadi. Shu sababli keyingi bosqichda miqdoriy “nechta jarayon elektronlashtirildi?” savolidan sifat jihatidan “jarayon boshidan oxirigacha qay darajada avtomatik va uzluksiz ishlaydi?” savoliga o‘tish zarur.

**1-jadval**

**Oliy ta’lim raqamli ekotizimidagi asosiy tizimli muammolar**

| Muammo yo‘nalishi                   | Amalda namoyon bo‘lishi                                                 | Boshqaruv uchun oqibat                                        | Institutsional sabab                                                         |
|-------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Jarayonlarning parchalanishi</b> | Bir xizmatda bir nechta tizim va qo‘lda bajariladigan bosqichlar mavjud | Xizmat muddati uzayadi, qo‘shimcha mehnat sarfi paydo bo‘ladi | Biznes-jarayonlarni yagona arxitektura asosida qayta loyihalash yetarli emas |
| <b>Ma’lumotlar takroriyiligi</b>    | Bir ma’lumot turli tizimlarga qayta kiritiladi                          | Tafovut va xatolar paydo bo‘ladi                              | Birlamchi manba va ma’lumot egasi aniq belgilanmagan                         |

|                                      |                                                           |                                                    |                                                                                         |
|--------------------------------------|-----------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ma’lumot sifati</b>               | Noto’liq, kechikkan yoki noto’g’ri ma’lumot               | Monitoring va qaror sifati pasayadi                | Validatsiya va data quality mexanizmi zaif                                              |
| <b>Klassifikatorlar farqi</b>        | Bir xil obyekt turli tizimda turlicha kodlanadi           | Avtomatik integratsiya qiyinlashadi                | Yagona ma’lumot standartlari yetarli emas                                               |
| <b>Idoralararo muvofiqlashtirish</b> | Integratsiyada bir nechta mas’ul tashkilot ishtirok etadi | O’zgarish va xatolarni bartaraf etish sekinlashadi | Vakolat va SLA talablari aniq emas                                                      |
| <b>Kadrlar salohiyati</b>            | Xodimlarning raqamli va tahliliy ko’nikmalari turlicha    | Tizim imkoniyatlaridan to’liq foydalanilmaydi      | Kompetensiya modeli va muntazam o’qitish tizimi yetarli emas                            |
| <b>Axborot xavfsizligi</b>           | Ma’lumotlar va integratsiyalar ko’lami ortishi            | Insidentlar ta’sir doirasi kengayadi               | Yagona xavfsizlik boshqaruvi va audit mexanizmlari talab etiladi                        |
| <b>Texnik barqarorlik</b>            | Katta yuklama, integratsiya yoki servis uzilishi          | Xizmatlar va boshqaruv jarayonlari to’xtaydi       | Rezervlar, monitoring va SLA mexanizmlari yetarli darajada institutsionallashtirilmagan |

Manba: Muallif ishlanmasi.

Jadvalda tizimli muammolar, ularning amalda namoyon bo’lishi, boshqaruv oqibatlari va institutsional sabablar bir matritsada jamlangan. Jadvaldagi mantiq muammoni faqat tashqi belgi orqali emas, uning boshqaruv oqibati va institutsional ildizi bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, ma’lumotlar takroriyliigi faqat bir ma’lumotni qayta kiritish sifatida emas, balki tafovut va xatolarni yuzaga keltiruvchi holat, uning sababi esa birlamchi manba va ma’lumot egasining aniq belgilanmaganligi sifatida ko’rsatiladi.

Ma’lumot sifati masalasining ko’lami HEMIS misolida yanada yaqqol namoyon bo’ladi. Manbada HEMIS 207 ta oliy ta’lim tashkilotida joriy etilgani, 1,7 milliondan ortiq talaba va 45 mingdan ziyod professor-o’qituvchi bo’yicha yagona ma’lumotlar bazasi shakllangani qayd etilgan. Bunday katta ma’lumot muhiti uchun birlamchi ma’lumotning to’g’riligi, to’liqligi va dolzarbligi oddiy texnik sifat mezonini emas, balki institutsional boshqaruv shartiga aylanadi.

Ma’lumot bir oliy ta’lim tashkilotida noto’g’ri shakllansa, uning ta’siri faqat HEMIS statistikasi bilan cheklanmaydi. Manbaga ko’ra, vazirlik axborot tizimlari 30 ga yaqin davlat organlari va tashkilotlari tizimlari bilan integratsiya qilingan bo’lib, ta’lim krediti, ijara, transport imtiyozlari, ijtimoiy himoya va boshqa xizmatlar uchun ma’lumotlar avtomatik almashinadi. Demak, lokal xato integratsiya orqali tarmoqlararo xarakter kasb etishi mumkin. Bu holat data quality nazoratini faqat OTM ichki masalasi sifatida emas, butun ekotizimning umumiy boshqaruv vazifasi sifatida ko’rishni talab qiladi. Shu sababli har bir ma’lumot turi uchun uchta elementni aniq belgilash zarur: ma’lumotning birlamchi manbasi, ma’lumot sifati uchun javobgar subyekt va yangilash hamda verifikatsiya davri. Agar ushbu uchlik aniqlanmasa, ma’lumot bazada mavjud bo’lsa-da, uning boshqaruv qiymati past bo’lib qoladi. Boshqacha aytganda, “ma’lumot mavjudligi” bilan “ishonchli boshqaruv ma’lumoti mavjudligi” bir xil tushuncha emas.

Klassifikatorlar va standartlar muammosi ham Data Hub samaradorligi uchun markaziy ahamiyatga ega. Turli tizim bir xil shaxs, tashkilot, lavozim yoki ta’lim yo’nalishini turlicha kodlasa, texnik integratsiya ishlashiga qaramasdan semantik moslik buziladi. Shu bois Data Hubni ma’lumotlarni bir joyga yig’uvchi texnik markaz sifatida emas, balki yagona ma’no, kod, standart va sifat qoidalari asosida boshqariladigan institutsional makon sifatida tashkil etish zarur.

Vakolat va javobgarlik taqsimoti raqamli ekotizimning boshqa muhim shartidir. PF–58-son Farmonda yagona integratorni belgilash bu yo’nalishda muhim institutsional qadam sifatida

ko‘rsatilgan. Biroq materialning o‘zida ta’kidlanganidek, yagona integratorning mavjudligi barcha muammolarni avtomatik hal etmaydi. Vazirlik, OTM, integrator, tashqi davlat organi va axborot tizimi operatorining vazifalari aniq ajratilmasa, integratsiya mavjud bo‘lgan taqdirda ham boshqaruvdagi uzilishlar saqlanib qoladi.

Bu yerda RACI matritsasi va SLA talablaridan foydalanish muhim. RACI har bir jarayonda kim mas’ul, kim javobgar, kim bilan maslahatlashiladi va kim xabardor qilinadi degan vakolatlarni aniq ajratishga xizmat qiladi. SLA esa xizmat ko‘rsatish darajasi, javob muddati va texnik qo‘llab-quvvatlash mezonlarini belgilaydi. Yuklangan materialdagi mantiqdan kelib chiqib, ushbu ikki mexanizmni ma’lumot egasi va sifat javobgarligi modeli bilan birlashtirish raqamli ekotizimning institutsional barqarorligini oshirishi mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ekotizimning institutsional yetukligini baholashda ma’lumot oqimining uzluksizligi markaziy mezon bo‘lishi kerak. Platformalar o‘zaro bog‘langan bo‘lsa-yu, ma’lumotning birlamchi manbasi aniq belgilanmasa, takroriylik saqlanadi. Birlamchi manba aniqlansa-yu, sifat uchun javobgar subyekt bo‘lmasa, xatoni tuzatish va verifikatsiya jarayoni cho‘ziladi. Demak, texnologik integratsiya ma’lumotlar boshqaruvi bilan birgalikda rivojlantirilmasa, kutilgan boshqaruv samarasi to‘liq yuzaga chiqmaydi.

Umuman olganda, “platformalar mavjud → ma’lumotlar mavjud → integratsiyalar mavjud → ammo ma’lumot egaligi, sifat, standart, javobgarlik va natijadorlik mexanizmlari bir xil darajada institutsionallashtirilmagan” degan umumlashtirish raqamli transformatsiyaning keyingi bosqichi uchun asosiy xulosani ifodalaydi. Bu bosqichda yangi axborot tizimlarini yaratish ikkilamchi, mavjud tizimlarning o‘zaro muvofiqligi va boshqaruv natijasiga ta’siri esa birlamchi vazifa bo‘lib qoladi.

Data Hub samaradorligi ham aynan shu mezon bilan baholanishi kerak. Ma’lumotlarni markazlashtirish texnik jihatdan qulay bo‘lishi mumkin, biroq katalog, egalar, klassifikatorlar, API standartlari, sifat indikatorlari, foydalanish huquqlari va javobgarlik mexanizmlari institutsional jihatdan mustahkamlanmasa, markazlashuvning o‘zi ma’lumot sifatini kafolatlamaydi. Shu bois Data Hub arxitekturasini bilan Data Governance mexanizmlarini parallel shakllantirish zarur.

Maqola doirasidagi tahlil natijalari raqamli ekotizim samaradorligini natijadorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash zarurligini ham ko‘rsatadi. Jarayonni raqamlashtirishning yakuniy maqsadi tizimlar sonini ko‘paytirish emas, balki xizmat muddati, takroriy mehnat, xatolar va boshqaruv qarorlaridagi noaniqlikni kamaytirishdir. Shu sababli kelgusida raqamlashtirish darajasi bilan birga end-to-end ulushi, ma’lumot sifati va integratsiya barqarorligi kabi ko‘rsatkichlarni ham baholash maqsadga muvofiq.

#### Xulosa va takliflar

1. Olib borilgan tahlil oliy ta’lim raqamli ekotizimining asosiy cheklovi platformalar yetishmasligi emas, balki mavjud platformalar, ma’lumotlar va boshqaruv institutlari o‘rtasidagi muvofiqlikning yetarli darajada ta’minlanmaganida ekanini ko‘rsatadi. Raqamlashtirish miqyosi oshgan sari ma’lumot egasi, sifat, standart, vakolat, javobgarlik va natijadorlik masalalarining ahamiyati ortadi.

2. Raqamli jarayonlarni keyingi bosqichda baholash uchun elektronlashtirilgan xizmatlar soni bilan bir qatorda end-to-end ko‘rsatkichini alohida qo‘llash zarur. Jarayonning bir bosqichi qo‘lda qolsa, u butun xizmatning tezligi va ma’lumot izchilligiga ta’sir qiladi.

3. Ma’lumotlarni boshqarishning yagona institutsional modeli shakllantirilib, har bir ma’lumot turi uchun birlamchi manba, ma’lumot egasi, sifat uchun javobgar subyekt va yangilash-verifikatsiya davri belgilanishi maqsadga muvofiq.

4. Yagona klassifikatorlar reyestri va API standartlari semantik hamda texnologik interoperabellikning asosiy sharti sifatida qaralishi lozim. Data Hub esa faqat texnik integrator emas, balki ma’lumot standartlari va sifat qoidalarini boshqaruvchi institutsional platforma sifatida shakllantirilishi kerak.

5. Vakolatlarni RACI, xizmat ko‘rsatish darajasini SLA asosida tartibga solish idoralararo muvofiqlashtirishni aniqlashtiradi. Bu usul texnik uzilishlar, ma’lumot sifati bilan bog‘liq holatlar va API o‘zgarishlarida mas’ul subyektning tez aniqlash imkonini beradi.

6. Umumiy natija shundan iboratki, oliy ta’lim raqamli ekotizimining keyingi rivojlanish bosqichida yangi platformalarni ko‘paytirishdan ko‘ra, mavjud tizimlarning o‘zaro mosligi, ma’lumotlarni boshqarish va boshqaruv natijadorligini institutsional jihatdan mustahkamlash ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot. – Toshkent, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–58-sonli Farmoni.
3. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023.
4. OECD. Country Digital Education Ecosystems and Governance. – Paris: OECD Publishing, 2023.
5. DAMA International. DAMA-DMBOK: Data Management Body of Knowledge. 2nd Edition. – Technics Publications, 2017.
6. Weill P., Ross J.W. IT Governance: How Top Performers Manage IT Decision Rights for Superior Results. – Boston: Harvard Business School Press, 2004.
7. International Organization for Standardization. ISO/IEC 27001:2022. Information Security, Cybersecurity and Privacy Protection – Information Security Management Systems – Requirements. – Geneva: ISO, 2022.

**Muassis: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**

**Muharrirlar:**

dots. N.A.Kudratxodjayeva

**Texnik muharrir:**

I.M.Nig‘matullayev

**Ro‘yxatdan o‘tish tartibi № 4715**

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda «Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti» dan olindi, deb yozilishi shart.

Chop etishga tavsiya etildi: 30.07.2026 nusxa 50

Format 70x108 1/8. Shartli bosma taboq 18,0. Buyurtma №\_\_7\_\_

Sotuvda kelishilgan holda

ООО «KLASSIC PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etilgan.

Toshkent sh., Chilonzor ko‘chasi 19, 28-uy

**Учредитель: Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

**Редакторы:**

доц. М.И.Саидкаримова

**Тех. редактор:**

И.М.Нигматуллаев

**Регистр № 4715**

При использовании материалов журнала «Экономика Нового Узбекистана» необходимо сделать на него ссылку

Подписано к печати: 30.07.2026

Формат 70x108 1/8. Усл. печ. л. 18,0 Тираж 50 экз. Заказ №\_\_7\_\_

Цена договорная

Отпечатано в типографии ООО «KLASSIC PRINT» г. Ташкент, ул Чилонзор 19, 28 дом.

**Founder: The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**

**Editors:**

I.M.Nigmatullayev

**Technical editor:**

I.M.Nigmatullayev

**Registration № 4715**

When copying the entire journal material, it should be indicated that material was taken from the journal: “The economy of New Uzbekistan”.

Signed for printing: 30.07.2026

Format 70x108 1/8. The number of printed pages accepted 18,0. Circulation 50 copies.

The order № 7

Cost agreed.

Printed at the Tashkent ООО «KLASSIC PRINT» MCHJ. Press. Tashkent, Chilanazar street 19, 28.

## **МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ “ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИ” ЖУРНАЛИГА МАҚОЛА РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАЛАБЛАРИ**

Журнал таҳририяти 7 бетдан кам бўлмаган ҳажмдаги мақолани қабул қилади. Мақола матни Microsoft Word дастурида 14 шрифт ўлчамида, 1.5 интервалда, юқоридан ва пастдан 2 см, ўнгдан 2 см, чапдан 2.5 см жой қолдирилиб, таҳририятга топширилиши лозим. Мақолада чизма, графиклар, жадваллар ва расмлар келтирилиши мумкин. Журнал бир йилда 6 марта нашр этилади.

### **Мақола таркиби:**

- юқорида чап томонда УДК кўрсатилади;
- муаллиф исм-шарифи ўзбек, рус ва инглиз тилларида қисқартирилмаган ҳолда ўнг томонга ёзилади;
- шаҳар ва ташкилот номи;
- мақола номи ўзбек, рус ва инглиз тилларида берилади;
- мақола номидан сўнг ўзбек, рус ва инглиз тилларида аннотация ва калит сўзлар ёзилади.
- матн сўнгида фойдаланилган адабиётлар рўйхати берилади.

## **ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЬИ В ЖУРНАЛ “ЭКОНОМИКА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА” НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

Редакция журнала принимает статьи объемом не менее 5 страниц, набранных в редакторе Microsoft Word в виде компьютерного файла. Шрифт - Times New Roman – 14, междустрочный интервал 1.5, все поля страницы сверху и снизу – 2 см, справа – 2 см, слева – 2.5 см. В статью можно добавлять графические материалы – рисунки, таблицы и т.д.

### **Структура статьи:**

- в верхнем левом углу указывается УДК;
- имя и фамилия автора без сокращений на узбекском, русском и английском языках по правому краю;
- название города, организации;
- название научной статьи на узбекском, русском и английском языках;
- после названия статьи - аннотация, ключевые слова на трех языках;
- список источников и литературы размещается в конце текста.

# **YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**7**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.

Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.

Nashriyot hisob tabog‘i 18, Adadi 25. Buyurtma № 7

Bahosi kelishuv asosida

OOO «KLASSIC PRINT» MCHJ MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,

Chilonzor ko‘chasi 19, 28-uy